



Жасур АБДУҚОДИРОВ,
Термиз давлат университети академик лицейи катта ўқитувчиси
E-mail: aabdusamatov912@gmail.com

ТерДУ ўқитувчиси, (PhD) Ҳ.Джумаева тақризи асосида

FORMATION OF QUALITIES REQUIRED FOR SOLVING NON-STANDARD PROBLEMS IN PHYSICS IN STUDENTS OF GENERAL SECONDARY EDUCATION SCHOOLS

Abstract

This article discusses the essential, purposeful introduction of methodical innovations aimed at solving non-standard problems related to the Optics department of physics at the students of general secondary schools. The state educational standard of general secondary schools is systematic, meeting the qualification requirements.

Key words: innovation, state educational standard, qualification requirements, optics, education of non-standard issues.

ФОРМИРОВАНИЕ КАЧЕСТВ, НЕОБХОДИМЫХ ДЛЯ РЕШЕНИЯ НЕСТАНДАРТНЫХ ЗАДАЧ ПО ФИЗИКЕ У УЧАЩИХСЯ ОБЩЕОБРАЗОВАТЕЛЬНОЙ ШКОЛЫ

Аннотация

В статье рассматривается необходимость целенаправленного внедрения методических новшеств, направленных на решение нестандартных задач, связанных с оптическим отделением физики, у учащихся общеобразовательных школ. Государственный образовательный стандарт общеобразовательной школы является системным, отвечающим квалификационным требованиям.

Ключевые слова: инновации, государственный образовательный стандарт, квалификационные требования, оптика, образование нестандартных вопросов.

УМУМИЙ ЎРТА ТАЪЛИМ МАКТАБЛАРИ ЎҚУВЧИЛАРИДА ФИЗИКА ФАНИДАН НОСТАНДАРТ МАСАЛАЛАРНИ ЕЧИШ УЧУН ТАЛАБ ЭТИЛАДИГАН СИФАТЛАРНИ ШАКЛЛАНТИРИШ

Аннотация

Мазкур мақолада Умумий ўрта таълим мактаблари ўқувчиларида физика фани Оптика бўлимига доир ностандарт масалаларни ечишга қаратилган методик инновацияларнинг моҳияти, мақсадли жорий этилиши ҳақида фикр юритилган. Умумий ўрта таълим мактабларининг давлат таълим стандарти малака талабларига жавоб берадиган, тизимли.

Калит сўзлар: инновация, давлат таълим стандарти, малака талаблари, оптика, ностандарт масалаларнинг таълим.

Кириш. Ўзбекистон Республикасининг Умумий ўрта таълим Давлат стандартлари томонидан қўйилган, шунингдек, жамоатчиликнинг ижтимоий буюртмаси сифатида умумтаълим муассасаларида ташкил этиладиган ўқув жараёнларининг сифат ва самарадорлигига қўйиладиган талабларга қўра, бугунги давр ўқувчиси:

-ўрганилган маълумотларни эслаб қолиш ва қайта тушунтириб бериш;

-ўрганилган билимларни таниш вазиятларда қўллаб олиш;

-ўрганилган билим ва шаклланган кўникмаларни нотаниш вазиятларда қўллаб олиш ва янги билимлар ҳосил қилиш;

-мавжуд билим, кўникма ва малакаларни кундалик фаолиятда қўллаб олиш қобилияти сингари ўқув-билиш ҳаракатларини амалга ошириши лозим.

Шунингдек, мамлакатимизда таълим танқидий-таҳлилий фикрларга лаёқатли, атроф-борликни онгли равишда идрок этувчи, мустақил ижодий ҳамда инновацион фаолиятда юқори даражадаги мотивацияга, шунингдек, ўз-ўзини ривожлантириш учун юксак салоҳиятга эга бўлган шахсни тарбиялашга қаратилгандир. Бундан келиб чиқадиги, умумтаълим муассасаларидаги ўрта таълим ўқувчига фақат ахборот, маълумот кўринишидаги билимларни бериш билан чекланиб қолмасдан, уларни “ижодга ва тадқиқот йўналишидаги таълимга рағбатлантириши, ахборотларни излаб топадиган, улар асосида билим ҳосил қиладиган ва пировардида олинган билимга асосланиб ўз олдида савол қўядиган авлодни тарбиялаши” талаб этилади[1].

Мазкур талабларга жавоб берадиган таълим жараёнларини ташкил этиш учун, асосан, ўқувчидан ижодий қобилият, мустақил фикрлаш, мушоҳада, кенг дунёқараш, тахайюл, тасаввур, мантикий тафаккур талаб қиладиган ўқув фанларида, бизнинг назаримизда, кенгрок шароит мавжуд. Хусусан, умумтаълим мактабларида физика фанини ўқитишда ностандарт масалалар ечиш юқорида санаб ўтилган натижаларга эришишнинг энг мақбул йўлидир

Мавзуга оид адабиётлар таҳлили. Модомики, физика (оптика бўлими) бўйича ностандарт масалаларни ечиш ўқувчининг эвристик қобилиятини ва ўқув-билиш фаоллигини ривожлантирувчи энг муҳим омиллардан бири экан, демак айтишимиз мумкинки, физика (оптика бўлими) бўйича ностандарт масалалар ечиш амалиёти замонавий таълим тизимининг энг муҳим вазифаларини ҳал этувчи энг асосий восита ҳамдир. Шу ўринда савол туғилади: хўш, ўқувчиларда физика (оптика бўлими) бўйича ностандарт масалаларни ечиш учун зарур бўлган таълимий, шахсий ва интеллектуал фазилатларни шакллантириш учун қандай вазифаларни бажариш лозим ёки мазкур вазифаларни бажариш учун ўқитувчи дарс жараёнини қандай ташкил этиши керак?

Биз бундан олдинги параграфдаги мулоҳазаларимизда физика (оптика бўлими) бўйича ностандарт масалаларни ечиш учун айнан қандай таълимий, шахсий ва интеллектуал хусусиятлар зарур бўлиши ҳақидаги фикрларга муфассал тўхталган эдик. Бу параграфда эса мазкур сифатлар (хусусиятлар)ни шакллантириш учун

амалга оширилиши лозим бўлган ишларга оид мулоҳазаларга кенгрок ўрин берамиз.

Ўқувчи ўз-ўзини ривожлантиришнинг муайян босқичларидан ўтгач, ўзида ижодий қобилият пайдо бўла бошлаганини ҳис қилади. Ижодий қобилият кўплаб маҳорат, кўникма, қобилиятларнинг тизимлашган йиғиндиси сифатида шакллана боради ва аниқ бир ҳаётий (ёки таълимий) вазиятга қаратилган ёндашувларда аниқ аломатларга эга бўлган маҳорат кўринишида намоён бўлади[2].

Ижодий қобилият феноменини мустақил фикрлар билан адаштирмаслик учун биз мулоҳазаларимиз муқаддимасида турли давр мутахассисларининг мазкур тушунчага берган таърифлари орасидан тадқиқотларимиз мавзусига мазмунан ва моҳиятан яқин бўлганларини умумлаштириб, физика (оптика бўлими) бўйича ностандарт масалаларни ҳал этиш учун зарур бўладиган ижодий қобилиятнинг тавсифни келтириб ўтаемиз.

Ижод – инсон фаоллиги ва мустақил фаолиятининг олий даражада намоён бўлиш шаклидир. Ижод учун хос бўлган фаолиятнинг схемаси мутахассислар томонидан қуйидаги кўринишда тасвир этилади: “ахтараман – топиш учун ноандазавий (ноанъанавий) ёндашаман, ўйлайман – ҳар ёқлама фикрлайман – ҳал этаман, ўз-ўзимни ривожлантираман – ўзгараман – ўзгартираман”[2]. Бундан келиб чиқиб, айтиш мумкинки, ижодий фаолиятнинг пировард маҳсули ўрганилаётган объектнинг хоссаларини мақсадли ўзгартиришдан иборатдир. Яъни:

-ўрганилаётган ҳодиса (объект) моҳиятининг янги жиҳатларини очиш;

-объектга оид янги мулоҳазалар ва қарашларнинг пайдо бўлишига замин яратиш;

-ижодий фаолият натижасининг объект ҳақидаги тасаввурларнинг ўзгаришини таъминлаши[3].

Таҳлил ва натижалар. Биз ушбу ўринда физика (оптика бўлими) бўйича ностандарт масалаларни ҳал этишда зарур бўладиган ижодий қобилиятнинг таркибий қисми ҳисобланган энг муҳим хусусиятларнинг шаклланиш жараёнига оид мулоҳазаларга тўхталиб ўтаемиз. Мутахассисларнинг фикрича[4] ижодкорлик, яъни ижодий қобилият ўз таркибига қуйидаги хусусиятларни мужассам этади:

-таҳлил этиш маҳорати (ностандарт масаланинг шартли ва талабларини англаб етиш);

-умумлаштириш билиш маҳорати (оптика бўлимига оид ўз билимларининг ҳал этилаётган масалага доир қисмларини бир фарз ёки тахминга қаратган ҳолда умумлаштириш);

-натижани кўра билиш маҳорати (илгари сурган тахмин ёки фарзни тасдиқлаш ёки инкор этишга оид асосларга эга бўлган ҳолда масала ечимига киришиш)[5].

Биз физика (оптика бўлими) бўйича ностандарт масалалар ечиш учун зарур бўладиган энг муҳим сифатлардан бири саналган ижодий қобилиятнинг таркибий қисми бўлган хусусиятлардан ҳар бирининг шаклланиш жараёнига алоҳида эътибор қаратишни мақсадга мувофиқ деб ҳисоблаймиз.

Таҳлил эта билиш маҳоратини ўрганар эканмиз, ностандарт масалани

ҳал этишга қаратилган таҳлилнинг муайян мақсадли кетма-кетлиги бўлиши шарт деган фикрдамиз. Бизнинг назаримизда ностандарт масалалар ечимига қаратилган таҳлил қуйидаги кетма-кетликда амалга оширилиши лозим:

-масала таркибига киритилган тушунчалар, атамалар, сўзларнинг таҳлили;

-ностандарт масала шартлари ва талабларига оид мавжуд ахборотлар таҳлили (ушбу таҳлил ўқувчиларнинг ўқитувчи саволларига жавоблари ёки ўқувчиларнинг

ўзларида пайдо бўлган саволлар кўринишида бўлиши мумкин);

-ностандарт масала ечими учун зарур бўлган ўқув материаллари ва қўшимча манбалар таҳлили (оптика қонунлари, мавзу доирасида қўлланилган тушунчалар);

-ностандарт масаланинг ечиш усуллари таҳлили.

Мазкур кетма-кетликда дастлаб энг оддий объектларнинг таҳлилига киришилганлигини, кейин эса таҳлил объектлари маромли тарзда мураккаблаша бораётганлигига эътибор қаратишимиз муҳимдир.

Мутахассисларнинг фикрича[6], таҳлил юқоридаги кетма-кетликда амалга оширилса, таҳлил қилиш маҳоратининг шаклланиш жараёни самаралироқ кечади ва унинг натижаси ҳам маҳсулдорроқ бўлади, яъни бир ўрганиш объектига қаратилган таҳлил муваффақиятли якунлангач, навбатдаги мураккаброқ объектнинг таҳлилига киришилади. Биз бу кетма-кетликни шартли равишда “таҳлилга ўрганишнинг даражалари” деб аташимиз мантиққа зид бўлмайди.

Ҳамоноки, ўқувчида таҳлил эта билиш маҳоратини шакллантириш физика (оптика бўлими) бўйича ностандарт масалаларни ечишнинг энг муҳим шартларидан бири экан, биз юқорида келтириб ўтганимиз “таҳлилга ўрганишнинг даражалари”га мувофиқ равишда бу жараёни амалга оширишнинг усуллари хусусида манбаларга асосланган мулоҳазаларимизни баён қиламиз. Ўқувчида физика (оптика бўлими) бўйича ностандарт масалаларни ҳал этиш учун зарур бўладиган ижодий қобилиятнинг энг асосий таркибий қисми ҳисобланган таҳлил эта билиш маҳоратини шакллантириш учун унда тузилмавий кўриш сифатининг шаклланишини таъминлайдиган замин яратиш лозим[7]. Унга кўра, ўқувчида таҳлил эта билиш маҳоратига қизиқишни дарс машғулотларининг энг биринчи соатларидан бошлаш лозим: деярли ҳар бир мавзуда учрайдиган оптикага оид тушунчаларнинг нега тез-тез такрорланиш сабабларини ўқувчининг ўзи англай бориши учун таълимий муҳит яратилиши керак. Масалан, “Нур” тушунчасининг туб моҳияти мавзудан мавзуга ўтиш асносида кенгайиб бораётганини ва у оптика бўйича ўрганилган дастлабки мавзудаги таълимига нисбатан анча мураккаброқ эканлигини ўқувчи ўзи мустақил равишда идрок этиши учун шароит ҳосил бўла бориши керак. Айнан шундай таълимий шароит ва педагогик муҳитда мунтазам ва мақсадли равишда ташкил этиладиган тизимли дарс машғулотларининг муайян босқичида ўқувчи аниқ бир оптик тушунча ёки оптика қонуниятларининг туб моҳиятини, уларнинг фанга киритилишидан кўзда тутилган бош мақсадларни тизимли равишда кўра билиш кўникмасига эга бўлади.

Таҳлил объектини тузилмавий равишда кўра билишга асосланган ёндашув “дарсдан – дарсга” тартибига мувофиқ мустахкамланиб бориши лозим ва алаоқибат мазкур ёндашув ўқувчида таҳлил этиш хусусиятининг кўникмага айланишини таъминлайди.

Таҳлил, ўқувчининг ностандарт масалани ҳал учун эга бўлиши талаб этиладиган ижодий қобилиятнинг энг муҳим компоненти сифатида бир неча психологик хатти-ҳаракатлар ва амалларни ўз ичига олади:

-тақдим этилган масала билан (яъни таҳлил объекти билан) танишиш;

-таҳлил объектнинг алоҳида ташкил этувчиларини муфассал ўрганиб чиқиш;

-таҳлил объектини ташкил этган ҳар бир элементнинг моҳиятини аниқлаштириш;

-умумлаштириш ва талқин (тахмин, фарз)ни илгари суриш.

Модомики, биз ўқувчида тузилмавий кўриш хусусиятининг “дарсдан дарсга” тартибига мувофиқ, таҳлил кўникмасига эга бўла бориш жараёнининг кечиш

усуллари ҳақида гапирмоқчи эканмиз, дастлаб “тузилмавий кўриш” тушунчасининг моҳиятини аниқлаштириб олишимиз зарур бўлади.

Мазкур тушунча “тузилма” сўзининг туб моҳиятини ўзида мужассам этиб, таҳлил объектини ҳосил қилувчи бирламчи элементларни алоҳида кўринишда ажратиб олиб, уларнинг ҳар бири замиридаги туб моҳиятни ўрганишга қаратилади. Масалан, ўқитувчи “Нурнинг синиш бурчаги деганда нимани тушунамиз?”, “Кўриш қандай содир бўлади?”, “Нега бизга моддий объектлар турли хил шаклда кўринади?” каби кизғин баҳс-мунозараларга мавзу бўладиган саволни ўртага ташлаши ва ҳар бир ўқувчининг мазкур баҳс-мунозараларда иштирок этиш фаоллигини қузатиб бориши, аини вақтда жараёни мувофиқлаштириб бориши лозим. Ушбу ўринда тузилмавий кўриш қобилиятини шакллантиришга қаратилган ёндашув шундан иборатки, ўқитувчи ўртага ташлаган саволни кичик деталлар шаклида ҳавола этиши зарур: масалан, “Нурнинг синиш бурчаги” тушунчасини ҳосил қилувчи учта сўз замиридаги туб маънони грамматик, лисоний ва физика (оптика бўлими) нуктаи назаридан аниқлаштиришга қаратилган тахминлар илгари сурилиши учун шарт-шароит яратади. Ушбу мисолимизда “Нурнинг синиш бурчаги” оптика бўлимига оид тушунча сифатида таҳлил объекти бўлиб, уни ҳосил қилувчи элементлар (“Нур”, “синиш”, “бурчак” сўзлари)нинг моҳияти аниқ схемага таянилган ҳолда ойдинлаштирилади. Мазкур схема қуйидаги кўринишда бўлиши кутилган самарани беради:

-таҳлил объектини ҳосил қилувчи элементларнинг (бизнинг мисолимизда “Нур”, “синиш”, “бурчак” сўзларининг) грамматик, лисоний ва оптикавий маънолари ўрганилади;

-таҳлил объектини ҳосил этувчи элементларнинг моҳиятини ифодалай оладиган муқобил вариантлар таклиф этилади (яъни мазкур сўзларни яна қандай атама билан тавсиф этиш мумкинлиги);

-таҳлил объектини ҳосил этувчи элементлар орасида оптика бўлимига оид тушунча ёки атама

даражасидагилари ажратиб олинади (бизнинг мисолимизда ҳар учта сўз ҳам оптик атамадир);

-таҳлил объектининг элементлари оптика бўлимининг ўрганилаётган мавзусини ўрганишдаги аҳамият даражасига қараб таснифланади (яъни санаб ўтилган учта сўзнинг қайси бири муҳимроқ эканлиги);

-таҳлил натижалари умумлаштирилади.

Юқорида келтириб ўтилган тартиб асосида физика (оптика бўлими) бўйича ностандарт масала ечиш давомида масаланинг шартлари ва мақсадларини аниқлаштиришга қаратилган таҳлил амалга оширилади: бу жараёнда ўқувчиларнинг ҳар бирининг тахмин ва фаразлари ўқитувчи томонидан рефлексив тарзда қабул қилиниши муҳимдир.

Хулоса ва таклифлар. Мақоламиз давомида физика (оптика бўлими) бўйича ностандарт масалалар ечиш ўқувчиларда эвристик қобилият ва ўқув-билиш фаоллигини ошириши ҳақидаги мулоҳазаларга етарлича тўхтаб ўтилди. Аммо мазкур бобдаги асосий саволлардан бири, яъни физика (оптика бўлими) бўйича ностандарт масалалар ечиш амалиётини эвристик муҳит ва юксак даражадаги ўқув-билиш фаоллигига эга бўлган ўқув муассасаларида жорий этиш керакми ёки айнан физика (оптика бўлими) бўйича ностандарт масалалар ечишни жорий этиш орқали ўқувчилардаги мазкур қобилият ва сифатларни ривожлантириш керакми эканлиги ҳақидаги савол атрофида манбаларга ва муаллифнинг шахсий тажрибаларига асосланган мулоҳазалар юритилди. Пировард шундай хулосага келиндики, дастлаб физика (оптика бўлими) бўйича ностандарт масалалар ечиш учун ўқувчига зарур бўладиган ўқув-билиш хусусиятлари, сифатлар ва қўллаб қобилиятларни шакллантириш тавсия этилади. Яъни физика фани ўқитувчиси ўқувчини “дарсдан дарсга” тартиби асосида изчил ва мақсадли равишда “тайёрлаб бориши” мақсадга мувофиқдир. Айнан шу масала бизнинг мақоламиз доирасида кўзда тутилган муҳим масалалардан биридир.

АДАБИЁТЛАР

1. Лернер И. Я. Учебные умения. — М.: Просвещение, 1984. — (Проблемы школьного учебника; вып. 12).
2. Лихтарников Л. М. Элементарное введение в функциональные уравнения. — СПб.: Лань, 1997.
3. Лук А. Н. Психология творчества. — М.: Наука, 1978.
4. Менчинская Н. А. Проблемы умения и умственного развития школьника // Избранные психологические труды. — М.: Педагогика, 1989.
5. Моляко В. А. Психология решения школьниками творческих задач. — Киев, 1983.
6. Лернер И. Я. Развитие мышления учащихся в процессе обучения истории. — М.: Просвещение,
7. Платонов К. К. Структура и развитие личности / Отв. ред. А. Д. Глоточкин. — М.: Наука, 1986.



Nigorakhon ALIMKHANOVA,
Teacher of Uzbekistan State World Languages University

Reviewer: B.S. Abdullayeva, Doctor of Pedagogical Sciences, Professor, TSPU named after Nizami

IMPROVING THE TEACHING OF SCIENTIFIC PEDAGOGICAL CREATIVITY OF EASTERN THINKERS

Abstract

The article studies the achievements of scientists, educators and philosophers of Central Asia in the pedagogical process. An attempt was made in the work to analyze the development of pedagogical thought on the basis of literary works and philosophical treatises, to identify the significance and influence of pedagogical thought of past years on modern pedagogy.

Key words: Pedagogical process, pedagogical thought, literary works, pedagogical creativity.

СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ ПРЕПОДАВАНИЯ НАУЧНО-ПЕДАГОГИЧЕСКОГО ТВОРЧЕСТВА ВОСТОЧНЫХ МЫСЛИТЕЛЕЙ.

Аннотация

В данной статье рассматриваются достижения среднеазиатских ученых, педагогов и философов в педагогическом процессе. В данной работе предпринята попытка проанализировать развитие педагогической мысли на основе литературных произведений и философских трактатов, определить значение педагогической мысли прошлых лет и ее влияние на современную педагогику.

Ключевые слова: Педагогический процесс, педагогическая мысль, литературные произведения, педагогическое творчество.

SHARQ MUTAFAKKIRLARINING ILMIY PEDAGOGIK IJODINI O'QITISHNI TAKOMILLASHTIRISH

Annotatsiya

Ushbu maqolada O'rta Osiyo olimlari, pedagoglari va faylasuflarining pedagogik jarayondagi yutuqlari o'rganiladi. Mazkur ishda pedagogik fikr taraqqiyotini adabiy asarlar va falsafiy risolalar asosida tahlil qilishga, o'tgan yillardagi pedagogik fikrning ahamiyati va zamonaviy pedagogikaga ta'sirini aniqlashga harakat qilindi.

Kalit so'zlar: Pedagogik jarayon, pedagogik fikr, adabiy asarlar, pedagogik ijod.

Introduction. The Uzbek people have a rich heritage of education created during their long history. In addition, he has accumulated a unique experience of forming universal human qualities such as humanity, humility, hard work, friendship, faith, kindness, and decency in generations. We know that spiritual and moral qualities never arise by themselves, but there is a real source of the origin of the ulama, the reasons that gave rise to them and the forces that move them. After all, any moral rules arise as a result of certain historical necessity and develop on the basis of certain laws. It should be emphasized that the views of Eastern thinkers on education had a great influence on the formation of this experience.

It is known that Central Asia has become one of the centers of new philosophical and scientific knowledge in the Islamic world. The great scholars and thinkers who came out of this place made a great contribution to the formation and development of philosophy and science. In particular, in their scientific heritage, we can see many examples of the integration of knowledge, the interdisciplinary approach, which is the basis of modern scientific technologies.

Discussions and analysis. Such integration is reflected in mathematics, music, architecture, and art. Farobi is a great thinker who realized the idea of integrating mathematics with other sciences in the Middle Ages in Central Asia. In contrast to Aristotle, Faroby admits that the possibilities of applying mathematical methods are unlimited. This idea of the great scientist was a great phenomenon not only in the development of mathematics, but also in the development of the scientific system. Also, Farobi proves in practice the methods of wider application of this idea. For example, a scientist for the first time in science studies musical (oscillating) phenomena using mathematical methods.

The peoples of Central Asia, having a long and rich history, have created their rich educational heritage and brought up young people in the spirit of universal human qualities such as humanity, science, kindness, hard work, friendship to people and nature, and generosity. In fact, the priceless cultural heritage left by our ancestors is the core of our national spirituality. Therefore, it is appropriate to use it widely for the education and training of our youth today. Because, "The heritage left by our ancestors is a source of strength and dedication not only for the past, but also for the future of our nation" [2]. Every nation has educational traditions, which serve as the basis for the development of pedagogical thinking and express ideas and views about child education. As we said above, every parent wants their children to become perfect human beings, they think that their children will achieve the dreams and hopes that they have not been able to achieve. They rejoice at every achievement of the children, and worry about their defeat. Seeing their children happy is the happiest moment for them. For this, they spend all their energy on them.

Witness the fact that in the past, our great scholars taught high-level spirituality and morals, expressed their views on the Motherland, people's perspective, prosperous life, honest work, scientific development, human work, and reasonable attitude to the environment. let's

Ahmed Yassavi can be included in the list of such eternal scholars. It is clear from the conducted researches that Khoja Ahmed Yassavi, with his spiritual and moral views, was able to make an incomparable contribution to the science of pedagogy even today. "According to Khwaja Ahmed Yassavi's point of view, deceit and concealment of sins is betrayal of others. With these thoughts, Khwaja Ahmad Yassavi promotes truthfulness, honesty, and self-reliance. A person who works hard is patient and tolerant. , puts forward the opinion that he

will be willing. Vigilance encourages a person to act actively. The wisdom of Khoja Ahmed Yassavi encourages the reader to be alert, active, and avoid intrigues and corrupt deeds" [3:10]. That is why it is appropriate to use them widely in the educational process.

Another great scholar is Burkhaniddiy Marginani. In Burkhaniddiy Marginani's views on moral and legal education, the ideas of religion, faith, conscience, duty, and humanity served as the main means of comprehensive and harmonious development of the individual. From this point of view, in the views of Burkhaniddiy Marginani, a major representative of Islamic teachings who lived in the 21st century, on moral and legal education, the main features of freedom, humanity, hard work, faith, honesty, moral purity, justice, brotherhood, knowledge, and independent thinking are occupies the rin [4:9]. Alloma Marginani made a significant contribution to the development of the spirituality of our people, the development of the culture of the Muslim world, and the development of social and pedagogical thought with his ethical and legal views.

Consider it an inheritance to teach your child manners and skills. Whether you teach him manners or not, the hardships of life will teach him. They say that if the parents do not educate him, he will educate him day and night [5].

Knowledge of educational methods and means of inculcating the ideas, views, and ideas of Eastern thinkers in the creative activity of Eastern thinkers into the mind of the young generation, and their correct use in life is one of the important features of the pedagogical skills of teachers in the educational process. In the following years, the interest in the topic of ethics has increased significantly. Because after we gained national independence, the need to study our historical and cultural heritage, and the growing interest of our people to know the moral ideas in the content of our national, religious and spiritual values.

The IX-XV century, known as the Eastern Renaissance, was the highest and richest period of the spiritual culture of Central Asia. In this period, the two directions of science (the first) are natural sciences for man, which he can understand with the eyes of the mind. acquired, (the second) these sciences are learned by man by imitating (other) people, based on them are the laws of Sharia. The foundation of these sciences is the guidance given by Allah and His Messenger in advance in the Qur'an and Sunnah[1].

During this period, the center for raising Eastern culture to the level of universal value "Ma'mun Academy" (IX century, Baghdad, "Baytul Hikma") was established. In the activities of the scientific creators of the Academy, the material and spiritual culture of the peoples of the Near and Middle East was merged into a special multifaceted mixture of the current Central Asian culture. Muhammad ibn Musa al-Khwarizmi (780-850), Ahmad al-Farghani (247-861), Ahmad ibn Abdullah al-Marwazi (IX century), Abu Nasr Farabi (870-950), Abu Ali Ibn Sina (980 -1037), Abu Rayhan Beruni (973-1050) and others had great services.

Contributions of Eastern thinkers to the field of spiritual culture are extremely rich and are characterized by the fact that they cover all directions of values. They are:

- values related to the formation of intellectual culture;
- moral and spiritual values;
- socio-political values;
- artistic and elegant values;
- expressed in the form of religious values.

Philosophical thoughts about human qualities are of great importance in the study of Farabi's pedagogical views and teaching on education. In his philosophical views, Farabi attaches importance to studying the structure, psyche, cultural and spiritual world of a person. In his teaching, it is shown that man has abilities and strength, mental strength, intelligence and speech that are not found in all other bodies,

and this power distinguishes him from other bodies in nature and gives him the opportunity to rule over him.

In this worldview, Farabi pays special attention to mental processes that serve to know things and enrich the human mind with knowledge, making it knowledgeable and enlightened. In his many treatises, such as "On the Attainment of Happiness", "Classification of Sciences", "What You Need to Know Before Studying Philosophy", "The Virtue of Sciences and Arts", the spiritual development of a person is science. - emphasizes that it depends on enlightenment.

Abu Rayhan Beruni emphasizes that knowledge is the key to learning universal values. An enlightened person is a fighter for the fate of society, the fate of people, and is far from all evil. "The benefit of science is not to collect gold and silver greedily, but to acquire things necessary for man through it" [3].

In general, Abu Rayhan Beruni, as a great supporter and fan of science, believed that the prosperity of the country lies in the flowering of science, and the happiness of a person lies in his knowledge and enlightenment. In the works he created, he gave examples of poems and wisdoms about education, through which every person strives for goodness according to the dictates of his heart, and does not show kindness and honor to gain artificial prestige and fame. states that it is necessary.

Eastern thinkers paid special attention to the place and role of the community in ensuring the perfection of the individual. In particular, Abu Ali ibn Sina highly appreciates the role of the social environment in the formation of personality. It emphasizes that the external environment and people have a significant impact not only on the understanding of the essence of human being, the changes and processes that take place in it, but also on the formation of good and bad qualities in his behavior, therefore, in raising children, it is emphasized to take into account the characteristics of the microenvironment to which he belongs. Shows the need to protect the child from bad influences.

Also, the expert emphasizes the expediency of imparting knowledge to children on a team basis in order to ensure the effectiveness of teaching.

According to Abu Nasr Farabi, a person has a need to relate to others, to feel their help and support. He believes that practical actions to satisfy this need will lead a person to perfection. Abu Rayhan Beruni, on the other hand, in the development of a person, mutual assistance, cooperation, and goodwill towards people determine his role and place in the social environment.

Eastern thinkers gave a special place to the issues of knowledge and human intellectual thinking in their works. In particular, Abu Nasr Farabi evaluates the role of science as a decisive factor in human understanding of existence, understanding of the secrets of nature. According to Alloma, a person's body, brain, sensory organs are present when he is born, but his mental knowledge, spirituality, psyche, intellectual and moral qualities, character, religion, customs, and education are the external world. is formed under the influence of the social environment, in the process of establishing relationships with people.

According to Abu Nasr Farabi, human mind and thought are the product of his spiritual growth. As a person acquires knowledge, he can acquire information up to the history of the creation of living beings, creates them, and scientifically substantiates them. Abu Rayhan Beruni, continuing these thoughts of Allama, puts forward the following: "A person does not only acquire knowledge about the external qualities and characteristics of things and events, but due to his thinking and reason, he compares things and events, compares them with each other, and uses his knowledge determines the truth". The thinker also says that the assimilation of knowledge by people leads to the creation

of new knowledge: "There are many sciences. Their time is auspicious, and when different thoughts and memories join them, they increase. The fact that people encourage science and respect science and intellectuals is a sign of that fortune. Especially, the respect of the intelligentsia by the ruling people is the reason for the increase of various sciences.

In his works, Abu Ali ibn Sina, while commenting on the concept of knowledge, notes that the deep assimilation of knowledge is wisdom: "Science is the study of things with the help of the human mind. And knowledge means understanding things. This is something that the human mind must achieve before it falls into error and error. Bordiyu, if these proofs are clear, if the proofs are real, then it is not called wisdom.

Yusuf Khos Hajib's work "Qutadqu bilig" ("Knowledge that leads to happiness") is, so to speak, an encyclopedia about the essence of knowledge, its importance in social life, its role in ensuring human perfection, and the fact that it is a tool that eliminates writing. According to Allama, being educated is a pledge that ensures the celebration of good deeds, with the help of which the path to heaven is opened:

All virtues are due to the pleasure of knowledge.

Thanks to knowledge, as if the path to the blue is found.

How right the Allama was when he expressed these thoughts. After all, nine to ten centuries later, man was able not only to fly to the sky, but also to conquer the universe.

In the Bahavuddin Naqshbandi sect, directing the power of sainthood to goodness and the development of

knowledge occupies a leading place. Therefore, knowledge is the way to get rid of tyranny and heresy. The ideas of "Khilvat dar anjuman" and "Safar dar vatan" put forward by Alloma indicate the feasibility of acquiring existing knowledge through conversation and practice. After all, the knowledge that is born in debates and continuous research becomes thorough and solid.

Alisher Navoi emphasizes the need for consistent and continuous acquisition of knowledge. Also, the fact that learning science is a hard work, and you have to overcome some difficulties in learning it, it means that you can get perfect knowledge only by being resistant, satisfied, and patient on this way.

Conclusions. As we can see from the above comments, medieval thinkers have great merits in the integration of knowledge. Their difference and success from Chinese and especially Indian mathematicians is that the inductive method is widely used in their work [8]. Musical phenomena, poetry, and mathematics are researched by Farabi. The ideas of mathematics are combined with architecture, geometry and aesthetic art. This combination leads to the creation of unique ornamental art, girihs. The integration of knowledge in the work of thinkers raised the development of modern sciences to a new level. Therefore, we consider it one of the tasks before our scientists to study the examples of interdisciplinary approach created in the scientific work of our thinkers.

REFERENCES

1. Butabayeva N.P. From the history of pedagogical thought of the East Tashkent 2010
2. Asyaeva T.N. Pedagogical views of thinkers of Central Asia.
3. Bulgakov P.G Life works Beruni Tashkent "Fan" 1972
4. Beruni. The Science of the Stars. P. 21.
5. Gafurov B. Kasimdzhonov A. Al-Farabi in the history of culture. "Science" 1975 With. 181.
6. Davlentshin M.G. Psychological foundations of moral education. Tashkent, 1975
7. Izmailov A.E. folk pedagogy. "Pedagogy", 1991
8. Nasyrov A. List of works of Beruni - Great scientist of the Middle Ages Tashkent, 1950.
9. Nurutdinov Z.G. Pedagogical ideas of Abu Raykhan Beruni. Tashkent, "Fan" 1989.
10. Rakhimov S.R. Pedagogical ideas of Abu Ali ibn Sina. Abstract Dis K. P. N. Tashkent 1964
11. Senigov I. People's views on teaching and education. "Pedagogy" 1991.
12. Sharipov A. Great thinker Beruni. Tashkent, "Uzbekistan" 1972.
13. Ternovsky V. Ibn Sina (980-1037) "Science" 1980,



Nargiz ARTIKOVA,
Toshkent viloyati Chirchiq davlat pedagogika universiteti o'qituvchisi
E-mail:artikova.n@cspi.uz

PhD G'. Otamurodov taqrizi asosida

IMPROVING STUDENTS' READING LITERACY IN THE EXAMPLE OF PIRLS

Abstract

The role and importance of PIRLS research to improve students' reading comprehension and literacy is revealed. Currently, PIRLS defines reading literacy as the ability to understand and use forms of written language that are required and valued by society, as well as the ability to make meaning from texts in a variety of ways. The use of various interactive methods to improve the level of understanding of the text with the students in order to achieve temporality in research gives effective results.

Keywords: Literacy, international assessment program, PIRLS, reading literacy, mother tongue reading, writing, and mathematics.

ПОВЫШЕНИИ ЧИТАТЕЛЬСКОЙ ГРАМОТНОСТИ УЧАЩИХСЯ ПРИМЕРЕ PIRLS

Аннотация

Роль и важность исследования PIRLS для улучшения понимания прочитанного и грамотности читателей были раскрыты. В настоящее время PIRLS определяет грамотность чтения как способность понимать и использовать формы письменного языка, которые требуются обществу и ценятся людьми, а также способность извлекать смысл из текстов в различных формах. Использование различных интерактивных методов для повышения уровня понимания текста учащимися с целью достижения темпоральности в исследованиях дает эффективные результаты.

Ключевые слова: Грамотность, международная программа оценки, PIRLS, грамотность чтения, набор навыков чтения, письма и математики на родном языке.

O'QUVCHILARNING O'QISH SAVODXONLIGINI OSHIRISH PIRLS MISOLIDA

Annotatsiya

O'quvchilarning matnni o'qib tushunishi va savodxonligini oshirish uchun PIRLS tadqiqotining o'rni va ahamiyati yoritilgan. Hozirgi vaqtda PIRLS ta'rifi ko'ra, o'qish savodxonligi jamiyat tomonidan talab qilinadigan va inson tomonidan qadrlanadigan yozma til shakllarini tushunish va ulardan foydalanish, shuningdek, matnlardan turli shakllarda ma'no hosil qila olish qobiliyati hamdir. Tadqiqotlarda muvaffaqiyatga erishish uchun o'quvchilar bilan matnni tushunish darajasini mukammallashtirish uchun turli interfaol metodlardan foydalanish samarali natijalarni bermoqda.

Kalit so'zlar: Savodxonlik, xalqaro baholash dasturi, PIRLS, o'qish savodxonligi, ona tilida o'qish, yozish va matematik bilimlarning majmui.

Kirish. So'nggi yillarda mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlar natijasida ulkan iqtisodiy o'sish ko'rsatkichlariga erishilayotganligi barcha sohalarida malakali kadrlar va yetuk mutaxassilarga bo'lgan talabni yanada oshirmoqda. Bu o'z-o'zidan o'quvchilarimizning darslarga qiziqish xususiyatini oshirish va o'qituvchilarning har tomonlama ta'lim-tarbiyaga e'tiborini kuchaytirishni talab etadi. Yuqoridagi talablarning ta'lim tizimi uchun juda muhim ekanligi, aksariyat xorijiy davlatlardagi kabi ta'lim va fan sohaları rivojlanishini baholash va monitoring qilish orqali ta'lim sifatini oshirishga qaratilgan ilg'or tajribalarni sohaga jalb qilish kerakligini anglatadi. Ta'lim sifati va samaradorligini oshirish yo'lida xorijiy ilg'or tajribalarni o'rganish, xalqaro standartlar talablarining joriy etilishi muhim ahamiyatga ega.

Har bir o'quvchi maktabga qadam qo'yar ekan birinchi navbatda o'qishni yozishni to'g'ri talafuz qilishni o'rganadi umumiy qilib aytganda savodxonligini oshiradi. O'qish va o'qish savodxonligi yillar davomida o'zgarib, jamiyat, iqtisodiyot, madaniyat va texnologiya sohalarida o'z aksini topadi. O'qish faqat ta'limning dastlabki bosqichlarida, bolalikda o'zlashtiriladigan qobiliyat deb hisoblanmay qo'ydi. Chunki bugungi kunda bu qobiliyat shaxsning butun umri davomida turli xil katekstlarda o'z tengdoshlari va keng jamoatchilik bilan muloqot qilish asosida rivojlantirib boriladigan bilim, ko'nikma va malakalar usullar jamlanmasi sifatida ta'riflanadi. O'qish savodxonligi nafaqat ta'lim tizimida, balki boshqa sohalarida ham yutuqlarga erishish

uchun asos hisoblanadi. Birinchi navbatda o'quvchining kitob o'qish qobiliyatiga e'tibor berish, jumladan, uning ma'lumotlar tanlash, tushunish talqin qilish, va baholash tadqiqotining asosiy maqsadlaridan biri.

Maktabning 15 yoshli o'quvchilariga qaratilgan PISA tadqiqotidan farqli o'laroq, PIRLS boshlang'ich sinfni tugatgan 10 yoshli bolalarning ish faoliyatini tekshiradi. Boshqa davlatlar boshlang'ich sinfda o'qish uchun asosiy ko'nikmalarni berish orqali umrbod o'rganish uchun zamin yaratadilar. PIRLS ning maqsadlari o'qish qobiliyatiga ega bo'lish bilan cheklanmaydi. Tadqiqot o'quvchilarning o'qish ko'nikmalari (ijtimoiy kelib chiqishi, o'qish odatlari, o'qitish strategiyasi va boshqalar) bilan bog'liq ma'lumot to'playdi hamda maktab yoki sinfdagi individual va ijtimoiy sharoitlarni tushunishga yordam beradi. PIRLS xalqaro tadqiqotlariga qo'yilgan eng muhim talablardan biri qiyosiy tahlil qilish imkonini beradigan topshiriqlardan foydalanish hisoblanadi. Shu sababli topshiriqlarni shakllantirish jarayonida o'tgan yillarda foydalanilgan nazorat materiallari blokidan foydalanilgan. Shuningdek, asosiy e'tibor tadqiqot jarayonini standartlashtirishga qaratiladi. Shu sababli PIRLS tadqiqoti qat'iy belgilangan yagona instruksiya asosida amalga oshiriladi.

Savodxonlik hamma uchun tanish bo'lgan tushuncha. Savodxonlik bu asosiy kognitiv ko'nikmalarni o'zlashtirish darajasi bo'lib, ona tilida o'qish, yozish va matematik bilimlarning majmui. Ammo texnologiya va axboortlar murakkabligining rivojlanishi bilan biz uchun aniq bo'lgan

savodxonlik tushunchasi kengaymoqda. Zamonaviy inson uchun zarur bo'lgan kompetentsiyalarni tasniflashga urinayotgan xalqaro tashkilotlar raqamli, axborot va ilmiy savodxonlikning ahamiyati haqida gapirishadi. Ko'pincha bu turdagi savodxonlik bir -birini to'ldiradi. O'qish savodxonligi – shaxs o'zining bilim va salohiyatini rivojlantirish , jamiyatda o'z o'rnini topish maqsadiga erishishi yo'lida matnlarni tushunish, ulardan foydalanish, ular ustida mulohaza yuritish hamda ularga munosabat bildirish qobiliyati ham hisoblanadi. Boshlang'ich3 savodxonlik tushunchasi o'qish va yozishni dastlabki o'rganish uchun ishlatiladi. Savod o'rgatish jarayonidagi o'qish darslarining asosiy vazifasi o'quvchilarga tovush va harflarni tanishtirish ularni to'g'ri talaffuzini o'rgatish orqali bolalarda to'g'ri, ongli, ifodali o'qish ko'nikmalarini shakllantirishdan iborat. Shuningdek o'quvchilar lug'atini boyitish, bog'lanishli nutqini o'stirish, bilimni boyitish, tafakkurni shakllantirish, eshitish qabul qilish sezgisini o'stirishda ham mas'uliyatligi bilan alohida o'rin tutadi. Yuqoridagilarni hisobga olgan holda ta'lim olish imkoniyati savodxonlikka bog'liq bo'ladi. Shuning uchun muxtaram Prezidentimiz tomonidan "Uzluksiz ta'limni " rivojlantirish uchun bir qancha chora tadbirlar ko'rilmogda , yangiliklar kiritilmogda va qarorlar qabul qilinmogda. Bularning isboti sifatida xalqaro baholash tadqiqotlarini misol qilib keltirishimiz mumkin. "O'zbekiston respublikasi Xalq ta'limi tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish Konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-5712-sonli Farmonida "PISA" (The Programme for International Student Assessment) o'quvchilarni baholash xalqaro dasturi reytingida O'zbekistonning 2021 yilda birinchi 70 talikka, 2025 yilda 60 talikka va 2030 yilga kelib esa, birinchi 30 ta ilg'or mamlakatlar qatoriga kiritish ko'zda tutilgan4 . Masalan

O'qish savodxonligini baholash uchun PIRLS tadqiqoti. PIRLS (Progress in International Reading Literacy study) bu tadqiqot turi 4-sinf o'quvchilarining matnini o'qib tushunish darajalari sifatini xalqaro baholash tizimi hisoblanadi. PIRLS tadqiqotida o'quvchilarning dars vaqtida va maktabdan tashqari vaqtda o'qishni ikki turini baholaydi.

1. O'quvchilarning adabiy tajribasini baholash maqsadida o'qish.

2. Ma'lumotni o'zlashtirish va undan foydalanish maqsadida o'qish.

Hozirgi vaqtda PIRLS ta'rifiga ko'ra o'qish savodxonligi jamiyat tomonidan talab qilinadigan va inson tomonidan qadrlanadigan yozma til shakllarini tushunish va ulardan foydalanish, matnlardan turli shakllarda ma'no hosil qila olish qobiliyati ham hisoblanadi. PIRLSning eng yuqori darajasi 625 ball va undan yuqori bo'ladi. O'quvchilar matnini yaxlit tushuna oladi va matn qismlarini bir-biri bilan bog'liq holda tushunadi. Muallifning g'oyasini izohlashda o'z fikrini asoslash uchun matnga tayana oladi. Fikrimizni matn orqali izohlashimiz mumkin. O'quvchilarga matnini o'qib, mazmunini sharhlab berish , undagi uyushiq bo'laklar va umumlashtiruvchi so'zlarni topib, izohlash topshiriladi. Bir g'oz suvda suzib yurib, o'ziga o'zi maqtandi: -Olamda men kabi iqtidorli bo'lmasa kerak. Menda uch hunar: yugurish, uchish, suzish bor. Shuning uchun yer, suv, havo-uch makon meni izmimda. Bir o'zimda uch qobiliyat mujasam! G'ozning bu so'zlarini eshitib turgan Qurbaga dedi: -Birodar, muncha maqtanmasang ham bo'lar edi. Sen aytayotgan qobiliyat uch jonivorning kiyikning, baliqning, lochinlig ishidir. Yerda kiyikdek yugura olmaysan, suvda baliqdek suza olmaysan, havoda lochindek ucha olmaysan, chalachulpa uch hunarni bilguncha birini yahshi bilganing yaxshi edi.

ILOVA:Matnni diqqat bilan o'qing va quyidagi topshiriqlarni bajaring.

Savollar	Javoblar	O'quvchining balli	Qo'yilishi mumkin bo'lgan ball
1.Matn tarkibidagi umumlashtiruvchi so'zlarning ma'no mazmunini yuzaga chiqarishdagi o'rni qanday?	A. Hech qanday o'rin yo'q, umumlashtiruvchi so'zlar qatnashmasa ham matnning mazmuni o'zgarmaydi B. Umumlashtiruvchi so'z uyushiq bo'laklarni umumlashtirib atash uchun qo'llanilgan. D. Umumlashtiruvchi so'z uyushiq bo'laklarni umumlashtirgan ularni alohida ta'kidlab o'tilishiga o'zining ta'sirini ko'rsatgan.		1 BALL 2 BALL 3 BALL
2.Nima deb o'ylaysiz, g'oz va qurbaga o'zaro do'stmi yoki dushman?	A. Ha do'sti B. Yo'q do'sti emas , ular shunchaki suhbatdosh D. Ular o'zaro dushman		3ball 2 ball 0 ball
3.Agar do'st bo'sa ularning do'stligiga ishora qiluvchi vositani matn ichidan aniqlang?	(o'quvchi o'z variantini ushbu katakka yozadi)		Birodar 3 ball javobga yaqinroq biror so'zni yoki fikrni aytsa, 1ball beriladi. Agar aniqlay olmasa, 0 ball beriladi
4.Yuqorida siz topgan so'zning ma'nodoshlarini yozing	(o'quvchi o'z variantini ushbu katakka yozadi)		Do'st o'rtoq, oshna ...So'zlar soniga va mazmuniga qarab ball qo'yiladi (1- 3 ball)
5.O'zbek xalq maqollaridan ushbu matn mazmuniga mos keladigan sarlavha toping va keying katakka yozing?	(o'quvchi o'z variantini ushbu katakka yozadi)		Maqtanma g'oz hunaring oz . – 3 ball keyingi berilgan javoblar mazmuniga mos kelishi yoki kelmasligiga ko'ra 2 yoki 1 ball bilan baholanadi
6.Ushbu matndan chiqargan xulosangizni yozing.	(o'quvchi o'z variantini ushbu katakka yozadi)		Xulosa 1-3 ball oralig'ida baholanadi.

Tadqiqot metodologiyasi. O'qish savodxonligini oshirishda oldimizga qo'ygan maqsad, vazifalarni amalga oshirishda boshlang'ich ta'lim metodikasining o'ziga xosligi, milliyligi va ta'sirchanligini ifodalovchi tasvir vositasi hisoblangan she'riy san'atlar haqidagi nazariy manbalarga suyaniladi. Ishda mavzuni yoritishga bevosita yordam beradigan ilmiy manbalardan, xususan S. Matchonov, K. Qosimova, V. Ma'qulova, M.Umarova, Sh.Hakimova, X. G'ulomova, SH. Yo'ldosheva asarlaridagi nazariy va amaliy qarashlardan ijodiy foydalaniladi. Ishda an'anaviy kontekstual, kuzatish, didaktik tahlil, umumlashtirish, sintezlash, qiyoslash, tajriba-tadqiqot, matematik-statistik, o'quv dasturlarini o'rganish va tahlillash metodlariga amal qilinadi.

Tahlil va natijalar. Boshlang'ich sinf o'quvchilarida o'qish va matnni tushunish ko'nikmalarining jadal rivojlanishi maqsadga yo'naltirilgan pedagogik faoliyat mazmuni, mexanizmi va texnologiyasining puxta asoslanganligiga bog'liq. Shu bois tadqiqot doirasida nazariy tahlil va amaliy faoliyat natijalarini hisobga olgan holda boshlang'ich sinf o'quvchilarida o'qish va matnni tushunish ko'nikmalarini rivojlantirishning maqbul mexanizmi, metodikasi hamda texnologiyasi ishlab chiqildi.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarida barcha aqliy jarayonlar faol rivojlanadi. Ana shu sababli o'qish savodxonligini rivojlantirish jarayonini bosqichma-bosqich kuzatildi va unga tuzatishlar kiritib borildi.

Xulosa va takliflar. Xulosa qilib aytganda pedagoglarimiz uchun bugungi kunda juda ko'p vazifalar yuklatilgan shu jumladan pedagogik mahoratga ega bo'lishi, axborot texnologiyalaridan foydalana olishi va darsning

samaradorligini oshirish uchun turli hil metodlardan foydalana olishi kerak. Shulardan xulosa chiqargan holda o'qish savodxonligini oshirish uchun ham dars davomida PIRLS savollariga tayyorlab borishi kerak. O'qish darslarida biror bir hikoya yoki ertakni o'quvchilar o'qigandan so'ng mustaqil fikrlarini doimiy eshitib borish kerak va bu ham o'z navbatida o'quvchi agar noto'g'ri fikrlayotgan bo'lsa sinfdoshlarining to'g'ri fikrlarini eshitib o'zi uchun kerakli xulosalarni chiqaradi. Chunki har bir o'quvchining fikrlash doirasi har xil bo'ladi. Shu jumladan o'quvchilarning fikrlash doiralari rivojlanishi ya'ni o'sishi uchun badiiy kitoblarni o'qish tavsiya qilish kerak. Avvalo badiiy kitobni o'quvchilarga o'qishni tavsiya qilish ekan, o'qituvchi birinchi navbatda o'zi o'qishi kerak. Chunki u kitob shunchaki o'qilibgina qolmay uning tahlili ham bo'lishi kerak. O'qish savodxonligini oshirishda PIRLSning ahamiyati shundan iboratki, qay darajada matnni o'qib tushuna olishini, qay darajada fikrlay olishini bilib oladi va o'ziga o'xshagan chet ellik tengdoshlarining natijalarini bilib solishtiradi va yanada olg'a intilishga harakat qiladi.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarida o'qish savodxonligini rivojlantirish ko'nikmalarini rivojlantirishning innovatsion-metodik tizimini takomillashtirish maqsadga muvofiq.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarida o'qish savodxonligini rivojlantirish ko'nikmalarini rivojlantirishga doir milliy baholash topshiriqlari majmuini ishlab chiqish va keng ommalashtirish lozim.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarini o'qish savodxonligini rivojlantirishga o'rgatish bo'yicha bolalar uchun yaratilgan badiiy asarlarni ommalashtirishga jiddiy e'tibor qaratish zarur.

REFERENCES

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 29-apreldagi – O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risidagi PF-5712-sonli farmoni.
2. Xalqaro tadqiqotlarda boshlang'ich sinf o'quvchilarining o'qish savodxonligini baholash. Boshlang'ich sinf o'quvchilari, metodistlar va soha mutaxassislari uchun metodik qo'llanma. Toshkent: Sharq, 2019.
3. Akramjon O'ktamjonovich Mirzayev. Mamlakatimiz ta'lim tizimida raqamlashtirish va raqamli dunyoda o'qitish va o'rganishning mavjud imkoniyatlari. Academic Research in Educational Sciences. Volume 2 | Issue 12 | 2021. P.1046
4. Akramjon O'ktamjonovich Mirzayev. O'quvchilarning raqamli dunyoda o'rganish konsepsiyasi bo'yicha savodxonligini rivojlantirish. Scientific Progress. Volume 2. ISSUE 8 | 2021. P.832
5. Fotima Uralovna Jumanova, Nargiz Shuxratovna Artikova Pirls tadqiqotlariga tayyorlashda "organayzer" metodidan foydalanish imkoniyatlari // Academic research in educational sciences. 2021. №CSPI conference 1. URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/pirls-tadqiqotlariga-tayyorlashda-organayzer-metodidan-foydalanish-imkoniyatlari> (data obrasheniya: 17.12.2022).
6. Jumanova, F. U., & Artikova, N. S. (2021). Shaxs kamoloti va faoliyat (muloqot), ularni boshqarish ma'rifiy pedagogic muammo sifatida. Academic research in educational sciences, 2(4), 81-88.
7. Nargiz Shuxratovna, A. . (2022). Boshlang'ich sinf o'quvchilarini pirls xalqaro baholash dastur tizimini rivojlantirish. Scientific Impulse, 1(4), 1592–1594. Retrieved from <http://nauchniyimpuls.ru/index.php/ni/article/view/2071>
8. Артикова, Н. Ш. (2019). Бошлангич синф ўқувчиларини халқаро тадқиқотларда ўқиш саводхонлигини баҳолаш бўйча PIRLS дастурига. Таълимдаги инновациялар ва ислохотлар контекстида замонавий кластер тизими, 2(1), 53-55.
9. Jumanova, F. U., & Artikova, N. S. (2021). Shaxs kamoloti va faoliyat (muloqot), ularni boshqarish ma'rifiy pedagogic muammo sifatida. Academic research in educational sciences, 2(4), 81-88.



Behzod ASQAROV,
Namangan davlat universiteti tayanch doktoranti
E-mail: beek_1991@bk.ru

Pedagogika fanlar nomzodi, dotsent Sh.Ubaydullayev taqrizi asosida

PRACTICAL-TECHNOLOGICAL SYSTEM OF DEVELOPMENT OF ARTISTIC-AESTHETIC COMPETENCE OF TEACHERS OF FUTURE PRE-SCHOOL EDUCATION ORGANIZATION

Annotation

This article discusses the practical-technological system and features of developing the artistic-aesthetic competence of pedagogic staff of the future preschool educational organization.

Key words: "Aesthetic education", "artistic education", artistic work, decorative painting, carving, exhibitions, concerts.

ПРАКТИКО-ТЕХНОЛОГИЧЕСКАЯ СИСТЕМА РАЗВИТИЯ ХУДОЖЕСТВЕННО-ЭСТЕТИЧЕСКОЙ КОМПЕТЕНТНОСТИ ПЕДАГОГА БУДУЩЕГО ДОШКОЛЬНОЙ ОБРАЗОВАТЕЛЬНОЙ ОРГАНИЗАЦИИ

Аннотация

В данной статье рассматривается практико-технологическая система и особенности формирования художественно-эстетической компетентности педагогических кадров будущей дошкольной образовательной организации.

Ключевые слова: "Эстетическое воспитание", "художественное воспитание", художественное творчество, декоративная роспись, резьба, выставки, концерты.

BO'LAJAK MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTI PEDAGOG XODIMLARINING BADIY-ESTETIK KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISHNING AMALIY-TEXNOLOGIK TIZIMI

Annotatsiya

Ushbu maqolada bo'lajak maktabgacha ta'lim tashkiloti pedagog xodimlarining badiiy-estetik kompetentligini rivojlantirishning amaliy-texnologik tizimi va xususiyatlari to'g'risida fikr yuritilgan.

Kalit so'zlar: "Estetik tarbiya", "badiiy tarbiya", badiiy asar, dekorativ rangtasvir, o'ymakorlik, ko'rgazmalar, kontsertlar.

Kirish. Bugungi kunda, shaxsning badiiy va estetik rivojlanishi muammosiga qiziqish tiklanayotgan va uning zamonaviy jamiyat taraqqiyotidagi rolini tushunish kuchayib borayotgan bir paytda, ta'limni optimallashtirish uchun ilmiy va amaliy izlanishlar olib borish zarur.

Maktabgacha ta'lim muassasasida maktabgacha yoshdagi bolalarning badiiy va ijodiy faoliyatini tashkil etishga qaratilgan muammolarni hal qilish dolzarbdir, bu hozirgi vaqtda shaxsni rivojlantirish, ijodiy tashabbuskorlik, mustaqillik, shaxsiy ma'nolar dunyosini shakllantirish va amaliy jihatdan muhim hisoblanadi. Maktabgacha yoshdagi bolalarning badiiy va estetik rivojlanishining strategik yo'nalishi bolada dunyoga estetik munosabtni shakllantirishga yordam berish va dunyoqarashini uyg'unlashtirish uchun badiiy va estetik madaniyat asoslarini yo'naltirilgan va izchil shakllantirish vazifasi bilan belgilanadi.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili. Insonlar dunyoga kelib qolgan go'zallikka intiladi. Hatto eng kichik yoshdagi bolalar ham atrofidagi go'zallikni osongina payqashadi: hoh u go'zal gul bo'lsin, hoh qo'shiq bo'lsin. Ular voyaga etganida, bolalar nafaqat atrofdagi go'zallikni ko'rishga, balki uni yaratishda ishtirok etishga - plastilindan biron bir narsani yasashga, qo'shiq kuylashga, o'zlari yoqtirgan o'yinchoq chizishga intiladi.

Demak, estetik qiziishq shaxsni san'at asarlarini, tevarak-atrofdagi borliqni estetik idrok etishga va estetik faoliyatga yunaltiradi deyish mumkin. Estetik qiziqish estetik ehtiyojini yuzaga keltiradi.

"Estetik tarbiya" tushunchasi bilan bir qatorda "badiiy tarbiya" tushunchasi ham mavjuddir [1]. Badiiy tarbiya san'at asarlari orqali tarbiyalashdir. U shaxsda san'at asarlarining shakl va mazmunini estetik idrok etishni rivojlantirish, badiiy didni shakllantirish va san'atning ma'lum turlari buyicha ijodiy faoliyatni, ijrochilik qobiliyatini rivojlantirishga qaratilganidir. Uning natijasi fiksing paydo bulishida, uni

amaliy faoliyatda qo'llashda, o'z bilim va taassurotlarini qo'sha bilishda, histuyg'ulari va fikrlarini samimiyat bilan ifodalashda namoyon bo'ladi. Estetika tabiatdagi, jamiyatdagi moddiy va ma'naviy madaniyat buyumlarida aks etgan, shuningdek estetik ongning paydo bulishi, rivojlanishi va vazifasi to'g'risidagi qonuniyatlarni, obyektiv borliqni estetik bilishning muhim usullaridan biridir. Go'zallik bilan uchrashish kishida estetik his, ruhiy hayajon, begaraz quvonch uyg'otadi.

Maktabgacha yoshdagi bolalarning badiiy va estetik rivojlanishini hayot va san'atdagi go'zallikni idrok etish va baholashga qodir bo'lgan bolaning ijodiy faol shaxsini shakllantirishning maqsadli jarayoni sifatida belgilaydi. Maktabgacha ta'lim muassasamizda bolalarni badiiy-estetik tarbiyalash turli xil badiiy va ijodiy faoliyat turlarini tashkil etish va quyidagi aniq vazifalarni hal qilish orqali ijodiy shaxsni shakllantirishga qaratilgan:

Bolalarda estetik idrokni tarbiyalash.

San'at olamiga kirish.

Atrofdagi madaniy makonni o'zlashtirish va o'zgartirish qobiliyatini rivojlantirish.

Tasviriy, musiqiy va teatr faoliyatida bolalar ijodiyotini rivojlantirish.

Bolalarning kattalar bilan ijodiy o'zaro munosabati va badiiy va faol muloqoti jarayonida yorqin ijobiy histuyg'ularni shakllantirish.

Bolalar bog'chasida ijodiy shaxsni rivojlantirishning zarur sharti - bu bolalar ijodiyoti natijalariga hurmat bilan munosabatda bo'lish, ularning asarlarini maktabgacha ta'lim muassasasi hayotiga keng kiritish (ko'rgazmalar, konsertlar tashkil etish, estetik rivojlanishni yaratish, atrof-muhit). Badiiy irod bolalar bog'chasida bolalarning estetik rivojlanishining etakchi usuli bo'lib xizmat qiladi. Maktabgacha ta'lim muassasamizda maktabgacha yoshdagi bolalarning badiiy rivojlanishida asosiy vazifa - bolaning badiiy va ijodiy

faoliyatining turli xil turlari va shakllarida badiiy asarni idrok etish va mustaqil ravishda yangi obraz yaratish qobiliyatini rivojlantirish. Ijodiy faoliyatni uyg'otish, estetik jihatdan rivojlangan shaxsni shakllantirish, turli xil san'at asarlarini idrok etish ko'nikmalarini rivojlantirish pedagogik jarayonda bolalar bilan ishlashning integrativ shakllaridan foydalanish, sintez qilish orqali faol amalga oshiriladi. Turli xil badiiy va estetik faoliyat turlari. Bolalarning estetik rivojlanishi va estetik madaniyatini, bolaning shaxsiyatini rivojlantirishning zarur sharti maktabgacha ta'lim muassasalarining pedagogik ishlarida xalq amaliy san'atidan foydalanishdir. Xalq ijodiyoti bolalar dunyosiga chuqur ta'sir ko'rsatishga hissa qo'shadi, axloqiy, estetik, kognitiv ahamiyatga ega, ko'plab avlodlarning tarixiy tajribasini o'zida mujassam etgan. Dekorativ rangtasvir, o'ymakorlik ustalarining ko'plab asarlari, o'yinchoqlar yasashdagi ustalarining san'ati tushunarli va bolalarga yaqin. Bolalarni badiiy tarbiyalashda xalq amaliy san'ati asarlaridan keng foydalaniladi. O'quv-tarbiya jarayonida, bog'chaning interyerini bezashda xalq amaliy san'atining asl namunalari va zamonaviy bezak san'ati namunalari foydalanilmoqda. Xalq amaliy san'ati bilan tanishish o'qituvchilar oldida turgan eng murakkab vazifalarni – bolalarda badiiy g'oyalarni kengaytirish va rivojlantirishga xizmat qiladi. Maktabgacha ta'lim muassasamizda kutilgan natijalarni olish uchun o'zaro bog'liq tarkibiy qismlardan iborat badiiy-estetik ta'lim bo'yicha ishlar tizimi yaratilgan: ta'lim mazmunini yangilash (dastur va texnologiyalarni tanlash); estetik tarbiya uchun sharoit yaratish (kadrlar, o'quv-uslubiy ta'minot, fanni rivojlantiruvchi muhitni yaratish); o'quv jarayonini tashkil etish (bolalar va ota-onalar bilan ishlash); boshqa muassasa va tashkilotlar bilan ishlashni muvofiqlashtirish.

Tadqiqot metodologiyasi. Badiiy-estetik tarbiya bo'yicha ishlarni tashkil qilishda bolalar bog'chasi muhitidan oqilona foydalanish kerak. Atrof-muhit maktabgacha yoshdagi bolani tarbiyalash va rivojlantirishda muhim omil hisoblanadi. Maktabgacha ta'lim muassasasi binolarini jihozlash xavfsiz, sog'liqni saqlashni tejaydigan, estetik jihatdan jozibali va rivojlanayotgan bo'lishi kerak. Bolalar bog'chasida o'yinlar, o'qish, mustaqil faoliyat uchun zonalar tashkil etilishi kerak. Maktabgacha ta'lim muassasasining yo'laklari va o'tish joylari xalq amaliy san'ati buyumlari bilan bezatilgan, musiqa zali jihozlangan bo'lishi kerak. Bu erda folklor bayramlari va ko'ngilochar tadbirlarni o'tkazish, teatrlashtirilgan tomoshalar tashkil etish. Bolalar bog'chasida bolalar va kattalar uchun ko'plab teatr liboslari saqlanadigan shkaf xonasi bo'lishi kerak. Ular teatr tomoshalarida, dam olish tadbirlarida, o'yinlarda qo'llaniladi. Boshqa xonada maktabgacha yoshdagi bolalarning konsert va o'yin faoliyati uchun zarur bo'lgan barcha atributlar saqlanadi. Yurish vaqtida atrofdagi tabiat bolaning oldida eng yorqin ranglarda, tasvirlar va suratlarida fasllarga qarab asta-sekin o'zgarib turadi. Bu maktabgacha yoshdagi bolalarning e'tiborini tortadi, yoshi bilan ularning maqsadli kuzatishlari yanada murakkab va xilma-xil bo'ladi. Natijada, bolalar nafaqat tabiat go'zalligi haqidagi taassurotlarni to'playdilar, balki uning ustida ishlash oqilona bo'lsa, uning qanday o'zgarishi haqida g'oyalarni shakllantiradilar. Yosh bolalar hududdan tashqarida ekskursiyalarga olib ketilmaydi. Ular uchastka bo'ylab o'tishadi. Ushbu maqsadlar uchun mehnat ko'nikmalarini va kuzatishni rivojlantirish uchun

gulzor va gulzorlarni, sabzavot to'shaklarini yotqizish kerak. Har xil turdagi daraxtlar va butalar. Bolalar hasharotlar, yomg'ir qurtlari, qushlar, o'simliklarni tomosha qilishlari mumkin. Bularning barchasini o'yin-kulgida (masalan, "Teremok") jamlang, unda bolalar yozda pishgan sabzavotlar, mevalar va rezavorlar bilan tanishishni davom ettiradilar. Kattaroq maktabgacha yoshdagi bolalar uchun suv havzasi yonidan o'tib, ekologik yo'l yotqizilgan eng yaqin o'rmonga sayohatni tashkil qilish mumkin, bu yerda maktabgacha yoshdagi bolalar qurbaqalar va kurtaklarni kuzatish imkoniyatiga ega. O'rmonda bolalar yilning turli vaqtlarida o'simliklar, qo'ziqorinlar, hasharotlar va qushlarning hayotini o'rganadilar (qarang: "Vodiy zambaklar uchun o'rmonda", "It - eng yaxshi do'st" va boshqalar). Yozgi davrda guruhlarda darslar o'tkazilmaydi. Ammo alohida-alohida, madaniy va bo'sh vaqt tadbirlari har bir bolani dam olish, hissiy farovonlik bilan ta'minlash, o'zini egallash qobiliyatini shakllantirishga hissa qo'shish uchun tashkil etilishi kerak. Bolalarning estetik rivojlanishi uchun ularning amaliy faoliyati muhim ahamiyatga ega. Va unda badiiy faoliyat alohida o'rin tutadi. Bolalar qo'shiq va she'rlarni yaxshi ko'radilar, ular bilan to'yingan sinflarga qo'shilishga juda tayyor. Yozgi ta'tilda bolalar bayramlarini tashkil qilish kerak: "Bolalar kuni", "Rossiya mening vatanim", "Salom, yoz"! Ular o'rgatish va she'r o'qish, qo'shiq kuylash, raqsga tushish, raqsga tushishdan xursand.

Tahlil va natijalar. Ko'pchilik pedagog va psixologlarning tadqiqot ishlari bolalarning ijodiy faoliyatlarini, hissiyotlari, estetik tasavvurlarining o'ziga xos xususiyatini va ulardagi estetik tasavvur va hissiyotlarning qanday rivojlanishini ochib bergan. Bu tekshirishlar bolalardagi estetik tasavvur va issiyotlarni rivojlantirishni ulardagi ijodiy qobiliyatlarni rivojlantirish bilan birga qo'shib olish borish kerak [7], degan xulosaga olib keldi. Estetik tasavvurning o'ziga xosligi shundaki, idrokning boshqa turlariga qaraganda narsalarni his qilish shakli "ko'rinadigan" va "eshitiladigan" narsalar butunlay boshqa mazmun kasb etadi. Oddiy idrok qilishda narsalarning ko'rinishi, ohangdorligi unchalik muhim bulmay, balki uning ahamiyati muhimdir. Estetik idrok qilishda sa eng muhimi idrok qilayotgan narsaning obrazi, uning ifodali tomonlarini, nozik ranglarini ko'ra bilish talab qilinadi. Shuning uchun estetik tarbiya yuqori darajadagi sensor madaniyatni, kuzatuvchanlikning rivojlangan bo'lishini talab etadi. Kishi narsa va hodisalarga go'zallik mezoniga asoslangan holda, alohida qadr-qimmat bilan yondoshgandagina estetik kechinmalar paydo buladi. Estetik hislar fikrlash bilan bevosita bog'liqdir. Estetik kechinmalarda hap doim xayol ishtirok etadi, bu siz guzallikni idrok etish ham, ijodiy faoliyatni rivojlantirish ham mumkin emas. Xayol faoliyat jarayonida shakllanadi.

Xulosa va takliflar. Xulosa qilib aytganda, nafasat va go'zallik dunyosi shu qadar xilma-xil, rango-rang, jozibali, ehtirosli, mo'jizali, unda moddiy go'zallik bilan ma'naviy go'zallik uyg'un holda chiroy ochib turadi. Insonning nafasat olamini anglashga intilishi atrof-voqelikni anglashga intilishi bilan chambarchas bog'liqdir. Inson moddiy go'zallik dunyosini bunyod etish jarayonida ma'naviy go'zalliklarni ham kashf etib boradi, ya'ni nafasat olamining yaratilishi jarayoni uni anglash, mushohada etish jarayoni bilan uyg'unlikda sodir bo'lishini anglaydi.

ADABIYOTLAR

1. Козлова С.А., Куликова Г.А. Дошкольная педагогика Москва "Академия" 2007 г
2. Содиқова Ш.А. "Мактабгача педагогика". "Тафаккур сарчашмалари", -Т.: 2013 й
3. Махмудов М. Дидактик лойиҳалаш – замонавий таълимда самарадорлик кафолати //Образование и инновационные исследования международный научно-методический журнал. –Т.: 2020. – Т. 1. – №. 1.
4. Ивин А.А., Никифоров А.Л. Словарь по логике. – М.: Владос, 1998. – С. 55.
5. Юсупов Э. Инсон камолотининг маънавий асослари. – Т.: Университет, 1998. – Б.75-78.
6. <https://qomus.info/encyclopedia/cat-e/estetika-uz/>



Сунатилла АХАТЖОНОВ,
Наманган давлат университети тадқиқотчиси
E-mail: axatjonovsunnatilla93@mail.ru

Сиёсий фанлар доктори, профессор Р. Т. Жўраев. тақризи асосида

ON THE SOLUTIONS OF SOME PROBLEMS FACED BY LOCAL REPRESENTATIVE BODIES IN THE DEVELOPMENT OF DEMOCRATIC REFORMS IN OUR COUNTRY

Annotation

This article talks about some of the problems faced by local representative bodies in the development of democratic reforms in our country, and some comments and suggestions are given as their solutions.

Key words: Representative power, political parties, "People's deputies, regional, district, city Council, Senate, public representatives.

О РЕШЕНИИ НЕКОТОРЫХ ЗАДАЧ МЕСТНЫХ ПРЕДСТАВИТЕЛЬНЫХ ОРГАНОВ В РАЗВИТИИ ДЕМОКРАТИЧЕСКИХ РЕФОРМ В НАШЕЙ СТРАНЕ

Аннотация

В данной статье говорится о некоторых проблемах, с которыми сталкиваются местные представительные органы в развитии демократических реформ в нашей стране, и даются некоторые замечания и предложения по их решению.

Ключевые слова: Представительная власть, политические партии, «народные депутаты», областной, районный, городской Совет, Сенат, представители общественности.

МАМЛАКАТИМИЗДА ДЕМОКРАТИК ИСЛОҲОТЛАР РИВОЖИДА МАҲАЛЛИЙ ВАКИЛЛИК ОРГАНЛАРИ ОЛДИДА ТУРГАН АЙРИМ МУАММОЛАРНИНГ ЕЧИМЛАРИ ХУСУСИДА

Аннотация

Ушбу мақолада мамлакатимизда демократик ислоҳотлар ривожига маҳаллий вакиллик органлари олдида турган айрим муаммолар хусусида сўз юритилиб, уларнинг ечимлари сифатида айрим мулоҳаза ва таклифлар келтирилган

Калит сўзлар: Вакиллик ҳокимияти, сиёсий партиялар, “Халқ депутатлари вилоят, туман, шаҳар Кенгаши, Сенат, жамоатчилик вакиллари.

Кириш. Ўзбекистон мустақиллика эришгандан кейинги тарихан қисқа давр ичида миллий давлатчилик анъаналарига асосланган, демократик давлатлар тараққиёти асосида ҳар томонлама пухта ишлаб чиқилган ўз давлат бошқарувини жорий этди.

Шу жумладан, давлат бошқарувини модернизация қилишда асосий бўғинлардан бири саналган ҳудудий вакиллик органларини такомиллаштиришга ҳам жиддий эътибор қаратилди. Шундай бўлсада, бугунги кунда маҳаллий вакиллик органлари олдида баъзи муаммолар кўзга ташланмоқда.

Бугун маҳаллий бюджетни қабул қилиш, унинг ижроси назорати маҳаллий вакиллик органлари ваколатларига кирса-да, ҳудудларда бюджет ижроси ҳар чорақда кўриб чиқилмаяпти, натижада жойларда маҳаллий бюджетни ижро этишда, пул маблағларини мақсадли сарфлашда муаммолар юзага келмоқда. Ҳудудларда ҳокимларнинг ижтимоий-иқтисодий ривожланишининг энг муҳим ва долзарб масалалари юзасидан ҳисоботларини эшитиш жараёнида, ҳокимлар фаолиятига баҳо беришда, уларнинг фаолиятини такомиллаштириш бўйича тавсиялар билдиришда — вакиллик ҳокимияти органларининг қатъияти ва ташаббускорлиги етарли эмас.

Мавзуга оид адабиётларнинг таҳлили. Шуни ҳам айтиб ўтиш керакки, бугунги кунда ушбу борадаги қонунчиликда ҳам бўшлиқлар мавжуд, қонунларда ҳоким ҳисоботини эшитиш механизмлари тўлиқ тартибга солинмаган. Яъни, қонунчиликда Кенгаш ҳоким ва маҳаллий ижро ҳокимияти фаолиятини баҳолаш мезонлари, ҳоким ҳисоботини қандай ҳолларда қониқарсиз деб баҳолаш мумкинлиги, ҳоким фаолияти қониқарсиз деб топилган тақдирда унга нисбатан қандай таъсир чоралари кўриш мумкинлиги каби масалалар очик

қолган[1]. Бу масаланинг ижобий ҳал қилиниши мақсадида “Маҳаллий давлат ҳокимияти тўғрисида”ги Ўзбекистон Республикаси қонунига бир қатор ўзгаришлар киритиш, чунончи, 17-моддаси биринчи хатбошидаги “Халқ депутатлари вилоят, туман, шаҳар Кенгашининг сессиялари тегишли ҳоким, ҳоким йўқлигида эса унинг ўринбосарларидан бири томонидан заруратга қараб бироқ, йилига камида икки марта чақирилади.” деган жумлалар ўрнига “Халқ депутатлари вилоят, туман, шаҳар Кенгашининг сессиялари тегишли ҳоким, ҳоким йўқлигида эса Кенгаш котибияти томонидан заруратга қараб бироқ, йилига камида тўрт марта чақирилади” деб ўзгартiriш киритиш лозим. Сабаби шундаки, бугунги кунда ташкилий-гузилмавий жихатдан шаклланиб улгурган маҳаллий Кенгашлар котибиятлари сессия материалларини деярли ўзлари тайёрламоқдалар ҳамда котибиятлар маҳаллий Кенгашларнинг ижро органи сифатида Кенгаш манфаатларини ўзида ифода этади. Шу боисдан уларга ушбу ваколатни бериш лозим. Шунингдек, бугунги амалиётда ҳақиқий вакиллик назоратини амалга ошириш учун ҳар ойда маҳаллий Кенгашлар сессиялари ўтказишга тўғри келмоқда. Биргина Наманган вилоятидаги халқ депутатлари Чуст туман Кенгаши томонидан 2020 ҳамда 2021 йилларда, шунингдек 2022-йилнинг дастлабки тўққиз ойини қўшиб ҳисоблаганда, 100 дан ортиқ депутатлик назорати тadbирлари, доимий комиссиялар томонидан 270 дан ортиқ ўрганиш ва йиғилишлар ўтказилган бўлиб, уларда кўтарилган масалалар юзасидан депутатлик назоратини ўрнатиш мақсадида жами 49 мартта туман Кенгаши сессиялари чақирилган. Бу кўрсаткич деярли ҳар 20 кунда бир мартаба сессия чақириш зарурати пайдо бўлганлигини кўрсатади.

Халқ депутатлари маҳаллий Кенгашлари депутатларининг амалий кўникмасини ҳамда сиёсий ва ҳуқуқий онгини ошириш борасида етарлича тадбирлар ташкил этилмаяпти. Сиёсий партиялар депутатликка номзодларнинг муносибларини танлашга етарлича эътибор қаратмаяпти.

Бугунги кунда сиёсий партияларнинг электорат билан ишлаш методлари эскирган, ғоялар замон талабларига жавоб бермаяпти, мафкуравий дастаклари фуқароларни жалб қилишга заифлик қилмоқда. Партияларда кадрларнинг касбий тайёргарлиги масаласи талаб даражасида эмас. Шунингдек, уларнинг тарғибот-ташвиқот йўналишдаги фаолиятини ҳам қониқарли, деб бўлмайди. Ҳатто маҳаллий Кенгашлардаги партия гуруҳларининг ҳам фаолияти қониқарли эмас. Маҳаллий Кенгашлардаги партия гуруҳлари тегишли давлат органи раҳбарининг ўз фаолияти юзасидан ҳисоботини ёки ахборотини халқ депутатлари Кенгашининг сессияларида эшитиш ҳақида таклифлар киритиш ҳуқуқидан деярли фойдаланмайди.

Партия гуруҳлари амалдаги қонунчиликка 2007 йилда киритилган халқ депутатлари вилоятлар ва Тошкент шаҳар Кенгашларидаги партия гуруҳлари вилоят ҳамда Тошкент шаҳар ҳокими лавозимига тасдиқланган шахсларнинг қониқарсиз фаолияти тўғрисида Ўзбекистон Республикаси Президентига асосланган ҳулосалар тақдим этиш ташаббуси ҳуқуқини бугунги кунга қадар бирон марта ҳам амалга оширмаган. Партия гуруҳларининг бундай сусткашлиги сайловчиларнинг сиёсий партияларга, вакиллик органларига бўлган ишончини пасайишига олиб келмоқда.

Тадқиқот методологияси. Мамлакатнинг мустақилликка эришиши, давлат ва жамият ҳаётида ўз маромида демократик кадрларнинг қарор топиб бориши, либераллашув жараёнларининг изчиллик билан амалга ошиши мамлакатда тараққиётнинг энг муҳим институтларидан бўлган оммавий ахборот воситалари олдига ҳам мамлакат тараққиёти учун зарурий бўлган кўплаб ҳаётий зарур вазифаларни қўйди. Чунки, матбуот, ахборот воситалари демократик мамлакатнинг демократик тараққиётидаги аҳамияти юқори эканлиги, аммо ҳар доим ҳам уларнинг том маънодаги демократик ислохотлардаги фаол роли сезилмаётганлиги, уларнинг “тўртинчи ҳокимият” сифатидаги ўрни билинмаётгани ҳақида бахслар давом этмоқда. Сабаби, мамлакатдаги кенг қўламли ислохотлар оммавий ахборот воситалари олдига янгидан-янги вазифаларни қўйиши, матбуотнинг аҳолида янгича тафаккур ва онгни шакллантиришда таъсирчан куrolга айланиши, кишиларнинг фикр ва хоҳиш-иродасининг эркин, аммо холис ифодачиси бўлиши лозимлиги кун тартибидаги муҳим масалалардан бири бўлиб қолаётганлиги маълум. Шунинг учун ҳам, оммавий ахборот воситалари ўз хизмат вазифаларини суъистемол қиладиган давлат хизматчиларининг йўлида мустаҳкам ғов бўлиши, халқдаги мавжуд муаммоларнинг ечимини рўёбга чиқарадиган, инсон ҳуқуқларига риоя этилиши устидан назорат қиладиган воситаси бўлиши демократик тараққиётнинг эҳтиёжига айланиши шарт.

Маҳаллий вакиллик ҳокимияти органлари томонидан фуқароларни қарорларни қабул қилиш жараёнига жалб қилиш бўйича реал механизмлар яратилмаганлиги ҳам маҳаллий вакиллик ҳокимияти органлари олдига турган муаммолардан биридир ва маҳаллий Кенгашлар томонидан қабул қилинган қарорлар легитимлигини пасайишига олиб келувчи омилдир.

“Маҳаллий давлат ҳокимияти тўғрисида”ги қонуннинг 24-моддасига асосан маҳаллий Кенгаш ижроия ҳокимияти бўлимлари, бошқармалари, бошқа таркибий бўлинмалари раҳбарларининг ҳисоботларини, шу жумладан қонунларга риоя этилиши, маҳаллий Кенгаш

қарорларининг ва доимий комиссиялар тавсияларининг бажарилиши юзасидан ҳисоботларини эшитиш ваколатига эга. Ушбу ваколатарни амалга ошириш учун ҳар йили Кенгаш Иш режаси тузилади ва халқ депутатлари Маҳаллий кенгаш сессияларида, доимий мажлисларида муҳокама қилинади.

Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлиси Сенатининг тавсиясига кўра иш режага 25 та бошқа идора ва ташкилотлар раҳбарларининг ҳисоботларини эшитиш масалаларини киритиш бегиланган.

Авваллари сессия муҳокамасига киритилаётган масалалар дастлабки тарзда тегишли доимий комиссиялар томонидан кўриб чиқилиб, улар томонидан тайёрланган қарор лойиҳалари ва кун тартиби бўйича бошқа ҳужжатлар доимий комиссия раиси томонидан маҳаллий Кенгаш раисига тақдим этилиши белгиланган бўлсада, амалда бу масалалар билан маҳаллий ҳокимликларнинг ташкилий-назорат гуруҳи шуғулланиб келган. Кўпчилик ҳолатларда доимий комиссияларда масалалар муҳокама қилинмасдан туриб расмийлик учун сессиялар ўтган.

Таҳлил ва натижалар. Ҳозирда Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлиси Сенатининг 2020 йил 11 декабдаги “Халқ депутатлари маҳаллий Кенгашлари фаолиятига доир намунавий ҳужжатларни тасдиқлаш тўғрисида”ги КҚ-161-IV-сонли қарори билан вилоят, туман ва шаҳар Халқ депутатлари Кенгашларининг котибиятлари ташкил бўлиб юқоридаги камчиликларни бартараф этишга эришилди.

Эндиликда, Маҳаллий Кенгаш котибиятлари ўз фаолиятида Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлиси палаталари, давлат органлари, хўжалик бошқаруви органларининг ҳудудий бўлинмалари, суд ва ҳуқуқни муҳофаза қилувчи органлар ҳамда бошқа ташкилотлар билан ҳамкорлик қилиб, маҳаллий Кенгашнинг Ўзбекистон Республикаси Конституциясида,

“Маҳаллий давлат ҳокимияти тўғрисида”ги Қонунда ва бошқа қонунларда, Ўзбекистон Республикаси Президентининг фармон ва қарорларида, Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлиси палаталарининг қарорларида белгиланган ваколатлари амалга оширилишини таъминламоқда.

Сессияда кўриб чиқилиши керак бўлган масалалар авваламбор доимий комиссияларда кўриб чиқилмоқда. Сессия кун тартиби лойиҳасига уларни кўриб чиқиш навбати, ҳар бир масалани кўриб чиқиш учун тайёрлашга масъул бўлган доимий комиссиялар, маърузачилар, шунингдек бошқа маълумотлар киритилган ҳолда тузилмоқда.

Котибиятлар томонидан доимий комиссиялар ва депутатлар фаолиятини самарали ташкил этиш, уларга амалий ёрдамлар кўрсатиш ҳамда доимий комиссиялар томонидан маҳаллий ҳокимлик, давлат ва нодавлат ташкилотлар раҳбарларининг ҳисоботини эшитиб боришда яқиндан ёрдам бермоқда. Бу ўз навбатида доимий комиссиялар йиғилишларига, сессияларга тайёргарлик кўриш жараёнида мутасаддиларнинг масъулиятини оширмоқда.

Маҳаллий котибиятлар тузилиши билан Кенгаш иш жараёнида қуйидаги афзалликлар яратилди:

Маҳаллий Кенгаш котибиятларининг Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлиси Сенати билан тўғридан-тўғри ҳамкорлиги йўлга қўйилди;

Маҳаллий Кенгашнинг Иш режалари пухта ишлаб чиқилмоқда;

Иш режалар ижроси Котибият назоратида Доимий комиссиялар томонидан назорат қилинмоқда. Бунда Доимий комиссиялар ва ижрочилар ўртасида кўприк вазифаси ўтапти.

Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёев Андижон вилояти фаоллар йиғилишида

депутатлар фаолиятига тўхталиб, “Биз туман кенгашларига жуда катта ваколатлар берганмиз. Депутатлар бу ваколатдан фойдаланиши шарт. Аста-секин шундай тизимга ўтамыз, ҳокимлар вилоят, туман ва шаҳар кенгашига раислик қилмайдиган бўлади. Кенгашга халқ томонидан сайланган депутат бошчилик қилади. Ижро ҳокимияти вакили кенгашга ҳисобот бериши шарт. Баъзи раҳбарлар «мен давлат идораси бошлиғиман, мени бу лавозимга вилоят ҳокими қўйди, халққа ҳисобот бермайман».[2] деган ҳаёлда юрибди. Депутатлар улардан ҳисобот талаб қилиши лозим. Депутатларга ҳисобот беришни истамаган раҳбар биз олиб бораётган ислохотларга мос келмайди”, дедилар.

Юртбошимизнинг ушбу сўзлари аини ҳақиқат, бу сўзни фақат президентимиз айта оладилар. Чунки вилоятларда ҳам, туман, шаҳарларимизда ҳам ҳанузгача маҳаллий Кенгаш депутатлари сўровларига, Кенгаш иш режаси бўйича бериши лозим бўлган ҳисоботларга юзаки қарашмоқда. Айрим ҳолларда номига ҳисоботлар тайёрлаб бериш, айрим ҳолларда ҳисобот бермаслик, беписандлик каби ҳолатлар учраб турибди. Хусусан, Бўка туманида туман ҳокими томонидан Кенгашга ҳисобот бермаслик, Охангарон шаҳар сектор раҳбарлари томонидан Кенгаш депутатлари сўровларига беписандлик ва ҳисобот бермаслик каби ҳолатлар учраб турибди.

Бунинг учун биринчи навбатда маҳаллий кенгаш котибиятлари учун шароит яратишимиз ҳамда Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлис Сенати томонидан ҳисоботи эшитилиши белгиланган 25 та ижро ҳокимияти, идора ва ташкилотларнинг ҳисобот бериши юзасидан алоҳида ҳисобот шаклини юритиш, зарур ҳолларда уларнинг ҳисобот бериш жараёнини вазирликлари орқали видео жараёнларини талаб қилиш механизмини йўлга қўйиш лозим.

Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлис Сенати раиси Т.Нарбаевнинг 2020 йил 21 декабрдаги 01-22-14/2212-сонли хатига асосан Маҳаллий Кенгаш котибиятлари зарур хоналар, жиҳозлар, автотранспорт билан таъминланиши кўзда тутилган. Сенат томонидан берилган тавсиялар асосида Молия вазирлиги томонидан ҳисоб-китоблар қилиниб Котибиятлар молиялаштирилса ва хоналар, зарур жиҳозлар Котибият балансида бўлса, республика бўйича бир хил андозада шароит яратишга эришилган бўларди. Бугунги кунда биргина Тошкент вилоятининг ўзида котибиятларда турли шароитлар, хоналар масаласи, уларнинг жиҳозланиши кабиларни қўриш мумкин. Наманган вилоятида ҳам мана шундай ҳолатлар мавжуд.

Маҳаллий Кенгашлар томонидан ҳам норматив ҳуқуқий аҳамиятга эга қўллаб қарорлар қабул қилиш ваколати белгиланган. Бироқ ушбу Кенгаш қарорларини юридик жиҳатдан тўғри ёзиш учун барча депутатларнинг ҳам билими етарли эмас. Шунинг учун Котибиятга қўшимча штат асосида ёки шартнома асосида ҳуқуқшунос (юрист) жалб қилиш масаласини ҳал қилиш лозим.

Маҳаллий Кенгашларда доимий комиссия раислари, аъзоларининг доимий иш жойлари мавжудлиги улар томонидан ҳар доим ҳам доимий комиссия фаолияти тўлиқ юритилишига тўсиқ бўлмоқда.

Шу сабабли, маҳаллий кенгашлар ва доимий комиссиялар фаолиятини янада фаоллаштириш мақсадида, доимий комиссия раислари ва доимий комиссияга жалб қилинадиган экспертларни иш фаолиятга қараб рағбатлантириш механизмини яратиш лозим. Уларнинг фаолиятига рейтинг тизими асосида баҳо берилиб, бюджетдан қўшимча маблағлар ҳисобига рағбатлантириб борилса, Котибият томонидан талаб қилиш учун қўшимча механизм бўлар эди.

Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2020 йил 6 ноябрдаги ПФ-6108-сонли “Ўзбекистоннинг янги

таракқиёт даврида таълим-тарбия ва илм-фан соҳаларини ривожлантириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги фармонининг 11-бандида:

“2021 йил 1-январдан бошлаб умумтаълим муассасалари директорларини лавозимга тайинлаш ҳамда иш берувчининг ташаббусига кўра лавозимидан озод этишнинг Қорақалпоғистон Республикаси Халқ таълими вазирлиги, вилоятлар бошқармалари ва Тошкент шаҳар бош бошқармаси (кейинги ўринларда — ҳудудий халқ таълими бошқармалари) томонидан тегишли халқ депутатлари туман (шаҳар) Кенгашлари билан келишилган ҳолда амалга ошириш тартиби жорий қилинсин.

Бунда:

умумтаълим муассасаларининг бўш директор лавозимлари учун ҳудудий халқ таълими бошқармалари киритган номзодлар халқ депутатлари туман (шаҳар) Кенгашлари томонидан танловдан ўтказилади;

умумтаълим муассасаси директорлиги учун номзодлар танловда тегишли умумтаълим муассасаси кўрсаткичларини келгуси 3 йилда юқори даражада олиб чиқиш бўйича ўз дастури (кейинги ўринларда — 3 йиллик дастур) билан иштирок этади;

халқ депутатлари туман (шаҳар) Кенгашлари томонидан танлов натижаларига кўра умумтаълим муассасаси директори лавозимига тайинлаш учун энг яхши 3 йиллик дастур эгаси шаффофлик тамойиллари асосида танлаб олинади ҳамда лавозимга тайинлаш учун ҳудудий халқ таълими бошқармаларига тақдим этилади;

халқ депутатлари туман (шаҳар) Кенгашлари томонидан танлаб олинган номзод ҳудудий халқ таълими бошқармалари томонидан умумтаълим муассасаси директори лавозимига тайинланади;

умумтаълим муассасаси директори йил якуни бўйича халқ депутатлари туман (шаҳар) Кенгашлари ва жамоатчилик вакилларига 3 йиллик дастурнинг ижроси юзасидан ҳисобот беради ва ҳисобот натижасига кўра унинг фаолиятига халқ депутатлари туман (шаҳар) Кенгашлари томонидан баҳо бериб борилади”[3] дейилган.

Хулоса ва таклифлар. Бироқ ушбу вазифани амалга ошириш учун маҳаллий Кенгашлар олдида қуйидаги бир қатор муаммолар мавжуд.

Биринчидан, маҳаллий Кенгашлар томонидан бу борада танлов ўтказиш юзасидан ҳеч қандай йўриқнома ёки низом ишлаб чиқилмаган. Бу эса маҳаллий Кенгашлар томонидан умумтаълим мактабларида бўшаб қолган директор лавозими учун танлов ўтказишда бир қатор қийинчиликлар туғдирмоқда. Ушбу тадқиқот доирасида халқ депутатлари Наманган вилояти Чуст туман Кенгашида умумтаълим муассасаси директорлиги учун номзодларни тегишли умумтаълим муассасаси кўрсаткичларини келгуси 3 йилда юқори даражада олиб чиқиш бўйича ўз дастури асосида танлов ўтказиш юзасидан Низом ишлаб чиқилиб, синовдан ўтказилди ва ушбу тажриба амалиётда ўзини оқлади. Ўйлаймизки, Олий Мажлис Сенати томонидан ушбу Низом оммалаштирилиб, маҳаллий Кенгашларга наъмунавий Низом шаклида туширилса, ушбу борадаги муаммо ўз ечимини топади деган умиддамиз.

Иккинчидан, маҳаллий Кенгашларнинг айрим-ларида кўпчиликни ижро органи вакиллари, хусусан, халқ таълим бўлими мудири, халқ таълими ходимлари, мактаб директорлари ташкил қилади. Аини ушбу масала туфайли президент фармонининг амалда ижросини таъминлашда муаммолар пайдо бўлмоқда. Уларнинг биринчиси Кенгашдаги кўпчилик халқ таълими ходимлари ва директорлар ўз манфаатини ҳимоя қилиш ҳолатлари орқали коррупцияга йўл очиб олиши, иккинчи ҳолат эса, мактаб директори депутат бўлиб ўзи-ўзига ҳисобдор

бўлиб қолгандай бўлади ва бу конун нормаларининг бузилишига олиб келади.

Шу муносабат билан юқоридаги фикрларни инобатга олган ҳолда бу борадаги сайлов қонунчилигига ўзгартиришлар киритилиб Халқ таълими бўлими мудири ва мактаб директорларини маҳаллий Кенгашлар сафидан чиқариш мақсадга мувофиқ деб ҳисоблаймиз. Чунки бу қуйи тизимда учраётган реал муаммо ҳисобланмоқда. Бундан ташқари мактаб раҳбарида депутат сифатида ижро ҳокимияти вакилидан халқ манфаатини талаб қилишда

журъат етишмаяпти, чунки у барибир ижро органига тобеъ шахс бўлиб қолмоқда.

Ўйлаймизки, мамлакатимизда демократик жараёнлар шиддат билан ривожланиб бораётган ушбу даврда маҳаллий Кенгашлар фаолиятининг такомиллашиб бориши билан маҳаллий Кенгашлар депутатлигига ҳам сайловлар такомиллашиб, сайланадиган депутатлар сифат таркибида ҳам анча ижобий ўзгаришлар амалга ошириб борилади.

АДАБИЁТЛАР

1. Маҳмудов А.А. Ўзбекистон Республикасида маҳаллий вакиллик органлари назорат фаолиятини такомиллаштириш. Юрид.ф.ф.д.дис. — Т.: 2018. 98-бет б.
2. Шавкат Мирзиёев: Халқ жойлардаги ҳокимият вакилларида ҳисобот талаб қилса, вазият ўзгаради. https://uza.uz/uz/posts/shavkat-mirziyoev-halq-zhoylardagi-hokimiyat-vakillaridan-hisobot-talab-qilsa-vaziyat-ozgaradi_277329
3. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2020 йил 6 ноябрдаги ПФ-6108-сонли “Ўзбекистоннинг янги тараққиёт даврида таълим-тарбия ва илм-фан соҳаларини ривожлантириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги фармони. <https://lex.uz/docs/5085999>



*Дилбар АХМЕДОВА,
Бухоро давлат университети мустақил изланувчиси
Ф.ф.д, профессор А.А. Хусейнова тақризи асосида*

ХОТИН-ҚИЗЛАР ТАДБИРКОРЛИГИНИ РИВОЖЛАНТИРИШНИНГ ИЛМИЙ-НАЗАРИЙ АСОСЛАРИ

Аннотация

Мазкур мақолада фалсафанинг назарий концепцияларида тадбиркорлик омилининг ижтимоий жиҳатлари тадқиқ этилган. Тадбиркорликнинг ижтимоий концепцияларини ёритишда энг аввало, ривожланган хорижий ижтимоий-фалсафий назарияларга таянилган бўлиб, унда асосан тадбиркорликнинг ижтимоий жиҳатдан ривожлантиришга ўз хиссасини қўшган файласуф олимларнинг ижтимоий-фалсафий назарияларига эътибор қаратиб улар қиёсий таҳлил қилинган. Бу эса, фалсафанинг назарий-методологик концепцияларида тадбиркорлик фаолиятининг ижтимоий жиҳатларини ёритилишида муҳим аҳамият касб этади.

Калит сўзлар: Хотин-қизлар тадбиркорлиги, ривожлантириш, тадбиркорлар қатлами, ҳалқимизнинг миллий менталитети.

НАУЧНО-ТЕОРЕТИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ РАЗВИТИЯ ЖЕНСКОГО ПРЕДПРИНИМАТЕЛЬСТВА

Аннотация

В данной статье исследуются социальные аспекты предпринимательского фактора в теоретических концепциях философии. При выяснении социальных концепций предпринимательства опирались на развитые зарубежные социально-философские теории и проводили их сравнительный анализ, обращая внимание на социально-философские теории философов, внесших вклад в социальное развитие предпринимательства. Это важно при объяснении социальных аспектов предпринимательства в теоретико-методологических концепциях философии.

Ключевые слова: Женское предпринимательство, развитие, слой предпринимателей, национальный менталитет нашего народа.

SCIENTIFIC AND THEORETICAL BASIS OF THE DEVELOPMENT OF WOMEN'S ENTREPRENEURSHIP

Abstract

In this article, the social aspects of the entrepreneurial factor in the theoretical concepts of philosophy are studied. In elucidating the social concepts of entrepreneurship, developed foreign socio-philosophical theories were relied on, and they were comparatively analyzed, paying attention to the socio-philosophical theories of philosophers who contributed to the social development of entrepreneurship. This is important in explaining the social aspects of entrepreneurship in the theoretical and methodological concepts of philosophy.

Key words: Women's entrepreneurship, development, the layer of entrepreneurs, the national mentality of our people.

Кирриш. Тадбиркорлик фаолиятининг ижтимоий жиҳатларини ёритишда Америка иқтисодий прагматизм вакиллари ҳам алоҳида ўринни эгаллайди. Бу мактаб вакиллари асосан тадбиркорлик тушунчаси, фойда, уларнинг ривожланиш йўналишлари ва бошқа омиларни ўрганишга эътибор қаратади.

Чикагодаги иқтисодий назария мактабининг асосчиси Ф.Х. Найт тадбиркорлик, рақобат, фойда ва хавф назариясини «Риск (таваккалчилик), ноаниқлик ва фойда» китобида, шунингдек «Рақобат ахлоқи» асарида ифодалаган[1]. Ф.Найт хавфнинг иккита турини ажратиб кўрсатди: унга кўра, қандайдир тарзда ноаниқликни бартараф этиш учун вазиятни ривожлантириш учун бир қатор вариантларни ҳисоблаш ва ўз тажрибаси асосида ҳаракатнинг энг мақбул вариантларини амалга ошириш учун аниқ ҳаракатлар мажмуини аниқлаш ҳисобланган хавфдир. Бунда тадбиркор юзага келиши мумкин бўлган хавфни олдиндан билади. Шунинг учун унинг амалга оширилиши лозим бўлган ҳаракатни олдиндан белгилаб, танлаш имконияти мавжуд бўлади. Ф. Найтнинг фикрича, ҳар қандай тадбиркорлик фаолиятида «ҳақиқий ноаниқлик» хусусияти мавжуддир. Бундай ноаниқлик ҳатто қутилган натижалар ва эҳтимолликлар тўпламини ҳам бермайди. Бошқача айтганда, бу тушуниб бўлмайдиган ноаниқлик, уни тўлиқ ҳисоблаб бўлмайди. Шу сабабдан ҳам, тадбиркорлар томонидан бу фаолият тури кўпинча суғурта қилинади. Бу жараён Ф.Найт тадбиркорнинг даромади аниқ бўлмаган, хавф-хатар мавжуд бўлган шароитда амалга ошириладиган ҳатти-ҳаракатлар учун

тўланадиган иш ҳақки ҳисобланади. Бундай ҳолда, фойда тадбиркорнинг таваккал қилиш ва хавф-хатарларга доимо тайёр бўлиш қобилиятига, ноаниқлик шароитларга барқарор ва жиддий оқибатларсиз дош беришга, сезги қобилиятига ва рационал ҳисоблашга боғлиқдир.

Шундай қилиб, Ф.Найт тадбиркорлик назариясида, авваломбор, ишбилармонлик муҳити ва тадбиркор фаолиятига хос бўлган хавф ва ноаниқлик тушунчаларини чуқур англаш билан боғлиқ. Унинг ёндашиши, тадбиркорнинг шахсини ижтимоий-психологик портретига унинг шахсиятига мос келадиган фазилат ва хусусиятларини қиритиш орқали янада тўлиқроқ тақдим этиш ва тавсифлаш имконини беради.

Америкалик иқтисодчи Р.Коуз ҳам тадбиркорлик фаолиятининг ижтимоий жиҳатларини ёритишга алоҳида эътибор қаратган. У ўзининг «Фирма табиати» асарида янги компанияни яратишнинг бош мақсади бундай харажатларни сезиларли даражада камайтиришдир. Бундай ҳолда, компания тадбиркорнинг ташқи ва ички муҳит билан муносабатларини барқарорлаштириш ва тартибга солиш воситаси сифатида ишлайди.

XX асрнинг бошларига келиб тадбиркорлик фаолиятининг моҳияти янги бозор имкониятларини яратиш ва ишлаб чиқариш омилларининг ижодий комбинацияси ишлаб чиқилди. Бунда асосан, тадбиркорликнинг инновацион табиатига алоҳида ургу берилган.

Тадбиркорликнинг ижтимоий омилларини ривожлантиришга энг катта ҳисса қўшган олимлардан бири австрия-америкалик иқтисодчи ва социолог Й.Шумпетер-

дир. Унинг тадбиркорлик феноменини тушунтириши иқтисодий ривожланиш назариясида баён этилган бўлиб, уни дунёга танитди ва шон-шухрат олиб келган: у «Тадбиркор бўлиш бошқаларнинг қилганини қилмаслик, шунинг учун бошқаларнинг қилганини қилманг», деган эди. Иқтисодий фанларнинг кўпгина вакилларида фаркли ўлароқ, у тадбиркорликни фақат иқтисодий воқелик ва қонунлар призмасидан кўриб чиқиб, ишлаб чиқариш омилларининг самарали комбинацияси билан чекланмаган, балки биринчи навбатда янги инновациялар яратиш, ишлаб чиқиш ва амалга ошириш билан белгиланадиган махсус тадбиркорлик вазибаларининг мавжудлигини таъкидлади. Бу эса, ташкилий ва иқтисодий янгиларда кўпроқ намоён бўлади ва тадбиркорда ижодкорлик қобилиятларини намоён қилишда, янги қирраларини очиб беради. Шундай қилиб, унга кўра ижодий тадбиркорлик ташкилий ва бошқарув фаолияти доирасида амалга ошириладиган ва тадбиркорликнинг асосий белгиси бўлган инноватор ҳисобланади[2].

Й.Шумпетернинг фикрича, тадбиркорлик фаолиятининг энг муҳим мотиви ўзини ўзи бошқаришни амалга ошириш ва шахсий ижодий мустақилликка эришиши ҳисобланади, бу эса, тадбиркорлик фаолияти билан шуғулланиш учун ҳоҳиш бўлган шахсларда ўз бизнесини яратиш ва рақобатчилар устидан ғалаба қозониш имкониятини яратади[3]. Буларнинг барчаси тадбиркорга хос бўлган ўзига хос фазилат ва хусусиятларини аниқлайди. Бунга мисол қилиб, ҳаракатчанлик иродаси, интеллектнинг фаоллиги ва танланганлиги, ёлғиз қийинчиликларни енгил ва қарама-қарши муҳитга қарши туриш, ҳокимият, бошқаларга идрок ва сезгиси орқали таъсир ўтказиш қобилияти ва бошқаларни қиритишимиз мумкин.

Академик Т.И.Заславская тадбиркорлик фаолиятини ижтимоий-фалсафий жиҳатдан ўрганган бўлиб, у тадбиркорлик муайян ижтимоий қатламнинг пайдо бўлиши ва ривожланиши учун асос бўлган фаолият сифатида кўриб чиқилиши кераклигини аниқлайди. Бу фаолият турининг таркибий белгилари қуйидагилардан иборат:

фойда олишни режалаштириш;

иқтисодий қарорлар қабул қилиш эркинлиги ва автономлиги;

шахсий ҳавф ва шахсий жавобгарлик билан ифода этилган мустақиллик[4].

Т.И. Заславская тадбиркорлик тушунчасини кенг ва тор маъноларда талқин қилишни таклиф этади. «Тадбиркорлик» атамаси тадбиркорлик қатламининг «ядро» гуруҳини - ўз корхоналарини ўзи бошқарадиган мулкдорларни англатиши керак. «...ушбу гуруҳ тадбиркорликнинг барча белгиларига эга бўлиб, у профессионал равишда «пул топиш» билан шуғулланади, ўз капиталини мустақил бошқаради, мустақил равишда иқтисодий қарорлар қабул қилади, бу эса ўз навбатида уларни классик тадбиркор деб номлаш учун асос яратади. Шу билан бирга, биз барча русларни, маълум даражада тадбиркорлик билан шуғулланувчи ёки бошқача қилиб айтганда, классик тадбиркорлардан бошлаб, бўш вақтларида «пул ишлаб олишга» ҳаракат қиладиган ёлланма ишчилар билан бирлаштирадиган умумий тушунчани қиритишни таклиф қиламиз. Бу қатлам мустақил равишда қарорлар қабул қилиш асосида ва фойда олиш мақсадида амалга ошириладиган ишлаб чиқариш, тижорат ёки молиявий фаолият субъектларининг умумий сонини қамраб олади...»[5]. Бу эса, жамият аъзоларини иқтисодий фаровонлигини таъминлайди. Чунки, жамиятдаги бу қатлам вакиллари ўз ҳаётларини тадбиркорлик фаолиятига бағишлайди ва бу орқали жамият структурасида ўз ўрнига эга бўлади.

Шундай қилиб, Т.И. Заславская тадбиркорлар қатламини аниқлашда қуйидагича таснифларни таклиф этади:

Тадбиркорлар - асосан кичик корхоналар ва фирмаларнинг хусусий эгалари бўлиб, уларни бандлик билан бирлаштирмасдан, ушбу фаолиятни шахсан ўзи бошқаради[6].

Ўз-ўзини иш билан таъминлаш - шахсий ишлаб чиқариш воситаларидан фойдаланган ҳолда энг кичик бизнес билан шуғулланадиган шахслар бўлиб, улар асосан малакали мутахассислар ва ишчилар ҳисобланади[7].

Бизнес менежерлари - бошқарув учун ишчиларни ёллаш бунда асосан, ўз бизнес фаолиятини кенгайтириш учун бирлаштирилган кичик ва ўрта корхоналар, акциядорлик ва хусусий секторлар учун директорларни ёлланади[8].

Шунингдек, академик Т.И.Заславская тадбиркорлик фаолиятининг ижтимоий жиҳатларини очиб бериш мақсадида ундаги гендер муаммоларини, жамият социал структурасидаги ёш ишбилармон доираларининг ижтимоий-психологик, ижтимоий-маданий хусусиятлари муаммоларини ўрганиш бўйича ижтимоий-фалсафий тадқиқотлар ўтказган. Тадқиқот замонавий Россия жамиятини ўзгартиришда тадбиркорликнинг ўрнини ўрганишга қаратилган эди. Унинг фикрича, ҳар қандай жамиятнинг тараккий этиши бевосита тадбиркорлик билан боғлиқ.

Жамиятда тадбиркорлик фаолиятини ижтимоий жиҳатларини иқтисодий-фалсафий нуқтаи назаридан ўрганган яна бир таниқли иқтисодчи В.В. Радаев ҳисобланади. Унинг тадбиркорликка оид дастлабки асарларида ушбу ижтимоий-иқтисодий ҳодисани жамиятда янги ижтимоий қучнинг пайдо бўлиши натижаси сифатида кўриб чиқади ва уларнинг ижтимоий-психологик ва маданий хусусиятларини ёритиб берган. У ўзининг қарашларида тадбиркорлик фаолиятининг иқтисодий функцияси орқали ўрганишни таклиф қилади. В.В.Радаев ўзининг «Иқтисодий социология» асарида тадбиркорликнинг қуйидаги умумий таърифини беради: «бу пул даромадларини (ёки бошқа қўшимча даромадларни) олиш учун ташкилий инновацияларни амалга оширишдан иборат бўлган фаолият тури»[9] деб баҳолайди. Юқоридаги фикрлардан келиб чиқиб, тадбиркорлик фаолиятини ташкил этувчи учта муҳим элементни ажратиш кўрсатади. Буларга қуйидагиларни қиритишимиз мумкин:

ташкilot ижтимоий ҳаракатларнинг объекти сифатида, тадбиркор шахсини мустақил равишда ишчилардан ажратиш туради;

инновацияларни жорий этиш, тадбиркор шахсини менежер ва ижарачидан, спекулятор ва воситачидан ажратиш олишга ёрдам беради;

фаолиятдан олинган даромадлар - тадбиркорлик лойиҳасининг муваффақияти ёки муваффақиятсизлигини аниқлашга имкон беради.

Тадбиркорлар кўпинча ишлаб топган даромадини бутунлай бошқа мақсадларга, масалан, жамоат обрўсига, улкан гоёларни амалга оширишга ва таълим олишга эришиш воситасида сарф этишади. Бу эса, В.В.Радаевнинг фикрича, ҳар қандай иқтисодий сабаблар ортида, ижтимоий муносабатлар яширинган[10] деган гоёни илгари суради.

Бундан ташқари, В.В.Радаев тадбиркорлик фаолиятини ташкил этиб, уни ривожлантирувчи эҳтиёжларни тўрт гуруҳга ажратиш берди:

1. Яшаб (омон) қолиш эҳтиёжлари, ташқи қийинчиликлар шароитида минимал барқарорликка эришиш, уларнинг дунё ва жамиятдаги мавқеини мустаҳкамлаш, барқарор турмуш даражасига эришиш, келажакка ишончни қозониш истагининг мавжудлиги;

2. Гедонистик эҳтиёжлар, энг юқори фаровонликка эришиш, шахсий истеъмолни максимал даражада ошириш ва ўз ҳаракатларини минималлаштириш ва бошқалар;

3. Ижтимоий ўзини ўзи тасдиқлаш зарурати маълум бир ижтимоий гуруҳда кучли ўринга эга бўлиш истаги;

4. Мехнатга бўлган эҳтиёж, касбий ижодий ўзини-ўзи англаш истаги, янгилик, ечилиши керак бўлган вазифаларни ҳилма-ҳиллиги ва мураккаблиги, ютуқларнинг таваккалчиликка асосланганлиги, касбий қобилиятларни, билимларни, кўникмаларни синаш ва бошқаларни ўзида синаб кўриш.

Тадбиркорнинг фаолияти ушбу турдаги эҳтиёжларнинг маълум бирлашуви билан белгиланади, бунда одатда битта тур устунлик қилади. Бу эҳтиёжларнинг бутун тизими эса, тўрт турдаги тадбиркорлик ҳаракатларида ўз аксини топади. В.В.Радаев тадбиркорлик фаолияти ҳаракатларини ёритишда М. Вебернинг ижтимоий ҳаракатларнинг типологиясига таянади[11]. У ўз қарашларида тадбиркорликнинг ҳаракатларини ҳам тўрт қисмга ажратади:

1. Анъанавий ҳаракатлар, бунга тўпланган тажриба, одатга йўналтириш, стереотип, мувозанат ва барқарорлик, консерватив, репродуктив хатти-ҳаракатларнинг такрорланишини киритамиз ;

2. Аффектив ҳаракатлар ҳис-туйғуларга ва ҳиссиётларга бўйсунуш, муайян ҳиссий ҳолатларга ва тажрибаларга интилиш, масалан, куч ёки эркинлик, хотиржамлик ёки мустақиллик ҳисси ва бошқалар қиради;

3. Қийматга йўналтирилган ёки қийматга асосланган ҳаракат, ҳар доим бирон бир нарсга жалб қилиш билан боғлиқ, эҳтимол моддий ҳаётнинг ҳар томонлама амали ва инструментал ҳаракатлар қиради.

4. Инновацион ҳаракат, замонавий аҳборот технологияларидан фойдаланиш, янги имкониятларни яратиш, ташкилий мукамалликка эришиш ва бошқалар билан боғлиқ ҳаракатлар қиради.

Тадбиркорлик фаолиятини ижтимоий жиҳатларини ёритган яна бир социолог олим А.В.Безогов бўлиб, у ўзининг ижтимоий-фалсафий қарашларида глобаллашув шароитида Россия жамиятидаги тадбиркорликнинг табиати ва ижтимоий-иқтисодий функцияларини таҳлил қилган. А.В.Безоговнинг ижтимоий-фалсафий қарашлари «Тадбиркорлик социологияси бўйича эсселар»[12] асарида ўз аксини топган бўлиб, унда тадбиркорлик ишидаги бахт, уни инновация ва фойда каби асосий хусусиятлари орқали белгилайди. Шу билан бирга, у ушбу иқтисодий ҳодисани тадбиркорнинг ҳулқ-атвори ва фаолиятининг ахлоқий таркибий қисмларини ҳисобга олган ҳолда кўриб чиқиш кераклигини таъкидлайди. Бинобарин, А.В.Безогов «Тадбиркорлик – маълум бир тарихий вазиятда қабул қилинган, бизнес стандартлари доирасида, даромад олиш учун йўналтирилган, пул ишлашда фаол, тизимли, мустақил ва масъулиятли янгилик» деб тушунган. Шу билан бирга олим тадбиркорликни ижтимоий бирлашма сифатида белгилаб, мамлакатда тадбиркорлик тушунчасини социал-сий портретини ишлаб чиқди. Ушбу портретга кўра микроиқтисодиётнинг тузилиши ва механизмлари ташкил этадиган минглаб корхоналар ва тадбиркорлар ўртасидаги мураккаб муносабатлар тармоғи ҳисобланган.

Шунингдек, тадбиркор муаммолардан кўркмаслиги ва уларни ҳал қилишдан уялмаслиги, уни ҳал қилиш йўллари ва воситаларини излаш керак – бу тадбиркорнинг ҳаётий келажагининг ўзига хос хусусиятидир. Бунинг натижасида, тадбиркор бақувват ва иродали шахс, ташкилотчи, новатор, иқтисодий ва тежамкор мулк эгаси ҳисобланади.

Шундай қилиб, А.В.Безоговнинг ҳулосасига кўра, тадбиркорлик бу нафақат капиталнинг шаклланиши ва

ишлатилиши билан боғлиқ, балки иқтисодий фаолиятнинг ўзига хос тури бўлиб, у ўзини тутишининг маълум бир тури ва услуби ҳамдир, яъни шахснинг фикрлаши, қизиқиши ва маданиятини ўз ичига камраб олади[13]. Бунда тадбиркор шахсни фаолиятида фойда олиш учун шахсий манфаатларнинг жамоат манфаати билан зарур комбинациясини таъминлашга қақрилади. Бу эса, тадбиркорлик фаолияти билан шугулланаётган шахснинг олдида қўйиладиган асосий талабдир.

А.Агеев тадбиркорлик фаолиятининг ижтимоий омилларини ўз тадқиқотларида ўрганган бўлиб, унинг тадбиркорлик тўғрисидаги қарашлари австрия-америкалик олим Й.Шумпетернинг концепциясига яқин эди. Жумладан, у тадбиркорлик тушунчасига инновация белгиси сифатида асос солади ва иқтисодий эркинликка асосланган ташкилий инновацияларни тадбиркорликнинг асосий мезони сифатида таъкидлайди[14]. Шу асосда А.Агеев тадбиркорликнинг белгиларига таваккалчилик, мустақил қарор қабул қилиш, ресурсларга эғалик, етакчилик ва хоказоларни киритади.

Шунингдек, тадбиркорлик фаолиятини ижтимоий-фалсафий жиҳатларини ўрганган олим В.Позняковдир. Унинг ижтимоий-фалсафий концепцияси П.Сорокин ва Й.Шумпетернинг қарашлари билан уйғунлашган бўлиб, А.Позняков фикрича, тадбиркорлар фақат мулкка (капитал, ресурслар, ишлаб чиқариш воситалари) эғалик қиладиган ва ёлланган ишчи кучини фойда олиш учун ишлатадиган одамлардир. Шу билан бирга, В.Позняковнинг таъкидлашича, тадбиркорлик фаолиятининг инновацион табиати унинг муҳим хусусияти эмас, балки бизнес фаолияти муваффақиятининг зарур шарти ҳисобланади[15].

Бундан ташқари В.Позняков тадбиркорлик фаолиятининг асосий мезони сифатида мулкка эғалик қилиш деб билади. Унинг фикрича, ишчилар гуруҳини тадбиркорлардан фарқ қиладиган жиҳатини ҳам шу мезон ташкил этади.

Ўзбекистон жаҳон ҳамжамиятида барқарор ривожланаётган мустақил давлат сифатида жаҳон майдонида юз бераётган глобал жараёнларга ҳам ўз сўзи, мустақкам позицияси билан дадил қириб бормоқда. Мамлакатимиз сўнгги беш йил ичида иқтисодиёт, замонавий ишлаб чиқариш ва бошқа соҳаларда барқарор юксалиш тенденциясини бошидан кечирмоқда. Жумладан, амалга оширилаётган ислохотлар шароитида тадбиркорлик фаолиятининг ижтимоий жиҳатларини социолог олимлар томонидан ўрганишга алоҳида эътибор қаратилди ва шу асосида илмий тадқиқот ишлари олиб бориломоқда.

Ўзбекистондаги ислохотлар шароитида тадбиркорлик фаолиятининг ижтимоий жиҳатларини фалсафий-фанлари доктори, профессор М. Б. Бекмуродов ўрганиш давомида тадбиркор шахсни тарбиялаш, ҳозирги кунда тадбиркорлик фаолиятини мамлакат тараққиётидаги ўрнини ёритиб берган. Олимнинг фикрича, ҳозирги кунда мамлакатимизнинг барча ҳудудларида «Тадбиркорлик фаолиятига одамларни жалб этиш ишлари кенг ижтимоий ҳаракатга айланди»[16].

Бу мамлакатимиздаги ислохотлар шароитида иқтисодий ва ижтимоий жараёнларнинг мутаносиб кечиши, турли томонларнинг ўзаро уйғунлашуви, жамиятда ижтимоий қатламлар вакилларининг ҳамжихатлиги, давлатлар, ташкилотлар ва шахсларнинг бир-бирига боғлиқлик даражасининг мустақкамлигини таъминламоқда.

Б.А.Фарфиев ўзининг докторлик диссертациясида мамлакатимиздаги тадбиркорлик фаолияти ва унинг эволюциясини ислом дини қадриятлари асосида ўрганади. Жумладан олимнинг фикрича, ислом дини таълимотини пухта ўзлаштириб, унинг ахлоқий меъёрларига қатъий

амал қилиши боис савдогарчилик, ҳунармандчилик, деҳқончилик ва тадбиркорлиқнинг бошқа соҳаларида муваффақиятли фаолият олиб боришган.

Юқорида тадбиркорлик фаолиятини ижтимоий жиҳатлари мамлакатимиз ва ривожланган давлатларнинг социолог олимларининг концепцияларида ёритилганлик даражасини кўриб чиқилди. Бу олимлар тадбиркорликни ҳар томонлама таҳлил қилишга имкон берадиган ва

масалага доир бошқа ижтимоий гуруҳлардан фарқ қиладиган ижтимоий-фалсафий концепцияларини яратишган. Ушбу концепциялар бевосита жамиятда тадбиркорлик фаолиятининг ижтимоий омилларини ривожланиши билан биргаликда, унинг олидида турган муаммолар, ижтимоий гуруҳлар ўртасидаги тенденциялар, шахслараро муносабатларни шаклланиши ва бошқа фаолият турларининг тараққиёти учун хизмат қилади.

АДАБИЁТЛАР

1. Найт Ф.Х. Риск, неопределенность и прибыль. – М.: Дело, 2003. – 360 с. Найт, Ф. Этика конкуренции. — М. Анкил, 2008. - 262 с.
2. Крюков Д.С. Социологии предпринимательства. Москва: 2011. С. 26.
3. Крюков Д.С. Социологии предпринимательства. Москва: 2011. С. 26.
4. Заславская Т.И. Бизнес-слой российского общества: сущность, структура, статус. // Социологические исследования. 1995. № 3. – С. 3–11.
5. Заславская Т.И. Бизнес-слой российского общества: сущность, структура, статус. // Социологические исследования. 1995. № 3. – С. 3–11.
6. Заславская Т.И. Бизнес-слой российского общества: сущность, структура, статус. // Социологические исследования. 1995. № 3. – С. 3–11.
7. Заславская Т.И. Бизнес-слой российского общества: сущность, структура, статус. // Социологические исследования. 1995. № 3. – С. 3–11.
8. Заславская Т.И. Бизнес-слой российского общества: сущность, структура, статус. // Социологические исследования. 1995. № 3. – С. 3–11.
9. Радаев В.В. Экономическая социология. М.: ГУ ВШЭ. 2005. – С. 204.
10. Радаев В.В. Внеэкономические мотивы предпринимательской деятельности (по материалам эмпирических исследований). // Вопросы экономики. 1994. № 7. - С. 3-14.
11. Крюков Д.С. Социологии предпринимательства. Москва: 2011. С. 42.
12. Безгодов А.В. Очерки социологии предпринимательства. СПб.: Петрополис. 1999. – С. 224.
13. Крюков Д.С. Социологии предпринимательства. Москва: 2011. С. 43.
14. Агеев А.И. Предпринимательство: проблемы собственности и культуры. – М. 1991.С. 10.
15. Позняков В.П. Новая социальная группа: признаки, мотивы действий, трудности становления. // Человек и труд. 1992. № 4–5. – С. 14–17.
16. Бекмуратов М. Замонавий бошқарув социологияси. Монография. – Ташкент: Янги аср авлоди. 2020. Б. 43.



Barnoxon AZAMOVA,
Namangan davlat universiteti o'qituvchisi
E-mail- barnoazamova19@gmail.com

Namdu katta o'qituvchisi, (PhD) M.N.Qo'ldasheva taqrizi asosida

THEORETICAL FOUNDATIONS OF GEOMETRIC TRAINING OF FUTURE PRIMARY SCHOOL TEACHERS

Annotation

This article presents information about the theoretical foundations of the geometric training of future primary school teachers, the views of methodologists on the history of teaching geometry to primary school students, the issue of improving the professional training of future primary school teachers.

Key words: Future primary school teachers, geometric training, advanced training, psychological and pedagogical forms of education, pedagogical activity.

ТЕОРЕТИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ ГЕОМЕТРИЧЕСКОЙ ПОДГОТОВКИ БУДУЩИХ УЧИТЕЛЕЙ НАЧАЛЬНЫХ КЛАССОВ

Аннотация

В данной статье представлены сведения о теоретических основах геометрической подготовки будущих учителей начальных классов, взгляды ученых-методистов на историю преподавания геометрии учащимся начальных классов, вопрос совершенствования профессиональной подготовки будущих учителей начальных классов.

Ключевые слова: Будущие учителя начальных классов, геометрическая подготовка, повышение квалификации, психолого-педагогические формы обучения, педагогическая деятельность.

BO'LAJAK BOSHLANG'ICH SINIF O'QITUVCHILARINING GEOMETRIK TAYYORGARLIGINING NAZARIY ASOSLARI

Annotatsiya

Ushbu maqolada bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining geometrik tayyorgarligining nazariy asoslari haqida ma'lumotlar keltirilgan bo'lib, unda boshlang'ich ta'lim yo'nalishi talabalariga geometriya fanini o'qitilishi tarixi haqida metodist olimlar fikri, bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining kasbiy tayyorgarligini takomillashtirish masalasi haqida fikr yuritilgan.

Kalit so'zlar: Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilari, geometrik tayyorgarlik, kasbiy tayyorgarlashni takomillashtirish, psixologik-pedagogik, ta'lim shakllari, pedagogik faoliyat.

Kirish. Respublikamizda boshlang'ich sinflarda matematika o'qitish umumiy o'rta ta'lim maktablarining matematika kursinidaslabki bosqichlari sifatida qaraladi.

Umumiy o'rta ta'lim maktablarining boshlang'ich sinflarida o'quvchilar matematika sohasida dasturda nazarda tutilgan bilimlar, uquvlar va ko'nikmalarning ma'lum hajmini ongli ravishda va mustahkam egallab olishlari zarur. Boshlang'ich ta'limning muhim masalalaridan biri o'quvchilarda ongli va mustahkam hisoblash (ko'pincha avtomatizmga yetkazilgan) malakalarini shakllantirish edi va shunday bo'lib qoladi.

Boshlang'ich ta'limning samaradorligi o'quvchilarda o'ziga xos tarzda tarkib topgan ta'limiy faoliyatning keng qamrovli darajasiga bog'liq. Bunday faoliyat nazariy bilimlarni o'zlashtirish va zarur kompetensiyalarni egallash jarayonida o'qituvchi rahbarligida shakllanadi va muntazam rivojlanib boradi. Bunday o'quv faoliyati natijasida boshlang'ich ta'limni bitirgan o'quvchilar ob'ektiv olam jonli va jonsiz tabiatdan iborat ekanligi, insonlar esa muayyan jamiyatda yashab, faoliyat ko'rsatishi, jamiyat a'zolari o'zaro aloqadorlikda yashashi, jonli va jonsiz tabiatni hamda jamiyatni tavsiflay olishlari, tabiat va jamiyat haqidagi aniq yo'naltirilgan tushuncha va tasavvurlarga ega bo'lishlari lozim. Shu bilan bir qatorda, ular shaxsning kishilik jamiyatida tutgan o'rni va amalga oshiradigan faoliyatning ahamiyatini tushunib yetishlari zarur. Chunki, o'quvchilarga bu haqiqatni anglatmasdan turib, ularni shaxs sifatida shakllantirish, ijtimoiy turmushga moslashtirish mumkin emas.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili. Boshlang'ich sinf o'qituvchilarini kasbiy tayyorlash hamda metodik-mateatik tayyorgarligini takomillashtirish masalalari bo'yicha turli davrlarda tadqiqot ishlari olib borilgan.xususan, M.V Bogdanovich tomonidan taklif qilingan metodologiyada, plastilindan geometrik jismlarni modellashtirish, tabiatdagi geometrik shakllarni tanib olish keng qo'llaniladi. Uning dasturi bolalarda elementar geometrik tasvirlar to'plamini o'z ichiga oladi va planimetrik va stereometrik materiallarni parallel ravishda o'rganish g'oyasi bilan singdirilgan. Masalan, aylana kabi geometrik figura egri chiziqqa misol bo'la oladi yoki to'pni tekislik bilan kesish natijasida olingan doira chegarasi, kub elementi uning cho'qqisidir, nuqta kabi rasm esa ikki chiziq yoki chiziqning kesishishi natijasidir[1].

I.I.Barbulning tadqiqotida geometriyaning dastlabki o'qitilishining tarixiy-pedagogik sharhi berilgan. Qayd etilishicha, O'zbeksonda inqilobdan oldingi davrda boshlang'ich maktablarda geometriyani dastlabki o'qitish zarurati umume'tirof etilgan va bahs-munozaralarga sabab bo'lmagan. O'rganilayotgan masala bo'yicha sovet va xorijiy adabiyotlar ham tahlil qilindi, o'sha yillardagi geometriyani boshlang'ich o'qitish kursi mazmunini va uni taqdim etish usullarini takomillashtirish uchun asos bo'lgan yo'nalishlar aniqlandi, qachon:

1) taqdimot nuqtani ko'rib chiqishdan boshlanadi, so'ngra chiziqni, sirtini, so'ngra jismlarni o'rganishga o'tadi;


2) taqdimot boshqa barcha geometrik tushunchalar kelib chiqadigan geometrik jismlarni ko'rib chiqishdan boshlanadi. [2].

Bundan tashqari B.Abdullayeva, R.Adizov, M.Axmedov, Z.Dadanov, M.Zaynitdinova, N.Bikbayeva, R.Mavlonova, K.Olimov, A.Raximov, M.Jumayev, F.Kasimovlar tomonidan tadqiqotlar olib borilgan.

Tadqiqot metodologiyasi. Metodik tayyorgarlik amaliyotida allaqachon ishlab chiqilgan mazmunga ega turli harakatlar (tahlil, baholash, tarkiblash)ni bajarishga yo'nalganlik sezilib turadi. bo'lajak boshlang'ich ta'lim

o'qituvchilari kamdan-kam hollarda ta'lim jarayonini mustaqil loyihalashiga yoki uning muayyan o'quv vaziyatlari bilan bog'liq tarkibiy qismlarini tuzishiga to'g'ri keladi, shu bilan birga, mazmun bilan ishlashga ko'proq e'tibor qaratilmoqda (1-chizma).

Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini psixologik-pedagogik va kasbiy tayyorlash bo'yicha tadqiqotlarda keltirilgan qarashlarni ko'rib chiqamiz.



1-chizma. “Oliy ma'lumotli mutaxassisning metodik tayyorgarligi” tushunchasining o'zaro munosabatlashuvi chizmasi

1. To'plamlar va ular ustida amallar. 2. Matematik mantiq elementlari. 3. Maktabda matematika kursi tushunchasini aniqlashga to'plam nazariyasi va mantiqdan ilovalar. 4. Nisbatlar. 5. Geometrik o'zgarishlar. 6. Nomanfiy butun sonlar. 7. Son haqida tushunchani kengaytirish. 8. Kattaliklar va ularni o'lchash.

Ta'kidlash kerakki, keltirilgan “Geometrik yasashlar” bo'limi bo'lajak o'qituvchilarning geometrik tayyorgarligi uchun yetarli emas. Aslida, bo'lajak o'qituvchining “umumgeometrik madaniyati”ni oshirishga xizmat qiladigan, aniq va tushunarli shaklda bo'lgan geometriya bo'yicha keng doiradagi savollar qamrab olinishi lozim.

Boshlang'ich ta'lim yo'nalishlari talabalarining geometrik tayyorgarligi geometriya elementlarini o'rgatish bilan belgilanadi. Geometriya bo'limining mazmuni quyidagicha keltiriladi:

1. Geometriyaning paydo bo'lishi haqida qisqacha tarixiy ma'lumot.

2. Maktabda o'qitiladigan geometrik tushunchalar tizimi. Geometrik shakllar, ularning ta'riflari, xususiyatlari va belgilari. Sirkul va chizg'ich yordamida geometrik shakllar yasash.

3. Ko'pburchaklar. Ko'pburchaklar haqida Eyler teoremasi. Prizma, to'g'ri burchakli parallelepiped, piramida, silindr, konus, shar. Ushbu shakllarning tekislikdagi tasviri.

Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini boshlang'ich sinf o'quvchilariga matematika o'qitish uchun kasbiy tayyorlash har bir talabaning individual qobiliyatlari, uning hayotiy va kasbiy ko'nikmalariga yo'naltirilgan murakkab dinamik tizim sifatida ko'rib chiqilishi; fundamentallik, vorisiylik va istiqbollilik, bilim egallash usullari integratsiyalashuvi, fikrlash usullari shakllanishi (evristik, algoritmik, abstrakt, makonga oid, ijodiy va boshqalar) va boshqa xususiyatlari talablariga javob berishi; olingan bilimlarni mustaqil chuqurlashtirishi va kengaytirishi lozim; ta'lim natijalari nafaqat bilim va ko'nikmalarni egallash, balki intellektual faoliyat tavsifi (fikrlash amallaridan foydalanish qobiliyati, mushohada usullari, bilish faoliyati usullari) sifatida ko'rib chiqiladi.

Elementar geometriya kursiga son o'qi, eksenel simmetriya, koordinata tekisligi, kattaliklar orasidagi eng oddiy bog'lanishlar grafiklari, figuralarning o'xshashligi tushunchasi va boshqalar kabi yangi savollarni kiritish, shuningdek foydalanishni boshlash 1- sinfdan boshlab, harf belgilari va chizma asboblari - rumentlar, shubhasiz, o'quvchilarning umumiy bilim darajasini, matematik madaniyatini oshirishga, shuningdek, geometrik bilimlarni

amaliy masalalarni hal qilishda qo'llash ko'nikmalarini shakllantirishga yordam beradi. “To'plamlar” mavzusini o'rganayotganda, o'quvchilar birinchi to'plamning har bir elementi tasvirga ega bo'lganda, ikkita to'plamning elementlari o'rtasidagi yakkama-yakka munosabat sifatida xaritalash haqida tasavvurga ega bo'ladi. O'quvchilarga rasmiy ta'rif berilmaydi.

Yuqori darajada xaritalashning alohida holati – siljish o'rganiladi. Bu samolyot harakatining o'ziga birmabir xaritasi sifatida tushuniladi. Nuqtalar orasidagi masofani saqlash tushunchasi asosida harakat o'quvchilarga diqqat bilan tushuntiriladi. Talabalar harakatni tekislikni o'z-o'zidan xaritalashning boshqa turlaridan ajratishni o'rgandilar, fizik harakat va geometrik harakat (siljish) o'rtasidagi muhim farqni tezda angladilar, nuqta, ko'pburchak, doira, segment, nur tasvirini qurishni o'rgandilar. va hokazo. Berilgan harakatda avval kalka yordamida, so'ngra sirkul va chizg'ich yordamida harakat qiling, shuningdek, mos keladigan figuralarning mos nuqtalarini toping.

Mashg'ulotning dastlabki bosqichida figuralar harakati harakatlanuvchi tekislikning maketi vazifasini bajaradigan iz qog'ozi yordamida amalga oshiriladi.

Tadqiqot shuni ta'kidladiki, boshlash uchun qattiq raqam o'rniga chekli sonli nuqtalardan iborat raqamni olish tavsiya etiladi. Aynan shunday raqamni tanlashning afzalligini ko'rish oson: uning nuqtalari orasidagi masofalar soni cheklangan. Tegishli mashqlar tizimini bajarish natijasida o'quvchilar asosiy xususiyatga e'tibor berishadi: harakatlantayotganda iz qog'ozi istalgan ikki nuqta orasidagi masofani saqlab qoladi.

“Geometriya elementlari” va “Qimmatlar va ularning o'lchovlari” mavzulari o'rniga bitta mavzuni o'rganishni taklif qiladi. - “Geometriya elementlari va geometrik miqdorlar”, dastur materialini shunday qayta taqsimlangki, tekislik va fazoviy figuralar birgalikda o'rganiladi, oxirgi dasturga kiritilgan geometrik materialning mazmuni bir xil bo'lib qoladi, amaliy jihatdan mustahkamlanadi. talabalarni kameral va geodeziya asboblari va modellashtirish, shuningdek o'lchash ishlari bilan tanishtirish uchun savollar bilan tanishtirish orqali yo'naltirish [4].

Hozirgi kunda boshlang'ich sinf o'quvchilarini matematikadan geometrik bilimlarini takomillashtirish bo'yicha tadqiqot ishlari kam olib borilmoqda. O'quvchilar geometriyaga qiziqishi bilan birgalikda kelajakda arxitektorlar, dizaynerlar, konstruktorlar, robotexnik kasbi egalari bo'ladi. Boshlang'ich sinflarda geometrik materiallarni kam o'rgatilishi yuqori sinfdagi geometriya, chizmachilik,

biologiya, shu kabi chizmalari mavjud bo'lgan fanlarni ham o'zlashtirishi past darajada bo'lishi kuzatilmoqda.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarini geometrik bilimlarini shakllantirish va takomillashtirishda o'qituvchilarning o'zni beqiyosdir.. Bo'lajak boshlang'ich sinf o'quvchilari Boshlang'ich matematika kursi nazariyasi fanidan geometrik bilimlarni mukammal o'rgatish va ular umumiy o'rta ta'lim maktablariga borganlarida har bir geometrik bilimlarni boshlang'ich sinf o'quvchilariga tushuntirishida va ularda geometrik bilimlarning shakllanishida katta ahamiyat kasb etadi.

Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining geometriyadan metodik tayyorgarligini takomillashtirishning asosiy negizini quyidagi sifat ko'rsatkichlari tashkil etadi: psixologik-pedagogik bilimlari, matematik-metodik tayyorgarligi, boshlang'ich ta'limning me'yoriy hujjatlarini mukammal bilishi, innovatsion ta'lim texnologiyalari,

shuningdek, elektron ta'lim resurslaridan to'liq foydalana olishi kabi sifatlar asosida metodik tayyorgarlikda namoyon bo'ldi.

Xulosa va takliflar. Boshlang'ich matematika kursi nazariyasi fanining geometrik materialini, harakat g'oyasi bilan singib ketgan, miqdorlar va ular bilan harakatlarni o'rganish bilan bog'liq. Chizish, kesish, modellashtirish, o'quvchilar geometrik shakllar va ularning xususiyatlari bilan tanishadilar. Rivojlantiruvchi ta'limning birinchi bosqichidayoq uning mazmunini aynan ilmiy tushunchalar tizimi tashkil etadi. Shuning uchun boshlang'ich sinf o'qituvchisi o'quvchilar tomonidan ushbu tushunchalarni va bu tushunchalarning og'zaki ta'riflarini emas, balki geometrik tushunchalarni o'z harakatlarining asosi sifatida o'zlashtirishdan iborat bo'lgan o'quv jarayonini mohirona tashkil etish uchun ko'rib chiqilayotgan ilmiy tushunchalar tizimini yaxshi bilishi muxim ahamiyatga ega ekanligi ravshandir.

ADABIYOTLAR

1. Bogdanovich M.V. Elementy geometrii v nachal'nykh klassax: Dis. ...kand. ped. nauk. - Kiyev, 1966. - 360 s.
2. Barbul I.I. Nachalnoye obucheniye geometrii: Avtoref. dis. ... kand. ped. nauk. - M. 1966 - 22 s.
3. Petrushin P.K. Metodika oznakomleniya uchashixsya nachalnoy shkoly s teoretiko-mnojestvennyimi ponyatiyami pri obuchenii elementam geometrii: Dis. ... kand. ped. nauk. - M, 1969. -
4. Рышкalo A.M. Geometriya v I-IV klassax: Problemy formirovaniya geometricheskix predstavleniy u mladshix shkolnikov. - M.: Prosvesheniye, 1968. - 262 s.
5. Lavrova H.H. Logicheskaya podgotovka studentov fakulteta nachal'nykh klassov v vuzovskom kurse



Matluba BANNAYEVA,
Toshkent davlat pedagogika universiteti magistranti
E-mail: matluba.bannayeva@mail.ru

Jizzax Davlat pedagogika instituti dots.(PhD) X.S.Akromova taqrizi asosida

TECHNOLOGICAL APPROACH TO THE FORMATION OF MATHEMATICAL COMPETENCIES OF PRIMARY SCHOOL STUDENTS WITH HEARING IMPAIRMENTS

Abstract

This article describes the practical significance of the formation of mathematical competencies of Primary School students with hearing impairments and the development of their competencies through methodologies.

Key words: Child with hearing impairment, competence, cognitive activity, base competence, number and action competence, comparison, Dactyl gesture.

ТЕХНОЛОГИЧЕСКИЙ ПОДХОД В ФОРМИРОВАНИИ МАТЕМАТИЧЕСКИХ КОМПЕТЕНЦИЙ УЧАЩИХСЯ НАЧАЛЬНЫХ КЛАССОВ С НАРУШЕНИЯМИ СЛУХА

Абстракт

В этой статье описывается практическая важность формирования математических компетенций учащихся начальных классов с нарушениями слуха и развития их компетенций с помощью методик.

Ключевые слова: Ребенок с нарушением слуха, компетентность, познавательная деятельность, базовая компетентность, числовая и практическая компетентность, сравнение, дактильная жестикуляция.

ESHITISHIDA NUQSONI BO'LGAN BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARNING MATEMATIK KOMPETENSIYALARINI SHAKLLANTIRISHDA TEXNOLOGIK YONDASHUV

Annotatsiya

Mazkur maqolada eshitishida nuqsoni bo'lgan boshlang'ich sinif o'quvchilarining matematik kompetensiyalarini shakllantirish va metodikalar orqali kompetensiyalarini rivojlantirishni amaliy ahamiyati bayon etilgan.

Kalit so'zlar: Eshitishida nuqsoni bo'lgan bola, kompetensiya, bilish faoliyati, tayanch kompetensiya, sonlar va amallar kompetensiyasi, taqqoslash, daktil imo-ishora.

Kirish. O'zbekiston Respublikasida umumiy o'rta va maktabdan tashqari ta'limni tizimli isloh qilishning ustuvor yo'nalishlarini belgilash, o'sib kelayotgan yosh avlodni ma'naviy-ahloqiy va intellektual rivojlantirishni sifat jihatidan yangi darajaga ko'tarish, o'quv tarbiya jarayoniga ta'limning innovatsion shakllari va usullarini joriy etish maqsadida, O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasiga muvofiq:

O'zbekiston Respublikasining 2030-yilga kelib PISA (The programme for International Student Assessment) Xalqaro miqyosda o'quvchilarni baholash dasturi reytingi bo'yicha jahonning birinchi 30 ta ilg'or mamlakati qatoriga kirishga erishish, xalq ta'limi tizimida ta'lim sifatini baholash sohasidagi xalqaro tadqiqotlarni tashkil etish maqsadida o'quvchilarning o'qish, matematika va tabiiy yo'nalishlardagi fanlardan savodxonlik darajasini baholashga yo'naltirilgan PISA umumta'lim maktablarida ta'lim sifatini baholashning milliy tizimini yaratishdan iborat.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Mamlakatimizning dunyo hamjamiyatiga integratsiyalashuvi, fan-texnika va texnologiyalarning rivojlanishi yosh avlodning o'zgaruvchan, rivojlanayotgan dunyoda raqobatbardosh bo'lib o'sib ulg'ayishlari uchun bugungi kunda fanlarni mukammal egallashlarini taqazo etadi. Bu esa o'z navbatida ta'lim tizimida katta o'zgarishlar va islohotlarni keltirib chiqaradi. Buning asosini davlatimiz tomonidan ishlab chiqilgan qonun va qarorlar orqali ko'rishimiz mumkin. Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 29-apreldagi PF-5712-sonli Farmoni asosida qabul qilingan „O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi“, 2020-yil 7-maydagi „Matematika sohasidagi ta'lim sifatini oshirish va ilmiy tadqiqotlarni rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida“ gi PQ-4708-sonli Qarori, 2022-

2026-yillarga mo'ljallangan „Yangi O'zbekistonning Taraqqiyot strategiyasi“ da ham ta'lim sifatini oshirish va ijtimoiy sohaga alohida etibor qaratilgan. Matematika fani inson aqlini charxlaydi, diqqatini rivojlantiradi, ko'zlangan maqsadga erishish uchun qat'iyat va irodani tarbiyalaydi, algoritmik tarzda tartib-intizomlilikka o'rgatadi va eng muhimi mulohaza yuritishga, muammolarni hal qilish, innovatsiyalarga chorlaydi hamda tafakkurni kengaytiradi. Muhtaram Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyev ta'kidlaganidek, „Matematika hamma fanlarga asos. Bu fanni yaxshi bilgan bola aqli, keng tafakkurli bo'lib o'sadi, istalgan sohada muvaffaqiyatli ishlab ketadi“. Matematika ta'limining ahamiyatini fan-texnika taraqqiyotida, axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini ishlab chiqishda va kundalik hayotimizda tutgan o'rni bilan belgilanadi. O'quvchilarda matematik salohiyatini oshirishdan asosiy maqsad, olgan bilim va ko'nikmalarini kundalik faoliyatda qo'llashlari nafaqat ular, balki eshitishida nuqsoni bo'lgan bolalar ham matematik kompetensiyalar orqali o'z bilim va ko'nikmalarini boyitish ko'zda tutilgan.

Tadqiqot metodologiyasi. Eshitishida nuqsoni bo'lgan bolalarning alohida ta'lim ehtiyojlariga e'tibor berish kerak. Matematika fanini o'zlashtirish orqali eshitishida nuqsoni bo'lgan bolalarning bilish faoliyati, mantiqiy fikrlashi va lug'at boyligi oshadi. Shuningdek o'quvchilarda matematika faniga oid va tayanch kompetensiyalari shakllanadi. Eshitishida nuqsoni bo'lgan o'quvchilarda tayanch kompetensiyalarni shakllantirish ular o'zlashtirgan bilimlari asosida egallagan ko'nikma va malakalarini turli vaziyatlarda qo'llay olishga qaratilishi maqsadga muvofiq. Jumladan,

- kommunikativ kompetensiya;
- axborot bilan ishlash kompetensiyasi;
- o'z-o'zini rivojlantirish kompetensiyasi;

-ijtimoiy-emotsional va fuqarolik kompetensiyasilaridan foydalanish tavsiya etiladi.

Ta'lim tizimida o'quvchilarda fanga oid kompetensiyalar bilan birgalikda tayanch kompetensiyalar shakllantirilishi belgilab berilgan. Kompetensiya – o'quvchilar matematikani o'rganish orqali nimani tushunishi va nimalarni bajarishga qodir bo'lish kerakligini belgilab beradi. Eshitishda nuqsoni bo'lgan boshlang'ich 1-2-sinflar kesimida Sonlar va amallar kompetensiyasini ko'rib chiqamiz. Matematik mazmun kompetensiyalari umumlashgan talablar ko'rinishida ifodalanadi.

Sonlar va amallar (SA);

Algebra va funksiyalar (AF);

Geometriya va o'lchashlar (GO);

Statistika va ehtimollik (SE);

Matematik analiz asosari (MA)

Sonlar va amallar kompetensiyasi o'quvchilarda amallarni bajarish ko'nikmasi va muayyan standartlar asosida ifodalanadi:

Sonlar va miqdorlar haqida tushunchaga ega bo'lish, ularni tasvirlash usullarini va sanoq sistemalarini bilish;

Sonlar va kattaliklar o'rtasida munosabatlarni o'rnatish va tushunish hamda matnli masalalarni yechishda qo'llash;

Matematik amallar mohiyatini bilish va ular o'rtasidagi munosabatlarni tushunish;

Sonlar va kattaliklar ustida hisoblashlarni qiyinchiliklarsiz bajarish, natijaga tegishli baho berish va ularni chamalash

Geometriya va o'lchashlar kompetensiyasi orqali o'quvchilar:

Yassi va fazoviy geometrik shakllarga doir asosiy tushunchalar, ularning asosiy xossalari amaliy mazmundagi masalalar yechishda qo'llay olish, chizma, model va real dunyodagi geometrik shakllarni taniy olish; Daktilda ifodalanishi:

Geometrik munosabatlar haqida matematik va mantiqiy fikrni rivojlantirish;

Koordinatalar sistemasi va boshqa tasvirlash tizimlarida fazoviy munosaba aniqlash, sodda geometrik yasashlarni amalga oshirish;

Matematik vaziyatlarni tahlil qilishda simmetriya va geometrik shakl almashtirish;

Isbot qilish metodlari va masalalarni yechish algoritmilaridan foydalanish, mulohazalar yuritish;

Masalalarni yechishda geometrik modellash, fazoviy mushohada va vizualizatsiya usullaridan foydalanish;

Turli ob'ektlarning o'lchanadigan elementlarini, o'lchov birliklarini bilish, o'lchov tizimlari va jarayonlarining mohiyatini tushunish;

O'lchash jarayonida mos o'lchov usullari, formulalar, o'quv qurollari, multimedial vositalar, kalkulyator va o'lchov asboblariidan foydalanish Statistika va ehtimollik kompetensiyasi orqali o'quvchilar:

Kerakli ma'lumotlarni topish, aniqlash, yig'ish va ularga ishlov berish hamda natijalarni tushuntirish va turli vositalar yordamida taqdim qilish;

Ma'lumotlarni tahlil qilish uchun mos statistik ishlov berish usullarini tanlash va qo'llash;

Ma'lumotlar asosida tegishli xulosa qilish va bashoratlarini ishlab chiqish va ularni baholash;

Tasodifiy, statistik hodisa va jarayonlar haqida tasavvurga ega bo'lish, ularni tadqiq qilish, ehtimollik modellari ishlab chiqish, ularni talqin qilish, baholash va ulardan foydalanish.

Tahlil va natijalar.

Sonlar va amallar kompetensiyasi orqali eshitishda nuqsoni bo'lgan o'quvchilar arifmetik amallar, sonlar va kattaliklar o'rtasida munosabatlarni o'rnatish va tushunish, taqqoslash ko'nikmasiga ega bo'ladilar. Matematika bolalarga tafakkur, diqqat, xotira, ijodiy tasavvur etish, kuzatuvchanlikni rivojlantirishga yordam beradi. Shuningdek, matematika o'quvchilarning mantiqiy fikrlash malakalarini oshirish, ularning o'z fikrlarini aniq, to'g'ri va tushunarli bayon etishi uchun zamin hozirlaydi. Ularda matematik kompetensiyalarni rivojlantirish orqali bilish faoliyati, lug'at boyligi oshiriladi. Hisoblashlar, analiz-sintez qilish natijasida tasavvurlari kengayadi. Eshitishda nuqsoni bo'lgan boshlang'ich 1-sinf o'quvchilaridan yil davomida quydagilarni bilishlari talab etiladi:

O'quvchilar ismi va familiyasini bilishlari, o'tiring, turing, chiqing, kiring so'zlarini harakatda tushunib bajarishlar, o'quv qurollari nomini bilishlari kerak. buyumlarni taqqoslash: katta-kichik, bir xil, barobar, fazoviy tasavvurdagi narsalarning o'zaro joylashuvi: ustida, ostida, baland, past,

chap va o'ng, oldin, keyin, orasida, yonida kabi tushunchalarni bilish. Xarakat yo'nalishi: chapdan - o'ngga, o'ngdan chapga, yuqoridan – pastga, pastdan – yuqoriga tushunchalarini ongli ravishda bajarish. Narsa guruhidan berilgan xossaga ega bo'lgan rangi (qizil, qora, oq, qora), o'lchami (ko'p, kam, nechta, ortiqmi, kammi, kichikmi, bittami yoki ko'pmi) kabilarni bilishlari zarur. Eshitishda nuqsoni bo'lgan boshlang'ich sinf o'quvchilariga narsalarni taqqoslashda predmetlarni (yog'on – ingichka) xususiyatlariga ko'ra farqlash o'rgatiladi. O'quvchilar taqqoslash orqali narsalarning nomi, miqdori, rangi kabi xususiyatlarini bilib olishadi. Bundan tashqari o'quvchilarning lug'at boyligi oshadi, tasavvur qilish va idrok jarayonlari rivojlanadi. Eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalar uchun ixtisoslashtirilgan maktab- internatlarda o'quvchilarga narsalarni taqqoslash bilan birgalikda ularning daktil, imo- ishoralari ham o'rgatiladi.

O'qituvchi o'quvchilarning individual xususiyatlarini hisobga olgan holda darsni tashkillashi va berilayotgan masalalar dastur doirasida bo'lishi kerak. Eshitishda nuqsoni bo'lgan o'quvchi matematika darslarini o'zlashtirishi, shu bilimlarni hayoti davomida qo'llay olishi zarur.

1-sinf o'quvchilariga „ 1 dan 10 gacha bo'lgan sonlarning o'qilishi va yozilishi. 1 soni.“ mavzusi o'tiladi. Dastlab o'quvchilarga 1 soni haqida tushuncha beriladi. Dskada o'qituvchi 1 sonining, yozma ko'rinishi, so'z bilan ifodalanishi, daktil va imo-ishora ko'rinishiga doir ko'rgazmali materiallar bilan tanishtiradi. Masalan 1 sonini ko'rinishlari:

Sonda ifodalanishi: 1

So'zda ifodalanishi: bir


Daktilda ifodalanishi:



ik o'rmini

matematik

Shu usullardan foydalanish;



Eshitishda nuqsoni bo'lgan boshlang'ich sinf o'quvchilarini matematika darslari orqali bilish faoliyati, lug'at boyligi va dunyoqarashini kengaytiriladi. Raqobatbardosh jamiyatda matematikadan olgan bilim va ko'nikmalari orqali hayot faoliyatlarida qo'llashlari uchun bu bilimlar zamin bo'lmoqda.

Xulosa va takliflar. Eshitishda nuqsoni bo'lgan boshlang'ich sinf o'quvchilariga matematika fanini o'rgatish orqali quydagi natijalarga erishiladi:

- eshitishda nuqsoni bo'lgan o'quvchilarda kundalik faoliyatda qo'llash, fanlarni o'rganish va ta'lim olishni davom ettirish uchun zarur bo'lgan matematik bilim va ko'nikmalar tizimini shakllantirish va rivojlantirish;

- eshitishda nuqsoni bo'lgan o'quvchilarda jadal taraqqiy etayotgan jamiyatda muvaffaqiyatli faoliyat yurita oladigan, aniq va ravshan, tanqidiy, tizimli hamda mantiqiy fikrlay oladigan shaxsni shakllantirish;

- eshitishda nuqsoni bo'lgan o'quvchilar tomonidan matematik tushunchalar, xossalari, shakllar, usullar va algoritmilar haqidagi bilim, ko'nikmalar egallanishini ta'minlash;

- inson kamoloti va jamiyat taraqqiyotida matematikaning ahamiyatini anglash, ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlar, kundalik hayotda matematik bilim va ko'nikmalarni muvaffaqiyatli qo'llashga o'rgatish;

- eshitishida nuqsoni bo'lgan o'quvchilarning individual xususiyatlarini rivojlantirgan holda, mustaqil ta'lim olish ko'nikmalarini shakllantirish;

- fanlar integratsiyasini inobatga olgan holda o'quvchilarda, milliy va umuminsoniy qadriyatlarni, ijodkorlik (kreativlik) ni shakllantirish hamda ongli ravishda kasb tanlashga yo'naltirish;

- eshitishida nuqsoni bo'lgan o'quvchilarning har kuni duch keladigan ma'lumotni hazm qilish uchun o'zlarining matematik bilimlari va tavakkalchilik tushunchalaridan foydalana oladigan va shu bilan hayotning barcha sohalarida

o'zlari va boshqalar manfaati uchun oqilona qaror qabul qila oladigan shaxsni shakllantirish;

- eshitishida nuqsoni bo'lgan o'quvchilarning kuzatuvlar orqali amaliy faoliyatlarini bog'lagan holda loyihalashtirishga yo'naltirilgan ijodkorligini tarbiyalash, kreativ, tanqidiy fikrlash va mantiqiy tahlil, qiziquvchanlik, muammolarni hal qilish, yangiliklar yaratishga bo'lgan ko'nikmalarini namoyon qilish va rivojlantirishdan iborat.

- eshitishida nuqsoni bo'lgan o'quvchilarda matematika fanini nazariylashtirgan holda o'qitishga, o'quvchilarga tayyor o'quv materiallarini berishga asoslangan yondashishdan ma'lum darajada voz kechib, o'quvchining kundalik hayotida matematik bilimlarni tatbiq eta olish salohiyatini shakllantirish va uni rivojlantirishga erishish, o'quvchilarning mustaqil fikrlash ko'nikmalarini namoyon qilish va faollashtirish.

ADABIYOTLAR

1. <https://www.rosmedobr.ru/journal/2014-god/kompetentsii-iz-proshlogo-v-nastoyashchee>
2. O'zbekiston Respublikasi Xalq Ta'lim Vazirligi Umumiy O'ra Ta'lim Milliy O'quv Dasturi Matematika 1-sinf [Matn] : darslik / L. O'rinboyeva [va boshq.] . -Toshkent :Respublika ta'lim markazi, 2021.- 160 b
3. Fayziyeva U., Nazarova D., Qotirova F. Surdopedagogika" o'quv qo'llanma. Toshkent. "Sano-standart". 2012 yil
4. Yakubjanova D.B., Hamidova M.U Matematika o'qitish maxsus metodikasi. O'quv qo'llanma. Toshkent. „ Istiqolol" 2012-yil.
5. Alixonov S. Matematika o'qitish metodikasi.(OO'Y uchun darslik). Toshkent.Cho'lpon nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2011 yil.
6. Jumaev M.E. Boshlang'ich sinflarda matematika o'qitish metodikasidanpraktikum. (O O'Y uchun) Toshkent. "O'qituvchi" 2004 yil.
7. Axmedov M., Ibragimov R., Abduraxmonova N., Jumaev M. Birinchi sinfmatematika darsligi.) Toshkent. "Uzinkomtsentr" 2003 yil.
8. Bikboeva.N.U. Axmadjonov I.G. Yangiboeva E.Ya. Adambekova G.A. Ikkinchi sinf matematika darsligi.)Toshkent. "O'qituvchi" 1997 yil.
9. Jumaev M.E, Tadjiyeva Z.G'. Boshlang'ich sinflarda matematika o'qitishmetodikasi. (OO'Y uchun darslik.) Toshkent. "Fan va texnologiyai" 2005 yil.



Абдувахоб ЖАЙСАНОВ,
Ўзбекистон Миллий университети таянч докторанти
E-mail: ajaysanov@gmail.com

Ф.ф.д Ў.Тилавов тақризи асосида

МИНТАҚАДА ЁШЛАР ТАШКИЛОТЛАРИ ЎРТАСИДАГИ ҲАМКОРЛИКНИ МУСТАҲКАМЛАШ ИМКОНияТЛАРИ

Аннотация

Мақолада Марказий Осиё давлатларининг ёшлар ташкилотлари ўртасидаги ҳамкорликни мустаҳкамлаш имкониятлари ҳусусида сўз юритилади. Шунингдек мавжуд муаммоларни ҳал қилиш масалалари таҳлил қилинади.

Калит сўзлар: глобал муаммолар, ёшлар ташкилоти, экологик мувозанат, миллий ўзлик, умуминсоний қадриятлар.

OPPORTUNITIES TO STRENGTHEN COOPERATION BETWEEN YOUTH ORGANIZATIONS IN THE REGION

Abstract

The article talks about the possibilities of strengthening the cooperation between the youth organizations of the Central Asian countries. Issues of solving existing problems are also analyzed.

Key words: global problems, youth organization, ecological balance, national identity, universal human values.

ВОЗМОЖНОСТИ ДЛЯ УКРЕПЛЕНИЯ СОТРУДНИЧЕСТВА МЕЖДУ МОЛОДЕЖНЫМИ ОРГАНИЗАЦИЯМИ РЕГИОНА

Аннотация

В статье говорится о возможностях укрепления сотрудничества между молодежными организациями стран Центральной Азии. Также анализируются вопросы решения существующих проблем.

Ключевые слова: глобальные проблемы, молодежная организация, экологический баланс, национальная идентичность, общечеловеческие ценности.

Кириш. Жаҳонда содир бўлаётган глобал ўзгаришлар барча минтақаларга у ёки бу даражада ўз таъсирини ўтказмоқда. Замонавий дунёда инсоният илгари дуч келмаган, турфа қаҳриқлар билан тўқнашмоқда. Турли йўналишларда юзага келаётган муаммоларни ҳал этишга қаратилган ҳатти-ҳаракатлар амалда мавжуд муаммоларни бартараф этиш учун етарли қўлам касб этмапти. Аксинча, муаммоларнинг сони ва даражаси ортиб бормоқда. Бундай глобал муаммолар сирасига минтақавий ихтилофлар, демократик тартиботни ўрнатишга бўлган радикал қарама-қаршилиқлар, ишсизлик, диний экстремизм ва терроризм, миллий ўзликдан узоқлашиш, экологик мувозанатнинг бузилиши, миллий умуминсоний қадриятлардан бегоналаниш, иқтисодий фаровонликка эришиш ва бошқа умумбашарий муаммоларни киритиш мумкин.

Асосий қисм. Мавжуд муаммоларни бартараф этишнинг даврийлик даражаси яқин, ўрта ва келажак босқичларини ўз ичига олишини ҳисобга олсак, келажакка дахлдор масалаларни ҳал этиш бевосита ёш авлод зиммасига юкланиши аини ҳақиқатдир. Шу сабаб, ўз келажак режаларини тузиш йўлидан бораётган давлатлар томонидан энг муҳим миллий ресурслар қаторига ёшлар қатламини асосий капитал сифатида киритиш тажрибаси кузатишмоқда. Буни қуйидаги икки омил билан изоҳлаш мумкин: Биринчидан, муайян миллат, давлатнинг келажакда жаҳон саҳнасида ўз ўрнини йўқотмаслиги, ривож ёшларнинг таълим-тарбияси, замонавий билим ва тажрибани ўзлаштиришларига бевосита боғлиқдир. Иккинчидан эса, ёшларнинг замон талабларига мос, инновацион ривожланиш қўникмаларини ўзида жамлаши уларнинг ўзи учун муҳим пойдевор бўлишини англаб етишлари билан характерланади.

Парадокс шуки, ҳар қандай тараққиётга ҳамжиҳатлик ва ўзаро ҳамкорлик орқали эришиш мумкин. Зеро, глобал дунёда индивидуал фаолият самарадорлик сари

етақламайди. Шундай экан, ёш авлодни истиқболда содир бўлиши мумкин бўлган қаҳриқларга жавоб бера оладиган салоҳиятли кадрлар бўлиб шаклланишлари улар ўртасида ўзаро фикр алмашиш, ижтимоий муносабатларнинг муҳим йўналишларида ҳамкорлик қилишларини шартлаб қўяди.

Замонавий ёшлар ташкилотлари эса тизимли ҳамкорликни таъминловчи, уни юқори босқичга олиб чиқувчи ижтимоий субъектлардир. Марказий Осиё минтақасида яшовчи халқларнинг умумий дунёқараш, миллий характер ва хусусиятлар мутаносиблиги, удум ва анъаналар, тарихий умумийлик ва бошқа жуда қўп муштарак жиҳатларга эга эканлигини ҳисобга олсак, ёшлар ташкилотлари учун ўзаро мулоқот мавзулари етарлича топилади. Энг асосийси мазкур мулоқотлар минтақа ривож ва фаровонлиги учун хизмат қилади.

Марказий Осиё ёшлар муҳитининг бугунги кундаги қўриниши умумий ва ўзига хос қиёфага эга. Бир томондан ёшлар инновацион ғояларни ўзлаштириш, янгича фикрлаш, замонавий билимларни ўзлаштириш борасида фаоллик кўрсатаётган бўлишса, иккинчи томондан, уларда ташки таъсирларга берилувчанлик, миллий қадриятлардан бегоналаниш, миллий ўзликни англашдаги тасаввурларининг турфа хиллиги намоён бўлмоқда. Минтақа ёшларининг бугунги ҳолати ҳақида фикр билдирган Қозғистонлик тадқиқотчи Т. Мамираимовнинг келтиришича: «Ёшлар муҳитида содир бўлаётган жараёнлар таҳлили шуни кўрсатдики, бугунги кун ёшлари ривожланиш даражасидаги сезиларли ўзгаришлар билан бир қаторда улар ўртасида маданий эҳтиёжлар ва маърифий савиянинг умумий пасайиб кетганини қайд этишимиз керак. Таълим тизимидаги тарғибот ишларининг заифлашиши ёш авлод қадрият йўналишларининг ўзгаришига, қисман унинг радикаллашишига ва ижтимоий ҳулқ-атворнинг умум-этироф этилган меъёрларидан ажралиб қолишига таъсир

кўрсатмоқда»[1]. Мазкур ҳолат минтақадаги бошқа давлатларда ҳам ўзгача кифо касб этмайди. Шундай экан, ўзаро ҳамкорлик жараёнлари энг аввало, таълим-тарбия тизимидан бошланиши самарадорликка кенг йўл очади. Чунки, таълим ҳар қандай ислохотнинг тамал тошини қўювчи қилишдан. Шунингдек, ёшларга оид давлат сиёсатини ташкил этиш ва амалга оширишдаги ҳамкорлик ҳам кутилган натижани беради.

Шу ўринда Марказий Осиё мамлакатларида ўзининг фаол ҳатти-ҳаракатлари билан ажралиб турган айрим ёшлар ташкилотлари ҳақидаги маълумотларни келтириш эҳтиёжи пайдо бўлади. Мазкур маълумотларни ҳавола қилишдан асосий мақсад минтақадаги ёшлар ташкилотларининг умумий ва ўзига хос жиҳатларини аниқлаш ҳамда, ҳамкорликнинг янги ва истиқболли йўналишларини далиллашдан иборатдир.

Қозоғистондаги йирик ёшлар ташкилотларидан бири – бу «Жас Отан» ижтимоий-сиёсий ёшлар ҳаракатидир. Мамлакатдаги йирик сиёсий субъектларидан бири бўлган «Нур Отан» сиёсий партиясининг ёшлар қаноти сифатида рўйхатдан ўтган ҳаракат асосан, ёшларни ижтимоий-сиёсий жараёнларда фаол иштирокини тарғиб қилувчи, рағбатлантирувчи ҳамда ёш авлоднинг сиёсий ғоя ва ташаббусларини қўллаб-қувватлашга қаратилган тизимли фаолиятни амалга ошириши билан ўз ўрни ва мақомига эга. Шу билан бирга мазкур ҳаракат ўзининг шафеси бўлган партиянинг ғояларини қўллаб-қувватлаш жараёнларида ҳам фаоллик кўрсатади.

«Жас Отан» ёшлар ҳаракати фаоллари ўзларининг матбуотдаги чиқишларида, партиянинг йиғилишларида кўп тилга оладиган мақсадлари этиб, таълим-тарбия жараёнларидаги иштирокни эътироф этишади. Шу билан бирга, ёшларнинг ҳуқуқ ва манфаатларини ҳимоя қилиш, амалдаги қонун ҳужжатларида ёшларга берилган ҳуқуқ ва давлат қафолатларининг тўлиқ ва сифатли амалга оширилишини таъминлаш, келажак эгаларининг орзу-истакларини рўёбга чиқаришда масъул эканликларини таъкидлашади. Ҳаракатнинг фаолиятини таҳлил қилган олим В Донской қўйидаги маълумотларни келтириб ўтади: «Нур Отан» ХДП ижтимоий базасини «Жас Отан» ёшлар қаноти фаолиятига ёшларнинг кенг қатламларини жалб қилиш орқали кенгайтириш, ёшлар орасидан партия аъзолари сонини кўпайтириш, уларнинг салоҳиятидан партия мақсадларига эришишда фойдаланиш механизмлари ишлаб чиқилган бўлиб, «Жас Отан» фаолиятига бошқа ёшлар ташкилотлари ва бирлашмалари ҳам жалб этилмоқда»[2].

Кузатуларимиз шуни кўрсатмоқдаки, ташкилотнинг фаолият йўналиши нафақат ёшларни сиёсий тафаккурини ўстириш, сиёсий жараёнларга жалб қилиш билан боғлиқ, балки, халқаро интеграциянинг муайян субъекти бўлиш, турли халқаро лойиҳаларда иштирок этиш билан ҳам ўзига хослик касб этади. Б Акжаровнинг қайд этишига кўра шундай йирик лойиҳалардан бири «Евроосиё иттифоқини тузиш режаларини ҳисобга олган ҳолда, Қозоғистондаги ёшлар ташкилотларининг қўшни давлатлардаги ўхшаш ҳаракатлар билан халқаро алоқаларини фаоллаштириш учун шароит яратиш зарур. Давлатнинг ташки сиёсий фаолияти билан боғлиқ масалалар ёш авлод вакилларида тўлиқ қизиқиш уйғотмоқда. Шу муносабат билан хорижий ёшлар ташкилотлари вакиллари тақлиф этган ҳолда халқаро миқёсдаги тадбирларни ташкил этиш ва ўтказиш муҳим масалалардан биридир»[3].

«Жас Отан» ёшлар қанотининг йирик лойиҳаларидан яна бири – бу ёш кадрлардан иборат малакали, мамлакат ривожининг янги йўналишларини очиш ва ривожлантиришга хизмат қилувчи авлодни шакллантириш йўлидаги фаолияти билан боғлиқ. Мазкур лойиҳанинг асосий вазифалари сирасига янгича фикрлайдиган

инноватор ёшларни аниқлаш, уларнинг миллий кадрлар захирасини яратиш, миллий ва минтақавий манфаатларни мувофиқлаштириш, минтақавий ва халқаро даражадаги кадрлар салоҳиятини мустаҳкамлашдан иборат этиб белгиланган. ««Жас Отан»га аъзолик индивидуал, ихтиёрий ва доимий бўлиб, 16 ёшдан ошган, ёшлар қанотининг мақсад ва вазифаларини қўллаб-қувватлайдиган ва уларни амалга оширишда фаол иштирок этадиган Қозоғистон фуқаролари шахсий ёзма ариза асосида ташкилотга аъзо бўлишлари мумкин. «Жас Отан»нинг ташкилий асосини ташкилот аъзоларининг яшаш жойидаги, турли ташкилий-ҳуқуқий шаклдаги ташкилотлардаги бошланғич бўлимлар ташкил этиди, давлат органлари ва маҳаллий давлат ҳокимияти органлари бундан мустасно. Бошланғич бўлимлар туман (шаҳар) кенгаши қарори билан камида уч нафар аъзодан иборат таркибда тузилади»[4].

«Жас Отан» ёшлар ташкилоти фаолият йўналишларини кенгайтириш, ёшларни аниқ мақсадлар сари етаклаш борасида ўз вазифаларини тизимлаштириб бормоқда. Замонавий эҳтиёжлардан келиб чиқиб, ташкилот ўзининг қўйидаги устувор йўналишларини белгилайди:

- «Ёшларни умуммиллий мақсадлар йўлида бирлаштиришнинг самарали тизимини яратиш. Ушбу вазифани амалга ошириш доирасида ёш фуқароларни ижтимоий-иқтисодий, фуқаролик, сиёсий ва бошқа ижтимоий аҳамиятга молик фаолиятда тажриба орттиришларини таъминлаш бўйича комплекс чора-тадбирлар ишлаб чиқиш;

- ёшларнинг ҳуқуқ ва манфаатларини ҳимоя қилиш – амалдаги қонун ҳужжатларида назарда тутилган ёшларга берилган ҳуқуқ ва давлат қафолатларининг тўлиқ ва сифатли амалга оширилишини таъминлаш;

- «Нур Отан» ижтимоий базасини «Жас Отан» ёшлар қаноти фаолиятига ёшларнинг кенг қатламини жалб этиш орқали кенгайтириш. Қанотда ёшлар орасидан партия аъзолари сонини кўпайтириш, уларнинг салоҳиятидан партия олдига қўйган мақсадларга эришишда фойдаланиш механизмларини ишлаб чиқиш;

- партия ва давлат органлари учун кадрлар захирасини шакллантириш. «Нур Отан» партияси ва давлат ҳокимияти органларининг кадрлар билан тўлдирилиши мумкин бўлган ёш етакчиларни аниқлаш, тайёрлаш ва ишга ёллаш тизимини яратишдан иборат»[5].

Мамлакатимиз миллий тажрибасида қўллаш мумкин бўлган, қолаверса, ўзаро ҳамкорлик қилиш эҳтиёжи мавжуд аниқ соҳалардан бири миллий қонунчиликни такомиллаштириш билан бевосита боғлиқдир. Зеро, қонунларнинг такомиллашиб бориши миллий тараққиётнинг қафолати ҳисобланади. Қозоғистон Республикасида фаолият олиб бораётган «Қозоғистон ёшлар конгресси» маҳаллий қонунчиликка ўз тақлиф-тавсияларини мунтазам бериб бориши ҳамда мамлакат қонунчилик тизимидаги ўзгаришлар ва ислохотларни таҳлил қилиб бориши билан бошқа ёшлар ташкилотларидан ажралиб туради. «Конгресс» ўз олдига қўйидаги вазифаларни амалга оширишни белгилаб қўйган:

- «нодавлат ва нотижорат ёшлар ташкилотлари фаолиятини мувофиқлаштириш ва қўллаб-қувватлаш;

- ёшларни жамиятнинг ижтимоий, иқтисодий ва маданий ҳаётида фаол иштирокини таъминлаш ва мазкур жараёнда уларга зарур шарт-шароитларни яратиб бериш;

- ёшлар ҳаётида ижтимоий аҳамиятга молик бўлган энг муҳим лойиҳаларни ишлаб чиқиш ҳамда амалиётга жорий этиш;

- ёшлар ташаббусларини қўллаб-қувватлаш»[6].

Мамлакатда мавжуд яна бир йирик ёшлар ташкилотларидан бири «Қозоғистон талабалар альянси»

талаба-ёшлар уюшмаси бўлиб, мамлакатда тахсил олаётган барча талабалар фаолиятини мувофиқлаштириш, уларнинг ҳуқуқ ва манфаатларини ҳимоя қилиш ҳамда сифатли таълим олишларига қўмаклашиш мақсадида тузилган. Уюшма қуйидаги мақсад ва вазифаларни амалга оширишни ўзининг фаолият йўналишининг мазмуни деб ҳисоблайди[7]:

Талаба ёшларнинг ҳуқуқ ва манфаатларини таъминлаш: уларнинг ижтимоий-иқтисодий ва маиший муаммоларини ўрганиш, мунтазам мониторинг қилиб бориш, инкирозли вазиятлар пайдо бўлганда юқори турувчи органларга мурожаат қилиш;

Талаба ёшларда ватанпарварлик туйғуларини ўстириш: «Қозоғистон талабалар альянси» мунтазам равишда ватанпарварликнинг миллий моделини шакллантириш ва рағбатлантириш ишларини амалга ошириш, турли оммавий-маданий тадбирлар ўтказиш, конференция, семинар, симпозиум, форумлар орқали талабаларда миллий руҳни шакллантириш, иқтидорли ёшларни қўллаб-қувватлаш орқали натижага эришиш;

Талаба ёшларда коррупцияга қарши қўнқималарни шакллантириш: кенг масштабдаги тарғибот-ташвиқот ишларини олиб бориш орқали талабаларнинг ҳуқуқий саводхонлигини ошириш, буклетлар, реклама баннерлари, видеороликлар намойиши ва бошқа турли воситалар қўмағида коррупцион ҳолатларнинг олдини олиш;

Талаба ёшларнинг интеллектуал потенциалини ошириш: биринчи навбатда талабалар ташаббусларини қўллаб-қувватлаш, уларнинг инновацион гояларини рағбатлантириш, илмий амалий конференциялар, интеллектуал мусобақалар ўтказиш орқали иқтидорли ёшларни аниқлаш ва уларга ижтимоий-молиявий қўмак бериш;

Талабалар ўртасида соғлом турмуш тарзини шакллантириш: турли спорт ва соғломлаштириш тадбирлари, акцияларни мунтазам ўтказиш, иштирокчиларни моддий рағбатлантириш орқали соғлом ҳаёт тарзига эришиш;

Ташкилотнинг ички ва ташқи таъсир қўламини мунтазам ошириш бориш, ҳамкорлар билан тизимли ишлашни кенг йўлга қўйиш.

Хулоса ва тақлифлар. Муайян давлат томонидан самарали олиб бориладиган ёшларга оид давлат сиёсати кўп жиҳатдан ўша давлатнинг келажақдаги мавқеи, ўрни ва нуфузини белгилаб беради. Агар мазкур фаолиятни аниқ географик ҳудуд, тарихи бир, миллий хусусиятлари муштарак, ўзаро қадриятлари ва анъаналари бир-бирига яқин бўлган давлатларнинг ўзаро ҳамкорликдаги ёшлар сиёсати мисолида кўрайдиган бўлсак, мавзунинг долзарблиги янада ортади.

Бугун Марказий Осиё минтақаси ташқи дунёнинг глобал таъсири юқори бўлган ҳудуди сифатида мутахассислар томонидан қайд этилмоқда. Минтақада ташқи ғоявий, маънавий-мафкуравий, сиёсий таъсирлар сони кўпайиб бораётгани, иқлим ўзгариши муаммолари, неокOLONIALIZM гояларининг мавжудлиги, экологик муаммоларнинг ортиб бориши, диний экстремизм ва

фундаментализм таҳдиди, оммавий маданият ва бошқа глобал муаммолар ўз таъсирини ўтказишга уринмоқда. Бундай йирик масштабдаги муаммоларни бартараф этиш минтақа давлатларидан бир қатор тизимли ислохотларни олиб боришни талаб этади. Бундай ислохотлар орасида тақдирот мавзунимиз бўлган минтақа ёшлар ташкилотларининг ўзаро самарали ҳамкорлигини йўлга қўйиш масаласи ҳам кечиктириб бўлмас вазифалар сирасига киради. Шу нуқтаи-назардан ўзаро ҳамкорлики тизимли йўлга қўйиш, ҳамкорлик жараёнида юқорида қайд этилган муаммоларнинг ечимига қаратилган изчил фаолият олиб бориш ҳар қачонгидан ҳам муҳимдир. Бу эса ҳамкорликининг бир қатор аниқ йўналишларини белгилаш зарурлигини кўрсатмоқда. Фикримизча, бу йўналишлар қуйидагилардан иборат бўлиши лозим:

Биринчи йўналиш, ўзаро ҳамкорлик жараёнида ёшлардаги пасивликни олдини олишга қаратилган фаолиятни рағбатлантириш, мустақил фикрлаш, ёшлар ташкилотларига оммавий аъзоликни тарғиб қилиш, ёшларга оид давлат дастурларини турли соҳалар кесимида амалга ошириш;

Иккинчи йўналиш, ёшлар ташкилотларини самарали фаолият олиб бориши ва муҳим соҳаларда ҳамкорлик қилишига доир ҳукуматлараро келишувлар, аниқ дастурларни қабул қилиш ва амалиётга жорий этиш;

Учинчи йўналиш, ҳозирги кунда минтақадаги ёшлар ташкилотларининг бир қисми давлат томонидан молиялаштирилса, иккинчи қисми нодавлат ташкилотлари бўлиб, турли аъзолик бадаллари ҳисобига яшаб келмоқда. Бундай шароитда ёшлар ташкилотлари турли молиявий манбалардан ёрдам олишга интилиши ва ўз навбатида ташқи кучлар таъсир доирасига тушиб қолиш эҳтимоли юқори. Шу жиҳатдан, минтақа давлатлари яқдиллик билан ёшлар ташкилотларини барқарор ривожланишига қаратилган молиявий ислохотлар олиб бориши муаммонинг ижобий ечими бўлиб хизмат қилади;

Тўртинчи йўналиш, айти пайтда, Марказий Осиё минтақасидаги барча давлатларда ёшларга оид давлат сиёсати стратегияси, уни амалга ошириш дастурлари тасдиқланган бўлиб, уларда ёшлар ташкилотларини ривожлантиришнинг энг муҳим йўналишлари белгилаб берилган. Ана шу стратегияни қайта кўриб чиқиш ва уни нафақат муайян давлат манфаатлари балки, минтақа манфаатларига мослаштириш ва амалиётга жорий қилиш қўтилган натижани беради;

Бешинчи йўналиш, Марказий Осиё давлатларида олиб борилаётган демократик ислохотлар барча мамлакатлар учун бир хил мазмун-моҳият касб этмайди. Айнан шу ислохотларни келажақда муштараклигини таъминлаш ёшларнинг демократик тамойил ва қадриятларга бўлган муносабатига бевосита боғлиқ. Ўзаро ҳамкорлик жараёнида демократиянинг умумэтироф этилган ҳамда минтақа ички хусусиятларига мос бўлган қоидаларини ёшлар онги ва тафаккурига синдириш ҳамкорлик жараёнидаги кечиктириб бўлмас вазифаларидандир.

АДАБИЁТЛАР

1. Мамараимов Т.К. Государственная молодежная политика Республики Казахстан в условиях трансформации общества - Режим доступа: <http://www.sarap.kz/index.php/ru/pol-ob/molodejnaya-politika>.
2. Донской В.Ф. Ротари в действии: международное молодежное движение. Иркутск: Норма плюс. 2008. - 126 с.
3. Акбаров Б.К. Роль международных молодежных движений как актора международных отношений. Диссертация на соискание ученой степени доктора философии (PhD). Алматы, 2014. С-98
4. Ўша манба. 99-бет.
5. http://www.shuak.kz/index.php?option=com_content&view=article&id=211:molodezhnye-organizatsii-kazakhstan&catid=11&Itemid=134&lang=en.
6. http://www.shuak.kz/index.php?option=com_content&view=article&id=211:molodezhnye-organizatsii-kazakhstan&catid=11&Itemid=134&lang=en.
7. Ўша манба.



Sitora JAMOLOVA,
QarDU matematika yo'nalishi magistranti
E-mail: Sitorajamolova93@gmail.com
TATU Qarshi filiali Pedagogika fanlari doktori (Dcs) P.M.Jalolova taqrizi asosida

KOMPLEKS O'ZGARUVCHILI IFODALARNI MATEMATIK STATISTIKADA QO'LLASH

Annotatsiya

Ishlab chiqarish funktsiyalari modellari ko'p o'n yillar davomida rivojlanib va modernizatsiya qilindi va bugungi kunda ishlab chiqarish funktsiyalari nazariyasi zamonaviy iqtisodiyotning eng uyg'un bo'limlaridan biridir. Ushbu modellarni mikroiqtisodiyot va makroiqtisodiyot darsliklarida ham, iqtisodiy va matematik modellashtrish darsliklarida ham topish mumkin. Ular amaliy hisob-kitoblarda va ilmiy tadqiqotlarda qo'llaniladi.

Kalit so'zlar: Kompleks o'zgaruvchi, tasodifiy o'zgaruvchi, matematik kutulma, tasodifiy o'zgaruvchilar dispersiyasi, korrelyatsiya koeffitsiyenti, korrelyatsiya momenti

ПРИМЕНЕНИЕ МАТЕМАТИЧЕСКОЙ СТАТИСТИКИ ВЫРАЖЕНИЙ С КОМПЛЕКСНЫМИ ПЕРЕМЕННЫМИ

Аннотация

Модели производственных функций разрабатывались и модернизировались на протяжении многих десятилетий, и сегодня теория производственных функций является одной из наиболее стройных отраслей современной экономики. Эти модели можно найти в учебниках по микроэкономике и макроэкономике, а также в учебниках по экономическому и математическому моделированию. Они используются в практических расчетах и научных исследованиях.

Ключевые слова: Комплексная величина, случайная величина, математическое ожидание, дисперсия случайных величин, коэффициент корреляции, момент корреляции.

APPLICATION OF MATHEMATICAL STATISTICS OF EXPRESSIONS WITH COMPLEX VARIABLES

Annotation

Models of production functions have been developed and modernized for many decades, and today the theory of production functions is one of the most harmonious branches of modern economics. These models can be found in microeconomics and macroeconomics textbooks as well as economic and mathematical modeling textbooks. They are used in practical calculations and scientific research.

Key words: Complex variable, random variable, mathematical expectation, dispersion of random variables, correlation coefficient, correlation moment.

Kirish. Bugungi kunga kelib iqtisodiy jarayonlarni tahlil qilishda va prognozlashda iqtisodchilar tomonidan juda ko'plab ilmiy ishlar qilindi. Mikroiqtisodiyot va makroiqtisodiyot darajasida ishlab chiqarish jarayonlarini tahlil qilishda oson bo'lishi va olinadigan foyda va sarflanadigan xarajatlardan kelib chiqib tegishli o'zgaruvchilarni kiritgan holda turli formulalar va teoremlar ilm fanga kiritilgan bular iqtisodiyot fanini rivojlantirishda ulkan hissa qo'shib kelmoqda. Matematika fanida keng qo'llaniladigan formulalar va teoremlarni iqtisodiy talqin qilish

XIX asrdan o'rganila boshlangan. Matematika fanining ma'lum bir sohalarining rivojlanishi tabiiy va iqtisodiy fanlarda yuzaga kelgan noaniqliklarni yo'qotishda muntazam qo'llanilib kelinmoqda. Jumladan matematikada keng o'rganilgan sohalaridan biri "kompleks sonlar" mavzusi bugungi kunda texnika va ishlab chiqarishni turli ko'rinishlarida uning tadbirlarini ko'rishimiz mumkin kompleks sonlarni kiritilishi, matematikada haqiqiy sonlar to'plamida yechimga ega bo'lmagan tenglamalarni yechishda va yuqori darajali tenglamalarni darajalarini pasaytirib hisoblashda ulkan qulaylik yaratdi. Jumladan iqtisodiy mazmundagi matematik modellashtrishda va prognozlashda qo'llanilishi bugungi kunda ilm - fanda keng talqin etilmoqda. Biz ko'rib o'tadigan ushbu dissertatsiyada "Kompleks o'zgaruvchili funktsiyalar yordamida ishlab chiqarish dinamikasi" mavzusida iqtisodiy jarayonlarni modellashtrishda va prognozlashda kompleks sonlarni keng qo'llanilishini korib chiqamiz.

Asosiy qism. Belgilangan modellar majmuini shu jumladan ishlab chiqarish funktsiyalari modellarini yaratish

vazifasi matematik statistika usullarini qo'llamasdan hal etilmaydi birinchi navbatta regressiya tahlillari. Biz o'quvchilarning bilim salohiyatlariga e'tibor qaratishimiz kerak va bu muammoni hal qilish chunki ular murakkab o'zgaruvchilarning ishlab chiqarish funktsiyalarining xususiyatlarini tahlil qiladilar va ba'zan ularni amalda qo'llash mumkinligini ko'rsatadilar.

Kompleks o'zgaruvchining o'zgarishini statistik kuzatish uchun mavjud bo'lgan regression kompleks modellarni yaratishga bo'lgan qiziqish XX asrning 50 - 60 yillarida paydo bo'ldi.

Shu bilan birga taqsimlanmagan qismlar va mavhum qismlar holati ko'rib chiqilganligi tahmin qilinmoqda, ammo faqat N. R. Goodman bu taklifni aniq shakilda shakillantirgan va shu vaqtdan boshlab olimlar ikki mustaqil birlik sifatida kompleks taqsimlanishni ko'rib chiqishgan, odatda o'zgaruvchilar haqiqiy va mavhum qismlardan iborat bo'ladi.

Murakkab tasodifiy o'zgaruvchining tarqalishiga mos keladigan markaziy kvadratik modeli matematik kutulma sifatida namoyon bo'ladi.

$$D(z) = M[|z|] = M[|x_r + ix_i|] = M[(x_r - x_i)(x_r + x_i)] = M[x_r^2] + M[x_i^2] \quad (1)$$

$$\text{Yoki: } M[x_r^2] = M[(x_r - \bar{x}_r)^2] = D(x_r), \quad (2)$$

$$M[x_i^2] = M[(x_i - \bar{x}_i)^2] = D(x_i) \quad (3)$$

Bundan:

$$D(z) = D(x_r) + D(x_i) \quad (4)$$

kelib chiqadi.

Ilm - fanning turli sohalarida kompleks o'zgaruvchilar yordamida siymulyatsiya vazifalari doirasini

kengaytirishda va olimlarga matematik statistika apparatlarini rivojlantirishni amalga oshirishga imkon beradi. Bu vazifa murakkab tasodifiy o'zgaruvchilar dispersiyasining moddiy shakliga asoslanib murakkab o'zgaruvchilar sohasida ishlaydigan barcha mutaxassislar xavotiriga solganligi sababli eng kichik kvadratlar metodi taklif qilingan. Biroq bu murakkab statistik vositalar rivojlanishini to'xtatdi. Hozircha hech qanday vositalar murakkab korrelyatsiyani hisoblash uchun taklif qilinmagan, na chegaralarni aniqlash uchun instrumentlar, na boshqa vositalar chunki bu yo'lda to'siqsiz qiyinchiliklar yuzaga keladi bu aniq o'zgarishning tarqalishi moddiy xususiyat sifatida namoyon bo'ladi.

Ikki tasodifiy kompleks o'zgaruvchilar o'rtasidagi korrelyatsiyani aniqlash misolida murakkab tasodifiy o'zgaruvchini bunday talqini cheklanishini ko'rsatamiz. Haqiqiy qayta almashtirish uchun juftlik korrelyatsiya koeffitsiyenti korrelyatsiya momenti va dispersiya yordamida topish mumkin

$$r_{XY} = \frac{\mu_{XY}}{\sigma_X \sigma_Y} \quad (5)$$

Murakkab korrelyatsiyani hisoblash uchun ushbu yondashuvdan foydalanish kerak. Shu bilan birga korrelyatsiya momenti juft shaklda o'zgaruvchilardan biri yordamida haqiqiy qiymarni ta'minlaydi. (1) ga muvofiq o'zgaruvchilar moddiy moddiy xususiyatlar sifatida hisoblangan. Lekin bu yerda korrelyatsiya momentining bu tarzda hisoblab chiqilganligiga e'tabor berish kerak

$$\mu_{XY} = M[(x_r + ix_i)(y_r - iy_i)] \quad (6)$$

Haqiqiy bolmaydi lekin murakkab son bo'ladi, chunki biz guruhlashni ko'paytirish shartlarida amalga oshiramiz:

$$\begin{aligned} \mu_{XY} &= M[x_r y_r] + M[x_i y_i] + i(M[x_i y_r] - M[x_r y_i]) \\ &= \mu_{x_i y_r} + \mu_{x_r y_i} + i(\mu_{x_i y_i} - \mu_{x_r y_i}) \quad (7) \end{aligned}$$

Va faqat mavhum birlikda $z_X = z_Y$ ning oxirgi muddati (7) nolga teng bo'lganda korrelyatsiya momenti haqiqiy songa aylanadi. Boshqa barcha hollarda korrelyatsiya momenti murakkab bo'ladi va shuning uchun ikkita tasodifiy kompleks o'zgaruvchilar o'rtasidagi juftlik korrelyatsiya koeffitsiyenti murakkab qiymati bo'ladi. Ushbu koeffitsiyent turini aniqlang. (5) ning haqiqiy o'zgaruvchilari va (1) korrelyatsiya momentini ishlatganda korrelyatsiya koeffitsiyentining tanlangan qiymati (6) bunday ko'rinishga ega bo'ladi.

$$r = \frac{\mu_{XY}}{\sigma_X \sigma_Y} = \frac{\sum(y_i y_r + x_i x_r) + i(\sum(x_i y_i - y_r x_i))}{\sqrt{\sum(y_i^2 + y_r^2) \sum(x_i^2 + x_r^2)}} \quad (8)$$

Boshqa tomondan haqiqiy sonlar sohasidagi juftlik korrelyatsiyasi koeffitsiyenti K. Person tomonidan tasodifiy o'zgaruvchilarning chiziqli o'zaro bog'liqligi uchun tavsiya etilgan bo'lib uni y da x va x da y regression koeffitsiyentlarning o'rtacha geometrik koeffitsiyenti deb belgilash kerak.

$$r = \pm \sqrt{a_1 b_1} \quad (9)$$

a_1 va b_1 chiziqli regressiyaning mutanosiblik koeffitsiyenti eng kichik kvadratlar metodi orqali topilgan.

a_1 va b_1 chiziqli regressiyaning mutanosiblik koeffitsiyenti eng kichik kvadratlar metodi orqali topilgan.

K. Pirson (10) yondashuvi yordamida ikkita murakkab tasodifiy o'zgaruvchining ishi uchun juftlik korrelyatsiyasi koeffitsiyentining tanlangan qiymatini hisoblash uchun biz murakkab o'zgaruvchining (1) o'zgaruvchisining haqiqiy tabiati jumlasidan kelib chiqqan

KKM versiyasini qabul qilamiz. Shunday qilib MNK bugungi kunda murakkab regressiyalar uchun ijro etiladi. Murakkab tasodifiy o'zgaruvchi Y va boshqa murakkab tasodifiy kompleks X o'zgaruvchidan qaramlikning kompleks regression koeffitsiyenti ushbu yondashuv yordamida KKM quydagicha hisoblab chiqiladi

$$a = \frac{\sum(y_r + iy_i)(x_r - ix_i)}{\sum(x_r + ix_i)(x_r - ix_i)} = \frac{\sum(y_r + iy_i)(x_r - ix_i)}{\sum(x_r^2 + x_i^2)} \quad (10)$$

Murakkab tasodifiy o'zgaruvchi x ning o'zgaruvchi shaklida taqdim etilgan boshqa murakkab tasodifiy o'zgaruvchiga teskari bog'liqligini KKM yordamida topilgan kompleks regressiya koeffitsiyentini hisoblash uchun bunday formulaga ega.

$$b = \frac{\sum(x_r + ix_i)(y_r - iy_i)}{\sum(y_r + iy_i)(y_r - iy_i)} = \frac{\sum(x_r + ix_i)(y_r - iy_i)}{\sum(y_r^2 + y_i^2)} \quad (11)$$

Ushbu formulalarni almashtirish (2.3.9) da y va x regression liniyalarining mutanosiblik koeffitsientlarining tanlangan qiymatlarini baholash juft korrelyatsiya kompleks koeffitsiyentining tanlangan qiymatini hisoblash uchun formulalarini olamiz.

$$r = \sqrt{a_1 b_1} = \frac{\sum(x_r y_r + x_i y_i) + i \sum(x_i y_r - x_r y_i)}{\sqrt{\sum(y_r^2 + y_i^2) \sum(x_r^2 + x_i^2)}} \quad (12)$$

Va endi (2.3.12) formula bilan (2.3.8) formulani bir – biri bilan solishtiramiz. Bu bir xil bo'lishi kerak va bir xil koeffitsiyentli murakkab o'zgaruvchlarning haqiqiy tabiati haqida bir xil asosiy shart – sharoitlar asosida hisoblab chiqilgan lekin turli yo'llar bilan olingan bo'lib chiqadi. Biroq (12) va (8) formulaning o'zgaruvchilari bir biridan tubdan farq qiladigan tozalovchilar bilan bir – biriga mos kelishini ko'rish oson. Shunday qilib murakkab korrelyatsiyalar bo'limini shakllantirishga imkon bermaydigan qarama – qarshi natijalar olingan. Xuddi shu muammolar statistik farazlar va matematik statistikaning boshqa bo'limlari jihatidan bir yoki bir nechta darajada o'zgaruvchanlikning muhim o'lchoviga asoslangan o'zgaruvchilar ham yuzaga keladi.

Natijalar va muhokamalar. Kichik va yirik korxonalar hamda mamlakatlar miqyosida qolaversa mintaqaviy ishlab chiqarish, savdo, investitsiyaviy loyihalar va xizmat ko'rsatish sohaslarida foydalaniladigan matematik modellarni kompleks sonlar to'plamida qaytadan qurish va yuqori aniqlikda, ixcham va soddaroq modellarni yaratish. Hamda kompleks o'zgaruvchi ishlab chiqarish funksiyalarining elastiklik koeffitsiyentlarini keltirib chiqarish va shu asnoda korxonalar va mamlakat yalpi ichki mahsulotini yaqin kelajak uchun prognozlovchi modellarni yaratish bugungi iqtisodiy matematika oldida turgan asosiy maqsadlardan biridir.

Xulosa. Iqtisodiyotda har qanday ob'yekt yoki hodisani hisobga olgan holda olimlar, ko'rsatkichlar o'rtasidagi munosabatlar mavjudligi bilan duch kelmoqdalar, chunki moddiy va minimum qismlarning tarqalishi bir – biriga bog'liq emas, juda kamdan kam hollarda amalga oshiriladi. Shuning uchun kompleks va tasodifiy o'zgaruvchanligi har doim kompleks iqtisodiyotning moddiy ishi bo'lishi kerakligi haqidagi gipotezani asos sifatida qabul qilish mumkin emas. Aksincha, murakkab tasodifiy o'zgaruvchining dispersiyasi tasodifiy kompleks ketma - ketlikning o'zgaruvchanligining murakkab xarakteristikasi sifatida taqdim etilishi kerak.

ADABIYOTLAR

1. Светульников С. Г., Светульников И. С. "Производственные функции комплексных переменных"
2. Экономика-математическое моделирование производственной динамики. Изд. 2-е, доп. -М: ЛЕНАНД, 2019.- 170 с.
3. N.Gregory Mankiw, Macroeconomics, Oxford University. First Printing 2009
4. Djumayev Z. A , Makroiqtisodiyot , 2018.-279 .4. Fleming, J. M. Domestic i nancial policies under i xed and l oating exchange rates. IMF 1962.
5. Forni, M., Lippi, M. Aggregation and the Microfoundations of Dynamic Macroeconomics. Oxford University Press. 1997.



Yilmaz JANKALO'G'LU,
O'zMU mustaqil izlanuvchisi,
Toshkent Turk maktabi direktor o'rinbosari
E-mail: yilmaz622@hotmail.com

Ф.ф.Д.Н.Шермухаммедова тақризи асосида

KO'KALDOSH MADRASASI

Annotatsiya

Ko'kaldosh madrasasi O'zbekistonning poytaxti Toshkent shahrida joylashgan va millat yoshlarining ta'lim tarbiyasida faol, o'z o'rniga ega madrasalardan biridir. Madrasa 1551-1575 yillarda barpo qilingandir. O'ziga xos bir me'moriy shaklni aks ettirgan madrasa Toshkent shahrining markazida faoliyat ko'rsatmoqda. Yurtida qurilgan madrasalarda fiqh, hadis, tafsir, tasavvuf, arab tili va aqida (kalom) yo'nalishlarida maktablar ochilib, har sohada yetuk mutaxassislar yetishtiriladi. Tarixda ko'pgina olimlar va ilm kishilarining yetishishiga salmoqli hissa qo'shgan ushbu madrasadan ma'lum muddat karvonsaroy sifatida ham foydalanilgan. Bugungi kunda o'rta-maxsus Islom bilim yurti sifatida xizmat ko'rsatayotgan ushbu maskan hozirda ham O'zbekistonning ko'zga ko'ringan ilm maskanlaridan sanaladi.

Kalit so'zlar: Toshkent, madrasa, Ko'kaldosh, O'zbekiston, ta'lim.

KOKALDOSH MADRASA

Annotation

Kokaldosh madrasa is located in Tashkent, the capital of Uzbekistan, and is one of the active madrasas in the education of the nation's youth. The madrasa was built in 1551-1575. The madrasa, which reflects a unique architectural form, operates in the center of Tashkent city. In madrasahs built in the country, schools are opened in the fields of fiqh, hadith, tafsir, mysticism, Arabic language and aqeedah (Kalam), and qualified experts in all the fields are trained. This madrasa, which made significant contributions to the education of many scientists and scholars in history, was also used as a caravanserai for a certain period. Today, this center, which serves as a secondary-special Islamic educational center, is still considered as one of the prominent science centers in Uzbekistan.

Keywords: Tashkent, Madrasa, Kokaldosh, Uzbekistan, Education.

МЕДРЕСЕ КУКАЛДОШ

Аннотация

Медресе Кукалдош расположено в Ташкенте, столице Узбекистана, и является одним из медресе, активно занимающихся образованием молодежи страны. Медресе было построено в 1551-1575 гг. Медресе, отражающее уникальную архитектурную форму, действует в центре Ташкента. В построенных в стране медресе открываются школы по фикху, хадису, тафсиру, суфизму, арабскому языку и акыде (калам), готовятся зрелые специалисты во всех областях. Это медресе, внесшее значительный вклад в образование многих ученых и ученых в области истории, также некоторое время использовалось как караван-сарай. Сегодня этот центр, выполняющий функции средне-специального исламского образовательного центра, по-прежнему считается одним из видных центров науки Узбекистана.

Ключевые слова: Ташкент, медресе, кукалдош, Узбекистан, образование.

Kirish. Movarounnahr diyorlari 705-715 yillarda Umaviylar hukmdori Qutayba ibn Muslim tomonidan fath qilingan. O'lkaga Islom kirib kelganidan keyin bu muqaddas tuproqlarda bir qancha ta'lim muassasalariga poydevor qo'yiladi va keyinchalik ilm dunyosining yuzlab darg'alari va olimlar shu tuproqlarda yetishadi. Bag'rikenglikda o'rnak bo'ladigan bu o'lka O'zbekistonda, ayniqsa, mustaqillikdan keyin turli etnik millatlar huzur halovatda yashamoqdalar. Turli irqalar va diniy e'tiqodga ega insonlar istiqomat qilayotgan mamlakatda xalqning asosiy qismi (sunniiy) musulmonlardir.

Materiallar va metodlar. Ushbu maqolamizni tayyorlashda induksiya, deduksiya, oddiydan-murakkabga, murakkabdan-oddiyga usullaridan foydalanildi. Ko'kaldosh madrasasiga oid ma'lumotlarni o'z ichiga olgan manbalar o'tkazildi va madrasaning tarix davomidagi bosqichlari muhokama qilindi.

Tahlil va natijalar. Madrasa – arab tilidagi “dars” o'zagidan kelib chiqqan bo'lib, “o'qimoq”, “tushunmoq”, “anglamoq”, “bir matnni o'rganmoq va yodlash uchun takrorlamoq” ma'nolarini o'z ichiga olgan joy, ya'ni - maktab degani.

Islom tarixida madrasaning ildizi Payg'ambarimiz SAV davriga, As'hobus-Suffaga borib taqaladi. Maqolaning mavzusi bo'lgan Ko'kaldosh madrasasi shayboniylar sulolasiga mansub hukmdor Baroqxonning o'g'li Darveshxon davrida (Toshkent hokimi bo'lgan davrlarida) vazir bo'lib faoliyat yuritgan Ko'lbobo Ko'kaldosh tomonidan qurilgan. Shuning uchun qadimda Darveshxon madrasasi ham deyilgan. Ma'lumotlarga ko'ra 1551-1575 yillarda qurilgan ushbu madrasa an'anaviy me'morlik uslubida 62.7 metr uzunlikda, eniga esa 44.9 metr ekani yozilmoqda. O'zbekistonda Ko'kaldosh nomidagi ikkita madrasa bor. Maqolamizda so'z yuritilayotgan madrasa esa O'zbekiston poytaxti Toshkentda, Chorsu maydoni hududida joylashgan. Xuddi shunday madrasa Buxoroda Labi Hovuz yonida ham mavjud bo'lib, u 1568-1579 yillarda qurilgan. O'zbekiston haqida ba'zi tadqiqotlar va ba'zi asarlarda bu ikki madrasa nomi bir xil bolgani uchun unga bog'liq kamchiliklar, aralash va tushunarsiz ma'lumotlar ham uchraydi.

Madrasa binosi asrlar davomida muhofaza qilinib kelayotgan bo'lsada, o'lkada 1830, 1868, 1886, 1946, 1966 yillarda yuz bergan zilzilalarda katta zarar va talofotlar ko'radi. Hatto ikki gumbazi va tomi qulab tushadi. Bu zilzilalardan keyin har safar yana qayta ta'mirlanib tiklanadi.

Yiqilgan gumbazlarning g'ishtlari 1830-1831 yillarda Toshkent hokimi Lashkar Qushbegi davrida qurilgan, ammo bugungacha yetib kelmagan, saqlanmagan Qushbegi madrasasining qurilishida foydalanilgan.

Tarixiy manbaalarda madrasaning 38 ta xonadan iborat ekani aytiladi. Unda boshlang'ish, o'rta va oliy ta'lim bo'limlari mavjud bo'lgan. 1884 yilda madrasa bir nechta vaqflarga ega bo'lgan. Masalan: shahardagi 7 ta do'konning ijarasi va 230 ta do'konning joy haqqi madrasa vaqfining tasarrufida bo'lgani uchun bu daromadlar madrasaga yo'naltirilgan.

O'n sakkizinchi asrning birinchi yarmida madrasa e'tiborsiz qoldirilgan va karvonsaroy sifatida foydalanilgan. Madrasaning karvonsaroy sifatida foydalanilishi uning ilmiy maskan maqomiga zarar yetkazmaydi. Movarounnahrda ilm talabida kelganlar Ko'kaldosh madrasasida ham mehmon bo'lganlar, ham ilm majlislarida qatnashish imkoniga ega bo'lganlar. Bu madrasa bunyod qilinganidan beri o'lkaning eng mashhur olimlari unda tahsil olganlar. Masalan Muhammad Aminxo'ja Muqimiy (1850-1903), Zokirjon Xolmuhammad o'g'li Furqat (1859-1909), Sirojiddin Maxdum Mirzohid o'g'li (1884-1934), Ziyovuddin Ibn Eshon Boboxon (1858-1957) va boshqa bir qancha shoirlar, adabiyot vakillari, ilm arboblari bu madrasada ta'lim olganlar.

Sovetlar davrida O'zbekistondagi me'moriy obidalariga yetarlicha e'tibor berilmadi, asrab avaylanmadi. Shuning uchun boshqa tarixiy binolar qatorida Ko'kaldosh madrasasi ham nuray boshladi. Hatto devorlarining bir qismi quladi. Ilm darslari berilgan sinfxonalari omborxonaga aylantirilib, hovlisi axlatxona holiga keladi. 1902-1903 yillarda toshkentlik saxovatpesha insonlarning sa'y-harakatlari bilan madrasani ta'mirlash ishlari boshlangan. Lekin yetarli mablag' to'planmagani uchun ta'mir ishlari tugallanmaydi. 1943 yilda sodir bo'lgan zilzila oqibatida ikkala minora ham qulaydi. 1954 yilda yana qayta ta'mirlanadi. Bu ta'mirlash jarayonida uning yonidagi "Xo'ja Ahror Valiy" madrasasining toshlaridan olinib "Ko'kaldosh" madrasasi uchun foydalaniladi. 500 yillik tarihgacha ega bo'lgan "Xo'ja Ahror Valiy" madrasasi shu shaklda qisman qurbon qilinadi.

1991 yil 31-avgustda Ko'kaldosh madrasasi mustaqil joy sifatida e'lon qilinib, yangidan to'liq ta'mirlash ishlari olib borildi. Natijada bugungi qiyofaga ega bo'ldi. Bu ishlarda Erkin Saidahmadov va Naim ota Jo'rayev singari millat jonkuyarlarining hissasi kattadir. Sho'rolar davrida to'laqonli ta'lim bera olmagan madrasa 1991-yildan O'zbekiston musulmonlari diniy boshqarmasiga beriladi. 1999-yildan e'tiboran "Ko'kaldosh o'rta maxsus islom bilim yurti" sifatida qayta faoliyat boshladi. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2003-yil 22-avgustdagi 364-sonli qarori bilan Ko'kaldosh madrasasidan olingan diplom davlat tomonidan rasman qabul qilina boshladi.

Bugungi kunda madrasa tarixiy ko'rinishga ega bo'lsada, darsxonalar zamonaviy o'quv qurollari bilan jihozlangan. Madrasada 12 mingdan ortiq kitoblarga ega kutubxona mavjud. Talabalar bo'sh vaqtlarida madrasada naqqoshlik, o'ymakorlik va xattotlik kabi badiiy hunarmadchilikdan saboq oladilar. Avvalda madrasada talabalar yotib qolib o'qiganlar. 2013-yilda O'zbekiston musulmonlari idorasi tomonidan talabalar uchun poytaxtga yaqin joydan "Nazarbek talabalar turar joyi" tashkil etildi. Hozir ham talabalar darsdan keyin shu yerda istiqomat qiladilar. Bugun madrasada 215 nafar (2022) talaba yigitlar tahsil olmoqdalar. Madrasada ta'lim muddati 4 yil bo'lib, talabalarga o'rta maxsus diplom beriladi.

Xulosa. Ko'kaldosh madrasasi 1551-1575 yillarda shayboniy hukmdor Baroqxonning o'g'li Darveshxon vaziri Ko'lbobo Ko'kaldosh tomonidan bunyod qilingan.

Hozirgi kunda ham madrasa sifatida faoliyat yuritib kelmoqda. O'zbekistonda O'zbekiston musulmonlari idorasi tomonidan tashkil qilingan Qur'on musobaqalarida Ko'kaldosh madrasasida tahsil olgan bir nechta yigitlar va qorilar muvaffaqiyatli natijalarni qo'lga kiritdilar. Madrasa har yili chegaralangan miqdorda talabalarni qabul qiladi. Madrasa 2022-2023 o'quv yilidan e'tiboran xorijiy talabalarni ham qabul qila boshladi. Markaziy Osiyoning o'rtasida – O'zbekiston markazida joylashgan bu muazzam madrasa ilm dunyosiga hali ham hissa qo'shish maqsadida davom etib kelmoqda.

Ko'kaldosh Madrasasi haqida ma'lumotlar

1	Madrasaning nomi	Ko'kaldosh o'rta maxsus Islom bilim yurti
2	Ta'lim yo'nalishi	O'rta maxsus
3	Ta'lim berish boshlangan yil	1999
4	Ta'lim muddati	4 yil
5	Talabalar (o'g'il - qiz)	O'g'il bolalar
6	Talabalar soni	215
7	O'qituvchilar soni	29
8	O'qituvchilarni tayinlanish shakli	Rahbar tashkilot tavsiyasi bilan
9	Yillik talabalar soni	30-40 o'rtasida
10	O'qishga kirish tartibi	Yozma sinov
11	Talabalarning yoshi	18 va undan yuqori
12	Kunduzgi – yotoqli	Yotoqli
13	To'lov shakli	Yillik (10.686.000 so'm) (2022-2023)
14	Kirish uchun asosiy shartlar	Umumiy o'rta ta'lim diplomi
15	Kunlik dars soati	6 soat
17	Amaliyot	Bor
18	Yoz ta'tili	Bor
19	Xalqaro miqyosda talabalar qabuli	Bor
20	Ta'lim tili	O'zbekcha va arabcha
21	Bitiruvchilarning ish faoliyatlari	Masjidlarda O'zbekiston musulmonlari idorasiga qarashli tashkilotlarda

Ko'kaldosh madrasasining o'quv dasturida darslik sifatida o'qitiladigan asosiy asarlar

Darslar	Kitob nomi	Mualliflar
Ulumul – Qur'on	Mabohis fi Ulumi'l Qur'on	Manna Halil Qattan
Arab tili	Ad-durusun nahviya (4 jild) Kofiya	Hifni Nasif Ibnul Hojib

Hadis	Al-Adabul mufrad "Mishkotdan saylanma hadislar"	Imom Buxoriy Mualliflar jamoasi
Hadis usuli	Taysir mustalahul hadis	Mahmud Tahhan
Fiqh	Muxtasarul Viqoya	Ubaydulloh ibn Mas'ud
Usulul fiqh	Usulu Shoshiy	Nizomiddin ash-Shoshiy
Tafsir	Tafsiri Jalolayn Ravoye al-Bayon	Jaloliddin as Suyutiy Muhammad Aliy Sobuniy
Aqoid	Bad'ul amoliy Aqidatut Tahoviya	Imom O'shiy Abu Ja'far Tahoviyy
Faroiz (Meros masalali)	Faroizus – Sirojiya	Sirojiddin Muhammad ibn Muhammad as Sijovandiy
Islom tarixi	Nurul Yaqiyn	Muhammad al-Xuzariy
Balog'at	Durusul – Balog'at	Hifniy Nasif
Mantiq	Ar-risolatul Asirriya fil Mantiq	Asiriddun Abhariy
Zamonaviy arab tilidagi matnlarni o'qish	Tanlangan matnlar	O'qituvchi tanlaydi
Muhovara	Al-arabiyya Bayna Yadayk	Abdurahmon al-Favzon

Ko'kaldosh madrasasidagi darslar va jami dars soatlari

	Darsning nomi	Jami dars soati
1	Qur'oni karim va tajvid	428
2	Ulumul Qur'on	68
3	Arab tili	1000
4	Hadis	428
5	Mustalahul hadis	108
6	Fiqh	672
7	Usulul fiqh	68
8	Tafsir	564
9	Aqoid	528
10	Dinlar tarixi (Dinshunoslik)	36
11	Xatoba	36
12	Faroiz (Meros masalalari)	68
13	Islom Tarixi	212
14	Mavlid	36
15	Xattotlik	72
16	Balog'at	72
17	Mazhablar tarixi	72
18	Mantiq	68
19	Geografiya	36
20	Radikalizm va terrorizmga qarshi kurash asoslari	140
21	Huquqshunoslik	36
22	Falsafa asoslari	36
23	Muhovara	144
24	Madaniyat va sport	72
25	O'zbekiston tarixi	36
26	Rus tili	108
27	Ingliz tili	144
28	Kompyuter texnologiyalari	72

ADABIYOTLAR

1. Bozkurt N., Madrasa, Turkiya Diyonat Vaqfi Islom Ensiklopediyasi Istanbul, 2012, 323-b.
2. O'tkir Hasanboyev, O'zbekistonda Davlat va Din munosabatlari Tashkent, 2014, 30 -108-b.
3. "Islom uyg'onishi va Sovetlar Ittifoqi davridagi ba'zi o'zgarishlar" Aleksandr Bennigsen, 1997.
4. Hilgers. Irene, The Regulation and Control of Religious Pluralism In Uzbekistan The Postsociologist Religious Question (Ed: Hann, Chriss) Munster, 2006, 87-b.
5. Inatov Bobomurod, "O'zbekim Obidalar" Tashkent, 2011, 49-50-b.
6. Munavvarov Zohidulla, Features of The Religious and Spiritual Policy of The republic Of Uzbekistan Current Trends "Journal Social – Economic and Humanitarian research" 2019, 4/6-b.
7. Mehmet Saray, "O'zbek turklari tarixi" 1993, 56-57-b.
8. Omor Sultanov, "Muhammad Solih hoja va uning Tarixi jadidayi Toshkent" asari, 2009.
9. Obid Tangirov, 19-asr oxiri 20- asr boshlarida Toshkent shahridagi Ta'lim muassasalari tarixi, Tashkent, 2017.
10. Ersoy Taşdemirci, "Medreselerin Doğuş Kaynakları ve İlk Zamanları" Erciyes Üniversitesi SBE jurnali, 1988, 2- 269-b.



Sirojiddin JUMAYEV,
Toshkent davlat pedagogika universiteti o'qituvchisi
E-mail: sirojiddinjumayev702@gmail.com

TDPU dotsenti, PhD I.T.Azimov taqrizi asosida

PEDAGOGICAL PRINCIPLES OF USING PROBLEMS AND EXERCISES IN THE DEVELOPMENT OF EDUCATIONAL AND CREATIVE ACTIVITIES IN THE TEACHING OF MOLECULAR BIOLOGY

Annotation

In this article, the role and importance of the organization of students' educational and creative activities, as well as the methodology of using problems and exercises in the teaching of molecular biology in higher education institutions, is highlighted.

Key words: Educational and creative activity, knowledge, competence, skill, exercise, problem solving, information, thinking, knowledge acquisition.

ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ ПРИНЦИПЫ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ ЗАДАЧ И УПРАЖНЕНИЙ В РАЗВИТИИ УЧЕБНО-ТВОРЧЕСКОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ ПРИ ОБУЧЕНИИ МОЛЕКУЛЯРНОЙ БИОЛОГИИ

Аннотация

В данной статье выделены роль и значение организации учебно-творческой деятельности студентов, а также методики использования задач и упражнений в обучении молекулярной биологии в высших учебных заведениях.

Ключевые слова: Учебно-творческая деятельность, знание, компетентность, умение, упражнение, решение задач, информация, мышление, приобретение знаний.

MOLEKULAR BIOLOGIYA FANINI O'QITISHDA O'QUV-IJODIY FAOLIYATINI RIVOJLANTIRISHDA MASALA VA MASHQLARDAN FOYDALANISHNING PEDAGOGIK ASOSLARI

Annotatsiya

Mazkur maqolada oliy ta'lim muassasalarida Molekulyar biologiyani o'qitishda masala va mashqlardan foydalanish orqali talabalarning o'quv-ijodiy faoliyatini tashkil etishdagi o'rni va ahamiyati, hamda metodikasi yoritib berilgan.

Kalit so'zlar: O'quv-ijodiy faoliyat, bilim, malaka, ko'nikma, mashq ishlash, masala yechish, ma'lumot, fikrlash, bilim egallash.

Kirish. Bugungi kunda yurtimizdagi Oliy ta'lim muassasalarida olib borilayotgan qator islohatlarning maqsadi ta'lim olayotgan talabalarning bilim sifatini oshirish, talabalarning qobiliyatlarini namoyon qilishga imkon yaratish, iqtidorli talabalarni aniqlash va ularning iqtidorini rivojlantirish uchun shart-sharoitlar yaratishga qaratilgan. Jumladan O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 05.06.2018 yildagi PQ-3775-sonli "Oliy ta'lim muassasalarida ta'lim sifatini oshirish va ularning mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarda faol ishtirokini ta'minlash bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" qarorida o'quv mashg'ulotlarini talabalarni innovatsion fikrlashga yo'naltiradigan o'qitish texnologiyalari va interfaol uslublarni joriy etish asosida tashkil etish, asosiy e'tiborni talabalarning mustaqil ta'lim olishi bilan bog'liq mexanizmlarni amalga oshirishga qaratish belgilab o'tilgan[1].

Oliy ta'lim muassasalarida talabalarning o'quv ijodiy faoliyatlarini tashkil etish, ta'lim olishda talabalarning mantiqiy fikr yuritishi va talabalarning mustaqil ta'lim olishlarini tashkil etishga o'rgatishda masala va mashqlardan foydalanish muhim ahamiyatga ega bo'ladi. Oliy ta'lim muassasalarida faoliyat yuritayotgan pedagoglari oldiga talabalarga tayyor ma'lumotlarni o'rgatibgina qolmasdan, balki talabalarning mantiqiy va mustaqil fikr yuritishini, ijodiy izlanish olib borish faoliyatini tashkil etishni, bilim egallashda faollik va ziyraklik ko'nikmalarini shakllantirish yo'llarini o'rgatishni maqsad qilib qo'yadi.

Ilmiy tadqiqot natijalari asosida mustaqil ta'limga quyidagicha ta'rif berilgan: mustaqil ta'lim – o'quv materialini mustaqil o'zlashtirish, murakkablik darajasi turlicha bo'lgan topshiriqlar, amaliy vazifalarni auditoriyada hamda auditoriyadan tashqarida ijodiy va mustaqil bajarish asosida

nazariy bilim, amaliy ko'nikma va malakalarni shakllantirishga qaratilgan tizimli faoliyatdir[2].

Tahlil va natijalar. O'rganilayotgan mavzu bo'yicha talabalarning o'quv malakalarini hosil qilish, o'rganiladigan materialini o'zlashtirish, o'zlashtirilgan bilimlarni qayta ishlash, mavzuni qismlarga ajratish, ajratilgan qismlarni ketma ket o'zlashtirish, yangi o'rgangan bilimlari va avval o'zlashtirgan bilimlar bilan taqqoslash, bilimlarini umumlashtirish, takrorlash va ularni amalga tadbir qilishlarning barchasi mustaqil ta'lim jaryonida o'rganiladi. Shuningdek talabalarda Molekulyar biologiya fani bo'yicha o'quv malakalarini hosil qilish talabalarning mustaqil ta'lim jarayonidagi barcha o'quv-bilish faoliyatlari bilan bog'liq bo'ladi.

Mantiqiy fikr yuritishni o'rgatish Molekulyar biologik jarayonlarni tushunish, izohlash, mavjud fikrning mohiyatini anglashda muhim ahamiyatga ega bo'ladi. Talaba mantiqiy fikr yuritish qobiliyatiga ega bo'lgandagina Molekulyar biologik tizimlarda komponentlarning o'zaro bog'liqligini tushunadi. Molekulyar biologiyada oqsil biosintezini tushunishda mantiqiy fikrlash muhim ahamiyatga ega bo'ladi. Chunki oqsil biosintez matritsali sintez jarayoni bo'lib, jarayon bosqichlarini bir biriga bog'liqligini tushunish kerak bo'ladi.

Ma'lumki, talabalar Molekulyar biologiya mavzularini o'qib o'rganishda agar jarayonni tushunmasa, uni yodlab olishga harakat qiladi. Jarayonning mohiyatini tushunmasdan yodlab olish ma'lumotlarning tezda esdan chiqishi sabab bo'ladi. Esdan chiqqan ma'lumotlar tizimlilikini yo'qotishi natijasida egallangan bilim sifatini yo'qotishiga sabab bo'ladi. Esdan chiqqan ma'lumotni aniqlash va vujudga kelgan bilimlardagi bo'shliqlarni to'ldirish uchun mashqlardan foydalanish bilim sifatini oshirishiga sabab bo'ladi.

Talabalarning bilim olishiga ijodiy yondashuvi deyilganda egallanishi maqsad qilingan bilimlarni o'rganishga mos metodlarni topa bilishi, o'z ustida ishlash natijasida individual xususiyatlarini anglab yetishi asosida talaba o'zining bilim olishi uchun qulay bo'lgan usulni yaratishi, egallanishi kerak bo'lgan bilimlarni egallanganlik darajasini nazorat nazorat qilish, aniqlangan bilimdagi bo'shliqlarni bartaraf etishda yangi o'ziga xos usullardan foydalanish faoliyati bilan ifodalanadi. Buning uchun esa talaba bilimni nazorat qilish va fikrlash qobiliyatini oshirishda masala va mashqlardan foydalanishning ahamiyatini bilishi muhim. Chunki masala va mashqlardan foydalanish talabalarning mantiqiy fikrlashini, bilim olishini, bilim sifatini oshirishga xizmat qiladi. Molekulyar biologiyani o'qitishda talabalarda malaka, ko'nikma hosil qilishda esa mashqlardan foydalaniladi. Masala ishlash orqali Molekulyar biologiya fanining mavzuga oid aniq raqamlarni, dalillarni o'rganish imkoniyati kengayadi. Mashqlardan foydalanishning samaradorligi, - mashqlarni bajarishning amalda bajarishga bog'liq bo'lib, mashq bajarish jarayonida o'rganilishi maqsad qilingan tushunchani takror va takror o'rganilishi natijasida xotirada mustaxkam o'rnatiladi.

Mashq bajarish deganda talaba o'rganishni maqsad qilib mavjud topshiriq asosida bilimni aniqlash, bilimdagi bo'shliqni to'ldirish, o'rganilgan bilimlar asosida malaka hosil qilishda bajariladigan ish. Talaba mustaqil ravishda ta'lim olishida o'rganilishi kerak bo'lgan mavzu asosida topshiriqlarni takror va takror bajarish natijasida ko'nikma va malaka shakllanadi. Mashq – o'rganishni maqsad qilib qo'ygan o'rganuvchining oldiga qo'ygan maqsadni amalga oshirish, ijobiy natijaga erishish uchun uchun bajariladigan mehnat hisoblanadi. O'rganilgan bilimlarni mashq qilmasdan o'quv - amaliy ko'nikma hamda malaka hosil qilib bo'lmaydi.

Mashqlar talabalarning bilim egallashida avval o'rganilganlarni yodga tushirishga, o'rganilganlarini amalda qo'llashga, o'quv bilish faoliyatini faollashtirishga, yangi bilimlarni hosil qilishga xizmat qiladi. Mashqlarni talabalar-ning bajarishga ko'ra: amaliy bajariladigan mashqlar, og'zaki bayon qilish asosida bajariladigan va yozma bajariladigan mashqlarga bo'lish mumkin.

Molekulyar biologiya fanini o'qitishda mashqlardan foydalanish asosida talabalarda mushohada yuritish, ilmiy xulosa chiqarishni o'rgatish bilan birga talabalarning bilimni aniqlash va bilimdagi bo'shliqlarni to'ldirishda kam vaqt sarflashlariga hamda ayrim o'rganilishida ikkilanishiga sabab bo'luvchi ma'lumotlarni farqlab o'rganishga o'rgatadi.

Molekulyar biologiya fanini o'qitishda masala va mashqlardan foydalanish hisob-kitob qilishni taqozo qiladi. Bu esa talabalardan aniq miqdorlarni, raqamlar asosida bilishga, raqamlar yordamida biologik qonun va jarayonlarni tushunishni osonlashtirishga imkon beradi. Buning uchun Molekulyar biologiya fanining nazariy ma'lumotlarini o'rganishda ilmiy abstraksiya qo'llaniladi. Ilmiy abstraksiya-dan foydalanilganda matematik ifodalar yordamida Molekulyar biologiyaga oid jarayonlarning o'zaro bog'liqliklarini tushunish osonlashadi. Talaba mavzuga oid masala va mashqlarni mustaqil bajarishi orqali oldinga qo'ygan mavzuni o'rganish maqsadiga erishadi.

Ilmiy abstraksiyalash – obektni mavhumlashtirish, uning ichki jarayonlarini hisobga olmay moddiy nuqta yoki soddada shaklda o'rganishdir. Bu usulning mohiyati shundaki, tadqiq yetilayotgan obekt ahamiyatsiz tomonlari, qismlaridan ajratib olishdan iboratdir, bu uning mohiyatini ochib beruvchi xossalarni ajratish maqsadida qilinadi. Abstraksiyalash yordamida boshqa hodisa kontekstidan fikran ajratilgan fikrlashning umumlashtirilgan natijalari shakllanadi, bu ular o'zaro bog'liqligini kuzatishga imkon beradi. Abstrakt fikrlash ijodiy yondashishning zaruriy shartlaridandir[3].

Matematik abstraktlash ilmiy-tadqiqot – formallashtirish usulining asosi hisoblanadi. Formalizatsiyalash –

tadqiqot olib borilayotgan (o'rganilayotgan) obektni, jarayonni, voqelikni matematik ifodalar bilan tasvirlash yoki matematik abstraksiyalashdir. Mazkur holda obektning e'tiborli tomonlari (xossasi, belgisi, bog'liqligi) matematik termin va tenglamalarda ifodalanadi, bular bilan keyinchalik ma'lum qoida bo'yicha amallar bajariladi[3].

Molekulyar biologiyani o'rganishda foydalaniladigan masalalarda formalizatsiyalashdan foydalaniladi. Bunda o'rganilayotgan obyektidagi mavjud miqdorlar asos qilib olinadi.

1. DNK molekulasi muayyan fragmentining uzunligi 73,1 nm ga teng. DNK molekulasidagi nukleotidlar orasidagi masofa 0,34 nm ga teng bo'lsa, ushbu fragmentda nechta nukleotid bor?

Ishlanishi:

1) $L=N \cdot 0,34$

$N=L/0,34=73,1\text{nm}/0,34\text{nm}=215$ ta

2) 1 ta zanjirda – 215 ta;

2 ta zanjirda – 430 ta

Masala shartiga binoan DNK uzunligini topilishi kerak. Shu bilan birga DNK fragmentida nukleotidlar orasidagi masofa ham berib o'tilgan. Bu tipdagi masalalardan mavzuga oid bo'lgan tushunchalarni mustaxkamlash uchun hamda masala ishlash orqali egallanadigan yangi bilimlarni o'rgatish mumkin bo'ladi.

2. DNK molekulasining tarkibida 1230 adenin bor. Shu molekula tarkibida nechta timin bor?

Ishlanishi:

1) har doim A miqdori T ga, G miqdori S ga teng.

$A-1230=1230-T$

Demak, T ham 1230 tani tashkil etar ekan

Masala shartiga ko'ra DNK molekulasining ma'lum bir qismidagi Adenin haqidagi ma'lumot berilgan. Bu tipdagi masalalardan mavzuga oid bo'lgan DNK dagi ikkita polinukleotid zanjiridagi nukleotidlar bir-biri bilan vodorod bog'lari orqali tutashishi komplementarlik qoidasiga binoan amalga oshishi, bunda adenin nukleotidi (A) timin nukleotidi (T) bilan, guanin nukleotidi (G) sitozin nukleotidi (S) bilan tutashishiga oid bo'lgan tushunchalarni mustaxkamlash uchun hamda masala ishlash orqali egallanadigan yangi bilimlarni o'rgatish mumkin bo'ladi[4].

3. Agar DNK molekulasida A–600, G–2400 ta bo'lsa, ushbu molekulaning reduplikatsiyasida qancha va qanday nukleotidlar ishtirok etadi?

har doim A miqdori T ga, G miqdori S ga teng.

Ishlanishi:

$A-600=600-T$

$G-2400=2400-S$

Masala shartiga ko'ra DNK molekulasining tarkibidagi Adenin va Guanin haqidagi ma'lumotlar berilgan. Bu tipdagi masalalardan DNK ning reduplikatsiyasi mavzuga oid bo'lgan DNK ning sintezlanayotgan polinukleotid zanjiriga Adenin A, guanin - G, timin - T va sitozin-S nukleotidlar muayyan tartibda, ketma-ket eski zanjirdagi nukleotidlarga komplementar holatda DNK polimeraza fermentlari yordamida ulanishiga oid bo'lgan tushunchalarni mustaxkamlash uchun hamda masala ishlash orqali egallanadigan yangi bilimlarni o'rgatish mumkin bo'ladi.[4]

Xulosa va takliflar. Xulosa o'rinda shuni aytilish mumkinki, Molekulyar biologiya fanini o'qitishda mashqlardan foydalanish talabalarda mavzuning mohiyatini anglab yetishiga, mavzuga oid masalalarni bajarishda mustaqil fikrlash asosida yondashishga, mavzuning dalillarini saralash va ta'lim olish jarayoniga ijodiy yondashishga imkon yaratadi. Fanni o'rganish maqsadida professor o'qituvchi tomonidan berilgan topshiriqni bajarishda talaba oldin o'zi bilmagan usullarini ijodiy yondashish asosida masala va mashqlardan foydalanish nazariy ma'lumotlarni egallanishini ta'minlaydi, mavzuning mazmuni to'g'ri ifodalash ko'nikmasini shakllantiradi, talabalarning bilim egallashlarida egallangan

bilimni nazorat qilishga hamda egallagan bilimlarini tahlil qilishga imkon beradi.

ADABIYOTLAR

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 05.06.2018 yildagi PQ-3775-son. "Oliy ta'lim muassasalarida ta'lim sifatini oshirish va ularning mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarda faol ishtirokini ta'minlash bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qarori.
2. Maxsus fanlarni o'qitish metodikasi: darslik/ Z.K Ismailova, P.M Maxsudov., O.K Ergashev, O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi. – O'.: «Yangiyo'l poligraf servis », Toshkent – 2020. – 262 b.
3. Ilmiy tadqiqot asoslari: o'quv qo'llanma /A.Radjabov; O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi. – O'.: «Tafakkur-Bo'stoni», 2012. – 208 b.
4. Valixonov M.N., Dolimova S.N., Umarova G.B., Mirhamidova P. Biologik kimyo va molekulyar biologiya (2-qism): / O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi. - T.: "NAVRO'Z" nashriyoti 2015, 204-bet.
5. Biologiyani o'qitishda pedagogik texnologiyalar: oliy o'quv yurtlari talabalari uchun darslik/ Tolipova J.O.; mas'ul muharrir G'ofurov A.T.; O'zR oliy va o'rta-maxsus ta'lim vazirligi. — T.: Cho'lpon nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2011. — 160 b.



УДК:364.735

Акмал Жўраев,

Бухоро давлат педагогика институтини профессори, н.ф.ф.д (PhD).

E-mail: akmal_djora@inbox.ru.

Фазлиддин Байчаев,

Навоий давлат кончилиги ва технологиялар университети ўқитувчиси

E-mail: bfazliddin1983@gmail.com.

Умида Баҳранова,

Бухоро шаҳар 23-сон ихтисослашган мактаб интернати ўқитувчиси

E-mail: umida_bahranova@mail.ru.

БухДУ профессори, н.ф.д С.Қ.Қаҳҳоров тақризи асосида

FORMATION OF PROFESSIONALLY ORIENTED TASKS IN PHYSICS RELATED TO THE MINING AND METALLURGICAL INDUSTRY

Abstract

This article clarifies the possibilities of formulating professionally oriented tasks in physics for future specialists in the mining and metallurgical industry. The increase of professional competence on the basis of solving professional problems is described, to study the physical methods of research used in the physical laws of the technical and technological processes of exploration, mining, processing of minerals.

Key words: Mining and metallurgical industry, education, production, practical training, professionally oriented tasks.

ФОРМИРОВАНИЕ ПРОФЕССИОНАЛЬНО ОРИЕНТИРОВАННЫХ ЗАДАЧИ ПО ФИЗИКИ СВЯЗАННЫХ С ГОРНО-МЕТАЛЛУРГИЧЕСКОЙ ПРОМЫШЛЕННОСТЬЮ

Аннотация

В данной статье уточнены возможности формулирования профессионально ориентированных задач по физики для будущих специалистов системы горно-металлургической промышленности. Описано повышение профессиональной компетентности на основе решения профессиональных задач, изучить физических методов исследования, применяемых в физических законах технико-технологических процессах разведка, добычи, переработки полезных ископаемых.

Ключевые слова: Горно-металлургическая промышленность, образование, производство, практическое занятие, профессионально ориентированные задачи.

ФИЗИКА ФАНИДАН КОН-МЕТАЛЛУРГИЯ САНОВАТИГА ОИД КАСБИЙ ЙЎНАЛТИРИЛГАН МАСАЛАЛАРНИ ШАКЛЛАНТИРИШ

Аннотация

Ушбу мақолада кон-металлургия саноати тизими бўлажак мутахассислари учун физикадан касбий йўналтирилган масалаларни шакллантириш имкониятлари аниқлаштирилган. Касбий масалалар ечиш орқали соҳада қўлланилган физик тадқиқот усуллари ўрганиш, фойдали қазилмаларни излаб топиш, қазиб олиш, қайта ишлашдаги техник ва технологик жараёнларда физика қонунларининг қўлланилини кўрсатиш асосида касбий компетентликни такомиллаштириш баён этилган.

Калит сўзлар: Кон-металлургия саноати, таълим, ишлаб чиқариш, амалий машғулот, касбий йўналтирилган масалалар.

Кириш. Мамлакатимизнинг иқтисодий кудратини юксалтиришда кон-металлургия саноати алоҳида ўринга эга. Келажакда ер ости бойликлари қазиб олиш, уларни қайта ишлаш ва сифатли маҳсулот ишлаб чиқариш энг аввало бўлажак мутахассисларнинг касбий салоҳиятига узвий боғлиқ. Юқори малакали мутахассислар тайёрлаш, кўп жиҳатдан таълим ва ишлаб чиқариш орасидаги боғланишни олиб борадиган олий таълим муассасалари зиммасидаги асосий вазифадир. Бу борада республика-мизда олиб борилаётган олий таълимни ривожлантиришдаги туб ислохотлар бўлажак мутахассисларни мустақил изланишга, касбий ва ҳаётий муаммоларни оқилона ҳал этишга ёрдам берадиган янги педагогик технология ва усуллари ишлаб чиқиш ҳамда таълим жараёнига тадқиқ этиш заруриятини келтириб чиқаради. Шунинг учун ҳам бутунги кунда мустақил фикрловчи эркин шахс концепциясини амалга ошириш узлуксиз таълим тизимининг бош вазифаси бўлиб, бунда компетентли ёндашув асосида бўлажак мутахассисларнинг касбий-педагогик ижодкорлигини ривожлантириш муҳим ҳисобланади.

Мавзуга оид адабиётларнинг таҳлили. Дунёда компетентли ёндашув асосида бўлажак мутахассисларнинг ижодкорлигини ривожлантириш масалалари бўйича мустақил фикрлаш, креатив масалаларни ижодий ечиш, технологик жараёнларни замон талаблар асосида лойihalаш асосида ривожлантиришга оид илмий тадқиқот ишлари олиб борилмоқда. Илмий адабиётлар таҳлили шуни кўрсатадики, бўлажак мутахассисларнинг касбий компетентлигига оид тадқиқотларда “касбий компетентлик” тушунчаси турлича талкин қилинади: билим ва касбий мулоқот малакалари (П.Р.Атутов, Н.В.Кузмина, Б.А.Назарова) [1, 2, 3]; фаолиятнинг муайян турларини мустақил бажаришга тайёрлик, касбий вазифаларни ҳал қилиш ва ўз меҳнати натижаларини баҳолаш малакалари (В.А.Сластенин, Э.Ф.Зеер, А.И.Шчербаков) [4, 5, 6], касбий ривожланиш ва малака оширишга қодирлик, ўзини касбий меҳнатда намоён қилиш (А.К. Маркова, Р.С.Гершунский) [7, 8] тадқиқ қилинган. Аммо, техника олий таълим муассасарида бўлажак мутахассисларнинг касбий компетентлигини фундаментал физика фани микёсида тўлиқ кўриб чиқилиши амалга оширилмаган. Бинобарин, кон

металлургия саноати бўлажак мутахассислари учун касбий йўналтирилган масалалар ечиш асосида уларнинг компетентлигини такомиллаштириш масаласи назария ва амалиёт уйғунлигини таъминловчи муҳим воситалардан биридир.

Тадқиқот методологияси. Ҳаммага маълумки, техника олий таълим муассасаларида ўқитилаётган “Физика” фани барча мутахассислик фанларининг асосини ташкил этади. Уни ишлаб чиқариш билан боғлиқ ҳолда ўқитишни такомиллаштириш, дидактик таъминотни сифат жиҳатдан яхшилаш, талабаларда ижодий тафаккурни ривожлантирувчи замонавий таълим технологияларидан фойдаланган ҳолда малакали мутахассисларни тайёрлаш борасидаги имкониятларини тадқиқ этиш бўйича тизимли ишлар амалга оширилмоқда. Ўзбекистон Республикаси Президентининг физика соҳасидаги таълим сифатини ошириш, унда назария ва амалиёт уйғунлигини таъминлаш ҳамда илмий - тадқиқот ишларини янада ривожлантиришга оид меъёрий ҳужжатларида ҳам бу соҳада қилиниш керак бўлган устувор вазибалар белгилаб берилган[9]. Буни эътиборга олиб, кон-металлургия саноати тизими бўлажак мутахассислари учун физика фанидан касбий йўналтирилган масалалар ечиш орқали физик тадқиқот усулларини ўрганиш, фойдали қазилмалар қазиб олишдаги техник ва технологик жараёнларда физик қонунларнинг қўлланишини кўрсатиш ёрдамида уларда касбий компетентликни такомиллаштириш муҳим аҳамият касб этади. Физикадан олиб бориладиган амалий машғулотларда мавзуларни мустаҳкамлашда касбий йўналтирилган масалалар ечиш орқали қуйидаги ижобий натижаларга олиб келади:

берилган мавзуга оид назарий билимларнинг аҳамиятини кўрсатилади;

ишлаб чиқаришдаги технологик жараёнлар ва ҳодисалар ҳақида тасаввурлар шакллантирилади;

физик қонуниятларни амалиётга қўллаш кўникмаси ҳосил қилинади;

мавзунини ўзлаштириш асосида мутахассислик фанларини ўрганишга замин яратилади;

фан, таълим ва ишлаб чиқариш ўртасидаги узвийлик таъминланади;

ўз мутахассисликлари бўйича илмий тадқиқот ишларини олиб бориш кўникмаси ҳосил қилинади.

Таҳлил ва натижалар. Физикадан амалий машғулотларда фақат анъанавий кўринишдаги масалалар ечиш, графиклар яшаш асосида мавзуга оид амалий кўникма ва малакаларни ҳосил қилиш билан чегараланиш ярамайди, чуқури талаба ҳар доим ўз мутахассислигига оид тушунчаларнинг фан билан қанчалик алоқадорлигини кўриб, сезиб туриши талабанинг фанга бўлган қизиқишини орттиради. Шу мақсадда физика фанидан кон-металлургия саноатига йўналтирилган касбий масалаларни ишлаб чиқиш, нафақат назария билан амалиётнинг узвийлигини таъминлайди, балки бўлажак мутахассиснинг касбий компетентлигини оширишдаги муҳим қадамлардан бири ҳисобланади [10].

Физиканинг барча бўлимларидан амалий машғулотларни самарали ташкил этиш, берилган мавзуга доир кон-металлургия саноатига оид касбий йўналтирилган масалаларни танлаш ва шакллантириш, энг аввало соҳадаги физик ҳодиса ва технологияларни тадқиқ этишдан бошланади. Улардаги техник маълумотларга таяниб, айтиб бир жараёни очиб берувчи масалаларни ишлаб чиқиш, ўқув жараёнининг дидактик бойишига сабаб бўлади. Касбий йўналтирилган масалалар бўлажак кон-металлургия саноати мутахассисининг компетентлигини такомиллаштиришга ижобий таъсир кўрсатади ҳамда фан, таълим ва ишлаб чиқариш интеграциясини таъминловчи восита сифатида хизмат

қилади. Тадқиқот ишининг натижаси ҳисобланган касбий йўналтирилган масалаларни ечиш бўйича бир неча намуналар келтириб ўтаемиз.

Карьерда руда қазиб олиш учун портлатиш ишлари бажарилади. Бунда катта тезликда руда парчалари ҳар хил йўналишда ҳаракатланади. Мана шу ҳодисага оид масалалар ечиш орқали талабаларнинг илгариланма ҳаракат кинематикасигага оид билимлари мустаҳкамланади.

1-масала. Карьерда рудани портлаш натижасида тик юқорига тезлик олган руда бўлаги 4 секундда ерга қайтиб тушиди. Бунда руданинг; 1) бошланғич тезлигини; 2) у қандай баландликка кўтарилганини аниқланг. Ҳавонинг қаршилиги ҳисобга олинмасин.

Масала шартига кўра, руда тик юқорига кўтарилса, унинг кўтарилиш ва тушиш вақти тенг бўлади. У ҳолда руда парчасининг тўла тушиш вақти $t = t_1 + t_2$ бўлса,

кўтарилиш вақти $t = 2t_1$ бўлади. Бундан $t_1 = \frac{t}{2} = 2 \text{ с}$ эканлигини аниқлаймиз.

Топилган кўтарилиш вақтидан руданинг бошланғич тезлигини топамиз:

$$g_0 = g \cdot t_1 = 20 \text{ м / с}$$

Руда бўлаги юқорига тик кўтарилса, тўғри чизиқли текис секинланувчан ҳаракат қилишини ҳисобга олсак, бунда кўтарилиш баландлигини қуйидагича аниқлаймиз:

$$h = g_0 t - \frac{gt^2}{2} = 20 \cdot 2 - \frac{10 \cdot 4}{2} = 20 \text{ м}$$

Кон металлургия саноати тизими бўлажак мутахассислари учун ер қаъридан қазиб олинadиган тоғ жинслари мисолида масалалар ечиш орқали уларнинг таркибини ўрганиш ёраида қандай миқдорда фойдали қазилмалар борлигини аниқлаш кўникмаси ҳосил қилинади.

2-масала. Массаси 2 кг бўлган кварц – SiO_2 минералидаги атомлар сонини топинг.

Моддадаги атом ёки молекула массаси, масса атом бирлигида (м.а.б) ўлчанишидан келиб чиқиб, Менделеев элементлар даврий системасида атомларнинг нисбий массалари берилган. Агар модда бир неча бошқа моддалардан таркиб топган бўлса, унинг нисбий молекуляр (атом) массаси қуйидаги ифода ёрдамида топамиз:

$$M_r(\text{ABC}...) = n(\text{A}) \cdot A_r(\text{A}) + n(\text{B}) \cdot A_r(\text{B}) + n(\text{C}) \cdot A_r(\text{C}) + \dots$$

бу ерда n – моддада нечта молекула (атом) борлигини кўрсатади.

Бунинг учун кварцни ташкил этган моддаларнинг атом массасини даврий системадан аниқлаб, нисбий атом массасини топамиз:

$$M_r(\text{SiO}_2) = 1 \cdot 28 + 2 \cdot 16 = 60$$

Битта молекуланинг массаси m_0 бўлса, Авогадро сони орқали моляр масса қуйидаги ифодага эга бўлади:

$$\mu = m_0 \cdot N_A$$

Модданинг нисбий атом массаси унинг моляр массаси билан қуйидаги муносабат орқали боғланганлигини топсак,

$$\mu = M_r \cdot 10^{-3} \text{ кг/моль}$$

Бундан тоғ жинси бўлган кварцнинг моляр массаси эса, $\mu = 60 \cdot 10^{-3} \text{ кг/моль}$ га тенг бўлади.

Маълум массали модда неча молдан иборат эканини топиш учун, унинг массасини молекуляр массасига нисбатини олиш керак:

$$\nu = \frac{m}{M_A}$$

2 кг кварц тоғ жинсидаги модда миқдорини топиш талаб этилса, у ҳолда унинг массасини Авогадро сонига бўлиш керак бўлади:

$$\nu = \frac{m}{M_A} = \frac{2}{60} = 0,03 \text{ моль}$$

Авогадро қонунидан ҳар қандай массали моддадаги молекулалар сонини аниқлаш учун Авогадро сонини моллар сонига қўпайтириш орқали топилади:


$$N = \nu \cdot N_A = 0,03 \cdot 6,02 \cdot 10^{23} = 2 \cdot 10^{22}$$

Демак, 2 кг кварцдаги атомлар сони $2 \cdot 10^{22}$ ни ташкил этади.

Фойдали қазилма бойликларини излаб топишда турли физик қонуниятларга асосланган разведка усулларидан фойдаланилади. Амалий машғулотларда шунга оид масалаларнинг берилиши ўрганилаётган мавзунинг кон-металлургия соҳасида қўлланишини очиб беради. Мисол учун, электроразведка усули - зондлар ёрдамида “Ўзгармас ток қонунлари” мавзусини мустаҳкамлаш ёрдам беради.

3-масала. Берилган чуқурликдаги тоғ жинсининг солиштирма қаршилиги махсус электроразведка усули – зондлар ёрдамида ўлчанди (1-расм). Бунда тўртта электродлардан ташкил топган зонднинг А ва В қисмлари ток манбаига, қолган М ва N қисмлари эса, ток кучи қайд қилувчи амперметрга уланган ҳолда бурғуланган қудуққа туширилди. Агар ток манбаи ёрдамида А ва В электродларга 30 В кучланиш берилса, амперметр 2 мА кўрсатади. Берилган чуқурликдаги тоғ жинсининг солиштирма қаршилиги аниқланг. Қудуқнинг диаметри 40 см, М ва N электродлар орасидаги масофа 30 см ва қудуқдаги майдонни бир жинсли деб ҳисобланг.

Берилган масалани ечилиши учун электр занжирнинг берилган қисми учун Ом қонунидан фойдаланамиз.



1-расм. Электроразведка усули

$$I = \frac{U}{R}$$

Агар бурғуланган қудуқ майдони бир жинсли бўлса, М ва N электродлар орасида юзага келувчи U кучланиш тоғ жинсидан ўтувчи ток кучи I ва унинг электр қаршилиги R га тўғри пропорционал бўлади:

$$U = RI$$

Бунда электр қаршилиқнинг модда солиштирма қаршилиги ва унинг геометрик ўлчамларига боғлиқлигини ҳисобга олиб, берилган чуқурликдаги тоғ жинсининг солиштирма қаршилигини топилади:

$$R = \rho \frac{l}{S} \Rightarrow \rho = \frac{US}{l}$$

$$S = \frac{\pi d^2}{4}$$

Бу ерда S - қудуқнинг қўндаланг кесим юзаси, l - М ва N электродлар орасидаги масофа деб ҳисобласак, U ҳолда тоғ жинсининг солиштирма қаршилиги:

$$\rho = \frac{US}{l} = \frac{U \pi d^2}{4 l} = \frac{30 \cdot 3,14 \cdot 0,4^2}{4 \cdot 2 \cdot 10^{-3} \cdot 0,3} = \frac{15,1}{2,4 \cdot 10^{-3}} = 6,3 \cdot 10^3 \text{ Ом}\cdot\text{м}$$

Конлардан қазиб олинган рудаларни таркибини ўрганиш билан бирга уларнинг ҳосил бўлиш даврини аниқлаш долзарб масалалардан бири ҳисобланади. Бунда “Радиоактивлик” мавзусига оид қонунларга мурожаат қилинади. Бу орқали радиоактивлик қонунларининг кон-металлургия саноатида қанчалик аҳамият касб этиши чуқур ўрганилади.

Хулоса ва

таклифлар. Физикадан амалий машғулотларда берилган мавзуга оид касбий йўналтирилган масалалар тизимини яратиш ҳамда зарурий масалаларни шакллантириш ўқув жараёни самарадорлигини орттиради. Бу эса, талабаларда ўз мутахассисликлари бўйича физика фаннинг қанчалик аҳамият касб этишини ўрганибгина қолмай, шу билан бирга уларни ижодий фикрлашга ўргатиб, фан ва ишлаб

чиқариш орасидаги узвийликни ривожлантиришга кенг имконият яратади. Техника олий таълим муассасаларида физика фани ўқитишда унинг ишлаб чиқаришдаги мазмунини очиб берадиган касбий йўналтирилган масалаларни ечиш талабаларнинг фанга бўлган қизиқишларини орттириб, уларнинг касбий компетентлигини янада такомиллаштига хизмат қилади.

АДАБИЁТЛАР

1. Атутов П.Р., Ложкин В.М. Подготовки преподавателей для профессиональной подготовки учащихся // Сов. Педагогика. – Москва, 1985. – №2. – С.54-57.
2. Кузмина Н.В. Профессионализм личности преподавателя и мастера производственного обучения / Н.В. Кузмина. – М.: Высшая школа, 1990. – 117 с.
3. Назарова Б.А. Педагогика коллежлари бўлгуси ўқитувчиларининг касбий лаёқатини тарбиялаш: Дис. ... пед. фан. ном. – Т.: 2009. – 170 б.
4. Сластенин В.А., Подмова Л.С. Педагогика: инновационная деятельность – М., 1997.
5. Зеер Э.Ф. Личностно-ориентированное профессиональное образование. – Екатеринбург, 1998. – 186 с.
6. Шербаков А.И. Формирование личности учителя в процессе его профессиональной подготовки. Монография. 1969. – 168 с.
7. Маркова А.К. Психология профессионализма. – М.: Знание, 1996. – 308 с.
8. Гершунский Б.С. Педагогическая прогностика: Методология, теория, практика. – Киев.: 1986. – 197 с.
9. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2021 йил 19 март ПҚ-5032-сон “Физика соҳасидаги таълим сифатини ошириш ва илмий тадқиқотларни ривожлантириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги қарори.
10. Базарова С.Дж, Байчаев Ф.Х. Ихтисосликка йўналтирилган амалий машғулотлар таълим ва ишлаб чиқариш интеграциясини ривожлантирувчи омилдир. Journal of Advances in Engineering Technology” <https://sciencealgorithm.uz>. Навоий, Ўзбекистан. Vol.1(1), Сентябрь, 2020.82-85.



Баҳром ЖўРАЕВ,

Қарши давлат университети психология кафедраси доценти, (PhD)

профессор, псих.ф.д А.Расулов тақризи асосида

ЎСПИРИНЛАРДА ҲУҚУҚИЙ САВОДХОНЛИК ШАКЛЛАНИШИДА ҲУҚУҚИЙ ОНГНИНГ АҲАМИЯТИ

Аннотация

Мақолада ўспиринларда ҳуқуқий саводхонлик шаклланишида ҳуқуқий онгнинг аҳамиятини баҳолаш ҳамда ўқувчиларнинг ҳуқуқий тушунчаларни ўзлаштиришга нисбатан психологик тайёрлик ҳолатини ривожланиши, уларнинг тафаккур хусусиятларини аниқлаш, фикрлаш жараёни воқеа-ҳодисаларни таҳлил қилиш ва ҳуқуқий саводхонлиги шаклланиши шароитида ҳуқуқий онгнинг аҳамияти ва ўрни қандай эканлиги тадқиқ этилган.

Калит сўзлар: Ҳуқуқ, ҳуқуқий саводхонлиқ, ҳуқуқий маданият, ҳуқуқий онг, ҳуқуқий тушунча, қадрият, норма, қараш, эркинлик, мажбурият, ғоя, баҳо, тасаввур, қоида, сифат, қонун, муносабат, оқибат.

ЗНАЧЕНИЕ ПРАВОСОЗНАНИЯ В ФОРМИРОВАНИИ ПРАВОВОЙ ГРАМОТНОСТИ ПОДРОСТКОВ

Аннотация

В статье рассматривается формирование правовой грамотности подростков и развитие состояния психологической готовности учащихся к освоению правовых понятий, а также определение особенностей их мышления, анализы мыслительных процессов и значение, роль правосознания в условиях формирования правовой грамотности.

Ключевые слова: Право, правовая грамотность, правовая культура, правосознание, правовая концепция, ценность, норма, видение, свобода, обязательство, идея, оценка, воображение, правило, качество, закон, отношение и последствия.

THE IMPORTANCE OF LEGAL CONSCIOUSNESS IN THE FORMATION OF LEGAL LITERACY IN ADOLESCENTS

Abstract

The article considers the formation of legal literacy of adolescents and the development of the state of psychological readiness of students to master legal concepts, as well as determining the characteristics of their thinking, analysis of the thought processes and the value, the role of legal consciousness in the formation of legal literacy.

Key words: Law, legal literacy, legal culture, legal consciousness, legal concept, value, norm, vision, freedom, obligation, idea, assessment, imagination, rule, quality, law, attitude, and consequence.

Кириш. Шахсининг ҳуқуқий саводхонлиги ва унинг шаклланиши билан боғлиқ ҳуқуқий маданият ва ҳуқуқий онг шакллари мавжуд. Улар қайсидир маънода ҳуқуқий саводхонлиқнинг шаклланиши ва ривожланиши билан узвий алоқадорликка эга. Шу боис, ўспиринлар ҳуқуқий саводхонлиги шаклланиши шароитида ҳуқуқий онгнинг аҳамияти ва ўрни қандай эканлигини муаммони тадқиқ этиш жараёнида инобатга олишни тақазо этади. Агар ҳуқуқий жабҳалар билан боғлиқ тушунчаларнинг қисқача изоҳига тўхталиб, сўнгра эмпирик материаллар таҳлиliga ўтиш максалига мувофиқ.

Асосий қисм. Ҳуқуқий онг, билим ва маданиятга эга бўлиш жинси, тили, ёши, ирқи, миллий мансублиги, этикоди, келиб чиқиши, хизмат тури, ижтимоий мавқеидан катъий назар, ҳар бир Ўзбекистон фуқароси учун ғоят катта аҳамиятга эга. «Ҳар бир фуқаро, ҳар бир инсон ўз ҳақ-ҳуқуқини яхши билиши ва уни ҳимоя қила олиши зарур. Одамларни ҳуқуқий маданият, ҳуқуқий онг, ҳуқуқий билимлар билан қуроллантириш асосий вазифалардан бири бўлиши шарт. Токи, жамиятнинг ҳар қайси аъзоси ўз ҳуқуқи, ўз бурчи ва масъулиятини пухта билмас экан, уни ҳаётий эҳтиёж сифатида англамас экан, бизнинг ислохот, янгиланиш ҳақидаги барча сўзларимиз, саъй-ҳаракатларимиз бесамар кетаверади»[1].

Ҳуқуқий онгни мамлакат фуқароларининг ҳам амалдаги ҳуқуққа, юридик амалиётга, фуқаролар ҳуқуқлари, эркинликлари, мажбуриятларига, ҳам орзу қилинган ҳуқуққа ва бошқа ҳуқуқий ҳодисаларга муносабатини ифодаловчи ҳуқуқий сезгилар, ғоялар, баҳолар, тасаввурлар тизими сифатида таърифлаш мумкин.

Шунинг учун ҳам ҳуқуқий онг – бирмунча мустақил ҳодиса бўлиб, уни ҳуқуқ назариясининг алоҳида объекти сифатида ўрганиш керак бўлади. Айнан ҳуқуқий онг орқали ҳуқуқ назарияси ҳуқуқнинг моҳияти, унинг келиб чиқиши, муайян цивилизация доирасида ҳуқуқий жиҳатдан тартибга солишнинг ўзига хос хусусияти, ҳуқуқий ҳулқ-атворнинг бўзилиши, жиноятчилик ва бошқа ижтимоий ҳавфли иллатларнинг манбалари ва сабаблари каби оламшумул муаммоларни ўрганади.

Шу нуктаи назардан олиб қараганда, ҳуқуқий онг – бу инсон ўзини қуршаб турган ҳуқуқий оламни ўрганиш, англаш қобилияти сифатида тушуниладиган онг шакллари билан биригди. Ҳуқуқий онг ижтимоий онг турларидан бири бўлиб, тўлиқ унинг хусусиятларига эга. Ҳуқуқий онг ҳуқуқ тузилишини, унинг бошқа ижтимоий ҳодисалар билан, шу жумладан: қонунчилик ва ундаги ҳуқуқий нормалар; юридик амалиёт, яъни норматив-ҳуқуқий ҳужжатларни тайёрлаш ва қабул қилиш бўйича ваколатли давлат органлари фаолияти, муайян ҳуқуқий муносабатларда ҳуқуқий нормаларни амалга ошириш бўйича давлат идоралари, фуқаролар ва бошқа шахсларнинг фаолияти, қонунни бўзишга қарши курашиш бўйича давлат ва жамият фаолияти кабилар билан турли алоқа ва муносабатларни ифода этади. Бундан ташқари, онг ҳуқуқнинг ижтимоий ҳодиса сифатида вужудга келиш ва ривожланиш тарихини, унинг тараққий этиш жараёнида босиб ўтган босқичларини гавдалантиради. Ҳуқуқий онг одамларнинг амалдаги ҳуқуқ ва бошқа ҳуқуқий ҳодисаларга муносабатларини ифодаловчи қарашлари, ғоялари, тасаввурлари, ҳис-туйғулари йиғиндиси сифатида намоён бўлади. Эндиликда ҳаммада – бутун жамиятда, барча фуқароларда зарур ҳуқуқий

онгни кўнгилдагидек шакллантириш муҳим вазифа ҳисобланади. Бироқ ҳалқ орасида саводсизлар бўлганда ёки ҳуқуқ тушунарсиз тилда ёзилганда, қонунлар матни ҳалққа бориб етмаганда ёки ҳуқуқнинг мазмуни ўта мураккаб, чалкаш ва мужмал ифодаланганда ҳалқ ўз ҳуқуқларини билиш имкониятидан бебаҳра қолиши, ҳаёт тарзи эса хатарли тус олиши мумкин. Чунки ҳуқуқ – ҳар бир онг-шуурли инсонга дахлдор ҳодиса. Шу боис ҳуқуқ билимга, зеҳнга ва ўзини ўзи идора қилишга бўлган қобилият ва салоҳиятга таянади. Айниқса, ривожланган ҳуқуқий онгда ҳуқуқнинг объектив мазмунини аниқлаш ва тушунишга бўлган қомил ишонч янада ортади[2].

Ҳуқуқий саводхонликка эришиш жараёнида ундан оғиш ва унга амал қилмаслик ҳуқуқий онгнинг қатор шаклларида намоён бўлади.

Ҳуқуқий цинизм жамиятда ҳуқуқнинг маъносини онгли равишда инкор этади, ҳуқуқ нормаларини онгли равишда бузади, ўз кучига ишонади ва ўзини тутиш қоидаларини айтиб беришдан ташқари, ўз нуктаи назарини бошқаларга юқлайди.

Ҳуқуқий нигилизм. Ҳуқуқий нигилизм - бу одамлар ўртасидаги муносабатларни муваффақиятли тартибга солиш элементи сифатида ижтимоий институт ва ҳуқ-атвор қоидалари тизими сифатида қонунни рад этиш.

Нигилизм (нигилизм, яъни лотинча «nihil» сўзидан олинган бўлиб, «ҳеч нарса» деган маънони англатади) умуман субъектлар (гуруҳлар, синфлар)нинг муайян кадриятларга, нормалар, қарашлар, орзу-интилишларга, инсон ҳаётининг айрим, кўпинча эса барча томонларига салбий муносабатини ифодалайди. Нигилизм субъектнинг ўз ижтимоий-ҳуқуқий ҳолатидан қониқ-маслиги, уни ўз имкониятларига мос деб билмаслиги натижасида ҳам юзага келади. Ҳар қалай, ҳуқуқий нигилизм қонун талабларини онгли равишда инкор этишдан иборат бўлса-да, у жиноятқорона мақсад билан амалга оширилмайди. Ёвўз мақсаднинг мавжудлиги ҳуқуқий онгнинг бутунлай бўзилган, энг оғир шаклини келтириб чиқаради.

Ҳуқуқий конформизм-шахснинг билимсизлиги туфайли қонунларга кўр-кўрона бўйсунуш.

Ҳуқуқий идеализм (legal фетишизм) — ҳуқуқий воситаларга гипертрофий муносабат, ҳуқуқнинг роли ва унинг имкониятларини ҳаддан ташқари ошириб юбориш, қонунлар ёрдамида барча ижтимоий муаммоларни ҳал қилиш мумкинлигига ишонч. Ҳуқуқий идеализм ҳуқуқий нигилизмнинг бевосита тескарсидир, аммо бу иккала тоифадаги ҳам мазмун жихатидан ўхшаш салбий оқибатларга олиб келади.

Ҳуқуқий фетишизм-ҳуқуқий онгнинг деформацияланиш шакли бўлиб, унда қонунга муқаддас хусусиятлар берилади, сўзсиз ҳокимият, мутлақ ҳақиқат, муқаддаслик, олий адолат ва қонуннинг беғуборлиги ғояси шаклланади.

Ҳуқуқий инфантилизм-бу ҳуқуқий онгнинг паст даражаси, қонун доирасидаги хатти-ҳаракатларга нисбатан жавобгарлик ҳисси, шаклланишнинг етишмаслиги, ҳуқуқий билим ва муносабатларнинг етишмаслиги, аммо натижага эришиш истагининг юқори даражаси. Ҳуқуқий инфантилизм – ҳуқуқий онг бўзилишининг нисбатан енгил шакли бўлиб, у ҳуқуқий билимнинг етишмаслиги ҳамда ҳуқуққа йўналганликнинг шаклланмаганлигида яққол намоён бўлади.

Ҳуқуқий маданият. Ҳозирги замон ҳуқуқий онги инқирози кўп жihatдан ҳуқуқий маданият савияси билан

белгиланади. Маънавий-ахлоқий ва ҳуқуқий кадриятлар тизими сифатида ҳуқуқий маданият ҳуқуқий ҳолат ривожининг эришилган даражасида, норматив ҳуқуқий хужжатларда, ҳуқуқий онгда ўз ифодасини топади.

Бўзилган онг – айниган, нуксонли ҳуқуқий онгнинг энг кескин даражасидир. У кўп жihatдан нигилизмга ўхшаб кетади. Чунки ҳар иккала ҳолатда ҳам ҳуқуқ назар-писанд қилинмайди, инкор этилади. Шунга қарамай, бўзилган онг ҳуқуқий нигилизмдан нафақат ижтимоий хавфлилик даражаси билан, балки важ-сабаблари жихатидан ҳам фарқ қилади. Бўзилган онг фақат қонунни онгли равишда инкор этибгина қолмай, бу қусурни у ғаразғўйлик, шафқатсизлик, очкўзлик каби мақсадлардан келиб чиқиб амалга оширади. Бўзилган онг намоён бўлишининг асосий шакли ҳар қандай давлат ҳаётининг ўтиш даври учун айниқса хос бўлган жиноятчилик ва коррупция ҳолатлари билан бевосита боғлиқдир. Маълумки, ҳар бир давлат тарихида жамият бир ҳолатдан бошқасига ўтиш палласи, афсуски, коррупция ва жиноятчилик каби жирканч ҳодиса билан бирга кечади. Айниқса, коррупция, авваламбор, уюшган жиноий гуруҳларга ёрдам бериш учун давлат хизматидан фойдаланишга интилади. Бунинг оқибатида жамият хавфсизлиги ва барқарорлигига очикдан-очик таҳдид юзага келади.

Ҳуқуқий идеализм. Агар ҳуқуқий нигилизм ҳуқуқни назар-писанд қилмаслик ёки уни инкор этиш ҳисобланса, ҳуқуқий идеализм ҳуқуқни ҳаддан ташқари юксак баҳолаш, идеаллаштиришни англатади. Иккала ҳодиса ҳам ҳуқуқий саводсизлик, ҳуқуқий онг яхши ривожланмаганлиги, сиёсий-ҳуқуқий маданият пастлигининг натижасидир. Гарчи ҳуқуқий идеализм ҳуқуқий нигилизм каби кўзга яққол ташланмаса-да, бу ҳодиса давлатга, жамиятга ҳуқуқий нигилизмдан кам зарар етказмайди.

Юқоридаги изоҳларга асосланган ҳолда эмпирик натижалар таҳлиliga ўтамыз. Ҳуқуқий онгнинг ўспиринлар ҳуқуқий саводхонлиги билан ўзаро алоқадорлик Д. С. Безносовнинг “Ҳуқуққа муносабат” методикаси ёрдамида ўрганилди. Методикада саккизта баҳолаш шкаласи мавжуд бўлиб, улар ўспиринлар ҳуқуқий онг хусусиятларини изоҳлайди. Методиканинг шкалалари ҳуқуқий реализм, ҳуқуқий скептицизм, ҳуқуқий конформизм, ҳуқуқий цинизм, ҳуқуқий фетишизм, ҳуқуқий инфантилизм, ҳуқуқий идеализм ва ҳуқуқий нигилизмдан иборат. Методиканинг ҳуқуқий реализм (ҳуқуқий толерантлик) шкаласи ижобий характерга эга. Ҳуқуқий скептицизм, ҳуқуқий конформизм, ҳуқуқий цинизм, ҳуқуқий фетишизм, ҳуқуқий инфантилизм, ҳуқуқий идеализм ва ҳуқуқий нигилизм шкалалари эса ҳуқуққа нисбатан деморциялашган муносабатларни (ҳуқуқий интолерантлик) акс эттиради. Деярли ушбу шкалаларнинг қисқача мазмуни ҳуқуқий онг тушунчасига қисқача изоҳ бериш шароитида баён этиб ўтилганди[3].

Ўспиринларнинг ҳуқуққа муносабати орқали уларнинг ҳуқуқий саводхонлик даражалари мақсадли шаклланишига таъсир кўрсатмоқдами ёки йўқ эканлигига аниқлик киритишдан иборат. Дастлаб методика натижаларининг шарҳини амалга оширишда қандай статистик мезонларга таяниш лозимлигига аниқлик киритиш учун нормал тақсимот қонуни бўйича синовдан ўтказдик. Методиканинг нормал тақсимот бўйича нопараметрик хусусиятга эгаллиги аниқланди. (1-жадвал).

Методика натижаларининг нормал тақсимот қонунига мослиги кўрсаткичлари
(Колмогоров-Смирнов мезони бўйича)

Кўрсаткичлар	Ҳуқуқий реализм	Ҳуқуқий скептицизм	Ҳуқуқий конформизм	Ҳуқуқий цинизм	Ҳуқуқий фетишизм	Ҳуқуқий инфантилизм	Ҳуқуқий идеализм	Ҳуқуқий нигилизм
N	317	317	317	316	317	317	316	317
Ўртача қиймат	22,410	21,92	22,20	22,78	22,34	21,93	21,80	21,75
Стандарт оғиш	4,966	4,17	5,41	4,76	4,79	5,37	4,05	4,94
Z	2,355	2,210	1,867	1,756	1,266	2,038	2,184	1,518
p	0,000**	0,000**	0,002**	0,004**	0,081	0,000**	0,000**	0,020**

Изоҳ: **- $p < 0,01$

Ҳуқуқий реализм ($Z=2,355$; $p < 0,01$), ҳуқуқий скептицизм ($Z=2,210$; $p < 0,01$), ҳуқуқий конформизм ($Z=1,867$; $p < 0,01$), ҳуқуқий цинизм ($Z=1,756$; $p < 0,01$), ҳуқуқий фетишизм ($Z=1,266$), ҳуқуқий инфантилизм ($Z=2,038$; $p < 0,01$), ҳуқуқий идеализм ($Z=2,184$; $p < 0,01$) ва ҳуқуқий нигилизм ($Z=1,518$; $p < 0,01$) шкалаларининг натижалари нормал тақсимланиш қонунига мос келмаслигини кўрсатмоқда. Шу сабабли методика натижаларини қайта ишлаш ва талқинида нопараметрик мезонларга таяниш мақсадлидир.

Ўспиринларнинг ёш хусусиятига кўра ҳуқуқий онг шакллариининг намоён бўлиш кўрсаткичларини таҳлил қилишга эътибор қаратилди (2-жадвал).

Ўспиринларнинг ёш хусусиятига кўра ҳуқуқий онг шаклларида эса жинс бўйича кўрсаткичларига нисбатан шкалалар ўртасида тафовутлар кўпроқ аниқланди. Биринчи аҳамиятли кўрсаткич ҳуқуқий реализм шкаласи бўйича 20 ёш ва ундан катталарда бошқалардан устунилик акс этди ($H=7,405$, $p < 0,05$). Ушбу ёшдаги ўспиринларда ҳуқуққа нисбатан ижобий муносабат, ҳуқуқни меъёр даражасида тушуниш, қонунчиликка доир билимга эга ва уни ижобий баҳолайди, жамиятнинг ҳуқуқий тизимига бағрикенглик, жамиятдаги ҳуқуқ-атворни асосий тартибга солувчи сифатида ҳуқуқни эътироф этиш хос экан. Бу бошқа ёшдагиларга нисбатан ва фаолият йўналишининг юқори даражада эканлиги билан характерлидир.

Ўспиринлар ҳуқуқий онг хусусиятлари кўрсаткичлари (ёш бўйича)

Шкалалар	Ўртача ранг қиймати			H (Краскел-Уоллес)	p
	17 ва 18 ёш (n=142)	19 ва 20 ёш (n=187)	21 ва ундан катта ёш (n=288)		
Ҳуқуқий реализм	142,90	148,45	173,75	7,405	0,025*
Ҳуқуқий скептицизм	153,23	166,76	156,72	1,080	0,583
Ҳуқуқий конформизм	135,94	120,17	195,67	46,094	0,000**
Ҳуқуқий цинизм	153,85	169,80	150,87	2,552	0,279
Ҳуқуқий фетишизм	169,34	151,61	158,81	1,559	0,459
Ҳуқуқий инфантилизм	161,61	172,50	148,88	4,018	0,134
Ҳуқуқий идеализм	155,97	187,43	140,97	15,396	0,000**
Ҳуқуқий нигилизм	175,16	166,86	145,99	5,997	0,050*

Изоҳ: *- $p < 0,05$, ** $p < 0,01$.

Ўз навбатида катта ёшдагилар ҳуқуққа нисбатан реализм ва ҳуқуқий бағри кенглик муносабати билан бир қаторда ҳуқуқий конформизмга хос хусусиятлар ҳам кузатилди ($H=46,094$, $p < 0,01$). Ушбу ёшдаги ўспиринлар бир жиҳатдан ҳуқуққа ижобий муносабатга эга бўлса-да, шунингдек, ҳуқуқий тизимнинг жамиятдаги ҳукмронлигини тан оларканлар, баъзида уни билмасликлари, ҳуқуқ тизимига қизиқиш бўлмаса ҳам қонунга ўйламасдан бўйсунуш хос экан.

Тадқиқотда яна ўзига хослик кузатилдики, 19 ёшли ўспиринлар ҳуқуқий идеализм шкаласи бўйича қолган ёшдагилардан аҳамиятли қийматга эга бўлдилар ($H=15,396$, $p < 0,01$). Бу эса ўспиринлар ғояга таянишга мойил эканлар, жамиятни фақат қонун орқали ўзгартириш мумкинлигига, яхши ва тўғри қонунлар жамият раванкини таъминлашига кўпроқ ишонидилар.

Эмпирик кўрсаткичларнинг яна бири 18 ёшли ўспиринлар билан кузатилди. Уларда ҳуқуқий нигилизм шкаласи бўйича бошқа ёшлардан фарқли кўрсаткич аниқланди ($H=5,997$, $p=0,05$). 18 ёшлиларда ҳуқуқий нигилизм, яъни умуман субъектларнинг муайян қадриятларга, нормалар, қарашлар, орзу-интилишларга, инсон ҳаётининг айрим, кўпинча эса барча томонларига салбий муносабатини ифодалайди. Бу эса ушбу ёшли ўспиринлар ҳуқуқий саводхонлик бўйича билимларга эга бўлса-да, аммо ҳуқуқий онг доирасида айрим бойитиш лозим бўлган жиҳатлар анчагина эканлигидан далолат бермоқда.

Мазкур тадқиқотимизга кўра ўспиринлар ҳуқуқий онги билан саводхонлиги ўртасидаги таъсирни аниқлашга эътибор қаратилди.

Ўспиринларнинг ҳуқуқий саводхонлик жиҳатлари билан ҳуқуқий онг шакллари ўртасидаги корреляция кўрсаткичлари (қўйи даража)

Шкалалар	Ҳуқуқий саводхонлик жиҳатлари		
	Когнитив	Хулқий	Эмоционал-баҳолаш
Ҳуқуқий реализм	0,174	0,219	0,172
Ҳуқуқий скептицизм	-0,574	-0,627	0,437
Ҳуқуқий конформизм	0,608	0,621	0,043
Ҳуқуқийцинизм	0,886**	0,855*	-0,105
Ҳуқуқий фетишизм	0,565	0,656	-0,128
Ҳуқуқий инфантилизм	-0,788*	0,574	-0,681*
Ҳуқуқий идеализм	0,916**	0,667*	-0,256
Ҳуқуқий нигилизм	-0,944**	-0,724*	0,019

Изоҳ: * - $p < 0,05$, ** $p < 0,01$.

Тадқиқотда ҳуқуқий саводхонлик жиҳатлари билан ҳуқуқий онг шакллари ўртасидаги ички алоқадорлик масаласини ўрганишга эътибор қаратилди. Бунинг учун ўспиринларнинг ҳуқуқий саводхонлик жиҳатлари билан ҳуқуқий онг шакллари кўйи, ўрта ва юқори даражали кўрсаткичлари ўртасидаги корреляция таҳлили амалга оширилди.

Ҳуқуқий саводхонликнинг когнитив, хулқий ва эмоционал-баҳолаш жиҳатлари қўйи кўрсаткичли ўспиринларнинг ҳуқуқий онг шакллари ўртасидаги муносабатда ҳуқуқий саводхонликнинг когнитив ($r=0,886$; $p<0,01$) ва хулқий жиҳатларининг сусайиши ($r=0,855$; $p<0,05$)ни тушунган ҳолда қонун меъёрларини бузиш, ўзининг кучи ва имкониятларига ортиқча баҳо бериши, ўзининг иродаси орқали бошқаларга таъсир ўтказиш хатти-ҳаракати кузатилади.

Ўспиринларда ҳуқуқий инфантилизм билан саводхонликнинг когнитив ($r=-0,788$; $p<0,05$) ва эмоционал-баҳолаш ($r=-0,681$; $p<0,05$) жиҳатлари ўртасидаги кучли салбий корреляция оқибатида уларнинг ҳаётда ҳуқуқни билмасдан, уларга эътибор қаратмасдан ҳам хотиржам яшаш мумкин деган хулосага олиб келмоқда.

Шунингдек, ушбу тоифа ўспиринларда саводхонликнинг когнитив ($r=0,916$; $p<0,01$) билан эмоционал-

баҳолаш ($r=0,667$; $p<0,05$) жиҳатлари ўртасидаги кучли салбий корреляция қонуннинг жамиятдаги ролини мутлақо салбий маънода иделлаштиришга олиб келиши, қонун устуворлигини салбий пасайтириб юборишларини ифодаламоқда.

Натижада ўспиринларда ўзининг ҳуқуқий жиҳатдан билимларига шахсий муносабатга, ҳуқуқий меъёрий-ҳужжатларга нисбатан шахсий муносабатига эғалиги туфайли уни ортиқча илоҳийлаштирмасликка, ҳуқуқий меъёрларни билиши ва билимлари етарли эканлигига ишонч ҳосил қилишига, ҳуқуққа нисбатан объектив муносабатини шакллантириши унинг ҳаддан ортиқ илоҳийлаштиришдан йироқ бўлишга эриштирар экан.

Ҳуқуқий саводхонлик ва унинг таркибий қисмларининг шаклланиш даражадари ҳуқуқий онг шакллари кўйи ўспиринларда намоён бўлиш хусусиятини белгилашда хизмат қилмоқда. Ўспиринларда ҳуқуқий саводхонлик ҳуқуқий онг шакллари учун таянч бўлиб хизмат қилиши юқоридаги тажриба натижалари асосида исботланмоқда. Биз ўспиринларда ҳуқуқий саводхонликни шаклланишида ҳуқуқий онг шакллари кўйи ўрни масаласини таҳлил эта олдик. Бу таҳлил ҳуқуқий саводхонликнинг шаклланиш ҳолатини бир жиҳатидир.

АДАБИЁТЛАР

1. Исломов З.М. Миллий истиклол мафкуриси: назарий асослар. // Ж. Давлат ва ҳуқуқ. – 2000. -№1. – Б. 8-9.
2. Кудрявцев И.В. Ҳуқуқий онг, маданият мафкура / Қонун ҳимоясида. -№9. 2004. – Б. 18-19.
3. Жўраев Б. Ўспиринларда ҳуқуқий саводхонлик шаклланишининг психологик хусусиятлари. Монография. Қарши «Насаф» -2022 йил. 128-б



Мафура ИНАГАМОВА,
Тошкент Давлат транспорт университети доценти, ю.ф.ф.д(PhD)
E-mail: inagamova.mafura@mail.ru

ТДТрУ профессори, ю.ф.д. А.А.Дадашева тақризи асосида

RULES OF ETIQUETTE FOR CIVIL SERVANTS (MUTUAL CHARACTERISTICS OF MORAL AND LEGAL NORMS)

Abstract

The article analyzes the interrelated aspects of ethics and law, as well as the regulatory legal documents regulating the civil servants' service activities and compliance with the norms of etiquette in off-duty time.

Key words: State civil servants, state bodies, officials, ethics, law, responsibility, conscience, leader, corruption, factionalism, localism, favoritism.

ПРАВИЛА ЭТИКЕТА ГОСУДАРСТВЕННЫХ ГРАЖДАНСКИХ СЛУЖАЩИХ (ВЗАИМНАЯ ХАРАКТЕРИСТИКА МОРАЛЬНЫХ И ПРАВОВЫХ НОРМ)

Аннотация

В статье анализируются взаимосвязанные аспекты этики и права, а также нормативные правовые документы, регулирующие служебную деятельность государственных служащих и соблюдение норм этикета во внеслужебное время.

Ключевые слова: Государственные служащие, государственные органы, должностные лица, этика, право, ответственность, совесть, лидер, коррупция, фракционность, местничество, фаворитизм.

ДАВЛАТ ФУҚАРОЛИК ХИЗМАТЧИЛАРИНИНГ ОДОБ-АҲЛОҚ ҚОИДАЛАРИГА ОИД АЙРИМ МУЛОҲАЗАЛАР(АҲЛОҚ ВА ҲУҚУҚ НОРМАЛАРИНИНГ ЎЗАРО ҲОС ХУСУСИЯТЛАРИ)

Аннотация

Мақолада ахлоқ ва ҳуқуқнинг ўзаро боғлиқ жиҳатлари ҳамда давлат фуқаролик хизматчиларининг хизмат фаолиятлари ва хизматдан ташқари вақтларда одоб-ахлоқ нормаларига риоя этишлари тартибга солиб турувчи норматив-ҳуқуқий ҳужжатлари таҳлил қилинган.

Калит сўзлар: Давлат фуқаролик хизматчилари, давлат органлари, мансабдор шахслар, одоб-ахлоқ, ҳуқуқ, масъулият, виждон, раҳбар, коррупция, гуруҳбозлик, маҳаллийчилик, фаворитизм.

Кириш. Жамият маънавий ҳаётининг ўзаро боғлиқ бўлган икки жиҳати – ахлоқ ва ҳуқуқ масаласи ҳозирги кунда айниқса долзарб ҳисобланади. Шахснинг маънавий дунёси, онги ва маданияти шаклланишида ахлоқ ва ҳуқуқ алоҳида ўринга эга. Чунки улар ижтимоий муносабатлар тизими тараққиётига таъсир кўрсатадиган, шу орқали шахс онгини ривожлантирадиган муҳим ижтимоий бошқарувчи ҳисобланади. Ахлоқ ва ҳуқуқ – инсон муносабатининг ўзаро алоқадорликда бўлган муҳим элементларидир. Уларнинг табиати жамиятдаги конкрет тарихий шароит, социал-синфий структурага боғлиқ бўлади.

Демак ахлоқ – инсон ва жамият ўртасидаги объектив алоқадорлик туфайли келиб чиқадиган, ҳар бир шахснинг ҳаёти ва фаолиятини бошқарадиган, тартибга соладиган принцип ва нормалар мажмуи бўлса, ҳуқуқ – нафақат сиёсий-юримдик, балки ижтимоий ахлоқий ҳодиса бўлиб, жамиятнинг ҳуқуқий ҳаёти инсонпарварлик, адолат, виждон ва бурч, ор-номус, эркинлик ва масъулият каби ахлоқий ҳодисаларсиз ривожлана олмайди.

Мавзуга оид адабиётларнинг таҳлили. Ахлоқ ва ҳуқуқ муносабатларига қадим даврлардан мутафаккирлар ўз эътиборини қаратганлар. Хусусан, Сукрот, Афлотун, Арасту ҳуқуқий мафқурани ишлаб чиқар экан, ахлоқни қонунчилик билан боғлашга ҳаракат қилган. Рим юристлари: “ҳуқуқ урф-одатлар маъқуллаган нарсаларни тавсия қилади» деган фикрни илгари сурганлар. Янги даврда ахлоқ ва ҳуқуқ узвий боғлиқликда олиб қаралган, ҳатто Гельвеций: “Этика” ва “Қонуншунослик”ни мен битта фан деб тушунаман” [1]-деб ёзди.

Немис классик фалсафаси намёндалари ҳам ахлоқ ва ҳуқуқ муносабатларига ўз эътиборларини қаратишган. Кант ҳуқуқ ахлоққа бўйсунди деб ҳисоблаган. Гегель фикрича, ахлоқ ва ҳуқуқ бир-бирини тақозо қилади, фарқи шундаки, ахлоқ ташқаридан бўладиган мажбурийликка йўл қўймайди[2].

Тадқиқот методологияси. Фикримизча, ҳуқуқ инсон хатти-ҳаракатини бошқариш шакли сифатида тарихий тараққиётнинг муайян босқичида, ахлоқ нормаларидан келиб чиқади. Ҳуқуқ ўз тараққиётининг турли босқичларида ахлоқ билан деярли уйғун бўлган. Фақат вақт ўтиши билан ёзма ва шаклланган қонунчиликка айланган. Бошқача қилиб айтганда, ҳуқуқ ўз ичига ахлоқийликни қамраб олади.

Ахлоқ ва ҳуқуқ ўзаро боғлиқ ва бир-бирини тақозо этувчи ҳодисалар сифатида: биринчидан, ахлоқ ва ҳуқуқ, барча фуқароларнинг манфаатлари, интилишлари ва иродасини ифодалайди; иккинчидан, шахс ва жамият манфаатларини уйғунлаштиради; учинчидан, миллий ва мулкӣ ҳолатидан қатъи назар ҳар бир фуқарога тенг талабни қўяди; тўртинчидан, ахлоқдаги тенглик принципи кишиларнинг қонун олдидаги тенг ҳуқуқли эканига мос келади; бешинчидан, ҳуқуқ аъвори баҳолаш учун бир хил мезонларни илгари суради яъни, адолатпарварлик, инсоннинг табиӣ ҳуқуқларини фуқаролик ва сиёсий эркинлигини ҳурмат қилиш; олтинчидан, ахлоқ ишонтириш методига асосланади, бу метод ҳуқуқда ҳам асосий метод ҳисобланади.

Таҳлил ва натижалар. Шу ўринда давлат фуқаролик хизматчиларининг касбий фаолиятларини тартибга солувчи бир қатор ички қоидалари мавжуд

бўлиб, мазкур норматив-ҳуқуқий ҳужжатлар соҳавий хизматнинг фаолиятида алоҳида ўрин эгаллаши билан муҳимдир. Чунки, давлат хизматчиларининг ўз фаолиятида амал қилиши лозим бўлган одоб-ахлоқ қоидаларини билмаслиги, уларнинг аниқ баён этилмаслиги ва бундай турдаги қоидаларнинг амал қилиниши устидан лозим даражадаги назоратнинг йўқлиги давлат хизмати соҳасида суистеъмоллик ва коррупция ҳолатлари келиб чиқишининг асосий сабабларидан бири дейишимиз мумкин. Криминология соҳасидаги мутахассислар фикрича жамиятда коррупциянинг асосий манбаи айнан нопок мансабдор шахслар ҳисобланади. Бу соҳадаги олимлардан Б.В.Волженкин коррупцияни кенг маънода давлат ва жамиятнинг бошқарув аппаратида издан чиқарувчи, ҳокимиятнинг ахлоқий бузилишида, мансабдор шахсларнинг ўзларининг хизмат мавқееларидан ғаразли мақсадларда шахсий манфаатларида фойдаланишида ифодаланган ҳодисадир[3] деб ифодалаган эди.

Мамлакатимизда давлат бошқарув органлари, мансабдор шахслари фаолиятини тартибга солишга қаратилган бир қатор ахлоқий, ҳуқуқий нормаларлар қабул қилинаётганлиги қонунчилигимизнинг адолатли ва ўз касбига содиқ хизматчиларни шакллантиришга қаратилган мақсадли вазифа эканлигини таъкидлаб ўтиш жоиз. Жумладан, Ўзбекистон Республикасининг «Давлат фуқаролик хизмати тўғрисида»ги қонуни[4]га мувофиқ, давлат хизматчиларининг таркибига Ўзбекистон Республикаси Президенти, Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлиси Қонунчилик палатаси депутатлари ва Сенати аъзолари, Қорақалпоғистон Республикаси Жўқорғи Кенгеси ҳамда бошқа маҳаллий давлат ҳокимияти вакиллик органлари депутатлари, Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлиси Қонунчилик палатаси ва Сенати деовналари ходимлари, Ўзбекистон Республикаси Марказий сайлов комиссияси аъзолари, судьялар ва суд тизими ходимлари, Ўзбекистон Республикаси Марказий банки бошқаруви аъзолари, прокуратура, ички ишлар, муҳофаа ишлари, фавқулодда вазиятлар, Ўзбекистон Республикаси Миллий гвардияси, Давлат божхона хизмати, Давлат хавфсизлик хизмати ва Ўзбекистон Республикаси Президенти Давлат хавфсизлик хизмати органларида хизматни ўтаётган давлат хизматчилари ва ҳарбий хизматчиларидан иборатдир этиб белгиланганлиги, бошқарув органларининг барча соҳавий хизматчиларига таалуқли эканлигини билдиради.

Юқоридаги соҳавий хизмат ходимлари давлат фуқаролик хизматчилари сифатида айнан ахлоқ ва қонун нормаларига асосланиб ўз фаолиятни амалга оширадиган ҳамда уларнинг одоб-ахлоқ қоидалар сифатида қуйидагилар белгиланган: жумладан, раҳбарлар, бўйсунувдагилар ва бошқа давлат фуқаролик хизматчилари ўртасидаги ўзаро ахлоқий муносабатлар; давлат фуқаролик хизматчиларининг ишчанлик обрўсига ва давлат фуқаролик хизматининг нуфузига путур етказиши мумкин бўлган ҳаракатлар (ҳаракатсизлик); давлат фуқаролик хизматчисининг хизмат фаолиятидаги ва хизматдан ташқаридаги ҳуқ-атворининг асосий қоидалари.

Мазкур жиҳатларнинг барча ўз ўзидан ҳуқуқга нисбатан ҳурмат ва қонунларга итоаткорликни асосида фаолиятларини олиб боришларини таъминлашга қаратилган.

Бундан ташқари, Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 2022-йил 14-октябрдаги 595-сонли “Давлат фуқаролик хизматчилари томонидан ахлоқ-одоб қоидаларига риоя этилишини таъминлаш бўйича қўшимча чора-тадбирлар тўғрисида”ги қарорига имзоланди. Одоб-ахлоқ қоидаларида давлат хизматчилари ўз касбий фаолиятида амал қилиши лозим бўлган принциплар, мажбуриятлар белгилаб қўйилган бўлиб, улар давлат хизмати соҳасида бевосита ва билвосита

коррупциявий қилмишларни олдини олишга йўналтирилган, дейишимиз мумкин. Хусусан, мазкур қоидаларга қўра давлат хизматчилари ўз касбий фаолиятида адолатлилик, ҳалоллик ва ҳолислик, манфаатлар тўқнашувига йўл қўймаслик принципларига амал қилиши лозим. Шу билан бирга, давлат хизматчиларининг мажбуриятлари сифатида ўз хизмат вазифаларини бажаришига тўсқинлик қилувчи бирор-бир шахсий, мулкӣ ва бошқа манфаатларнинг таъсири билан боғлиқ бўлган хатти-ҳаракатларга барҳам бериш, ўзларининг хизмат вазифаларини виждонан бажаришда шубҳа пайдо қилиши мумкин бўлган ҳуқ-атвордан ўзини тийиш, хизмат мавқеидан давлат органлари, бошқа ташкилотлар, уларнинг мансабдор шахслари, шунингдек фуқаролар фаолиятига ноқонуний таъсир кўрсатиш учун фойдаланмаслик кўрсатилган. Мазкур ҳужжатда давлат хизматидаги раҳбар шахсларнинг ҳам бир қатор мажбуриятлари белгиланган. Хусусан, раҳбар ўзига бўйсунувчи ходимларга нисбатан юқори профессионализм, софлик ва адолатда ўрнат бўлиши, давлат органида ёхуд унинг таркибий ёки ҳудудий бўлинмасида маънавий-психологик муҳит шаклланишига қўмаклашиши лозим, у бўйсунувчи ходимлардан уларнинг хизмат вазифалари доирасидан чиқиб кетадиган топшириқларни бажаришини талаб қилмаслиги, шунингдек қонунга ҳилоф хатти-ҳаракатларни содир этишга ундамаслиги керак. Раҳбар кадрларни қариндошлик, ҳамшаҳарлик ёки шахсий садоқат белгилари бўйича танлаш ва жой-жойига қўйиш ҳолатларига йўл қўймаслиги керак. У гуруҳбозлик, маҳаллийчилик, фаворитизм кўринишларининг, шунингдек ўз хизмат вазифаларини бажариш жараёнида бошқа салбий омилларнинг қатъий равишда олдини олиши лозим. Шу билан бирга, раҳбар манфаатлар тўқнашувининг олдини олиш ва уларни тартибга солиш юзасидан ўз вақтида чора-тадбирлар кўриши, коррупциянинг олдини олиш чораларини кўриши шарт. Раҳбар ўзига бўйсунувчи, хизматдаги ҳуқ-атвори принциплари ва қоидаларини бузаётган ходимларнинг хатти-ҳаракатларига (ҳаракатсизлигига) йўл қўйил-маслиги чораларини кўрмаганлиги учун жавоб беради.

Ушбу қарорда давлат фуқаролик хизматчиларининг касбий маданият, хизмат ва хизматдан ташқари фаолияти ҳамда жамоатчилик, оммавий ахборот воситалари вакиллари билан муносабатлари шунингдек, хизмат фаолиятидаги ташқи кўриниш ва кийиниш услубига оид обод-ахлоқ нормалари аниқ белгилаб берилган бўлиб бу ўз навбатида, уларнинг хизмат вазифаларини виждонан, ҳалол ва юксак профессионал даражада бажариш, расмийчилик, сохтакорлик ва суистеъмолчиликка йўл қўймасликка ва фуқароларнинг жинси, irqи, миллати, фуқаролиги, тили, дини, ижтимоий келиб чиқиши, эътиқоди, шахсий ва ижтимоий мавқеи камситилишига олиб келувчи таъсир чоралари ва ҳаракатларни содир этмасликларига хизмат қилади.

Демак, ҳар қандай норматив-ҳуқуқий ҳужжатнинг амалиётда ишлаши унинг ишлаш механизми қанчалик таъминланганлигига боғлиқ. Одоб-ахлоқ намунавий қоидаларида ушбу қоидаларни бузганлик учун жавобгарликни назарда тутувчи алоҳида боб мавжуд бўлиб, унда қоидаларнинг самарали ижроси ва назоратини таъминлашга қаратилган нормалар киритилган. Буларга мисол қилиб қуйидагиларни келтириш мумкин: давлат хизматчиси томонидан Одоб-ахлоқ қоидаларига риоя этилиши аттестациялар ўтказишда, юқори ва бошқа лавозимларга тайинлаш учун кадрлар захирасини шакллантиришда ҳисобга олинади; Одоб-ахлоқ қоидалари нормаларининг бузилишлари махсус таркибий бўлинма ёки Одоб-ахлоқ комиссияси томонидан кўриб чиқилади.

Хулоса ва таклифлар. Одоб-ахлоқ қоидаларининг бузилиши ҳолатларини махсус таркибий бўлинма ёки Одоб-ахлоқ комиссияси томонидан қўриб чиқиш натижалари бўйича интизомий ёки бошқача тарздаги қоида бузилишларининг мавжудлиги (мавжуд эмаслиги) тўғрисида хулоса чиқарилади. Айни вақтда давлат органи раҳбарининг қўриб чиқишига қоидалар бузилишини содир этган давлат хизматчисини жавобгарликка тортиш тўғрисида таклиф киритилади. Йўл қўйилган қоида бузилишининг характерини ҳисобга олган ҳолда, Одоб-ахлоқ комиссияси давлат хизматчисига нисбатан Одоб-ахлоқ қоидаларининг бузилишига йўл қўймаслик тўғрисидаги оғохлантириш билан чекланиши мумкин.

Қайд этилган Ҳукумат қарори билан Республика давлат бошқаруви органлари ҳамда Қорақалпоғистон Республикаси Вазирлар Кенгаши, вилоятлар ва Тошкент шаҳри ҳокимларига икки ой муддатда ўз фаолияти хусусиятларини ҳисобга олган ҳолда, Одоб-ахлоқ қоидалари асосида марказий аппарат, ҳудудий ва таркибий бўлинмалар ходимлари учун мажбурий бўлган ходим-

ларнинг идоравий одоб-ахлоқ қоидаларини ишлаб чиқиш ва тасдиқлаш; Одоб-ахлоқ комиссияси тўғрисидаги низомни ва унинг шахсий таркибини тасдиқлаш юклатилган. Бунда ходимларнинг тасдиқланадиган идоравий одоб-ахлоқ қоидалари Одоб-ахлоқ қоидалари талабларига зид бўлиши ёки улардан паст даражадаги талабларни назарда тутиши мумкин эмаслиги кўрсатилган. Бундан давлат органлари ўзларининг ички қоидаларида намунавий қоидаларда баён қилинган талабларга нисбатан ҳам юқорида ва жиддийроқ қоидаларни одоб-ахлоққа тааллуқли давлат хизматчисининг иш фаолиятига боғлиқ белгилаши мумкинлиги келиб чиқади.

Фикримизча, бунда давлат органлари идоравий одоб-ахлоқ қоидаларини белгилашда коррупциявий қилмишлар вужудга келишини олдини олишга йўналтирилган талабларни аниқлаштириш ва кучайтириши ҳамда одоб-ахлоқнинг муҳим таркибий қисми ҳисобланган кийиниш маданиятига боғлиқ қоидаларни ҳам бу ҳужжатда мустаҳкамлаб қўйиши мақсадга мувофиқ.

АДАБИЁТЛАР

1. Гельвеций К.А. Об уме.-М, 1992. –С.156.
2. Носирхўжаева Г. Этика. Эстетика. Юридик институт талабалари учун ўқув қўлланма. Масъул муҳаррир: Ўзбекистон Республикаси санъат арбоби А.Иброҳимов. –Т.: ТДЮИ нашриёти, 2006. –114 бет.
3. Службные преступления: Комментарий законодательства и судебной практики. — СПб.: Юридический центр Пресс, 2005. – 560 с.
4. Қонунчилик маълумотлари миллий базаси, 09.08.2022 й., 03/22/788/0723-сон



Дилафруз ИСМОИЛОВА,
Чирчиқ давлат педагогика университети катта ўқитувчиси
E-mail:ismoilovadili0716@mail.com

ГулДУ профессори Б.Рахимов тақризи асосида

THEORETICAL ISSUES OF THE MECHANISMS OF TRAINING EDUCATIONAL WORK TEACHERS

Annotation

Higher educational institutions that meet specific and modern students operate in Uzbekistan, and today there is a process of bringing the effectiveness of their activities to the levels of international educational programs. There are factors, tools and mechanisms for directing students to the profession of a teacher of educational work. It is on their basis that it is possible to attract educated and able-bodied young people to the profession of a teacher of educational work, to have teachers of professional educational work through it. At this point, the analysis of the means of training educators of higher education, professional educational work in the process of higher pedagogical education was studied.

Key words: Upbringing, education, educator, tutor, ethics, didactics, knowledge, skills, qualifications, personality, strategy, methodology.

ТЕОРЕТИЧЕСКИЕ ВОПРОСЫ МЕХАНИЗМОВ ПОДГОТОВКИ ВОСПИТАТЕЛЬНОЙ РАБОТЫ ПЕДАГОГОВ

Аннотация

В Узбекистане функционируют уникальные и отвечающие современным требованиям высшие учебные заведения, и сегодня идет процесс вывода эффективности их деятельности на уровень международных образовательных программ. Существуют факторы, средства и механизмы ориентации учащихся на профессию педагога воспитательной работы. Именно на их основе возможно привлечение образованной и способной молодежи к профессии педагога по воспитательной работе, благодаря чему можно приобрести педагогов по профессиональной воспитательной работе. В данной работе проведен анализ средств подготовки педагогов профессионального образования с высшим образованием в процессе высшего педагогического образования.

Ключевые слова: Воспитание, образование, педагог, воспитатель, мораль, дидактика, знания, умения, квалификация, личность, стратегия, методика.

ТАРБИЯ ИШИ ПЕДАГОГЛАРИНИ ТАЙЁРЛАШ МЕХАНИЗМЛАРИНИНГ НАЗАРИЙ МАСАЛАЛАРИ

Аннотация

Ўзбекистонда ўзига хос ва замонавий талабаларга жавоб берадиган олий таълим муассасалари фаолият юритмоқда ҳамда бугунги кунда уларнинг фаолият самарадорлигини халқаро таълим дастурлари даражаларига олиб чиқиш жараёни кечмоқда. Талабаларни тарбия иши педагоги касбига йўналтиришнинг омиллари, воситалари ва механизмлари мавжуд. Айнан улар асосида тарбия иши педагоги касбига билимли ва лаёқатли ёшларни жалб этиш, бунинг воситасида профессионал тарбия иши педагогларига эга бўлиш мумкин. Бу ўринда олий педагогик таълим жараёнида олий маълумотли, профессионал тарбия иши педагогларини тайёрлаш воситалари таҳлили тадқиқ этилган.

Калит сўзлар: Тарбия, таълим, педагог, тьютор, ахлоқ, дидактика, билим, кўникма, малака, шахс, стратегия, методика.

Кириш. Жаҳон таълим тизимида ҳар бир мамлакатнинг идеал мақсад-муддаоларидан келиб чиқиб таълим тизimini ривожлантириш жараёни кечмоқда. Бунда қуйидаги икки тенденция кўзга ташланади: биринчидан, ҳар бир мамлакатнинг таълим бўйича ўз миллий тажрибасига асосланиши; иккинчидан, жаҳон мамлакатларининг таълим бўйича тажрибаларини ўзлаштириши. Шу сабабли жаҳон таълим тизимида ўзига хослик ва умумийлик тенденциялари тенг равишда таркиб топиб бормоқда. Бунда PISA, TIMSS, PIRLS ва STEAM халқаро таълим дастурлари асос бўлмоқда. Жумладан, STEAM халқаро таълим дастури воситасида таълим олувчиларга табиий фанлар, санъат фанлари ва математика фанини уйғун ўқитиш билан уларнинг мустақил фикрлаш, ижодкорлик ҳамда мустақил фаолиятга тайёргарлик кўникмаларини шакллантиришга эътибор берилмоқда. Мазкур халқаро таълим дастури негизида таълим олувчиларнинг тарбиялаш масаласи ҳам муҳим ўрин тутди.

Мамлакатимиз таълим тизимида тарбия ишининг мутлақо янги ёндашувларини жорий этиш ислохотлари амалга оширилмоқда. Чунки таълимнинг кредит-модул шароитида тарбия иши билан шуғулланиш муҳим аҳамиятга эга. Шу сабабли мамлакатимиз олий таълим

муассасаларида тарбия иши билан шуғулланувчи янги тизим – тьюторлик амалга киритилди[1]. Мазкур тизим ўқитишнинг кредит-модул шароитида бевосита тарбия жараёни ва унинг самарадорлиги билан амалий шуғулланади. Бундан ташқари, ўқитишнинг кредит-модул шароитида бўлажак тарбия иши педагогларини тайёрлаш механизмларини такомиллаштириш муаммосини илмий тадқиқ этиш долзарб бўлиб турибди.

Мавзуга оид адабиётларнинг таҳлили (Literature review). Ўзбек педагогик меросида тарбия иши, уни амалга ошириш ва тарбия иши билан шуғулланувчиларга қўйиладиган талаблар тўғрисида ўзига хос қарашлар билдириб ўтилган. Жумладан, Абу Наср Фаробий “Фозил одамлар шахри” асарида тарбия иши билан шуғулланувчилар 12 фазилатга эга бўлиши кераклигини кўрсатиб ўтади[6]. Юсуф Хос Ҳожиб “Қутадғу билиг” асарида тарбия иши билан шуғулланувчилар ақл, заковат ва қаноат сифатларига эга бўлишини таъкидлайди[7]. Алишер Навоий “Маҳбуб ул-қулуб” асарида тарбия иши билан шуғулланувчилар пок ниятли, ширин сўзли ва эркин фикрли бўлиши лозимлигини уқтиради[8]. Жадид маърифатпарвар педагоги Маҳмудхўжа Беҳбудий тарбияда замон талаблари, янги илмлар ва фидойилик масалаларига асосланиш кераклигини алоҳида таҳлил

қилган. Абдулла Авлонийнинг “Туркий гулистон ёхуд ахлоқ” асарида шахс тарбиясида поклик, адолат, қаноат, инсонийлик каби ахлоқий фазилатларга таяниш ва улар асосида инсонни оиладан бошлаб тарбиялаш масалалари тадқиқ этилган.

Хорижлик педагоглардан Я.А.Коменский, И.Г.Пецтолоцци ва К.Д.Ушинскийларнинг асарларида ижтимоий тарбия, шахс тарбияси ҳамда фуқаролик тарбияси масалалари ёритилган[9]. Жумладан, Я.А.Коменскийнинг “Буюк дидактика” асарида бўлажак ўқитувчиларнинг адолат, жамият ва педагогик талабларига жавоб бериши, И.Г.Пецтолоццининг “Гиркуридга хатлар” асарида таълим берувчиларнинг амал қилиши керак бўлган инсонийлик қоидалари ва К.Д.Ушинскийнинг “Тарбияда халқ руҳи” асарида эса таълим жараёнини шахсни ўзи мансуб халқ руҳида тарбиялаш масалалари тадқиқ қилинган.[10] Мазкур масалалар ва қарашлар мақоламизнинг мазмунига сингдирилган.

Тадқиқот методологияси. Педагогик мерос ва педагогик илмий тадқиқотларда тарбия назарияси, методологияси ва технологиялари ёритилгани ҳолда тарбия иши билан шуғулланувчиларга умумий педагогик талаблар ҳам қўйилган. Мазкур талаблар мажмуидан тарбия иши педагогларига қўйиладиган талабларни, тарбия иши педагогларининг фаолият асосларини ишлаб чиқиш тақозо этилади. Буларнинг барчаси Ўзбекистонда тарбия иши педагогларини тайёрлаш механизмларини такомиллаштириш ва унинг асослари муаммосини тадқиқ этишни тақозо этади.

Билим бериш жараёнида амалга ошириладиган тарбияда ўқув фанларининг мазмуни, мақсад ва вазифаларининг таъсири бўлади. Мисол учун, бугунги таълим жараёнида ўқитиладиган аниқ, гуманитар ва табиий фанларнинг ҳусусиятлари ҳамда уларни ўқитиш жараёнидаги муҳит тарбия ишида ўзига хос тарзда акс этади. Айни пайтда, мазкур фанлар шахс тарбиясида аниқлик, ижтимоийлик ва табиийлик муҳитини юзага келтириши билан муҳим аҳамиятга эга. Шу сабабли бундан кейин Ўзбекистон таълим тизимида ўқитиладиган аниқ, гуманитар ва табиий фанларнинг тарбиявий мақсад-вазифалари ҳамда методологик асосларини аниқлаштириб олиш мақсадга мувофиқ бўлади. Мисол учун, бунда ўқув фанларининг тарбиявий ҳусусиятлари тўғрисида “Ўқитувчи китоби” адабиётлари воситасида муҳим методологик тавсиялар бериш имконияти мавжуд.

Таълим жараёнида ва тизимида тарбиявий тадбирлар воситасида тарбия ишини амалга ошириш яна бир муҳим ҳусусиятидир[3]. Бунда таълим олувчиларга жамоавий тадбирлар, ташаббуслар ва мақсадли тарбиявий ҳаракатлар орқали тарбия бериш амалда бўлиб келаётганлиги маълум. Айни пайтда, тарбиявий тадбирлар воситасида амалга ошириладиган тарбия иши шакллари аниқ белгилаб қўйишга эҳтиёж мавжуд. Мисол учун, таълим жараёнида амалга ошириладиган “Тарбиявий соатлар” ёки “Ахборот ва мураббийлик соати” каби тарбиявий тадбирлар шакллари баъзида мазмунан эскириб, самараси кам кузатишмоқда. Бундан ташқари, мураккаб пандемия шароитларида таълимнинг масофавий тарзда амалга оширилиши ва таълим фаолиятида муассасада бўлишнинг чекланиши натижасида тарбиявий тадбирларни мақсадли ўтказишга салбий таъсир кўрсатиши маълум бўлди. Шу сабабли тарбиявий тадбирлар воситасида тарбия ишини амалга оширишнинг ноаънанавий шакллари мажмуини белгилаб олиш муҳим тарбиявий вазифага айланди. Шу маънода, масалан, “Китобхонлик” каби тарбиянинг ноаънанавий шаклдан оқилона фойдаланиш мақсадга мувофиқ бўлади. Унга кўра, ўқитувчи ёки мураббий томонидан таълим олувчиларнинг ёш, жисмоний ва руҳий ҳусусиятларини

ҳисобга олиб, уларга ўқиш учун адабиётлар мажмуини тақдим этади. Ҳар бир таълим олувчининг ўқиган адабиётлари коллоквиум шаклида қабул қилиниб, таълим олувчи рағбатлантирилади. Тарбия ишининг “Китобхонлик” каби ноаънанавий шакли мураккаб шароитларда ва масофавий таълим жараёнида таълим олувчиларга мақсадли тарбия беришнинг муҳим омилдир.

Таҳлил ва натижалар. Ўзбекистонда тарбия иши педагогларини тайёрлаш механизмларини такомиллаштиришнинг назарий, методологик ва амалий масалалари таҳлил қилинганлиги ҳамда унинг асослари белгиланганлиги, мазкур ишнинг механизмлари ишлаб чиқилганлиги ҳамда тадқиқот хулосаларида педагогик туркумдаги фанларни такомиллаштиришда фойдаланилганлигидан иборат. Умумий ўрта таълим мактаблари ўқувчиларини тарбия иши педагогига касбига йўналтириш методикаси ва олий педагогика таълим муассасаларида олий маълумотли тарбия иши педагогларини тайёрлаш механизмлари ишлаб чиқилганлиги, педагогик туркумдаги фанлар-“Тарбия”, “Бошланғич таълимда “Тарбия” фанини ўқитиш методикаси” ва “Тарбиявий ишлар методикаси” фанлари тарбия иши педагогларини тайёрлаш мавзуси билан бойитилганлиги асосида изоҳланади.

Тарбия ишининг педагогик тажрибаларини ўрганиш шунинг кўрсатадики, бу борада қуйидаги уч масалага эътибор бериш мақсадга мувофиқ бўлади.

- тарбия иши бўйича миллий педагогик тажрибалар;

- тарбия иши бўйича жаҳон халқларининг педагогик тажрибалари;

-тарбия ишида миллий педагогик ва жаҳон халқлари педагогик тажрибаларини уйғун қабул қилиш.

Буларнинг барчаси тарбия иши бўйича педагогик тажрибалардан оқилона фойдаланишни ва тарбия иши педагогларини тайёрлаш тизими ҳамда унинг асосларини ишлаб чиқишда уларга таяниш мумкинлигини кўрсатади.

Эътибор берилса, тарбияга доир Шарқ ва Ғарб педагогик тажрибалари ўзаро уйғун бўлиб, улардан оқилона фойдаланиш тақозо этилади. Бу ўринда таъкидлаш лозимки, бу тажрибалардан фойдаланиш натижасида прагматик ёндашувга эришилади. Бундай ёндашувга кўра, тарбия жараёнида амалий натижаларига асосий эътибор қаратилади. Демократик жамият шароитида тарбия жараёнига бўлган талаблар ўзгаради. Чунки демократик тамойиллар шахснинг ҳуқуқ ва эркинликларини устувор қўйишга асосланади. Аммо тарбия жараёни ҳуқуқ ва эркинликларнинг чекланган тарзда бўлиши тақозо этади. Негаки шахснинг ҳуқуқ ва эркинлиги ўзгаларнинг бу борадаги манфаатларига дахл қилмаслиги керак. Шу сабабли бугунги Педагогика фани олдида демократик жамият шароитида тарбиянинг ўзига хос педагогик тажрибасини шакллантириш долзарб бўлиб турибди. Бу борадаги бизнинг ёндашувимиз қуйидагилардан иборат:

шахснинг ҳуқуқ ва эркинликлари мезонларини ишлаб чиқиш;

демократик жамият шароитида тарбияга қўйиладиган талабаларни шакллантириш;

тарбия ишида иштираётган жамоатчиликнинг педагогик кўникмаларини мунтазам ривожлантириб бориш;

шахснинг ўзи ва ўзгаларга бўлган муносабати мезонларини белгилаш;

“Ҳаёт давомида таълим олиш” тамойили асосида тарбиянинг инсон ҳаёти давомида амалга ошириш механизмларини белгилаш.

Тарбия иши педагогига касбининг (мутахассислигининг) мазмуни ёш авлодни тарбияланганлик даражаси билан белгиланади. Бунда бизнинг ёндашувимизга

кўра, демократик жамият шароитида ёшларнинг нисбатан кўп фоизи талаб даражасида тарбияланган бўлиши лозим. Бу масала Ўзбекистон ҳам қўшилган Бирлашган Миллатлар Ташкилотининг “Ёшлар-2030” Стратегиясида ҳам белгиланган[2]. Мазкур Стратегияга кўра, ёш авлод муносиб таълим шароити билан таъминланиши, ўз жамиятининг ва инсониятнинг эҳтиёжларига мос тарбияланиши ва ўзининг иқтидорини намоён қила олиши даражасида вояга етказилиши керак. Шу маънода мамлакатимизда бу ишларни амалга оширишда бўлажак тарбия иши педагоглари муҳим вазифани бажаради.

Хулоса ва таклифлар. Таълим йўналишлари ва классификатори”га қўшимча киритиб, унда Тарбия иши педагоги мутахассисларини тайёрлашни назарда тутиш мақсадга мувофиқлигини кўрсатади. Ўзбекистон Республикаси Олий ва ўрта махсус таълим вазирлигининг 2021 йил 19 октябрдаги буйруғи билан янгиланган “Олий таълим давлат стандарти. Таълим йўналишлари ва классификатори” амалга киритилди. Кези келганда таъкидлаш лозимки, мазкур Классификатор замон талаблари, жамият эҳтиёжи ва тараққиёт заруриятига кўра мунтазам янги мутахассислар билан бойитиб борилади. Шу жиҳатдан бу ҳужжат қотиб қолган меъёрий қоида эмас. Бизнинг ёндашувимизга кўра, Тарбия иши педагоги

мутахассислигини Классификаторга киритиш зарурият бўлиб турибди. Чунки олий педагогик таълим жараёнида “Тарбия” фани ўқитувчиларини тайёрлаш йўлга қўйилган ва бу тоифа мутахассислар фақат шу фанни ўқитиш билан шугулланмайди. Аксинча, улар таълим тизимида тарбия иши билан кенг шугулланади. Буларнинг барчаси Тарбия иши педагоги мутахассислигини таъсис этиш ва уларни тайёрлашни йўлга қўйиш асосли эканлигини кўрсатади.

Ўзбекистонда тарбия иши педагоглари тайёрлаш зарурияти тарбия иши педагоги касбининг мазмуни ва вазифаларини аниқ белгилаш, уларга қўйиладиган касбий ва ижтимоий талабларни шакллантириш ҳамда мазкур тоифа педагогларининг профессионалини ишлаб чиқиш, унга амал қилиш билан белгиланади. Бунинг натижасида профессионал тарбия иши педагоглари эга бўлинади.

Тарбия иши педагоглари тайёрлаш зарурияти мазкур тоифа педагоглари ва вазифаларини аниқ белгилаш, уларга қўйиладиган талабларни шакллантириш ва уларнинг профессионалини ишлаб чиқиш ҳамда профессионал тарбия иши педагоглари тайёрлашга киришиш билан белгиланади. Чунки янги Ўзбекистон шароитида бу йўналишдаги янги мутахассисларни тайёрлаш эҳтиёжи мавжуд.

АДАБИЁТЛАР

1. Ўзбекистон Республикаси Президентининг “Ўзбекистон Республикаси олий таълим тизимини 2030-йилгача ривожлантириш концепциясини тасдиқлаш тўғрисида” ги 2019-йил 8-октябрь ПФ-5847 Фармони. Lex.uz
2. Вазирлар Маҳкамасининг 18.01.2021 йилдаги «Ўзбекистонда ёшларга оид давлат сиёсатини 2025 йилгача ривожлантириш концепциясини тасдиқлаш тўғрисида»ги 23-сон қарори. Lex.uz.
3. Ўзбекистон Республикаси Президентининг Маънавий-маърифий ишлар самарадорлигини ошириш ва соҳани ривожлантиришни янги босқичга кўтариш тўғрисида ПҚ-3160 Қарори. 2017 йил 28 июль. Lex.uz.
4. Ўзбекистон Республикаси Халқ таълими вазирининг 2020 йил 14 октябрдаги 235-сонли “Тарбия” фани учун умумий ўрта таълимнинг давлат таълим стандартини тасдиқлаш тўғрисида”ги буйруғи. //www.ziyounet.uz
5. Ўринов В. Ўзбекистон Республикаси олий таълим муассасаларида ECTS кредит-модул тизими: Асосий тушунчалар ва қоидалар. – Тошкент, 2020
6. Абу Наср Фаробий. Фозил одамлар шаҳри. – Т., 1993.
7. Юсуф Хос Ҳожиб. Қутадғу билиг. – Т., 1971.
8. Алишер Навоий. Тўла асарлар тўплами. 14 – том. – Т., 2001 ва ҳ.к.
9. Педагогические наследие. Тексты. – Москва, 1990
10. Бордовская Н.Д., Реан А.А. Педагогика. –С.Пб.:”Питер”.2001.-С. 119



УДК: 323.342.534 (575.1)

Абдумавлон КАСИМОВ,
Ўзбекистон Миллий университети тадқиқотчиси
E-mail: kasimov750@mail.ru

PhD К.Н. Каюмов тақризи асосида

МАҲАЛЛИЙ БЮДЖЕТЛАР ИЖРОСИ УСТИДАН ДЕПУТАТЛИК НАЗОРАТИ АМАЛИЁТИНИНГ ҚЎЛЛАШДА НОМАРКАЗЛАШТИРИШНИНГ АҲАМИЯТИ

Аннотация

Ушбу мақолада маҳаллий бюджетлар ижроси устидан депутатлик назорати амалиётининг тарихий ривожланиш эволюциясига онд маълумотлар келтирилган. Маҳаллий бюджетлар ҳар бир мамлакат иқтисодий ва ижтимоий ҳаётида муҳим роль ўйнайди. Уларни қай тартибда сарфланиши ва ўз ўрнини топишда депутатлик назорати муҳим аҳамиятга эга. Мақолада айнан шу масалага эътибор берилган бўлиб, ушбу назорат зарур давлат маблағларини ўз ўрнига етиб боришига хизмат қилади. Бу айнан жамият барқарорлигини таъминлаш, давлат бошқарувига шахслар ишончи мустаҳкамлаш ҳамда коррупция ҳолатларини олдини олишга хизмат қилади.

Калит сўзлар: Депутат, маҳаллий бюджет, номарказлаштириш, бошқарув органлари, солиқ, тараққиёт, имтиёз.

ВАЖНОСТЬ ДЕЦЕНТРАЛИЗАЦИИ В ПРИМЕНЕНИИ ПРАКТИКИ ДЕПУТАТСКОГО КОНТРОЛЯ ЗА ИСПОЛНЕНИЕМ МЕСТНЫХ БЮДЖЕТОВ

Аннотация

В данной статье представлена информация об исторической эволюции практики депутатского контроля за исполнением местных бюджетов. Местные бюджеты играют важную роль в экономической и социальной жизни каждой страны. Депутатский контроль важен в целях обеспечения надзора над расходами и целевом их использовании. В статье уделяется внимание этому вопросу, так как данный контроль служит для того, чтобы необходимые государственные средства доходили до места своего предназначения. Он способствует обеспечению стабильности общества, укреплению доверия граждан к государственному управлению, предупреждению случаев коррупции.

Ключевые слова: Депутат, местный бюджет, децентрализация, органы управления, налоги, развитие, льготы.

THE IMPORTANCE OF DECENTRALIZATION IN THE APPLICATION OF THE PRACTICE OF DEPUTY CONTROL OVER THE EXECUTION OF LOCAL BUDGETS

Annotation

This article provides information about the historical evolution of the practice of deputy control over the execution of local budgets. Local budgets play an important role in the economic and social life of each country. Parliamentary control is important in order to ensure oversight of expenditures and their targeted use. The article pays attention to this issue, since this control serves to ensure that the necessary public funds reach their destination. It contributes to ensuring the stability of society, strengthening citizens' trust in public administration, and preventing cases of corruption.

Key words: Deputy, local budget, decentralization, governing bodies, taxes, development, privileges.

Кирриш. Маҳаллий бюджетнинг бугунги кундаги тақсмоти ва унинг назорати давлат ижтимоий сиёсати даражасида муҳим ҳисобланади. Жумладан, давлат томонидан ажратилаётган пул маблағларини назорат қилишда депутатлик назорати энг ишончли назоратлардан бири бўлиши мумкин. Бу ваколатни берилиши аҳолини давлат ва келажакка ишончини ортишига олиб келади. Бунинг натижасида ҳалқ манфаатлари ва инсоннинг олий кадрият эканлиги, унга кўрсатиладиган хизматлар сифати самарадорлигини ошириш имконини беради.

Номарказлаштириш жараёнлари замонавий тараққиёт шароитида маҳаллий бошқарув органлари ихтиёрига маҳаллий солиқлар базасини белгилаш, алоҳида солиқлар ва йиғимларнинг ставкаларини ўрнатиш, баъзи ҳудуд тараққиётини белгилловчи муҳим йўналишлар кесимида солиқ имтиёзларини ўрнатиш ваколатлари ҳамда харажатлар таркибига аниқлик киритиш имтиёзларини берилишини таъқозо этади.

Бугунги кунда номарказлаштириш йўналиши борасида изланишларни амалга ошираётган олимлар, бу масалаларни ҳал қилишда аниқ моделлар ишлаб чиқилиши лозимлигини эътироф этмоқдалар. Шунинг учун ҳам Ўзбекистон шароитида амалга оширилаётган бюджет соҳасидаги кенг миқёсдаги ислохотлар бу борада изчил тадқиқотлар лозимлигини кўрсатмоқда.

Жаҳон тажрибасидаги мавжуд турли даражадаги бюджетлар марказлашган ва номарказлашган турларининг амалиётида ҳар хил моделлари қўлланади. Бунинг негизида эса давлатлар тузилиши аҳамиятга эга. Бунда авваламбор марказлашган ёки федератив мамлакатлиги ҳал қилувчи омиллардан бири ҳисобланади. Аммо марказлашган мамлакатларда ҳам давлат бюджети даромадлари ва харажатларининг нормарказлашганлик даражаси турлича.

Мавзуга онд адабиётлар таҳлили. Бугунги кунда номарказлаштириш жараёнларини тадқиқ этувчи олимлар кўпчиликини ташкил этади. Жумладан, америкалик социолог Джон Масионис[1] нинг тадқиқотларига кўра, 20 та ривожланган мамлакатда марказий ҳукуматлар харажатлари 65%ни ташкил этган бўлса, 23 та ривожланаётган мамлакатларда 89%ни ташкил этган. Бундан хулоса қилиб, фискал номарказлаштириш даражасини ошириш ўз-ўзидан иқтисодий тараққиёт тезлигини оширади деб айта олмаيمиз. Аслида давлат молиясининг номарказлашганлик даражаси иқтисодий тараққиётнинг сабаби эмас, аксинча натижасидир, деб баҳоланади.

Шу ўринда John Joseph Wallis ва Wallace Oatesнинг кузатишларини мисол қилиб келтирамиз [2]. Биринчидан, давлат ҳудуди қанчалик катта бўлса, унинг “номарказ-

лашганлик даражаси” шунчалик кенгрок бўлиши; иккинчидан, мамлакат аҳолисининг сони қанчалик кўп бўлса, шунчалик унинг “номар казлашганлик даражаси” кенгрок бўлиши; учинчидан, аҳоли жойлашшининг зичлик даражаси, яъни шаҳарларда яшовчи аҳолининг улуши қанчалик кўп бўлса, унинг “номарказлашганлик даражаси” шунчалик кенгрок бўлиши; тўртинчидан, аҳоли турмуш даражаси қанчалик юксак бўлса, унинг “марказлашганлик даражаси” шунчалик юқори бўлса, яъни давлат бюджет даромадларини қайта тақсимлаш билан боғлиқ вазифалари кўпроқ бўлиши; бешинчидан, жамият (давлат аҳолига) хизматларининг турлари кўплиги, ҳудудлардаги хилма-хиллиги бюджетнинг номарказлашганлик даражаси юқори бўлишини таъкидлайди. Бу ёндашувдан фарқли ўлароқ, номарказлаштириш даражаси давлат ривожланганлиги даражасига боғлиқлиги эътироф этилади.

Давлат бюджетини марказлаштириш ёки номарказлаштириш сиёсатининг амалга оширилишида иқтисодий тараққиётга таъсир этувчи кўплаб омилларини инобатга олиш лозим. Булар қаторида давлат сиёсий тизими хусусиятлари, унинг турли бошқарув даражалари орасидаги тарихий шаклланган алоқалари алоҳида эътиборга лойик. Маҳаллий бошқарув органларининг молиявий мустақиллигини ривожлантириш давлат молиясини номарказлаштириш борасидаги муҳим масалалардан биридир.

Давлат бюджетининг номарказлаштирилиши қатор афзалликлари билан бирга камчиликлардан холи эмас. Булар оқилоналигининг баҳоланишида энг оддий ёндашув ижтимоий (жамият) ҳаражатларнинг кўпайиши ёки тежалиши билан белгиланади. Бюджетнинг номарказлаштирилиши иккита асосий масалани ҳал қилишга қаратади: маблағлар тақсими ва бюджет тизимининг яратувчилик самарадорликларини ошириш.

Таҳлил ва натижалар. Бюджет тизими, бюджет маблағларидан фойдаланишнинг натижадорлиги таъминли Ўзбекистон Республикаси Бюджет кодексининг 14-моддасида келтирилган. Унга кўра бюджет жараёни иштирокчилари бюджет тизими бюджетларини тузиш ва ижро этишда ўзларига берилган ваколатлар доирасида бюджет тизими бюджетларининг белгиланган ҳажмдаги маблағларидан фойдаланган ҳолда натижага эришиш заруриятдан келиб чиқади [3].

Кенг маънода, давлат бюджетини номарказлаштириш маҳаллий бошқарув органларига ўз даромадларини шакллантиришларида ва ҳаражатларини амалга оширишларида кенгрок ваколатлар берилиши ҳамда уларнинг мажбуриятларини бажаришдаги масъулиятларини оширишга қаратилиши назарда тутилади. Маҳаллий бошқарув органларининг аҳолига яқинлиги уларнинг фуқаролик жавобгарликларини кучайтиришга, ҳаражатларининг шаффофлигини таъминлашга ҳамда аҳоли олдида назоратда бўлишлари даражасини оширишга хизмат қилади.

Бюджетнинг номарказлаштирилиши деб, ҳар қандай маҳаллий бошқарув органлари бюджетларига молиявий маблағларни жалб қилишнинг кўпайтирилишига айтади. Бу ҳолни миллий иқтисодиётни маъмурий-бўйрукбозлик бошқарув тизимидан фуқаролик жамиятига ўтиш билан боғлиқ жараёнлар қаторида баҳолаш ҳам ўринлидир. Шунда, давлат бюджетини номарказлаштирилишининг самарадорлиги давлат марказлашган бюджетни даромадларининг улуши ва маҳаллий бюджетлар даромадларининг шаклланиши орасидаги маълум уйғунликка эришиш ҳамда маҳаллий бошқарув органларига даромадларига яраша ваколатлари бўлишини назарда тутати.

Ижтимоий хизматларининг фақат марказий ҳукумат томонидан таъминланиши уларнинг қийматини

ҳаражатларининг ошиб кетишига олиб келади. Барча ҳудудларга бирдай хизмат кўрсатиш, баъзи ҳудудларда улар миқдорининг ҳаддан ташқари кўпайиб кетиши, бошқаларида етишмаслигига олиб келади. Давлат бюджетни ҳисобидан амалга ошириладиган жамият хизматларининг нормарказлаштирилиши маҳаллий бошқарув органларининг халққа яқинлиги натижасида алоқаларнинг раволиги, аҳоли ўз истакларини мунтазам изҳор этиб боришини таъминлайди. Ўз-ўзидан, аҳолининг турли хил давлат марказий электрон порталларига мурожаат қилиш эҳтиёжлари камайиб боради.

Бюджетнинг номарказлашган тизимининг тараққиёти ижтимоий-иқтисодий жараёнлар барқарорлигини (стабиллигини) таъминлашга хизмат қилади. Амалий бюджет номарказлаштирилиши, бюджет чекловларининг қатъийлигини таъминлаш орқали бюджет дефицитининг олдини олишга ҳам хизмат қилади [4]. Номарказлашган бюджетлар маҳаллий бозорлар фаолиятини мувофиқлаштириб боришга рағбарлантириладилар. Ниҳоят, номарказлашган бюджет қарорлар бир нечта вариантда ўрганилиши ва маҳаллий шароитга энг мос қарор қабул қилиш имконини беради.

Шу билан бирга, энг муҳим масала ваколатларни бюджетнинг шу даражасига бериш керакки, у ваколатларини тўлалигича бажара олиши ва ушбу натижалардан энг кўп манфаатли бўлиши лозим.

Этиборга лойик жойи шундаки, бюджетларни номарказлаштириш ҳақида қарор қабул қилинишида ҳудудий иқтисодиёт таркиби ва молиявий оқимлар ҳақида аниқ маълумотларга эга бўлиш, номарказлаштириш ҳақидаги қарор қанчалик умумдавлат манфаатлари ва маҳаллий аҳоли эҳтиёжларини қониқтиришига қандай таъсир кўрсатишининг таҳлили бўлиши керак [5]. Бошқача айтганда, ҳудудий ва марказий даромадлар қисми, пастанд тепага кетадиган ва тепадан паства тушириладиган молиявий оқимлар, уларнинг самарадорлиги ва натижадорлиги, уларнинг ўзгариши самарадорлик ҳамда натижадорликлари қандай таъсир кўрсатиши ҳақида аниқ таҳлилий маълумотлар бўлиши лозим.

Бундай маълумотлар ҳар бир ҳудуднинг қанчалик ўз эҳтиёжларини қоплаш ва қанчалик ўз тараққиётини таъминлашга қодир эканлигини яққол кўрсатади.

Умуман олганда, маҳаллий бюджетларнинг номарказлаштирилишини, агар номарказлашган қарорлар қабул қилиш ваколатлари етарли бўлса, бунда энг долзарб маҳаллий эҳтиёжлар аниқлаштирилиб борилса, бюджет маблағларидан фойдаланиш натижадорлиги ортиси имконияти амалга оширилсагина жорий қилса бўлади. Бюджетнинг номарказлаштирилиши, авваламбор, бюджетлар мустақиллиги таъминлининг бажарилиши билан боғлиқдир. Бюджет тизими бюджетларининг мустақиллиги таъминли Ўзбекистон Республикаси Бюджет кодексининг 13-моддасида келтирилган [6]. Бюджет тизими бюджетларининг мустақиллигини таъминлашда ҳал қилувчи омил даромадларни (авваламбор солиқли даромадларни) бюджетларнинг ҳар бир даражасининг ҳаражатларига яраша бириктирилишидир. Жаҳон амалиётида солиқли даромадлар бириктирилишининг уч тури учрайди.

Биринчисига кўра, маҳаллий ҳокимиятларга уларнинг барча ҳудудларидан тушадиган солиқ даромадлари бириктирилади. Ушбу даромадлардан белгиланган қисми бюджет тизимининг юқори поғоналарига ўтказиб берилади. Бу маблағлар ҳукуматнинг умумдавлат ҳаражатларини қоплашга мўлжалланади.

Иккинчи тури биринчисидан фарқли ўлароқ, барча даромадларнинг марказий ҳукуматга йўналтирилишини назарда тутати. Кейинчалик тушган даромадлар маҳаллий

бошқарув органларига грантлар, турли дастурларни молиялаштириш ва ёки бошқа трансфертлар шаклида қайта тақсимланади. Бу услуб ҳам маълум камчиликлардан холи эмас. Асосийси, харажат ваколатларига эга ҳокимиятлар ва солиқлар тушадиган ҳудудлар орасидаги боғлиқлик даражаси суст бўлади. Бу ҳол бюджетларро самарали муносабатларнинг шаклланишига тўсиқлик қилади.

Даромадлар шаклланишидаги ваколатлар тақсимланишининг учинчи услуби даромадларнинг баъзи турларини маҳаллий бюджетларга бириктирилишини назарда тутди. Зарур ҳолларда етишмаётган даромадларни мувофиқлаштирувчи солиқларни бириктириш ёки маҳаллий бюджетларга трансфертлар орқали ўтказиб бериш қўлланилади. Бу услуб иккита биринчи турлар орасидаги услуб бўлиб, уларнинг камчиликларини бартараф қилиш имконларига эга. Бунда қуйи бошқарув органларига солиқ йиғиш ваколатлари бириктирилган ҳолда, у солиқ юки ва харажатлар борасидаги қарорлар орасида уйғунликни таъминлашга қаратилган. Қарорлар қабул қилишда маҳаллий бошқарув органлари харажатлар ва наф олиш орасида қабул қилаётган қарорларини мувофиқлаштириб бориш имконига эгадирлар. Натижада нафақат иқтисодий самарадорликка, балки харажатлар соҳасида ижтимоий ютуқларга ҳам эришилади.

Маҳаллий бюджетларни шакллантиришда жойлардаги давлат ҳокимияти органларининг ваколатларини кенгайтириш мақсадида қабул қилинган Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2017-йил 7-

июнда қабул қилинган фармони алоҳида этиборга молик [7].

Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2022-йил 28-январдаги “2022–2026-йилларга мўлжалланган Янги Ўзбекистоннинг тараққиёт стратегияси тўғрисида”ги ПФ-60-сон Фармон [8]ларида айнан бюджет масалаларига алоҳида этибор қаратилган. Унга мувофиқ маҳаллий бюджетларнинг даромадлари базасини тубдан мустаҳкамлаш, юқори турувчи бюджетлар ажратмаларига қарамлигини қисқартириш, уй-жой-коммунал, транспорт-коммуникация ва ижтимоий инфратузилмани модернизациялаш ва техник янгилаш бўйича стратегик муҳим инвестиция лойиҳаларини амалга оширишни сўзсиз таъминлаш юзасидан маҳаллий давлат ҳокимияти органларининг мустақил иш олиб бориши ва масъулиятини ошириш мақсадида қабул қилинди.

Хулоса ва таклифлар. Биринчидан, маҳаллий бюджет харажатлари, жумладан, белгиланган нормативлар доирасида бюджет ташкилотлари ва уларнинг штат бирликларини оптималлаштириш ҳисобига йили давомида бўшаб қолган маблағларни бошқа зарур харажатларга йўналтириш; иккинчидан, маҳаллий бюджетлар ижроси тўғрисидаги молиявий ҳисоботларни норматив-ҳуқуқий ҳужжатларда белгиланган тартибда ва муддатларда халқ депутатлари Кенгаши ва юқори молия органига тақдим этилишини таъминлаш; учинчидан, бюджет тақсмоти борасида ҳам номарказлаштириш жараёнларини тезлаштириш ва унинг назоратини депутатларга берилиши муҳим аҳамият касб этади.

АДАБИЁТЛАР

1. John Macdonis Social Problems. 4th edition. – Pearson Prentice Hall, 2010. –P.180.
2. Wallis J., Oates W. Decentralization in the Public Sector: An Empirical Study of State and Local Government // Fiscal Federalism: Quantitative Studies / Ed. by H. Rosen. Chicago: University of Chicago Press, 1988. pp. 13-15.
3. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2017-йил 7-июндаги “Маҳаллий бюджетларни шакллантиришда жойлардаги давлат ҳокимияти органлари-нинг ваколатларини кенгайтириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги ПФ-5075-сонли фармони. // Ўзбекистон Республикаси қонун ҳужжатлари тўплами, 2017 й., 24-сон, 488-модда.
4. King D. N. Local Government Economics in Theory and Practice. L.: Routledge, 1992. –P.120.
5. Bahl R. Urban Public Finance in Developing Countries / R. Bahl, J. Linn. Washington World bank.1992. –P.120.
6. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2017-йил 7-июндаги “Маҳаллий бюджетларни шакллантиришда жойлардаги давлат ҳокимияти органлари-нинг ваколатларини кенгайтириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги ПФ-5075-сонли фармони. // Ўзбекистон Республикаси қонун ҳужжатлари тўплами, 2017 й., 24-сон, 488-модда.
7. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2017-йил 7-июндаги “Маҳаллий бюджетларни шакллантиришда жойлардаги давлат ҳокимияти органлари-нинг ваколатларини кенгайтириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги ПФ-5075-сонли фармони. // Ўзбекистон Республикаси қонун ҳужжатлари тўплами, 2017-й., 24-сон, 488-модда.
8. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2022-йил 28-январдаги “2022–2026-йилларга мўлжалланган Янги Ўзбекистоннинг тараққиёт стратегияси тўғрисида”ги ПФ-60-сон Фармони. //Ўзбекистон Республикаси қонунчилиги ахборот-ҳуқуқий тизими, 2022-й.



*Эъзозахон КАСИМОВА,
Фаргона вилояти ХТБ бўлим бошлиғи
Наманган давлат университети мустақил тадқиқотчиси
qosimovae@mail.ru*

Фалсафа фанлари доктори, профессор С.Саидқосимов тақризи асосида

PRINCIPLES OF INTERETHNIC HARMONY AND RELIGIOUS TOLERANCE IN NEW UZBEKISTAN

Annotation

The importance of strengthening the foundations of peace and sustainable development in the Republic of Uzbekistan by ensuring inter-ethnic harmony and harmony, the prevailing atmosphere of religious tolerance, friendship and solidarity in further raising the prestige of Uzbekistan in the international arena is extensively analyzed in the article.

Keywords: Inter-ethnic harmony, peace, national value, religion, development, nation, society, spiritually, future, inter-ethnic relations

ЯНГИ ЎЗБЕКИСТОНДА МИЛЛАТЛАРАРО ТОТУВЛИК ВА ДИНИЙ БАҒРИКЕНГЛИК ТАМОЙИЛЛАРИ

Аннотация

Ўзбекистон Республикасида миллатлараро ҳамжиҳатлик ва тотувликни таъминлаш орқали тинчлик ва барқарор тараққиёт асосларини мустаҳкамлаш, диний бағрикенглик, дўстлик ва бирдамлик муҳитининг ҳукм суриши Ўзбекистоннинг халқаро майдондаги обрў-эътиборини янада юксалтиришдаги муҳим аҳамияти мақолада кенг таҳлил этилган.

Калит сўзлар: Миллатлараро ҳамжиҳатлик, тинчлик, миллий қадрият, дин, тараққиёт, миллат, жамият, маънавият, келажак, миллатлараро муносабатлар

ПРИНЦИПЫ МЕЖНАЦИОНАЛЬНОГО СОГЛАСИЯ И РЕЛИГИОЗНОЙ ТОЛЕРАНТНОСТИ В НОВОМ УЗБЕКИСТАНЕ

Аннотация

Широко освещается важность укрепления основ мира и устойчивого развития в Республике Узбекистан путём обеспечения межнационального согласия и согласия, царящей атмосферы религиозной толерантности, дружбы и солидарности в дальнейшем повышении авторитета Узбекистана на международной арене проанализировано в статье.

Ключевые слова: Межнациональное согласие, мир, национальная ценность, религия, развитие, нация, общество, духовность, будущее, межнациональные отношения.

Кириш. Ўзбекистон ўзининг кўп асрлик тарихида қадим-қадимдан кўпмиллатли ва кўпконфессияли мамлакат бўлиб келган ва шундай бўлиб қолмоқда. Ўзининг таркиби ва мазмуни жиҳатидан хилма-хил халқлар бирлигидан ташкил топган бизнинг жамиятимизда миллатлараро тотувликни сақлашга алоҳида эътибор бериб келинмоқда. Шу боисдан ҳам Биринчи Президенти Ислоҳ Каримов мамлакатимизда қарор топган миллатлараро муносабатларнинг характерида алоҳида тўхталиб, “Ўзбекистоннинг бойликлари кўп, лекин бизнинг энг катта бойлигимиз, энг катта қадриятимиз, бу – жамиятимизда ҳукм сураётган тинчлик, миллатлараро дўстлик ва ҳамжиҳатликдир”, – деб таъкидлаган эди. Шу нуқтаи назардан қараганда, бугунги кундаги яна бир муҳим вазифа мамлакатимизда миллатлараро тотувлик ғоясининг доимий устувор бўлишини таъминлаш билан боғлиқ. Бунда инсонпарвар, адолатли, ҳуқуқий жамият қуришни ўз олдига мақсад қилиб қўйган мамлакатимиз аҳолиси онгида ҳар бир миллатнинг ўз миллий маданияти борлигини, ҳар бир этнос, этник гуруҳ дунёда ягона эканини, уларга нисбатан ҳурмат билан муносабатда бўлиш, зинҳор бирини бошқасидан устун қўйиш мумкин эмаслигини назардан қочирмаслик ниҳоятда муҳим ҳисобланади.

Ўзбекистон Республикасида миллатлараро ҳамжиҳатлик ва тотувликни таъминлаш орқали тинчлик ва барқарор тараққиёт асосларини мустаҳкамлаш барча миллат ва элат вакилларининг устувор вазифаси бўлиб қолмоқда. Бу ҳақда фикр юритганда Президентимиз Шавкат Мирзиёевнинг “...Бизнинг давлатимиз кўп

миллатли ва кўп конфессияли давлат. Бугунги кунда мамлакатимизда 130 дан ортиқ миллат ва элат вакиллари бир оила фарзандларидек аҳил ва иноқ яшамоқда. Бу борада, ҳеч шубҳасиз, халқимизга азалдан хос бўлган бағрикенглик анъаналари муҳим роль ўйнамоқда”[1], – деган сўзлари замирида нақадар катта маъно мужассам экани аён бўлади.

Бугун мамлакатимиздаги янгиланиш ва ислохлар ҳақида сўз кетганда жаҳон ҳамжамияти “Янги Ўзбекистон” деган иборани бот-бот тилга олмоқда. Давлатимиз раҳбари Шавкат Мирзиёев томонидан миллатлараро тотувлик ва конфессиялараро ҳамкорликка берилаётган алоҳида эътибор мамлакатимиз тараққиётида янги даврни бошланишига замин яратди. Юртимиздаги бундай ижобий ўзгаришлар дунё ҳамжамиятида Ўзбекистонга бўлган қизиқишни янада ошириб, унинг халқаро майдондаги нуфузини тобора мустаҳкамламоқда. Халқимизга хос бўлган бағрикенглик ва инсонпарварлик маданиятининг равнақида миллатлараро тотувлик, конфессиялараро ҳамкорлик муҳитининг ҳукм суриши фуқароларимизни хусусан, ёш авлодни она Ватанга фидойий ва садоқат руҳида тарбиялашда муҳим аҳамият касб этмоқда.

2022-2026 йилларга мўлжалланган Янги Ўзбекистоннинг Тараққиёт стратегиясининг еттинчи устувор йўналиши сифатида мамлакатимиз хавфсизлиги ва мудофаа салоҳиятини кучайтириш, очик, прагматик ва фаол ташқи сиёсат олиб боришга бағишланган «Миллатлараро тотувлик ва динлараро бағрикенглик

мухитини мустаҳкамлаш” деб номланган бандида куйидаги вазифалар белгилаб берилган:

1. Миллий маданий марказларни давлат томонидан қўллаб-қувватлаш тизимини янада такомиллаштириш.

2. Миллатлараро муносабатлар соҳасида Ўзбекистон Республикаси давлат сиёсати концепциясининг изчил амалга оширилишини таъминлаш.

3. Турли миллат ёшлари учун қўшимча қулай шарт-шароитлар яратиш, уларда фуқаролик бурчини англаш, ватанпарварлик, бағрикенгликка асосланган миллатлараро муомала маданиятини юксалтириш.

4. Хорижий тилларда фаолият юритаётган ҳамда миллатлараро муносабатлар соҳасида давлат сиёсатини ёритаётган оммавий ахборот воситаларини давлат томонидан қўшимча қўллаб-қувватлаш чораларини кўриш.

5. Хорижий мамлакатлар билан дўстлик алоқаларини ривожлантириш мақсадида дўстлик жамиятлари фаолиятини такомиллаштириш[2].

Ижтимоий тараққиёт жараёни миллий ўзлиқни англашнинг ўсиши туфайли, муайян давлатда яшаётган, ўз давлатчилигига эга бўлмаган этник гуруҳларда сепаратизм ғояларини вужудга келиши мумкинлигини кўрсатган. Бу эса, давлатнинг худудий яхлитлиги, суверенитетига хавф туғдириши мумкин. Бундай салбий ҳолатларнинг олдини олиш учун муайян давлат ўз худудидаги этник гуруҳларнинг муаммо ва эҳтиёжларини ўз вақтида аниқлаш ва уларни ҳал этишнинг мақбул механизмларини ишлаб чиқиши лозим бўлади.

Бугунги кунда юртимизда 130 дан ортиқ миллат ва элатлар ўзаро иноқ, тотувликда яшаб келмоқда. Мамлакатимизда 16 та конфессияга мансуб диний ташкилотлар эркин фаолият юритмоқда. Ўз навбатида, мазкур конфессияларнинг ўз фаолиятини амалга ошириш ва мамлакат ҳаётида фаол иштирок этиши учун ҳамма имкониятлар мавжуд. Республика давлат таълим муассасаларида ўқитиш 7 тилда олиб бориляпти[3].

Бағрикенглик–инсон ҳуқуқларини қарор топтириш, плюрализм (шу жумладан, этномаданий плюрализм), демократия ва ҳуқуқнинг тантанасига қўмаклашиш мажбурияти. Бағрикенглик ақидабозликдан, ҳақиқатни мутлақлаштиришдан воз кечишни англашувчи ва инсон ҳуқуқлари соҳасидаги халқаро ҳуқуқий ҳужжатларда ўрнатилган қоидаларни тасдиқловчи тушунчадир.

Бағрикенгликни намоён қилиш инсон ҳуқуқларига бефарқ ёки ижтимоий адолатсизликка сабр-тоқатли муносабатда бўлиш, иймон-этикодидан воз кечиб бошқаларнинг этикодида ён босиш эмас. У шуни англатадики, ҳар ким ўз этикодида амал қилишда эркиндир ва ҳар ким бу ҳуқуққа бошқалар ҳам эга эканини тан оломи лозим. У шуни англатадики, одамлар ташки қўриниши, қиёфаси, ўзини тутиши, нутқи, хулқи ва қадриятлари жиҳатидан фарқланади, улар дунёда яшашга ва ўзларининг ана шу индивидуаллигини сақлаб қолишга ҳақлидирлар. У яна шуни англатадики, бир кишининг қарашлари бошқаларга мажбуран сингдирилиши мумкин эмас[5].

Диний бағрикенгликнинг миллатлараро муносабатларга таъсири куйидагиларда намоён бўлади:

Биринчидан, дин ва диний қадриятлар Ўзбекистонда шаклланаётган этносиёсий парадигмага қарши чиқмайди, балки ривожланишини таъминлашга ўз восита ва усуллари билан ёрдам беради. Этносиёсий парадигманинг стратегик мақсади жамиятнинг барча аъзолари, шу жумладан динга этикод қилувчилар, конфессиялар, диний ташкилот аъзоларига ҳам дахлдордир.

Иккинчидан, Ўзбекистон дунёвий демократик, ҳуқуқий давлат, унда дин давлатдан ажратилган, дин давлат ишларига аралашмаганидек, давлат ҳам диний

идоралар, ташкилотлар ички ишларига аралашмайди. Бироқ бу дин ва диний идоралар, этикод қилувчилар истаган ишини қилиши, давлат ва жамият ҳаётига индиферент муносабатда бўлиши мумкин, деган фикрга олиб келмаслиги зарур. Диндорлар қандай ижтимоий-ахлоқий ва сиёсий-ҳуқуқий қадриятларга таянишига давлат, жамият бефарқ қарай олмайди.

Учинчидан, халқлар, миллатлар иноқ яшаганида, стратегик мақсадни ўзининг ҳаётий мақсади сифатида қабул қилганида ижтимоий тараққиётни таъминлаш мумкин.

Тўртинчидан, полиэтник давлатларда этномаданий плюрализм ва политеизм табиий ҳол ҳисобланади. Этномаданий плюрализм билан политеизмни муросада ушлаб туриш, уларни ижтимоий тараққиёт манфаатларига хизмат қилишини таъминлаш этносиёсий парадигма зиммасидаги мураккаб вазифалардан биридир.

Бешинчидан, диний бағрикенглик деструктив гуруҳларга, фундаментализм ва терроризмга ҳушомад, ён босиш эмас, у мудом хатти-ҳаракатлар ва ғоявий қарашларни ижобий ёки салбий характерга эга эканини ажрата оладиган воқеликдир. Инсоннинг “ижтимоий мавжудот” эканлиги унинг хатти-ҳаракатлари ва ғоявий қарашларига маълум бир талаблар, хатто чекланишлар қўяди. Бу ижтимоий талаблар ва чекланишлар ҳуқуқий нормалар ҳамда маънавий-ахлоқий императивлар орқали белгиланади.

Олтинчидан, миллатлараро муносабатларда динга, диний қадриятларга таяниш виждон эркинлиги орқали таъминланади. Қайси динга этикод қилиш, қандай диний қадриятларни эъзозлаш, тарғиб этиш ва қўллаб-қувватлаш шахснинг конституцион ҳуқуқидир. Аммо дин ва диний ташкилотларнинг миллатлараро муносабатларга бевосита аралашishi, уларни у ёки бу шаклда уюштириш, бир миллатни иккинчисига қарши қўйиши мумкин эмас. Миллий-этник дин ёки диний ташкилот бўлиши давлатнинг полиэтник ва политеистик хусусиятига зиддир. Динга этикод миллат, этник белги танламайди, у ҳар бир инсоннинг ихтиёридаги ишдир.

Еттинчидан, миллатлараро муносабатларда дин ва диний ташкилотлар тўплаган тарихий-маданий, ижтимоий-ахлоқий тажрибалардан фойдаланиш ҳар икки томон, айниқса ижтимоий тараққиёт учун, конструктив аҳамиятга эга. Лекин этносиёсий парадигма динда консерватив ва догматик унсурлар ҳам борлигини, улардан деструктив кучлар фойдаланишга интиляётганини унутиши мумкин эмас. Диний фундаментализм ва терроризм кенг тарқалаётгани боис, давлатлараро, миллатлараро муносабатларда бир-бирига шубҳа билан қараш, тўла ишонмаслик реал воқеликка айланган.

Ўзбекистонда политеизм қарор топган, аҳолининг 95 фоиздан ортиғи ислом динига, қолганлари бошқа динларга этикод қилади. Бизнинг мамлакатимиз азал-азалдан қадимий динлар ривож топган макон сифатида дунё цивилизацияси тарихида алоҳида мавқега эга.

Конституциямизнинг 31-моддасида: “Ҳамма учун виждон эркинлиги қафолатланади. Ҳар бир инсон хоҳлаган динга этикод қилиш ёки қайси динга этикод қилмаслик ҳуқуқига эга. Диний қарашларни мажбуран сингдиришга йўл қўйилмайди”, деб белгилаб қўйилган. Унда дунёвий давлатнинг динга бўлган муносабатини ифодалайдиган асосий тамойиллари ўз ифодасини топган. Унга мувофиқ:

биринчидан, давлат асосий қонуни орқали динга қарши сиёсат юргизмаслиқни ўз зиммасига олади;

иккинчидан, этикод қилиш ёки қилмаслик ҳар бир инсоннинг ажралмас ҳуқуқи эканлиги этироф этилади;

учинчидан, юқоридаги икки асосий тамойиллардан келиб чиққан ҳолда ва жамиятда этикодий муносабат-

ларни тартибга солиш ва уни таъминлаш учун давлат диний қарашларнинг мажбуран сингдирилишига йўл қўймасликни қафолатлайди.

Мустақиллик йилларида диний ташкилотларнинг сони ортиб борган. Агар 1990-йилда Республикада 95 та диний ташкилот фаолият кўрсатган бўлса, 2020-йилга келиб, уларнинг сони 2300 тадан ошган.

Истиқлол йилларида диний ўқув юртлири тизими ҳам ривожланди. Масалан, мустақилликкача бор -йўғи 2 та исломий диний ўқув юрти ишлаган бўлса, бугун уларнинг сони 11 тага етди. Илк марта диний ўқув юртлири ташкилоти ҳам стипендия жорий этилди. Истиқлол йилларида имомларнинг диний маълумот даражаси ҳам сезиларли оширилишига эришилди. 1997-йилда уларнинг бор-йўғи 4,2 фоизи олий ва ўрта махсус диний маълумотга эга бўлган бўлса, 2005-йилда бу кўрсаткич 84,5 фоизга, бугунги кунда у қарийб юз фоизга етган[7].

Ўзбекистонда миллат ва элатлар вакилларининг диний қизиқишлари ҳурмат қилинади. Шўролар даврида тортиб олинган ва бошқа мақсадларда фойдаланилган черков, храм, сиғиниш уйлари, муқаддас масканлар эътиқод қилувчиларга қайтариб берилди. Ҳозир юртимизда 30 дан ортиқ православ храмлари фаолият кўрсатмоқда. Тошкентдаги Александр-Невский, Свято-Владимирский, Свято-Успенский, Фарғонадаги Свято-Сергеевский, Олмаликдаги Свято-Успенский ва бошқа храмлар миллатлараро муносабатларни барқарорлаштириш, бошқа миллат вакилларига ҳурмат ва эҳтиром ҳоясини сингдиришга хизмат қилмоқда.

Шу нарса диққатга сазоворки, черковлар барпо этишда турли миллат ва элат вакиллари ҳам иштирок этадилар. Масалан, Термизда православ храмини барпо этишда маҳаллий аҳоли ҳам қатнашган[8].

Республикада энг кўп конфессияли ҳудуд Тошкент шаҳри ва Тошкент вилояти ҳисобланади. Улардан кейинги ўринда Сирдарё, Фарғона, Самарқанд, Навоий вилоятлари туради.

Миллионлаб одамларнинг онги, қалби ва руҳиятига таъсир ўтказа оладиган диннинг жамият ҳаётидаги ролига тўғри баҳо бера олмаслик диний қадриятларни тараққиёт ва дунёвийлик билан уйғунлаштириш маслиҳат салбий оқибатларни келтириб чиқариши мумкин.

Ўзбекистондаги диний бағрикенглик шарқона қадриятларга, шарқона цивилизациянинг ҳаётбахш кучига, улардаги позитив тажрибаларга асосланмоқда. Бизнинг кўпгина қадриятларимиз тарихан ислом ва ундаги гуманистик анъаналар билан боғлиқдир.

Бизнинг фикримизча, исломдаги янги этносий парадигма ва мамлакатимиздаги тотувлик, биродарлик

ва бағрикенгликни қўллаб-қувватлашга ёрдам берадиган қадриятларни, ижтимоий-ахлоқий ҳояларни янада кенг ўрганиш, тарғиб этиш лозим.

Полиэтниқ ва политеистик давлатларда конфессиялараро муносабатлар муҳим аҳамият касб этади. Конфессиялараро муносабатларнинг бағрикенглик асосларига қурилиши жамиятдаги умумий маънавий муҳитга, қолаверса, ижтимоий-сиёсий барқарорликка таъсир кўрсатади. Ислон Каримов таъкидлаганидек: “Бизнинг мустақил, ҳур, қўпмиллатли мамлакатимизда ислом дини билан баробар православие, иудаизм, католицизм сингари ўндан ортиқ бошқа конфессиялар мутлақо эркин фаолият кўрсатмоқда. Қайси дин ёки маъзабга мансублигидан қатъий назар, бу конфессияларнинг вакиллари биз билан елкама-елка туриб, Ўзбекистон халқларининг фаровонлиги ва равнақи учун астойдил меҳнат қилаётганликлари бизни мамнун этади”.

Юртимизнинг бу борада олиб бораётган саяёҳаракатлари дунё миқёсида ўзга мамлакатларга намуна бўлаётганлиги алоҳида эътироф этилмоқда. Бу ҳақда фикр юритилганда 2018-йил 12-декабрь куни БМТ Бош Ассамблеясининг ялпи мажлисида “Маърифат ва диний бағрикенглик” номли махсус резолюция қабул қилинганлигини алоҳида эслаб ўтиш ўринлидир. Мазкур резолюциянинг қабул қилиниши Президентимиз Шавкат Мирзиёевнинг 2017-йил сентябрь ойида Нью-Йорк шаҳрида бўлиб ўтган БМТ Бош Ассамблеяси 72-сессиясида илгари сурган ташаббуснинг амалий ифодаси сифатида айтиб ўтиш мумкин.

Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг Олий Мажлисга Мурожаатномасида: “Ўзбекистон миллатлараро тотувлик ва диний бағрикенглик соҳасида ўз анъаналарига доимо содиқ бўлиб, бу йўлдан ҳеч қачон оғишмасдан илгари боради. Мамлакатимизда турли миллат ва диний конфессиялар вакиллари ўртасида ўзаро ҳурмат, дўстлик ва аҳиллик муҳитини мустаҳкамлашга биринчи даражали эътибор қаратилади. Бу – бизнинг энг катта бойлигимиз ва уни қўз қорачиғидек асраб-авайлаш барчамизнинг бурчимиздир”, – дея бежиз таъкидланмаган.

Халқимиз менталитети ва маънавиятига хос бўлган миллатлараро тотувлик ва бағрикенгликни таъминлаши аввало, жамиятимизда эзгу ҳоялар ва инсоний фазилатларни камол топтириш, юртимизда тинчлик ва барқарорликни ҳукм суришининг асосий қафолати саналади. Ва бундан кейин ҳам миллатлараро тотувлик ва ҳамжиҳатлик юртимизда тинчлик, барқарорликни сақлашнинг самарали омили бўлиб қолаверади.

АДАБИЁТЛАР.

1. Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёев 19 сентябрь куни Бирлашган Миллатлар Ташкилоти Бош Ассамблеясининг 72-сессиясида нутқ сўзлади. <https://www.uzavtoyul.uz/cy/post/ozbekiston-prezidenti-shavkat-mirziyoyev-bmt-bosh-assambleyasining-72sessiyasida-nutq-sozladi.html>
2. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 28.01.2022 йилдаги ПФ-60-сон “2022 — 2026 йилларга мўлжалланган янги ўзбекистоннинг тараққиёт стратегияси тўғрисида”ги Фармони, <https://lex.uz/uz/docs/5841063>
3. Каримов И.А. Республика байнамиллат маданият маркази ташкил этилганининг 10 йиллигига бағишланган тантанали мажлис қатнашчиларига табрик. // Каримов И.А. Ҳавфсизлик ва тинчлик учун курашмоқ керак. 10-жилд. – Тошкент: Ўзбекистон, 2002. – Б.181.
4. Каримов И.А. Ўзбекистон иқтисодий ислохотларни чуқурлаштириш йўлида. – Тошкент: Ўзбекистон, 1995. – Б.175.
5. Умаров Х. Ўзбекистон – бағрикенг диёр. <https://oyina.uz/kiril/article/575>
6. ЮНЕСКО ХАЛҚАРО МЕБЁРИЙ ХУЖЖАТЛАРИ. Конвенциялар, битимлар, протоколлар, тавсияномалар, декларациялар. (Тўплам) “Бағрикенглик тамойиллари декларацияси”. – Тошкент: “Адолат”, 2004. – 91-92 б.
7. Ўзбекистон Республикасининг Конституцияси – Тошкент: “Ўзбекистон”, 2014. – 8 б.
8. Хусниддинов бағрикенглик ва жамият тараққиёти. – Тошкент: “Академия”, 2005. – 116-17 б; Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамаси қошидаги диний ишлар қўмитасининг жорий архиви. 1991 – 2020 йилларидаги ҳисоботидан.
9. Бобоҳаджаев М. Республика Узбекистан: Очерки межнациональных и межконфессиональных отношений, внешнеэкономических связей. – Тошкент: “Шарқ”, 1996. – С. 35.



UO'K:801.732:821.512,133.09

Feruza QARSHIYEVA,
Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti tayanch doktoranti
E-mail: feruzazafarovna756@gmail.com

ToshDO'TAU dosenti, filologiya fanlari doktori Q.Pardayev taqrizi asosida

THE SCIENTIFIC SIGNIFICANCE OF THE BOOK OF CALLIGRAPHERS COPYING THE WORKS OF ALISHER NAVOI (BASED ON MUHAMMADJON HAKIMOV'S RESEARCH)

Abstract

In the article, Muhammadjon Hakimov's pamphlet entitled "Calligraphers who copied the works of Alisher Navoi" is briefly analyzed. The structure of the treatise, calligraphy and letter styles used by calligraphers, first lithographs and their scientific significance and content are discussed.

Key words: Calligrapher, calligraphy schools, secretary, bookmaker, manuscript copy, lithographic copy, lithography.

НАУЧНОЕ ЗНАЧЕНИЕ КНИГИ КАЛЛИГРАФОВ, КОПИРУЮЩИХ ПРОИЗВЕДЕНИЯ АЛИШЕРА НАВОЯ (НА ОСНОВЕ ИССЛЕДОВАНИЯ МУХАММАДЖОНА ХАКИМОВА)

Аннотация

В статье кратко анализируется памфлет Мухаммаджона Хакимова "Каллиграфы, копировавшие произведения Алишера Навои". Обсуждаются структура трактата, каллиграфический и буквенный стили каллиграфов, первые литографии, их научное значение и содержание.

Ключевые слова: Каллиграф, школы каллиграфии, секретарь, букмекер, рукописный экземпляр, литографический экземпляр, литография.

MUHAMMADJON HAKIMOVNING "ALISHER NAVOIY ASARLARINI KO'CHIRGAN XATTOTLAR" NOMLI RISOLASINING ILMIY AHAMIYATI

Annotatsiya

Maqolada Muhammadjon Hakimovning "Alisher Navoiy asarlarini ko'chirgan xattotlar" nomli ilmiy risolasi tahlil qilinib, risolaning tuzulish tartibi, xattotlar foydalangan xat uslublari, ilk toshbosmalar va ularning ilmiy ahamiyati, mazmun-mohiyati haqida so'z yuritiladi.

Kalit so'zlar: Xattot, xattotlik maktablari, kotib, kitobat, qo'lyozma nusxa, toshbosma nusxa, letografya.

Kirish. Xalqimizning noyob merosi bo'lgan qo'lyozma manbalarni o'rganish, qo'lyozmalarning bizgacha yetib kelishida o'zining katta mehnati va iste'dodi bilan xizmat qilgan yuzlab ulug' xattotlar o'tganligiga guvoh bo'lamiz. Xattotlik va kitobat san'ati o'zining rivojida juda katta davrni bosib o'tgan sohalardandir. Turkiy adabiyot dahosi bo'lmish hazrat Alisher Navoiy asarlarining asrlar oshib bizgacha yetib kelishida xuddi shunday mohir xattotlarning mashaqqatli mehnatini e'tirof etmog'imiz lozimdir.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Ustoz olim Muhammadjon Hakimov o'zining uzoq yillik ilmiy izlanishlari davomida Alisher Navoiy asarlari qo'lyozma nusxalarini o'rganish jarayonida ularni ko'chirgan uch yuzdan ortiq xattot va kotiblar haqida ko'plab ma'lumotlar to'playdi va ushbu ma'lumotlar asosida o'zining "Navoiy asarlarini ko'chirgan xattotlar" nomli ilmiy risolasini yozdilar. Garchi, Muhammadjon Hakimovdan avval ham bu boradagi izlanishlar ya'ni xattotlik va kitobat tarixiga nazar solingan bo'lsada, olimning aynan Navoiy asrlarini ko'chirgan xattotlarga bag'ishlangan risolasi shu yo'nalishdagi o'ziga xos yangilik bo'lgan. Bu haqda olimning o'zi risolada shunday takidlaydi: "Ushbu risolada Alisher Navoiy asarlarini ko'chirgan kotiblar haqidagi ma'lumotlar birinchi marta maxsus ravishda to'plab berilmoqda. Garchi, atqoli xattot Abdulqodir Murodovning "O'rta Osiyo xattotlik san'ati tarixidan" (Toshkent, "Fan", 1971.) kitobida Navoiy asarlarini ko'chirgan kotiblar haqida ma'lumotlar berilgan bo'lsa-da, muallif unda faqat O'zFA Sharqshunoslik instituti fondi bilan kifoylangan edi. Biz esa Sovet Ittifoqidagi boshqa qo'lyozma fondlaridan, qisman xoriydagi qo'lyozma fondlaridan ham

(e'lon qilingan kataloglar orqali) foydalangan holda kotiblar ro'yxatini berishni lozim topdik".

Mazkur mavzuga oid bir qancha maqolalar aynan Muhammadjon Hakimovning izlanishlariga mansubdir. Alisher Navoiy nomidagi Davlat adabiyot muzeyi arxivida olimning ilmiy merosi saqlanmoqda. Shu arxivni o'rganish jarayonida ustozning Navoiy asarlarini ko'chirgan xattotlarga bag'ishlangan 99 ta maqolalari borligi qayd qilingan.

Tadqiqot metodologiyasi. Tadqiqot mavzusini yoritishda qiyosiy-tarixiy, tavsiflash, statistik va biografiq usullardan foydalanildi.

Tahlil va natijalar. Muhammadjon Hakimovgacha bo'lgan bu mavzudagi izlanishlarning aksariyati Abdulqodir Murodovga tegishli bo'lib, ustozning 1971-yilda e'lon qilingan "O'rta Osiyo xattotlik san'ati tarixidan" nomli monografiyasida xattotlik san'atining kelib chiqish tarixidan so'z boshlaydi va uch asosiy masalani asosiy maqsad qilib belgilaydi: birinchisi – xattotning o'rta asr jamiyatida tutgan o'rni va O'rta Osiyo xalqlarining madaniyati tarixida tutgan o'rni; ikkinchisi – xattotlik san'ati haqida ba'zi mulohazalar; uchinchi – O'rta Osiyo xattotlik maktablari va Navoiy davridagi Hirot xattotlari hayoti va faoliyati haqidagi ma'lumotlarni batafsil yoritib berish. Ustoz olim bu boradagi izlanishlari o'laroq qo'lyozma manbalar asosida 360 ga yaqin xattot haqidagi ma'lumotlarni to'plagan va shu ma'lumotlar asosida xattotlarni oltita husnixat maktabiga ajratib beradi. Xat uslubi rivoji va xattotlik nazariyasiga xos bo'lgan ma'lumotlarga esa turli asrlarda yashab o'tgan xattot va olimlarning qayd etib qoldirilgan o'n bir risolasini asos qilib oladi. Demak, biz o'z ishimizda Muhammadjon Hakimovning risolasini o'zidan olidingi ushbu monografiya bilan taqqoslagan holda keyingi davr adabiyotlaridagi xattotlik va

xattotlar haqidagi keltirilgan ma'lumotlar bilan ham qiyoslaymiz.

Alisher Navoiy hayotining asosiy qismi Hirotida o'tganligi bois uning asarlarini kitobat qilish ham dastlab Hirot xattotlik maktabida boshlanadi. Ustoz olim ushbu maktabga mansub bo'lgan XV asr ikkinchi yarmi va XVI asr boshlarida yashab o'tgan oltita zabardast xattotlarning nomini alohida takidlab o'tadi. Bular Abdujamil Kotib, Ali ibn Nur, Sulton Muhammad Nur, Sulton Muhammad Xandon va Darvish Muhammad Toqiylar bo'lib olim ular haqidagi ma'lumotlarni dastlab ko'chirilgan qo'lyozmalar orqali aniqlagan. Risolada xattotlar xronologik tartibda joylashtiriladi va xattot yoki kotib hayotiga doir ma'lumotlar mavjud bo'lsa keltiriladi. Agarda unday ma'lumotlar saqlanib qolmagan bo'lsa kotib tomonidan ko'chirilgan asar nomigina qayd etib o'tiladi. Ustoz olim eng avval davriylik asosida xattotlik maktablari va ularning rivoji haqida so'z yuritadi. Bir-necha yirik xattotlik maktablari va ularda ko'chirilgan qo'lyozmalar asosida ushbu maktablarning ananaviy xat usullari va husnixat qoidalarini haqida batafsil ma'lumotlarni keltirib o'tadilar. Kotiblar hayotini yoritish chog'ida esa olim tomonidan Alisher Navoiy qalamiga mansub qo'lyozma va toshbosma nusxalar chuqur o'rganilib manbalarning yaratilishidan tortib qog'oz turi, siho, ishlatilgan barcha ashyolar va manbaning bugungi kundagi saqlanish o'rni, holati haqida asoslangan ma'lumotlar qayd etib borilgan. Risola ikki qismga ajratilgan bo'lib, birinchi qismida qo'lyozma manbalarning kotiblari, ikkinchi qismida esa, Navoiy asarlarining toshbosma nusxalariga asos bo'lgan manbalarni ko'chirgan kotiblar keltiriladi. Tahlilga tortilayotgan risolaning dastlabki qismida 197 ta kotob va xattotlarning, ikkinchi qismida esa 23 ta kotibning nomi zikr etilgan. Kotiblar ro'yxati xattotlikda o'zining maktabini yartagan san'atkor, Hirot xattotlik maktabining rahbari deya tariflangan Sultonali Mashhadiy nomi bilan boshlanadi. "Qiblat ul-kutub"(kotiblar peshvosi), "sulton ul-xattotin"(xattotlar sultoni) kabi unvonlarga sazovor bo'lgan Sultonali Mashhadiy Navoiyning shaxsiy kotiblaridan biri bo'lgan. "XV asr Hirot xattotlari orasida Alisher Navoiy asrlarini eng ko'p kitobat qilgan Sultonali Mashhadiydir. Jahon qo'lyozma xazinalari bo'yicha Navoiy asarlaridan Sultonali Mashhadiy ko'chirgan o'n ikkita qo'lyozma fanga ma'lum". Ulardan uchasi Leningrad Davlat Xalq kutubxonasining Sharq bo'limida saqlanmoqda. Birinchisi – "Ilk devon" Dorn 564 raqami ostida; ikkinchisi – Dorn 560 raqamli "Xamsa" qo'lyozmasi, uchinchisi – Dorn 553 tartib raqami bilan saqlanayotgan "Majolis un-nafois" asarlari qo'lyozmalaridir.

O'zbekiston Fanlar Akademiyasi Beruniy nomidagi Sharqshunoslik instituti xazinasida usta kotib ko'chirgan to'rtta qo'lyozma mavjud. Birinchi qo'lyozma "Navodir un-nihoya" devoni(№1995), uch qo'lyozma esa terma devonlardir. Xorijiy fondlardagi Sultonali Mashhadiy ko'chirgan Navoiy asarlari qo'lyozmalarining beshtasi

ma'lumligi va ular haqidagi ma'lumotlar ham olimning ilmiy izlanishlarida qayd etib o'tilgan. Risolada ustoz tomonidan har bir qo'lyozma haqidagi ma'lumotlarga batafsil to'xtalib o'tilgan. Ularning ko'chirilish tarixi va sharoiti batafsil keltirilgach manbaning hozirgi holati va qay darajada mukammalligi ham aytib o'tilgan. Risolada nomi zikr etilgan zarqalam kotiblardan biri Abdujamil kotib bo'lib, u ham Navoiyning shaxsiy kotibi bo'lgan. Abdujamil kotib qo'lida ko'chirilgan ikkita manba fanga ma'lum bo'lib, bular "Xamsa" dostonlari va "Navodir un-nihoya" devonidir. Ularning har ikkalasi ham O'zbekiston Fanlar Akademiyasi Beruniy nomidagi Sharqshunoslik institutida saqlanmoqda.

Risolaning ikkinchi qismi toshbosma ya'ni litografiya tarixi bayoni bilan boshlanadi va litografiyaning yurtimizga kirib kelishi, rivoji va madaniy hayotga bo'lgan ta'siri haqida fikrlar bildiriladi. Turkistonda dastlabki toshbosma matbaa 1874-yilda Xiva xoni Muhammad Rahimxon II saroyida tashkil etildi. "Bu matbaada 1879-yilda Muhammad Rahimxon IIning farmoni bilan Navoiy "Xamsa"si to'la holda chop etildi. "Xamsa"ni shoir Mullo Muhammadniyoz ibn Abdullo Oxund Komil Xorazmiy nashrga tayyorlaydi va o'zi uch sahifalik muqaddima ham yozadi. "Xamsa"ni toshbosma uchun xattot Mullo Muhammadyusuf ibn Berdimurod So'fi Xorazmiy ko'chirgan." Risolaning keyingi qismida toshbosma uchun Navoiy asarlarini ko'chirgan xattotlar va ular tomonidan ko'chirilgan manbalar haqidagi ma'lumotlar keltiriladi.

Abdulqodir Murodovning ilmiy izlanishlarida esa har bir xattotning hayot yo'liga batafsil to'xtalib o'tiladi, lekin xattotlar tomonidan ko'chirilgan manbalar haqidagi ma'lumotlar mukammal emas. Ustoz olim Navoiy davri xattotligini yoritishda asosan Hirot xattotlik maktabigagina tayanadi. Bundan tashqari toshbosma nusxalar va ularni ko'chirgan xattotlar haqidagi ma'lumotlar keltirilmaydi.

Xulosa va takliflar. Muhammadjon Hakimovning ushbu risolasi o'zigacha bo'lgan barcha shu mavzudagi ilmiy ishlarni jamlagan holatda ulardan aynan Alisher Navoiy asarlarini ko'chirgan xattotlarga kiritilganligi bilan ajralib turadi. Ushbu risolaning yutuqli taraflari shundan iboratki, unda aynan Navoiy asarlarini ko'chirgan xattotlar bilan birgalikda ular tomonidan ko'chirilgan manbalar haqida ham batafsil ma'lumotlar keltiriladi. Bundan tashqari toshbosma nusxalar tarixiga to'xtalib o'tiladi va ularning kotiblari ham qayd etib boriladi. Litografiya tarixini o'rganishga doir ko'plab ilmiy izlanishlar olib borilgan bo'lsada, ushbu ilmiy ishga qadar toshbosma nusxalarning xattotlari haqida ilmiy manbalar mavjud bo'lmagan. Risolaga shu mavzudagi ilk ish sifatida qarash mumkin. Risola xattotlik va kitobat san'ati ustida ilmiy izlanish olib boruvchi tadqiqotchilarga, manbashunoslik ilmiy izlanishlarini olib boruvchilarga va navoiyshunoslik ilmiy tadqiqotchilarga juda qimmatli manba bo'lib xizmat qilmoqda.

ADABIYOTLAR

1. Hakimov M. "Alisher Navoiy asrlarini ko'chirgan xattotlar" – Toshkent. "Fan", 1991-y.
2. Hakimov M. "Navoiy asarlari qo'lyozmalarining tavsifi" – Toshkent. "Fan", 1983-y.
3. Yusupova D. "O'zbek mumtoz va milliy uyg'onish adabiyoti (Alisher Navoiy davri)" – Toshkent. Tamaddun-2016
4. Hakimov M. "Navoiy "Xamsa"si qo'lyozmalarining tavsifi" – Toshkent. "Fan", 1976-y. (Q.Munirov bilan hamkorlikda)
5. Hakimov M. "Alisher Navoiy asarlarini ko'chirgan xattotlar" – Toshkent. "Fan", 1991-y.
6. Hakimov M. "Sharq manbashunosligi lug'ati"- Toshkent. "Davypress NMU", 2013-y.
7. Shamsiyev P. "O'zbek matnshunosligiga oid tadqiqotlar" – Toshkent. "Fan", 1986-y.
8. Habibullayev A. "Adabiy manbashunoslik va matnshunoslik" – Toshkent. Toshkent Davlat Sharqshunoslik instituti, 2000-y.
9. Sirojiddinov Sh., Umarova S. "O'zbek matnshunosligi qirralari" – Toshkent Akademnashr, 2015-y.
10. Sirojiddinov Sh. "Alisher Navoiy manbalarining qiyosiy-tipologik, tekstologik tahlili" – Toshkent Akademnashr, 2011-y.



Maxmuda QO'LDASHEVA,
Namangan davlat universiteti katta o'qituvchisi, (PhD)
E-mail-kuldasha80@bk.ru

Namdu katta o'qituvchisi., PhD U.Abdurasulova taqrizi asosida

MODERN METHODS OF USING TECHNOLOGIES FOR THE DEVELOPMENT OF CRITICAL THINKING IN STUDENTS

Annotation

This article provides recommendations on improving the quality of education, its main directions, criteria and indicators, as well as the study of the status of students in practice, the formation of skills and abilities in science, the application of critical thinking technology on the basis of issues of development of economic and social geography, increasing the attention of students on the development of.

Keywords: Economic and Social Geography, Economic process, Labor Migration, Division of labor, economic indicators, technology of critical thinking

СОВРЕМЕННЫЕ МЕТОДЫ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ ТЕХНОЛОГИЙ РАЗВИТИЯ КРИТИЧЕСКОГО МЫШЛЕНИЯ У УЧАЩИХСЯ

Аннотация

В данной статье даны рекомендации по вопросам развития экономической и социальной географии, методики преподавания, по вопросам усиления внимания студентов к развитию овладения наукой, по улучшению качества образования, изучению его основных направлений, критериев и показателей и состояния на практике, по формированию у студентов навыков и умений к предмету, применению технологии критического мышления.

Ключевые слова: Экономическая и социальная география, экономический процесс, трудовая миграция, разделение труда, экономические показатели, технология критического мышления

TALABALARDA TANQIDIY FIKRLASHNI RIVOJLANTIRISH TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISHNING ZAMONAVIY USULLARI

Annotatsiya

Mazkur maqolada iqtisodiy va ijtimoiy geografiyasi fani taraqqiyoti, o'qitish metodikasi bo'yicha talabalarning fanni o'zlashtirishini rivojlantirishga e'tiborini kuchaytirish masalalari asosida ta'lim-tarbiya sifatini takomillashtirish, uning asosiy yo'nalishlari, mezonlari va ko'rsatkichlari hamda amaliyotdagi holatining o'rganilishi, talabalarning fan bo'yicha malaka va ko'nikmalarni shakllantirish bo'yicha, tanqidiy fikrlash texnologiyasini qo'llash bo'yicha tavsiyalar berilgan.

Kalit so'zlar: iqtisodiy va ijtimoiy geografiya, iqtisodiy jarayon, mehnat migratsiyasi, mehnat taqsimoti, iqtisodiy ko'rsatkichlar, tanqidiy fikrlash texnologiyasi

Kirish. Jahonda sodir bo'layotgan ijtimoiy-siyosiy jarayonlar har bir sohaga o'z ta'sirini o'tkazmoqda. Shu jumladan ta'lim sohasida ham nazariy va amaliy jihatdan yangi bir qarashlar, usullar, metodlar bugungi kunning talabiga aylanmoqda. Bundan ko'zlangan maqsad iqtisodiy va ijtimoiy geografiyasi fani taraqqiyoti, o'qitish metodikasi bo'yicha talabalarning fanni o'zlashtirishini rivojlantirishga e'tiborini kuchaytirish masalalari asosida ta'lim-tarbiya sifatini takomillashtirish, uning asosiy yo'nalishlari, mezonlari va ko'rsatkichlari hamda amaliyotdagi holatining o'rganilishi juda dolzarb va muhim masaladir.

Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyevning "Yoshlarga oid davlat siyosati samaradorligini oshirish va O'zbekiston yoshlar ittifoqi faoliyatini qo'llab-quvvatlash to'g'risida"gi Farmoniga muvofiq. Global o'zgarishlar davrida ta'lim-tarbiyaga ehtiyoj tezlashadi. Bu bir tomondan, turli xalqlar hayot sohalarida imkoniyat doirasida umumiy jihatlarni, qulayliklarni yaratib bersa, ikkinchi tomondan axborot makoni kengayadi[16].

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili. Talabani mustaqil fikrlashga o'rgatish, tushunish boshqalar o'zlari uchun yangi narsalarni kashf etishlari uchun ma'lumotni tuzish va uzatish. Tanqidiy fikrlashni rivojlantirish texnologiyasi o'tgan asrning 90-yillari o'rtalarida amerikalik o'qituvchilar tomonidan taklif qilingan. Stil va K. Meredit savolga javob beradigan maxsus o'quv mavzusi sifatida fikrlashni qanday o'rgatish kerak degan savolga javob

topishadi. Tanqidiy fikrlash, amerikalik o'qituvchilarning fikriga ko'ra, insonni o'rganishda tadqiqot usullaridan foydalanadi, savollar beradi va ularga muntazam ravishda javob izlaydi. Tanqidiy fikrlashni rivojlantirish texnologiyasi-bu shaxsga yo'naltirilgan ta'limning bir turi hisoblanib, faqatgina farq shundaki, ushbu versiyada shaxsga yo'naltirilgan ta'lim umumiy shiorlarda to'xtamaydi, balki usulni texnologik o'rganish darajasiga yetkazadi [9].

Tanqidiy fikrlashni rivojlantirish texnologiyasining xususiyatlarini o'qitishning yaxlit usuli sifatida ochib berishda E. O. Galitskiy talabalarning mustaqil ishlashi uchun guruh topshirig'ining to'rtta muhim tarkibiy qismini ajratib ko'rsatadi:

- unda talabalar o'zlarining qadriyatlariga e'tibor qaratadigan tanlov holati mavjud bo'lishi;
- talabalarning roli pozitsiyalarini o'zgartirishni o'z ichiga oladi;
- guruh a'zolarining bir-biriga bo'lgan ishonchini kuchaytiradi;
- inson doimiy ravishda foydalanadigan usullar bilan amalga oshiriladi (taqqoslash, tizimlashtirish, tahlil qilish, umumlashtirish) [9].

Tadqiqot metodologiyasi. Iqtisodiy va ijtimoiy geografiya" fanining o'ziga xos xususiyatlaridan kelib chiqqan holda quyidagilar mavjud:

-zamonaviy o'qitish texnologiyalaridan foydalanish xususiyatlari asosan, ta'lim muassasasidagi mavzu va ular xaritalar, modellardan foydalanish bilan bog'liq;

Talaba vazifalarni bajarish usulini biladi. Talabalar yangi ish uslubini izlamaydilar. Shuning uchun ularning faoliyati reproduktivdir, ya'ni ularning fikrlash mantig'i odatdagi reja, ko'rsatmalar bilan belgilanadi (1-jadval).

Talabalarining fan bo'yicha malaka va ko'nikmalarni shakllantirish quyidagi havolalarni o'z ichiga oladi:

1) mahoratning qiymatini ko'rsatish va uni o'zlashtirish uchun maqsadlarni belgilash (masalan: "Bugun biz xaritada hududiy ishlab chiqarish majmualarni tasvirlashni o'rganamiz");

2) mahorat tarkibi, protsedura, standart reja bilan tanishish;

3) o'qituvchi tomonidan bajariladigan harakatlar namunasini ko'rsatish;

4) mahoratni o'zlashtirish bo'yicha mashqlar mashqlari (o'qituvchi rahbarligida);

5) malakani mustaqil ravishda qo'llash. Yangi o'quv sharoitida, ijodiy vazifalarni bajarishda talaba protsedurani, standart rejani sezilarli darajada qayta tuzishi va to'ldirishi kerak.

Talaba uni qo'llash ko'lami, harakatlar mazmuni va ketma-ketligini bilsa, amalda undan qanday foydalanishni bilsa, mahorat o'zlashtiriladi. Ko'nikmalarni rivojlantirish, bilim olishga qaraganda ancha murakkab jarayon hisoblanadi.

1-jadval.

Dars jarayoni			
Dars bosqichlari	Muddati	O'qituvchining faoliyati	Talabalar faoliyati
Kirish	6 minut	Talabalarga yangi kashfiyotlar va yangi tilaklar guruhlarida ishlash jarayonida do'stlar. Darsda ishlash uchun yana kerak guruhlariga ulashing va bugun men guruhlariga bo'linishni taklif qilaman "Case" deb nomlangan yangi shaklda texnologiya". - va ish nima? Ushbu qoidaga binoan biz o'zimizni shakllantiramiz guruhlar. Guruhlariga qo'shilish va kayfiyatni aks ettirish- guruhlariga bo'linish jarayoni va jarayoni. Guruhda ishlash qoidalarini eslang.	Juftliklar, keyin guruhlarida, biriga kelishadi fikr. Har biridan ma'ruzachilarning bayonotlari guruhlar. Ular o'zlarining farazlari va taxminlarini ilgari suradilar. Talabalar quyidagi so'zlar bilan kartalarni tanlaydilar mavzu: "Tibbiyot geografiyasi", "mehnat taqsimoti", "Hududiy ishlab chiqarish majmualari", "transport geografiyasi", "Resurslar geografiyasi" Ular guruhlariga o'tirishadi va darhol nishonlashadi baholash varaqalarida ular qanchalik tez ular birlashadigan talabalarni topdilar umumiy mavzu
Reflesiya			Guruhdagi xatti-harakatlar qoidalarini talaffuz qiling spiker, rahbar, kuzatuvchini tanlang
2. Aktualizatsiya- Bilim	10 minut	"Shamol atirgullari" ni qurish Qanday xatolarga yo'l qo'yildi va nima bilan qiyinchiliklarga duch keldi	Guruhdagi talabalar "mehnat taqsimoti sxemasi" ni shlab chiqadilar, keyin ushbu "sxema" ni o'qish uchun topshiriladi sxemaga o'zgratirish kirish va asoslash boshqa guruhga va bu guruhlariga u o'qiydi, izohlaydi, tahlil qiladi va keyin ma'lumotlar bilan tekshirish va baho berish bilan yakunlaydilar
Reflesiya			Kuzatuvchilar chiqish qilmoqda.
3. Asosiy darsning bir qismi	25-minut	Qo'ng'iroq bosqichi "ijtimoiy jarayon bo'yicha musiqasiy ang'raydi. - Dars mavzusi nima deb o'ylaysiz? - Maqsad qo'ying. Tushunish bosqichi Mavzu bo'yicha "aqliy hujum". Va endi guruhlar uchun vazifa: 1 – guruh - "hududiy ishlab chiqarish majmuasi" klasterini tuzing 2 – guruh - "mehnat taqsimoti" klasterini tuzing 3 – guruh - "omillar" klasterini tuzing, taqsimotga ta'sir qilish taqsimotni hududiy holda. 4-guruh - "iqtisodiy ko'rsatkichlar"	qarang, ular taxminlarni bildiradilar, mavzuni chiqaradilar dars: "havodagi suv bug'lari, bulutlar, yog'ingarchilik". Maqsadni shakllantirish. Guruhlarida ishlash. Varaqqa yozing olingan so'z. Har bir guruhdan ma'ruzachi loyihani himoya qilish. O'zaro baholash. Mavzu bo'yicha gapiring. Guruh ishi. Guruh ma'ruzachilari chiqish qilishadi. O'zingiz yoqtirgan klasterga yopishtirilgan

		diagrammasini chizish. 5-guruh-yaqinlashib kelayotgan belgilar ro'yxati Mehnat migratsiyasi holati. Klasterlarni himoya qilish. O'zaro baholash. Yuqori darajadagi savollar - Nima uchun transport geografiyasi "beshinchi" deb nomlanadi Mehnat taqsimoti"? - iqtisodiy ko'rsatkichlarni o'rganib, buni ko'rishingiz mumkin ular yo'qoladi, keyin yana paydo bo'ladi. Nima uchun bu sodir bo'ladimi? Qo'ng'iroq bosqichi "Iqtisodiy jarayon"yangraydi. - Dars mavzusi nima deb o'ylaysiz? - Maqsad qo'ying. Tushunish bosqichi Mavzu bo'yicha "aqliy hujum". Va endi guruhlar uchun vazifa: 1 – guruh - "bulutlar"klasterini tuzing 2 – guruh - "mehnat taqsimoti" klasterini tuzing 3 – guruh - "omillar" klasterini tuzing, taqsimotga ta'sir qilish "mehnat migratsiyasi". 4-guruh - "iqtisodiy ko'rsatkichlar" diagrammasini chizish tabiatda" 5-guruh-yaqinlashib kelayotgan belgilar ro'yxati yog'ingarchilik. Klasterlarni himoya qilish. O'zaro baholash. Yuqori darajadagi savollar - Nima uchun "mehnat taqsimoti" deb nomlanadi Transport geografiyasi"? - migratsiya jarayonini tahlil qilishingiz mumkin ular yo'qoladi, keyin yana paydo bo'ladi. Nima uchun bu sodir bo'ladimi?	stiker. Savollarga o'z farazlarini bajarish orqali javob bering va taxminlar.
--	--	--	---

texnologiyani qo'llash jarayonida guruh vazifasini bajarib, bir-biri bilan muloqot qilib, talabalar bilimlarni faol qurishda, muammoni hal qilish uchun zarur ma'lumotlarni olishda qatnashadilar. Talabalar yangi bosqichda aqlning rivojlanishini, tanqidiy fikrlash qobiliyatini tavsiflovchi yangi sifatga ega bo'lmoqdalar.

Tanqidiy fikrlash texnologiyasini qo'llash davomida talabalar tomonidan o'qituvchining savollariga javob berishdan ko'ra savollar va muammolardan boshlanishi xarakterli hisoblanadi. Biror kishi tanqidiy fikrlashga muhtoj, bu unga odamlar orasida yashashga, ijtimoiylashishga yordam beradi. Tanqidiy fikrlashni rivojlantirish modelining asosini uch jarayon tashkil etadi: 1) qiyinchilik – ma'noni amalga oshirish; 2) tarkibni tushunish; 3) aks ettirish.

Tahlil va natijalar. Texnologiyani qo'llash orqali talabalarda tanqidiy fikrlashning quyidagi belgilari shakllanishiga erishiladi:

- fikrlash samarali bo'lib, uning davomida inson bilan sodir bo'ladigan barcha narsalardan ijobiy tajriba shakllanadi;
- mustaqil va mas'uliyatli;
- asosli, chunki ishonchli dalillar puxta qaror qabul qilishga imkon beradi;

- ko'p qirrali, chunki u hodisani turli tomonlardan ko'rib chiqish qobiliyatida namoyon bo'ladi;

- individual, chunki u axborot bilan ishlashning shaxsiy madaniyatini shakllantiradi;

- ijtimoiy, chunki ish juftliklar, guruhlarda amalga oshiriladi, o'zaro ta'sirning asosiy usuli munozara hisoblanadi.

Xulosa va takliflar. O'qituvchining kasbiy faoliyatida har doim izlash, pedagogik ijodkorlik uchun joy mavjud va endi an'anaviy metodologiya darajasida emas, balki keyingi - texnologik darajada. Texnologiyani fan metodologiyasining ajralmas qismi sifatida ishlab chiqish o'qituvchi faoliyatining kafolatlangan pedagogik natijasini olishni o'z ichiga oladi. hamda talabalar mazkur natijani mavzular kesimida o'qitish sifatini baholash davrida aniqlaydilar. Zamonaviy ta'limning eng yaxshi an'analarga tayanib, talabalarning individual xususiyatlarini hisobga oladigan tubdan yangi ta'lim tizimiga muhtoj.

Shuning uchun o'qitish texnologiyalarini ishlab chiqish, boshqacha qilib aytganda, aniq belgilangan maqsad va rejalashtirilgan natijalar bilan talabalarning o'quv faoliyatini tashkil etish muhim ahamiyatga ega.

ADABIYOTLAR

1. Mirziyoyev Sh. "Yangi O'zbekiston strategiyasi" Toshkent. 2021 yil
2. Bent B. Andresen and Katja van den Brink. Multimedia in Education. UNESCO Institute for Information Technologis in Education. 2013. ISBN 978-5-7777-0556-3. p.3
3. Давыдов, В.В., Учебная деятельность и моделирование. / [Текст] / В.В. Давыдов, А.У. Варданын - Ереван: Луйс, 1981. - 219с.
4. Cecília Sík Lányi. VIRTUAL REALITY AND ENVIRONMENTS. First published April, 2012. Printed in Croatia. Published by InTech. ISBN 978-953-51-0579-4, p.31
5. Вахобов Х., М.Тиллабоева. Иқтисодий география асослари. (Ўқитувчи китоби) – Тошкент. Ўқитувчи, 2001. –Б. 4-5
6. Drapeau Patti. Sparking student creativity (practical ways to promote innovative thinking and problem soving). – Alexandria – Virginia, USA: ASCD, 2014. – P. 4.
7. Komilova N., Jumaxonov Sh. "Iqtisodiy va ijtimoiy geografiya metodologiyasi" .Darslik. "Universitet" 2020 yil. 46-bet
8. Чорли Р.Дж. П. Модели в географии. М.: Прогресс, 1971. 78-с
9. Чернявская А.П. Технология развития критического мышления: перспективы для образования 21 века. Н.Новгород, 2001.
10. <https://hadoop.apache.org/>
11. <http://spatialhadoop.cs.umn.edu/>
12. <https://registry.opendata.aws>
13. Чернявская А.П. Технология развития критического мышления: перспективы для образования 21 века. Н.Новгород, 2001.



Моҳизул ҚУРБОНОВА,
Қариш давлат университети ўқитувчиси
E-mail: mokhigul.kurbanova@bk.ru

Доцент А.Рахмонқулов тақризи асосида

ЎҚУВЧИЛАРДА МУСИҚАНИ БАДИИЙ ИДРОК ЭТИШ ОРҚАЛИ ИЖОДИЙ ҚОБИЛИЯТЛАРНИ РИВОЖЛАНТИРИШНИНГ ПСИХОЛОГИК ХУСУСИЯТЛАРИ

Аннотация

Мақолада ўқувчиларда мусиқани бадиий идрок этиш орқали ижодий қобилиятларни ривожлантиришнинг психологик хусусиятлари ижодий фаолият билан боғлиқ вазифалар орқали ёритиб берилган. Халқ қўшиқларини янги товуш уйғунлиги билан бойитишда замонавий мусиқа педагогикасининг аҳамияти ҳақида илмий фикрлар баён этилган.

Калит сўзлар: Ижодий фаолият, имитация, резонанс, хотира, сезги, идрок, қобилият.

ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ ОСОБЕННОСТИ РАЗВИТИЯ ТВОРЧЕСКИХ СПОСОБНОСТЕЙ УЧЕНИКОВ ЧЕРЕЗ ХУДОЖЕСТВЕННОЕ ВОСПРИЯТИЕ МУЗЫКИ

Аннотация

В статье освещены психологические особенности развития творческих способностей учащихся через художественное восприятие музыки через задания, связанные с творческой деятельностью. Представлены научные мнения о значении современной музыкальной педагогики в обогащении народных песен новой звуковой гармонией.

Ключевые слова: Творческая деятельность, имитация, резонанс, память, интуиция, восприятие, способность.

PSYCHOLOGICAL FEATURES OF DEVELOPMENT OF CREATIVE ABILITIES IN STUDENTS THROUGH ARTISTIC PERCEPTION OF MUSIC

Annotation

The article highlights the psychological features of the development of students' creative abilities through the artistic perception of music through tasks related to creative activity. Scientific opinions on the importance of modern musical pedagogy in enriching folk songs with new sound harmony are presented.

Key words: Creative activity, imitation, resonance, memory, intuition, perception, ability.

Кирриш. Бошланғич мактаб ёшидаги болалар ўзларининг ижодий фаолиятига эга, уларда нота ва товушлар бўйича тегишли қўшиққа таклид қилиш ҳолати яхши ривожланган. Яъни, нота ва товуш ҳақида ҳали унча тўлиқ тушунчага эга бўлмаган бола учун имитация – таклид қилиш қулайроқ. Бу ҳолат кичик синф ўқувчиларининг мусиқа маданияти дарсларида имитация қилишлари уларнинг сеvimли машғулоти эканлигини билдиради. Болаларга таълим беришда уларга табиат томонидан инъом этилган мана шундай ижодий фаолиятнинг йўқолишига йўл қўймаслик керак, бу эса ҳаётда рўй берадиган воқеаларга боланинг руҳий ҳиссий резонанси (кучли таъсирланишнинг ошиб кетиши)нинг ривожланиши бўлиб ҳисобланади. Бу ҳолат бола шахсининг одоб, ахлоқий шаклланишида муҳим ўрин тутади[2].

Мавзуга оид адабиётларнинг таҳлили. Ижодий фаолият олимлар томонидан турли хил мураккаб психологик жараёнлар ҳолида баҳоланади. У ўйлаш, фикрлаш билан биргаликда эмоция, ваз (сабаб), хотира, ирода, қобилият каби психологик ҳолатларни ҳам ўз ичига олади. Ижодий фаолият билан боғлиқ вазифаларни бажаришда (таълим ва ўқитишда) И.П.Калошина бу борадаги меъёрий фаолият кўрсаткичларидан дастлабки ситуация (ҳолат) ва мақсадга алоҳида эътибор беради. Бунда у ақлий ҳаракатнинг (интилишининг) босқичли шаклланишига таянади ва масаланинг оптимал ечилиши (ҳал қилиниши) субъектининг янги тушунчаларга англаб-англамасдан ишлов беришдадир, деб таъкидлайди[6]. Бунда ўқувчи маълум ва номаълум маълумотларга асосланади.

Ўзбек халқ куй ва қўшиқларини болаларга ўргатиш ҳам юқорида келтирилган жараёнлар асосида

олиб борилади. Мусикий тил билан изоҳланишда халқ қўшиқларини янги товуш уйғунлиги билан бойитиш, янгилаш, уларни ўзига хос специфик (тасниф) хусусиятларини сақлаган ҳолда олиб борилиши керак (ўқитиш жараёнида). Ушбу тушунчани ижодий фаолиятга тегишли бўлган ҳолат деб қараш мумкин. А.С.Выготский таъбири билан айтганда “Эски ва янги маълумотларни ўзаро солиштириб, комбинациялаб янгисини яратиш ижодий фаолиятнинг асосидир” [2].

Тадқиқот методологияси. Ҳар қандай ижодий фаолият маҳсулотлари янги элементлар мажмуаси сифатида “олдин мавжуд элементлар тизимларига хос бўлган тизимлар системасидир”. Тадқиқотчиларнинг қайд қилишича ижодий фаолиятдаги мусикий тасаввурлар ихтиёрсиз равишда юз беради. Бу ўринда кўпинча ҳар хил бир-бирига мантқан тўғри келмайдиган ва бир-биридан узоқ бўлган символлар ва белгилар бирлаштирилади (боғланади). Ушбу механизм К.С.Станиславский томонидан интуиция деб эътироф этилган. Яъни, бу шахснинг бир марталик онгсиз ҳулосаси, идрок ва идрок орқали воқеа ва вазиятларнинг маъносини тушуниш қобилиятидир. У инсон тасаввурига ва олдинги тажрибага асосланади.

Психологлар томонидан ушбу механизм ўзига хос бўлган қуролланган маълумотлар сифатида тушунтирилади. Нейрофизиологик аспектда эса ушбу ҳолат ёки ижодий интуизм (илҳом, инсоннинг психологик ва характерли хусусиятлари, масалан, билим, бу эрда фикрлаш тури ҳар қандай фаолиятда ижодий бўлиш қобилиятидир), энграммаларнинг ўзгариши ёки тарқалиши субъект хотирасида янги вақтинчалик бирлашмаларнинг бирламчи боғланишини англатади. Уларнинг уйғунлиги ва мос келмаслиги кейинроқ

ойдинлашадиган шарт сифатида тушунтирилади. Ушбу жараёнларни тўлиқ тушуниб етмаслик эса олдин тўпланган тажрибаларнинг кучли босими таъсирида ҳамда тушунишнинг консерватизм (тўхтатиб қўйилган жараёнлар)и таъсири остида юзага келади. Лекин ижодий фаолиятнинг моҳияти ҳақидаги тушунча интуициянинг турли туман комбинациялари билан чекланиб қолмайди.

Таҳлил ва натижалар. Тушуниб олишнинг хурсандчилик ҳолатидаги ифодаланиши юқори эмоционал ҳолатни юзага келтиради. Бу эса ижодий фаолиятнинг муҳим қисми бўлиб ҳисобланади. Эмоцияда ижодий фаолият функциялари иллюзия (хомхаёл) ҳолатида тасаввур қилинади. Ижодий фаолият аниқ ижобий эмоция билан бирга содир бўлади. Боз устига ушбу ҳолатнинг юзага келиши ўрганувчининг ўзидаги хушвақтликка қайтишнинг кўрсаткичидир. Мана шундай хушқайфиятга эга бўлиш ижодий фаолият туфайли юзага келади.

Ўқувчилардаги импровизациянинг муваффақиятлари болаларга машғулот ўтиш жараёнида педагогнинг маҳорати ёки болалар билан муаммоли жараёнларни ҳал қилишдаги ҳолатлар ва ниҳоят импровизациянинг бошқа ҳолатлар билан органик боғланиши муҳим аҳамиятга эга бўлади. Юқорида қайд қилинган педагогик таъсир этиш компонентлари у ёки бу шаклда мақсадга мувофиқ фольклор ижодий фаолиятида ҳам ўз аксини топади. Бу ҳолат болаларда халқ кўшиқчилиги мусикасининг (топишмоқлар, чандишлар, термалар, достонлар, алла ва бошқалар) халқ орасида кўп йиллик амалиёт давомида шакллантирилиб, ажратиб олинган бўлади.

Л.А.Баренбосем мусикий шакл ва вариантларни ўзлаштириб олишда ижодий фаолият зарур эканлигини қайд қилади. Бундан ташқари, у ушбу фаолиятни меъёрлари ва белгилари ҳақида ҳам фикр юритган. Олимни ижодий фаолият учун юқоридаги фикрлари нафақат бундай ҳолатни ташкил қилишда, балки унда тегишли муваффақиятларга эришишда ҳам асқотади. Шундай қилиб, мусикий ижодни характерлашда 3 хил аспект (тушунча, фикр, гоё) юзага келади.

Илк мактаб ёшидаги болаларнинг яна бир ўзига хос хусусиятларидан бири шундаки, улар бадний тасвир ҳолатидан четга чиқмайди. Уларнинг ижоди “синкретик (бирлашган, қоришқик)” характерга эга бўлади ва улар учун санъат хилма-хиллиги ҳали аниқ белгиланмаган бўлади. Мазкур ёшда бола ўйиннинг оҳангини мустақил равишда такрорлаб, ўйинга тушишга ҳаракат қилади ҳамда нима чизаётганлигини тафаккур қила бошлайди. Боланинг атроф-муҳитга нисбатан эмоционал муносабати ундаги ностандарт комбинациялар шаклини, гоёларни, ўхшатишларни асосини яратади. 6-7 ёшдаги болаларнинг кўшиқ айтиш хусусиятлари ижро қилишда анча чекланган ва камтарин ҳолда бўлади. Кўшиқ куйини яратишнинг олдиндан бошланган жараёни улардаги тушуниб олиш сезгисини камайтиради, ижодий таъсир қилишни тормозлайди. Бунинг сабабини болалар ижодий фаолиятини эртак ўйинлари билан уйғунлаштириш орқали баҳолаш мумкин. Ижодий ривожланишнинг катта потенциали(салоҳияти) ўз ичига мусикий ижодкорликни, куйлаш, мусикий импровизация ва бошқаларни олади.

Кичик мактаб ёшидаги ўқувчилар психологик хусусиятлари ва мусиқа ўртасидаги узвий алоқадорлик ёш авлоднинг ижтимоий муҳитдаги ўрнини белгилашга хизмат қилади. Мусикий асарларга муносабати, уни идрок этишига кўра боланинг психологик хусусиятларига баҳо бериш мумкин. Ўз навбатида, айнан мусиқа асарлари орқали боланинг ҳар томонлама ривожланишига эришиш мумкин.

Инсон фаолиятининг бошқа турларида бўлгани каби, мусиқа санъатида диққат инсоннинг барча сенсор (ҳиссий), интеллектуал (ақлий), ҳаракатга келтирувчи

жараёнлардаги фаолият самарадорлигининг муҳим ва зарур шартидир.

Диққат – бу инсоннинг маълум бир пайтда когнитив, ҳиссий-эмоционал ва жисмоний фаолиятини бирор бир ходиса, жараён ёки предметга қаратишидир. Инсон хотираси ихтиёрий ва ихтиёрсиз диққатга бўлинади. Ихтиёрсиз диққат мақсадга мувофиқ фойдаланилганда яхши самара беради. Кичик мактаб ёшидаги ўқувчиларда, асосан, ихтиёрсиз хотира яхши ривожланган бўлади.

Сезги – инсонни ўраб турган оламдаги нарса ва ҳодисаларни ўз сезги органлари орқали ҳис қилишини ифодаловчи психик жараёндир.

Инсон физиологик жиҳатдан сезги органларига мувофиқ кўриш, эшитиш, ҳид билиш, таъм билиш, тери-тактил каби сезги органлари мавжуд.

Мусикий фаолиятда инсоннинг эшитиш, кўриш, тери-тактил (пайпаслаб), ҳаракат ва ритмик сезгилар иштирок этади. Шунингдек, кўшиқ ижро этувчилар, торли мусиқа асбоблари ва дамли мусиқа асбоблари билан ишловчи созандадарда куйга тўлалик ҳамда оҳанг ранг-баранглигини ҳис этишга ёрдам берувчи вибрацион сезги ҳам катта ёрдам беради.

Кўриш сезгиси мусикий фаолиятда муҳим ҳисрланади. Инсон мусиқани нафақат эшитади, балки уни ижро этилиш жараёнини кузатади, ўзи ҳам хонанда ёки созанданинг ҳаракатларига мос ритмик ҳаракатлар қилишга интилади.

Мусиқа дарсларида ўқувчиларнинг кўриш сезгисига таъсир этиш орқали ўқитувчи кўшиқ матни, чолғу асбоблари, куй ижро этиш жараёни, нота саводхонлиги, кўшиқ ижро этиш жараёни билан таништиради. Шунингдек, жамоа билан ишлаш жараёнида ҳам ҳамжиҳатликда ишлашда, бир-бирини қўллаб-қувватлашда кўриш сезгиси муҳим ўрин тутди.

Тери-тактил сезгиси ҳам мусикий фаолиятни тўғри ташкил этишда муҳим сезги тури ҳисобланади. Асосан чолғулар билан ишлашда кўриш сезгисидан кўра тери-тактил сезги устунлик қилади. Инсон чолғу асбоблар билан ишлашда асосан қўл билан ҳис этиш ва пайпаслаш орқали фаолиятини амалга оширади, куй ижро этади.

Бошланғич синф мусиқа дарсларида мусикий чолғулар билан ишлаш давомида ўқитувчи ўқувчиларнинг тери сезгиларига таъсир қилиш усулидан фойдаланади. Ўқувчилар зарбли асбоблар билан ишлаш давомида улар оҳанги билан бир қаторда вибрацияни ҳам ҳис этиб туради.

Идрок – ташқи оламдаги нарсалар ёки ҳодисаларнинг сезги аъзоларига бевосита таъсири орқали олинган маълумотларнинг инсон онгида акс этиш жараёнидир. Мусикий идрок мусикий маълумотларнинг инсон сезги органларига таъсир этиш орқали олинган маълумотларнинг инсон онгида куй, кўшиқ, оҳанг ёки ҳаракатлар тарзида акс этишини англатади.

Хотира – идрок этилган маълумотларнинг эслаб қилиниши, тўпланган тажрибанинг сақланиши ва тикланиш жараёнидир. Хотира турли хусусиятларига кўра таснифланади. Масалан, фаолият турлари билан боғлиқлигига кўра – ҳаракат хотираси, эмоционал-образли хотира, оғзаки-мантийкий хотира; қабул қилиш хусусиятига кўра – ихтиёрий ва ихтиёрсиз хотира; эслаб қолиш ва сақланиш давомийлигига кўра – қисқа муддатли, узоқ муддатли ва оператив хотира турларига бўлинади. Мусикий хотира – бу мусикий асарни хотирада тўлиқ, тез ва узоқ муддатга сақлаб қолиш билан тавсифланади.

Мусикий фаолиятда мусиқа тинглаш, куйлаш ёки куйга мос ритмик ҳаракатларни танлаш инсон темпераментига ҳам маълум маънода боғлиқ. Немис мусиқа назариётчиси А.Кирхер инсон темпераменти

билан мусикий диди орасида боғлиқлик мавжудлигини таъкидлаб шундай дейди: “Меланхоликлар жиддий мусиқани, чўзик, ғамгин оҳангдошликни ёктиришади, сангвиниклар кучли кўзгалувчанликка эга бўлганликлари сабабли раксона характердаги мусиқага мойиллик сезишади, холериклар ҳам шундай мусиқани тинглашга зарурат намоён этадилар. Флегматикларни эса майин товушлар ўзига мафтун этади».

Хулоса ва таклифлар. Демак, бошланғич синф мусиқа маданияти дарсларида педагог ўқув материалларини танлашда ўқувчиларнинг ёш ва психологик

хусусиятларини ҳисобга олиши амалга ошириладиган мусикий фаолият турларини самарали амалга оширишга ёрдам беради. Хулоса қилиб айтганда, юзага келадиган ижодий фаолиятлар ҳар қандай бир-биридан узок элементлар комбинациясидан тузилган ритмик материал сифатида юзага келиши мумкин. Замонавий мусиқа педагогикаси импровизация ижодида нафақат мусикий тафаккурни, балки бошқа турли тузилмалар билан ўзаро алоқани ҳам ўз ичига олади. Бунда ижодий фаолият фойдали ҳамда ривожланаётган бадий ўзлаштириб олинадиган тушунчаларни ҳам ўз ичига олиши керак.

АДАБИЁТЛАР

1. Баренбоем Л.А. Музыкальная педагогика и исполнительство. Учебное пособие. Изд. Планета Музыки, 2017.-337 с.
2. Выготский Л.С. Воображение и творчество в детском возрасте: Психологический очерк. – 3-е изд. – М.: Просвещение, 1991.– 64 с.
3. Dychkivska I.M. Innovative pedagogical technologies Kiev: Academic Publishers. [in Ukraine]. 2004.-179 с.
4. Прокопович С. С. Педагогические условия и методы музыкально-фольклорного воспитания детей 7-9 лет в иноязычной среде. Педагогический журнал. 2017. Том 7. № 1А.-416-с.
5. Прокопович С.С. Сохранение русской традиционной культуры в Литве посредством музыкально-фольклорного воспитания иноязычных детей младшего школьного возраста. Журнал: Успехи современной науки и образования. Белгород. Том 2. Номер 5, 2017 .-220-с.
6. Калошина И.П. Психология творческой деятельности -3-е изд., доп.-М.; ЮНИТИ-ДАНА, 2017.-671 с.
7. Теплов Б.М. Психология и психофизиология музыкальных различий: Избр. психол. тр. / Б.М. Теплов; Под ред.: М.Г. Ярошевский; Рос. акад.образования, Моск. психол.-соц. ин-т. – М.: МПСИ; Воронеж: МОДЭК, 2003.– 639 с.
8. Савенков А.И. Маленький исследователь: коллективное творчество младших школьников// Ярославль: Академия развития. 2004.-126 с.
9. Кодиров, Гофур Рауфович Мусиқа психологияси (маърузалар курси): Ўқув қўлланма. -Т.: Мусиқа, 2016.-87 бет.
10. Dychkivska I.M. Innovative pedagogical technologies Kiev: Academic Publishers. [in Ukraine]. 2004.-179 с.



Surayyo MAMATISAYEVA,
Toshkent davlat pedagogika universiteti magistranti
E-mail: mamatsaevsuraje@gmail.com

Pedagogika fanlari bo'yicha PhD, Jizzah davlat pedagogika universiteti dotsenti X.S Akramova taqrizi asosida

LEGAL-NORMAL BASIS OF ORGANIZING THE EDUCATION PROCESS OF STUDENTS WITH HEARING DEFECTS

Abstract

This article talks about the reforms carried out in the education system of our country for children with special educational needs, necessary conditions, as well as categories and levels of hearing impaired children and specialized special schools - boarding schools, goes.

Key words: Education, inclusive education, specialized special, boarding school, deafness, hearing impairment, late-deaf children, children with special educational needs, correction.

НОРМАТИВНО-ПРАВОВАЯ ОСНОВА ОРГАНИЗАЦИИ ОБРАЗОВАТЕЛЬНОГО ПРОЦЕССА СТУДЕНТОВ С ДЕФЕКТОМ СЛУХА

Аннотация

В данной статье рассказывается о реформах, проводимых в системе образования нашей страны для детей с особыми образовательными потребностями, необходимых условиях, а также категориях и уровнях слабослышащих детей и специализированных специальных школах – интернатах.

Ключевые слова: Образование, инклюзивное образование, специальное специальное, школа-интернат, глухота, нарушение слуха, поздноглухие дети, дети с особыми образовательными потребностями, коррекция.

ESHITISHDA NUQSONI BO'LGAN O'QUVCHILAR TA'LIM TARBIYA JARAYONINI TASHKIL ETISHNING HUQUQIY – ME'YORIY ASOSI

Annotatsiya

Mazkur maqolada mamlakatimizda ta'lim tizimida alohida ta'limga ehtiyoji bo'lgan bolalar uchun olib borilayotgan islohotlar, zarur shart- sharoitlar, shuningdek, eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalar toifalari va darajalari hamda ixtisoslashtirilgan maxsus maktab – internatlari haqida so'z boradi

Kalit so'zlar: Ta'lim, inklyuziv ta'lim, ixtisoslashtirilgan maxsus, maktab – internati, karlik, zaif eshituvchilik, kech kar bo'lgan bolalar, alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalar, korreksiyalash.

Kirish. Mamlakatimizda ta'lim tizimida uzoqni ko'zlab olib borilayotgan islohotlar bugun nafaqat jamoatchiligimiz tominidan, balki butun jahonda e'tirof etilmoqda. Respublikamizda ta'lim - tarbiya tizimini takomillashtirish va barkamol avlodni tarbiyalash davlat siyosatining ustuvor yo'nalishi darajasiga ko'tarildi.

Davlatimiz rahbari SH.M.Mirziyoyev; "Yoshlarimizning mustaqil fikrlaydigan, yuksak intellektual va ma'naviy salohiyatga ega bo'lib, dunyo miqyosida o'z tengdoshlariga hech qaysi sohada bo'sh kelmaydigan insonlar bo'lib kamol topishi, baxtli bo'lishi uchun davlatimiz va jamiyatimizning bor kuch va imkoniyatlarini safarbar etamiz" deb ta'kidlagan edilar.

Bugungi kunda davlatimiz siyosati maxsus ehtiyojli bolalarga yanada samaraliroq ta'lim -tarbiya berish, ularni ijtimoiy jamiyatga teng huquqlik asosida to'liq va erta moslashtirish masalalari xususida keng ko'lamli ishlarni olib borishga qaratilgan.

Yurtimizda alohida yordamga muhtoj bo'lgan hamda davolanish va sog'lomlashtirishga muhtoj bo'lgan bolalarning ijtimoiy muhofazasini ta'minlovchi chora – tadbirlar hamda ularning ta'lim – tarbiya olishlari uchun zarur shart – sharoitni yaratish va jismoniy yoki ruhiy rivojlanishida nuqsonlari bo'lgan bolalarning ta'lim tizimini takomillashtirish ishlari, shuningdek, eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalarni hayotga tayyorlash, kasbiy bilimga ega qilish, ularni ijtimoiy- huquqiy himoya qilish borasida ham hukumatimiz tomonidan muhim chora – tadbirlar olib borilmoqda. Xususan, O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi, "Ta'lim to'g'risida", "Nogironlarni ijtimoiy himoya qilish to'g'risida", "Bola

huquqlarini kafolatlar to'g'risida", "Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarga ta'lim – tarbiya berish tizimini yanada takomillashtirish chora – tadbirlari to'g'risida" kabi O'zbekiston Respublikasining qonun va O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarorlariga muvofiq olib borilishi yo'lga qo'yilgan.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Davlatimizda olib borilayotgan islohotlar negizida milliy surdopedagogikada olib borilgan tadqiqotlarda ham eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalar ta'lim – tarbiya jarayoni, bilim olishi, ijtimoiylashuvi uchun bir qancha ilmiy yangiliklar yaratilgan. N.SH.Bekmurodov, X.M.Gaynutdinov, F.J.Alimxodjayeva, U.Yu.Fayziyeva, N.H.Dadaxo'jayeva, F.U.Qodirova, D.B.Yakubjanova, Z.N. Mamarajabova va boshqa surdopedagoglar tomonidan eshitishda nuqsoni bo'lgan o'quvchilar ta'lim – tarbiyasi, ijtimoiy hayotga moslashish kompetensiyalari, eshitish idroki, va talaffuz malakalari korreksiyasi ustida izlanishlar olib borilgan. Xususan U.Yu.Fayziyevaning ilmiy izlanishlarida "Zaif eshituvchi bolalarni savodga tayyorlash va savod o'rgatish" masalalariga tayangan bo'lib eshitmaydigan bolalarga ona tilini o'rgatish muammolarini hal qilishga qaratilgan ilk tadqiqotni olib borganligi va eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalar uchun yaratilgan "Alifbe"darsligi hamda yuqoridagi surdopedagoglarning ilmiy izlanishlari eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalar ta'lim jarayonining rivojlanishiga ulkan hissa bo'lib xizmat qiladi.

Tadqiqot metodologiyasi. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasining 41 – moddasida "Har kim bilim olish huquqiga ega. Bepul umumiy ta'lim olish davlat tomonidan kafolatlanadi" deb ko'rsatib o'tilgan, shuningdek "Ta'lim

to'g'risida" qonunining 5 – moddasida ham "Jinsi, irqi, millati, tili, dini, ijtimoiy kelib chiqishi, e'tiqodi va shaxsiy va ijtimoiy mavqeyidan qat'i nazar, har kimga ta'lim olish uchun teng huquqlar kafolatlanadi" deb qayd etilgan.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarga ta'lim – tarbiya berish tizimini yanada takomillashtirish chora – tadbirlari to'g'risida" qarorida "Umumiy o'rta ta'lim tashkilotlarida inklyuziv ta'limni tashkil etish to'g'risida", "Jismoniy aqliy, sensor yoki ruhiy nuqsonlari bo'lgan bolalar uchun davlat ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasalari to'g'risida" kabi nizomlarda ham zarur vazifalar belgilab qo'yilgan. Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalar ushbu qarorga asosan inklyuziv ta'limga va nuqson darajasiga ko'ra ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasalariga hamda uy ta'limiga jalb etiladi.

Inklyuziv ta'lim – alohida ta'lim ehtiyojiga ega bolalar va individual imkoniyatlarining o'ziga xosligini hisobga olgan holda barcha ta'lim oluvchilar uchun ta'lim muassasalarida ta'lim olishga bo'lgan teng huquq va imkoniyatlar ta'minlangan holda beriladigan ta'lim hisoblanadi.

Ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasalari - o'quvchilarga ta'lim tarbiya berish, korreksiyalash va – sog'lomlashtirish muassasalari hisoblanadi, shuningdek alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarning ta'lim olishida va ularning bilish imkoniyatlariga mos ravishda tarbiyalashda, ularning jamiyatga moslashuvi va integratsiyalashuvida ko'maklashish hamda ijtimoiy yordamga muhtoj oilalarga farzandlarini tarbiyalash va ta'lim berishda yordam ko'rsatish maqsadida tashkil etilgan muassasa.

Ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasalari, ularning ixtisoslashuviga muvofiq quyidagi (I — VIII) turlarga bo'linadi:

I — kar (eshitmaydigan) bolalar uchun maktab - internatlar;

II — zaif eshitadigan va keyinchalik kar bo'lgan bolalar uchun maktab - internatlar

III — ko'zi ojiz (ko'r) bolalar uchun maktab - internatlar;

IV — zaif ko'radigan va keyinchalik ko'r bo'lgan bolalar uchun maktab - internatlar;

V — nutqida og'ir nuqsonlar bo'lgan bolalar uchun maktab - internatlar;

VI — tayanch-harakat apparatida nuqsoni bo'lgan bolalar uchun maktab - internatlar;

VII — psixik rivojlanishi sust bo'lgan bolalar uchun maktab - internatlar;

VIII — aqli zaif bolalar uchun (yordamchi) maktablar, maktab - internatlar.

Zarur hollarda I (kar bolalar) va II (zaif eshituvchi bolalar) turlar, shuningdek, III ko'zi ojiz (ko'r) bolalar va IV zaif ko'radigan va keyinchalik ko'r bo'lgan bolalar uchun aralash holdagi ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasalari tashkil etilishi mumkin. Aralash turdagi ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasalarida kar va zaif eshituvchi (keyinchalik eshitish qobiliyati buzulgan) bolalar, ko'r va zaif ko'ruvchi (keyinchalik ko'rish qobiliyati buzulgan) bolalar sinflari bo'yicha ta'limni alohida shaklda olib boriladi. Ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasalari (maktab-internatlar) qoshida bolalarni maktabga tayyorlash uchun bir yil muddatli tayyorlov guruhlarini tashkil etiladi. Tayyorlov guruhlarida o'quvchilarni o'qitish maxsus o'quv dasturlari asosida olib boriladi va 1- sinfga bevosita qabul qilinadi. Ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasalarida o'quvchilarning umumiy soni 250 nafardan ortmasligi kerak. O'quvchilar soni 250 nafardan ortishiga sanitariya va gigiyena qoidalari, normalariga mos ravishda, ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasasining o'quvchilar bilan to'ldirilish sig'imidan kelib chiqqan holda O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligi bilan kelishgan holda vazirlikning roziligi asosida ruxsat beriladi.

O'quvchilarni ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasalariga qabul qilish tartibi quyidagicha:

Ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasalariga bolalar 7 yoshdan, tayyorlov guruhlariga esa 6 yoshdan qabul qilinadi. Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarning ta'lim olish huquqini ta'minlash maqsadida umumta'lim maktablari uchun belgilangan yosh chegarasidan ikki yilga oshgan bolalarni ham qabul qilishga ruxsat etiladi. Alohida ta'lim ehtiyojiga ega bo'lgan bolalarni ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasalariga yuborish hududiy xalq ta'limi boshqarmalari huzurida tashkil etilgan psixologik-tibbiy-pedagogik komissiya xulosasiga ko'ra, hamda ota-onalar yoki ularning o'rni bosuvchi shaxslar roziligi bilan amalga oshiriladi. Psixologik-tibbiy-pedagogik komissiya yo'llanmasi bolalarni ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasalariga qabul qilinishiga asos bo'lib xizmat qiladi.

Ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasalarining vazifalari quyidagilardan iborat:

- shaxsning aqliy, ruhiy va jismoniy rivojlanishiga yordam beradigan zarur shart-sharoitlar yaratish;

- barkamol, jismonan va ma'naviy sog'lom shaxs sifatida voyaga yetkazish, o'quvchilarni fuqarolik va vatanparvarlik ruhida tarbiyalash;

- davlat ta'lim standartlari asosida sifatli ta'lim olish, shuningdek, kasbga yo'naltirish, bolalarning individual ijobiy qobiliyatlarini rivojlantirish, iqtidorli va qobiliyatli bolalarni taqdirlash va qo'llab-quvvatlash uchun zarur shart-sharoitlar yaratish;

- bolalarning psixofiziologik yosh xususiyati, qobiliyati, qiziqishi, hayoti va sog'lig'iga mos ravishda reabilitatsiya, kompensatsiya hamda davolash-sog'lomlashtirish tadbirlarini o'tkazishni ta'minlashdan iborat.

Ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasasining o'qituvchi va tarbiyachi lavozimlarida defektologiya sohasi bo'yicha oliy ma'lumotli kadrlar surdopedagogika, tiflopedagogika, oligofrenopedagogika va logopediya mutaxassislari, shuningdek, ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasasining faoliyat turi bo'yicha mos ravishda qayta tayyorlashdan o'tgan mutaxassis xodimlar faoliyat yuritadi. Ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasalarining majburiy umumiy o'rta ta'limning 11 yillik dasturini tamomlagan bitiruvchi o'quvchilarga 9-sinfda shahodatnoma va 11-sinfda attestat ma'lumoti beriladi.

Tahlil va natijalar. Hozirgi kunda Respublikamiz xalq ta'limi tizimida jismoniy yoki psixik rivojlanishida nuqsoni bo'lgan bolalar uchun 86 ta ixtisoslashtirilgan maktab va 21 ta maktab-internat mavjud bo'lib, ularda 20 610 nafar bola ta'lim olmoqda. Shuningdek, jismoniy yoki ruhiy rivojlanishida nuqsoni bo'lgan va uzoq muddatli davolanishga muhtoj 13 437 nafar bolalar uyda ta'lim olmoqda.

Ixtisoslashtirilgan maxsus – maktab internatlarida o'quv yilining boshlanishi, darslar va ta'tillarning davomiyligi, shuningdek, yakuniy davlat attestatsiyasini o'tkazish va ta'lim olganligi to'g'risida davlat na'munasidagi hujjatlarni berish tartibi qonunchilik hujjatlariga muvofiq olib boriladi. Ixtisoslashtirilgan maxsus – maktab internatlarida darslarning davomiyligi 1- sinfda I yarim yillikda — 35 daqiqa, II yarim yillikda va boshlang'ich ta'limning 2 — 4 sinflarida — 40 daqiqa, va yuqori sinflarda — 45 daqiqa bo'ladi.

Eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalar uchun ixtisoslashtirilgan maktab tarkibini kar va zaif eshituvchi bolalar tashkil qiladi.

Karlar – eshitish qobiliyati tug'ma, yoki ilk davrda chuqur va turg'un pasaygan va oqibatda maxsus pedagogik yordamsiz nutqni egallay olmaydigan bolalar:

Zaif eshituvchilar – nutqni egallashga va nutqiy muloqotga to'sqinlik qiladigan eshitishi pasaygan bolalar

Kech (keyinchalik) kar bo'lib qolgan bolalar – 2-3 yoshda, yoki undan ham kechroq davrda eshitish qobiliyati yo'qolgan, nutqi saqlanib qolgan bolalar.

Eshitish qobiliyatining buzulish darajalari quyidagicha tasniflanadi.

L.V.Neyman kar va zaif eshituvchi bolalarni tonal audiometriya hamda nutq yordamida tekshirgan. Neymanning tasnifi tibbiy tasnif hisoblanadi.

L.V.Neyman idrok etiladigan chastotalarni hajmiga bog'liq ravishda karlarni 4 ta guruhini farqlaydi.

1- guruh- eng past (125-250 Gs) – Nutq tovushlarini farqlamaydi va qulog'i yaqinida aytilgan juda baland tovushlarga yoki yaqin masofadan turib berilgan intensiv (baqirliq) reaksiya qiladi

2- guruh – (125-500 Gs) – Qulog' yaqinida aytilgan baland tovushlarga reaksiya qiladi, “o”, “u” unlilarini farqlaydi, boshqa juda baland tovushlarni idrok etishga qodir.

3- guruh – past va o'rta chastotalar – (125-1000Gs) – 3-4 guruhga mansub bolalar yaqin masofadan turib kamroq intensiv va chastotasiga ko'ra turlicha turlicha tovushlarni (musiqi asboblari, maishiy tovushlar eshik qo'ng'irog'i, telefon qo'ng'irog'i) idrok etadi.

4- guruh – (125-2000 Gs) – 4- guruh bolalari deyarli hamma unlilarni, qulog'i oldida yoki yaqin masofadan aytilgan alohida gap va so'zlarni farqlaydilar.

L.V.Neyman nutqiy diapazoni (500-4000 Gs) sohasida eshitishning pasayishi darajasi bo'yicha zaif eshituvchi bolalarni 3 ta darajaga ajratadi.

1- daraja: Nutqiy diapazonda eshitishning pasayishi 50 db dan ortmaydi, 125-8000 Gs doirasidagichastotalarni idrok etadi – Nutqiy muloqot qilish mumkin. 1m dan ortiq masofadan so'zlashish balandligidagi nutqni saralab idrok etish mumkin

2- daraja: Eshitish 70 dB gacha diapazonda pasaygan – Nutqiy muloqot qiyinlashgan. Og'zaki nutq 1m dan kam masofadan idrok etiladi

3- daraja: Eshitish 70 dB dan yuqori diapazonda pasaygan – So'zlashuv balandligidagi nutq hatto qulog'i oldida ham farqlanmaydi. Muloqot baland ovoz yordamida quloqqa yaqin masofada amalga oshiriladi.

Eshitish holatini baholashda eshitish buzulishining xalqaro tasnifdan foydalaniladi. O'rtaacha eshitishni yo'qotish 500, 1000, 2000 Gs atrofida belgilanadi.

Zaif eshituvchilik	1dar aja	Eshitishning pasayishi 40dB-dan ortmaydi
	2 daraja	Eshitishning pasayishi 40dB- 55dB gacha
	3 daraja	Eshitishning pasayishi 55dB- 70dB gacha
	4 daraja	Eshitishning pasayishi 75dB- 90dB gacha

R.M Boskis Nutqiy rivojlanishga bog'liq ravishda zaif eshituvchi bolalarning 2 guruhi farqlanadi.

1- guruh Kichik nuqsonlarga (tovush talaffuzi buzulishlari, nutqning grammatik qurilishida buzulishlar) ega bo'lgan, nisbatan rivojlangan nutqni egallaydigan bolalar
2- guruh Nutqiy funktsiya rivojlanishida jiddiy kamchiliklar (jumladan qisqa, noto'g'ri qurilgan, ayrim so'zlar juda qo'pol tarzda buzilgan) bo'lgan bolalar.

Kar bolalar ham nuqsonning yuzaga kelish vaqtiga nisbatan 2 guruhga bo'linadi.

1- guruh Eshitishni hayotining 1 va 2- yilida yo'qotgan yoki kar tug'ilgan bolalar

2- guruh Kech kar bo'lib qolgan bolalar ya'ni eshish 3-4 yoshida yoki undan keyin yo'qotgan, karlik ancha keyin yuzaga kelganligi sababli nutqni saqlab qolgan bolalar

Xulosa va takliflar. Sog'lom avlodni barkamol shaxs qilib shakllantirish g'oyatda mas'uliyatli vazifa, shu bilan birga insonparvar siyosat natijasidir. Ta'limni isloh qilish va rivojlantirishga qaratilgan hukumat qarorlarining negizida barkamol avlod tarbiyasi asosiy vazifa sifatida qaralmoqda. Darhaqiqat mamlakatimizda barcha sog'lom bolalar qatori, imkoniyati cheklangan bolalar ham, milliy ruhda tarbiyalanishlari, aqliy va jismoniy jihatdan kamol topishlari,

ijtimoiy hayotga mustaqil yetuk fuqorolik darajasida tayyor bo'lib yetishishlari masalalariga juda katta e'tibor qaratilmoqda. Shu qatori, bugungi kunda eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalarning ta'lim -tarbiyasini takomillashtiribgina qolmay, ularni maxsus dastur asosida kasbiy ma'hnat malakalarini ham egallab borishlari uchun yetarli sharoitlar yaratilmoqda. Eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalar uchun ixtisoslashtirilgan maktab va maktab – internatlari boshqa barcha fuqorolar bilan teng imkoniyatlarga ega bo'lishini ta'minlash, ularning turmush faoliyatidagi cheklanishlarni bartaraf etish, to'laqonli hayot kechirishlariga, jamiyatning ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, turmushida faol qatnashishlariga, shuningdek o'zlarining fuqorolik burchlarini bajarishga imkon beradigan qulay shart – sharoitlar yaratish davlatimiz insonparvarlik siyosatining asosiy mazmunini tashkil etadi.

ADABIYOTLAR

1. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. Toshkent: O'zbekiston 1992
2. <http://lex.uz/docs/-5013007> Ta'lim to'g'risida
3. <http://lex.uz/docs/-5044711> Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarga ta'lim – tarbiya berish tizimini yanada takomillashtirish chora – tadbirlari to'g'risida
4. <http://lex.uz/docs/-4312785> O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi tizimini 2030 - yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida
5. L.Mo'minova, M.Ayupova, D.Nurkeldiyeva, X.Kalbayeva. Maxsus pedagogika darslik 2- nashr. “NOSHIR” Toshkent - 2016.
6. Fayziyeva U.Yu., Nazarova D., Qodirova F.. Surdopedagogika o'quv qo'llanma “Sano standart” Toshkent – 2012
7. Mamarajabova Z.N. Maxsus pedagogika (Surdopedagogika) O'quv qo'llanma Toshkent – 2017
8. Yakubjanova D.B. “Bo'lajak defektologlarda kasbiy ijodkorlikni rivojlantirish texnologiyasi” Aftoreferat. Toshkent - 2017
9. Nazarova D.A. “Maktabgacha yoshdagi zaif eshituvchi bolalar nutqini rivojlantirish”. Aftoreferat. Toshkent – 2009
10. Sherboyeva N.M. “Zaif eshituvchi bolalar maktabida ona tili o'qitishda ta'lim metodlarini to'g'ri tanlash”. Bitiruv malakaviy ishi. 2012.



Давлатжон МАМАТКУЛОВ,
Ўзбекистон Республикаси Жамоат хавфсизлиги университети доценти,
педагогика фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD)
E-mail: mamatqulovdavlatjon@gmail.com

Сиёсий фанлар доктори, профессор Ш.И.Пахрутдинов тақризи асосида

COLONIAL IDEOLOGY OF TSAR RUSSIA AND THE JADID MOVEMENT

Abstract

Although the historical development has been studied from many scientific positions, the ideological processes in the history of our people, including the colonial ideology of Tsarist Russia and the Jadidism movement formed against it and its ideas, have not been fully studied. This article describes the results of scientific research conducted in this direction.

Key words: Idea, ideology, christian russian culture, jadid, gayritabaa, irrationalism, egoistic-aksetism, ideological front.

КОЛОНИАЛЬНАЯ ИДЕОЛОГИЯ ЦАРСКОЙ РОССИИ И ДЖАДИДИСТСКОЕ ДВИЖЕНИЕ

Аннотация

Хотя историческое развитие изучено с многих научных позиций, идеологические процессы в истории нашего народа, в том числе колониальная идеология царской России и сформировавшееся против нее и ее идей движение джадидизма, до конца не изучены. В данной статье описаны результаты научных исследований, проведенных в этом направлении.

Ключевые слова: Идея, идеология, христианская русская культура, джадид, гайритабаа, иррационализм, эгоистично-аксетизм, идеологический фронт.

ЧОР РОССИЯСИНИНГ МУСТАМЛАКАЧИЛИК МАФКУРАСИ ВА ЖАДИДЧИЛИК ҲАРАКАТИ

Аннотация

Тарихий таракқиёт кўплаб фанлар нуқтаи назаридан тадқиқ этилган бўлсада, хозиргача халқимиз тарихидаги мафкуравий жараёнлар, жумладан, Чор Россиясининг мустамлакачилик мафкураси ҳамда унга қарши шаклланган Жади́дчилик ҳаракати ва унинг ғоялари тўла тадқиқ этилмаган. Мазкур мақолада ушбу йўналишда амалга оширилган илмий изланишларнинг натижалари баён этилади.

Калит сўзлар: Ғоя, мафкура, христианча рус маданияти, жадид, гайритабаа, иррационализм, эгоистик-аксетизм, ғоявий фронт.

Кириш. XIX аср бошларида Ўрта Осиёдаги сиёсий, иқтисодий-ижтимоий ҳамда ғоявий-мафкуравий муҳит жуда оғир ҳолатда эди. Бу тарихий-географик жиҳатдан қадимдан ягона сиёсий бирлик саналиб келинган Ўрта Осиёни уч мустақил давлатга бўлиниб кетганида, иқтисодий томондан халқаро савдо алоқаларини сув йўлларига қўчиши натижасида Буюк ипак йўлининг аҳамиятининг йўқолиши ва Ўрта Осиёни халқаро савдо муносабатларидан четда қолишида, ижтимоий ҳаётда эса ишлаб чиқариш инфратузилмаси, таълим, тиббиёт ва бошқа соҳалар ўрта аср стандартларида қолиб кетганида кўринар эди. Энг афсусланарли томони мазкур даврда сиёсий бирликни тарғиб этадиган, ишлаб чиқариш муносабатларини янгилашга хизмат қиладиган, таълим мазмуни ва шаклини замонавийлаштириш орқали миллатни уйғонишга ундаши лозим бўлган мафкуравий омиллар мазмунида ҳам иррационализм ва эгоистик-аксетизм устувор характерда эканлиги билан бошқа даврлардан ажралиб турар эди. Бу ҳақида етук олим, дин ва давлат арбоби Алихонтўра Соғуний шундай деган эди: “Нима учун кейинги асрларда Туркистон халқи бундай жоҳилият ботқоғига ботди? Бунинг бош сабаби – динни асоси билан тушунмаган илм-маданият душманлари ҳокимият тепасида бўлдилар. Ўзларини дин ҳомийлари деб эълон қилиб, халқни маърифат нуридан маҳрум, замонавий фанний илмлардан бутунлай йироқ тутдилар. Чет давлатлар билан алоқа боғламадилар, ўқиш-ўқитиш ишларига ҳеч қандай аҳамият бермадилар. Шунинг учун Туркистон халқининг ичида уйғониш, фикр очилиш ва бор шароитдан фойдаланиш имкониятлари бўлмади” [1].

Мавзуга оид адабиётлар таҳлили. Мақола мавзусига оид адабиётлар таҳлили шуни кўрсатадики (фойдаланилган адабиётлар рўйхатиган қаранг), кўп ҳолларда мутахассислар томонидан Туркистондаги ўша даврнинг муаммолари ҳарбий-сиёсий, иқтисодий-ижтимоий соҳалар билан боғлаб тушунтирилади. Бизнингча, бу даврдаги ҳарбий-сиёсий, иқтисодий-ижтимоийлар муаммолар устқурма муаммолар бўлиб, улар фундаментал муаммо - парагматик ва рационал тафаккурдан узоклашган, иррационализм ва эгоистик-аксетизм устувор бўлган мафкуравий муҳит таъсирида юзаган келган эди. Одатда мафкуравий муҳитни бузилиши икки-уч авлод даврида юзага келади. Лекин, кўп ҳолларда жавобгарлик ва тавон бир авлод устига юкланади.

XIX аср ўрталарида Туркистон заминидан иқтидорда бўлган шахслар мана шундай авлод эди. Улар аждодлар томонидан йўл қўйилган мафкуравий ҳатолар ҳамда шу асосда келиб чиққан ва ўзлари томонидан бартараф этилмаган ҳарбий-сиёсий, иқтисодий-ижтимоий муаммолар учун жавоб беришди.

Бу даврда Россия империяси томонидан Туркистон ўлкасини босиб олишда нафақат жангвор балки, мафкуравий усуллар ҳам кенг қўлланилди. Жумладан, ўлкада ислом ва тасаввуф ғоялари кучли таъсирга эгаллиги сабабли Қўқон хонлигига қарашли Туркистон ҳудудига хужум бошланганда «... чор қўмондони агар шаҳар таслим бўлмаса, Аҳмад Ясавий макбарасига тўп отилиши ва вайрон қилинишини маълум қилган. Шундан кейингина химоячилар уришни тўхтатишга мажбур бўлган» [5].

Тадқиқот методологияси (Research Methodology). Ҳарбий соҳадаги устуворлик ва айни вақтда қўллаб мафқуравий омиллар сабаб юртимиз Чор Россияси мустамлакасига айланди.

Мустамлакачилик даврида Чор Россияси мутахассислари ўлкамиздаги мафқуравий муҳитга ўз манфаатларига мослиги нуқтаи назаридан тўғри ташхис қўя олишди. Мазкур ташхис маҳаллий халқ турмуш тарзи ирроционализм ва эгоистик-аксетизм мазмундаги мафқуравий омилларга асосланганини, бу ҳолатни сақланиб қолиниши империя манфаатларига тўла мос келиши мумкинлигида кўринди.

Дарҳақиқат, юқоридаги ташхис Чор Россиясининг мустамлакачилик сиёсатида ўз исботини топди. Жумладан, мафқуравий муҳитни янгилашнинг энг асосий шартларидан бири бўлган таълим масаласида империя “кичик бўлса ҳам бошланғич мактаблар ҳар бир кишлоқда мавжуд. Шунчалик кўп халқ ўқишига қарамасдан таажжуб саводдилар йўқ” [4], дея диний таълими борларни ҳисобга олмасдан масалага дунёвий фан ўлчовлари нуқтаи назаридан баҳо берган бўлсада Туркистоннинг (1867-1882 йиллардаги) биринчи генерал-губернатори К.П.Кауфманнинг режали топшириғига кўра ўлка маҳаллий халқ таълими жараёнининг ўз ҳолига ташлаб қўйилиши, уларга нисбатан эътиборсиз қолдириш сиёсатининг олиб борилиши ва шу орқали уларнинг тўлиқ таназзулга учрашини кўзда тутган режа ўз кучини кўрсатди. Натижада шундай ҳам ташкил этиш жараёни назорат қилинмаган, таълим бериш сифати тушиб кетган мусулмон таълим муассасалари бошқаруви тўлиқ издан чиқди, таълим-тарбия назорати, таълим босқичлари ўртасидаги узлуксизлик йўқотилди [12].

Маҳаллий мактаблар ҳолати Кауфманни бутунлай қониқтирган бўлсада, бироқ, у хоч (христианлик) эмас, балки мактаб (рус-тузем мактаби) Туркистонга христианча рус цивилизациясини олиб келишига [16] ишонган ҳолда «Туркистон ўлкасининг аҳолиси христианликни қабул қилиш учун... хали етилган эмас. Христиан динини ҳозирги вақтда тарғиб қилиш яхши натижалар бермайди, аксинча, маҳаллий халқни биздан узоклаштирадиган бу тadbир ишимизга бутунлай зарар келтириб, эллаш қийин бўлган мушкулликларни вужудга келтириши мумкин» [6], деб ҳисоблаб, мафқуравий ишда христиан руҳонийларга таянишни афзал, деб билмаган.

Кауфман фақат халқ таълимигина Туркистон ўлкасини руҳан босиб олишга қодир [13] лигини эътироф этиб, «ватанимиз доирасида яшовчи барча ғайритабаа (ғайритабаа - чор Россияси даврида руслардан бошқа халқларга, хусусан Туркистон халқига берилган ном. Қаранг: Ўзбекистон МДА. 47-фонд, 1-рўйхат, 382-иш, 3-4-варақлар) кишиларга таълим беришнинг пировард мақсади, шак-шубҳасиз, уларни руслаштиришдан ва рус халқи билан қўшиб юборишдан иборат бўлиши лозим» [7], дея ҳисоблаган. Шунинг учун ҳам Кауфман Россия империяси ғояларини тарғиб қилишда ҳамда маҳаллий халқни бошқаришда ёрдам берадиган маслакдош кадрларни етиштириб берувчи рус-тузем мактаблари фаолиятига катта баҳо берган. Буни ўз вақтида Туркистонда маориф ишларининг билимдони сифатида танилган Н.Остроумов ҳам тасдиқлаб: “Туркистоннинг биринчи генерал-губернатори генерал-адъютант фон Кауфманнинг Туркистон ўлкасини қуриш кенг мижёсли режасига маҳаллий аҳолига ўрисча маълумот бериш ташвиши ҳам кирган эди... Ўзига ишончи катта бўлган рус маъмури Туркистон ўлкасида ҳам рус мактаблари асосида руслаштириш сиёсатини қўлдан бермасликка тиришарди» [8], дея изоҳлаган.

Юқорида келтирилган фактлар Чор Россиясининг маҳаллий халқнинг анъанавий таълимига эътиборсизлиги кўрсатган бўлса, ундан кейинги фактлар эса, империяни

Туркистонда рус-тузем мактабларини ташкил этишга жон-жаҳди билан киришганидан далолат беради. Мазкур икки факт ҳам Чор Россиясининг мустамлакачилик сиёсати Туркистондан фақат ер усти ва ер ости қазилма бойликларини олишга мўлжалланмагани, балки мазкур сиёсатда ҳудуд аҳолисини ғоявий тобе қилиш мақсади мавжудлигини кўрсатади.

Булардан ташқари, мустамлакачилар ер муносабатларига ҳам эътибор қаратишади. Бу ҳаракат худди VIII аср бошларида араблар томонидан қўлланилган «эски мафқуралар таъминотини узиб қўйиш усули»ни эслатиб юборади. Кауфман томонидан Рус императорига берилган ҳисоботда «ўзларининг ерга бўлган даъволарини ҳимоя қилувчи мулк эгалари ва мусулмон руҳонийлари аҳолининг зодагонлар синфини ташкил этиб, улар бизга сиёсий жиҳатдан душман ҳисобланади. Бу нуфузли табақалар ўзларини аввалги ижтимоий-сиёсий мавқеидан маҳрум этган янги тартибдан норозидир. Имтиёзли равишда ерга эгалик қилиш маҳаллий зодагонларнинг моддий кучга эга эканлиги ҳақидаги масала бўлиб, уларнинг манфаатлари ҳукуматнинг ниятлари билан мос келмайди» [9], дея уларни имтиёздан маҳрум этиш таклифни илгари суради. Мазкур таклифдан қўзланган мақсад «маҳаллий аҳолининг энг хавфли қисмини вақф ва мулк нафақаларини берадиган рус маъмуриятига бевосита қарам қилиб қўйиш эди» [9].

Таҳлил ва натижалар. Туркистонда Жади́дчилик ҳаракатини шаклланиши аввало ўлкада вужудга келган миллий уйғониш эҳтиёжи билан боғлиқ бўлса, иккинчи томондан қирим татар зиёлиси Исмоил Гаспринский фаолияти таъсири билан боғлиқ [2] бўлиб, том маънода бундай мазмундаги ғояларни шаклланиши учун Туркистонда ижтимоий муҳит етилган эди.

Жади́дчилик ўз даврида регрессив ғояларга қарши шаклланган прогрессив ғоя сифатида илғор фикрловчи ёшлар, маърифатпарвар шахслар ва тараққийпарвар зиёлиларни бирлаштира олди. Жади́дчилик ғояси ва амалиётида асосан қуйидаги йўналишлар устувор эди: янги усул мактаблари тармоғини кенгайтириш; қобилятчи ёшларни ҳорижага ўқишга юбориш; турли маърифий жамиятлар ва театр труппалари тузиш; газета ва журналлар чоп қилиш; халқнинг ижтимоий-сиёсий онгини юксалтириш билан Туркистонда миллий демократик давлат қуришни назарда тутганлар [10].

Мавжуд ички ва ташқи кучларнинг тўсқинликларига қарамай, Жади́длар янги усул мактабларини ташкил этиш, иқтидорли ёшларни ҳорижага ўқишга юбориш, театр труппаларини ташкил этиш ҳамда газета ва журналлар чоп қилиш ишларини урдасидан чиқа олишди. Жумладан, тарихчи В.В.Бартольднинг ёзишича, Тошкентда 1910-йили 16 янги усул мактаби, Қўқонда эса 1911-йили 530 ўқувчиси бўлган 8 та усули жади́д мактаблари фаолият кўрсатган [3]. Давлат Думаси аъзоси С.Мақсудов эса “Туркистон” газетасида эълон қилган мақоласида Тошкентда 1910 йили 20 та, Қўқонда эса 16 та янги усул мактаблари борлигини таъкидлайди [15].

Жади́длар мазкур даврда газета ва журналлар чоп этиш ва шу орқали ўз ғояларини халққа етказишга ҳам катта аҳамият бердилар. Мазкур даврдаги асарият мақолалар халқни илм олишга, ёш авлодга дунёвий таълим беришга ундайдиган мазмунда эди. Жумладан, ўша даврда «Ойина» журналада эълон қилинган мақолада «Тўй ва таъзияга сарф қилинатурғон оқчаларимизни биз, туронийлар, илм ва дин йўлига сарф этсак, анқариб оврупоийлардек тараққий этармиз ва ўзимиз-да, динимиз-да обрўй ва ривож топар. Йўқ, ҳозирги ҳолимизга давом этсак, дин ва дунёга зиллат ва мискинатдан бошқа насибамиз бўлмайду» [14], деган фикрлар илгари сурилган.

Жадидлар ушбу даврда икки ғоявий фронтда кураш олиб боришган. Бу ирроционализм ва эгоистик-аксетизм мазмунидаги ички ғоялар фронти бўлса, иккинчиси христианча рус маданиятини тарғиб этишга асосланган мустамлакачилик ғоялари фронти эди. Мазкур даврда худди IX асрдаги мутазилийлар ва мутақкалимлар ўртасидаги ғоявий ихтилоф сингари ўлкамизда жадидчилик ва қадимчилар ўртасида ғоявий кураш юзага келди. Айниқса, бу кураш Бухоро амирлигида яққол кўзга ташланиб, ғоявий баҳслардан қонли тўқнашувларгача бориб етди.

“Бухоро жадидлари ва қадимчилари ўз фаолиятлари давомида қуйидаги камчиликларга йўл қўйдилар:

Бир дин вакиллари ўртасидаги маориф борасида бошланган ҳаракат сиёсий курашларга айланиб кетди;

Бу икки гуруҳ ўртасидаги низолар Россия империясига жуда қўл келди ва мамлакатни мустамлакага айлантириш жараёни тезлаштирди;

Бухоро ёшларининг ҳокимиятни эгаллаш мақсадида Россия ҳукумати билан яқинлашуви Бухоро халқининг норозилигига сабаб бўлди;

Бухоро амирлиги тугатилгач, совет ҳокимиятига қарши бошланган ҳаракатларда уламолар ва жадидлар бирлаша олмади» [11].

XX аср бошларида Чор Россияси Туркистондаги мафкуравий жараёнларни бошқаришни уйдасидан чиққан бўлсада, бироқ, империянинг марказий худудларида авж олган ғоявий жараёнларга тўсқинлик қила олмади.

Хулоса ва таклифлар. Олиб борилган илмий изланишлар қуйидагича хулоса қилишимизга асос бўлди:

Биринчидан, қўплаб инкирозга олиб келган омиллар сабаб, Туркистон расман 1847-1885 йиллар ичида Россия империяси томонидан босиб олинди. Бу босқин халқимиз ҳаётидаги мафкуравий жараёнларда христианча рус маданиятини тарғиб этишга асосланган мустамлакачилик ғоялари тарғиботини бошланишига сабаб бўлди.

Иккинчидан, бу даврда Россия империяси ўзининг мустамлакачилик сиёсати Туркистондан факат ер усти ва

ер ости қазилма бойликларини олиш эмас, балки худуд аҳолисини ғоявий тобе қилиш мақсадида эканини ошкор қилди. Бу мақсад:

империя томонидан, маҳаллий халқнинг анъанавий таълимини замонавийлаштишига йўл қўймаганида;

христианча рус цивилизациясини олиб келиш учун рус-тузем мактаблари фаолиятини қўллаб қуватлаганида;

маҳаллий зодагон ва мусулмон руҳонийларни моддий кучини қамайтириш мақсадида уларнинг ерга эгалигидан маҳрум қилишда;

Туркистонда мустамлакачи ҳукуматга таянч бўладиган, маслакдош қатламни шакллантириш рус миллатига мансуб аҳолини Туркистонга қўчириш сиёсати амалга оширишда қўринди.

Учинчидан, бу даврда жаҳолат ва мустамлакачиликка қарши Жадидчилик ҳаракати вужудга келди. Жадидлар ўз даврда икки ғоявий фронтда бири, ирроционализм ва эгоистик-аксетизм мазмунидаги ички ғоялар фронти бўлса, иккинчиси христианча рус маданиятини тарғиб этишга асосланган мустамлакачилик ғоялари фронтида кураш олиб боришди.

Тўртинчидан, Жадидлар мафкуравий курашда янги усул мактаблари, театр труппалари, газета ва журналларга ғоявий кураш воситалари сифатида қарашди ва улар орқали ўз ғояларини кенг халқ оммасига етказиш, ғоявий рақибларга раддия бериш, уларнинг ҳаксизлигига далиллар келтириш мақсадида фойдаланишди.

Бешинчидан, Чор Россияси даври аввалги даврлардан фарқли равишда мустамлакачилик: бошқа дин, бошқа миллат ва бошқа маданият вакиллари ҳукмронлиги даври эди. Шунинг учун ҳам бу даврда миллатга ғоявий ихтилофлар ечимини кўрсатадиган, ғоявий бўлиниб кетишни олдини оладиган олимлар ва йўлбошчиларни юзага чиқиб, муаффақиятга эришишига мустамлакачи кучлар томонидан йўл қўйилмади. Ғоявий ихтилофлар ва ягона ғоя атрофида бирлашмаслик иллоти Жадидчиликнинг илғор ғояларини ҳам амалиётда ўз исботини топишига имкон бермади.

АДАБИЁТЛАР

1. Алихонтўра Соғуний. Туркистон қайғуси. - Т.: Шарқ, 2003. - 53 бет.
2. Абдирашидов З. Исмоил Гаспринский ва Туркистонда жадидчилик. Марказий Осиёни тадқиқ қилиш Француз Институти, “ИФЕАК нинг иш ҳужжатлари” серияси, 2008. 299-сон.
3. Бартольд В.В. История культурной жизни Туркестана. Ленинград: Издательство Академии наук СССР, 1927, 136-137.
4. Бендриков К.Е. Очерки по истории народного образования в Туркестане (1865-1924 гг.). - М.: АПН, 1961. - С. 45.
5. Зиёев Х. Ўзбекистон мустақиллиги учун курашларнинг тарихи: (Миллоддан олдинги асрлардан то 1991 йил 31 августгача). - Т.: Шарқ, 2001. 135-бет.
6. К открытию памятника генерал-адъютанта К.П. фон Кауфман как устроителя Туркестанского края. - Т.: 1913 г. С. 67-71.
7. Ўзбекистон МДА. 47-фонд, 1-рўйхат, 382-иш, 3-4-варақлар.
8. Остроумов Н. “Сборник Кауфмана”, Москва, 1910 г. стр. 68.
9. Проект отчёта К.П.Кауфмана за 1867-1881 гг. С-Пб., 1885. С.242-247.
10. Назарова Э. Жадидларнинг миллий маънавият ривожига қўшган ҳиссалари. “Oriental Art and Culture” Scientific-Methodical Journal – (2) I/2020. 153 бет.
11. Жамолова Д.М.Бухоро амирлигида жадидлар ва қадимчилар фаолияти (XIX аср охири - XX аср бошлари). Тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) илмий даражасини олиш учун диссертация автореферати. -Т.: 2019. -24 б.
12. Джураев Д.У. Туркистон анъанавий мактаблари фаолияти тарихидан (XIX аср иккинчи ярми). Замонавий таълим / Современное образование 2017-йил, 7-сон. 20-бет.
13. Туркестанские ведомости. 1908. № 224, 16 октябрь.
14. Маҳмудхўжа Беҳбудий. “Бизни кемиргувчи иллатлар” мақоласи, “Ойина” журнали, 1915-йил. <https://oyina.uz/kiril/teahause/381>
15. Газеты “Туркестан”, 15 октябрь 1910 г.
16. Рус мактаблари нега керак. <https://aniq.uz/yangiliklar/rus-maktablari-nega-kerak-2-qism>; Архив. Савицкийнинг шахсий фонди.



Жаҳонгир МАМАТҚОСИМОВ,
Ўзбекистон давлат санъат ва маданият институти доценти, (PhD)
E-mail: jahongir.80@mail.ru

ЎзДЖТУ профессори, п.ф.д. Н.Ж.Исакулова тақризи остида

PEDAGOGICAL SIGNIFICANCE OF THE NATIONAL THEATER TRADITIONS IN IMPROVING THE STAGE CULTURE OF FUTURE DIRECTORS

Abstract

This article highlights the pedagogical significance of the traditions of the national theater in raising the stage culture of future directors, as well as the importance of directing and acting attention to stage culture and acting ethics in the creative processes of transition from amateur performance to professionalization of the Uzbek national theater. As well as the importance of spiritual and aesthetic education as the main goal of the theater. The article analyzes the activities of foreign theater studios along with national theatrical traditions.

Key words: Spirituality, culture, art, theater, director, actor, future director, stage culture, acting ethics, national theater.

ПЕДАГОГИЧЕСКОЕ ЗНАЧЕНИЕ ТРАДИЦИЙ НАЦИОНАЛЬНОГО ТЕАТРА В СОВЕРШЕНСТВОВАНИИ СЦЕНИЧЕСКОЙ КУЛЬТУРЫ БУДУЩИХ РЕЖИССЁРОВ

Аннотация

В данной статье освещается педагогическое значение традиций национального театра в повышении сценической культуры будущих режиссёров, а также значение режиссёрского и актёрского внимания к сценической культуре и актёрской этике в творческих процессах перехода от самодеятельности к профессионализации узбекского национального театра. А также значение духовно-эстетического воспитания как главной цели театра. В статье анализируется деятельность зарубежных театральных студий наряду с национальными театрными традициями.

Ключевые слова: Духовность, культура, искусство, театр, режиссёр, актёр, будущий режиссёр, сценическая культура, актёрская этика, национальный театр.

BO'LAJAK REJISSORLARNING SAHNAVIY MADANIYATINI YUKSALTIRISHDA MILLIY TEATR AN'ANALARINING PEDAGOGIK AHAMIYATI

Annotatsiya

Mazkur maqolada bo'lajak rejissorlarning sahnaviy madaniyatini yuksaltirishda milliy teatr an'alarining pedagogik ahamiyati yoritilgan bo'lib, o'zbek milliy teatrining havaskorlikdan professionallashuvga o'tish pallasidagi ijodiy jarayonlarda rejissor va aktyorlarning sahna madaniyati, aktyor etikasiga e'tibor qaratishi, teatrning bosh maqsadi sifatida ma'naviy va estetik tarbiyaga ahamiyat qaratilganligi tadqiq etilgan. Maqolada milliy teatr an'analari bilan birgalikda xorijiy teatr-studiyalarining mavzuga oid faoliyati tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: Ma'naviyat, madaniyat, san'at, teatr, rejissor, aktyor, bo'lajak rejissor, sahna madaniyati, aktyor etikasi, milliy teatr.

Kirish. Madaniy islohotlar zamirida san'at janrlari muhim ahamiyatga ega bo'lib, o'ziga xos targ'ibot vositasi, insonlarga ma'naviy tarbiya va estetik zavq berish omilidir. Bu borada teatr san'atining ta'sirchanlik xususiyati birlamchi bo'lib, teatrdan namoyish etilayotgan har bir spektakl ham ijro, ham tarbiyaviy ahamiyati bilan tomoshabinga zavq bera olishi lozim.

Professional teatr rivojida o'ziga xos yo'lbo'shchi bo'lgan Milliy teatr an'analari bevosita Respublikamizdagi barcha teatrlar hamda ta'lim muassasalariga tatbiq etilgan. Demak, bo'lajak rejissorlarning sahnaviy madaniyatini takomillashtirishda bosh obyekt bu – Milliy teatrdagi ijodiy jarayonlardir.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Bo'lajak rejissorlarni tayyorlash, xususan ularning sahnaviy madaniyatini yuksaltirish yuzasidan M.Rahmanov, E.Muxtorov, M.To'la-xo'jayeva [6], Q.Xo'jayev [9], R.Usmonov [8], Sh.Rizayev [7], F.E.Ahmedov [1], J.Mahmudov [2, 3], J.A.Mamatqosimov [4, 5] kabi tadqiqotchilar izlanishlar olib borgan bo'lib, aktyor va rejissorlar uchun sahnaviy etikaning o'rganishi lozim bo'lgan jihatlari tadqiq etilgan.

Har bir teatrning o'ziga xos ichki tartib qoidalari, yozilgan va yozilmagan qonunlari mavjud. Lekin, qaysi teatr bo'lmasin, sahna bitta, u tomoshabin uchun xizmat qiladi.

Demakki, barcha teatrlarning ichki tartib-intizomi ham tomoshabin manfaatlarini ko'zlab tasdiqlangan.

"Teatr-studiya qanday bo'lishi kerak?" degan savolga Vaxtangov shunday javob yozadi: studiya bizga qadrdon uyimizdek bo'lishi uchun, hech bo'lmaganda uning devoriga bir dono mix qoqish kerak; studiyada san'atkorni o'qitish emas, o'rgatish orqali tarbiyalash zarur; inson hamisha yaxshi odamlar davrasiga talpinadi. studiyada yaxshi odamlar tarbiya olishi kerak; teatr ijodiy jamoa bo'lib uning qanday shakllanishi, jamoaning hamjihatligiga bog'liq [3].

Ye.B.Vaxtangov teatr-studiyasiga o'ziga xos qonun-qoidalar joriy etiladi. Studiyada tarbiyalash prinsiplari etik va estetik, jamoa ma'naviyati va ijodiy vazifalarni o'z ichiga olgan edi. Studiya o'quvchilarga ma'naviy tayyorgarlik yaxshi niyat, bir-biriga kafillikka turmoq, qarashlarning bir-biriga yaqinligi, aniq badiiy vazifalarni o'rganish zaruriy qilib qo'yiladi. Xulosa qilib aytganda, bir oila farzandidek munosabat talab etilgan. Talabalar studiyasi, teatr madaniyatiga katta tajriba olib kirib, ijodkor insonlarni yetishtirib berdi.

Ye.B.Vaxtangov o'z teatr studiyasi talabalari oldiga quyidagicha talablarni qo'yadi: muomalada – shirinsuxan bo'lish; kundalik hayotda – kamtar bo'lish; do'stlarga yordam qo'lini cho'zish; jamoa ishida bir-biriga yelkadosh bo'lish; yurish-turishda – oliftagarchilik qilmaslik va manmansiramalik; tanqidiy fikrlarga sabrli bo'lish, o'zgalar fikri bilan

hisoblashish, studiya a'zolari qonun-qoidalariga qat'iy rioya qilishlari; mashg'ulotlarda jiddiy intizom va fikrni bir joyga jamlash; kichik rollar yo'q, kichik aktyorlar bor; bugun – Gamlet, ertaga – sahna ishchisi, yorituvchi, kostyumer[1].

Tadqiqot metodologiyasi. Teatr – teatr bo'lishi uchun eng avvalo mustahkam, qattiq, zarbli bir so'z bilan aytganda temir intizom kerak. Aktyor teatrga kelib, eng avvalo teatrnin tartib-qoidasini o'rganmog'i lozim. Chunki, aktyorlik mahoratini oshirish bilan birgalikda etika ham rivojlanmog'i, qolaversa mahoratdan etika oldinda yurmog'i lozim.

Mamlakatimizda professional teatr taraqqiyotiga zamin bo'lgan “Turon” teatr truppasining ham o'z Nizomi bo'lgan. Bu Nizom hozirda Abdulla Avloniy memorial muzeyida saqlanmoqda. Unga ko'ra:

“Toshkent shahridagi musulmon drama san'ati havaskorlarining “Turon jamiyati Nizomi” bo'lib, u 1916-yil 11-noyabr kuni va 7176-raqamli reyestr bilan D.Yegorov tomonidan tasdiqlangan. 73-banddan iborat bu “Nizom”da jamiyatning asosiy maqsad va manfaatlarini to'la ifodasini topgan:

a) aholi o'rtasida sahna hamda xayriya ishlariga jiddiy munosabatni o'stirish;

b) xalq uchun spektakllar sahnalashtirish, unga sog'lom hordiq bag'ishlash;

v) Turkiston o'lkasi hududidagi moddiy va ma'naviy ahvolni yaxshilashga muhtoj musulmon e'tiqodidagi kishilarga yordam ko'rsatish.

Mazkur maqsadlarni amalga oshirish uchun jamiyat quyidagi huquqlarga ega bo'ladi:

Kechalar, konkurslar, spektakllar va shunga o'xshash ommaviy tomoshalar tashkil etish. O'z nomiga klub va musiqa kurslari ochish, o'z kutubxonasi va qiroatxonasiga ega bo'lish;

O'z nomiga boshlang'ich maktablar ochish va ta'minlash hamda muhtojlarga nafaqa berish, shu jumladan, o'quvchilarga va oliy o'quv yurtlarida tahsilni davom ettirishlari uchun stipendiyalar ta'sis etish, shu bilan birga, mavjud xayriya va maorif muassasalarini, ularning rasmiy, xususiy, ijtimoiy qanday tabaqada bo'lishlaridan qat'iy nazar moddiy qo'llab-quvvatlash...

...Truppaning muntazamligi va qat'iy ijodiy qoidalarga binoan ishlanishini ko'rsatuvchi yana “Ijrochi a'zolarining majburiyatlari” qismida quyidagicha bandlar bor.

18) Ijrochi-a'zolar jamiyat yil davomida uyushtiruvchi ommaviy tomoshalar: konsert, spektakl, kechalar va shunga o'xshash jamiyat hay'ati yoki rais tomonidan taklif etilgan ko'riklarda kami bilan besh marta ishtirok etishi kerak. Ishtirok etmaganlar a'zolarning umumiy yig'ilish qarori bilan ijrochi-a'zolar safidan chiqariladi.

19) Ijrochi-a'zolar, biror spektaklda band bo'lsa, belgilangan barcha repetitsiyalarga kelishi va rejissorning hamma ko'rsatmalariga amal qilishi majburiydir.

20) E'tiborli sababsiz ikki marta repetitsiyaga kelmagan ijrochilar muayyan spektaklda ishtirok etish huquqidan mahrum etiladilar.

21) Asosiy repetitsiya va o'z ishtiroklaridagi spektaklga, rejissorni kamida bir kun avval ogohlantirmasdan, ishtirok etmasalar, umuman spektakllardan chetlashtirilishlari mumkin [7].

“Nizom”ning keyingi bandlarida ijrochi-aktyor, rejissor, boshqa ijodiy va tashkilotchi a'zolarining vazifalari, huquq va imkon hamda imtiyozlari belgilanganki, bu “Turon” jamiyatining qanchalik jiddiy asoslarda ish olib borganini ko'rsatadi [7].

Maxsuma Qoriyeva, Mariya Kuznetsova, Abror Hidoyatov, Obid Jalilov, Hojissiddiq Islomov, Yetim Bobojonovlar teatrga jon-dildan berilishning, o'ziga va boshqalarga talabchan, qattiqko'l bo'lishning jonli va yorqin timsoli edi. Ular teatr uchun kerak bo'lsa jonini tikkan fidoiylar bo'lib, sahnada nihoyatda ehtirom bilan harakat qilganlar. Ular repetitsiyaga kelganda yuksak intizomli

odamlar juda muhim ish yuzasidan to'planganday bo'lib, teatrdagi jiddiy ishchanlik muhiti yaratilgan.

Tahlil va natijalar. Milliy teatrimiz asoschilari, yetakchi aktyorlar Abror Hidoyatov, Lutfulla Nazrullayev, Obid Jalilov, Sharif Qayumov, Shukur Burhonov, Sora Eshonto'rayevalar repetitsiya yoki spektakl boshlanishidan bir soat oldin teatrga kelar, o'z grimxonasida yaratajak rolini ustida ishlar, sahnaga tayyorlanar ekan. Repititsiyaga kechikib kelish jinoyat hisoblangan. Mabodo, shunday hol ro'y berguday bo'lsa, bu narsa qattiq qoralangan va hammaga yetkazilgan [4].

Milliy teatrimiz an'analarga ko'ra har bir ishda tartib intizomga qattiq rioya qilinadigan bo'lgan. Repititsiya paytida jimjitlik, osudalik hukm surgan. Mazkur teatrdagi yana bir voqea. Zamira Hidoyatova, Toshxon Sultonova, Yetim Bobojonov va boshqalar qatnashayotgan repetitsiyada o'sha paytda bosh rejissorning yordamchisi bo'lib ishlayotgan Fatxulla Umarovning botinkasi haddan tashqari g'archillayverib, aktyorlar asablariga tekkkan. Abror Hidoyatov ortiq chiday olmasdan rejissor Mannon Uyg'urga “Og'a men ishlolmayman” deya murojaat etadi. Rejissor Fatxulla Umarovni bir chekkaga chaqirib, darhol botinkasini yechishini buyuradi. Fatxulla Umarov shu zahotiyoyq harbiychasiga buyruqni bajargan va paypoqda repetitsiyani davom ettirgan. Bu voqea ko'ngilli emas, albatta. Lekin artistlar ishlaydigan muhitni tasavvur qilish jihatidan xarakterlidir [9]. Shunisi ayonki, teatrdagi bunday temir intizom yuqoridan beriladigan buyruqlar asosida emas, balki yuksak onglik, ichki ehtiyoj tufayli paydo bo'lgan.

Teatr jamoasi juda murakkab jamoa hisoblanadi. Bu yerda bir-biriga o'xshamagan, o'ziga xos, yorqin toifadagi ijodkor shaxslar ishlashadi. Har biri o'zi ijod qilish, qiyofa yaratishdan tashqari bir-biriga bog'liq holda ijod qilishadi. Teatr shuning uchun ko'pchilikning birlashmasidan tashkil topgan san'at hisoblanadi. Bir kishining va barchaning say-harakati bir maqsadga qaratilgan bo'ladi. Bu holda ijodiy jamoada tartib-intizom, odob-ahloq birinchi o'ringa qalqib chiqadi. Jamoa didini, ish madaniyatini, istak va xohishlarini, an'analarni shakllanishida rejissorning o'rni benihoya katta.

Intizom, odob-ahloq teatr jamoasi faoliyati bilan uzviy bog'liq ekanligini hech qachon unutmamak kerak. Haqiqiy intizom tufayligina ajoyib ekran va sahna asarlari yuzaga keladi. San'at va intizom bir-biriga uzviy bog'liqdir. Butun ijodiy jamoa tartibbuzarlik ko'rinishlariga ayovsiz kurash olib borishi temir intizom qonunga aylanishiga erishish lozim. M.Uyg'ur, YE.Bobojonov, M.Muhammedov, T.Xo'jayev, N.Aliyevlar aktyor va rejissorlarning ma'naviy qiyofasi, xulqiy odobi masalalariga katta e'tibor qaratganliklari bejiz emas, albatta. Ularning ta'biricha, aktyorning estetik tarbiyasi, qo'shimcha unsur emas, zaruriy sifat hisoblanadi.

Teatr ma'rifat o'chog'i. Teatrdagi eng avvalo tartib – intizomga erishish lozim. Teatrdagi qattiq gapirmaslik, o'zgalar mashg'ulotiga xalaqit bermaslik, teatni ifloslantirmaslik ham intizomning bir belgisidir. Teatr aktyorning ikkinchi uyi. Aniqrog'i, ijodxonasi, ming o'lib, ming tiriluvchi mo'jizaga boy koshonasi. Teatrga kelganda albatta aktyor kiyimini o'zgartirish kerak. Oddiy misol o'z uyingizga kelganda kiyimingizni o'zgartirasiz, doimiy uy kiyimingizda yurishni hohlaysiz. Teatr ham xuddi shunday, maxsus kiyimda inson o'zini erkin va bimalol tutadi. Sahnaviy xatti-harakat uchun qulaylik yaratadi. Lekin, masalaning yana bir tomoni bor. Kiyimni o'zgartirish teatr hayotiga kirish, ijod maydoniga qadam qo'yishning ilk talabidir.

San'atda aktyor qiyofasi ko'p sozlik simfonik orkestrga o'xshashi kerak, deyilar. Albatta, aktyor qiyofasi bu spektaklning qiyofasidir. Aktyorning afti yuvilmagan piyoladay bo'lib tursa, tomoshabin undan nima oladi. K.S.Stanislavskiyning bu gapida katta ma'no bor. Go'zallik va nafosat aktyorlik talabining bosh mezonlaridir. Aktyor ijodida

uning ko'zi katta ahamiyatga ega. Aktyorda bosh mezon uning tili emas ko'zidir.

Stanislavskiy teatrdagi hayotiy haqiqatlar uchun izchil kurash olib bordi. U tomoshabin yurakdan kulishi va yig'lashi mumkin bo'lgan teatrga borgisi keladi, deb ta'kidlardi. Bu teatrdagi "insonning ruhiy hayoti sodda, tushunarli, yengil, ayni zamonda kuchli va ishonarli tarzda" ko'rsatilmog'i lozim. Stanislavskiy oldi-qochdi, soxta novatorlikni, yasama burunlarni, kumushrang zarkokillarni, serhashamlikni, "futuristlaracha bo'yalgan yuzlarni" yomon ko'rardi. U teatrdan "boy fantaziyaning mazmundor soddaligini" talab qilardi [4].

Xulosa va takliflar. Tadqiqot yuzasidan xulosa sifatida qayd etish lozimki, bo'lajak rejissorlarni kasbiy tayyorlashda sahna madaniyati birinchi darajadagi omil

bo'lishi, bu borada sahnalashtirilayotgan asarning tarbiyaviy ahamiyati va estetik ta'siri ma'nan yuksak, ijro jihatdan professional talablar asosida bo'lmog'i lozim. Bo'lajak rejissorlarning sahnaviy madaniyatini yanada yuksaltirish yuzasidan quyidagilar taklif etiladi:

janr jihatidan qat'iy nazar sahnalashtirilayotgan har bir asar sahna etikasi qonuniyatlariga bo'ysunmog'i, rejissorlarni tayyorlash jarayoniga milliy teatr an'analarini tatbiq etish;

oliy ta'lim va ishlab chiqarish o'rtasida mustahkam integratsiyani yo'lga qo'yish, rejissorlarni tayyorlash jarayoniga malakali mahalliy va xorijiy mutaxassislarni jalb etish, ular ishtirokida mahorat darslarini tashkil etish;

professional teatrlardagi ijodiy jarayonlarga bo'lajak rejissorlarni jalb etish lozim.

ADABIYOTLAR

1. Ahmedov F.E. Ommaviy bayramlar rejissurasi asoslari. – Toshkent: Aloqachi, 2008. – 424 b.
2. Mahmudov J. Aktyorlik mahorati. – Toshkent: Bilim, 2005. – 192 b.
3. Mahmudov J. Vaxtangov maktabi. – Toshkent: Teatr. 2009. № 1, – B. 29.
4. Mamatqosimov J.A. Aktyorlik mahorati. – Toshkent: Lesson Press, – 220 b.
5. Mamatqosimov J.A. Ommaviy bayramlar rejissurasida sahna madaniyati. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2009. – 208 b.
6. Rahmonov M., Muxtarov E., To'laxo'jayeva M. O'zbek Milliy akademik drama teatri tarixi. – Toshkent: 2003.
7. Rizayev Sh. Jadid dramaturgiyasi. – Toshkent: Sharq nashriyot-matbaa konsernining bosh tahririyati, 1997.
8. Usmonov R.I. Rejissura. – Toshkent: Fan, 1997. – 222 b.
9. Xo'jayev Q. Sahnaga yo'l. – Toshkent: O'qituvchi, 1982. – 130 b.



УДК:37.016:008

Нодира МАМАТҚОСИМОВА,
Ўзбекистон давлат санъат ва маданият институти ўқитувчиси
E-mail: n.mamatqosimova@mail.ru

ЎзДЖТУ профессори, п.ф.д. Н.Ж.Исакулова тақризи остида

THE SIGNIFICANCE OF THEATER IN IMPROVING THE ARTISTIC THINKING OF FUTURE CULTURAL WORKERS

Abstract

This article highlights the importance of theatrical art in improving the artistic thinking of future cultural figures, the spiritual and aesthetic significance of the theater, creative processes in the theater, the spirituality of the audience, the artistic expressiveness of the idea and purpose in the analysis of the performance, the relevance of the topic. Suggestions and conclusions have been developed regarding the further increase in the importance of theatrical art in improving the artistic thinking of future cultural figures.

Key words: Culture, art, theater, future cultural worker, director, actor, artistic thinking, general cultural competence.

ЗНАЧЕНИЕ ТЕАТРАЛЬНОГО ИСКУССТВА В СОВЕРШЕНСТВОВАНИИ ХУДОЖЕСТВЕННОГО МЫШЛЕНИЯ БУДУЩИХ ДЕЯТЕЛЕЙ КУЛЬТУРЫ

Аннотация

В данной статье освещается значение театрального искусства в совершенствовании художественного мышления будущих деятелей культуры, духовно-эстетическое значение театра, творческих процессов в театре, одухотворенность зрителей, художественная выразительность идеи и цели в проводится анализ выступления, исследуется актуальность темы. Разработаны предложения и выводы относительно дальнейшего повышения значения театрального искусства в совершенствовании художественного мышления будущих деятелей культуры.

Ключевые слова: Культура, искусство, театр, будущий работник культуры, режиссер, актер, художественное мышление, общекультурная компетентность.

BO'LAJAK MADANIYAT XODIMLARINING BADIY TAFAKKURINI TAKOMILLASHTIRISHDA TEATR SAN'ATINING AHAMIYATI

Annotatsiya

Mazkur maqolada bo'lajak madaniyat xodimlarining badiiy tafakkurini takomillashtirishda teatr san'atining ahamiyati yoritilgan bo'lib, teatrlarning ma'naviy-estetik ahamiyati, teatrdagi ijodiy jarayonlar, tomoshabin ma'naviyati, spektaklni tahlil qilishda g'oya va maqsadning badiiy ifodaviyligi, mavzuning dolzarbligi kabi masalalar tadqiq etilgan. Bo'lajak madaniyat xodimlarining badiiy tafakkurini takomillashtirishda teatr san'atining ahamiyatini yanada oshirish yuzasidan taklif va xulosalar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: Madaniyat, san'at, teatr, bo'lajak madaniyat xodimi, rejissor, aktyor, badiiy tafakkur, umummadaniy kompetensiya.

Kirish. Yangi O'zbekistonni barpo etish va Uchinchi Renessans poydevorini yaratishdagi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi "2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF-60-son farmoni [1] muhim omil bo'lib olib borilayotgan islohotlarning tub zamirida "Inson qadri uchun" tamoyili asosida xalqimizning farovonligi yanada ta'minlanmoqda.

Xalqning ijtimoiy-madaniy faoliyatini oshirish, ularning madaniy dam olishi, ma'naviy yuksalishi, badiiy tafakkurini oshirishda Hukumatimiz tomonidan olib borilayotgan madaniy islohotlar alohida ahamiyatga ega. Jumladan, O'zbekiston Respublikasining 2021-yil 20-yanvarda qabul qilingan "Madaniy faoliyat va madaniyat tashkilotlari to'g'risida"gi Qonuni, 2018-yil 28-noyabrda "O'zbekiston Respublikasida milliy madaniyatni yanada rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PQ-4038-sonli qarori, 2022-yil 2-fevraldagi "Madaniyat va san'at sohasini yanada rivojlantirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-112-sonli qarori va ularning ijrosi "Harakatlar strategiyasidan – Taraqqiyot strategiyasi sari" g'oyasini keng targ'ib etish asosida jamiyatda sog'lom dunyoqarash va bunyodkorlikni umummilliy harakatga aylantirish, "Yangi O'zbekiston – ma'rifatli jamiyat" konsepsiyasini amalga oshirish orqali madaniyat va san'at sohaslarini yanada rivojlantirish, madaniyat muassasalari va

obektlarining moddiy-texnika bazasini yaxshilash dolzarb masalasi sifatida qayd etilgan madaniyat va san'atga berilayotgan e'tibor va madaniyat va san'at sohalari taraqqiyotining huquqiy asosidir.

Olib borilayotgan madaniy islohotlarda teatr san'ati o'ziga xos ahamiyat kasb etib, jamiyatning ilg'or insonlarini badiiy vositalar orqali targ'ib etish, ularning badiiy tafakkurini oshirish teatrlarning bosh vazifasidir. Bu jarayon bo'lajak madaniyat xodimlarini tayyorlashda ham bosh obyekt hisoblanib ularning badiiy tafakkurini takomillashtirishdagi asosiy badiiy vositadir.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili. Teatr san'atining ma'naviy-ma'rifiy va estetik ahamiyati, bo'lajak madaniyat xodimlarining badiiy tafakkurini takomillashtirishdagi samarali vosita ekanligi ko'pgina san'atshunos va pedagog olimlar tomonidan tadqiq etilgan. Jumladan, K.S.Stanislavskiy [7], B.S.Sayfullayev [6], J.Mahmudov [4], F.E.Ahmedov [2], M.Umarov, T.Yuldashev [8], M.R.Yusupova [9], J.A.Mamatqosimov [5] tadqiqot ishlarida teatr, jumladan aktyorlik san'atining shaxs tarbiyasiga estetik ta'siri, badiiy tafakkurni takomillashtirishdagi ma'naviy ahamiyati yoritilgan.

Teatr asoschisi, taniqli rejissor va aktyor K.S.Stanislavskiy "Do'stlarim, san'at koshonasiga qadam qo'yar ekansiz, unga kirishdan oldin hayotning be'mani ikir-chikirlaridan xoli bo'ling, unga eng yaxshi insoniy tuyg'u-

fikrlar bilan kirishning", – deb ta'kidlagan so'zlarida, sahna san'atining muqaddasligi, san'at iste'molchilariga bo'lgan hurmat-izzatning nechog'lik mas'uliyatdan iborat ekanligiga urg'u bergan [4].

Teatr – tarbiya maskani. "Teatr deganda biz aynan sahnani nazarda tutmoqdamiz. Teatr sahnasi har tarafi oynaband qilingan bir uyga o'xshaydirki, unga har kim kirs, o'zining husn va qabihligini, ayb va nuqsonini ko'rib ibrat olur... Turkiston tilida hanuz bir teatr o'ynolmag'onligi barchangizga ma'lumdur. Shul sababli ba'zi kishilarimiz teatrga, ehtimolki o'yinbozlik yoki masharabozlik ko'zlari ila boqurlar. Holbuki teatrning ma'nosi "ibratxona" yoki "ulug'lar maktabi" degan so'zdir". Teatr asoschilaridan biri Munavvar qorining fikrlaridan, teatrning jamiyat bilan bog'liqligi, jamiyatni kelajakka ruhlantirish, insonlarga yo'l ko'rsatuvchi ma'naviy tarbiya maskani ekanligini, unda har bir tomoshabin o'z husnini ko'rishi, hayotning, yon atrofimizda bo'lgan voqea-hodisalarning aktyor ijrosidagi talqini ko'rib oq va qora, yaxshilik va yovuzlikning farqiga borish kerakligini anglatadi [4].

Jadid dramaturgi Mahmudxo'ja Behbudiy shunday deydi, "Teatr o'yunbozlik emas! Masxarabozlik ham emas! Teatr bamisoli oynavand bir uykim, kirgan har bir kimsa o'z husnu qabihini ko'ra olur. Yuziga un surtib masxarabozlik shakliga kirgan zotlar tabii hoziqdurlar" [4].

Teatr san'ati xalqimizning sevgan, ijtimoiy ahamiyatga ega bo'lgan, ommabop san'atidir. Teatr san'ati bu – o'tmish va bugun, yaxshilik va yomonlik, ezgulik va yovuzlik to'qnash keluvchi chorraha, tarbiya maskani, o'ziga xos ibratxonadir.

Tadqiqot metodologiyasi. Teatr san'atining asosiy lokomativi bu rejissordir. Rejissor o'qimishli, bilimdon, aql-idrokli, chuqur mulohazali, tasavvurga boy, hayotni doim kuzatuvchi, zavqli, umuman davrning ilg'or kishisi bo'lishi kerak. U o'z sohasinigina emas, balki tarixni, falsafani, adabiyotni yaxshi bilishi kerak. Aktyorlar ko'ziga chalinmaydigan narsalarni ham rejissor ko'ra olishi lozim, bundan tashqari rejissor ishidagina emas, balki yurish-turishida, muomalada, hatto kiyinishida ham aktyorlarga ibrat bo'lsagina haqiqiy rejissor, ya'ni ijodbaxsh ishboshi bo'lishi lozim.

Teatr san'atining asoschilaridan biri V.I.Nemirovich-Danchenko rejissorlarning quyidagi fazilatlariga ega bo'lishini ta'kidlagan edi:

Rejissor – pedagog, tashkilotchi. U asarning g'oyasini, maqsadini, badiiy obrazning talqinini to'g'ri va mantiqli tushuntirishni bilishi, o'z mahorati, mehnatga bo'lgan hurmati orqali aktyorlarga, xodimlarga o'rnatib bo'lishi kerak.

Rejissor – oyna, u aktyorlarning individual xususiyatlarini, ijodini to'g'ri aks ettirishni bilmog'i kerak.

Rejissor – tashkilotchi, u butun spektakl yoki tadbirni uyushtirishi va tashkillashtirishi kerak [6].

Shunday ekan rejissor dastlab sahnalashtirishi rejalashtirilgan asarning ma'naviy ahamiyati, estetik ta'siri va badiiy taraqqiyoti haqida o'ylashi, tomoshabin badiiy tafakkurini o'stirishning sahnaviy usullarini o'ylab topishi lozim.

Tahlil va natijalar. Teatr san'ati orqali bo'lajak madaniyat xodimlarining badiiy tafakkurini takomillashtirish bir qancha jarayonlardan iborat bo'lib, bu borada oliy ta'lim tizimida berilayotgan nazariy bilimlar bevosita teatrdagi ijodiy ishlar integratsiyasi asosida amalga oshirilishi lozim.

Teatr tomoshabin bir asarni bir necha marotaba ko'rishi mumkin. Va har safar aktyorning yangi ijodiy qirralarini guvohi bo'lishi, yangi mazmunga ega bo'lishi, asarni yanada chuqurroq tahlil qilishi mumkin. Ba'zi bir spektakllar yillar mobaynida sahnadan tushmaydi. Masalan S.Ahmadning "Kelinlar qo'zg'oloni" asari (rejissor B.Yo'ldoshev) 1000 marotabadan ortiq namoyish etilgan.

E.Hushvaqto'vning "Chimildiq" asari (rejissor T.Azizov) 2000 dan ortiq sahna yuzini ko'rgan [4].

Aslida, bir spektaklga qayta-qayta tushish bu bekorchilikdan emas, balki asarni yanada chuqurroq tushunish va his qilish uchun imkoniyat beradi. Shuningdek, muallif yoki rejissorning maqsadini yanada yorqinroq tushunish, qolaversa asarni to'g'ri tahlil qilish, mustaqil ravishda spektakl haqida fikr bildira olishga asos bo'ladi.

Bo'lajak madaniyat xodimlarining teatrlarga tashrifi mustaqil ravishda yoki oliy ta'limdagi tyutorlar tashabbusi bilan amalga oshirilishi mumkin. Zamonaviy oliy ta'lim tizimiga tatbiq etilgan tyutorlik lavozimi talabalarining ham kasbiy, ham umummadaniy kompetensiyalarini takomillashtirishga yo'naltirilgan bo'lib, talabalarining bo'sh vaqtini samarali va maqsadli tashkil etishda asosiy ijodkordir.

Tyutor – tutorem (lotincha – ustoz) murabbiy vazifasini bajaradi. Ba'zi hollarda ma'ruza o'qituvchisi bilan talaba orasidagi bog'lovchi rolini ham bajaradi. Bunda ma'ruzachi tomonidan berilgan bilimlarni keng egallashda maslahatchi va ustoz rolini bajaradi. Tyutor – pedagog ta'lim oluvchilarning mustaqil ravishda maqsadini belgilashiga, o'z kamchiliklarini tushunishga, ajdodlar tajribasini amalda qo'llashga o'rgatadi [3].

Talabalarining teatrga borishidan bosh maqsad vaqt o'tkazish emas, balki bilim va malakalarni yanada takomillashtirishdan iborat bo'lishi lozim. Shuning uchun teatrga borish uchun oldindan tayyorgarlik lozim.

Tayyorgarlik jarayoni bu – qaysi teatrga, qaysi spektaklga borishni aniqlashdan boshlanadi. Bu borada aniq bir to'xtamga kelgach o'sha asarni yaxshilab o'qib chiqish lozim. Bu jarayon butun kurs talabalari o'rtasida amalga oshirilishi lozim. Asar o'qib chiqilgach asar yuzasidan ijodiy suhbat o'tkazish lozim. Ijodiy suhbat jarayonida quyidagi savollar mazkur asar misolida o'z yechimini topishi lozim:

nima uchun aynan shu asar tanlandi?

mazkur asarning ijtimoiy ahamiyati qanday?

mazkur asarning g'oyasi nimadan iborat?

mazkur asarning oliy maqsadi nimadan iborat?

asar personajlari va xarakteri haqida ma'lumot?

asarning kompozitsion tuzilishi, konflikt, tugun masalasi?

mazkur asarning sizga yoqqan jihatlari va nima uchun yoqdi?

mazkur asar muallifining ijodiy faoliyati, o'ziga xos yozish uslubi, muallifning boshqa asarlari va mazkur asar bilan o'xshash va farqli jihatlari nimalardan iborat va h.k.

Ushbu ijodiy suhbat o'tkazilib bo'lingach talabalar bilan asosiy jarayon – spektakl tomoshasiga tashrif buyurish mumkin. Teatrga borganida dastlab teatr muzeyi bilan tanishish: teatrning tarixi, uning shakllanishidagi ijodiy jarayonlar, teatr ijodkorlarining ijodiy faoliyati bilan tanishish badiiy tafakkurning yanada takomillashuviga xizmat qiladi.

Spektakl namoyishi jarayonida talabalar tomosha etikasiga qattiq e'tibor qilishi va spektaklni qunt bilan tomosha qilishi, tomosha jarayonida quyidagilarga e'tibor qaratish lozim:

asarning sahnaviy talqini, rejissurasiga;

aktyorlik mahoratiga;

muallif g'oyasi va maqsadining rejissor talqiniga hamohangligiga;

mizanssenaga;

spektakl ssenografiyasiga.

Spektakl namoyishidan so'ng imkoniyat boricha aktyorlar bilan ijodiy suhbat uyushtirish maqsadga muvofiqdir.

Kurs talabalari ishtirokida spektakl namoyish etilgan kundan keyingi kun yana ijodiy suhbat o'tkazilishi lozim. Mazkur jarayon xulosaviy jarayon bo'lib, bunda quyidagi savollar o'z javobini topishi lozim:

spektaklning original asar bilan o'xshash va farqli jihatlari;
 asar muallifining g'oyasi va maqsadining rejissor tomonidan talqin etilishi;
 personajlarning aktyorlar tomonidan ochib berilishi;
 aktyorlik ijrosi;
 spektakl rejissurasi;
 spektakl ssenografiyasi;
 sizningcha spektakl qanday sahnalashtirilishi lozim edi?
 mazkur spektakldan qanday taassurot oldingiz?
 spektakldagi obrazlar yoki voqealar bizning ijtimoiy hayotimizda uchrab turadimi? va h.k..

Ijodiy suhbat natijalari tahlil qilinib, spektaklning talabalar badiiy tafakkuriga ta'sir darajasini aniqlashimiz keyingi teatrga tashrif uchun asar tanlashimizga asos bo'ladi.

Xulosa va takliflar. Xulosa sifatida qayd etish lozimki teatr san'ati bo'lajak madaniyat xodimlarining badiiy tafakkurini takomillashtirishda eng ommaviy san'at turi bo'lib, o'zining jonli ijrosi va badiiy ta'siranligi bilan samaralidir. Bu boradagi ishlarni yanada jonlantirish, bo'lajak madaniyat xodimlarining haftada kamida bir marotaba teatrga tashrifini tashkil etish ularning badiiy tafakkurini oshirishning kafolatidir. Bu jarayon majburiy xarakterdan ixtiyoriy yohud ehtiyojli tusga kirishi talabalarning badiiy tafakkuri takomillashib borayotganligining nishonasidir.

ADABIYOTLAR

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi "2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF-60-son farmoni. www.lex.uz. Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 29.01.2022 y., 06/22/60/0082-son.
2. Ahmedov F.E. Ommaviy bayramlar rejissurasi asoslari. Darslik. – Toshkent: Aloqachi, 2008. – 424 b.
3. Azizxo'jayeva N.N. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat. – Toshkent: O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi Adabiyot jamg'armasi nashriyoti, 2006. – 160 b.
4. Mahmudov J. Aktyorlik mahorati. Darslik. – Toshkent: Bilim, 2005. – 192 b.
5. Mamatqosimov J.A. Aktyorlik mahorati. – Toshkent: Lesson Press, - 220 b.
6. Sayfullayev B.S., Mamatqosimov J.A. Aktyorlik mahorati. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2012. – 388 b.
7. Stanislavskiy K.S. Aktyorning o'z ustida ishlashi. T.Xo'jayev tarjimai. – Toshkent: Badiiy adabiyot, 1965.
8. Umarov M., Yuldashev T. Rejissorlik va aktyorlik san'ati asoslari. Darslik. – Toshkent: Turon-Iqbol, 2018. – 320 b.
9. Yusupova M.R. va boshqalar. Aktyorlik mahorati. O'quv qo'llanma. – Toshkent: O'zR FA Asosiy kutubxonasi bosmaxonasi, 2015. – 128 b.



УДК:159.9(575.1)

Марина МАРКЕНДУДИ,
Базовый докторант Национальный университет Узбекистана
E-mail: Danvlariana@mail.ru

Кандидат психологических наук, доцент Э.З. Усманова

PSYCHOLOGICAL TRAINING ON THE PREVENTION OF DRUG ADDICTION AMONG STUDENTS

Abstract

This article is devoted to the prevention of chemical dependence in higher educational institutions. The educational and preventive program is an area of pedagogical activity in which practical psychology, modern pedagogy and the ideas of medical prevention are closely intertwined. The life skills training program is aimed at a wide range of risk factors and protective factors and is implemented by teaching a combination of general personal and social skills, the ability to resist drug use.

Key words: Psychoactive substances, cooperative learning, brainstorm, role modeling, group discussion.

ТАЛАБАЛАР ЎРТАСИДА ГИЁХВАНДЛИКНИНГ ОЛДИНИ ОЛИШ БЎЙИЧА ПСИХОЛОГИК ТАЪЛИМ

Аннотация

Ushbu maqola oliy o'quv yurtlarida kimyoviy qaramlikning oldini olishga bag'ishlangan. Ta'lim va profilaktika dasturi - bu amaliy psixologiya, zamonaviy pedagogika va tibbiy profilaktika g'oyalari bir-biri bilan chambarchas bog'liq bo'lgan pedagogik faoliyat sohasi. Hayotiy ko'nikmalarni o'rgatish dasturi xavf va himoya omillarining keng doirasini ko'rib chiqadi va umumiy shaxsiy va ijtimoiy ko'nikmalar va giyohvand moddalarni iste'mol qilishga qarshi turish qobiliyatini o'rgatish orqali amalga oshiriladi.

Kalit so'zlar: Psixoaktiv moddalar, hamkorlikda o'rganish, aqliy hujum, rol modellash, guruh muhokamasi.

ПСИХОЛОГИЧЕСКОЕ ПРОСВЕЩЕНИЕ ПО ПРОФИЛАКТИКЕ ЗАВИСИМОСТИ ОТ ПСИХОАКТИВНЫХ ВЕЩЕСТВ СРЕДИ СТУДЕНТОВ ВЫСШИХ УЧЕБНЫХ ЗАВЕДЕНИЙ

Аннотация

Данная статья посвящена программе психологического просвещения по профилактике зависимости от психоактивных веществ у студентов Высших учебных заведений. Эта программа является учебно-профилактической и представляет собой область психологической деятельности, в которой тесно переплелись практическая психология, современная педагогика и идеи медицинской профилактики. Программа по тренингу жизненных навыков нацелена на широкий спектр факторов риска и защитных механизмов, реализуется путём обучения комбинации общих личностных и социальных умений, способности сопротивляться употреблению психоактивных веществ.

Ключевые слова: Психоактивные вещества (ПАВ), кооперативное обучение, мозговой штурм, ролевое моделирование, групповая дискуссия.

Одной из приоритетных задач нашего государства является формирование здоровой, духовно богатой, нравственной, гармонично развитой личности. К сожалению, проблема зависимости от психоактивных веществ, несмотря на предпринимаемые многочисленные действия, по-прежнему, выходит на одно из первых мест как глобальная угроза национальной безопасности в целом и угроза здоровью населения в частности. Особое беспокойство вызывает рост химической зависимости среди студентов Высших учебных заведений и школьников [1]. Психоактивные вещества становятся определенной ценностью, непременным атрибутом досуга молодежи.

Теоретическим основанием для исследования структуры мотивов, побуждающих к употреблению психоактивных веществ, мы выбрали подход А.Н. Леонтьева к проблеме мотивационной сферы, потребностей и мотивов [6]. Созданная им модель строения мотивационной сферы [10] личности является, на наш взгляд, наиболее приемлемой для изучения структуры мотивов, побуждающих к употреблению наркотиков. Потребность А.Н. Леонтьев [3] определял, как состояние организма, вызванное его нуждой в тех или иных веществах, предметах, требующихся для поддержания существования личности. Потребность получает свою содержательную характеристику через предмет, который удовлетворяет эту потребность. Следовательно, потребность наркозависимого, склонного

к употреблению наркотиков, выявляется и характеризуется через предмет удовлетворения нужды, в качестве которого выступает наркотик. Мотив, по А.Н. Леонтьеву, [6] объективен, это сам предмет, который побуждает и направляет деятельность, конкретизирует потребность и, естественно, удовлетворяет эту потребность. В этом случае наркотик, как известный предмет предполагаемого удовлетворения субъективной потребности, следует понимать, как мотив, конкретизирующий эту потребность. Для теоретического нахождения мотивационной сферы «группы риска» употребления наркотиков была использована модель мотивационной сферы аддиктивной личности алкоголиков, разработанная Б.В. Зейгарник и Б.С. Братусем, как наиболее приемлемая в силу сходства зависимостей [4]. Они предполагали, что в итоге переформирования мотивов в иерархии возникает фактически новая личность с качественно новыми мотивами, иллюзорно-компенсаторная деятельность становится ведущей в иерархии других деятельностей и мотивов, подчиняя и подавляя их. Базируясь на подходе Б.Ф. Зейгарник и Б.С. Братуся, было сделано предположение, что мотивационная сфера «группы риска» включает «здоровые» мотивы общения, учебной деятельности и т.д., а также вступающие с ними в конфликт мотивы, побуждающие к употреблению наркотиков [5].

Актуальность проблемы потребления наркотиков молодёжью, обуславливается значительными масштабами наносимого государству социально-экономического ущерба [9]. Мы рассмотрели этот вопрос в следующих плоскостях: ущерб в политической сфере, ущерб в экономической сфере,

Ущерб в политической сфере заключается в том, что употребление психоактивных веществ среди населения страны, особенно среди подрастающего поколения, превращается в проблему общенационального масштаба и приобретает статус главной угрозы безопасности страны.

Ущерб в экономической сфере, прежде всего, проявляется в огромных затратах бюджетных средств на лечение химически зависимых людей, а также увеличение потенциала теневой экономики и криминального мира.

Как следствие, ущерб в экономической сфере влечёт за собой ущерб в социальной сфере, приводящий к росту криминализации общества, деформации


общественных ценностей, ухудшения демографических показателей, рост рождаемости детей с различными патологиями.

Ущерб в медицинской сфере включает в себя такие последствия употребления психоактивных веществ, как рост заболеваемости ВИЧ-инфекцией, заболеваний, передающихся половым путем, рост гепатита В и С, увеличение заболеваний внутренних органов, увеличение среди молодежи количества суицидальных попыток, а также рост смертности.

Ущерб в образовательной системе, выражающийся в снижении показателей успеваемости и дисциплины учеников старших классов школ и студентов Высших учебных заведений, искажении у них духовных ценностей, что в конечном итоге, приводит к незавершенному среднему или высшему образованию, непрофессионализму и, как следствие, нереализованным жизненным целям и неустроенностью в жизни.

Рисунок 1.

Социально-экономический ущерб, наносимый государству потребителями психоактивных веществ



В этих условиях, наглядно продемонстрированных в рисунке 1, очевидна актуальность создания программ психологического просвещения по профилактике зависимости от психоактивных веществ среди школьников и студентов Высших учебных заведений. На наш взгляд, реализация комплексной системы мероприятий психологического просвещения по профилактике химической зависимости, должна включать в себя, кардинальное изменение отношения к проблеме химической зависимости у молодёжи, взятие ответственности за своё здоровье на себя, приоритет непрерывно действующих профилактических мер в области охраны здоровья человека, доступность психологической помощи, создание условий для профессионального самосовершенствования, организации занятий физической культурой, а также досуга молодёжи.

Следует признать, что в Высших учебных заведениях нет пока единой организованной координирующей структуры, которая могла бы руководить последовательной реализацией программы по профилактике химической зависимости среди студентов. Сегодня как никогда, важно построить психологически грамотную стратегию антинаркотической профилактической работы со студентами. Несмотря на активность средств массовой информации в сфере освещения проблем потребления психоактивных веществ, по-прежнему, остается большая потребность в подготовленных специалистами психологами

квалифицированных публикациях, пропагандирующих здоровый образ жизни и рисках зависимости от психоактивных веществ [2]. В свете вышеизложенного, с нашей точки зрения, эффективно воздействовать на сложившуюся ситуацию в сфере потребления психоактивных веществ среди молодёжи, с целью предупреждения рисков приобщения к наркотикам, необходимо использование программно-целевого метода, позволяющего минимизировать потребности в материальных, трудовых и финансовых ресурсах для достижения поставленных целей, обеспечивающих их реализацию в более короткие сроки.

Нами была создана программа по профилактике химической зависимости от психоактивных веществ среди студентов Высших учебных заведений.

Цель проекта по профилактике зависимости от психоактивных веществ - является замедление роста потребления наркотических веществ, а в последующем снижение уровня наркотизации молодёжи, через обучение навыкам ответственного поведения в пользу своего здоровья.

Задачи реализовать посредством психологического тренинга, а именно:

предоставить научно-обоснованную информацию о психоактивных веществах и последствиях их употребления;

сформировать осознанность собственных ценностей;

- сформировать навыки постановки и достижения цели;
- сформировать положительный «образ - Я»;
- развить навыки самоуважения;
- сформировать навык принятия обоснованных решений;
- развить навыки эффективного общения;
- сформировать навык стрессоустойчивости и анализ чувств;
- сформировать навыки сопротивления социальному давлению.

Целевая группа. Студенты Высших учебных заведений.

Содержание тренинга. Тренинг состоит из профилактического курса, направленного на студентов Высших учебных заведений. Программа по формированию навыков здорового образа жизни, нацелена на широкий спектр факторов риска и защитных механизмов личности, реализуется путём обучения комбинации общих личностных и социальных умений и способностей сопротивляться при приобщении к наркотизации. Тренинг жизненных навыков состоит из трёх ведущих областей: общим социально-психологическим навыкам и умениям [7], умению выстраивать свою жизнь, формированию механизмов сопротивления предложениям употребить психоактивные вещества.

Общие социально-психологические навыки увеличивают психологическую компетентность наряду с общими социально-психологическими умениями такими как, эффективно взаимодействовать с окружающими людьми, преодолевать стеснительность, знакомиться с новыми людьми, развивать психологически здоровые отношения [8]. Обучение этим навыкам проходит путём сочетания различных психокоррекционных упражнений, наставлений, наглядных примеров, обсуждения успехов и ошибок обучаемых, закрепления материала, ролевых игр и выполнения домашних заданий.

Умение организовывать свою жизнь обеспечивает обучение навыку управлять своим состоянием, быть независимым, развить чувство самоконтроля. Оно включает в себя обучение навыкам преодоления трудностей и выработки решений, критическому мышлению для сопротивления давлению окружающих и средств массовой информации, самоконтролю и самоуважению, адекватную самооценку, определение целей, навыки саморефлексии и самоподдержки, стратегии по стрессоустойчивости и управлению гневом.

Эффективные навыки сопротивления рекламе наркотиков и предложениям употреблять их, позволяют распознать информацию о социальных факторах, провоцирующих употребление наркотиков. Они направлены на:

- повышение уровня распознавания побуждающего давления к употреблению наркотиков со стороны социального окружения;
- коррекция представления о всеобщем употреблении психоактивных веществ в обществе;
- популяризации общественных антинаркотических норм и здорового образа жизни;
- применение профилактических знаний об употреблении психоактивных веществ;
- обучения окружающих людей знаниям о профилактике употребления психоактивных веществ;

обучения окружающих навыкам сопротивления наркотикам.

Технология процесса и необходимые материалы

Социально-психологический тренинг обеспечен методическими пособиями для психологов, рабочими тетрадями и информационными пособиями для студентов.

Содержание занятий по программе развивается по принципу спирали. Параллельно с ростом, развитием, увеличением объема знаний студентов, одни и те же темы расширяются, усложняются, а установки и поведенческие навыки усиливаются и оттачиваются. В рамках тренинга используются следующие методы:

Мини – лекция;

Кооперативное обучение - это метод, когда в группах от двух до восьми человек, решая общую задачу, студенты взаимодействуют друг с другом;

Мозговой штурм - используется для стимуляции высказываний по теме;

Групповая дискуссия - это под руководством психолога способ организации совместной деятельности студентов с целью решить групповые задачи или воздействовать на мнения и установки участников в процессе общения;

Ролевое моделирование - осуществляется в форме драматических представлений, ролевых игр, телевизионных шоу.

Упражнения -энергизаторы - короткие физические упражнения, оживляющие активность группы.

Также используется важная составляющая для успеха обучающего процесса, а именно, положительная психологическая атмосфера. За создание такой атмосферы, несет полную ответственность психолог, проводящий тренинг. Здесь играют огромную роль, соблюдение правил поведения в группе и принципов работы по программе с использованием вышеперечисленных методов обучения, а также отсутствие оценочного отношения друг к другу.

Учебно-профилактическая программа представляет новую область психологической деятельности, в которой тесно переплелись практическая психология, современная педагогика и идеи медицинской профилактики.

Ожидаемый результат. Показатели эффективности программы:

- увеличение количества студентов, прошедших обучение по антинаркотической программе, с акцентом на формировании у молодежи актуальных навыков здорового образа жизни;

- создание среди молодежи атмосферы неприятия приема психоактивных веществ;

- снижение количества химически зависимых людей;

- снижение количества преступлений, совершенных молодежью под воздействием психоактивных веществ;

- снижение количества последствий употребления психоактивных веществ: криминализации среди молодежи, суицидов, рождения детей с различными патологиями, разрушения семей и т.д.

Способы оценки проекта. Положительный опыт работы может быть применен во всех Высших учебных заведениях.

ЛИТЕРАТУРА

1. Белокрылов И.В. Теоретические основы психотерапии зависимости от психоактивных веществ / В кн.: Руководство по наркологии / Под ред. Н.Н. Иванца. 2-е изд. - М.: ООО "Медицинское информационное агентство", 2008. — С. 596 - 612.

2. Дудко Т.Н. Динамика мотивов и мотивации у больных игровой зависимостью и с зависимостью от психоактивных веществ // Вопросы наркологии. 2007. - N 4. - С. 39-51.
3. Здравомыслов А.Г. Потребности, интересы, ценности / А.Г. Здравомыслов. – М., 1986. – 222 с.
4. Зейгарник Б.В. Очерки по психологии аномального развития личности / Б.В. Зейгарник, В.С. Братусь. – М.: Моск. ун-т, 1980. – 157 с.
5. Левин К. Динамическая психология / К. Левин; под ред. Д.А. Леонтьева, Е.Ю. Патяевой. – М., 2001. – 572 с.
6. Леонтьев А.Н. Потребности, мотивы и эмоции / А.Н. Леонтьев. – М., 1971.
7. Карпова Н.Л. Психологические аспекты проблемы смысла жизни / Н.Л. Карпова // Психол. журн. – 1996. – Т. 17. – № 2. – С. 178–183.
8. Колесов Д.В. Антинаркотическое воспитание /Д.В. Колесов. –М.,2001.–192 с.
9. Эпов Л.Ю. Применение мотивационной психотерапии при лечении больных алкогольной зависимостью. Автореф.дисс. канд. наук. 2004. - 23 с.
10. Якобсон П.М. Психологические проблемы мотивации поведения человека / П.М. Якобсон. – М., 1969.



УДК: 378.015.31:028.5(575.1)

Dilafro'z MUMINOVA,
Namangan davlat universiteti dotsenti, (PhD)
E-mail: dilbarxon2008@mail.ru

NamDU v/b dotsenti, (PhD) M.Qo'ldasheva taqrizi asosida

YOSHLARNING ILMIY VA IJODIY FAOLIYATIDA KITOBXONLIKNING O'RNI

Аннотация

Mazkur maqolada o'quvchilarning kitobxonlik ko'nikmalarini rivojlantirish, o'quvchi-yoshlarda mutolaa madaniyatini tarkib toptirish, tizimli yondashuv asosida boshlang'ich sinf o'quvchilarining o'qish madaniyatini shakllantirish, o'quvchilarda kitobxonlik ko'nikmalarini rivojlantirishning ijtimoiy-pedagogik mexanizmlarini takomillashtirish, kitob o'qishga qiziqishni shakllantirishning pedagogik-psixologik omillarini aniqlashtirish, o'quvchilarida kitobga muhabbat uyg'otish, kitobxonlik ko'nikmalarini rivojlantirish, mutolaa madaniyati, to'g'ri o'qish qoidalari, badiiy adabiyotga bo'lgan qiziqishlarini oshirishga doir pedagogik-psixologik ma'lumotlar keltirilgan.

Kalit so'zlar: Kitob, dunyo, inson, axborot texnologiyalari, millat, talabalar, o'quvchilar, kitobxonlik, ko'nikma, mutolaa, nutq, badiiy adabiyot, ta'lim, savodxonlik, o'qish, texnologiya, mutolaa madaniyati, mamlakat, xonadon, bilim, kreativ, unnovatsion.

В НАУЧНО-ТВОРЧЕСКОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ МОЛОДЕЖИ РОЛЬ БИБЛИОТЕКИ

Аннотация

В данной статье развитие навыков чтения учащихся, формирование читательской культуры у учащихся и молодежи, формирование читательской культуры учащихся начальных классов на основе системного подхода, совершенствование социально-педагогических механизмов развития навыка чтения у учащихся, выяснение педагогических и психологических факторов формирования интереса к чтению книг, привитие любви к книгам у учащихся, развитие навыков чтения, культура чтения, правила правильного чтения, педагогические по повышению их интереса к художественной литературе - психологическая информация дана.

Ключевые слова: Книга, мир, человек, информационные технологии, нация, учащиеся, читатели, чтение, мастерство, чтение, речь, художественная литература, образование, грамотность, чтение, технология, культура чтения, страна, дом, знания, творчество, новаторство.

IN SCIENTIFIC AND CREATIVE ACTIVITY OF YOUTH THE ROLE OF THE LIBRARY

Abstract

In this article, the development of reading skills of students, the formation of reading culture in students and young people, the formation of reading culture of primary school students based on a systematic approach, and the improvement of socio-pedagogical mechanisms for the development of reading skills in students, clarifying the pedagogical and psychological factors of the formation of interest in reading books, instilling a love of books in students, developing reading skills, reading culture, the rules of correct reading, pedagogical on increasing their interest in fiction - psychological information is given.

Keywords: Book, world, human, information technology, nation, students, readers, reading, skill, reading, speech, fiction, education, literacy, reading, technology, reading culture, country, home, knowledge, creative, innovative.

Kirish. Dunyo miqyosida o'quvchilarda kitobxonlik ko'nikmalarini rivojlantirishning kommunikativ texnologiyalarini ishlab chiqish, oila va maktab hamkorligi asosida o'qish va mutolaa madaniyatini tarkib toptirishga doir qator ilmiy izlanishlar olib borilmoqda. Ayniqsa, o'quvchilarda kitobxonlik ko'nikmalarini rivojlantirishning ijtimoiy-pedagogik mexanizmlarini takomillashtirish, kitob o'qishga qiziqishni shakllantirishning pedagogik-psixologik omillarini aniqlashtirish muhim ahamiyat kasb etadi. Shuningdek, ta'limni axborotlashtirish sharoitida o'quvchilarning kitobxonlik ko'nikmalarini rivojlantirishning virtual texnologiyalarini ishlab chiqish, elektron o'quv adabiyotlari bilan ishlash orqali axborot iste'moli madaniyatini tarkib toptirish muhim dolzarblilik kasb etadi.

Mamlakatimizda o'quvchilarning kitobxonlik ko'nikmalarini rivojlantirish, o'quvchi-yoshlarda mutolaa madaniyatini tarkib toptirish, tizimli yondashuv asosida boshlang'ich sinf o'quvchilarining o'qish madaniyatini shakllantirishga alohida ahamiyat qaratilmoqda.

O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasida "jismonan sog'lom, ruhan va aqlan rivojlangan, mustaqil fikrlaydigan, Vatanga sodiq, qat'iy hayotiy nuqtai nazarga ega yoshlarni tarbiyalash, demokratik islohotlarni chuqurlashtirish va fuqarolik

jamiyatini rivojlantirish jarayonida ularning ijtimoiy faolligini oshirish" kabi muhim vazifalar belgilab berildi. Bu esa boshlang'ich sinf o'quvchilarida kitobxonlik ko'nikmalarini shakllantirishning nazariy-metodologik asoslarini aniqlashtirish, kitobxonlik ko'nikmalarining shakllanganlik darajasini baholash mezonlarini ishlab chiqish, boshlang'ich sinf o'quvchilarida kitobxonlik ko'nikmalarini shakllantirish bosqichlarini aniqlashni taqozo etadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi PF-4947-son Farmoni, 2017-yil 13-sentyabrdagi "Kitob mahsulotlarini nashr etish va tarqatish tizimini rivojlantirish, kitob mutolaasi va kitobxonlik madaniyatini oshirish hamda targ'ib qilish bo'yicha kompleks chora-tadbirlar dasturi to'g'risida"gi PQ-3271-son Qarori, Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 31-dekabrda "Uzluksiz ma'naviy tarbiya konsepsiyasini tasdiqlash va uni amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 1059-son Qarori hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda o'quvchilarda kitobxonlik ko'nikmalarini shakllantirish masalasi ta'kidlangan [1].

Asosiy qism. Bilim manbai bo'lgan kitobni sevis, uni o'qish va ko'z qorachig'idek saqlay bilish, o'qish uchun uni tanlay olish va o'qish madaniyatini bilish kerak.

Kitobga muhabbat, uni qadrlash, o'qishga ishtiyoq xalqimizning qon-qoniga singib ketgan. Xalqimiz ilm va fan, adabiyot va san'atga oid nodir qo'llanmalar, adabiyotlari bilan haqli ravishda faxralanadi. Dunyoning qaysi bir mashhur kutubxonasida bo'lmang xalqimizning ulug' allomalari, tafakkur xazinasini yaratgan donishmandlarining qo'lyozmalarini kitob holiga keltirib, boqiy umr bag'ishlagan xattotlar, musavvirlar mehnatini ko'rish mumkin.

XIX asrning o'rtalarida Buxoro madrasalari faoliyati bilan tanishgan N.Xanikovning guvohlik berishicha, madrasaning to'liq kursini o'qib tugatish uchun tolib taxminan 137 ta kitobni o'qib chiqishi talab etilgan.

Ota-bobalarimiz kitobni ko'z qorachig'idek asrashgan. Ular kitob sahifasiga hech narsa o'ramaganlar. Kitob saqlanadigan joy xoh u kutubxona bo'lsin, xoh uy bo'lsin-muqaddas sanalgan, har qanday kitob eng pok, eng yuqori joy-tokchalarga qo'yilgan.

Ota-bobalarimiz xonadonlarda Mashrab, Navoiy, Bedil va boshqa shoirlarimizning asarlarini maroq bilan o'qishgan. Farzandlarimiz kitobxonlik davrlarida ishtirok etishgan. Natijada farzandlarimizda kitob o'qishga havas uyg'ongan. Hozirgi kunda oilalarda kitobni ko'proq bolalarga yo buvasi yo buvisi o'qib berishadi. Lekin ming afsuski, otionalari ishda band bo'lganliklari sababli ularni kechki paytda kitob o'qishga vaqtlari yetishmayapti.

Oilada bolalarga alohida xona ajratish va albatta kichkina kitob javonini tashkil etish maqsadga muvofiqdir. Shu o'rinda hurmatli ota-onalarimiz bolajonlarga kitob nihoyatda muqaddasligi, u bilan ehtiyot bo'lib muomala qilish kerakligini uqtirishlari lozim. [3].

Ta'lim muassasalarida, oilada bolani kitobga nisbatan qiziqitirish, e'tiborini oshirishda muallimning xizmati beqiyosdir.

Bolaning yoshlik chog'idayoq uning murg'ak qalbiga kitobga nisbatan qiziqish, mehr uyg'otish lozimki, u doimo kitobni sevsin, ardoqlasin, avaylasin, kitob ustida ishlashni bilsin. Ota-onalar bolaning 3-5 yoshidan boshlab ularga rangli suratli kitoblar sovg'a qilishi, «O'zing bo'ya», «Chiza olasanmi?», «Mantiqiy fikrla!» mazmundagi sodda, psixologik tomondan yoshiga mos kitob-albomlarni xarid qilishi lozim. Maktabgacha ta'lim muassasalarida bu xayrli ishni davom ettirib, bolalarning har bir guruhida yosh xususiyatlarini e'tiborga olib kichik kutubxonalar tashkil etish maqsadga muvofiqdir.

Umumta'lim maktablarida xat savodga o'rgatish boshlang'ich sinflardan boshlanar ekan, ularda kitobxonlik faoliyatini barqarorlashtirish, yoshlik chog'laridan kitob o'qishga o'rgatish muhim ahamiyat kasb etadi. Buning uchun sinf rahbarlari tashabbuslari bilan «Sinf kutubxonasi» tashkil etilishi maqsadga muvofiqdir. O'z-o'zini boshqarish tizimi bo'yicha eng zukko, bilimli bir o'quvchini «Sinf kutubxonachisi» etib tayinlash orqali, sinfdagi kitoblar soni, saqlanish holati qat'iy nazoratga olib boriladi[2].

O'quvchi-yoshlarning kitobxonlik darajasi yildan-yilga pasayib bormoqda. Buning ustiga o'quvchilarimizning kitob magazinlaridan badiiy kitoblarni xarid qilishlari ham kamaygan.

Kitobxonlikni zaruratga aylantirish kerak. Agar farzandlarimizda kitob o'qishga havas bo'lmasa, uning kitob o'qishga bo'lgan e'tiborini o'zgartirish mushkul bo'lib qoladi. Ularni o'qishga majburlash emas, balki kitob o'qishga havas uyg'otish lozim. Bu borada ota-ona, ustozu murabbiylar va kutubxona xodimlari bevosita yordam berishlari lozim bo'ladi. Bunda bolalarning yosh xususiyati, qiziqishi hisobga olinishi kerak. Italiya yozuvchisi Seneka: «Kitoblarning soni emas, ularning yaxshisi foyda keltiradi», - deb aytgan edi.

O'quvchilarni mustaqil o'qishga qiziqitirish uchun «She'riyat gulshani», «Kitob – mening do'stimsan», «Kitob mo'jizaga chorlaydi», «G'olib kitobxon», «Sinfning eng yaxshi kitobxoni» kabi tanlovlarni va har xil mavzularda bahsmunozaralarni tez-tez o'tkazib turish tavsiya etiladi.

Ta'lim muassasalarida o'quvchilarning sinfdan tashqari o'qigan kitoblari asosida kitobxonlar konferensiyasini o'tkazish, ularning mantiqiy va ijodiy fikrlash qobiliyatini boyitadi, kitobga bo'lgan havasini uyg'otadi. Farzandlarimizni kitobga qiziqitirish oson ish emas. Bu ham tarbiyaviy jarayon. Har bir bolaning qiziqishi, moyilligi inobatga olingan holatda uning o'z kitobi bo'lishi kerak.

Biz kattalar bolalardan ko'p kitob o'qishni talab etamiz. Bu bir qarashda to'g'ri. Lekin bu yerda asosiy gap o'quvchi-yoshlarimizning o'qimoqchi bo'lgan kitobining yoshiga mosligi, qiziqishi, moyilligiga to'g'ri kelishiga e'tiborni qaratish va nihoyat o'z kitobini o'qishi lozimligiga qaratishimiz lozim. Bu o'qish madaniyati qanday va qay darajada tarbiyalanganiga bog'liq.

Kitob o'qish madaniyatiga kitob xarid etish va kutubxonani muntazam boyitib borishga alohida e'tibor bilan qarash, kitob saqlash odobi, o'qish jarayoni, o'qiganni o'ziga va hayotga tatbiq eta bilish kabi yana o'nlab masalalar kiradi. Kitobni tanlab, aniq maqsadni o'ylagan holda o'qish zarur.

Bundan tashqari bola faqatgina kitob o'qish bilan chegaralanib qolmasdan, balki kitobdagi asosiy ma'nomazmunga tushunishi ham lozim.

Kitobga bo'lgan havas o'quvchilarimizni kerak bo'lsa ayrim asarlarni takror va takror o'qishga olib keladi. Nemis shoiri F.Gebblp aytganiday: «O'qilgan kitoblarni takror o'qish savodxonlikning eng ishonchli tarozisidir» deb aytgan edi.

Global axborotlashuv sharoitida intellektual mulk jamiyatning ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy rivojlanishini belgilovchi asosiy omillardan biri sifatida e'tirof etilmoqda. Binobarin, insoniyat tomonidan yaratilgan barcha umum-bashariy kashfiyot va innovatsiyalarning asosini intellekt (inson tomonidan yaratilgan g'oya) tashkil etadi. Ijtimoiy, iqtisodiy hamda madaniy taraqqiyotni belgilab beruvchi kreativ va innovatsion g'oyalarni asoslashda shaxsning fikrlash, yanada aniqrog'i, kreativ, innovatsion fikrlash qobiliyatiga ega bo'lishi muhim ahamiyatga ega. Har qanday jamiyatda shaxslarning fikrlash malakasiga egaliklari, qolaversa, bugungi kun talabidan kelib chiqqan holda kreativ, innovatsion fikrlash qobiliyatini o'zlashtira olishlari badiiy, ilmiy va ilmiy-ommabop asarlarni o'qishga nisbatan ijobiy munosabatga egaliklariga bog'liq. Zero, badiiy, ilmiy va ilmiy-ommabop asarlarni o'qish shaxsda fikrlash, tasavvur, tahlil hamda tafakkur qobiliyatini rivojlantiradi. Natijada esa jamiyatni har tomonlama taraqqiy etishini ta'minlovchi g'oyalar shakllandi. Shu sababli so'nggi uch yil davomida O'zbekistonda yoshlarda fikrlash qobiliyatini, kitobxonlik ko'nikmalarini rivojlantirishga davlat siyosati darajasida ahamiyat qaratib kelinmoqda. Bu borada keng ko'lamga ega tizimli ishlar amalga oshirilmoqda[4].

Pedagogik yo'nalish va bolalarda o'qish ko'nikmasi, malakasi va madaniyatini shakllantirishga qaratilgan tadqiqotlarning natijalarini umumlashtirilgan holda mutolaa ko'nikmalari quyidagilardan iborat ekanligini aytib o'tish mumkin: matnda nima, kim haqida so'z yuritilayotganligidan kelib chiqqan holda vaziyatni tushunish; muhim axborotni ajratib ko'rsatish; matn ostida ifodalangan yashirin sabab va mo'ljallarni tushunish; matnning hal qiluvchi tahlili: matnning turli qismlarini o'lchash; shaxsiy tajribani qiyoslash; matnning shaklini o'zgartirish va izohlash: mazmunni chiqarish; matn bo'yicha muhokamani tashkil etish, o'qilganlarga asoslangan holda xulosa chiqarish; matnni baholash, muallifning pozitsiyasi (yondashuvi)ni ko'ra olish, yaxlit holda asarning kayfiyatini his qilish; o'qilganlarga nisbatan shaxsiy munosabatni shakllantirish va o'z tanlovini izohlashdan iborat ekanligini aytish mumkin [8].

Tadqiqotni olib borish davrida hayotiy tajriba, pedagogik kuzatish hamda kitoblarni, shu jumladan, badiiy kitoblarni ko'p o'qiydigan shaxslar faoliyatini kuzatish natijasida o'qish va kitoblarga mehr qo'yishgan shaxslar quyidagi sifatlarga ega bo'lishlari aniqlandi: asar mazmunini tushunish; asar voqeliklari o'rtasidagi izchil bog'liqlik va aloqadorlikni ko'ra olish; asar qahramonlarining kechinmalari, o'y-fkrlari, hayotiy intilishlarini tushunish va ularga hamdardlik bildirish; o'zini asar qahramonining o'rniga qo'yib, u duch kelgan muammolarni hal qilishga urinish,

muammoni hal qilishning yo'llarini izlash; asar mazmuni va voqeliklariga nisbatan shaxsiy munosabatni ifodalash.

Xulosa va takliflar. Mutolaa kitobxon shaxsini shakllantirishning muhim asosi bo'lib, u muayyan ko'nikma, malaka va tajribaga ega bo'lishni taqozo qiladi. Yoshlarda kitob o'qish va kitobxonlikka ijobiy munosabatni qaror toptirish o'z-o'zidan ro'y bermaydi. Buning uchun har bir shaxsni dastlab yoshdan boshlab, kitoblar bilan tanishtirish, ularning jamiyat va inson hayotidagi ahamiyati, amaliy qiymatini tushunishlari uchun zarur pedagogik shart-sharoitni yaratish lozim.

ADABIYOTLAR

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Kitob mahsulotlarini nashr etish va tarqatish tizimini rivojlantirish, kitob mutolaasi va kitobxonlik madaniyatini oshirish hamda targ'ib qilish bo'yicha kompleks chora-tadbirlar dasturi to'g'risida"gi (2017 yil 13 sentyabr) Qarori PQ-3271-son Qarori, O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2017 yil., 38-son, 1029-modda.
2. Ibrat. Ajziy. So'fizoda. – T.: Sharq, 1999. – 38 b.
3. Abdullayev A. Mutolaa madaniyati intellektual salohiyatni belgilab beradi // <https://kun.uz/13172148>.
4. Yoshlar va kitobxonlik madaniyati // <http://old.xs.uz/index.php/homepage/madaniyat/item/9576-joshlar-va-kitobkhonlik-madaniyati>.
5. Kitobxonlik madaniyati // <http://navoiy-uni.uz/uz-k/content/kitobxonlik-madaniyati>.
6. Sayyid S. Kitobsiz kelajak yo'q // <http://uza.uz/oz/society/kitobsiz-kelazhak-y-16-01-2017>. Курочкина М. Методы развития творческих способностей младших школьников // Ж. Воспитание школьников. -М.: 2009. - № 4. С. 48-51.
7. Akbaraliyeva M. D. Library culture in the formation of students' social activity // European journal of modern medicine and practice. – 2022. – T. 2. – № 5. – С. 43-48.
8. Муминова д. The book is the cultural and spiritual heritage of the nation // O'zbekiston milliy universiteti xabarlari, 2022,[1/10] ISSN 2181-7324.



Bahora NARZULLAEVA,
"Mahalla va oila" ilmiy-tadqiqot instituti tayanch doktoranti
E-mai: lbnarzullaeva@mail.ru

Pedagogika fanlari doktori, professor A.Zokirov taqrizi asosida

THE CURRENT STATE OF THE DEVELOPMENT OF INTERNATIONAL FRIENDLY RELATIONS IN THE NEIGHBORHOODS

Abstract

In the article, equal conditions have been created for nationalities living in Uzbekistan to preserve their national identity, and the social situation of binational families in neighborhoods has been revealed. Also, the state policy of strengthening and developing inter-ethnic friendly relations in our country was analyzed. Conclusions from the article can be used in the process of teaching social sciences and in the process of promoting national ideas.

Key words: International harmony, national cultural centers, politics, history, society, constitution.

MAHALLALARDA MILLATLARARO DO'STLIK ALOQALARINI RIVOJLANTIRISHNING HOZIRGI HOLATI

Annotatsiya

Maqolada O'zbekistonda yashayotgan millatlarning milliy o'zligini saqlab qolishlari uchun teng sharoitlar yaratib berilganligi, mahallalarda ikkimillatli oilalardagi ijtimoiy holat ochib berilgan. Shuningdek, mamlakatimizda millatlararo do'stlik aloqalarini mustahkamlashda va rivojlantirishda olib borilayotgan davlat siyosati tahlil qilingan. Maqoladan olingan xulosalarni ijtimoiy fanlarni o'qitish jarayonida va umummilliy g'oyalarni targ'ib qilish jarayonida foydalanish mumkin.

Kalit so'zlar: Millatlararo totuvlik, milliy madaniy markazlar, siyosat, tarix, jamiyat, konstitutsiya.

СОВРЕМЕННОЕ СОСТОЯНИЕ РАЗВИТИЯ МЕЖДУНАРОДНЫХ ДРУЖЕСТВЕННЫХ ОТНОШЕНИЙ В СОСЕДСТВАХ

Аннотация

В статье созданы равные условия для проживающих в Узбекистане национальностей для сохранения своей национальной идентичности, раскрыто социальное положение бинациональных семей по соседству. Также была проанализирована государственная политика укрепления и развития межэтнических дружественных отношений в нашей стране. Выводы из статьи могут быть использованы в процессе преподавания общественных наук и в процессе пропаганды национальных идей.

Ключевые слова: Межнациональное согласие, национальные культурные центры, политика, история, общество, конституция.

Kirish. Ko'p asrlar davomida zamonaviy O'zbekiston hududi turli madaniyat va dinlar o'rtasidagi o'zaro hamkorlikning jahon markazlaridan biri bo'lib kelgan. Ko'p millatli va ko'p konfessiyali jamiyat sharoitida O'zbekiston hukumati millatlararo va dinlararo totuvlikni mustahkam saqlashga, mamlakatning barcha fuqarolarining teng huquq va erkinliklarini himoya qilishga qaratilgan siyosatni amalga oshiradi. O'zbekiston tarixining taniqli sahifalari uning hududida turli vaqtlarda yashagan xalqlar va etnik guruhlarning diniy va ma'naviy xilma-xilligini aks ettiradi. Mamlakatimizning urf-odatlarini va o'ziga xos xususiyatlarini shakllantirishda qaysi xalqlar yoki qaysi dinlar muhim rol o'ynaganligini baholashni o'z zimmasiga olmagan holda, ishonch bilan aytishimiz mumkinki, zamonaviy O'zbekiston tarix tomonidan unga berilgan barcha eng yaxshi narsalarni, jumladan, bag'rikenglik va turli madaniyat va dinlar vakillari o'rtasidagi o'zaro hurmat qadriyatlarini o'zida mujassam etgan. Mustaqillik tufayli respublikaning turli diniy jamoalariga marosimlarni erkin yuborish va ularning e'tiqodi talab qilgan talablarni bajarish uchun o'zlarining jamoat tashkilotlarini tuzishga imkon berdi. Mamlakatimizda millatlararo totuvlik va hamjihatlikka, o'zga millat vakillariga hurmat bilan qarash siyosatiga doim amal qilib kelmoqda. O'zbekistonning ushbu sohadagi milliy siyosati, xususan, quyidagi tamoyillarga asoslanadi:

Birinchidan, jinsi, irqi, millati, tili, dini, ijtimoiy kelib chiqishi, e'tiqodi, shaxsiy va ijtimoiy mavqei farq qilmasdan fuqarolarning qonun oldida teng huquq va erkinliklarini, tengligini ta'minlash.

Ikkinchidan, siyosiy institutlar, mafkuralar va fikrlarning xilma-xilligi asosida ijtimoiy hayotning rivojlanishini ta'minlash.

Uchinchidan, turli millatlar va millatlar vakillarining tillari, urf-odatlarini va urf-odatlariga hurmat bilan munosabatda bo'lish, ularning rivojlanishi uchun zarur shart-sharoitlarni yaratish.

"O'zbekiston xalqini millati qanday bo'lishidan qat'iy nazar, O'zbekiston Respublikasi fuqarolarini tashkil etadi" degan konstitutsiyaviy qoidaga asoslanib (8-modda) aytilgan bo'lsa, asosiy qonunda mustahkamlangan barcha huquq va erkinliklar istisnosiz barcha millatlar vakillariga bir xil munosabatda bo'ladi.

O'zbekiston milliy siyosatining asosiy tamoyillari hayotda o'zining haqiqiy timsolini topmoqda. Shunday qilib, hozirgi paytda mamlakatimizda 140 dan ortiq milliy-madaniy markazlar faoliyat ko'rsatmoqda. Ilk madaniy markazlar O'zbekistonda 1989-yilda qozoqlar, koreyslar, arman yahudiylar tomonidan tashkil etilgan. Milliy-madaniy markazlarning ko'p qirrali ma'naviy-ma'rifiy faoliyati bizning umumiy uyimiz – O'zbekistonda o'zaro hurmat va millatlararo bag'rikenglik ruhini tasdiqlashda muhim omil hisoblanadi. Yuqorida aytilganlarning barchasini sarhisob qilar ekanmiz, shuni ta'kidlash kerakki, O'zbekistonda erishilgan ijtimoiy va siyosiy barqarorlik mamlakatda millatlararo tinchlik va fuqarolik roziligini ta'minlashga qaratilgan chuqur o'ylangan siyosat natijasidir.

Tadqiqot metodologiyasi. Respublikamizda millatlararo do'stlik aloqalarini rivojlantiruvchi milliy va xalqaro

madaniy markazlar faoliyati tizimli yo'lga qo'yilmoqda va xalqaro madaniy markazlarning asosiy maqsad va vazifalari quyidagilardan iborat:

milliy madaniy markazlarga amaliy va uslubiy yordam ko'rsatish, ularning faoliyatini muvofiqlashtirish va nazorat qilish;

respublikada yashovchi milliy guruhlarning milliy urf-odatlarini, urf-odatlarini va marosimlarini qayta tiklash va rivojlantirishga, madaniyati va ma'naviy qadriyatlarini rivojlantirishga ko'maklashish;

MDH va xorijiy mamlakatlarning milliy va xalqaro madaniy markazlari bilan aloqalar va hamkorlikni o'rnatish va rivojlantirish;

illatlar va millatlarning xalqaro birlashuviga ko'maklashish, millatlararo munosabatlarni uyg'unlashtirish.

Ozərbayjon milliy madaniy markazini oladigan bo'lsak, m., illatlararo aloqalarni mustahkamlash va rivojlantirishga intilayotgan markaz faollari o'zbek va ozarbayjon madaniyatlarining o'zaro almashinuvi va boyitilishiga, xalqlar o'rtasidagi do'stlik rishtalarini yanada mustahkamlashga munosib hissa qo'shib kelmoqdalar. Rus, qozoq qirg'iz, koreys milliy madaniy markazlari faoliyati ham ayni bugungi kunda millatlararo do'stlik aloqalarini mustahkamlashda ko'priq vazifasini o'tayotgani shubhasiz.

O'zbek xalqi har doim boshqa millat va dinlar vakillariga nisbatan tinchlik va bag'rikenglik ko'rsatib kelgan. Ayniqsa, Samarqand shahrida xalqlar do'stligi va diniy bag'rikenglik muzeyining ochilishi mamlakatimizda yashayotgan deyarli barcha xalqlar madaniyatini aks ettiruvchi eksponatlar namoyish etilmoqda. Bu yerda siz Buxoro kulolchiligidan rus samovarini, koreyslar, arablar va tatarlarning milliy liboslarini, musiqa asboblari, hunarmandlarning idishlari va hunarmandchiligini, noyob kitoblarni topishingiz mumkin. Muzeyda zamonaviy rassomlarning rasmlari va qadimiy Samarqand me'moriy yodgorliklarining fotosuratlarini namoyish etiladigan ikkita galereya mavjud.

Millatlarning o'zaro hurmati har bir jamiyatning sivilizatsiya darajasining ko'rsatkichidir va nafaqat davlatda millatlararo totuvlikning asosi, balki uning ijtimoiy - iqtisodiy va ijtimoiy-siyosiy rivojlanishining eng muhim shartidir. Ushbu postulatga asoslanib, mustaqil O'zbekistonning millatlararo munosabatlarida bir millatning boshqasiga nisbatan takabbuli, har qanday millatning etnik xususiyatlarini e'tiborsiz qoldirish mumkin emasligi ta'kidlanadi. O'zbekiston rahbariyatining barcha millat vakillarini birlashtirishga qaratilgan oqilona milliy siyosati, o'zbek millatining bag'rikengligi va insonparvarligi respublika mustaqilligi arafasida va birinchi yillarida dushman unsurlar tomonidan ekilgan millatchilik va milliy qarama-qarshilikning illatlarini rivojlantirishga imkon bermadi.

O'zbekistonda fuqarolar o'rtasida o'zaro tushunishni rivojlantirishning asosiy yo'nalishlaridan biri bo'lgan millatlararo totuvlik va bag'rikenglikni saqlashga imkon beradigan noyob model yaratilganiga guvoh bo'lmoqdamiz. Biz hammamiz, birinchi navbatda, unumdor yurtimiz – O'zbekistonning farzandlarimiz. Bu yerda turli diniy yo'nalishlar tinch-totuv yashaydi va rivojlanadi. Ularning vakillari uchun marosimlar, ziyorat qilish uchun sharoitlar yaratilgan. Bundan tashqari, mamlakatimiz inson huquqlarini ta'minlash bo'yicha 70 dan ortiq xalqaro hujjatlarga qo'shildi, bu davlatning vaziyatni yanada yaxshilash, boshqa davlatlar bilan hamkorlik qilish va, albatta, xalqning baxtli hayoti va farovonligini ta'minlashdan manfaatdorligini ko'rsatadi.

2022-2026-yillarda yangi O'zbekistonni rivojlantirish strategiyasi jamiyatda millatlararo totuvlik va diniy bag'rikenglik muhitini mustahkamlash, milliy madaniy

markazlarni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash tizimini yanada takomillashtirish, turli millat vakillari uchun qo'shimcha qulay shart-sharoitlar yaratish, bag'rikenglikka asoslangan millatlararo muloqot madaniyatini yuksaltirish, shuningdek, do'stlik jamiyatlarini faoliyatini takomillashtirish, milliy madaniyat markazlari bilan do'stona aloqalarni rivojlantirish, xorijiy davlatlar bilan aloqalarni yo'lga qoyish ko'zda tutilgan. O'zbekiston tashabbusi bilan qabul qilingan qarorda ma'rifat, tinchlik, inson huquqlari, bag'rikenglik va do'stlikni rivojlantirishning muhim roli ta'kidlanib, sayyorada xavfsizlik va tinchlikni mustahkamlash yo'lida integratsiya, o'zaro hurmat, inson huquqlarini himoya qilish, bag'rikenglik va o'zaro tushunish muhimligi e'tirof etildi. Hujjat, shuningdek, dinlararo, madaniyatlararo va dinlararo uyg'unlikni targ'ib qilishga qaratilgan barcha xalqaro, mintaqaviy va milliy tashabbuslarni ma'qullaydi.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili. Ikki millatli oila muhitida oilaviy tarbiya munosabatlarini takomillashtirish mavzusi ham aynana millatlararo totuvlik masalasida dolzarb ahamiyatga ega. Pedagog olimlarning ilmiy pedagogik tadqiqotlarida yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlash, oilada sog'lom turmush tarzi hamda ijobiy oilaviy munosabatlarni shakllantirish, uning farzand kamolotini ta'minlashdagi ahamiyati, oilaviy tarbiyani tashkil etishning mazmuni, shakl, metod vositalari va oila turlari, ularda tarbiyalanayotgan shaxs xulq-atvori kabi masalalar o'z aksini topgan. Mahallalarda Xususan, pedagog olim Y.P.Azarovning "Oila pedagogikasi" asarida oila tarbiyasining mohiyati, ota-onalarning tarbiyalanganlik jihatlari, oilada qizlar tarbiyasini tashkil etishning o'ziga xos jihatlari haqida so'z yuritib, ilg'or oilalar namunasida yosh oilalarni shakllantirish masalasiga urg'u berilgan.

G'.V.Mardonova o'zining ilmiy ishlarida o'zbek xalqining millatlararo bag'ri kenglik g'oyalari rivojlantirishda milliy tarbiya mazmuni va uning ahamiyatini chuqur ilmiy tadqiq etadi.

Oilaviy tarbiya munosabatlari bilan bog'liq faoliyat yo'nalishlarini amalga oshirishda inobatga olinishi lozim bo'lgan muhim bir jihat borki, bu ko'p tillilik muhitidir. Ya'ni, mamlakat aholisining bir nechta tillarda so'zlashishi bo'lib, ushbu holat mamlakatda ko'plab turli millat vakillarining istiqomat qilishi bilan izohlanadi. O'zbekiston Respublikasida yashovchi turli millat vakillarini respublika ijtimoiy, ma'naviy-ma'rifiy hayotida faol ishtirok etishini ta'minlash, mamlakatimizda fuqarolar hamjihatligi va millatlararo totuvlikni mustahkamlashga ko'maklashish markazning asosiy vazifalari bo'lib hisoblanadi.

Tahlil va natijalar. Hozirgi kunga kelib Surxondaryo viloyatida 20 dan ziyod millat vakillari tinch-totuv yashab kelmoqda. Surxondaryo viloyati doimiy aholisining milliy tarkibi to'g'risidagi statistik ma'lumotga ko'ra (2020-yil 1-yanvar holatiga ko'ra) viloyatda millat vakillarining soni bo'yicha eng ko'pchilikni o'zbek millati (222182 nafar, yoki 84,5 foizini), tojik millati (326045 nafar, yoki 12,5 foizini), turkman millati (32254 nafar, yoki 1,3 foizini), rus millati (21376 nafar, yoki 0,8 foizini) ga mansub fuqarolar tashkil etadi.

Xulosa. Xulosa qilib aytganda, Mamlakatimizda mahallalarda millatlararo totuvlik, do'stlik aloqalarini rivojlantirish masalasi bugungi kunda yanada dolzarblik kasb etmoqda. Ikkimillatli oilalarda kechayotgan turmush sharoitlari ijobiy muhit kasb etayotgani o'rganilmoqda. Shuningdek, millatlararo do'stlik aloqalarida muhim ko'priq hisoblanuvchi milliy madaniy markazlar faoliyati kengaytirilib, o'zaro an'analar almashinuvi yo'lga qo'yilmoqda.

ADABIYOTLAR

1. Mirziyoyev Sh. M.. “Ijtimoiy barqarorlikni ta'minlash, muqaddas dinimizning sofliğini asrash — davr talabi” mavzusidagi anjumanda so‘zlagan nutqi // Xalq so‘zi, 15.06.2017. №7.
2. Millatlararo munosabatlar sohasida O'zbekiston Respublikasi davlat siyosati konsepsiyasi // O'zbekiston Respublikasi Prezidentining rasmiy veb-sayti -
3. www.president.uz.
4. O‘zbekiston Ozarbayjon milliy madaniy markazi // <https://interkomitet.uz/mita-a-jda/miiiü-madanü-markazlar/ozarbajzhon-millij-madanij-markazlari-ujushmasi>.
5. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi.



УДК: 51:378:371.3

Ганишер НАФАСОВ,
Гулистон давлат университети в.б доценти, (PhD)
E-mail: gnafasov87@gmail.com

ТДПУ профессори, н.ф.д. Б.С.Абдуллаева тақризи асосида

DEVELOPMENT OF COGNITIVE COMPETENCE OF FUTURE MATHEMATICS TEACHERS BASED ON A CREDIT-MODULAR SYSTEM

Abstract

This article describes the content of digital technologies in the process of developing the cognitive competence of future mathematics teachers in all higher educational institutions, which are currently studied on the basis of a credit-modular system, and emphasizes the degree of effectiveness of the results obtained on the basis of experience.

Key words: Pedagogical cognitive competence, cultural competence, talent, credit module, motivation, innovation, self-expression, critical thinking, understanding of problems.

РАЗВИТИЕ КОГНИТИВНОЙ КОМПЕТЕНТНОСТИ БУДУЩИХ УЧИТЕЛЕЙ МАТЕМАТИКИ НА ОСНОВЕ КРЕДИТНО-МОДУЛЬНОЙ СИСТЕМЫ

Аннотация

В данной статье описано содержание цифровых технологий в процессе развития когнитивной компетентности будущих учителей математики во всех высших учебных заведениях, которые сегодня изучаются на основе кредитно-модульной системы, и подчеркнута степень эффективности результатов, полученных на основе опыта.

Ключевые слова: Педагогическая когнитивная компетентность, культурная компетентность, талант, кредитный модуль, мотивация, инновация, самовыражение, критическое мышление, понимание проблем.

КРЕДИТ-МОДУЛЬ ТИЗИМИ АСОСИДА БЎЛАЖАК МАТЕМАТИКА ЎҚИТУВЧИЛАРНИНГ КОГНИТИВ КОМПЕТЕНЦИЯСИНИ РИВОЖЛАНТИРИШ

Аннотация

Ушбу мақолада бугунги кунда кредит-модуль тизими асосида тахсил олаётган барча Олий таълимдаги бўлажак математика ўқитувчиларнинг когнитив компетенциясини ривожлантириш жараёнида рақамли технологиялар фойдаланиш мазмуни баён этилган ҳамда тажрибасинов асосида олинган натижаларнинг самарадорлик даражаси аёнланган.

Калит сўзлар: Педагогик когнитив компетенция, маданий компетенция, истеъдод, кредит-модуль, мотивация, инновация, ижодкорлик, танқидий фикрлаш, муаммоларни ҳал қилиш.

Қириш. Жаҳон таълим муассасаларида тизимли ёндашув асосида таълимни ташкил этиш, бўлажак математика ўқитувчиларнинг когнитив компетенцияларини ривожлантиришнинг креатив модули таълим технологиялари амалиётга жорий этилмоқда. Бўлажак математика ўқитувчиларнинг касбий фаолиятга тайёрлашда юқори сифатли билимлар ресурсларидан фойдаланиш, бўлажак математика ўқитувчиларнинг методик тайёргарлигини таъминлашнинг мақсадли моделлари, мультимедияли электрон ресурсларни таълим жараёнига татбиқ этиш, касбий фаолиятни лойиҳалаштира оладиган бўлажак математика мутахассис кадрларни ижодий фаолиятга тайёрлаш бўйича тизимли ишлар амалга оширилмоқда.

Республикаимизда сўнгги йилларда олий таълим муассасаларида, бўлажак математика ўқитувчиларнинг когнитив компетенциясини ривожлантириш, дидактик шарт-шароитларини ишлаб чиқиш, педагогик жараённинг мазмуни, ривожлантириш мезонлари ва шаклланиш даражалари, дидактик моделини ишлаб чиқиш муҳим аҳамият касб этмоқда. “Ўзлуксиз таълим тизимини янада такомиллаштириш, сифатли таълим хизматлари имкониятларини ошириш, меҳнат бозорининг замонавий эҳтиёжларига мос юқори малакали кадрлар тайёрлаш сиёсатини давом эттириш”, таълим тизими соҳасидаги устувор вазифалар этиб белгиланди. Бунда ҳар томонлама етук, билимдон, ижодкор ёшларни тарбиялаш ҳозирги куннинг асосий талабларини ҳал этишда олий таълим

муассасалари талабаларининг когнитив компетенциясини ривожлантириш муҳим аҳамият касб этади.

- **Мавзуга оид адабиётларнинг таҳлили.** Олий таълим муассасаларида таълимни ташкил этишнинг муҳим йўналиши бўлиб, талабаларда мустақил таълимга тайёргарлик жараёни ҳамда ўқув фан соҳасига тайёрлаш талабаларда когнитив компетенцияларни шакллантириш учун педагогик шарт-шароитлар муҳим ўрин тутди. Талабаларда когнитив компетенцияни ривожлантиришнинг педагогик-психологик жиҳатларини ёритиб бериш масалаларига олимлар томонидан олиб борилган тадқиқотлар алоҳида эътибор қаратилган.

Н.М.Муслимов[3:]нинг фикрича инглизча “competence” тушунчасининг луғавий маъноси “қобилият” демакдир, бироқ компетенция атамаси билим, кўникма, маҳорат ва қобилиятни ифода этишга хизмат қилади[3].

Жумладан, Rachel C.F.Sun and Eadaoin K.P.Hui[4] Roy D Pea[5], ва R.Sidney[6]ларнинг тадқиқот ишларида мантикий фикрлаш, шахснинг ўз иқтидорини намоён қилишда муҳим аҳамият касб этиши каби жиҳатларга тўхталиб ўтган.

Roy D, Pea[5]нинг фикрига кўра талабаларда когнитив компетенцияни ривожлантиришда математик тафаккурнинг ривожланиши учун аҳамиятли бўлган эвристик таксономиянинг етти функциясига тўхталиб ўтади. Олим математик тафаккурни ривожлантиришнинг мақсад ва вазифаларини функцияларда алоҳида келтириб ўтади[5].

R.Sidney[6] ўз тадқиқотларида математика инсон ҳаётида муҳим аҳамиятга эга бўлиб, у талабаларга тўғри ўргатилиши керак. Талабаларни тўғри ўрганишига сабаб бўлувчи омиллардан бири бк когнитив компетенциядир деб тақдидлаб ўтган[6].

Rachel C.F.Sun and Eadaoin K.P.Hui[4] тадқиқот ишларида когнитив компетентлик муаммоларни ҳал қилиш, қарор қабул қилиш ва ижобий ўрганиш жараёнлари танқидий тафаккур ва ижодий тафаккур билан боғлиқлиги масалаларига тўхталиб ўтган[4].

Хусусан, олимлар томонидан олиб борилган тадқиқотларда ушбу тушунчалар мазмуни ўзгаради:

компетенция бу, жамият учун – умумлашган ҳаракатлар усуллари ва таълим натижаларидан иборат билимларни қўллаш қобилияти;

компетентлик эса – компетенцияларни эгаллаш даражаси, интеграл шахсий тавсифлашдан билимлар, тажриба ва таълимгача;

компетенция компетентли таълим мазмунида умумийга қиради, компетентлик бу - индивидуалга; компетентлик компетенциянинг намоён бўлиши тажрибасини кўзда тутди.

Тадқиқот методологияси. Талабаларда когнитив компетенцияни ривожлантиришда ўрганилаётган курс бўлимига кўра махсус рамزلардан фойдаланиш, чамбарчас ички фанлараро курс боғлиқликлари талабада математик тайёргарлик даражасини оширишга имкон берадиган билим, малака, кўникмаларни мустақил эгалланиши бўйича ҳаракатларни ўзлаштиришга қобилиятларни ривожлантиришда алоҳида ўрин эгаллайди.

Илмий адабиётлар ва луғатлар таҳлилларига кўра лотинча “cotpetense” (“лаёқатли, муносиб бўлмоқ”) сўзидан келиб чиққан “компетенция” сўзи шахснинг бирор-бир соҳадан хабардорлик, шу соҳани билиш даражасини англатади.

Талабаларда когнитив компетенцияни ривожлантиришда ўрганилаётган курс бўлимига кўра махсус рамزلардан фойдаланиш, чамбарчас ички фанлараро курс боғлиқликлари талабада математик тайёргарлик даражасини оширишга имкон берадиган билим, малака,

кўникмаларни мустақил эгалланиши бўйича ҳаракатларни ўзлаштиришга қобилиятларни ривожлантиришда алоҳида ўрин эгаллайди.

Илмий адабиётлар ва луғатлар таҳлилларига кўра лотинча “cotpetense” (“лаёқатли, муносиб бўлмоқ”) сўзидан келиб чиққан “компетенция” сўзи шахснинг бирор-бир соҳадан хабардорлик, шу соҳани билиш даражасини англатади.1

Европа мамлакатлари олимлари томонидан таълимда когнитив компетенция “таълим даражасини мунтазам оширишга тайёргарлик, шахсий салоҳиятни такомиллаштиришда ва қўллашга эҳтиёж, мустақил янги билим ва малакаларни эгаллаш, мустақил ривожланишга қобилият” сифатида қараш демакдир деб тадқиқ қилган. Демак, контент-таҳлил шуни кўрсатадики, когнитив компетентликни аниқлаш учун асл тушунчалар бўлиб, таълим даражасини мунтазам оширишга тайёргарлик, шахсий салоҳиятни долзарблаштириш ва қўллашга эҳтиёж, мустақил янги билим ва малакаларни эгаллаш, мустақил ривожланиш қобилиятига тайёриқда намоён бўладиган интеграл шахс хислати; ё билиш фаолияти компетенцияларининг эгалланиши хизмат қилишини кўрсатади. Когнитив компетенцияни аниқлаш учун асл тушунчани юқорида кўрсатилган фаолиятга тайёриқнинг ўзи, ё бу тайёргарликни таъминловчи таълим натижаси ташкил қилади. Бунда кўпгина муаллифлар шахснинг салоҳиятини қўллашга нисбатан эҳтиёжи, интилиши ва тайёриқлиги ҳамда мустақил ривожланишга қобилиятини мажбурий шартлар деб ҳисоблайди.

Таҳлил ва натижалар. Тадқиқотда ажратилган когнитив компетенция таркибий қисмларига нисбатан мустақил бошқариш жараёнларини мослаштирамиз. Мустақил таълим механизми субъект томонидан ўз фаолияти мақсадларини танлаш ва қабул қилиш, ҳаракатлар дастурини тузишга шахсий муносабат, ўзини ўзи назорат қилиш, ўзини ўзи баҳолаш, ўз фаолиятини таҳлил қилишни амалга оширишни кўзда тутди. Шунга кўра когнитив компетенция тузилмаси куйидаги тарзда кўрилади (1-жадвалга қаранг):

1-жадвал.

Когнитив компетенция тузилмаси

Компетенция таркибий қисми	Таркибий қисм мезонлари
Мотивациявий	Талабада мустақил излаш ва янги билимларни ўзлаштиришга эҳтиёжнинг борлиги
Ахборотли	Масалани ечиш ва қўлланувчанлиги шартлари таҳлили асосида масалани ечиш методини танлаш учун математик ахборотни тақдим қилиш тилини танлаш ҳақида <u>мустақил қарор қабул қилиш</u>
Тезкорлик	Ҳаракатларнинг мақсадга мувофиқлиги ва мос келувчи таъриф, назария, алгоритм, математик мантиқ қонунлари ёрдамида бажарилиши имкониятини асослаб, уларни амалга ошириш малакаларини эгаллаш
Баҳоловчи	Хатоларнинг юзага келиши сабабларини таҳлил қилиш асосида коррекцион фаолият режасини қуриш малакаларини эгаллаш ва эҳтимол коррекцион фаолият натижаларини кўра олиш

Компетенция фаолиятда шаклланишини эътиборга олиб, унинг тузилмаси мазкур тадқиқотдан фарқли равишда ўзгаририлган. Компетенция таркибий қисмларини ривожлантириш учун ўқув-билиш фаолиятини мустақил бошқариш механизмларидан (субъект томонидан фаолият мақсадининг қабул қилиниши, аҳамиятга эга шартларнинг субъектив моделини яратиш, бажариловчи ҳаракатлар дастурини тузиш, мақсадга эришиш субъектив мезонларини текшириш, реал натижаларни назорат қилиш ва баҳолаш, мустақил бошқариш тизимини тўғрилаш ҳақида қарор қабул қилиш) фойдаланилган.

Математика ўқитувчисини тайёрлаш сифатини ривожлантиришнинг қурилган концепциясига асос солув-

чи концепцияси касбий фаолиятда “ижодий мустақил ривожланиш билимлари, мустақил ривожланишга қадриятли қаратиш тизимига эга яхлит, интеграл шахс тавсифи” сифатида кўриб чиқиладиган математика ўқитувчиси методологик маданияти ривожланишига қаратиш тамойили ҳисобланади

И.Д.Пехелецкий[8:] эса урта кўрсаткичга W, K, M таяниб, масала мураккаблигини баҳолашни таклиф қилади:

W – “автоматик” бажариладиган элементар ҳисобланган масалаларни ечиш учун зарурий асосий операциялар тўпламини тавсифлайди;

К–талабалар томонидан мустақил тузиладиган асосий операцияларнинг бир-бирига қўшилишини тавсифлайди;

М–қуйи даражадаги операцияларнинг бир-бирига қўшилишидан ташкил топган комбинацияларни тавсифлайди.

Талабалар томонидан “Тенгламалар ва тенгсизликлар” мавзусининг ўрганилишида масалаларни ажратиш учун элементар математика курсида мураккаблик даражасига кўра W, K, M кўрсаткичларини аниқлаштириш зарур (2-жадвалга қаранг):

2-жадвал.

Масаланинг мураккаблик даражаси кўрсаткичларини тавсифлаш

Кўрсаткич	Тавсифлаш
W	Ўхшаш ўзгарувчилар: шакл алмаштириш, қисқа қўпайтириш формулаларини қўллаш, касрларни умумий махражга келтириш, арифметик ҳисоблашлар; энг оддий барча асосий турдаги тенгламалар ва тенгсизликларни ечиш
K	Ўрганиладиган мавзу бўйича махсус формулаларни қўллаш билан шакл алмаштиришлар, масалани ечишда предикатларни киритиш, предикат ва фикрлар устида бажариладиган ҳаракатлар, стандарт вазиятда масалани ечиш режасини тузиш
M	Масалани ечиш учун зарурий эвристикаларни излаш, ностандарт вазиятда масалани ечиш режасини тузиш

Мавжуд тадқиқотларда математика ўқитувчисини тайёрлаш жараёни мустақил таълим нуқтаи назаридан етарли ёритилмаган бўлиб чиқди. Бир вақтда ўқитувчи ечиши керак бўлган масалалардан бири – касбий мустақил таълим ва шахсий ўсишни амалга оширишдир.

Бўлажак математика ўқитувчисининг тадқиқот малакаларини муаммоли-излаш масалалари орқали шакллантириш Н.А.Демченкова[7;] ишида ўрганилган [7;]. Бу тадқиқотда бўлажак математика ўқитувчисининг ўрта мактаб ўқувчиси муаммоли таълимни амалга ошириш учун зарурий учта блокдаги тадқиқот малакалари ажратилган. Малакаларнинг биринчи блоки “муаммоли вазият” тушунчасига тегишли. Бу ерда муаммоли вазиятни таҳлил қилиш ва конструкциялаш билан боғлиқ малакалар ҳамда муаммоли вазиятларни ҳал этиш бўйича ўқувчиларнинг ўқув-билиш фаолиятини ташкил қилиш билан боғлиқ малакалар белгиланган. Малакаларнинг иккинчи блоки “муаммоли-излаш масаласи” тушунчасига тегишли масала муаммосини ўрнатиш, ўқитувчи масалани муаммоли-излаш масаласига айлантириш, ўқув жараёнида вазифа ўрнини аниқлаш, муаммоли-излаш масаласини мустақил тузиш белгиланган. Малакаларнинг учинчи блоки муаммоли математика дарсини тайёрлаш ва ўтказиш билан боғлиқ бўлиб, муаммоли дарс учун танланган мавзунинг самарадорлигини асослаш, муаммоли ўқитиш даражасини танлаш, асосий дарс босқичларини ишлаб чиқиш, дарсда ўқувчиларнинг ўқув-

тадқиқот фаолиятини ташкил қилиш методлари ва шакллари танлаш эътиборга олинган. Муаллиф малакалар муаммоли-излаш масалалари ёрдамида шаклланиши мумкинлигини кўрсатиб, бу масалаларнинг тизими қуйидаги тамойилларда қурилган: мақсадга йўналтирилганлик ва таҳсил олувчиларнинг фаоллиги, муаммолик (таҳсил олувчилар ўқув фаолиятини ташкил қилиш мазмуни, методлари ва шакллари), ҳар бир таҳсил олувчи мустақиллиги даражасининг аста-секин ўсиши ва табақалашидир. Тадқиқотда қурилган блокларга мос бўлган талабалар учун муаммоли-излаш масалалари тизими ва педагогика ОТМда математикани ўқитиш методикаси курсида кўрсатилган малакаларни шакллантириш методикаси келтирилган. Ишда муаммоли-излаш масалани қуриш малакалари таърифланган, лекин ғояни излаш, масаланинг “сифати”, таърифланишини қуриш – тадқиқотда четда қолмоқда. Бу камчилик касбий таълимга компетентли ёндашиш борасида муҳим ҳисобланмоқда.

- **Хулоса ва таклифлар.** Кредит-модуль тизими асосида бўлажак математика ўқитувчиларнинг когнитив компетенциясини ривожлантириш учун элементар математикани ўқитиш мактаб математика курсини такрорлашни кўзда тутди. Бу ишни, тадқиқотида кўрсатилганидек, элементар математикани бойитувчи такрорлаш тизими ва математикани ўқитиш методикаси асосида амалга ошириш мақсадга мувофиқдир.

АДАБИЁТЛАР

1. Абдуллаева Б.С. Академиклией ўқувчиларининг математик тафаккурларини ривожлантириш (умумлаштирувчи дарслар мисолида): Дис....пед.фан.ном.– Тошкент: ТДПУ, 2002. – 146б.
2. Абдуллаева Б.С. Фанлараро алоқадорлиқнинг методологик-дидактик асослари: Пед. фан. док. дисс... – Тошкент: ТДПУ, 2006. – 263 бет.
3. Муслимов Н.А муаллифлиги асосида ёзилган. “Касб таълими ўқитувчиларининг касбий компетентлигини шакллантириш технологияси” номли Монографияси. Фан ва технология.: 2013 й. 6-10 б.
4. Rachel C.F.Sun and Eadaoin K.P.Hui. Cognitive Competence as a Positive Youth Development Construct: A Conceptual Review // The Scientific World Journal. – Volume 2012. Article ID 210953. – P. 7
5. Roy D. Pea. Cognitive Technologies for Mathematics Education. A.Schoenfeld. Cognitive science and mathematics education, Hillsdale, NJ: Erlbaum. – Pp. 89-122. – 1987. fhal-00190547f
6. Sidney R. Probability Path. School of Operations Research and Industrial Engineering Cornell University. – USA: Boston, 1999. – 454 p.
7. Демченкова Н.А. Проблемно-поисковые задачи как средство формирования исследовательских умений будущего учителя в курсе методики преподавания математики в педвузе: Дис. ... канд. пед. наук. – Тольятти, 2000. – 203 с.
8. Пехлецкий И.Д. Сложность и трудность учебных текстов и задач: книга для учителей и студентов. – Пермь: Перм. гос. пед. ун-т, 2008. – 101 с.



UDK:338.48-2-057.875(575/1)

Doniyor NAFASOV,
Urganch davlat pedagogika instituti "Pedagogika, boshlang'ich va maktabgacha ta'lim metodikasi" kafedrasini mudiri, (PhD)
E-mail: nafasovdoniyor@gmail.com.

Pedagogika fanlari doktori (DSc) S.U.Xodjanizov taqrizi asosida

THEORETICAL AND PEDAGOGICAL ASPECTS OF DEVELOPING STUDENTS' SOCIO-CULTURAL COMPETENCE

Abstract

The article presents the theoretical and pedagogical aspects of the development of students' socio-cultural competence, in particular, the content and essence of the concept of sociocultural competence, phenomenological foundations, the structure of sociocultural competence and recommendations for the development of sociocultural competence.

Key words: Competence, sociocultural competence, cognitive, axiological, communicative.

ТЕОРЕТИКО-ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ АСПЕКТЫ ФОРМИРОВАНИЯ СОЦИОКУЛЬТУРНОЙ КОМПЕТЕНЦИИ СТУДЕНТОВ

В статье представлены теоретико-педагогические аспекты развития социокультурной компетентности студентов, в частности, содержание и сущность понятия социокультурной компетентности, феноменологические основания, структура социокультурной компетентности и рекомендации по развитию социокультурной компетентности.

Ключевые слова: Компетентность, социокультурная компетентность, когнитивная, аксиологическая, коммуникативная.

TALABALARNING IJTIMOYIY-MADANIY KOMPETENSIYASINI SHAKLLANTIRISHNING NAZARIY VA PEDAGOGIK JIHATLARI

Maqolada talabalarning ijtimoiy-madaniy kompetensiyasini rivojlantirishning nazariy va pedagogik jihatlari, xususan, ijtimoiy-madaniy kompetensiya tushunchasining mazmuni va mohiyati, fenomenologik asoslari, ijtimoiy-madaniy kompetensiyaning tuzilishi va ijtimoiy-madaniy kompetensiyani rivojlantirish bo'yicha tavsiyalar berilgan.

Kalit so'zlar: Kompetensiya, ijtimoiy-madaniy kompetensiya, kognitiv, aksiologik, kommunikativ.

Introduction. In the process of reforming the education system in Uzbekistan, ample opportunities are being created for the full development of the individual and the effective education of young people. As the head of our state Sh.M.Mirziyoev noted, we should up- bring a new generation with high intellectual and spiritual potential, capable of coming up with new initiatives and ideas for the development of the country, and form necessary skills and knowledge for graduates of educational institutions to become modern professionals.[1]. The development of socio-cultural competence of higher education students is a topical issue of today.

In recent years, the term "socio-cultural competence" has become one of the most common topics and concepts in the pedagogical, professional and normative-methodological literature. Since the researchers are based on different approaches to defining this concept, there are certain difficulties in identifying important features of complex pedagogical phenomena such as "competence", "competency-based approach", the structure of socio-cultural competence and forming its unique logic methodology at different stages and levels of education.

Issues of socio-cultural competence has been studied by E. I. Vorobyova, Yu. I. Kostyushina et al. [2]. The socio-cultural competence is considered as a systemic characteristic of a person's personality, which is reflected in the creative activity, and is reflected in the products created by him and the results of his activities. The need to form it in a holistic pedagogical process is based on a number of reasons and grounds:

- knowledge of current issues of public policy; be able to analyze socio-economic problems and processes independently; to understand the essence of documents related

to professional activity in one of the foreign languages, to have the necessary knowledge in the field of natural sciences and to be able to use them in professional activities on a modern scientific basis; have a holistic view of the processes and events taking place in nature and society, acquire knowledge about the development of nature and society and be able to use them in life and in their professional activities on a modern scientific basis "[3]

The researchers focus on the following key points in developing the phenomenological framework of socio-cultural competence,

The interrelationship and interaction of social existence and competencies related to social life with the society of the individual is defined as a broad concept such as "social individual";

Socio-cultural competence has its own structure and content;

Socio-cultural competence is directly related to age characteristics and their dynamic changes;

- The importance of what is conceptually defined in the structure of socio-cultural competence in interpersonal activities and how it is manifested through various means and forms of communication [4].

In analyzing the psychological and pedagogical aspects of socio-cultural competence, the experts emphasize a number of important features: psychological mobility and sociality, social flexibility and cultural tolerance (A.Y. Flier), the ability to understand the social context of actions (Y.G. Baghdasaryan, GV Panina), readiness for socio-cultural activity, possession of certain spiritual and moral values, communication (D.P. Sadokhin), adaptability of a person to society and social integration skills (O.N. Astafeva, O.A. Zakharova).

Sociocultural competence in cultural studies is usually defined as the ability of an individual to solve socially significant tasks in a given socio-cultural context in a timely manner, as well as the willingness to communicate with a partner with personal knowledge of culture.

In studying in detail the important features of socio-cultural competence, it is expedient to refer to its functions as well. At first, it is important to point out that the socio-cultural competence is a reflection of a person's belonging to a particular social group, manifested in the context of social movements in the group community in comparison with other types of competence. Second, socio-cultural competence implies that an individual realizes his or her identity in sync with the cultural stereotypes to which he or she belongs to in the process of internal cultural socialization.

Basing on the analysis of pedagogical, psychological and sociological research, we can distinguish the following main semantic (semantic) aspects of socio-cultural competence:

1. A reflection of the social order of compliance with the minimum requirements, reflecting the readiness of young people for social life;

2. Interrelated use of practical and theoretical knowledge in solving problems of social communication and activity;

3. Reflection of individual and cultural characteristics of the student in the process of education and personal development.

Along with the semantic meanings of socio-cultural competence, it is also important to study the principles of its formation, composition and structure. In a number of psychological studies, not only knowledge, skills and abilities as components of the structure of socio-cultural competence, but also cognitive (knowledge of one's own culture), axiological (cultural values), conceptual (knowledge of professional, socio-cultural aspects), emotional-ethical (social-cultural responsibility), communicative (verbal and nonverbal communication techniques); evaluative-reflexive (independent thinking, reflection, self-assessment); personal-operational (acquisition of interpersonal and intercultural communication skills); motion-interactive (motivation, reflection, and creativity) are included as components and elements.

The researcher N. G. Muravyova emphasizes the importance of the following elements in the structure of socio-cultural competence:

- cognitive - information (the ability to acquire and use information about the language and culture of their country and other countries);

- axiological (conscious attitude to information, perception, tolerance, interest in culture, motivation, reflection);

- communicative-activity (readiness to communicate, methods and techniques of communication, knowledge of personal independence, creativity, social mobility)[6]. Consequently, socio-cultural competence reflects not only socio-cultural knowledge and skills, but also important guidelines that define the meaning of social communication.

Methods and means. A person who is in the process of actively realizing the potential of the information society acquires a unique cultural experience. In the process of formation and development of socio-cultural competence, the student not only receives and uses information, but also enriches his cultural experience and instills in the minds of the priorities of society.

It is important to emphasize the importance of the gradual acquisition of socio-cultural information and content in the context of socio-cultural competence and its transformation into individual experience: information perception (actualization of subjective experience); comprehension of information (synthesis of consciousness and socio-cultural experience); application of the gained experience in effective forms of the activity (determination of value-semantic status in creative activity); evaluation and comparison (interpretation, development of personal values priority).

The system of socio-cultural knowledge and skills in the structure of socio-cultural competence serves to establish the relationship between knowledge and the situation, to identify the problem, to find an effective solution to it. The formation of socio-cultural skills is directly related to the student's ability to adapt socio-cultural norms and values. Therefore, it is advisable to use technologies in the educational process that allow students to master cultural norms and values in various forms of activity. The socio-cultural competence is considered as an integral characteristic of a person in the culturological paradigm of education, manifested in the presence of knowledge in different areas of social culture (moral, national, legal, confessional); interest in learning it; readiness to communicate with people in different life situations in accordance with its values; indicates the formation of socially significant motives of behavior.

The basis of socio-cultural competence is the knowledge of the social culture of society, the priority of the spiritual and moral rules, the forms and methods of interpersonal communication. In general, the student understands the *socium* or society mainly in broad (world, country) and narrow (family, school, neighborhood) senses, and his socio-cultural competence is determined by the degree to which he has mastered these two interrelated concepts. It is not only about the cultural characteristics of the world, a particular region, country or people, or social institutions such as school and family, but also about the peculiarities of human relations, traditions and customs, and the rules of etiquette.

Conclusion. The socio-cultural competence of a person, which characterizes a person's interaction with society and other people, allows him to fulfill the norms and rules of life in society adequately. Thus, socio-cultural competence is a set of social roles, norms and rules of morality, priorities, cultural patterns of behavior of a particular social group, and the individual's self-awareness based on the characteristics of that society. In this context, it can be said that the socio-cultural competence is characterized by the fact that its social and cultural components are complementary and interdependent.

REFERENCES

1. Decree of the President of the Republic of Uzbekistan. "On measures to develop education and science in the new period of development of Uzbekistan." In Uzbek, Tashkent, November 6, 2020. PD № 6108.
2. Kostyushina Y. I. Formation of sociocultural competence at school in Russian as a foreign language with the use of paintings // Philological sciences. Questions of theory and practice. In Russian. 2015. No. 1 (43): Vol. 2, Part 2. -P. 104-108;
3. 5110900 - Qualification Requirements For Undergraduate Education In Pedagogy And Psychology. In Uzbek.- Tashkent, TDPU, 2020, 7-p.
4. Polyakova E.I. Socio-cultural, communicative and Professional Components of Teaching Language to Future Specialists .In Russian.// Almanac of Modern Science and Education. 2015. No. 2 (92). P. 100-102;
5. Muravyova N.G. The Concept of Socio-Cultural Competence in Modern Science: Educational Practice. In Russian // Bulletin of the Tyumen State University. 2011. No.9. - P. 136-143



Barno NORBEKOVA,
*O'ZMU Jizzax filiali Yoshlar psixologiyasi
kafedrasida katta o'qituvchisi
E-mail: norbekova@gmail.com*

Pedagogika fanlari doktori, professor Z.Rahimov taqrizi asosida

SHAXSDA ETNOPSIXOLOGIK XUSUSIYATLAR SHAKLLANISHINING PSIXOLOGIK MEXANIZMLARI

Аннотация

Maqolada bolalar va o'smirlarda milliy xususiyatlarni shakllantirishi ularda, turli xususiyat va his-tuyg'ularning tarbiyalanishi va oilada milliy fazilatlarini shakllantirish jarayonining mazmuni, milliy tafakkurli komil va yetuk, mustaqil shaxsni tarbiyalashga qaratilishi uchun ta'lim muassasalarida tashkil etiluvchi tarbiyaviy faoliyat natijasida o'quvchilarda milliy yo'nalganlikni tarkib toptirish xususida mulohazalar yuritiladi.

Kalit so'zlar: Pedagogika, shaxs, etnopsixologik xususiyat, psixologiya, tarbiya, o'smirlik davri, etnik identiklik.

ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ МЕХАНИЗМЫ ФОРМИРОВАНИЯ ЭТНОПСИХОЛОГИЧЕСКИХ ХАРАКТЕРИСТИК ЧЕЛОВЕКА

Аннотация

В статье формирование национальных особенностей у детей и подростков в результате воспитательной деятельности, организованной в общеобразовательных учреждениях, направленной на формирование национальных особенностей у детей и подростков, содержание процесса формирования национальных качеств в семье, и развитие совершенной и зрелой, самостоятельной личности с национальным складом ума. Студентам будет задан вопрос о составе национального направления.

Ключевые слова: Педагогика, личность, этнопсихологические особенности, психология, воспитание, подростковый возраст, этническая идентичность.

PSYCHOLOGICAL MECHANISMS OF FORMATION OF ETHNOPSYCHOLOGICAL CHARACTERISTICS IN A PERSON

Annotation

In the article, the formation of national characteristics in children and adolescents, as a result of the educational activities organized in educational institutions to focus on the formation of national characteristics in children and adolescents, the content of the process of formation of national qualities in the family, and the development of a perfect and mature, independent person with a national mindset. Students will be asked about the composition of the national direction.

Key words: Pedagogy, personality, ethnopsychological characteristics, psychology, education, adolescence, ethnic identity.

Kirish. Tarixda ma'lumki, dunyodagi har bir millatning shu jumladan o'zbeklarning ham etnopsixologik xususiyatlari o'ziga xos tarixiy, etnik tabiiy, iqlimiy shart-sharoitlar doirasida shakllangani bois, uning jamiyatda sodir bo'layotgan ijtimoiy-siyosiy hodisalar, tarixiy jarayonlarga bo'lgan munosabati ham turli bo'lishi shubhasiz. Zero, milliy o'ziga xosliklar uzoq tarixiy davrdagi ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy jarayonlar, tabiiy geografik o'rnashuv, o'zaro etnomadaniy aloqalar, diniy mansubliklar asosida qaror topadi va aynan mana shular hamda xalqning ruhiy-psixologik qarashlari negizida qadimiy an'analar, urf-odatlar va marosimlar shakllanadi.

Etnopsixologik xususiyatlarining ayrim belgilari kishilar birligining hamma tarixiy davrlariga ayrim ya'ni urug', qabila, millatlarga xosdir. Etnopsixologik xususiyatlar ayrim tadqiqotchilar ko'rsatganidek faqat bir omil - tabiiy muhit ta'siri bilangina vujudga kelib qolmay, uning vujudga kelishiga uchta omil ta'sir ko'rsatadi. Birinchi omil - bu siyosiy - iqtisodiy va jamiyat hayotida bo'layotgan ijtimoiy jarayonlari tizimi bo'lsa, ikkinchisiga shu etnik birlik yashab turgan tabiiy-geografik muhitning xususiyatlari kiradi. Uchinchi omilga esa xalq hayotida bo'lib o'tgan tarixiy hodisa va voqealar kiradi. Lekin shuni aytish kerakki, etnopsixologik xususiyatlar tizimida kishilar ruhiyatining mazmunini avvalo birinchi omil - siyosiy-iqtisodiy ijtimoiy o'zgarishlar belgilab beradi. Tabiiy geografik omil esa asosan etnopsixologik qiyofaning tashqi ifodalarini belgilaydi. Shuning uchun ham

bu omil kuzatayotgan kishi nazariga birinchi omilga qaraganda yaqqol namoyon bo'ladi.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili. Xalq hayotida bo'lib o'tgan muhim tarixiy voqealar so'zsiz uning psixologik o'chmas izini qoldiradi. Tabiatdagi ayni bir voqelikning doim ta'siri natijasida kishilar bu voqelikdagi xususiyatlarni boshqa sharoitda yashayotgan etnik guruh vakillariga qaraganda chuqurroq idrok qilishga o'rganib qoladilar. Chunki, tashqi muhit bizning sezgi a'zolarimizga bexisob informatsiyalar, ya'ni xilma - hil taassurotlar yuborib turadi, natijada evolyutsion taraqqiyot davomida, tanamizda shu tashqi muhit bilan adekvat munosabatini ta'min etuvchi neyro-fiziologik mexanizm shakllanadi. U kishilarning sezgi va idroklarini namoyon etadi. Shuning uchun u yoki bu xalqga xos stereotip xatti - xarakatlarni, idrok xususiyatlarini tashqi muhitiga moslashuvining oliy ko'rinishi deb hisoblash mumkin.

Etnopsixologik xususiyatlarning o'ziga xos tomonlarini mujassamlashtiruvchi va uni namoyon etuvchi shu etnik birlik vakillaridir. Qanday qilib etnik birlikka xos xususiyatlar ularda shakllanadi. Ma'lumki, bola o'ziga vatanni yoki otasonani tanlab tug'ilmaydi. Shunday ekan u o'z millatiga xos bo'lgan tayyor ruhiy xususiyatlar bilan ham tug'ilmaydi. Bola ota-onasidan, avlod-ajdodidan biologik yo'l bilan faqat nasliy xususiyatlarni va ayrim ruhiy xususiyatlarnigina meros qilib oladi xolos.

Bola tug'ilish davrida odam bo'lishiga nomzod. Lekin yakka ajralgan xolda u odam bo'la olmaydi. Jamiyatda yashab u odam bo'ladi. Bola hayotining birinchi kunidan boshlaboq

ixtiyorsiz holda o'zi dunyoga kelgan muhitdagi turli-tuman ta'sirlar va tassurotlar ostida shakllana boshlaydi. Bolaning biologik va ruhiy jihatdan rivojlanishi uchun ta'sir etayotgan bu informatsiyalar turli sotsial muhit va geografik sharoitlarda bir xil bo'lmaydi. Mana shu turli xil muhit va informatsiyalarning turfa xilligi bir-biriga o'xshamaydigan xalqlarni yaratadi.

Garchi har bir inson ma'lum darajada mustaqil yashash va faollik ko'rsatishga ega bo'lsa ham lekin hayotda u faqat o'z xohishi va tushunchasi bilan yashab qolmay, shuning bilan birgalikda o'zi yashab turgan sotsial muhit va o'zi mas'ul bo'lgan xalqning tajriba, bilim va e'tiqodlarini ham o'zlashtirib boradi. Chunki, odam o'zi yashab turgan sotsial muhitdan butunlay chiqib ketib yashay olmaydi.

Tadqiqot metodologiyasi. Bola faqat milliy muhitda yashab turgandagina shu millat va elatga xos bo'lgan xususiyatlarni egallab ayni millat vakili bo'la oladi. Bolaning ontogenetik taraqqiyoti davrida tashqi xatti –harakatlaridan botiniy ya'ni, “aqliy” xususiyatlariga aylanishi davrida unda milliy psixologik qiyofa asoslari shakllana boshlaydi.

Etnopsixologik xislatlar – millatlarning milliy, madaniy, aqliy imkoniyatlari va ruhiy-psixologik o'ziga xosliklarini qamrab oladi. Xarakterdagi o'ziga xosliklarning negizini esa shu xalqning tarixiy tajribalari, urf-odatlar, marosim va ma'rakalarining yaxlit tizimi tashkil etadi [1]. Boshqacha qilib aytganda, ular etnopsixologik xususiyatlarining harakatlantiruvchi kuchlari sifatida ifodalanadi.

Tahlil va natijalar. O'zbek xalqining etnopsixologik xususiyatlari haqida so'z yuritishdan oldin shuni alohida ta'kidlab o'tish joizki, o'zbek xalqi 4 ta katta diniy-mafkuraviy bosqichni (zardushtiylilik, buddaviylilik, islom, kommunistik) o'z boshidan kechirganligi va har bir mafkuraviy-diniy ta'sirlar davrida necha avlodlarning almashishi va bu jarayonlarning millat fe'l-atvorida, milliy-madaniy hayotida o'ziga xos iz qoldirishi shubhasizdir [1].

O'zbeklar milliy tiklanishda o'ziga xos shakllanish jarayoniga ega xalqdir. Tarixning guvohlik berishicha, o'zbek xalqi mazkur hududda yashagan tub yerli etnoslardan tomir olgan; ikkinchi ildizini esa qadimiy turkiy xalqlardan boshlagan. Har ikkala asosiy ildizlarning birikishi - o'zaro sintezi o'zbek elatini va keyinchalik o'zbek millatini tashkil etgan [2].

O'zbek xalqining etnik jihatidan ko'p tarmoqli ekanligi uning mental xususiyatlarida barcha urug' va ijtimoiy qatlamlar uchun umumiy jihatlar, jamoa manfaatlarini himoya qiluvchi fazilatlarining rivoj topishni taqozo etgan. Xalqimiz fe'lidagi bag'rikenglik, hotamtoylik, mehmondo'stlik, o'zaro hamkorlikda moyillik, g'am-anduhli paytlarda nochor kimsalarga hamdardlik, yelkadoshlik fazilatlarini ana shu jamoaviy yakdillikni ta'minlash, til va dil, fikr birligini saqlash ehtiyojlaridan tug'ilgan va sayqal topgandir.

Etnopsixologik xususiyatlarni shakllantirishning psixologik tamoyillarini ilmiy jihatdan asoslaydigan bo'lsak, milliy fazilatlar tarbiyasini amalga oshirish – samarali, davr bilan hamnafas, yoshlar diqqatini o'ziga jalb eta oladigan, yoshlar psixologiyasi va qiziqishlariga javob bera oladigan metod va usullarni izlab topishga qaratilmog'i lozim. Chunki, etnopsixologik xususiyatlarni inson ijtimoiyligi, jamiyatdagi faol ishtirokisiz tarbiyalab bo'lmaydi.

Dunyoda yuzlab elat va millatlar bo'lib, ular yer yuzining turli mintaqalarida va xilma-hil tabiiy sharoitlarda istiqomat qiladilar. Bu hol ularning o'ziga xos urf-odat va an'analari, turmush tarzi, so'zlashuv hamda muloqotlari kabi o'ziga xos jihatlari shakllanishiga olib kelgan. Shuning uchun ham turli xalqlarning tili, milliy qadriyatlari, dunyoqarashi bir-biridan farq qiladi. O'zbek xalqi ko'p asrlar mobaynida murakkab sinovlarni boshidan kechirgan, o'zining go'zal ma'naviy qiyofasi, bag'rikengligi, insonparvarligi bilan nom qozongan.

O'zbek xalqining etnopsixologik xususiyatlari ornomus, uyat va andisha, sharmu hayo, ibo va iffat kabi yuksak axloqiy tuyg'u va tushunchalar ajdodlarimiz tomonidan shakllantirilgan axloqiy mezonlar majmuidir. Xalqimiz orasida “Uyat-o'limdan qattiq”, “Nomus-yarim o'lim”, “Eldan andisha qilishlik oqilning ishi”, “Allohdan andisha qilishlik orifning ishi” kabi maqol va naqlar tilimizda o'z-o'zidan paydo bo'lmagan, aksincha bunday iboralar el-yurtimizga mansub ezgu va go'zal ma'naviy qadriyatlarning aks-sadosidir.

Ma'lumki, inson - ijtimoiy mavjudot hisoblanadi. U hayoti davomida o'z ijtimoiyligini muntazam ravishda ko'rsatib boradi. Milliy xislatlarni shakllantirish tarbiyasi esa ana shu ijtimoiylikni ko'rsatishning zaruriy qonuniyatlarini yoshlar tafakkuriga singdirish usuli hisoblanadi.

Bolalar va o'smirlarda milliy xususiyatlarni shakllantirishi ularda quyidagi xususiyat va his-tuyg'ularning tarbiyalanishiga olib keladi: mulohazakorlik, insoniylik, g'amxo'rlik, mehribonlik, irodalilik, qat'iyatlilik, chidam, bardosh, e'tibor, e'zoz, izzat, tavoze, hurmat, tinchliksevarlik, ochiqlik, yaxshi kayfiyat, keng dunyoqarash, madaniyatlar, xalqlar, urf-odatlar, dinlar va e'tiqodlar tarixini bilish va hurmatlash, millatparvarlik, sabr, kechirimli bo'lish, muloqot madaniyati egallash, muomalali bo'lish, toqat, muruvvatli bo'lish, saxiylilik, mehmonnavozlik, o'z so'zining ustida turish, ma'naviy-ruhiy barkamollik, bilimdonlik, dardkashlik, birodarlilik, do'stlik, ongillik v.b. Shuningdek, milliylik ruhi yoshlarda quyidagi salbiy his-tuyg'ular va kechinmalardan o'zini asrash qobiliyatini shakllantiradi: ikkiyuzlamachilik, qat'iyatsizlik, qahr, g'azab, jizzakilik, o'zini birovlardan ustun qo'yish, o'ziga oro berish, bировlarni mensimaslik, kek, qo'pollik, insonlarni bir-biriga qarshi qo'yish, e'tiborsizlik, behurmatsizlik, guruhbozlik, ayirmakashlik, bilimsizlik, ongsizlik, bezbetlik, manmanlik, xudbinlik, millatchilik, xiyonat, ma'naviy ko'rlik, manqurtlik, yakkahokimlik, avtoritarizm, egoistlik, kibr, janjalkashlik, surbetlik, o'z manfaatlarini ustun quyish, jamoatchilikdan qochish, tartibsizlik, qusurlilik, hirs, aqidaparastlik, buzg'unchilik v.b.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, ta'kidlash mumkinki, oilada bolalar va o'smirlarda milliy fazilatlarini shakllantirish jarayonining mazmuni har tomonlama murakkab va tarmoqlashgan, serqirra mavzular va jihatlar mujassamligidan iborat jarayon bo'lmog'i, uning maqsadi – milliy tafakkurli komil va yetuk, mustaqil shaxsni tarbiyalashga qaratilmog'i lozim.

Shunday qilib, bolalar va o'smirlarda milliy xususiyatlarni shakllantirish - murakkab jarayon bo'lib, ular tengdoshlari va atrofda qishilar bilan muloqotga kirishish asosida hamda boshqa kishilar bilan o'zaro munosabatga kirishishi va qarashlari bilan bog'liq ijtimoiy voqeelik ta'sirida amalga oshadi.

Ta'lim muassasalarida tashkil etiluvchi tarbiyaviy faoliyat natijasida o'quvchilarda quyidagi tarzda milliy yo'nalganlikni tarkib toptirish mumkin:

insoniylik – shaxslararo munosabatlarni insoniylashtirish, insonning ichki olamiga e'tibor qaratish;

refleksivlik – shaxsiy o'ziga xos xususiyatlari, yutuq va kamchiliklarini anglash, ularni milliy xulq-atvor bilan bog'liqlikda yo'lga qo'yish;

javobgarlik – qarorlar qabul qilish vaziyatida ichki kuchlarning namoyon bo'lishiga asoslanuvchi shaxsiy talablar tizimiga egalik;

moslashuvchanlik – vaziyat, sharoit bilan bog'liqlikda to'g'ri qarorlar qabul qila olish;

o'z-o'ziga ishonch – o'zining kuch va imkoniyatlarini adekvat baholay olish;

o'z-o'zini boshqara olish – o'zining his-tuyg'ularini boshqara olish, o'z xulqini nazorat qila olish;

pertseptsiya – kishilardagi turli xil xususiyatlarni seza olish va aniqlay olish, ularning ichki dunyosini anglash ko'nikmasi;

empatiya – boshqa kishilarning muammolariga hamdard bo'lish, voqelikni emotsional baholay olish.

Tadqiqotimizda turli yosh davrida milliy xislat va fazilatlar shakllanishining ijtimoiy-psixologik omillarini tadqiq etishga harakat qildik. Buning uchun o'smirlar guruhida O.L.Romanova tomonidan ishlab chiqilgan "Etnik identifikatsiyani o'rganish" savolnomasi o'tkazilib, empirik ma'lumotlar olindi.

1-jadval

Turli yosh davrlarida milliy xususiyatlar namoyon bo'lishi ko'rsatkichlari.(N=240)

Yosh davri bosqichlari	Statistik ko'rsatkichlar
	M-o'rtacha arifmetik qiymat
Ilk o'smirlilik	12,63
O'smirlilik	17,32

Jadvalda keltirilgan natijalar bo'yicha etnopsixologik xususiyatlarning turli yosh davrlarida o'ziga xos namoyon bo'lishi kuzatildi. Xususan, ilk o'smirlilik davrida milliy xislatlarning shakllanganligi (M=12,63), o'smirlilik davrida (M=17,32) ni tashkil qildi. Buni biz ilk o'smirlilik davrining o'ziga xos xususiyatlari ya'ni, bolalikdan o'smirlilik yoshi davriga o'tish, yangicha qarash, jarayonlar va munosabat-larning namoyon bo'lishi holati bilan izohlashimiz mumkin. O'smirlilik davrida esa milliy xususiyatlarning namoyon bo'lishi darajasi biroz yuqoriligi esa, ularning hayot haqidagi muayyan tushunchalarining shakllanishi, o'z menligini anglab yetish jarayonining boshlanishi, ijtimoiylashuv jarayonining muayyan darajada boshdan kechirilishi kabi holatlar bilan bog'liq bo'lishi mumkin.

1.Shu o'rinda ta'kidlash joizki, inson kamoloti bilan birga unda o'ziga va o'zga shaxs, xalq, millatlarga nisbatan qarashlar ham o'zgarib boradi. Bu esa ularda nafaqat o'z millatining urf-odat, an'ana va qarashlarini qadrlashga, balki o'zga millat vakillarining ham o'zining hamkori, sherigi sifatida idrok etilishiga olib keladi.

2.Tadqiqot ishimiz doirasida milliy xislatlar shakllanishiga ta'sir ko'rsatuvchi etnik madaniyat, etnik edentiklik, etnik ijtimoiylashuv, barkamollik, empatiya, etnik bag'rikenglik bilan aloqadorligini tekshirishga harakat qildik. Dastlab milliy madaniyat va etnik identiklik indekslarining o'zaro aloqadorligini asoslashga harakat qilamiz.

3.Ma'lumki, etnik identiklik – milliy urf-odatlari, his-tuyg'ulari, qarashlari, g'oyalari, e'tiqodlari, millat va elatning ruhiyati, uning ongida saqlanib kelayotgan an'analar, rasm-rusumlar, aqidalar, udumlar, faoliyat stereotiplari, fe'lidagi bag'rikenglik, hotamtoylik, mehmondo'stlik, o'zaro hamkorlikka moyillik, g'am-qayg'u paytlarida nochor kimsalarga

hamdardlik bildirish, yelkadoshlik til va dil birligi qobiliyatini anglatadi. Ushbu ta'rifdan ko'rinadiki, milliy xususiyatlarning insonlarda rivojlanishi etnik edentiklikning ham kuchayishiga sabab bo'ladi. Demak, qaysi shaxsda o'z millatiga nisbatan qadr-qimmat, urf-odatlarga nisbatan hurmat hissining kuchayishi o'zga millatlarga nisbatan munosabatni ijobiy tomonga o'zgarishiga olib keladi.

4.Etnik identiklik – bu, insonning ongli mazmunli va mas'uliyatli tanlovi bo'lib, shaxs muayyan munosabatlarni o'rnatishda o'z pozitsiyasi va faoliyati orqali namoyon bo'ladigan murakkab, ko'p qirrali va komponentli hodisadir.

Xulosa va takliflar. Tadqiqotlarda etnik identiklikning psixologik, ijtimoiy-psixologik va sotsiologik yondashuvlar ajratiladi [3]. Psixologik yondashuvning diqqat markazida shaxs etnik-madaniy xususiyatlar va fazilatlarining tashuvchisi hisoblanadi. Bunda etnik identiklik shaxs va uning o'zini o'zi anglashi tuzilishining tarkibiy qismlaridan biri sifatida ifodalandi. Shuning uchun ham ijtimoiy-psixologik yondashuv doirasida shaxs etnik guruh vakili sifatida qaraladi va etnik identiklik - ijtimoiy o'ziga xoslikning tarkibiy qismi sifatida ifodalanadi.

Yuqoridagilarni psixologik jihatdan tahlil qilib ko'radigan bo'lsak, shaxsda etnik xususiyatlarning rivojlanishi darajasiga ko'ra, etnik xususiyatlarning shakllantiruvchi omillari o'rtasida ijobiy korrelyatsion munosabat kuzatiladi. Buni etnik xususiyatlar mezonlari asosida ko'radigan bo'lsak, etnik identiklik bilan etnik ijtimoiylashuvning shakllanmaganligi shaxsda milliy xislatlarning quyi darajada namoyon bo'lishini ko'rsatadi. Bu esa, o'z navbatida bu borada korreksion rivojlantiruvchi tadbirlarni amalga oshirish zaruratini taqazo qiladi.

ADABIYOTLAR

1. Bekmurodov M. O'zbek mentaliteti xususiyatlari //Ijtimoiy fikr 1998 № 1. 49-bet.
2. Shoumarov G'.B. Muhabbat va oila.- T.: Ibn Sino,1994.
3. Социальная психология. /Под ред.А.В.Петровского.-М.: Просвещение,1987.-224 с.
4. gazeta.uz/oz/2018/07/25/president/



UDK: 375.829

Habiba NURBAEVA,

Toshkent tibbiyot akademiyasi Iqtidorli talabalar ilmiy faoliyatini tashkil qilish bo'limi xodimi

Toshkent pedagogika universiteti mustaqil izlanuvchi

E-mail: nurboeva@gmail.com

Pedagogika fanlari doktori, prof. O'.Asqarova taqrizi asosida

TALABALARDA MILLIY VA UMUMINSONIY QADRIYATLARGA NISBATAN MUNOSABATLARNI RIVOJLANTIRISH BAG'ISHLANGAN ILMIY TADQIQODLAR TAHLILI

Annotatsiya

Ushbu maqolada O'zbekistonlik pedagogik olimlari tomonidan Oliy ta'lim muassasalari talabalarida milliy qadriyat iftixor tuyg'usini shakllantirish ta'lim tarbiya milliy qadriyatlarni yoshlar tarbiyasidagi ahamiyati tahlil qilingan. Shuningdek, talabalarda milliy qadriyat tuyg'usini rivojlantirish mexanizmi va ularning umuminsoniy qadriyatlarga va hozirgi kundagi muammolari atroflicha yoritilgan.

Kalit so'zlar: Oliy ta'lim, talaba yoshlar, milliy qadriyat, umuminsoniy qadriyat, urf odatlar, vatanga bo'lgan sadoqat, milliy iftixor tuyg'ulari.

ANALYSIS OF SCIENTIFIC RESEARCH DEDICATED TO THE DEVELOPMENT OF ATTITUDES TO NATIONAL AND GENERAL HUMAN VALUES IN STUDENTS

Abstract

In this article, pedagogical scientists from Uzbekistan analyzed the importance of forming a sense of national pride in students of higher educational institutions, education, national values and youth education. Also, the mechanism of developing a sense of national value in students and their universal values and current problems are covered in detail.

Key words: Higher education, student youth, national value, universal value, traditions, loyalty to the motherland, feelings of national pride.

АНАЛИЗ НАУЧНЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ, ПОСВЯЩЕННЫХ ФОРМИРОВАНИЮ ОТНОШЕНИЯ К НАЦИОНАЛЬНЫМ И ОБЩЕЧЕЛОВЕЧЕСКИМ ЦЕННОСТЯМ У СТУДЕНТОВ

Абстракт

В данной статье ученые-педагоги из Узбекистана проанализировали важность формирования чувства национальной гордости у студентов высших учебных заведений, воспитания, национальных ценностей, воспитания молодежи. Также подробно освещается механизм формирования у учащихся чувства национальной ценности и их общечеловеческих ценностей и актуальные проблемы.

Ключевые слова: Высшее образование, студенческая молодежь, национальная ценность, общечеловеческая ценность, традиции, верность Родине, чувство национальной гордости.

Kirish. Hozirgi shiddat bilan rivojlanayotgan bir paytida jahon ta'lim tizimida qadriyatlar ierarxiyasi, qadriyatni anglash, qadriyatli munosabatlar, pedagogik askiologiya, qadriyatlar tizimini o'rganishga bo'lgan ehtiyoj yanada kuchayib dolzarb muammolarga aylanib bormoqda. Chunki O'zbekiston mustaqillikka erishgandan so'ng, Respublikamizda yashovchi har bir millat va elat o'zlarining milliy urf-odatlarini, udumlari va an'analarni qayta tikladi. Davlatimizning me'yoriy hujjatlarida, jumladan O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi PF 4947-son Farmoni, 2017 yil 20 apreldagi "Oliy ta'lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ 2909-son Qarori, 2018 yil 16 yanvardagi "Moddiy madaniy va arxeologiya merosi ob'ektlarini muhofaza qilish va ulardan foydalanishni takomillashtirish to'g'risida"gi 5181-son Farmoyishi hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarida belgilangan vazifalarni amalga oshirishga ushbu faoliyat tizimiga tegishli boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarida belgilangan vazifalarni amalga oshirishda hozirgi kunda ijtimoiy pedagogik sohasida olib borilayotgan tadqiqotlar muayyan darajada xizmat qiladi.

So'nggi yillarda, O'zbekistonda talabalarining milliy qadriyatlarini rivojlantirish, tarixiy-madaniy merosni keng targ'ib etish, talabalarida milliy g'urur va iftixor tuyg'usini, ajdodlar merosiga aksiologik munosabatni qaror toptirish,

talabalarining tashabbuskorligini qo'llab-quvvatlash amaliyotga tadbir etilmoqda. Bunda talabalarida kitobxonlik va mutolaa madaniyatini rivojlantirish, yoshlar o'rtasida mafkuraviy immunitet, diniy bag'rikenglik va millatlararo totuvlikni shakllantirish, yot g'oyalar ta'siriga tushib qolishni oldini olishga qaratilgan ta'sirchan usullarini joriy qilish, talabalar o'rtasida sport o'yinlari va turli xil targ'ibot tadbirlarini tashkil qilish muhim ahamiyat kasb etadi.

Bu borada O'zbekistonda olib borilgan tadqiqotlar jumlasiga Z.T.Salaeva, D.I.Ro'zieva, Z.B.Jalilova, Sh.Z.Tayloqova, Q.Q.Quronboev, N.Ortiqov, Z.Y.Abdurahmonova, va boshqalarning ilmiy ishlarini kiritish mumkin.

Asosiy qism. Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy, madaniy-ma'rifiy islohotlar ta'lim tizimini ham tubdan yangilash, uni zamon talablari darajasiga ko'tarishni ustuvor vazifa etib belgilad. Hozirgi tahlilali zamonda talaba yoshlarda milliy va umuminsoniy qadriyatlarni rivojlantirish borasida bir qator ilmiy tadqiqotlar olib borildi.

Jumladan, O'zbekistonda pedagogika bo'yicha o'ziga xos maktab yaratgan olim Z.T.Solievning "Pedagogika Oliy ta'lim muassasalari talabalarining madaniyatini rivojlantirish mexanizmlarini takomillashtirish" (2017-yil) mavzusidagi doktorlik dissertatsiyasi ishida Madaniy manaviyat bo'lajak o'quvchilarni shaxsini ijtimoiylashtirishning muhim omillari sifatida jamiyatdagi qadriyatlar o'zlashtirish hamda ijtimoiy shaxsiy yetuklikka erishish asosida ijtimoiy faollik ko'rsatish

maqsadida, o'z maqsadlarini mustaqil aniqlay olish ularga ishonch hosil qilish manbai bo'lib xizmat qiladi[2].

Tadqiqod natijalari pedagogik oliy ta'lim muassasalariga ko'ra aniq metodologik yondashuv va nazariyalarga asoslash, tarixiy – falsfiy, milliy, pedagogik psixologik omillarining yaxlitligi va birligini xisobga olish maqsadga muvofiq[2].

Axborot globallashuvi sharoitida madaniy madaniyatini rivojlantirishda talabalarining ongigina emas, balki his-tuyg'ulariniga ham e'tibor berish, ularda jamiyatning shaxsga qo'yadigan axloqiy talablarga muvofiq xulqiy malaka va odatlarni tarkib toptirish "ong-hissiyot- iroda " birlariga tayanish maqsadga muvofiqdir[2].

Oliy ta'lim muassasalarida talabalarining ma'naviy qadriyatlarini rivojlantirishda oila, mahalla va nodavlat tashkilotlar hamkorligi samaradorligini oshirish, ularda kitobxonlik va mutolaa madaniyatini rivojlantirishda motivatsion, faoliyatga doir va qadriyatgalarga yo'naltirilgan komponentlarning o'zaro bog'liqligini hisobga olish lozim[2].

Pedagogik oliy ta'lim muassasi talabalarida madaniy madaniyat rivojlantirishda ma'naviy profilaktika tizimi, ijtimoiy pedagogik faoliyat, neyrolingvistik dasturlash, andragogik yondashuv, pedagogik dentologiya hamda texnologik sivilizatsiya va ma'naviy madaniyatni asoslash maqsadga muvofiqdir diya xulosa chiqardi[2].

D.I.Ro'zievaning "Oliy ta'lim muassasalarida talabalarida milliy iftixor tuyg'usini shakllantirishning ilmiy-pedagogik asoslari" (2007yil) nomli nomzodlik dissertatsiyasida Oliy ta'lim muassasalari

Talabalarida milliy iftixor tuyg'ularini shakllantirishning asosiy vazifalaridan biri-ular o'rtasida keng qo'lamli ma'naviy-ma'rifiy ishlarini tashkil etish asosida yuksak ma'naviy-axloqiy sifatleri, jumladan, milliy iftixor tuyg'ularini shakllantirish yo'lidagi barcha imkoniyatlardan samarali foydalanish hisoblanadi[1].

Talabalarda milliy iftixor tuyg'usini shakllantirishning asosiy omillaridan biri shaxslararo munosabatlarni vujudga keltiruvchi ko'pqirali faoliyatdir. Milliy iftixor tarbiyasining talabalarining maqsadga muvofiq tashkil qilingan amaliy faoliyat shakli deb tushunishi shaxsning o'zligini anglash, g'ururlanish, iftixor tuyg'usining pedagogik omillarini aniqlash zarurligini aniqladi.(2-250 b.) Ayni mana shunday davrda talabalarda barqaror ideallarni shakllantirish, hayotiy maqsadlarni belgilash ularni qulay ob'ektiv va subektiv omillar yuzaga keladi. Ularda halqning o'tmishi, yutuqlarini bilish, bugungi kunda o'z o'rnini, mavqei va milliy mansbligini chuqur anglab olishga intilish kuchayadi va milliy madaniyatni o'rganishga bo'lgan qiziqish ortadi.

Talabalarda milliy iftixor tuyg'usini shakllantirishning hissiyotida sodir bo'ladigan o'zgarishlar ularda milliy g'urur, iftixor ko'nikmalarini shakllantirishning subyektiv omillaridir. Bunda olim talabalarda milliy iftixor tuyg'usini shakllantirishda Xorijiy mamlakatlar hamda Respublika oliy ta'lim muassasalarida talabalarida milliy iftixor tuyg'usini shakllantirish borasida tajribalarni o'rganish hamda ommalashtirish kerakligi va talabalarda milliy iftixor tuyg'usini shakllantirishda muzeylar, tarixiy obidalar, hamda me'moriy yodgorliklarni o'rganish, ma'naviyat g'oyalarini o'zida ifoda etgan sa'nat asarlari (milliy kino, teatr, qo'shiqchilik haykaltaroshlik, milliy hunarmandchilik na'munalari va sirk tomoshalarining g'oyaviy mazmuni anglashga yo'naltirilgan tadbirlar)ning yoshlarda milliy iftixor tuyg'usini shakllantirishda o'rni beqiyosdir[2].

Z.B.Jalilovning "IX-XII asarlarda Sharq mutafakkirlari yaratgan tarbiyaviy qadriyatlardan oliy pedagogik ta'lim jarayonida foydalanish texnologiyalarini takomillashtirish" (2018-yil) mavzusidagi doktorlik dissertatsiyasida Jahonda nfuzli oliy ta'lim muassasalar va ilmiy tadqiqot markazlarida olib borilayotgan izlanishlar, Sharq mutafakkirlari asarlari halqning kelib chiqishi va

etnopedagogik xususiyatlari "Sharq qo'lyozmalari instituti", IX-XII asarlarda Sharq mutafakkirlari arlaridagi shaxsning ma'naviy-ma'rifiy vazifalari haqidagi qarashlari, allomalarining milliy merosi mazmuni, shaxs kamoloti va odob-ahloq masalalari ilmiy amaliy ahamiyatiga ega. Ushbu tadqiqod shahs ma'naviyati oila va nikoh, farzand tarbiyasiga oid yondoshuvlar ajdodlar merosiga nisbatan yoshlarda hurmat qissini shakllantirishga qaratilgan ko'plab tafsilyalar berilgan[1].

"IX-XII asarlarda Sharq mutafakkirlari yaratgan tarbiyaviy qadriyatlardan oliy pedagogik ta'lim jarayonida pedagogik ta'lim muassasalar ta'lim-tarbiya jarayonida foydalanishga yo'naltirilgan ilmiy metodik tavsilyalar ishlab chiqilgan.

"IX-XII asarlarda yashab ijod etgan Sharq mutafakkirlari ta'limoti mazmunida aks etgan tarbiyaviy qadriyatlardan oliy ta'lim jarayonida foydalanish texnologiyalari foydalanilgan. Sharq mutafakkirlari yaratgan tarbiyaviy foydalanish mexanizimi takomillashtirilgan va ko'plab tavsilyalar ishlab chiqilgan[1].

Sh.Z.Tayloqovning "Pedagogika oliy ta'lim muassasalarida talabalarida qadriyatlar tizimini rivojlantirish texnologiyalarini takomillashtirish" (2019 yil) mavzusidagi doktorlik dissertatsiyasida Qadriyat va qadriyatlar shakllari bilan bog'liq masalalar keng o'rganilganligiga qaramay, zamonaviy bozor iqtisodiyoti sharoitida fuqaroning jamiyatga asoslangan huquqiy demokratik davlatda talabalarida shakllantirish lozim bo'lgan qadriyatlar tizimining amaliy texnologik tizimi asosida o'rganilgan[1]. Pedagogika oliy ta'lim muassasalarida milliy qadriyatlar tizimini rivojlantirishning kogintiv (kasbiy ta'limga yo'nalganligi) pedagogik faoliyatning shaxsiy munosabatni aks etiruvchi emotsional (kasbiy munosabat va ehtiyoj) pedagogik faoliyatda aksologik munosabatni qaror toptirishning hulk-atvor (hulk atvor kasbiy ko'nikmalarga doir) komponentlari sotsiotsentrik qadriyatlar qadriyatlarining integratsiyasi asosida asoslab bergan[1].

Ilg'or horijiy tajribalar va innovatsion ta'lim texnologiyalari asosida pedagogik oliy ta'lim muassasalarida talabalarida milliy qadriyatlar tizimini rivojlantirishning didaktik ta'minotining ishbilarmonlik o'yinlari (tadqiqodchilik vaziyatlari, tasvirlash, turli pedogagik vaziyatlarni modeldash-tirish), o'quv portfoliosi, amaliy ishlar tanlovi, trening modeldash-tirish vositasida hulk-atvorni korrektsiyalashning faol metodi kabi metod usullarni takomillashtirgan.

Talabalarda milliy qadriyat tizimini rivojlantirishga doir milliy va horijiy tajriba tizimini yaratgan va ko'plab tavsilyalar berilgan[1].

Q.Q.Quronboevning "Talabalarining ma'naviy – ijtimoiy faolligini rivojlantirishning pedagogik asoslari" (2000 yil) nomli nomzodlik dissertatsiyasida "O'zbekiston Respublikasining Davlat mustaqiligi to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Bayonati (1991 yil 31 avgust) yangragandan buyon o'tgan davr maboynida ijtimoiy hayotning barcha sohalaridagi tub o'zgarishlar, halq ho'jaligining qator sohalarida bu boradagi dastlabki yutug'lar qo'lga kiritildi[1].

O'zbekiston Respublikasi davlat faoliyatining ustivor yo'nalishlaridan bo'lib, uning maqsadi yoshlarining ijtimoiy shakllanishi va kamol topishi, ijodiy iqtidori jamiyat ma'nfaatleri yo'lida imkoni boricha to'la-to'kis ro'yyobga chiqarishi uchun ijtimoiy-iqtisodiy, huquqiy, tashkiliy jixatidan shart-sharoit yaratish ham kafolatlashdan iborat bo'ldi[1].

Talabalar ma'naviy-ijtimoiy faoliglarini rivojlantirish va talabalarining ijtimoiy faoligini shakllantirish shu bilan bir qatorda ijtimoiy faollik darajasini belgilovchi mezonlar, talabalar ma'naviy-ijtimoiy faolliklarini rivojlantirish talabalarining orasida ma'naviy-ijtimoiy faollikni rivojlantirish samarasini ta'minlaydi[1].

Xulosa o'rnida shuni aytish keraki talabalarning ma'naviy-ijtimoiy faolligi yetuklik qaror toptirishda milliy qadriyatlarining o'zni haqida tadqiqotda to'liq yoritib berilgan[1].

N.Ortiqovning "Milliy va ummuminsoniy qadriyatlar asosida o'quvchi shahsining aqloqiy shakillantirish" (2000 yil) nomli ishida dissertatsiya ishida 1997- Inson ma'nfatlari yili. 1998 yil-oila yili deb e'lon qilinishi Vatanimiz ravnaqi, halqimiz baxtu saodati yo'lida qilingan ishlari o'rganilgan. Yuqoridagi fikirlardan ma'lumki, milliy va ummuminsoniy qadriyatlar sadoqatli bo'lish davlat siyosatini ustivor yo'nalishlaridan biri O'zbekistonni rivojlantirishning ma'naviy axloqiy negizlaridan kelib chiqan holda ushbu dissertatsiyada milliy va ummuminsoniy qadriyatlar asosida o'quvchi shaxsni axloqiy shakillantirishning pedagogik va nazariy ilmiy va amaliy jihatlari ochib bergan. (254 b.) Maktab va mahallalar va ota onalar bilan hamkorlikda ish olib borish yoshlarini milliy va ummuminsoniy qadriyatlarining halqimiz ma'naviy merosini mustahkamlashda va rivojlantirishda hamkorlikning o'zni muhurligi haqida ta'kidlab o'tgan (255 b.)

Z.Y.Abdurahmonovanning "Yoshlarda milliy birlik tuyg'usini shakillantirishning ijtimoiy psixologik xususiyatlari" (2006 yil) nomli ishida Milliy birlik tushunchasi ijtimoiy-psixologik xodisa sifatida sifatida o'rganilgan. Bunda yoshlarni psixologik holati va millatlar birligini tashkil etuvchi omillar nimalarda aksini tashkil topishi, millatning ravnaqi, taraqqiyoti uning birligining ahamiyati, boshqa millatlar bilan baynalminal munosabatda bo'lishi uchun o'zgalarni anglash

qanchalik muxumligini his qilish shu bilan bir qatorda milliy birlik tuyg'usini shakillantirishning ijtimoiy-psixologik xususiyatlari mavzusidagi izlanishlarida millatga tegishli bo'lgan ijtimoiy psixologik maslallarni yoritib bergan[1].

Xulosa. Yuqorida keltirilgan ilmiy tadqiqotlar tahlilidan kelib chiqqan holda ta'kidlash joizki, birinchidan, O'zbekistonlik pedagogik olimlarning Oliy ta'lim talaba-yoshlari masalalari, talabalarining bir-biriga bo'lgan munosabatlarning ijtimoiy psixologik holatlari jamiyat g'oyalariga, ummuminsoniy qadriyatlariga nechog'li mos kelishi tadqiqotlarda atroflicha yoritilgan. Talaba-yoshlarni milliy iftixor, milliy g'urur, ota-onaga bo'lgan sadoqat tuyg'ulari, kelajakka bo'lgan ishonch, mahalla-maktablarda olib borilayotgan ishlar tadqiqotlar natijasida o'rganilgan.

Ikkinchidan, milliy qadriyatlarimiz urf-odatlarimiz va udumlarimizdan kelib chiqqan holda yoshlarda milliy qadriyat tushunchasini rivojlantirish, oila, mahala, va yuqori tashkilotlar bilan hamkorlikda ishlash, hozirgi shiddat bilan rivojlanayotgan kunda uchrab turgan dolzarb muammolarni o'rganib, ko'plab tavsilar ishlab chiqqan amaliy tavsiyalar hamda metodik ishlanmalar yaratilishiga xizmat qiladi. Tadqiqotning natijalari va ishlab chiqilgan amaliy tavsiyalar talaba yoshlarda, "muammoli yoshlar" uchun profilaktik, psixologik maslahat va psixokorreksiya ishlarida qo'llanilishi mumkin. Ishlab chiqilgan tavsiyalar respublikamizdagi oliy o'quv yurti talaba- yoshlarida milliy va ummuminsoniy qadriyatlarini rivojlantirishga oiladagi psixologik xizmatning samaradorligini oshirishga yordam beradi oladi.

ADABIYOTLAR

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi PF 4947-son Farmoni.
1. Soliev Z.T. Pedagogika Oliy ta'lim muassasalari talabalarining madaniyatini rivojlantirish mexanizmlarini takomillashtirish Pedagogika fanlari bo'yicha fan ilmiy darajasini olish uchun yozilgan doktori dissertatsiya. – Toshkent: 2017 – 214-215 b.
2. Isomjonova R.D. Oliy ta'lim muassasalarida talabalarida milliy iftixor tuyg'usini shakillantirishning ilmiy-pedagogik Pedagogika fanlari doktori ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya. – Toshkent: 2004-. – 249-253 b.
3. Jalilova Z.B. IX-XII asarlarda Sharq mutafakkirlari yaratgan tarbiyaviy qadriyatlardan oliy pedagogik ta'lim jarayonida foydalanish texnologiyalarini takomillashtirish. Pedagogika fanlari falsafa doktorligi ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya. Toshkent . 2018 – 3-8-11 b.
4. Tayloqova Sh.Z. Pedagogika oliy ta'lim muassasalari talabalarida qadriyatlar tizimini rivojlantirish texnologiyalarini takomillashtirish. Pedagogika fanlari doktorligi ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya. Toshkent 2019-. – 8-11 b.
5. Quronboev Q.Q. Talabalarining ma'naviy-ijtimoiy faolligini rivojlantirishning pedagogik asoslari. Pedagogika fanlari nomzodi ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya. Toshkent 2000-3-14-144 b.
6. Ortiqov N. Milliy va ummuminsoniy qadriyatlar asosida o'quvchi shahsining aqloqiy shakillantirish. Pedagogika fanlari doktori ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya. Toshkent 2000 -254 b.
7. Z.Y.Abdurahmonovanning "Yoshlarda milliy birlik tuyg'usini shakillantirishning ijtimoiy psixologik xususiyatlari. Pedagogika fanlari nomzodi ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya. Toshkent" 2006 yil-7 b.



Jamshid OTAJONOV,
Farg'ona Davlat Universiteti, Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori(PhD)
Musharraf IKROMOVA,
Farg'ona Davlat Universiteti talabasi
Pedagogika fanlari doktori, professor Z.Rahimov taqrizi asosida

FORMATION OF THE MORAL EDUCATION OF THE EDUCATOR OF THE PRE-SCHOOL EDUCATION ORGANIZATION

Abstract

This article analyzes the formation of moral education of children of preschool education organization and its main principles, problems and solutions in the field. Moral education of children is a complex concept that combines a set of educational activities that introduce the child to the moral values of humanity.

Keywords: Education, preschool education, family, integration, educator, children, spiritual and moral education, methods of education, achieving creative perfection, intellectual, moral education, physical development.

ФОРМИРОВАНИЕ НРАВСТВЕННОГО ВОСПИТАНИЯ ПРЕПОДАВАТЕЛЯ ДОШКОЛЬНОЙ ОБРАЗОВАТЕЛЬНОЙ ОРГАНИЗАЦИИ

Аннотация

В данной статье анализируется формирование нравственного воспитания детей в организации дошкольного образования и его основные принципы, проблемы и решения в данной области. Нравственное воспитание детей представляет собой комплексное понятие, объединяющее комплекс воспитательных мероприятий, знакомящих ребенка с нравственными ценностями человечества.

Ключевые слова: Воспитание, дошкольное воспитание, семья, интеграция, воспитатель, дети, духовно-нравственное воспитание, методы воспитания, достижение творческого совершенства, интеллектуальное, нравственное воспитание, физическое развитие.

MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTI TARBİYALANUVCHISINING AXLOQIY TARBİYASINI SHAKLLANTIRISH

Annotatsiya

Ushbu maqolada maktabgacha ta'lim tashkiloti tarbiyalanuvchilarining axloqiy tarbiyasi shakllantirish va undagi asosiy tamoyillar, sohadağı muammo va yechimlar tahlil qilingan. Bolalarning axloqiy tarbiyasi - bu bolani insoniyatning axloqiy qadriyatlar bilan tanishtiradigan tarbiyaviy tadbirlar majmuasini birlashtirgan murakkab tushuncha hisoblanadi.

Kalit so'zlar: Tarbiya, maktabgacha ta'lim, oila, integratsiya, tarbiyachi, bolalar, ma'naviy-axloqiy tarbiya, tarbiya usullari, ijodiy barkamollikka erishish, intellektual, axloqiy tarbiya, jismoniy rivojlantirish.

Kirish. Maktabgacha yoshdagi bolalarni ma'naviy-axloqiy kamolotida oila va maktabgacha ta'lim tashkilotlarida o'rganiladigan topishmoq, topishmoqli e'taklarning ta'lim-tarbiyaviy ahamiyati, maktabgacha ta'lim tashkilotlarida xalq og'zaki ijodi namunalari vositasida maktabgacha yoshdagi bolalarni ma'naviy-axloqiy tarbiyalashning samarali shakl va metodlari, maktabgacha yoshdagi bolalarni ma'naviy-axloqiy tarbiyalashda oila va maktabgacha ta'lim tashkilotining hamkorligi yoritib beriladi. Axloqiy tarbiyaning maqsadi axloq tushunchalarini ishlab chiqishdir Bu jarayonda shaxs sifatlarining axloqiy talabini shakllantiradigan davlat katta ta'sir ko'rsatadi. Yosh avlodni axloqiy tarbiyalash muammosi uzoq vaqtdan beri yozuvchilar, faylasuflar, olimlar, o'qituvchilar, ota-onalar va amaldorlarni qiziqtirgan. Har bir yangi avlod bilan, yoshlarning axloqiy fazilatlarini pasayib borayotganidan ruhi tushayotgan olim va o'qituvchilar tobora ko'proq yangi tavsiyalar ishlab chiqdilar, ularning maqsadi yangi avlodga odob-axloqni yuksaltirish edi.

«Axloq» so'zi lotincha «mows», ya'ni moral so'zidan kelib chiqib, u hech qayerda qat'iy yozib qo'yilmagan ijtimoiy qonundir. Inson kundalik hayotida undan (axloq normalaridan) norma sifatida foydalanadi. Axloqiy tarbiya normalari har bir jamiyatning huquqiy normalariga asos bo'ladi. Axloqiy bilimlarni o'zlashtiribgina qolmay, har qanday vaziyatlarda o'zini ana shu normalarga munosib tuta oladigan kishilar axloqiy tarbiyalangan hisoblanadi.

Agar biz kommunizm davrlarini eslasak, u holda rahbariyatning irodasini so'zsiz bajargan, yordamga kelishga

tayyor bo'lgan kollektivistlar mehnatkashlar yuksak hurmatga sazovor bo'lgan. Keyinchalik, kapitalistik munosabatlarning paydo bo'lishi bilan, tashabbuskorlik, tadbirkorlik, muammolarni hal qilish qobiliyati va nostandart yondashuvni topish kabi shaxsiy xususiyatlar qadrlanadi. Bu o'zgarishlarning barchasi bolalar muassasasida axloqiy tarbiyaga ta'sir qilishi mumkin emas edi.

Respublikamizda bugungi kunda maktabgacha ta'lim-tarbiya tizimini tubdan isloh qilishga alohida e'tibor qaratilib, farzandlarimizning jahon andozalari darajasida zamonaviy bilim, kasb-hunarlarini egallashi, ma'nan-axloqan, jismonan yetuk insonlar bo'lib ulg'ayishi, yosh avlod qalbida Vatanga sadoqat, fidoyilik tuyg'ularini yuksaltirish borasida O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasida "Jismonan sog'lom, ruhan va aqlan rivojlangan, mustaqil fikrlaydigan, Vatanga sodiq, qat'iy hayotiy nuqtai nazarga ega yoshlarni tarbiyalash" ustuvor vazifa etib belgilangan.

Ko'pgina psixologlar oilada va bolalar jamoasida axloqiy tarbiya o'rtasida nomuvofiqlik muammosi mavjudligini ta'kidlaydilar. Agar tarbiyachi do'stlikka, saxovat-peshalikka chaqirsa, ota-ona esa bolada tajovuzkorlik, egalik tuyg'usini tarbiyalasa, vaqt o'tishi bilan bolada ichki ziddiyat paydo bo'ladi. Bola, yoshiga qarab, o'z fikriga ega bo'lmasdan, u yoki bu pozitsiyaga moyil bo'ladi.

Xalq og'zaki ijodi namunalari vositasida maktabgacha yoshdagi bolalarni ma'naviy-axloqiy tarbiyalash tizimini takomillashtirishda oila, mahalla, MTT hamkorligi

mexanizmini hayotga tatbiq etish o'zining ijobiy samarasini berdi. Xalq og'zaki ijodi namunalari vositasida maktabgacha yoshdagi bolalarni ma'naviy-axloqiy tarbiyalash tizimini takomillashtirishda falsafiy, milliy-ma'naviy, psixologik, pedagogik yondashuvning mazmun va mohiyatini anglashga erishiladi, maktabgacha yoshdagi bolalarni ma'naviy-axloqiy tarbiyalashda ijtimoiy omillarning ta'sirini hisobga olish hamda ma'naviy - axloqiy tarbiyani o'zida mujassamlashtirgan xalq og'zaki ijodi namunalari tayanish zarur. Bolalar qanchalik kichik bo'lsa, ular tashqi dunyoga shunchalik ochiq bo'ladi. Besh yoki olti yoshga kelib, shaxsiyatning asoslari shakllantirilmoqda, bu qisqa vaqt ichida chaqaloqning ruhiyati eng moslashuvchan, siz tabiat tomonidan qo'yilgan narsalarni tuzatishga harakat qilishingiz mumkin. Shaxsni shakllantirishning ushbu davrida axloqiy tarbiyaning mazmuni va shakllari eng maqbul tarzda tanlanishi kerak.

- **Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili.** Yosh maktabgacha ta'lim davri bolalariga beriladigan ma'naviyaxloqiy tarbiya bevosita M.Qoshg'ariy, U.Kaykovus, A.N.Forobiy, al-Xorazmiy, Abu Ali Ibn Sino, A.Navoiy kabi sharq mutafakkirlarimizning nodir asarlarida keltirilgan alla, ertak, maqol, topishmoqlarga va xalq tilidan yozib olingan xalq og'zaki ijodi namunalari orqali singdiriladi. Maktabgacha ta'lim muassasasining «Ilk qadam» Davlat o'quv dasturida belgilanganidek, o'quv-tarbiyaviy jarayonning maqsadi bolalarda umumiy asosiy kompetensiyalar va rivojlanish sohalarini kompetensiyalarini shakllantirish uchun tegishli sharoitlar yaratishdan iborat.

Maktabgacha yoshdagi bolaning ongiga singdirilgan bilim va ma'naviy qadriyatlar uning kelgusidagi hayotini belgilab berishi sababli o'zaro va oiladagi munosabatlar, yaqin kishilarga g'amxo'rlik qilish, bolalar tarbiyasida milliy tarbiya usullari va zamonaviy pedagoglarning ilg'or yutuqlaridan samarali foydalanish, uyg'un rivojlangan bola shaxsini shakllantirishda muhim ahamiyatga ega. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev ta'kidlaganidek, «Insoniyat yaratgan bebaho madaniyat durdonalari eng avvalo har qaysi millatning folklor san'atida mujassam topgani hammamizga yaxshi ma'lum. ... Folklor san'ati, ta'bir joiz bo'lsa, bu – insoniyatning bolalik qo'shig'idir».

Qadimgi yunon faylasuflari Aflotun va Arastu bola tarbiyasini jamiyat o'z ixtiyoriga olishi, tarbiya jarayonidagi barcha zarur ishlarni davlat bajarishi lozim degan g'oyani ilgari surgan edilar. Ular o'z fikrlarini farzand tarbiyasi jamiyat manfaatlarini bilan bog'liq deb isbotlamoqchi bo'lganlar. Sharq mutafakkirlari oila va farzand tarbiyasi masalalariga katta e'tibor berganlar. Muhammad ibn Muso al-Xorazmiy, Abu Nasr Forobiy, Abu Ali ibn Sino, Yusuf Xos Hojib, Abu Rayhon Beruniy, Mahmud Koshg'ariy, Kaykovus, Alisher Navoiy, Husayn Voiz Koshifiy kabi mutafakkirlarning qator asarlarida bolalarni ma'naviy-axloqiy tarbiyalash masalalari o'rta qo'yilgan va ularni hal etish yo'llari ko'rsatib berilgan. Sharq mutafakkirlarining ta'lim-tarbiya, oila va oilaviy tarbiya haqidagi qarashlari islom mafkurasi va uning qobig'ida shakllangan. Sharq mutafakkirlari ijodida aks etgan umuminsoniy g'oyalar islomiy ma'naviyat bilan hamohangdir. Alisher Navoiy ijodida ham axloq-odob masalalariga katta ahamiyat berilgan, insonparvarlik g'oyalari ulug'langan. «Odobli inson barcha odamlarning yaxshisidir va barcha odamlar uchun yoqimliroq'idir», degan edi ulug' shoir.

Turli yoshdagi bolalarni va ularning xususiyatlarini o'rganish murakkab, bu uzoq vaqt davomida bitta o'qituvchi tomonidan amalga oshirilishi maqsadga muvofiqdir. Kuzatish jarayonida bolalarning ta'lim haqidagi asosiy tushunchalarini aniqlash, o'zgarishlar dinamikasini kuzatish, muammo bo'lsa, tuzatish kiritish kerak.

- **Tadqiqot metodologiyasi.** Tarbiyalanuvchi shaxsining individualligi va noyobligini hisobga olgan holda ota-onalar va keng jamoatchilikning yoshlarni xalq og'zaki ijodi namunalari vositasida ma'naviy-axloqiy tarbiyalash

uchun hissa qo'shishga shaxsan mas'ul ekanligini, ota-onalarning o'zlari milliy qadriyatlarimizning bosh bo'g'ini xisoblangan xalq og'zaki ijodi namunalari alla, ertak, maqol, topishmoqlarni bilishi, bu borada ularning xalq og'zaki ijodi namunalari to'g'risida bilim, ko'nikma va malakalarga ega bo'lishini yanada takomillashtirish, yosh ota-onalarni pedagogik va psixologik bilimlar bilan qurollantirish, bolalarni ma'naviy-axloqiy tarbiyalashga xizmat qiluvchi uslubiy qo'llanmalar, risolalar va bukletlarni chop etish va tarqatish orqali yosh oilalarga oilaviy munosabatlar, ma'naviy-axloqiy tarbiya to'g'risidagi bilimni oshirishda ko'maklashish maqsadga muvofiq ekanligini ko'rib chiqdik.

Maktabgacha ta'lim yoshdagi bolalarni integral tarzda ma'naviy axloqiy tarbiyasini tashkil etish aniq maqsadga qaratilgan yaxlit pedagogik jarayon bo'lib, ushbu jarayonda quyidagi pedagogik vazifalar hal qilinadi:

Maktabgacha ta'lim yoshdagi bolalarda ijobiy mazmundagi ma'naviy-axloqiy sifatlar (vatanparvarlik, mehnatsevarlik, go'zallikni xis qilish, go'zallik yaratishga intilish, rostgo'ylik, ozodalik, orastalik, o'zaro do'stlik, axillik, shirinso'zlik, saxiylik, jasurlik va hokozolarni) qaror toptirish.

Maktabgacha ta'lim yoshdagi bolalarda ma'naviy-axloqiy mazmundagi xulq-atvor, xarakter va irodani shakllantirish.

Maktabgacha ta'lim yoshdagi bolalarda ma'naviy-axloqiy me'yorlar hamda axloqiy munosabatlar mohiyati va ularning ijtimoiy jamiyat hayotidagi ahamiyati to'g'risida ma'lumot beriladi.

Maktabgacha ta'lim yoshdagi bolalarda ma'naviy-axloqiy tushunchalarni egallashga bo'lgan ehtiyojni yuzaga keltirish, ma'naviyaxloqiy ongini qaror toptirish.

Maktabgacha ta'lim yoshdagi bolalarda ma'naviy-axloqiy madaniyatni shakllantirish. Ushbu vazifalarni amalga oshirishda maktabgacha ta'lim muassasalaridagi ma'naviy-ma'rifiy va tarbiyaviy muammolar, maktabgacha ta'lim yoshdagi bolalarni integratsiyalashgan mashg'ulotlarda ma'naviyaxloqiy tarbiyalash tizimiga xizmat qiluvchi ijobiy omillar bilan birga undagi pedagogik muammolarni ham aniqlashga imkon beradi.

Maktabgacha ta'lim muassasalarida axloqiy tarbiya berish har xil vositalar yordamida amalga oshiriladi. Birinchi galda bolalarni har xil faoliyatlar vositasida mashg'ulotlarda va mashg'ulotlardan tashqari vaqtlarda, ta'lim berish orqali kattalar mehnati bilan tanishtiriladi. Axloqiy tarbiya tamoyillarini pedagogik shart-sharoit bilan qo'shib amalga oshirish bolaning axloqiy rivojlanishiga samarali ta'sir etadi. Bolalarning axloqiy tajribalarini kengaytirib borish, xulqning axloqiy sabablarini aniqlab berish kerak. Suhbat vaqtida bolalar o'z fikr-mulohazalarini aytishlariga keng imkon beriladi. Shunda ular har bir xatti-harakatini ongli ravishda, axloq normalari va qoidalari doirasida bajarishga urinadilar.

Tahlil va natijalar. Bog'cha yoshdagi bolalar shaxsining shakllanishiga ko'ra, bu davrni uch bosqichga ajratish mumkin: - birinchi davr - bu 3-4 yosh oralig'ida bo'lib, bola emotsional jihatdan o'z-o'zini boshqarishning mustahkamlanishi bilan bog'liqdir; - ikkinchi davr - bu 4-5 yoshni tashkil qilib ahloqiy o'z-o'zini boshqarish; - uchinchi davr esa shaxsiy ishchanlik va tadbirkorlik xususiyatining shakllanishi bilan xarakterlanadi. Maktabgacha davrda ahloqiy tushunchalar borgan sari qat'iylasha boradi. Ahloqiy tushunchalar manbai sifatida, ularning ta'lim-tarbiyasi bilan shug'ullanayotgan kattalar, shuningdek, tengdoshlari ham bo'lishi mumkin.

Bolalarda axloqiy fazilatlarini shakllantirishga turli xil yondashuvlar mavjud - mehnat, o'yin, ijodkorlik, ta'lim, adabiy ish, o'z namunasi. Axloqiy tarbiya shakllari hayotning o'zi kabi xilma-xildir:

bolaning shaxsiy xususiyatlari
bolalarning boshqalarga munosabati

ma'naviy qadriyatlar,
unlilar va aytilmagan odob-axloq qoidalari,
vatanparvarlik tuyg'ulari va hokimiyatga hurmat.

Bolalar ta'lim muassasasida o'qituvchining vakolati, mos ravishda uyda - ota-onaning hokimiyati juda muhimdir. Bu, bir tomondan, axloqiy tarbiyaning kuchi, ikkinchi tomondan, insonning katta mas'uliyati. Turli yoshdagi bolalar ongli ravishda ustozning xatti-harakatini nusxalashadi. Bunday taqlidning cho'qqisi bolalar bog'chasining so'nggi yillari va birinchi maktab yillariga to'g'ri keladi.

Maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarga axloqiy tarbiya berishda har xil metod va usullarni qo'llash muhim ahamiyatga egadir. Bu metodlar bolalarning axloqiy tasavvur va bilimlarni egallab olishga qaratilgan faoliyat usulidir. Axloqiy tarbiya metodlari quyidagi guruhlariga bo'linadi:

1-guruh. Axloqiy ongini, axloqiy tasavvur va bilimlarni shakllantirishga metodlar.

2-guruh. Madaniy xulq-atvor, ijobiy munosabatlarni shakllantirishga qaratilgan metodlar.

3-guruh. Axloqiy his-tuyg'ular va munosabatlarni rag'batlantirishga qaratilgan metodlar.

- **Xulosa va takliflar.** Ishontirish tarbiyachining faoliyatida katta yordam beradi. Rag'batlantirish va jazolash axloqiy tarbiyaning metodi bo'lib, u asosiy metodlarga ta'sir etishning o'ziga xos vositasi bo'lib xizmat qiladi. Tarbiyachi boladagi ijobiy xulqni qo'llab-quvvatlash, bunday xatti-harakatni faollashtirish yoki bo'lmasa bolani yomon qiliqlardan qaytarish uchun rag'batlantirishdan foydalanadi. Xulosa qilib aytganda bog'cha yoshidagi davrning o'ziga xos xususiyati shundaki, bu davrda bolalarda xarakter hislatlarining namunalari shakllanib ahloqiy xarakterning asoslari vujudga keladi. Maktabgacha ta'lim uzluksiz ta'limning boshlang'ich qismi hisoblanadi. U bolaning sog'lom va rivojlangan shaxs bo'lib shakllanishini ta'minlab, o'qishga bo'lgan ishtiyoqini uyg'otadi, tizimli o'qitishga tayyorlab boradi. Shunday ekan, bu tizim faoliyatini yanada kuchaytirish, maktabgacha ta'lim muassasalarida har tomonlama qulay shart-sharoitlar yaratish, ularga maktabgacha yoshdagi bolalarni keng jalb etish farzandlarimizning barkamol va yetuk shaxs bo'lib shakllanishida muhim o'rin tutadi.

ADABIYOTLAR

1. O'zbekiston Respublikasining 2019-yil 16-dekabrda O'RQ-595-sonli "Maktabgacha ta'lim va tarbiya to'g'risida"gi Qonuni.
2. M.A.Rasulxo'jaeva. Bolalarni hayvonot olami bilan tanishtirish orqali axloqiy sifatlarini shakllantirish texnologiyasi. Usuliy qo'llanma - T.: "Ilm-Ziyo Zakovat" 2020.
3. Xasanboyeva O.U. va boshq. - Maktabgacha ta'lim pedagogikasi. - O'quv qo'llanma - T.: Ilm ziyo. 2012.
4. Yusupova P. Maktabgacha pedagogika. T., "O'qituvchi", 1996.
5. <https://cyberleninka.ru/article/n/maktabgacha-yoshdagi-bolalarni-milliy-tarbiya-asosida-ma-naviyaxloqiy-sifatlarini-shakllantirish>
6. <https://onlntest.ru/uz/vospitanie-moralno-nravstvennyh-kachestv-doshkolnikov-formy/>
7. <https://fll.jdpu.uz/index.php/fll/article/download/1274/896/3232>
8. <https://lex.uz/ru/docs/-4646908?ONDATE=21.04.2021%2000>



Jamshid PULATOV,

Jismoniy tarbiya va sport bo'yicha mutaxassislarini qayta tayyorlash va malakasini oshirish instituti dotsenti

«Pedagogika va psixologiya» kafedrasini mudiri

E-mail: jamshidpu@mail.ru

professor I. Tursunaliyev taqrizi asosida

REGULATORY-LEGAL AND ORGANIZATIONAL-PEDAGOGICAL FOUNDATIONS FOR SENDING PUPILS-ATHLETES TO VOCATIONAL EDUCATION IN UZBEKISTAN

Abstract

This article discusses the regulatory framework for the direction of pupils-athletes in professional sports education. It also describes the compliance of future sports professionals with the levels of the «Industry Qualification Framework «Physical Education and Sports» in the context of professional standards.

Keywords: vocational education, sports, sports schools, professional standard, sectoral qualification framework, knowledge, skills and mastery, competencies, qualification degree.

НОРМАТИВНО-ПРАВОВЫЕ И ОРГАНИЗАЦИОННО-ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ НАПРАВЛЕНИЯ УЧЕНИКОВ-СПОРТСМЕНОВ НА ПРОФЕССИОНАЛЬНОЕ ОБРАЗОВАНИЕ В УЗБЕКИСТАНЕ

Аннотация

В данной статье рассмотрены нормативно-правовые основы направления учеников-спортсменов на профессиональных спортивных образованиях. Также описывается соответствие будущих профессионалов спорта уровням «Отраслевая квалификационная рамка «Физическое воспитание и спорт» в разрезе профессиональных стандартов.

Ключевые слова: профессиональное образование, спорт, спортивные школы, профессиональный стандарт, отраслевая квалификационная рамка, знания, навыки и мастерство, компетенции, квалификационная степень.

O'ZBEKISTONDA O'QUVCHI-SPORTCHILARNI PROFESSIONAL TA'LIMGA YO'NALTIRISHNING NORMATIV-HUQUQIY VA TASHKILIY-PEDAGOGIK ASOSLARI

Annotatsiya

Ushbu maqolada o'quvchi-sportchilarni professional sport ta'limiga yunalitirishning normativ-huquqiy asoslari baён qilingan. Shuningdek, unda b'ulajak sportchi mutaxassislarining «Jismoniy tarbiya va sport» tarmoқ mалаka ramkasi darajalariga muvofiqlikni professional standartlar kontekstida ёritilgan.

Kalit so'zlar: sport, sport maktablari, markaz, Olimpiya sport turlari, Paralimpiya sport turlari, iqtidorli sportchilar, tanlash, saralash, yo'naltirish.

Kirish. Jahonda Birlashgan Millatlar Tashkiloti tomonidan qabul qilingan 17 ta Global Barqaror Rivojlanish Maqsadlari (SDG), jumladan har tomonlama adolatli va sifatli ta'lim olishni ta'minlash va ta'lim olish imkoniyatlarini rag'batlantirish [1] masalalari yeshimi tobora dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Professional sport ta'limi dasturlari YuNESKOning Ta'limni xalqaro standart tasniflagishi (ISSED) darajalari bilan uyg'unlashtirilgan bo'lib, Olimpiya sport turlari eng kushli rivojlangan mamlakatlarda [2] sportchilarni shaxsiy-kasbiy sifatlarini rivojlantirishga alohida e'tibor berilgan. Bu borada sport zaxirasini tayyorlash bosqichlarida «sport-sog'lomlashtirish» ishlari bilan bo'lajak sportchilarni saralash, «boshlang'ish tayyorgarlik» jarayonida seleksiyalash, «o'quv-mashq» yordamida tanlash va ularni «sport mahoratini takomillashtirish», «oliy sport mahorati»ga erishish yo'lida professional sport ta'limiga yo'naltirish zarurati dolzarb muammolardan bo'lib qolmoqda.

Respublikamizda so'nggi yillarda ta'lim-tarbiya sifatini yaxshilash, professional sportshi kadrlarni tayyorlash va sport zaxirasini shakllantirish bosqichlarida o'quvchi-sportchilarning tanlangan sport turiga bo'lgan kompetentligini oshirishga qaratilgan zaruriy me'yoriy-huquqiy asoslar yaratildi. Shuningdek, «... o'quvchilarga jismoniy tarbiya va sport bo'yicha shuqurlashtirilgan ta'lim berish, ularni har tomonlama kamol toptirish va sport mutaxassisliklari va kasblarini egallashini ta'minlash ...» [3] ustuvor vazifa sifatida belgilanganligi, o'quvchi-sportchilarni, ya'ni sport maktablari shug'ullanuvchilarini Olimpiya va Paralimpiya zaxiralari kollejlarga yo'naltirish texnologiyalarini takomillashti-

rishning psixologik ta'minoti yuzasidan ilmiy tadqiqotlarda yangisha nazariy eshimlarni topish va istiqboldagi vazifalarni amalga oshirish ushuni mustahkam asos yaratildi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. O'zbekistonda o'quvchi-sportchilarni professional ta'limga yo'naltirish haqida fikr yuritar ekanmiz, quyidagilar bu jarayonni tashkil etishning normativ-huquqiy asoslari sifatida e'tirof etiladi: O'zbekiston Respublikasining 2020-yil 23-sentabrda O'RQ-637-son «Ta'lim to'g'risida»gi Qonuni [4]; 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son «2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida»gi Farmoni [5]; 2020-yil 24-yanvardagi PF-5924-son «O'zbekiston Respublikasida jismoniy tarbiya va sportni yanada takomillashtirish va ommalashtirish shora-tadbirlari to'g'risida»gi Farmoni [6]; 2019-yil 6-sentyabrda PF-5812-son «Professional ta'lim tizimini yanada takomillashtirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida»gi Farmoni [7]; 2022-yil 6-iyunda PQ-268-son «Davlat sport-ta'lim muassasalari faoliyatini mutlaqo yangi tizim asosida tashkil qilish shora-tadbirlari to'g'risida»gi qarori [8]; 2021-yil 5-noyabrda PQ-5279-son «Sport ta'limi tizimini tubdan takomillashtirish orqali olimpiya va paralimpiya sport turlari bo'yicha sportchilar zaxirasini shakllantirish sifatini yanada oshirish shora-tadbirlari to'g'risida»gi qarori [9]; O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 12-avgustda «Olimpiya zaxiralari kollejlari faoliyatini tashkil etish shora-tadbirlari to'g'risida» 480-son qarori [3]; 2020-yil 15-mayda «O'zbekiston Respublikasida kasbiy malakalar, bilim va ko'nikmalarni rivojlantirish milliy tizimi faoliyatini tashkil

etish choralari to'g'risida»gi 287-son qarori [10] va ushbu sohaga aloqador bo'lgan boshqa normativ-huquqiy hujjatlar.

«Ta'lim to'g'risida»gi Qonunga ko'ra: «Professional ta'lim egallanadigan kasb va mutaxassislik bo'yicha quyidagi darajalarni o'z ichiga oladi: (1) boshlang'ich professional ta'lim; (2) o'rta professional ta'lim; (3) o'rta maxsus professional ta'lim.

Boshlang'ich professional ta'lim kasb-hunar maktablarida IX sinf bitiruvchilari negizida bepul asosda kunduzgi ta'lim shakli bo'yicha umumta'lim fanlarining va mutaxassislik fanlarining ikki yillik integratsiyalashgan dasturlari asosida amalga oshiriladi.

O'rta professional ta'lim kollejlarda davlat buyurtmasi yoki to'lov-shartnoma asosida kasblar hamda mutaxassisliklarning murakkabligidan kelib chiqqan holda, davomiyligi ikki yilgacha bo'lgan kunduzgi, kechki va sirtqi ta'lim shakllari bo'yicha umumiy o'rta, o'rta maxsus ta'lim hamda boshlang'ich professional ta'lim negizida amalga oshiriladi.

O'rta maxsus professional ta'lim texnikumlarda umumiy o'rta, o'rta maxsus, boshlang'ich professional va o'rta professional ta'lim negizida davlat buyurtmasi yoki to'lov-shartnoma asosida kasblar hamda mutaxassisliklarning murakkabligidan kelib chiqqan holda, davomiyligi kamida ikki yil bo'lgan kunduzgi, kechki va sirtqi ta'lim shakllari bo'yicha amalga oshiriladi» [4].

Shu missiya va maqsadlarni ko'zlab, Prezidentning 2019-yil 6-sentyabrdagi PF-5812-son Farmoni [7] qabul qilindi. Mazkur Farmon O'zbekiston tarixida yangi professional ta'lim tizimini tashkil etishga asos bo'lgan bo'lsa, 2020-yil 24-yanvarda davlatimiz rahbari o'z Murojaatnomasida «Joriy o'quv yilidan boshlab, mutlaqo yangi professional ta'lim tizimi yo'lga qo'yilib, kasb-hunar maktablari, kollejlari va texnikumlar tashkil etiladi» deb mazkur tizimning ahamiyatini yana bir bor alohida ta'kidladi [11].

O'z navbatida, yangi tizimning barcha normativ-huquqiy asoslari yaratildi. Jumladan, «O'zbekiston Respublikasida uzluksiz boshlang'ich, o'rta va o'rta maxsus professional ta'lim tizimini tartibga soluvchi normativ-huquqiy hujjatlarni tasdiqlash to'g'risida»gi hukumatning 2020-yil 7-avgustdagi 466-son qarori e'lon qilindi. Qaror bilan «Uzluksiz boshlang'ich, o'rta va o'rta maxsus professional ta'lim to'g'risidagi Nizom», «Boshlang'ich professional ta'lim bosqichida kadrlar tayyorlaydigan kasb-hunar maktablarining namunaviy ustavi», «O'rta professional ta'lim bosqichida kadrlar tayyorlaydigan kollejlarning namunaviy ustavi» hamda «O'rta maxsus professional ta'lim bosqichida kadrlar tayyorlaydigan texnikumlarning namunaviy ustavi» tasdiqlandi [12]. Ushbu hujjatlar asosida o'quv jarayoni xalqaro standartlarga muvofiqlashtirilgan ta'lim dasturlari asosida tashkil etiladigan 3 ta toifadagi ta'lim muassasalari faoliyati yo'lga qo'yildi.

Tadqiqot metodologiyasi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning asarlari g'oyasi, davlatning «Ta'lim to'g'risida»gi Qonuni, «Jismoniy tarbiya va sportni rivojlantirish konsepsiyasi», jahon psixologiyasi fanida shaxsning ijtimoiy taraqqiyoti bo'yicha yaratilgan umumiy qonuniyatlar, mexanizmlar, konsepsiyalar, shuningdek, shaxsga individual, differensial yondashuv prinsiplariga oid ta'limotlar izlanishga ilmiy metodologik asos sifatida xizmat qiladi. Tadqiqot davomida normativ-huquqiy manbalar, ilmiy-uslubiy adabiyotlar materiallarini umimlashtirish va kontent tahlil qilish usullaridan foydalanildi.

Tahlil va natijalar. O'quvchilarni professional ta'lim muassasalariga yo'naltirish orqali ta'lim mazmuni, soni va sifati, ta'lim dasturlari, texnologiyalarining isloh qilinishini belgilab beradi. Ushbu vazifalarning amalga oshirilishi esa iqtisodiyotni taraqqiy ettirish, kambag'allikni qisqartirish, yoshlar va xotin-qizlarning hayotda munosib o'rin topishi,

natijada xalqimiz turmush farovonligini oshirish masalalarining ijobiy hal etilishini ta'minlaydi.

Joriy etilgan yangi tizim xalqaro andozalarga to'la mos bo'lishi uchun 14 ta xalqaro tashkilot bilan hamkorlikda rivojlangan xorijiy mamlakatlarning ilg'or tajribalari o'rganildi. Germaniya, Shveysariya, Koreya, Turkiya va Xitoy hamda YuNESKO, Britaniya Kengashi, Germaniya xalqaro hamkorlik jamiyati, Osiyo taraqqiyot banki, Yevropa ta'lim fondi, Turkiya hamkorlik agentligi, Xitoyning Universitetlar uyushmasi kabi qator xorijiy davlat va tashkilotlardan 200 dan ortiq nufuzli xalqaro ekspertlar jalb etildi va ulardan salmoqli xulosalar olindi. Yangi professional ta'lim muassasalarida ta'lim mazmuni, soni va sifati, ta'lim dasturlari, texnologiyalarining isloh qilinishi oqibatida quyidagi tarkibiy o'zgarishlar amalga oshirildi:

2020-2021-o'quv yilida professional ta'lim tizimida respublika bo'yicha jami 725 ta ta'lim muassasasi, ya'ni 339 ta kasb-hunar maktabi, 200 ta kollej va 186 ta texnikum faoliyat ko'rsatishi belgilandi [7].

1-toifa – kasb-hunar maktablarida ta'limning xalqaro standart tasniflagichining 3-darajasiga mos keluvchi 2 yillik ta'lim dasturlari asosida 9-sinf bitiruvchilari boshlang'ich professional ta'lim oladi [7]. Kasb-hunar maktablarida ustuvor yo'nalish sifatida oilaviy biznes, tomorqa biznesi, qurilish, xizmat ko'rsatish, chorvachilik, parrandachilik, asalarichilik, baliqchilik, sport faoliyati kabi iqtisodiyotimizda muhim o'rin egallagan 200 dan ortiq ishchi kasblar bo'yicha kadrlar tayyorlanadi.

Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Jismoniy tarbiya va sport vazirining 2020-yil 8-oktyabrdagi «Jismoniy tarbiya va sport sohasi tarmoq malaka ramkasini tasdiqlash to'g'risida»gi 1146-son buyrug'i ilovasi bilan tasdiqlangan «Jismoniy tarbiya va sport» tarmoq malaka ramkasiga ko'ra 3-darajasiga mos keluvchi kasb egalari [13]:

- jismoniy tarbiya va sport (tanlangan sport turi bo'yicha) sohasidagi umumiy va kasbiy bilimlarga;

- qo'yilgan vazifalarni mustaqil va jamoaviy tarzda bajarish uchun kerakli vositalar va usullarni tanlash ko'nikmasi va mahoratiga;

- rahbariyat kuzatuv ostida ishlash va o'rganish kompetensiyalarga ega bo'lishlari shart [13].

Shuningdek, vakolatlar kengligi va mehnat natijalari uchun mas'uliyat pozitsiyasida «Kuzatuv ostida muayyan darajada mustaqillik bilan harakat qilish. Faoliyatni bajarish bo'yicha individual mas'uliyat» talab etiladi. Ushbu daraja egalari jamoaviy mehnat taqsimotidagi o'rnini: «Asosiy kasbiy faoliyati o'quv-mashq va o'quv-yig'in mashg'ulotlari hamda turli darajadagi musobaqalarda ishtirok etish. Sportsog'lomlashtirish va ommaviy tadbirlarda hakamlilik qilish»da ko'rish mumkin.

Malaka darajasiga erishish yo'llari sifatida quyidagilar: boshlang'ich professional ta'lim (o'rta professional va (yoki) kasb-hunar ta'limi) va umumiy o'rta ta'limdan past bo'lmagan ta'lim darajasidagi amaliy tajriba alohida ajratib qayd etilgan.

Har bir malaka darajasi (quyi darajasi) uchun xos bo'lgan kasblar va lavozimlarga misollar sifatida «sportchi» va «sport hakami» ajratib ko'rsatilgan.

2-toifa – kollejlarda ta'limning xalqaro standart tasniflagichining 4-darajasiga mos keluvchi, kasblarning murakkablik darajasidan kelib chiqib, 2 yilgacha bo'lgan muddatlar davomida o'qitishga mo'ljallangan ta'lim dasturlari asosida o'rta professional ta'lim mutaxassislari tayyorlanadi [7]. Vazirliklar, idoralar va tashkilotlar tasarrufida faoliyat ko'rsatadigan va shu sohadagi aniq ish o'rni uchun mutaxassislar tayyorlaydigan ushbu kollejlarga maktablar, shu jumladan olimpiya maktablarining 11-sinf bitiruvchilari qabul qilinadi. Kollejlarda Germaniya tajribasida yaxshi samara bergan «dual» ta'lim prinsiplari joriy etilgan: o'quvchilar haftaning ma'lum kunlarida kollejdagi nazariy bilim oladi,

boshqa kunlari sport maktabi (korxona)ning o'zida birlashtirilgan trener-o'qituvchi (usta) rahbarligida to'g'ridan-to'g'ri kelajakda ishlaydigan ish o'rnida amaliyot o'taydi.

Xususan, O'zbekiston Respublikasi Jismoniy tarbiya va sport vazirining 2020-yil 8-oktyabrda 1146-son buyrug'i ilovasi bilan tasdiqlangan tarmoq malaka ramkasiga ko'ra 4-darajasiga mos keluvchi kasb egalari:

- jismoniy tarbiya va sport sohasini umumiy qamrab oluvchi keng miqyosli amaliy va nazariy bilimlarga;

- sohaga oid aniq muammolarni hal etishda zarur bo'lgan amaliy ko'nikmalarga;

- qo'yilgan vazifalarni tushunish, rahbar nazorati ostida ishlash, qisman mustaqil ravishda faoliyat yuritish kompetensiyalariga ega bo'lishlari talab etiladi [13].

Shuningdek, vakolatlar kengligi va mehnat natijalari uchun mas'uliyat pozitsiyasida «Mustaqil ijro faoliyati. Jismoniy tarbiya va sport sohasining jamoaviy va individual faoliyat samaradorligi uchun mas'uliyat» alohida talab etiladi. Ushbu daraja egalarining jamoaviy mehnat taqsimotidagi o'zni: «Asosiy kasbiy faoliyati sport-sog'lomlashtirish mashg'ulotlari va tadbirlarini tashkillashtirish va o'tkazish. O'quv-mashq jarayoni va o'quv-mashq yig'inlari hamda turli darajadagi musobaqalarda (tanlangan sport turi bo'yicha) ishtirok etish. Sport-sog'lomlashtirish va ommaviy tadbirlarda hakamlilik qilish» kabi faoliyatlarda ko'rinadi.

Malaka darajasiga erishish yo'llari sifatida quyidagilar: o'rta professional, o'rta maxsus professional va (yoki) uch yillik o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi (pedagogik, jismoniy tarbiya yoki ta'lim muassasasida olti oygacha bo'lgan kasbiy qayta tayyorlash va (yoki) qo'shimcha maxsus dasturlar bo'yicha tashkil etilgan kurslar) va umumiy o'rta ta'limdan past bo'lmagan ta'lim darajasidagi amaliy tajriba (soha bo'yicha kamida 3 yillik ish tajribasi) alohida belgilab qo'yilgan.

Har bir malaka darajasi (quyi darajasi) uchun xos bo'lgan kasblar va lavozimlarga misollar sifatida «jismoniy tarbiya bo'yicha yo'riqchi», «trener-yo'riqchi», «trener», «sportchi», «sport hakami» ajratib ko'rsatilgan.

3-toifa – texnikumlarda ta'limning xalqaro standart tasniflagichining 5-darajasiga mos keluvchi, bakalavriat ta'lim yo'nalishlari bilan integrasiyalashgan, kunduzgi, kechki va sirtqi ta'lim shakllarida kamida 2 yil muddatga mo'ljallangan ta'lim dasturlari asosida 11-sinfni tugatgan yoshlar o'qitiladi [7]. 2 yillik tahsildan so'ng bitiruvchilar oliy ta'lim muassasasida o'qigan kasbi bo'yicha suhbat asosida o'qishga qabul qilinishi mumkin. Bu tizim oliy ma'lumot olish niyatida bo'lgan ko'p sonli maktab bitiruvchilarini oliy ta'lim bilan qamrab olish darajasini ta'minlashga xizmat qiladi.

Bu borada O'zbekiston Respublikasi Jismoniy tarbiya va sport vazirining 2020-yil 8-oktyabrda 1146-son buyrug'i ilovasi bilan tasdiqlangan tarmoq malaka ramkasiga ko'ra 4-darajasiga mos keluvchi kasb egalari [13]:

- jismoniy tarbiya va sport sohasidagi har tomonlama ixtisoslashtirilgan maxsus va nazariy bilimlarga;

- sohaga tegishli muammolarni ijodiy hal etish uchun vazifalarni belgilash va reja ishlab chiqishda zarur bo'lgan ko'nikma hamda malakalarga;

- vazifalarni bajarishdagi javobgarlik mas'uliyati, vaziyatdan kelib chiqib qaror qabul qilish kompetensiyalariga ega bo'lishlari zarur sanaladi [13].

Xulosa va takliflar. Umuman olganda, yuqorida tahlil qilingan o'quvchi-sportchilarni professional ta'limga yo'naltirishning normativ-huquqiy asoslariga muvofiq ravishda:

Birinchidan, Olimpiya va Paralimpiya sport turlariga tayyorlash markazlari tashkil etilib, amalda ushbu markazlarda o'qish jarayoni 2 ta bosqichda amalga oshirilmoqda:

birinchi bosqichda 5-11-sinflar uchun Olimpiya maktablari;

ikkinchi bosqichda 1-2-kurslar uchun Olimpiya va Paralimpiya kollejlari faoliyat ko'rsatmoqda.

Ikkinchidan, Olimpiya maktabining 5-sinfida sport maktablarida yaxshi natija ko'rsatgan yoshlar, aholining jismoniy tayyorgarlik darajasini baholash tizimi bo'yicha sport sinovlarini muvaffaqiyatli topshirgan va yuqori iqtidorga ega bo'lgan hamda o'qish istagini bildirgan o'quvchilar tanlov asosida qabul qilinishi yo'lga qo'yilgan.

ADABIYOTLAR

1. <https://www.undp.org/sustainable-development>
2. <https://www.sport-express.ru/olympics/tokyo2020/medals>
3. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 12-avgustdagi «Olimpiya zaxiralari kollejlari faoliyatini tashkil etish shora-tadbirlari to'g'risida» 480-son qarori // <https://lex.uz/docs/-4945553>
4. O'zbekiston Respublikasining 2020-yil 23-sentabrdagi O'RQ-637-son «Ta'lim to'g'risida»gi Qonuni // <https://lex.uz/docs/-5013007>
5. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son «2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida»gi Farmoni // <https://lex.uz/docs/-5841063>
6. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 24-yanvardagi PF-5924-son «O'zbekiston Respublikasida jismoniy tarbiya va sportni yanada takomillashtirish va ommalashtirish shora-tadbirlari to'g'risida»gi Farmoni // <https://lex.uz/docs/-4711327>
7. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 6-sentyabrdagi PF-5812-son «Professional ta'lim tizimini yanada takomillashtirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida»gi Farmoni // <https://lex.uz/docs/-4500926>
8. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 6-iyundagi PQ-268-son «Davlat sport-ta'lim muassasalari faoliyatini mutlaqo yangi tizim asosida tashkil qilish shora-tadbirlari to'g'risida»gi qarori // <https://lex.uz/docs/-6048725>
9. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 5-noyabrdagi PQ-5279-son «Sport ta'limi tizimini tubdan takomillashtirish orqali olimpiya va paralimpiya sport turlari bo'yicha sportshilar zaxirasini shakllantirish sifatini yanada oshirish shora-tadbirlari to'g'risida»gi qarori // <https://lex.uz/docs/-5713331>
10. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 15-maydagi «O'zbekiston Respublikasida kasbiy malakalar, bilim va ko'nikmalarni rivojlantirish milliy tizimi faoliyatini tashkil etish choralari to'g'risida»gi 287-son qarori // <https://lex.uz/docs/-4814154>
11. <https://president.uz/uz/lists/view/3324>
12. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 7-avgustdagi «O'zbekiston Respublikasida uzluksiz boshlang'ich, o'rta va o'rta maxsus professional ta'lim tizimini tartibga soluvchi normativ-huquqiy hujjatlarni tasdiqlash to'g'risida»gi 466-son qarori // <https://lex.uz/docs/-4945840>
13. O'zbekiston Respublikasi Jismoniy tarbiya va sport vazirining 2020-yil 8-oktyabrda 1146-son buyrug'i



Назир САБИРОВ,
БДУ мустақил изланувчиси

Ф.ф. д., профессор А.А. Хусейнова тақризи асосида

ФУҚАРОЛИК ЖАМИЯТИ ТУШУНЧАСИ: ГЕНЕЗИС, НАЗАРИЯ ВА АМАЛИЁТ

Аннотация

Мазкур мақолада фуқаролик жамияти тушунчаси, генезиси, назарияси ва амалиёт, таракқиёт жараёнларини тадқиқ этишнинг ижтимоий-фалсафий методологик асослари, фуқаролик жамияти институтларининг ривожланиш жараёнлари таҳлил қилинган.

Калит сўзлар: Фуқаро, жамият, фуқаролик жамияти, давлат, ҳуқуқий давлат, фуқаролик жамияти институтлари, сиёсий институтлар, демократик институтлар, фуқароларнинг ҳуқуқ

ТЕОРЕТИКО-МЕТОДОЛОГИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ РАЗВИТИЯ ПРЕДПРИНИМАТЕЛЬСТВА В ОБЩЕСТВЕ

Аннотация

Эта статья содержит социальные и философские основы концепции гражданского общества, гена, теории и процесса развития, анализируются процессы развития институтов гражданского общества.

Ключевые слова: Гражданское, общество, гражданское общество, государство, юридическое государство, институты гражданского общества, политические институты, демократические институты, граждане

THEORETICAL AND METHODOLOGICAL FOUNDATIONS FOR THE DEVELOPMENT OF ENTREPRENEURSHIP IN SOCIETY

Abstract

This article contains the social and phetic-philosophical bases of the concept of civil society, gene, theory, and the development process, the development processes of civil society institutions are analyzed.

Key words: Civil, Society, Civil Society, State, Legal State, Civil Society Institutions, Political Institutions, Democratic Institutions, Citizens

Маълумки, фуқаролик жамияти конституциявий ҳуқуқ ва демократияга асосланган ижтимоий ҳаётнинг зарур тарзи, оқилона усули сифатида қабул қилинган, инсонга унинг иқтисодий, сиёсий ва маданий ҳаёти шакллари эркин танлашни кафолатлайдиган, қонун устуворлигига асосланган, инсон ҳуқуқ ва эркинликлари қарор топган, кўп партиявийлик, сиёсий институтлар, мафкура ва фикрларнинг хилма-хиллиги таъминланадиган ҳамда ўзини ўзи бошқариш органларининг мавқеи баланд бўлган ижтимоий тузум ҳисобланади. Бу эса ҳар бир фуқаронинг сиёсий, ижтимоий, иқтисодий, маънавий ва ҳуқуқий жиҳатдан ўз эҳтиёжларини жамоат бирлашмалари ва жамғармалари, ўзини ўзи бошқариш органлари, сиёсий партиялар ва нодавлат ноғижорат ташкилотлар ишида фаол иштирок этиб, улар орқали эҳтиёжларини қондириш имкониятидир.

Фуқаролик жамиятида фуқаролар давлат фаолияти устидан жамоатчилик назоратини ўрнатадилар, давлатнинг кўпгина ваколатлари жамоат ташкилотлари зиммасига юкланади. Давлат ҳокимияти эса мамлакатнинг умумий ривожланиш режаларини тузади, унинг стратегиясини ишлаб чиқади, муҳофаза, миллий хавфсизлик, давлат мустақиллиги ва чегаралари дахлсизлигини, унинг суверенитетини таъминлаш, пулмолия, солиқ, банк сиёсати, ташқи сиёсат ва жаҳон ҳамжамияти билан алоқалар тизimini яратади ҳамда уни бошқаради. Фуқаролик жамиятини қуриш кучли давлатдан кучли жамиятга босқичма – босқич ўтиш орқали рўй беради.

Фуқаролик жамиятини ўрганишда илмийлик, тарихийлик, мантикийлик, тизимлилик, киёсий таҳлил методларидан фойдаланилади.

Бу борада фуқаролик жамияти тўғрисидаги ғоялар, назариялар, замонавий консепсияларни таҳлил қилиш асосида унинг методологик назарий асосларини илмийлик, фуқаролик жамиятининг шаклланишининг тарихий

босқичлари, уларнинг ўзига хос хусусиятларини таҳлил қилган ҳолда жаҳон тажрибасида эришилган ютуқлардан фойдаланиш асосида таҳлил этишда тарихийлик, фуқаролик жамияти шаклланишининг генезисидан то бугунги ҳолатигача бўлган жиҳатларини (асосий белгилари, омиллари, тамойиллари, функциялари) узвийлик асосида таҳлил қилишда мантикийлик, фуқаролик жамиятини бир бутун тизим сифатида ва ҳар бир белгиларнинг пайдо бўлиши, ривожланиши ва тизимдаги ўрни ҳамда ролини кўрсатишда, тизимлилик, фуқаролик жамияти шаклланиш ва ривожланиш тажрибаларини солиштириш, ҳар бир давлатдаги ўзига хос жиҳатларини кўрсатиш киёсий таҳлил методлари асосида амалга оширилади.

Бугунги кунда мамлакатимизда фуқаролик жамиятини барпо этиш дунёнинг аксарият давлатларида бўлаётганлиги сингари ҳуқуқий-демократик тизимлар умумбашарий ва миллий кадриятлар уйғунлигида қарор топаётганлиги инсоният ҳаёт тарзининг энг мақбул ривожланиш йўли эканини деярли барча эътироф этмоқда.

Бу борада Ўзбекистон Республикасининг Биринчи Президенти И.А.Каримов, «Эркин фуқаролик жамиятига дунёдаги кўп-кўп давлатлар асрлар давомида тўпланган тажриба ва демократик анъаналарни ривожлантира бориб этиб келган. Биз бундай жамиятни қуришни, барпо этишни орзу қилмоқдамиз ва шунга интилмоқдамиз», деб таъкидлаган эди.

Аристотел, Платон, Цицерон ва бошқа мутафаккирлар яшаган тарихий босқичида фуқаролик жамияти деганда давлатни тушунган. Бу жараён анча узоқ вақт давом этган ва иқтисодий ҳамда ижтимоий-сиёсий муносабатларнинг ривожланиш даражаси билан боғлиқ.

Фуқаролик жамияти ва «давлат» тушунчалари узоқ вақт айнан тушунчалар сифатида қабул қилинди. Жамиятнинг турли жабҳаларини табақаллаштириш, уларни

давлат ҳокимияти бошқарувидан чиқариш, узвий ҳуқуқ ва эркинликларга эга бўлган эркин ва мустақил индивидни камол топтириш жараёни ижтимоий тараққиётнинг икки тамойилини юзага келтирди ва уларни ижтимоий онг ва фанда акс эттириш зарурати пайдо бўлди.

Давлат бошқарувида сиёсий ҳокимиятнинг учга бўлиниши, сиёсий партиялар, манфаатлар гуруҳлари (касаба уюшмалари, оммавий ахборот воситалари ва ҳ.к.) пайдо бўлиши жамиятда фақат давлат ҳокимияти билан чекланиб қолмасликни вужудга келтирди. Бу жамият бошқарувида янги институтлар кириб кела бошлаганлиги, улар сиёсий қарорлар қабул қилиш, фуқаролик жамияти стратегиясини ишлаб чиқиш, шахс фаолиятининг умумий мақсад ва мазмунини шакллантириш жараёнига сезиларли даражада таъсир кўрсата бошлаши билан аҳамиятли эди. Фуқаролик жамияти абсолютизм ағдарилганидан сўнг шаклланиган янги ҳаётни, яъни фуқароларнинг шахсий ҳаётини давлат тазйикидан халос этишни акс эттиради. Фуқаролик жамияти ва ҳуқуқий давлатда мансбдорлар фуқаролар билан ўзаро муомалаларда қонунга қатъий риоя қилиши ғоялари илгари сурилди. Фуқаролик жамияти давлатнинг ижтимоий тузилмаларидан ажралиши, у ижтимоий муносабатларнинг нисбатан мустақил жабаҳасига айланиш натижаси сифатида пайдо бўлди. Фуқаролик жамияти шаклланиши ва ривожланиши натижасида ҳозирги давр ҳуқуқи ва давлати вужудга келди.

Давлат, сиёсий партиялар, дин, оила, миллат ва бошқа бирликлардан фарқ қилувчи фуқаролик жамияти категориялари ўрганила бошланди. Фуқаролик жамиятининг ривожланишини уч босқичга ажратиш мумкин. Бунда бир босқичдан кейинги босқичга ўтишда жамият ва давлат тузумида катта ўзгаришлар, ижтимоий ва сиёсий тангликлар, оммавий ҳаракатлар, синфларнинг тўқнашувлари, жамият мафкураида туб ўзгаришлар юз берган:

- фуқаролик жамиятининг дастлабки босқичида иқтисодий, сиёсий ва мафкуравий асослари яратилди. Улар жумласига саноат ва савдонинг ривожланиши, ишлаб чиқариш турларининг ихтисослашуви, меҳнат тақсимотининг теранлашуви, товар- пул муносабатларининг ривожланиши киритиш мумкин. Шунингдек, ягона марказлашган давлатларнинг ташкил топиши билан феодал тарқоқлик даврида мавжуд бўлган тенгсизлик, ҳуқуқсизликларга барҳам бериш кабилар XVII-XVIII асрлар билан боғлиқ.

- ривожланган мамлакатларда умумий юридик тенглик ва эркинликка, тадбиркорлик эркинлиги ва шахсий ташаббусга асосланган дастлабки капитализм кўринишидаги фуқаролик жамияти шаклланиши бевосита иккинчи босқичи билан боғлиқ бўлиб, XVIII аср охиридан XIX аср охиригача давом этган.

- вертикал феодал тузилмалар ўрнини эркин одамларнинг ҳуқуқий тенглиги ва ўзаро битимларига асосланган горизонтал муносабатлар эгаллагани билан тавсифланувчи учинчи босқич XIX аср охири ва кейинги даврни ўз ичига олади.

Инсонни ижтимоий келиб чиқиши ва мавқайдан қатъи назар, жамият ҳаётининг ҳуқуқий жиҳатдан тенг иштирокчилари деб эътироф этилиши, ўзини эркин хохиш-иродага эга бўлган, ўз ҳаракатлари ва уларнинг ҳуқуқий оқибатлари учун жавоб беришга қодир шахс сифатида намоён этиш имкониятини берувчи қонунлар билан эътироф этилган қатор ҳуқуқлар ва эркинликларга эга бўлишди.

Бевосита фуқаролик жамиятининг амалда юзага келишига “Ҳуқуқлар ҳақидаги билл” Англияда 1689 йилда ҳамда АҚШда 1791 йилда ёки “Инсон ва фуқаро ҳуқуқлари декларацияси”нинг Францияда 1789 йилда қабул қилиниши муҳим аҳамият касб этди. Фуқаролик

жамияти - ўз шахсий, ижодий ташаббусини эркин намоён этувчи тенг ҳуқуқли одамлар жамияти, ортиқча таққидлар ва кераксиз маъмурий тартибга солишдан холи тенг имкониятлар жамияти сифатида шаклланди.

Фуқаролик жамиятида жамият эъзолари юридик нуктаи назардан фуқаролик ҳуқуқ ва эркинликларга эга бўлди. Фуқаролик эса инсоннинг муайян давлатга барқарор тарздаги мансублиги, инсон ва давлатнинг ўзаро ҳуқуқий алоқаси сифатида намоён бўла бошлади. Бу икки томонлама алоқалар бўлиб, бир томондан, давлат ўз фуқароларига муайн ҳуқуқ ва эркинликларни қафолат-лайди, уларнинг ўзини ва мол-мулкни зўравонлик ва ўзбошимчаликлардан ҳимоя қилади, хорижий мамлакатларда истиқомат қиётган ўз фуқароларига ҳомийлик қилади. Бошқа томондан, фуқаролар давлат қонунларига риоя қилишлари, у белгиланган мажбуриятларни бажаришлари, ўз меҳнати билан давлатни мустаҳкамлашга кўмаклашишлари, унинг обрўсини сақлашлари, зарур бўлган ҳолатларда уни ҳимоя қилишлари лозим. Бу ҳуқуқ ва бурчлар мажмуи фуқароларнинг сиёсий-ҳуқуқий макomini ташкил этади.

Фуқаролик жамияти ғояси XX асрда янада кўпроқ аҳамият касб эта бошлади. Бунга тоталитар ва авторитар тузумларнинг пайдо бўлиши ва уларга қарши демократия учун кураш олиб бориш зарурияти сабаб бўлди. Плурализм назарияси кенг тарқалиб, демократик жамиятнинг асосларини кенгайтди. Жумладан, фуқаролар тотувлигига эришиш йўлларини излаш, аҳолининг турли гуруҳлари манфаатларини ҳисобга олиш, қарама-қаршиликларга барҳам бериш ва низоларнинг олдини олиш каби омиллар ўзига хос долзарблик касб эта бошлади.

Айни пайтда табақавий имтиёзларга барҳам берилиб, фуқаролик ҳуқуқларининг пайдо бўлиши фуқаролик жамияти шаклланишининг муҳим омили сифатида гавдаланди. Шахснинг ҳуқуқ ва эркинликларини таъминловчи ҳуқуқий давлат фуқаролик жамиятининг сиёсий негизи бўлиб хизмат қилади.

Жамият ҳаётининг турли томонларини акс эттирувчи “ҳуқуқий давлат” ва “фуқаролик жамияти” тушунчалари гуруҳлар, индивидлар, жамиятнинг умумий аҳамиятга молик манфаатларини ифодалайди.

Фуқаролик жамияти очик ижтимоий тузилма бўлиб, сўз эркинлиги, шу жумладан, танқид қилиш эркинлиги, ошкоралик, ҳар хил ахборотлар олиш эркинлиги, эркин кириш ва чиқиш ҳуқуқи, бошқа мамлакатлар билан кенг миқёсда, доимий асосда ахборот, таълим технологиялари алмашинуви, чет давлатлар ва жамоат ташкилотлари билан маданий ва илмий ҳамкорлик, халқаро ҳуқуқ принциплари ва нормаларига мувофиқ халқаро хорижий бирлашмалар фаолиятига кўмаклашиш таъминланади. Инсонпарварлик тамойилларига содиқ, дунё миқёсидаги шундай тузилмалар билан ўзаро алоқада очик бўлиши керак.

Шу билан бирга, фуқаролик жамияти мураккаб таркибли ва плуралистик тизим. Табиийки, ҳар қандай ижтимоий организм тизимнинг муайян хоссалари мажмуига эга бўлади, бироқ фуқаролик жамиятига уларнинг тўлиқлиги, барқарорлиги ва самаралилиги хосдир. Ранг-баранг ижтимоий шакллар ва институтлар (касаба уюшмалари, партиялар, бирлашмалар, тадбиркорлар, клублар ва ҳ.к.)нинг мавжудлиги индивидларнинг турли туман эҳтиёжлари ва манфаатларини ифодалаш ва рўёбга чиқариш, одамзотнинг барча қобилиятларини намоён этиш имконини беради.

Фуқаролик жамияти ўзини ўзи ривожлантирувчи ва ўзини ўзи бошқарувчи тизим. Индивидлар ҳар хил ташкилотларга бирлашиб, бир-бири билан ранг-баранг муносабатлар ўрнатиб, ўзларининг баъзан қарама-қарши манфаатларини рўёбга чиқариб, жамият сиёсий ҳокимият

кучига эга бўлган давлатнинг аралашувисиз уйғун ва изчил ривожланишини таъминлайдилар. Фуқаролик жамияти ўзининг давлатдан мустақил ўзини ўзи ривожлантириш ички манбаларига эгадир.

Фуқаролик жамияти ҳуқуқий демократик давлат билан уйғунликда яшайди. Бу ерда инсон ва фуқаронинг табиий ва ўзлаштирилган ҳуқуқларини тан олиш, таъминлаш ва ҳимоя қилиш боғловчи омил сифатида амал қилади.

Фуқаролик жамиятининг асосий унсури айрим шахс бўлса, фуқаролик жамияти институтлари, ташкилотлар, гуруҳлар ва ҳоказолар уни шакллантирувчи омиллардир. Ҳуқуқий давлатни фуқаролик жамияти ривожланишининг натижаси ва унинг ўзини ўзи янада такомиллаштириши омили деб ҳисоблаш мумкин.

Ҳуқуқий давлатда ҳокимият ҳуқуқ нормаларига биноан иш кўради. Бу меъёрларни бузиш, бекор қилиш ёки чеклашга олиб бормайди. Фуқаролар ва уларнинг бирлашмаларининг узвий табиий-тарихий ҳуқуқларини эътироф этади.

Фуқаролик жамиятининг хавфсизлиги ижтимоий адолат, давлат билан ўзаро муносабатларда фуқароларнинг ва умуман жамиятнинг ҳуқуқлари, қонунийлик тартиби, фуқароларнинг иқтисодий фаровонлиги, демократик плюрализм, жамиятнинг очиклиги, фуқаролик жамиятининг миллий жиҳатдан муайянлиги билан тавсифланади.

Фуқаролик жамиятининг асосий қадриятларини оила, мулк, шахс, эркинлик, ҳуқуқ, маънавият, тартиб, давлатчилик ташкил этади. Мулк ҳар доим шахс ва бутун жамият эркинлигининг бош омили сифатида амал қилади. Мулкка нисбатан ҳурмат мавжуд бўлмаган жойда шахсга нисбатан ҳурмат ҳам мавжуд бўлмайди.

Фуқаролик жамиятининг асосий белгилари эркин индивидлар уюшмаси, ўзаро ҳамкорликка асосланган ижтимоий тузилма, мураккаб тузилишга эга бўлган плюратилстик тизим, ўзини ўзи ривожлантирадиган ва ўзини ўзи бошқарадиган тизим. Фуқаролик жамиятининг энг муҳим омиллари:

- иқтисодий эркинлик, мулк шакллариининг ранг-баранглиги, бозор муносабатлари;
- инсон ва фуқаронинг табиий ҳуқуқларини сўзсиз эътироф этиш ва ҳимоя қилиш;
- ҳокимиятнинг қонунийлиги ва демократик хусусияти;
- қонун ва одил суд олдида ҳамманинг тенглиги, ҳар бир шахснинг юридик жиҳатдан ишончли ҳимояланганлиги;
- ҳокимиятнинг учга бўлиниши ва ҳокимиятларнинг ўзаро алоқаси принципага асосланган ҳуқуқий давлат;
- сиёсий ва мафкуравий плюрализм, конструктив муҳолифатнинг мавжудлиги;
- сўз ва матбуот эркинлиги, оммавий ахборот воситаларининг мустақиллиги;
- фуқароларнинг шахсий ҳаётига давлатнинг аралашмаслиги, уларнинг ўзаро мажбуриятлари ва бурчлари;
- синфий ва миллий тотувлик, ижтимоий шерикчилик;
- одамларнинг муносиб турмуш даражасини таъминловчи самарали ижтимоий сиёсат.

Фуқаролик жамияти қуйидаги тамойилларга таяниб фаолият кўрсатади:

сиёсий соҳада ҳамма одамларнинг ҳуқуқ ва эркинликларининг тенглиги;

бутун жаҳон ҳамжамятида юридик кучга эга бўлган қонунлар асосида фуқаролар ҳуқуқ ва эркинликларини кафолатланган ҳуқуқий ҳимояси;

индивидларни мулкка эга бўлиш ва ҳалол меҳнати учун адолатли ҳақ олиш ҳуқуқига асосланган иқтисодий мустақиллиги;

қонун билан кафолатланган фуқароларни манфаатлари, касбий белгилари бўйича давлатдан ва партиядан мустақил ижтимоий бирлашмаларга бирлашиш имкониятлари;

партия ва фуқаролик ҳаракатларини ташкил этишда фуқароларнинг эркинлиги;

фуқароларни эркин, маданиятли, маънавий ва ижтимоий фаол, жамият аъзоларини қонун олдида маъсулиятли қилиб шакллантирадиган фан, маданият, таълим ва тарбия учун зарурий моддий ва бошқа шароитларни яратиш;

фақат қонун билан чекланган давлат сензурасидан ташқари ОАВ яратиш ва фаолият юргизиш эркинлиги;

давлат ва фуқаролик жамияти ўртасидаги муносабатни барқарорлаштирадиган механизмни (консенсус механизми) мавжудлиги, ҳамда фуқаролик жамиятини ишлашини давлат органлари томонидан хавфсизлигини таъминланиши. Бу механизм, расмий бўладими, норасмий бўладими, у ўз ичига қонуний актларни, халқ вакилларини демократик сайлов билан ҳокимиятнинг, ўз-ўзини бошқариш турли органлари ва ҳ.к. тайинлаш кабиларни олади.

Фуқаролик жамияти шахс эркинлигисиз бўлмайди. Эркинлик меъёрий кўринишга эга бўлгани учун бир томондан инсон эркинликка унинг норматив талабларига бўйсунуш қобилияти натижасида эга бўлади, бошқа томондан, шахс эркинлиги борлигининг ташқи шакли бу эркинликнинг чегараларини белгиловчи ижтимоий меъёрлар ҳисобланишини англатади. Жамият учун ёки инсоннинг ўзи учун энг муҳим аҳамиятга эга, энг асосий ҳисобланган соҳалардагина давлатнинг ўзи эркинликнинг ўлчовини, меъёрини белгилаб беради. Бу эса ҳуқуқий меъёрлар, қонунлар, конституция ёрдамида амалга оширилади.

Фуқаролик жамиятида инсон ва фуқаро ҳуқуқлари қуйидаги муҳим функцияларни бажариш доирасида намоён бўлади:

Қонунчилик асосида у инсоннинг ва фуқароларнинг шахсий ҳаёт соҳасини давлат ва бошқа сиёсий структураларнинг асосланмаган қатъий мувофиқлаштиришидан ҳимоя қилишни таъминлайди.

Фуқаролик жамияти уюшмалари асосида ижтимоий (жамоатчилик) ўзини - ўзи бошқариш механизмлари яратилади ва ривожлантирилади.

Фуқаролик жамияти давлатнинг демократик органларини, унинг барча сиёсий тизимини шаклланиши ва содда кўринишга келтиришга қўмак беради; бунинг учун у турли воситалардан фойдаланади: сайлов кампанияларидан ва референдумларда, норозилик ёки бу ёки у талабларини қўллаб-қувватлаш аксияларида, у ёки бу масаладар бўйича жамиятни шакллантиришда фаол иштирок этиш.

Фуқаролик жамиятининг институтлари ва ташкилотлари инсонларнинг ҳуқуқ ва эркинликларини реал кафолатлашларини давлат ва жамоат ишларида тенг иштирокини таъминлашга қаратилади.

Фуқаролик жамияти ўз аъзоларига нисбатан ижтимоий назорат функцияларини бажаради: у давлатдан мустақил равишда восита ва санкциялар беришга эга бўлиши мумкинки, уларнинг ёрдамида у индивидларнинг жамоа талабларига риоя қилишларига мажбурлаши, фуқароларнинг ижтимоийлашувини ва тарбияланишини таъминланиши мумкин.

Фуқаролик жамияти коммуникациявий вазифани бажаради. Бу жамият давлат органларига фуқароларнинг конкрет манфаатлари ҳақида хабардор қилиб туради, бу

манфаатларни амалга ошириш эса фақат давлат органларига тегишли бўлади.

Фуқаролик жамияти ўз институтлари ва ташкилотлари билан барқарорлаштирувчи вазифасини бажаради. У давлат олдида танг ҳолатлар юз берганида унга ёрдам беради, жамият ҳаётини яшашини таъминлайдиган мустаҳкам структураларини яратади.

Фуқаролик жамиятининг шаклланиши ва ривожланиши бўйича кўйидаги хулосалар чиқариш мумкин:

фуқаролик жамиятининг шаклланиши узоқ давом этиб келаётган мураккаб тарихий жараён. Фуқаролик жамиятининг баъзи бир унсурлари қадимги Юнонистон ва Римда намоён бўлган вақтдан бошлаб Янги даврда шаклланиш элементлари ва ҳозирги кунда бир бутун тизим сифатида пайдо бўлиши.

фуқаролик жамияти ғояси инсониятнинг антик даврдан бери давом этиб келаётган тафаккури маҳсулидир. Авесто манбаларида, Қадимги юнон файласуфлари фикрларида, Ўрта аср мутафаккирларининг қарашларида, Уйғониш ва Реформатсия даври ғоялари ва бутун ХХИ аср жаҳон ҳамжамяти томонидан умуминсоний ижтимоий маданий қадриятлар сифатида эътироф этилиши. Ҳар қандай фан, ўз моҳиятига кўра умумбашарийдир. Дунёнинг барча халқлари катта-кичиклигидан қатъий назар унинг ривожига турли хил даражада ҳиссаларни қўшган. Шу нуқтаи назардан фуқаролик жамиятининг шаклланиши ва ривожланиши тўғрисидаги ғоялар қарашларни бир ёқлама бўрттириш ёки камситиш хато ёндашувдир.

фуқаролик жамиятининг хусусиятлари, белгилари, тамойиллари ҳар қандай ижтимоий тизимда мавжуд, бироқ уларнинг ривожланиш даражаси турли хил бўлиши мумкин.

фуқаролик жамиятининг шаклланиш жараёнлари ҳолати ижтимоий ҳаётнинг ва давлат ҳокимияти бошқарувининг демократлашиб бориши билан биргаликда кечади.

фуқаролик жамиятининг шаклланиши ҳуқуқий давлатчиликнинг шаклланиш жараёни билан тақомиллашиб боради.

ҳар бир давлатда фуқаролик жамиятининг ривожланиши ва шаклланиши ўзига хос ментал хусусиятларга

боғлиқ ҳолда тадрижий ривожланиш моделлари асосида амалга оширилади.

ҳозирги дунёда бирон бир мамлакат фуқаролик жамият қуришнинг этуқлик босқичига эришмаган ва бу узулуксиз давом этадиган жараён.

Фуқаролик жамияти концепциясининг Европача анъанаси антик илдишларга эга. Мазкур анъананинг мазмун-моҳияти нафақат сиёсий, балки шахсни ижтимоий-ахлоқий нуқтаи назардан баҳолаш билан боғлиқ эди. Бунга Афлотун, Арасту, Ситсерон каби мутафаккирларнинг қарашларини мисол келтириш мумкин.

Фуқаролик жамиятининг антик концептуал таълимотида жамият ва давлат феноменларининг узвийлиги қадимги юнон дунёқарашининг муҳим хусусиятларидан бири ҳисобланади. Хусусан, Афлотуннинг (мил. ав. 427-347 й.) “Давлат” диалогиди фуқароларнинг шахсий ва ижтимоий ҳаётини ажратишга эмас, ижтимоий соҳани ҳозиргидек замонавий талқинда, сиёсий фаоллик сифатида тушунилган. Бунда жамият ҳаётининг сиёсий жиҳатлари, фуқаролик жамияти тизимининг умумий тавсифи сифатида намоён бўлади. Фуқаролик жамияти ғоясининг кейинги ривож Афлотуннинг шогирди Арасту (мил. ав. 384-322 й.) ижоди билан боғлиқ. Арасту ўзининг назарий ишланмаларида давлат ҳақидаги мавҳум ғояга таянишни эмас, жумладан Афлотунга хос бўлган, балки воқеъликда мавжуд бўлган бошқарув шакллари солиштириш, қиёсий таҳлил қилишга таянади, бу жиҳат эса унинг давлат ва жамият борасидаги позитивиясини конкретроқ бўлишини таъминлайди.

Платондан фарқли ўлароқ, Аристотел хусусий мулкни эътироф этади. Чунки у инсон табиатига хос бўлиб, одамлар ўртасидаги ўзаро муносабатларнинг ўзагини ташкил этади. Аристотел мулк ҳуқуқининг фуқаролар фаровонлиги, давлат ва унинг бошқарув шакли ҳавфсизлиги, қонунчилик органи ишида фуқароларнинг иштироки механизми, лавозимларни эгаллаш ва вазифаларни бажариш, суд органлари ишидаги ролини атрофича ўрганган. Ҳуқуқни Аристотел адолат мезони деб ҳисоблаган ва унга ижтимоий муносабатларни тартибга солувчи ва айни вақтда уларни муҳофаза қилувчи институт сифатида ёндашган.

АДАБИЁТЛАР

1. Каримов И.А. Биз келажакимизни уз қулимиз билан қураимиз. Тошкент, “Ўзбекистон”, 1999, 7-жилд. 304-б.
2. Шавкат Мирзиёев: Маҳалла раиси - Президентнинг қуйи бўғиндаги устуни <https://president.uz/uz/lists/view/4086>
3. Мирзиёев Ш.М. Янги 2022-йилни Ўзбекистонда “Инсон қадрини улуғлаш ва фаол маҳалла йили” деб эълон қилиниши. - <https://www.gazeta.uz/uz/2021/12/31/2022-year/>.
4. Президент Шавкат Мирзиёевнинг матбуот ва оммавий ахборот воситалари ходимларига табриги. 27.06.2022. <https://president.uz/uz/lists/view/5294>
5. Вебер М. Основные социологические понятия // Избранные произведения. – М.: Прогресс, 1990. – С. 602–644.
6. Девисон В.Ф. “Жамоатчилик фикри” Британия энтсиклопедияси, 2020-йил 13-ноябрь <https://www.britannica.com/topic/public-opinion>.
7. Токвиль А. Демократия в Америке: Пер. с франц. / Предисл. Гарольда Дж. Ласки. – М.: Прогресс, 1992.
8. Маркс К., Энгельс Ф. Сочинения. Изд. 2-е. Т. 23. – С. 770.
9. Каримов И.А. Биз келажакимизни уз қулимиз билан қураимиз. Тошкент, “Ўзбекистон”, 1999, 7-жилд. 304-б.
10. Маркс К. Капитал: критика политической экономии Т: 1. Государственное издательство политической литературы. 1952. 797 с.
11. Гайдученко Т.Н. Профессиональное образование как фактор формирования и развития социальной группы предпринимателей. Автореф. дис. докт. соц. наук Т.Н. Гайдученко; Казан: 2003. С.14.



УДК:396,832

Малоҳат САИДУРАТОВА,
Урганч давлат университети катта ўқитувчиси
E-mail: malohatsaidmuratova@gmail.com

ТДПУ профессори З.Т.Нишанова тақризи асосида

БИЛИМ ОЛИШ ОРҚАЛИ КИТОБ ЎҚИШГА ҚИЗИҚИШНИ ШАКЛЛАНТИРИШ

Аннотация

Ушбу мақолада ўзбек олимлари томонидан билим олиш орқали балаларда китобга меҳр қўйиш, билиш тафаккурни шаклланиши муаммо доирасида амалга оширилган ишларни таҳлили келтирилган.

Калит сўзлар: Давлат, оила, китобсеварлик, билим, илм олиш, тафаккур.

ФОРМИРУЕТ ИНТЕРЕС К ЧТЕНИЮ КНИГ ПУТЕМ ПРИОБРЕТЕНИЯ ЗНАНИЙ

Аннотация

В данной статье представлен анализ работы, проведенной узбекскими учеными в рамках проблемы любви детей к книге и формирования познавательного мышления посредством образования.

Ключевые слова: Государство, семья, любовь к книге, знания, обучение, мышление.

FORMATION OF INTEREST IN READING BOOKS BY ACQUIRING KNOWLEDGE

Abstract

In this state, the analysis of work carried out by Uzbek students in the framework of the problem of children's love and the formation of cognitive thinking through education is presented.

Key words: State, family, love of books, knowledge, learning, thinking.

Кириш. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2017-йил 13-сентябрдаги ПҚ-3271-сонли “Китоб махсулотларини нашр этиш ва тарқатиш тизимини ривожлантириш, китоб мутолааси ва китобхонлик маданиятини ошириш ҳамда тарғиб қилиш бўйича комплекс чора-тадбирлар дастури тўғрисида” ги қарори ҳамда китобхонлик бўйича олиб борилаётган кенг қўламли ишлар, жумладан, “Энг яхши китобхон”, шиори остида танловлар ўтказилиши китобга, маънавиятга юксак эътибор намунасидир [Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2017 йил 13 сентябрдаги ПҚ-3271-сонли “Китоб махсулотларини нашр этиш ва тарқатиш тизимини ривожлантириш, китоб мутолааси ва китобхонлик маданиятини ошириш ҳамда тарғиб қилиш бўйича комплекс чора-тадбирлар дастури тўғрисида” ги Қарори. //«Халқ сўзи» 2017. 14 сентябр. 184 (6878). [1]

Ўзбекистон республикасининг биринчи Президенти И.А.Каримов “Юксак маънавият – енгилмас куч” асарида “Одобли, билимдон ва ақлли, меҳнатсевар, иймон эътиқодли фарзанд нафақат ота-онанинг, балки бутун жамиятнинг энг катта бойлигидир. Барчамиз яхши биламизки, келажак авлод ҳақида қайғуриш, соғлом, баркамол насли тарбиялаб етиштиришга интилиш бизнинг миллий хусусиятимиздир. Бу муқаддас заминда яшаётган ҳар қайси инсон ўз фарзандининг бахту саодати, фазлу камолини кўриш учун бутун ҳаёти давомида курашади, меҳнат қилади. Бола туғилган кунидан бошлаб балага тарбия берилади шу тарбия асосида тушунча ва билимлар оиладан шаклланиб бошлайди. Оиланинг ўзига хос анъаналар, қадриятлар, урф-одатлари боланинг имунитетини шакллантиради. Энг муҳими, фарзандлар оилавий ҳаёт мактаби орқали жамият талабларини англайди, ҳис этади, дея таъкидлаган фикрлари бевосита келажакимиз яратувчилари бўлган ёшларга алоҳида эътибор ҳисобланади [2]. Шу ўринда таъкидлаш жоизки бола тарбиясини тўғри амалга ошириш учун фарзандларни билим олишга, китобга муҳаббат, китобсеварликни ҳам тарбиялаши лозим. Китобга болаликдан меҳр қўйган болада китобхонлик маданияти эрта шаклланиб боради,

дунёкараши кенгайди. Зеро, китоб ўқиш инсонларни етуқликка етаклайди.

Мана шунинг учун ҳам бугунги кунда биз бу масалага жиддий эътибор бермоқдамиз. Тарбия соҳаси ислохоти бугунги энг муҳим ва эртанги тақдиримизни ҳал қилувчи муаммога айланмоқда.

Буни чуқур англаб етган давлат, жамият, оила бутун униб-ўсиб келаётган фарзандларининг ҳар томонлама баракамол авлод бўлиб, ҳаётга кириб боришини ўзи учун энг улуг, керак бўлса, энг муқаддас деб билади. Шахс камолотини таъминлайдиган, асосий механизмлар сирасига қирадиган ижтимоий муҳит, таълим-тарбия, ирсий хусусиятларни киритиш мумкин.

Шунингдек, психологик нуқтаи назардан, бола шахс шаклланишида интеллектуал соҳанинг ривожланганлиги муҳим ҳисобланади. Шу боис, кичик мактаб ёшидаги болаларда ва ўсмирларда китоб ўқишга қизиқишни шакллантириш лозим. Мазкур масалаларни ўрганиш тадқиқот ишимизнинг долзарблигини белгилаб беради.

Мавзуга оид адабиётлар таҳлили: Инсоният яралибдики, дунёни, ўзини кураб турган олам ҳақида тобора кўпроқ нарсаларни билишга интилиб келган. Билимларни эгалланиши натижасида янгидан-янги, мураккаб ихтиро ва кашфиятларни яратилишига олиб келмоқда. Бугунги кунгача инсоният томонидан яратилган барча ихтиролар уларнинг оламдаги нарсаси ва ҳодисаларни билмасликдан билишга қараб, кам билишдан тобора кўпроқ билишга томон бўлган эҳтиёжлари, қизиқишлари, ҳамиша интилиб яшашга ундаган бу жараён – билиш жараёнининг нима эканлигини тўла англаб олиш жуда муҳимдир.

Билиш нима? Билиш – моддий оламнинг инсон онгига инъикос этиш жараёнидир. Яъни:

объектив олам бизнинг сезги ва тасаввурларимизга боғлиқ бўлмаган ҳолда ундан ташқарида мавжуд. Объектив олам инсон сезги ва тасаввурларнинг манбаи;

инсон дунё ва унинг ривожланиш қонуниятларини билиши мумкин.

Инсон сезги, тасаввур ва тушунчаларида ўзига боғлиқ бўлмаган ташқи олам мазмунини инъикос эттиради.

Хар қандай инсон комил шахс бўлиб етишида албатта билим, илм олиш, тафаккурини бойитиш, маънавий, ахлокий ривожланиш муҳим ҳисобланиб, бундай сифатлар савод чиқариш, илмий ва бадиий асарлар ўқиш орқали амалга ошади. Юсуф Хос Ҳожиб фикрича, давлатни идора қилишда ҳамма нарса оддий даражада бўлиши, уни бошқарувчилар донишманд ва маърифатли кишилар бўлиб, ўзларининг ақл-идроклари, билим-илми бўлиши билан ажралиб туришлари ва айни вақтда ўзларидаги билимларни ўзгаларга етказишлари ва уларни баҳраманд этишлари мақсадга мувофиқлигини уқтиради. Худди мана шунда хар қандай давлатнинг тарбиявий функцияси намоён бўлишини айтади[10]. Демак, бундан келиб чиқиб, тафаккурни кенглиги ўз-ўзидан интеллектуал соҳани ривожланишига, бу бўлса эмоционал ва ҳулқий соҳага ҳам ўз таъсирини кўрсатишини англашимиз мумкин. Тафаккур кенглиги бевосита китоб мутаола қилиш, ички нутқни ривожлантириш билан боғлиқ бўлади.

Билиш тафаккур ўрганаётган предметга яқинлашуви, фикрнинг билмасликдан билишга қараб, тўла ва мукамал бўлмаган билимдан, тўла ва мукамал билимга қараб ҳаракат қилишдан иборат чексиз жараёни ташкил этади. Билиш эскириб қолган назарияни янги назариялар билан алмаштириб эски назарияларни янада аниқлаб, олға қараб боради ҳамда воқеликнинг тобора янгидан-янги томонларини очади.

Билиш икки босқичдан: жонли мушоҳада (сезиш) ва мавҳум тафаккур (фикрлар)дан иборатдир.

Билишнинг бошланғич босқичи жонли мушоҳада, яъни объект дунёнинг буюмларини бевосита сезги аъзолари ёрдамида акс эттиришдир.

Ибн Синонинг фикрича, “сезиш – бу шундай таъсирки, у ташқи нарсаларнинг ўзи бўлмай, балки бизнинг ҳисларимизда вужудга келади. ҳис моддий образнинг ойнаси бўлиб, моддий шаклларнинг бўйи, эни билан бирга ифодаланганлиги сабабли, уларни инсон моддий асосиз инъикос эта олмайди ва жисмларни билолмайди”[3].

психологларнинг таъкидлашича, жонли мушоҳаданинг билишдаги роли муҳимдир, уни ёрдамида дунё ҳақида аниқ билимлар келиб чиқади. Лекин билишнинг бу босқичи маълум даражада чекланган. Бу босқичда нарса ва ҳодисаларнинг баъзи бир томонлари ва хусусиятларинигина билиб олиш мумкин.

Мавҳум тафаккур ҳиссий билишдан сифат жиҳатдан фарқ қилади. У бевосита аниқ битта предметдан узоклашиб, бир нечтасига хос бўлган умумийликнинг моҳиятини очиб беради. Бундан ташқари сезги образлари ташқи оламнинг инъикосидир, яъни ташқи олам сезгимизга қандай таъсир қилса, шундайлигича акс этилади. Тафаккур образларида эса бошқачароқ, унда ташқи оламнинг ички моҳияти, алоқа ва боғланишлари ҳамда ривожланиш қонун ва қонуниятлари акс этади. Психологияга доир китобларда тафаккур образларининг учта асосий хусусияти ажратиб кўрсатилади:

Тафаккур образлари мавҳумлик хусусиятга эга, яъни тафаккур образлари ҳосил бўлиши учун ифода қилинаётган ташқи олам бевосита кўз олдимизда бўлиши шарт эмас.

Тафаккур образлари умумлашган хусусиятга эга. Умумлаштириш эса бизга таъсир этаётган нарса ёки ҳодисанинг барча сифат ва хусусиятларидаги муҳим бўлмаган иккинчи даражаларни четга суриб, асосий томонларини таққослаш ва фикран бир-бири билан боғлашдир.

Тафаккур образлари тил билан боғлиқдир. Билиш жараёнида пайдо бўлаётган хар бир тушунча тил орқали рўёбга чиқадиган онг омилдир.

Билишнинг фалсафий талқинига асосланиб, унинг педагогик-психологик талқинига эътибор қаратамиз.

Билиш-психологик акс этиш жараёни, билимлар ҳосил бўлиши ва ўзлаштирилишининг таъминловчиси[4]. Билиш психик билиш жараёнлари орқали амалга ошади: сезги, идрок, диққат, тасаввур, хотира, тафаккур, ҳаёл, нутқ. Билишнинг мақсади эса ҳолис ҳақиқатга эришиш бўла олади. Билишнинг вазифаси – умумий тарзда жамият ривожининг муҳим жиҳатларини очиб беришдан иборат. Бу эса амалий фаолият натижасида яъни билишнинг иккинчи даражасини келтириб чиқаради. Ҳиссий ва мантикий билишни бир қаторда қўйиш мумкин ҳолда, уларни бир-бирдан ажратган ҳолда тасаввур қилиш мумкин эмас. Чунки улар бир-бирига ўтади, шу билан бирга, бир-бирини тўлдириб туради. Билиш жараёни олдиндан билиш, ҳаёл қилиш, тахмин қилиш каби фикрлаш фаолияти билан қўшилиб амалий фаолиятда олдин қўлга киритилган ютуқларга, билимларга таяниб нарса-ҳодисаларнинг кейинги ривожини аниқлаш имконини беради.

Энди эса, фаолият тушунчасига аниқлик киритишимиз зарур. Чунки биз юқорида билиш нима эканлигини ҳам педагогик, ҳам психологик таърифини беришга ҳаракат қилдик.

Агар ҳайвонларнинг ҳатти-ҳаракати бутунлай атроф-муҳит билан чамбарчас боғланса, кишининг фаоллиги унинг илк ёшлариданоқ бутун инсоният таърибаси ва жамият талабларига кўра йўналтириб борилади. Ҳатти-ҳаракатнинг бу тури шу қадар ўзига ҳосликка эгаки, психологияда уни аташ учун махсус атама – фаолият атамаси қўлланилади. Фаолият эҳтиёж, мотив (сабаб)лар асосида келиб чиқиб маълум бир мақсадга йўналган бўлади. Педагогик ва психологик адабиётларда фаолият тушунчасига шундай таъриф берилади: фаолият – кишининг анланган мақсад билан бошқарилиб туриладиган ички (психик) ва ташқи (жисмоний) фаоллигидир[3].

Фаолият – воқеликка нисбатан фаол муносабат билдиришнинг шундай бир шаклидирки, у орқали киши билан уни қуршаб турган олам ўртасида реал боғланиш кишиларга таъсир кўрсатади.

Таҳлил ва натижалар. Қомусий олим Абу Али ибн Сино камолотга эришишнинг биринчи мезони сифатида маърифатни эгаллашни таъкидлайди. Зеро, маърифатли киши жасур, ўлимдан қўрқмайдиган, фақат ҳақиқатни билиш учун ҳаракат қиладиган бўлади, дейди. Билимсиз кишилар жоҳил бўлади, улар ҳақиқатни била олмайдилар. Бундай кишилардан илмий фикрларни сир тутиш кераклигини таъкидлайди[11]. Ибн Сино ҳақиқатни билиш учун билимга эга бўлиш кераклиги, лекин эгалланган хар қандай билим ҳам ҳақиқатга олиб келавермаслиги, инсон эгаллаётган билимининг ҳақиқийлигини билиш учун мантиққа эга бўлиши кераклигини уқтиради. Айнан шунинг учун ҳам Ибн Сино таълимотида билимларни эгаллашда мантикий тафаккур, шахсий кузатиш ҳамда таърибаларга таяниш лозимлигини айтади. Унинг фикрича, инсон тафаккури, ақлининг кучи бир неча босқичдан иборат бўлиб, ақлий куч аввало тинч ҳолатда бўлиши, болалардаги ёзишни, ўқишни ўрганишдаги ақлий кучлар шунга мисол бўлишини айтади. Абу Али ибн Сино бу кучларни моддий кучлар деб номлаган, яъни мазкур кучларни ташқи мотивлар деб тушунса бўлади. Кейинчалик мазкур кучлар ҳаракатга айланади, яъни булар меҳнат қуроли самараси бўлиб, меҳнат қуроли орқали ҳаракатга келади ҳамда намоён бўлади. Бу ҳолатни бола ёзишни хоҳлаб турибди – ю, аммо ёзиш қуроли бўлган қаламнинг йўқлиги билан изохлаш мумкин. Бу

икки кучни Ибн Сино рўёбга чиқариш мумкин бўлган куч, деб атаган. Ниҳоят, учинчи куч эса болада ироданинг етишмаслиги билан тушунтирилиб берилади. Яъни шундай ҳолатнинг кучи бор, аммо унинг ишлатишга, рўёбга чиқаришга болада ирода етишмайди. Аллома назарида, шу каби уч ҳолат билан ақл, билим олиш изоҳланади.

Абу Али ибн Сино “Хайй ибн Яқзон” киссасида киши оламни ва одамни билиши учун мантиқ илмидан хабардор бўлиши кераклиги, бу илм моҳиятан фаросат илми бўлиб, инсон ўз ҳаётида нима яхши-ю, нима ёмон эканини мантикий фикрлаш орқали аниқлаштириб олиши мумкинлигини уқтиради. Қиссада уйғоқ – фаол ақл ёрдамида инсон аста-секин барча иллатлардан фориғ бўла бориши, фазилатлар эгасига айланиши таъкидланади, ҳиссиётга нисбатан ақлнинг устувор аҳамиятга эгаллиги фалсафий-мажозий шаклда ифодаланади[12]. Инсонларнинг феъл-атворини билиш учун ўқиш, фикрларнинг ўткир бўлиши учун фаросат илмидан хабардор бўлиш керак. Илм ўрганишга Фаробий мусикий фаласафий илм билан даъват этган бўлса, ибн Сино мантиқ илми орқали даъват этган.

Абу Али ибн Сино болаларни ўқиш, таълим олишларига маъсулият билан қараш тарафдорларидан бўлган. У бола 6 ёшига етгач, муаллимга билим олиш учун топширилишини айтиб ўтади. Ҳозирда ҳам болаларнинг

6,7 ёшларидан мактабга қабул қилиниши ибн Синонинг ўша даврдаги ғояларининг нақадар аҳамиятли эканлигидан далолат беради, шу ёшда болаларни ўқишга бўлган қизиқиши уни ўқишга бўлган иштиёқини кучайтириши мумкин. Унинг фикрича, болаларга таълим аста-секинлик билан берилиши жоиз. Уни бирданига китобга боғлаб қўймаслик лозим, дейди аллома. Абу Али ибн Сино кишининг яшашга қобил бўлиши ва бекорга жабр кўрмаслиги учун уларга ўқишга бўлган ижобий мотивларини сўндирмасликка ундайди ва бу борада ўқитувчининг роли катта эканлигини алоҳида таъкидлайди. Демак, бу ўринда болаларни китоб ўқишга қизиқишини шакллантиришда турли ўйинлар билан қизиқтириш муҳим аҳамият касб этади.

Хулоса ва таклифлар. Агар бола китоб ўқишга, мушоада қилишга ўзининг шахсий ҳиссасини қўшса, билимга, бу сабабсиз юзага келмаган. Унда билимларни ўрганишга қизиқиш ҳосил қилинган. Бу дастлаб болада ота-онанинг ёрдами билан амалий фаолият жараёнида ўзлаштирилса, сўнгра махсус кишилар – ўқитувчилар кўмагида ривожланиб боради. Мактабдаги таълим йиллари – бу инсоният тажрибасининг илмий, ахлоқий, эстетик ва бошқа шакллари ўзлаштириш учун катта аҳамиятга эга бўлган ёш давридир. Боланинг келажаги ҳам ана шу ижтимоий тажрибани ўзлаштирганига, қандай ўзлаштирганига боғлиқ бўлади.

АДАБИЁТЛАР

1. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2017-йил 13-сентябрдаги ПҚ-3271-сонли “Китоб маҳсулотларини нашр этиш ва тарқатиш тизимини ривожлантириш, китоб мутолааси ва китобхонлик маданиятини ошириш ҳамда тарғиб қилиш бўйича комплекс чора-тадбирлар дастури тўғрисида” ги Қарори. //«Халқ сўзи» 2017. 14 сентябр. 184 (6878).
2. Каримов И.А. Юксак маънавият-енгилмас куч. - Т.: Маънавият, 2013. - 176 б.
3. Умумий психология. Т., “Ўқитувчи”, 1992, 104 – бет
4. Современный словарь по педагогике Мн., 2001, с. 591.
5. Азизхўжаева Н.Н. Педагогик технология ва педагогик маҳорат. – Тошкент, 2003.
6. Аристова Л.П. Активность умения школьников. – Минск, 1975.
7. Баркамол авлод – Ўзбекистон тараққиётининг пойдевори. – Тошкент: Шарқ, 1998.
8. Вагин А.А. Методика преподавания истории в средней школе. – М.: Просвещение, 1968.
9. Венгер В., Поу П. Неужели я гений? – СПб.: Питер-Пресс, 1997.
10. Саидов М. Юсуф Хос Ҳожибнинг ўрта аср маданияти тарихида тутган ўрни / Монография. – Тошкент: “Навруз нашриёти” ДУК, 2013, 135 б. 48-бет.
11. Ирисов А. Абу Али ибн Синонинг фалсафий қарашлари. - Тошкент: Ўқитувчи, 1994.- Б.: 47.
12. <https://kh-davron.uz/kutubxona/multimedia/abu-ali-ibn-sino-hayy-ibn-yaqzon-uyg'oq-ogli-tirik-falsafiy-qissa.html>.



УДК:796.017.27.

Шухрат СУЛТОНОВ,
Гулистон давлат университети ўқитувчиси
E-mail:Shuhratsultonov84@gmail.com

ЎзДЖТСУ профессори, н.ф.д С.С. Тажибаев тақризи асосида

14-15 YOSHLI ERKIN KURASHCHILARNING MASHG'ULOTLAR REJASINI HAFTALIK MIKROSIKILLARDA SAMARALI TASHKIL QILISH METODIKASI

Аннотация

Makur maqolada boshlang'ich tayyorgarlik guruhida mashg'ulotlar olib borayotgan 14-15 yoshli erkin kurashchilarning haftalik mikrosikillarda mashg'ulotlar rejasini samarali tashkil etish metodikasi ishlab chiqiladi.

Kalit so'zlar: Erkin kurashchilar, mashg'ulot jarayonlari, tashkillashtirish, yuklamalar, haftalik sikl.

МЕТОДИКА ЭФФЕКТИВНОЙ ОРГАНИЗАЦИИ ТРЕНИРОВОЧНОГО ПЛАНА 14-15-ЛЕТНИХ БОРЦОВ В НЕДЕЛЬНЫХ МИКРОЦИКЛАХ

Аннотация

В данной статье разработана методика эффективной организации тренировочного плана в недельных микроциклах борцов вольного стиля 14-15 лет, занимающихся в группе начальной подготовки.

Ключевые слова: Борцы вольного стиля, тренировочные процессы, организация, нагрузки, недельный цикл.

METHODOLOGY OF EFFECTIVELY ORGANIZING THE TRAINING PLAN OF 14-15-YEAR-OLD Wrestlers IN WEEKLY MICROCYCLES

Annotation

In this article, the method of effective organization of training plan in weekly microcycles of 14-15-year-old freestyle wrestlers training in the primary training group is developed.

Key words: Free wrestlers, training processes, organization, uploads, weekly cycle.

Kirish. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining jismoniy tarbiya va sport sohasiga alohira e'tibor qaratayotganliklari yurtimizda sport turlari bo'yicha yangidan yangi chempionlarni yetishib chiqishiga zamin yaratmoqda. Mamlakatimiz sportchilarini xalqaro sport maydonlarida munosib ishtirok etishlarini ta'minlash, joylarda yoshlar orasida iqtidorli, istiqbolli sportchilarni tanlab olish, mashg'ulot jarayonlarini tizimli tashkillashtirish, yuqori malakali sportchilarni maqsadli tayyorlash kabi bir qator vazifalarini belgilab olish va rivojlantirish maskur sport turning yanada ravnaq topishiga hizmat qiladi.

Мавзуга оид адабиётларнинг таҳлили. Shu o'rinda o'quv-mashg'ulot gruxida shug'ullanuvchi 14-15 yoshli erkin kurashchilarning jismoniy tayyorgarlik jarayonlari davomida jismoniy sifat ko'rsatkichlarining rivojlanishi va samaradorligini oshirish, mashg'ulot yuklamalarini taqsimlash va rejalashtirish, musobaqalar muobaynida maxsus mashqlarni bajarish harakatlarini takomillashtirish hamda bu jarayonni boshqarish, funksional tahlil qilish bo'yicha birnecha tadqiqot ishlari olib borilgan. Ushbu yo'nalishda ilmiy darajada ega bo'lgan bir qator olimlar o'z ilmiy izlanishlarini olib borishgan. Jumladan: A.A.Ruziev, 2001; X.A.Sanosyan, S.L.Musaelyan, M.G.Agamyan, 2002 va boshqalar. Lekin, olib borilgan tadqiqot ishlariga qaramay o'quv-mashg'ulot guruxlaridagi erkin kurashchilarning jismoniy sifatlarini uzuluksizlikda barqaror rivojlanishi samaradorligini oshirish hamda uning nazariy va amaliy taxlilini amalga oshirish, mashg'ulot yuklamalarini taqsimlash va rejalashtirish yuzasidan ilmiy tadqiqot ishlarini olib borish izlanuvchilar nazaridan chetda qolganligini aytib o'tishimiz lozim. Turli tuman sport turlarida jismoniy sifatlarini texnik-taktik qobiliyatlarni rivojlantirishning ayrim jihatlarini mutaxassislarining ilmiy tadqiqot ishlari va uslubiy ishlarida keltirilgan, biroq, ushbu berilgan ma'lumotlarda erkin kurashchilar mashg'ulot jarayonlarini mikrosikillarda to'g'ri tashkillashtirish metodikasini ishlab chiqish orqali jismoniy sifatlar va

texnik-taktik qobiliyatlarni barqaror rivojlantirish mazmuni yoritib berilmagan.

Tadqiqotning maqsadi: 14-15 yoshli kurashchilarning haftalik mikrosikillarini ishlab chiqish.

Tadqiqotning vazifalari:

- 14 yoshli erkin kurashchilarning haftalik mikrosikillar davomida jismoniy rivojlanish darajalarini aniqlash.

- 15 yoshli erkin kurashchilarning haftalik mikrosikillar davomida jismoniy rivojlanish darajalarini aniqlash..

Tadqiqotning ob'ekti: 14-15 yoshli erkin kurashchilarning o'quv-mashg'ulot jarayonlari.

Tadqiqotning predmeti: 14-15 yoshli erkin kurashchilarning haftalik mikrosikillar davomida jismoniy ko'rsatkichlarini tadqiq qilish.

Tadqiqot usullari: Ilmiy-uslubiy adabiyotlar tahlili, pedagogik kuzatuv, pedagogik testlash, matematik-statistik tahlil.

Tadqiqotni tashkillashtirish: Guliston olimpiya zahiralari kolleji shug'ullanuvchi yosh kurashchilarning o'quv-mashg'ulotlari jarayonlari davomida o'tkazildi. Tajribalarimizda 14-15 yoshli erkin kurashchilar ishtirok etishdi (n=88).

O'tkazilgan tadqiqot natijalari va muhokamasi. O'quv-mashg'ulot guruhida shug'ullanuvchi 14-15 yoshli erkin kurashchilarning jismoniy tayyorgarlik jarayonlarida texnik-taktik xarakterlari samaradorligini oshirishga mashg'ulotlarni mikrosikillarda to'g'ri tashkil tilish orqali barqaror rivojlantirish metodikasini ishlab chiqish yuzasidan o'tkazilgan tadqiqot natijalari quyidagicha bo'ldi. Erkin kurash sport turi bilan mashg'ulotlar olib borayotgan sportchilarning yuksak natijalarni qo'lga kiritib mamlakatimiz sharfini munosib himoya qiladigan kurashchilarni tarbiyalash maqsadida o'quv-mashg'ulot gruxida shug'ullanuvchi 14-15 yoshli erkin kurashchilar uchun tuzulgan birinchi haftadagi mikrosikil mashg'ulot rejasiga quyidagicha. Haftaning boshida

47 % haftaning ikkinchi kunida 62 % ni va haftaning beshinchi juma kunida mashg'ulotning 78 % ni asosan kuch sifatini rivojlantiruvchi mashqlarga alohida urg'u beriladi. Haftaning chorshanba va yakshanba kunlariga kelib 14-15 yoshli erkin kurashchilarning jismonan tiklanishlari uchun dam olish kunlari joriy etiladi. Haftaning qolgan kundanidagi mashg'ulot rejalari ham xilmaxillik kuzatilmadi. Asosan o'rtacha kuchning aerob mashqlariga qaratilgan yuklamalarning 39% va 62% 1-haftaning Payshanba, Shanba kunlariga mo'ljallangan (1-jadvalga qarang).

14-15 yoshli erkin kurashchilarning ikkinchi haftadagi mikrotsikl mashg'ulot rejasini quyidagicha bo'lib haftaning boshida to'liq 78 %ni asosan o'rtacha quvvatli kuchga qaratilgan mashqlarga va to'liq o'rtacha quvvatli aerobik mashqlarga qaratiladi. Haftaning ikkinchi kunida mashg'ulot jarayoning 39% kuch jismoniy sifatini rivojlantirishga qaratilgan mashqlarga, 16% ni tezlik jismoniy sifatini rivojlantiruvchi mashqlar berildi yana 23 % ni texnika-taktikani rivojlantiruvchi mashqlarga e'tibor qaratildi. Haftaning uchinchi kunida yosh erkin kurashchilarga o'rtacha kuchning aerobik mashqlariga 47 %, 31 % esa asosan kuchga qaratilgan mashqlar berib boriladi. Yakuniy qismda tiklanuvchi mashqlarga o'tiladi va ushbu jarayon mashg'ulotning 7,70 %ni tashkil etadi. Payshanba va yakshanba kunlarida sportchilarga tiklanishlari uchun to'la dam olish imkoniyati berildi.

Haftaning qolgan ikki kunida esa mashg'ulotlarda xilmaxillik kuzatilmadi chorshanba kunida 47% o'rtacha

aerobik mashqlarga urg'u berilgan bo'lsa qolgan 31% ni asosan kuchga qaratilgan mashqlar kunlik mashg'ulot jarayoning mashqlarini tashkil qildi (1-jadvalga qarang).

14-15 yoshli erkin kurashchilarning uchinchi haftadagi mikrotsikl mashg'ulot rejasini asosan xilmaxil mashqlardan tashkil topishiga e'tibor qaratildi. Haftaning boshida yosh kurashchilarga beriladigan jismoniy yuklamalar o'rtacha quvvatli aerobik va kuch jismoni sifatini rivojlantirishga qaratilgan mashqlari, bilan boshlangan bo'lsa, aerobik mashqlar yuklamaning 62% ni tashkil etdi. Kuchga yo'naltirilgan mashqlar esa 16% ga teng bo'ldi. Haftaning ikkinchi kunida yuqori quvvatli (62%) hamda asosan tezkorlikka qaratilgan mashqlar (16%) rejaga kiritildi va sportchilarga haftaning uchinchi kuniga tiklanish uchun dam olish imkoniyati berildi.

Erkin kurashchilarning 4-haftasidagi mashg'ulotning 23 % asosan kuchga qaratilgan bo'lsa, 55 % esa texnika-taktikani rivojlantiruvchi mashqlar asosida rejaga kiritildi. Haftaning juma kunidagi mashg'ulot jarayonlari beriladigan yuklamalarning birinchi yarmi o'rtacha quvvatli aerobik mashqlardan tashkil topdi va 39% ni tashkil etdi. Ikkinchi yarmida berilgan yuklamalar texnika-taktikani rivojlantiruvchi mashqlarga e'tibor qaratildi hamda o'z navbatida bu jarayon ham 39% ga teng bo'ldi.

Hafta oxiriga kelib 55% li yuqori quvvatli aerobik mashqlarga qaratilgan jismoniy yuklamalar tashkil etilgan bo'lsa 23% lik yuklamalar asosan tezkorlikka qaratilgan mashqlardan tashkil topdi.

1-jadval

O'quv-mashg'ulot guruhida shug'ullanuvchi 14-15 yoshli erkin kurashchilarning mezosiklda mashg'ulot yuklamalarining taqsimlanishi

1-hafta								
KUN	Kirish qismi	O'rtacha kuchning aerob mashqlari	Yuqori quvvatli aerob mashqlar	Asosan kuchga yo'naltirilgan mashqlar	Asosan tezkorlikka qaratilgan mashqlar	Texnika taktikani rivojlantiruvchi mashqlar	Yakuniy qism	Dam olish kuni
1	14,40%			47%		31%	7,70%	
2	14,40%			62%	17%		7,70%	
3	-	-	-	-	-	-	-	-
4	14%	39%				39%	7,70%	
5	14,40%			78%			7,70%	
6	14%	62%			16%		7,70%	
7	-	-	-	-	-	-	-	-
2-hafta								
KUN	Kirish qismi	O'rtacha kuchning aerob mashqlari	Yuqori quvvatli aerob mashqlar	Asosan kuchga yo'naltirilgan mashqlar	Asosan tezkorlikka qaratilgan mashqlar	Texnika taktikani rivojlantiruvchi mashqlar	Yakuniy qism	Dam olish kuni
1	14,40%			78%			7,70%	
2	14,40%			39%	16%	23%	7,70%	
3	14%	47%		31%			7,70%	
4	-	-	-	-	-	-	-	-
5	14,40%			23%		55%	7,70%	
6	14%	78%					7,70%	
7	-	-	-	-	-	-	-	-
3-hafta								
KUN	Kirish qismi	O'rtacha kuchning aerob mashqlari	Yuqori quvvatli aerob mashqlar	Asosan kuchga yo'naltirilgan mashqlar	Asosan tezkorlikka qaratilgan mashqlar	Texnika taktikani rivojlantiruvchi mashqlar	Yakuniy qism	Dam olish kuni
1	14%	62%		16%			7,70%	
2	14,40%		62%		16%		7,70%	
3	-	-	-	-	-	-	-	-
4	14,40%			23%		55%	7,70%	
5	14%	39%				39%	7,70%	
6	14,40%		55%		23%		7,70%	
7	-	-	-	-	-	-	-	-
4-hafta								

KUN	Kirish qismi	O'rtacha kuchning aerob mashqlari	Yuqori quvvatli aerob mashqlar	Asosan kuchga yo'naltirilgan mashqlar	Asosan tezkorlikka qaratilgan mashqlar	Texnika taktikani rivojlantiruvchi mashqlar	Yakuniy qism	Dam olish kuni
1	14,40%			16%	16%	47%	7,70%	
2	14%	78%					7,70%	
3	14,40%		55%	23%			7,70%	
4	-	-	-	-	-	-	-	-
5	14%	62%				16%	7,70%	
6	14,40%		55%		23%		7,70%	
7	-	-	-	-	-	-	-	-

Yakshanba kunida sportchilarga jismonan tiklanishlari uchun to'liq dam olish imkoni berildi. Natijada sportchilarda sportdan zerikish, mashg'ulotlardan bezish xolatlarini kuzatilmadi va to'g'ri rejalashtirilgan haftalik mikrosikldagi mashg'ulot jarayonida jismonan va ruhiy charchash xolatlarini kuzatilmadi (1-jadvalga qarang).

O'quv-mashg'ulot guruhida shug'ullanuvchi 14-15 yoshli erkin kurashchilarning ushbu hafta uchun rejalashtirilgan mikrotsikl mashg'ulot rejasi quyidagicha tashkil etilgan. 4-haftaning boshida beriladigan jismoniy yuklamalarning 16% ni asosan kuchga yo'naltirilgan mashqlar, 16% tezkorlikka qaratilgan mashqlar hamda qolgan 47% ni texnika-taktikani rivojlantirishga qaratilgan mashqlar rejaga kiritildi. Kirish qismi uchun 14,40%, yakuniy qism uchun esa 7,70% qizdiruvchi va tiklanuvchi mashqlarga bo'lindi. Haftaning ikkinchi kunida 78% lik yuklamalarni o'rtacha kuchning aerob mashqlari uchun taqsimlandi. 4-haftaning uchinchi kunidagi mashg'ulotlarning 55% ni yuqori quvvatli aerob mashqlar tashkil etdi va 23% ni o'rtacha kuchning aerobik mashqlariga qaratilgan mashg'ulot jarayonlari rejada belgilandi. Haftaning payshanba kunida sportchilarga jismonan tiklanishlari uchun to'liq dam olish imkoni berildi. Haftaning juma kunida rejalashtirilgan mashqlarning 62% qismi o'rtacha kuchning aerob mashqlariga qaratildi. 16% qismi esa asosan texnika taktikani rivojlantiruvchi mashqlar uchun ajratildi. Yuqori quvvatli aerob mashqlarga ajratilgan jarayon 55% ni tashkil etib rejalashtirilgan mashqlarni tashkil etdi. 23% lik jismoniy yuklamalar esa asosan tezkorlikka qaratilgan bo'lib ushbu mikrosikllar mashg'ulot jarayonlarining tog'ri taqsimlanishi imkonini beradi.

Xulosa va takliflar. O'tkazilgan tadqiqot natijalari yuzasidan xulosa qiladigan bo'lsak o'quv-mashg'ulot guruhida shug'ullanuvchi 14-15 yoshli erkin kurashchilarning mashg'ulot jarayonlari davomida kompleks tayyorgarligining mikrosikllarda tuzilgan mashg'ulot rejalariga quidagi jarayonlarni kiritish orqali han samarali natijalarga erishish mumkun: O'quv-mashg'ulot guruhida shug'ullanuvchi 14-15 yoshli erkin kurashchilarning jismoniy tayyorgarligi xolatini takomillashtirishda to'g'ri rejalashtirilgan mikrotsikl mashg'ulot rejalarini tuzish, 14-15 yoshli erkin kurashchilarning yuqori kompleks tayyorgarligiga erishishda anaerob, aerob va glikolitik turdagi mashqlarning mashg'ulot jarayoniga keng doirada tadbir qilish, murabbiy tamonidan sportchilarda sportdan bezish, serikish va shunga o'xshash ruxiy xolatlar kuzatilmashligi uchun mashg'ulot jarayonining xilmaxilligiga jiddiy e'tiborda bo'lishi kerak.

Shuni ham aytib o'tishimiz joizki aniqlangan tadqiqot narijalarini ko'rsatishicha, mashg'ulot haftasining yakunida jismoniy sifatlarga, misol uchun chidamlilikka yo'naltirilgan bir xil yo'nalishdagi yuklamalarni katta xajmda qo'llanilishi mashg'ulot samaradorligini o'zaro bog'liqligiga salbiy ta'sir ko'rsatgan bo'lishi mumkin va organizmni tiklanishidan ko'ra, yosh erkin kurashchilarning bazaviy va zarbdor tipdagi mikrosikllardagi progress qiluvchi toliqishiga ko'maklashishi mumkin.

Shunday qilib, yosh erkin kurashchilarning haftalik mikrosikllarini samarali tashkil etish davomida jismoniy yuklamalarni berib borishda mashg'ulot jarayonini to'g'ri rejalashtirish o'z samarasini ko'rsatishi dar haqiqatdir.

ADABIYOTLAR

1. Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг “Жисмоний тарбия ва спорт соҳасини ривожлантириш масалаларига бағишланган” йиғилишдаги нутқи; 2018 йил 21 сентябрь, Халқ сўзи газетаси.
2. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2018 йил 5 мартдаги ПФ-5368-сонли «Жисмоний тарбия ва спорт соҳасида давлат бошқаруви тизимини тубдан такомиллаштириш чоратадбирлари тўғрисида»ги Фармони
3. Kurash turlari va uni o'qitish metodikasi. O.E.Toshmurodov, B.B.Kipchakov, A.T.Umarov. Samarqand-2021. 62-b
4. Toshmurodov O.E., Kipchakov B.B., Umarov A.T. “Kurash turlari va uni o'qitish metodikasi” Samarqand-2021. 60-b.
5. Abdullaev Sh.A.-Erkin kurash. Toshkent, axborot press 2017y.
6. Рузиев А.А. Проблемы повышения специальной выносливости высококвалифицированных борцов //Теория и практика физической культуры. –Москва, 2001. -№8. -С.37
7. Саносян Х.А., Мусаелян С.Л., Агамян М.Г. Разработка современной комплексной технологии контроля в видах единоборств //Теория и практика физической культуры. –Москва, 2002. -№4. –С.26-
8. Bobomurodov F.I.Kurashchilarning morfologik xususiyatlarini hisobga olgan holda texnik-taktik harakatlarini takomillashtirishga differensial yondashuv. Ped.f.b.f.d (PhD). diss. avtoreferati.
9. Nurshin J.M. – O'zbek milliy kurashi. Toshkent. 1993y.17-B.
10. Aliev I.B. – Kurash bilan shug'ullanuvchi talabalarning mashg'ulot yuklamalari. Toshkent – 2012y.
11. Taymurodov A.R. - Kurash. Monografiya 2007y.78-B.
12. Адбулҳақов М.Р.- Боротся чтобы побеждать.Спорт в твоей жизни. – М.: 1990г. С.144.
13. Tastanov N.A. –Kurash turlari nazariyasi va uslubi.T.:2017y. 172-173-B
14. Yusupov K.T. – Milliy kurash qoidalari. Monografiya. Toshkent -1992y.



УДК:339.5(51:575.1)

Отабек ТОШЕВ,

*Жаҳон иқтисодиёти ва дипломатия университети таянч докторанти,
Халқаро муносабатлар кафедраси ўқитувчиси
электрон почтаси: otabek.toshev.1994@gmail.com*

ЖИДУ доценти с.ф.н. М.М. Бахадиров тақризи асосида

THE POLITICS OF MULTICULTURALISM: AS SECURITY GUARANTEE IN MULTICULTURAL SOCIETIES (IN THE CONTEXT OF CENTRAL ASIA AND UZBEKISTAN)

Abstract

In this scientific article, on the example of Central Asia and Uzbekistan, the unification of representatives of different nationalities and peoples, religions and cultures, their coexistence in one society with the successful implementation of their traditions, the significance of cultural differences in the context of national and regional security are considered, the policy of the state in such multicultural societies is analyzed. The main emphasis is placed on the current policy of multiculturalism and its role in ensuring peace and harmony between peoples, cultures and religions and preventing various conflicts between them and on the regional cooperation on this issue. The article uses expert opinion, comparative and historical research methods.

Key words: Politics of multiculturalism, interethnic and religious conflicts, primordialism, national and regional security, multicultural society.

ПОЛИТИКА МУЛЬТИКУЛЬТУРИЗМА: КАК ГАРАНТИЯ БЕЗОПАСНОСТИ В МУЛЬТИКУЛЬТУРНЫХ ОБЩЕСТВАХ (В КОНТЕКСТЕ ЦЕНТРАЛЬНОЙ АЗИИ И УЗБЕКИСТАНА)

Аннотация

В научной статье на примере Центральной Азии и Узбекистана рассматривается объединение представителей разных национальностей и народов, религий и культур, их совместное проживание в одном обществе при благополучном выполнении своих традиций, значение культурных различий в контексте национальной и региональной безопасности, а также анализируется политика государства в таких поликультурных обществах. Основной акцент делается на актуальной на сегодняшний день политике мультикультурализма и ее роли в обеспечении мира и согласия между народами, культурами и религиями и предотвращении различных конфликтов между ними и на региональное сотрудничество в данном направлении. В статье используются экспертное мнение, сравнительный и исторический методы исследования.

Ключевые слова: Политика мультикультурализма, межэтнические и религиозные конфликты, национальная и региональная безопасность, мультикультурное общество

МУЛЬТИКУЛЬТУРАЛИЗМ СИЁСАТИ: КЎПМАДАНИЯТЛИ ЖАМИЯТЛАРДА ХАВФСИЗЛИК КАФОЛАТИ СИФАТИДА (МАРКАЗИЙ ОСИЁ ВА ЎЗБЕКИСТОН КОНТЕКСТИДА)

Аннотация

Илмий мақолада Марказий Осиё ва Ўзбекистон мисолида турли миллат ва элат, дин ва маданият вакиллари бирлаштириш, уларнинг бир жамиятда ўз урф-одатларини эмин-еркин бажарган ҳолда бирга истиқомат қилишлари, маданий фарқларнинг миллий, минтақавий хавфсизлик контекстида қандай аҳамиятга эга эканлиги ва бундай кўпмаданиятли жамиятларда давлатнинг тутадиган ва тутиши керак бўлган сиёсати таҳлил қилинади. Асосий урғу бугунги кун учун долзарб бўлган мультикультурализм сиёсати ва унинг миллатлар, маданиятлар ва динлараро тинчлик ва тотувлини таъминлаш, улар ўртасидаги турли хил ихтилофларнинг олдини олишдаги ўрнига, бу соҳадаги минтақавий ҳамкорликка қаратилган. Мақолада экспертлар хулосаси, қиёсий ва тарихий тадқиқот услубларидан фойдаланилган.

Калит сўзлар: Мультикультурализм, этник ва диний ихтилофлар, миллий ва минтақавий хавфсизлик, примордиализм, кўпмаданиятли жамият, хавфларни бошқариш.

Кириш. Тарихдан урушлар, босқинлар халқларни бир географик минтақада жамлаган бўлса, бугунги кунда глобализация жараёни турли дин ва эътиқод, миллат, маданият, этнос, ирқ ва тил вакиллари маълум бир маконда жамлаётганининг гувоҳи бўлмоқдамиз. Табиийки, маданий жиҳатдан тафовутлар мавжуд бўлган жойда, қарашлар ва нуқтайи назарлар ҳам хилма-хил, кўпчилик ҳолатларда бир-бирига зид бўлади. Бу эса ўша жамиятда бир томондан маданиятлар уйғунлашуви асосида ривожланишга сабаб бўлса, иккинчи томондан маданиятлар тўқнашувига ҳам олиб келади. Бу жараён давлат ва жамият, минтақа олдига хавфсизлик нуқтайи назаридан бундай эҳтимолий тўқнашувлар олдини олиш, тўқнашув содир бўлганда уларни бартараф этиш вазифасини юклайди. Шу нуқтайи назардан, 2019-йил 15-ноябрдаги Ўзбекистон Республикаси Президентининг “Миллатлар-

аро муносабатлар соҳасида Ўзбекистон Республикаси давлат сиёсати концепциясини тасдиқлаш тўғрисида”ги ПФ-5876-сонли фармоннинг имзоланиши бу мавзунинг нақадар долзарб эканлигини кўрсатиб беради.

Мавзуга оид адабиётларнинг таҳлили. Америкалик олим С. Хантингтон ўзининг “Цивилизациялар тўқнашуви ва дунё тартиботини қайта яратиш” номи мақоласининг кириш қисмида: “Инсонларни ажратиб турувчи ва ихтилофлар манбайи бўлиб хизмат қиладиган чегаралар маданият билан белгиланади. Миллат-давлатлар халқаро муносабатларнинг асосий ҳаракатлантирувчи субъекти бўлиб қолса-да, энг асосий низолар турли маданиятларга тегишли халқлар ўртасида содир бўлади”, деб ёзади [1].

С.Хантингтоннинг маданиятлар тўқнашуви назариясини кўпчилик олимлар танқид остига ҳам олишган. Улар

ўз танқидларини сўнгги асрда бўлган урушларнинг кўпчилиги турли маданият эмас, балки бир маданиятга мансуб давлатлар ўртасида бўлгани билан изохлашади [2]. Масалан, бир маданият, бир миллатга мансуб Жанубий ва Шимолий Корея ўртасида ўзаро кескинлик ҳозиргача мавжуд. Бир динга мансуб Эрон ва Саудия Арабистонининг ҳам иккитомонлама муносабатларини қоникарли деб бўлмайди.

Минтақавий ёки глобал даражадаги тўқнашувлар Хантингтон айтганидек турли маданиятлар ўртасида бўлмаслиги мумкин. Аммо, маълум давлат доирасида, миллий ёки маҳаллий даражада этник, диний, маданий тафовутлар ўзаро келишмовчиликлар, ихтилофларнинг манбаси бўлиб хизмат қилиши ва уларнинг кенг қўламли низога айланиб кетиш эҳтимоли ҳам мавжуд. Агарда тафовут бўлмаса ҳам бир маконда яшовчи икки томонга мансуб вакиллар ўртасидаги кичик бир келишмовчилик катта можарога айланиши мумкин. Инсон психологиясида доим мансублик ҳисси ("Биз" – "Биз эмас") бўлади ва бутун умр у билан яшайди. Мана шу мансублик ҳисси индивидни ҳар бир масалада ўз жамоаси томонида туришга ундайди. Масаланинг яна бир қизиқ томони шундаки, бир маконда яшовчи турли маданиятга мансуб вакиллар ўртасида низо келтириб чиқариш учинчи томон учун анча осон кечади. Бу халқаро муносабатларда акторлар учун кенг қўлланиладиган метод ҳисобланади.

Шу ўринда 1989-йилда Фарғонада ўзбеклар ва месхетли турклар билан бўлган можарони эслайлик. Деярли 40 йил давомида ушбу ҳудудда бирга ахил, ҳеч қандай келишмовчиликларсиз яшаган икки халқ ўртасидаги можаронинг бу қадар кескин тус олишига кўплаб манбалар воқеада провокаторларнинг роли катта бўлганини айтишди [3]. Ўзаро келишмовчиликка нима сабаб бўлганда ҳам бу этник можаро нафақат водийда, балки бутун Республикада бунга ўхшаш ҳолатларнинг юзага келишига сабаб бўлиши мумкин эди.

Кўпмаданиятли жамиятларда давлатлар томонидан изоляционизм, ассимиляция, мультикультурализм каби турли сиёсатлар қўлланилади. Биз алоҳида тўхталиб ўтадиган мавзу эса айнан мультикультурализм сиёсати ва унинг Марказий Осиё минтақасидаги ўрни ва айнан Ўзбекистонда олиб борилаётган бундай сиёсатнинг келажақдаги истиқболлари ҳақида.

Марказий Осиё давлатлари ҳам ўзининг кўпмиллатлилиги, этник хилма-хиллиги, турли дин ва маданиятларнинг мавжудлиги билан ажралиб туради. Ўзбекистоннинг ўзида 130 дан ортиқ миллат ва элат, 16 та диний конфессия вакиллари истиқомат қилади. Қизқарли томони шундаки, Марказий Осиё давлатлари аҳолиси ушбу 5 давлатнинг асосий миллат вакиллари билан қўшилиб кетган. Яъни, Ўзбекистонда қозоқ, қирғиз, тожик ёки туркман миллатига мансуб минглаб аҳоли истиқомат қилса, Қозғистон ёки Қирғизистон ҳудудида ҳам кўплаб бошқа миллат вакилларининг бир ҳудудда жамланганининг гувоҳи бўламиз.

Марказий Осиё давлатлари аҳолиси этник таркибининг бу тарзда шаклланиб қолиши сабабини кўпчилик олимлар 1919-1924-йилларда минтақада социалистик Республикаларнинг ташкил топиши ва Сталиннинг ушбу давлатлар аҳолисини қасддан аралаштириб юбориши билан изохлашади. Назарбойев университети тарих профессори – Александр Моррисон журналист Эдуард Стауртон, Питер Зейхан, Филипп Чискин каби бир қатор олимларнинг фикрларига таяниб, Сталиннинг наздида Ўрта Осиё минтақаси аҳолиси "Бўлиб ташла ва ҳукмронлик қил" тамойилига асосланган ҳолда бўлиниши, бир миллий давлат ҳудудида бошқа миллий озчилик гуруҳнинг сақланиб қолиши ва улар ўртасидаги эҳтимолий ихтилофлар СССР га қарамликни ошириши, мабодо СССР парчаланганда ҳам бу ҳудудда

беқарорлик сақланиб қолиши ва энг аввало бу беқарорлик Москва учун ўз таъсир доирасини янада кенгайтиришга ёрдам бериши кераклигини таъкидлаб ўтади [4].

Тадқиқот методологияси. Этник ихтилофлар назарияларига қарайдиган бўлсак, примордиалист назарийётчилар этник гуруҳлар ўртасидаги ихтилофлар табиий жараён ва у маданий тафовутлар орқали вужудга келади деб таъкидлайдилар [5]. Инструментализм тарафдорлари эса этник ихтилофлар фақат маданий фарқлар билан белгиланмаслиги, балки улар сунъий равишда ҳам вужудга келтирилиши мумкин деб ҳисоблайдилар. Улар Сталин билан боғлиқ этник бўлинишга ўхшаш Руандадаги Туцилар ва Хутуларни мисол қилиб келтирадилар. Руандадаги бу этник ихтилоф аслида ихтилоф эмас, Туцилар ва Хутулар бир маданиятга мансуб. Белгия Руандани босиб олганидан сўнг юз тузилиши бошқача, бўйи узунроқ, терисининг ранги оқроқ Мисрдан келиб қолган қабила вакилларини Туцилар, бошқаларини эса Хуту деб атаб бошлашади. Бу эса Хутуларга ирқий жиҳатдан Туцилардан камситилишдек туюлади. Инструменталистлар бу жараёни Белгия ҳудудни бошқариш ва назорат қилишда осон бўлиши учун Руандада сунъий қутбланиш жамиятини ташкил этган деб ишонадилар [6].

Иккала назария ҳам этник гуруҳлар ўртасида низолар муқаррар деб ҳисоблайди. Лекин, бу низоларнинг олдини олиб бўлмайди, дегани эмас. Замонавий глобализациялашган дунёда кўпмиллатли, кўпмаданиятли бўлмаган давлат ёки жамиятни топиш қийин. Бу эса ҳар бир давлат бундай эҳтимолий ихтилофлар келиб чиқмаслиги учун олдиндан пухта ўйланган, ҳар бир миллат, дин ва маданият вакилининг урф-одатлари ва анъаналари ҳисобга олинадиган сиёсат олиб боришга мажбурлигини аниқлатади.

Таҳлил ва натижалар. Таҳлиллар шуни кўрсатадики, Ўзбекистонда ҳам юқоридаги омилларни инобатга олган ҳолда турли миллат ва элатлар, дин ва конфессиялар вакиллари орасида ўзаро дўстона мулоқот муҳитини яратиш, бу соҳани қўллаб-қувватлаш бўйича керакли ишлар амалга оширилмоқда. Конституцияда ҳам барча фуқаролар бир хил ҳуқуқ ва эркинликларга эга бўлиб, жинси, ирқи, миллати, тили, дини, ижтимоий келиб чиқиши, эътиқоди, шахси ва ижтимоий мавқеидан қатъий назар, қонун олдида тенглиги белгилаб қўйилган бўлиб [7], бу давлатнинг кўпмаданиятли – мультикультурализм сиёсатининг асоси бўлиб хизмат қилади.

Кичик маҳалла ҳокимиятидан тортиб, ҳукумат даражасигача миллатлараро муносабатларга алоҳида эътибор берилади. Ўзбекистон Республикаси Президентининг "Миллатлараро муносабатлар соҳасида Ўзбекистон Республикаси давлат сиёсати концепциясини тасдиқлаш тўғрисида"ги 2019-йил 15-ноябрдаги ПФ-5876-сонли фармонида ҳам Конституция қоидалари Ўзбекистон Республикасининг фуқаролари миллатидан қатъий назар Ўзбекистон халқини ташкил этишини, Ўзбекистон Республикаси ўзининг ҳудудида яшовчи миллат ва элатларнинг тили, урф-одати ва анъаналарига ҳурмат билан муносабатда бўлишни, уларни ривожлантириш учун шарт-шароитлар яратилишини эълон қилади ва қафолатлайди, дея алоҳида таъкидлаб ўтилган [8].

Бу соҳада Ўзбекистон Республикаси Президенти томонидан 2017-йил сентябр ойида БМТ Бош Ассамблеясининг 72-сессиясида тақлиф этилган ташаббуси асосида 2018-йил 12-декабрда "Маърифат ва диний бағрикенглик" деб номланган БМТнинг махсус резолюцияси қабул қилинди. Ушбу резолюция нафақат маълум бир давлат, балки бутун бир минтақа, Ер юзида динлараро муносабатларда миллий, минтақавий ва глобал ҳавфсизлик қафолати сифатида хизмат қилиши шубҳасиз.

Хозирги пайтда 138 миллий маданий марказ, шунингдек, 34 дўстлик жамияти фаолияти Ўзбекистондаги барча миллат ҳамда элатларнинг тарихи, маданияти, маънавий қадриятлари, анъана ва урф-одатларини асраш ҳамда ҳар томонлама ривожлантириш, миллатлараро муносабатларни уйғунлаштириш, жамият ва давлатни барқарор ривожлантиришда муҳим ўрин тутди. Мамлакатимиз таълим муассасаларида ўқиш 7 тилда олиб борилмоқда. Телекўрсатув ва радиоешиттиришлар 12 тилда эфирга узатилаётир, газета ҳамда журналлар 10 дан ортиқ тилларда чоп қилинапти [9].

2022-йилнинг 16-20-майида Тошкент, Самарқанд ва Бухорода турли дин ва конфессия вакиллариининг навбатдаги “Декларациялар мулоқоти” халқаро форумининг мезбони сифатида Ўзбекистоннинг танланиши ва “Бухоро декларацияси”нинг қабул қилиниши ҳам рамзий маънога эга бўлиб, давлатимизнинг диний бағрикенглик соҳасида олиб бораётган қўпмаданиятли мультикультурализм сиёсатининг махсули дейиш мумкин.

Ўзбекистоннинг минтақада хавфсизликни таъминлашдаги яна бир ташаббусларидан бири бу қўшни Афғонистонда тинчликка эришиш йўлидаги медиаторлиги бўлди, десак муболага бўлмайди. Эътиборли жиҳати, Президент Чавкат Мирзиёевнинг Афғонистон бўйича

фикрларининг ҳар бирида афғон халқининг ўзбек халқига, қолаверса бутун Марказий Осиё халқларига қардош ва яқин эканлиги алоҳида таъкидланади, Афғонистонда тинчлик ўрнатилмай туриб, афғон халқи фаровонликка эришмай туриб минтақада хавфсизлик масаласи ўз йечимини топа олмаслигига эътибор қаратилади. Бу борада минтақавий ҳамкорликни кучайтирган ҳолда ўз хавфсизлигимизни таъминлай олишимиз мумкинлиги мантиқан рад этиб бўлмайдиган аксиома.

Хулоса ва таклифлар. Юқорида амалга оширилаётган кенг қўламли ишлар нафақат миллий хавфсизлигимиз, балки минтақавий хавфсизлик учун ҳам муҳим аҳамият касб этади. Қўпмаданиятли сиёсат жуда нозик масала эканлигини ҳис этган ва 1989-йилда месхети турқлар, 2010-йилдаги Ўш ва 2022-йилдаги Қорақалпоғистондаги нохуш ҳодисаларни унутмаган ҳолда ташқи кучларнинг минтақа ҳудудида бирга яшовчи турли миллатлар орасига нифоқ солишига, давлат ички ишларига аралашшига йўл қўймаслик учун бутун механизмларни ишга солиш замонвий реалликдан, Украинадаги воқеалар (Россиянинг Украина ҳудудидаги рус миллатига мансуб аҳолини ҳимоя қилиш тўғрисидаги баёнолари)дан керакли хулосалар чиқарган ҳолда ички ва ташқи сиёсат олиб бориш лозим.

АДАБИЁТЛАР

1. Huntington S., “The Clash of Civilizations and Remaking of the World Order”, 1993.
2. Белозубов С., Критика концепции С.Хантингтона “Столкновение цивилизаций” в современной зарубежной цивилизоогии, 2015. Хавола: <https://cyberleninka.ru/article/n/kritika-kontseptsii-samyuelya-hantingtona-stolknovenie-tsivilizatsiy-v-sovremkennoy-zarubezhnoy-tsivililogii/viewer>
3. Ибрагимова Г., Ферганская резня: Почему произошла трагедия, всколыхнувшая Советский Союз, 2019 <https://ria.ru/20190603/1555121171.html>
4. Morrison A., Stalin's Giant Pencil: "Debunking a myth About Central Asian Borders." 13-fevral, 2017 yil <https://eurasianet.org/stalins-giant-pencil-debunking-a-myth-about-central-asias-borders>
5. Jesse, Neal G. va Kristen P. Williams. "Ethnic Conflict: A Systematic Approach To Cases of Conflict." Washington: CQ Press, 2011. Print
6. Lake, David A. va Donald Rothchild. "Containing Fear: The Origins and Management of Ethnic Conflict." International Security 21.2 (1996): 41- 75 betlar
7. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, 18-modda.
8. Ўзбекистон Республикаси Президентининг “Миллатлараро муносабатлар соҳасида Ўзбекистон Республикаси давлат сиёсати консепсиясини тасдиқлаш тўғрисида”ги 2019-йил 15-ноябрдаги ПФ-5876-сонли фармони
9. Fayziyev O. “Millatlararo totuvlik tinchlik va osoyishtalikning mustahkam asosidir” <https://religions.uz/uz/news/detail?id=640>



УДК:372.836

Меҳринисо ТОШПЎЛАНОВА,
Термиз давлат университети таянч докторанти
E-mail: phdtoshpulatovamehriniso@gmail.com

Филология фанлари бўйича фалсафа доктори(PhD) О.П.Уралова тақризи асосида

ТИЛ ҲАҚИДА КОРПУСГА АСОСЛАНГАН ЁНДАШУВГА ОИД ТАДҚИҚОТЛАР ШАРҲИ

Аннотация

Корпусга асосланган ёндашувнинг тилларни ҳақиқатдаги ўрни ривожланмоқда. Корпус лингвистикаси методология сифатида тан олинмоқда. Корпус амалий тилшунослик соҳасида луғатлар тузишда, грамматик китобларни тузишда, тилни ўрганиш ва ҳақиқатни такомиллаштириш каби соҳаларни қамраб олган. Ушбу мақола корпуснинг тил ҳақиқати ва ўрганишдаги сўнги адабиётларни ўрганиш мақсад қилиб олинган. Тадқиқотлар натижасида корпусга асосланган ёндашув асосида тилларни ҳақиқатни ўрганишда эмперик тадқиқотлар ўргатилиб чиқилди ва самарали усул эканлиги аниқланди.

Калит сўзлар: Корпус, корпус луғатлари корпус сайтлари, умумий корпус, тил материали.

ОБЗОР ИССЛЕДОВАНИЙ КОРПУСНОГО ПОДХОДА К ОБУЧЕНИЮ ЯЗЫКУ

Аннотация

Роль корпусного подхода в обучении иностранным языкам растет. Лингвистика Corpus признана методологией. Корпус охватывал такие области в области прикладной лингвистики, как составление словарей, составление учебников грамматики, улучшение изучения языка и преподавания. Цель этой статьи - изучить новейшую литературу по преподаванию языка и обучению в Корпусе. В результате исследований, на основе корпусного подхода, были проведены эмпирические исследования в области преподавания и изучения языков, которые были признаны эффективным методом.

Ключевые слова: Корпус, Корпусные словари, Корпусные сайты, Общий корпус, языковой материал.

REVIEW OF RESEARCH ON THE CORPUS-BASED APPROACH TO LANGUAGE TEACHING

Abstract

The role of the corpus approach in teaching foreign languages is growing. Corpus linguistics is recognized as a methodology. The corpus covered such areas in the field of applied linguistics as the compilation of dictionaries, the compilation of grammar textbooks, the improvement of language learning and teaching. The purpose of this article is to study the latest literature on language teaching and teaching in the Corpus. As a result of the research, based on the corpus approach, empirical studies were conducted in the field of teaching and learning languages, which were recognized as an effective method.

Key words: Corpus, Corpus dictionaries, Corpus sites, General corpus, language material.

Кирриш. Ҳозирги замонда дунёнинг етакчи университетларида талабалар, ўқитувчилар корпус маълумотларидан тил материали сифатида фойдаланишлари кундалик амалиётга айланиб бормоқда. Чет тилини ҳақиқатда корпусга асосланган ёндашувнинг энг ривожланган усулларида бири корпусга асосланган ёки маълумотларга асосланган ўрганиш (data-driven learning) дир. Ушбу усулнинг моҳияти талабалар корпусдан тўғридан тўғри фойдаланишлари мумкин. Корпусга асосланган ёндашув орқали ўқитувчининг ролини ташкил этиш ва талабалар тадқиқот фаолиятини назорат қилишдан иборат бўлади. Корпус нафақат илмий, балки ўқув ва услубий муаммоларни ҳал қилиш воситаси бўлиб, ўқув дастурларини, материалларни яратишда, машқ ва топшириқларни тузишда аҳамияти катта. Шу жиҳатдан хорижий давлатларда тил ўрганишда корпусга асосланган ёндашувдан фойдаланиш жадал ривожланмоқда ва олимлар томонидан тадқиқот олиб олиб борилмоқда.

XX асрнинг ўрталарида тил корпусларини ўрганиш корпус лингвистикаси фани шаклланди. Корпус лингвистикаси фани тил корпусларини яратиш билан шуғулланиб, маълум тилда содир бўлаётган ўзгаришларни амалиётга жорий қилиб боради. Шу жиҳатдан жаҳонда кўплаб давлатлар миллий тил корпуси яратишда илмий тадқиқот институтлари йирик лойиҳаларни амалга оширмоқда. Жумладан, CSLU (Centre for Spoken Language Understanding), ELRA (The European Language Resources Association), ELSNET (European Network in Language and Speech), The ENABLER (European National Activities for

Basic Language Resources), [7] каби ташкилотлар корпус ресурслари ва корпус веб саҳифаларини тўплаш, яратиш ва тарқатиш билан шуғулланади.

Мавзуга оид адабиётларнинг таҳлили. Тадқиқотимиз давомида дунё олимларининг корпусга асосланган ёндашув бўйича олиб борган илмий ишлари таҳлил қилинганда, аксарият тиллар инлизи тили корпусини яратиш тажрибасини қўллаганлиги аниқланди. Рус тили корпус лингвистикаси борасида тадқиқотлар В.А.Плунгян В.П.Захаров, С.Ю.Богданова, К.Н.Куренко, О.С.Сафонкина [17,18] каби олимлар томонидан олиб борилган. Шу каби тадқиқотлар Б.Додд, Р.Жонс, Д.Буссе, В.Бублиз [6,10,5,4] каби немис олимлари томонидан олиб борилган. Корпусга асосланган ёндашув малай тилида ҳам ривожланган бўлиб, тадқиқотлар олиб борилмоқда. Малайзиялик олимлардан А.Колб, М.Кадер, Ж.Муқундан, С.Жохарри, Ф.Аббос, Ф.Чохан, Ҳ.Исам каби олимлар тадқиқотлар олиб борган. П.Бунтам ва С.Фочароуенсининг таъкидлашича Таиланд тилида ҳам корпус маълумотларидан фойдаланилади. Туркиялик тадқиқотчилар Челек ва Элмакташлар томонидан корпусга асосланган ва лексикага асосланган ўрганиш усули таққосланиб эмперик тадқиқот ўтказилган

Тадқиқот методологияси. XX асрнинг охирида биринчи рус тили корпуси “Усула матнлар корпуси” яратилган аммо, ҳозирги замонавий корпуслар талабига жавоб бераолмаганлиги сабабли, 2003 йилдан бошлаб рус тилшунослари “Рус тили миллий корпуси” яратиш борасида илмий лойиҳа устида иш бошланган ва ҳозирда

фаол равишда олиб борилмоқда. [15,16,19] Шуни таъкидлаш керакки аксарият рус корпус лингвистикаси тадқиқотлари, инглиз тили корпуси намуналаридан андоза олган ҳолда олиб борилмоқда. Россия Фанлар академияси академиги В.А.Плунгин фикрига кўра рус тили корпуси 18-асрдан 21-асрнинг бошларигача бўлган турли матнлардан жамланган, 150 миллион сўзни ўз ичига олади. корпус тилшунослигини “тезкор” ва “супермодерн” деб таърифлаган [17,7-20]. Россияда рус ва хорижий давлатлар корпусга асосланган ёндашувида фарқ мавжудлигини таъкидлаган.

Тадқиқотчи К. В.Иргизованинг мақоласида корпусга оид илмий ишларнинг статистик таҳлили берилган

бўлиб, рус корпуси маълумотлари хорижий тил корпусларига қараганда анча паст даражада эканлигини маълум. Бундан ташқари корпус лингвистикасининг ўрганишга бағишланган алоҳида тадқиқотлар А.С.Кисельников, Е.В. Харкова, О.С.Сафонкина, Е. В. Варламовлар томонидан олиб борилган. [15,18,15] Аммо ғарб мамлакатларида Россияга нисбатан 40 йил олдин илмий тадқиқотлар ривожлана бошлаган ва ўрганиш тамойиллари, стратегияларини амалга ошириш бир хил бўлсада, сифат ва сон жиҳатдан фарқли мезонлари мавжуддир.Қуйида рус тилини ўрганишда фойдаланиладиган корпус сайтлари келтирилган (1.1 жадвалга қаранг)

Рус тили корпус номи ва интернет манзили		
1	Рус тили миллий корпуси(Russian national corpus) http://www.ruscorpora.ru/index.html	1.2 миллиард Рус тили матнларини қамраб олган.
2	Уппсала рус тили корпуси (The Uppsala Russian corpus) http://www.slaviska.uu.se/korpus.htm	600 га яқин рус тили матнлардан иборат бўлиб, жами бир миллион сўз (сўз белгилари) бўлиб, маълумотли ва адабий наср ўртасида тенг
3	Тюбинг рус тили корпуси (Tubingen Russian Corpus) http://www.sfb441.unituebingen .	Рус тили матнларини қамраб олган

Демак рус тили корпусини яратишда салмоқли ишлар олиб борилмоқда, аммо тил ўқитишда рус тил корпусидан фойдаланиш методикаси тўлиқ ишлаб чиқилмаган. Чунки рус тили корпусидан фойдаланиш бўйича машқлар тизими етарлича эмас деб ҳисоблаймиз.

В.Левченко томонидан Россиянинг Самара университетида 10 нафар докторантлар билан академик мақсадларда сўзларни корпусга асосланган ёндашув асосида ўрганишни кўриб чиқиш мақсад қилиб белгиланган. Илмий тадқиқот давомида академик сўзларни қўллашга тўғри келишини ҳисобга олиб докторант талабалар танланган.Тажриба-синов натижаларига кўра иштирокчилар корпусга асосланган ёндашувни жуда фойдали деб

билиб, академик ёзиш маҳоратини оширишда ишончли ва самарали ўқитиш воситаси сифатида баҳолаган.

Немис олимлари ҳам корпусга асосланган ёндашув орқали ўқитишда инглиз олимлари С.Конрад, Р.Реппен, С.Флгелстон, А.Вичман каби олимларнинг ишларига мурожаат қилган. Немис тилида ҳам сўнги 10 йилда корпус лингвистика, педагогика ва тил ўқитишга таъсир кўрсатди. Немис тилини корпусга асосланган ёндашув асосида ўқитишга оид тадқиқотлар Б.Додд, Р.Жонс, Д.Буссе, В.Бублитз каби олимлар томонидан олиб борилган. [4,5,6] Немис тилини ўрганишда энг замонавий корпуслар рўйхати қуйида берилган. (1.2-жадвалга қаранг).

Немис тили корпус номлари ва интернет манзили		
1	Берлин -Браденбург фанлар академияси корпуси (DWDS-Corpus) http://www.dwds.de/pages/pages_textba/dwds	XX аср немис тили луғати
2	Немис тили онлайн корпус луғати.(Projekt DeutscherWortschatz) http://wortschatz.unileipzig.de	Немис тилида 35 миллион жумла ва 500 миллион сўзни қамраб олган.
3	Неми тили институти корпуси LIMAS-Corpus http://www.korpora.org/Limas/	Энг йирик немис тили корпуси
4	Немис тили корпуси (IDS-corpora) http://www.ids-mannheim.de/kt/corpora.html	Замонавий немис тили корпуси, 500 та матн ва 1 миллион сўздан иборат

Тадқиқотчи Ж.Мукуржи томонидан Германияда миллиати немис бўлган. инглиз тил ўқитувчиларининг корпусга асосланган ёндашувига муносабати ўрганилган. Олимнинг хулосаларига кўра ўтказилган сўровномаларда Германияда инглиз тили ўқитувчилари корпус лингвистикаси ва корпусга асосланган ёндашув ҳақида кам маълумот билишини аниқлаган.Аммо семинардан кейин 95 % ўқитувчи инглиз тилини ўқитишда корпусга асосланган ёндашувнинг аҳамияти ва фойдаси ҳақида маълумотга эга бўлганлигини таъкидлаган.Бундан кўринадики корпус маълумотлари талабаларда ҳам ўқитувчиларда ҳам ижобий натижа кўрсатишини билдиради

Корпусга асосланган ёндашув малай тилида ҳам ривожланган бўлиб, тадқиқотлар олиб борилмоқда. Малайзиялик олимлардан А.Колб, М.Кадер, Ж.Мукундан, С.Жохарри, Ф.Аббос, Ф.Чохан, Ҳ.Исам каби олимлар тадқиқотлар олиб борган. [11,9,1,16,] Корпусга асосланган ёндашув малай тилини ўқитишда самарали фойдаланилмоқда.

Ҳ.Ислам, М.Муталиб ва Ф.Аҳмадлар Малайзия таълимида компьютер ёрдамида ўқитиш ва ўрганишни

тадқиқ қилган. [8] Унда корпус малумотларидан сўзларни бепул Google қидирув тизимидан излашни, унда асосан Library ва Library Corpus Database System дастурларидан фойдаланишни тавсия қилган.Аммо Исламнинг тадқиқотларида Малайзия дарс жараёнларида лексикани ўқитиш ва ўрганишда корпусга асосланган эмперик тадқиқотлар деярли мавжуд эмаслигини таъкидлаган.Демак Малайзия таълимида ҳам корпусга асосланган ёндашув борасида эмперик тадқиқотларни олиб боришга эҳтиёж борлиги сезилади.

Таҳлил ва натижалар.

1. Асосий турмуш шароитларини бюджетлаштиришда кўплаб молиявий муаммоларга дуч келаётган Покистон каби ривожланаётган мамлакат учун ИТ воситаларининг етишмаслиги туфайли таълим тизимини тубдан модернизация қилиш жуда қийин. Бундай маъмурий чекловларга қарамай, компьютер лабораториялари баъзи хусусий институтларда (мактаб ва коллежлар) ва университетларда мавжуд бўлиб, улардан корпус асосида тил ўқитиш учун фойдаланиш мумкин.

2. Яна бир ноафзаалиги - бу малакали ходимлар, яъни турли институтларга мансуб профессор-ўқитувчилар анъанавий тарзда ўқитиши, шунинг учун ўз талабалари билан эски услублардан фойдаланишни афзал кўрадилар ва шунинг учун замонавий методология ва воситалар орқали дарс беришга тайёр эмаслар. Ўқитувчилар учун корпус асосида тил ўргатиш бўйича ўқув курслари ва семинарлар ташкил этилиши зарурлигини кўрсатади.

3. Корпусдаги катта ҳажмдаги маълумотлар талабалар учун оғирлик қилади ва шунинг учун улар битта сўров учун яратилган катта ҳажмдаги маълумотлар билан қандай ишлашни билишмайди. Шунинг учун ўқитувчилар ва талабаларни яхши ўрганишлари учун корпусдан самарали фойдаланишлари учун тўғри ўқитиш муҳимдир.

4. Инглиз тили бошқа тиллардан онлайн корпусга қирмайдиган баъзи сўзларни ўзлаштириб олди, бу эса ўрганиш жараёнига тўсқинлик қилиши мумкин.

Хулоса ва таклифлар. Ўрганиб чиқилган тадқиқотлар корпусга асосланган ёндашув тил ўқитиш соҳасига қанчалик ҳисса қўшиши мумкинлигини кўрсатди. Таълим соҳасида тил ўқитишда корпус техникаси тил ўрганувчилар ва ўқитувчилар учун фойдалидир. Корпус орқали ўқитувчилар ҳақиқий реал материаллардан тайёрлаш учун кенг имконият беради. Тадқиқотимиз натижасида корпусга асосланган ёндашув тилларни ўқитиш ва ўрганишда самарали эканлиги аниқланди. Хусусан маълумотларга асосланган ўрганиш усули, тўғридан тўғри корпус маълумотларига киришлари самарали натижаларга олиб келади. Яъни ўрганувчилар лингвистик тадқиқотчиларга, ўқитувчилар фасалитатор, координаторларга айланадилар.

АДАБИЁТЛАР

1. Abbas, F., Aslam, S. and Yasmeen, R. Communicative Language Teaching: A Modified Version. *Language in India*, 11 (4), pp. 2011. 331 – 341. Chohan, M. N., Abbas, F. and Saleem, M. CALL as a tool in teaching EFL in Pakistani religious institutes (Madaris): A survey of issues and challenges. *Al-Qalam*, 23 (1), pp. 2018.65-74.
2. Barlow, M. Corpora for theory and practice, *International Journal of Corpus Linguistics*, 1(1), 1996. 1- 38
3. Boontam, P and Phoocharoensil, S. Effectiveness of English preposition learning through Data-Driven Learning (DDL). *3L: The Southeast Asian Journal of English Language Studies – Vol 24(3)*, 2018. 125 – 141.
4. Bublitz, W. *Ausdrucksweisen der Sprechereinstellung [Ways of expressing speaker attitude]*. Tübingen, Germany: Niemeyer. 1978
5. Busse, D. Partikeln im Unterricht Deutsch als Fremdsprache [Particles in teaching German as a foreign language]. *Muttersprache*, 102(1), 1992.37-59.
6. Dodd, B. (Ed.). *Working with German corpora*. Birmingham, UK: Birmingham University Press, 2000.
7. <https://www.lancaster.ac.uk/fass/projects/corpus/cbls/bookinfo.asp>
8. Isam, H., Mutalib, M. A., & Ahmad, F. Korpus ke bilik darjah: tatacara pengendalian teknik pengajaran dan pembelajaran tatabahasa berbantu komputer. *Proceedings of the ICECRS*, 1(1). Accessed on Ogos 2018 from <http://repo.uum.edu.my/2017.23137/>
9. Joharry, S. A., & Rahim, H. A. Corpus research in Malaysia: a bibliographic analysis. *Kajian Malaysia*, 32(1), 2014,
10. Jones, R. Creating and using a corpus of spoken German. 1997 In A. Wichmann, S. Fligelstone, T.
11. Kader, M. I. B. A., Begi, N., & Vaseghi, R. A Corpus-Based Study of Malaysian ESL Learners' Use of Modals in Argumentative Compositions. *English Language Teaching*, 6(9), 2013 146-157.
12. Römer, U. Corpus research applications in second language teaching. *Annual Review of Applied Linguistics* 31: 2011 205–25.
13. Бадмаева Л. Д. Бурятский языковой корпус: создание, проблемы // Вестник БНЦ СО РАН. — 2013. — №2 (10). — С. 118–122.,
14. Крылов С.А. Теоретическая грамматика современного монгольского языка и смежные проблемы общей лингвистики. Ч. 2: Структурно-вероятностная модель монгольского языка (на базе Генерального корпуса современного монгольского языка). — М.: Восточная литература, 2014.
15. Изотов А.И. Новые направления славянского языкознания: корпусная лингвистика // Язык, сознание, коммуникация. – Москва, 2015. – С. 82–93.
16. Куканова В. В. Словоизменительные типы в калмыцком языке в свете автоматической обработки текстов (на примере имени существительного) // Вестник Калм. ин-та гуманитар. исслед. РАН. — 2012. — №3.
17. Плунгян В. А. Корпус как инструмент и как идеология: о некоторых уроках современной корпусной лингвистики // Русский язык в научном освещении. – Москва, 2008. – № 02 (16). – С. 7–20.
18. Сафонкина . О. С. Использование современных компьютерных технологий при обучении иностранным языкам // Материалы конференции «Иностранные языки в диалоге культур: экономика, политика, образование». – Саранск, 2005. – С. 200–201.



Adham TURG'UNOV,
Namangan muhandislik qurilish instituti o'qituvchisi
E-mail: adxamturgunov2127@gmail.com

PhD G'. Otamurodov taqrizi asosida

ATOM TUZILISHI MAVZUSINI TUSHUNTIRISHDA VENN DIAGRAMMASIDAN FOYDALASHISH

Anotatsiya

Bu maqolada Venn diagrammasidan foydalanilgan holda atom tuzilishi mavzusini tushuntirish ko'rsatilgan va Fizika darslari uchun grafik usul yaratish uchun misollar, Venn diagrammasini yaratish uchun tavsiyalar bilan qisqacha tanishib chiqamiz. Atom tuzilishi mavzusini o'qitishda turli xil metodlardan foydalangan holda mavzuni tushuntirish juda samarali hisoblanadi. O'qitishda mavzuni tushinarli bo'lishi uchun Venn diagrammasidan foydalanilsa bir tushunchani boshqa bir necha tushunchalar bilan bog'lab o'rganish imkonini beradi.

Kalit so'zlar: Atom tuzilishi, Venn diagrammasi, metod, o'qitish, tushunchalar, yozuvli o'qitishdan qochish, tavsiyalar, xulosalar.

ИСПОЛЬЗОВАНИЕ ДИАГРАММЫ ВЕННА ДЛЯ ОБЪЯСНЕНИЯ СТРОЕНИЯ АТОМА

Аннотация

В данной статье раскрывается тема строения атома с помощью диаграммы Венна, а также кратко представлены примеры создания графического метода для занятий физикой, рекомендации по созданию диаграммы Венна. Объяснение темы с использованием различных методов очень эффективно при изучении темы строения атома. Чтобы сделать тему понятной в обучении, использование диаграммы Венна позволяет учиться, соединяя одно понятие с несколькими другими понятиями.

Ключевые слова: Атомарная структура, диаграмма Венна, метод, обучение, понятия, уклонение от письменного обучения, рекомендации, выводы.

USING THE VENN DIAGRAM TO EXPLAIN ATOMIC STRUCTURE

Annotation

This article explains the topic of atomic structure using a Venn diagram, and briefly introduces examples for creating a graphical method for physics classes, recommendations for creating a Venn diagram. Explaining the topic using various methods is very effective in teaching the topic of atomic structure. In order to make the topic understandable in teaching, using a Venn diagram allows you to learn by connecting one concept with several other concepts.

Key words: Atomic structure, Venn diagram, method, teaching, concepts, avoiding written teaching, recommendations, conclusions.

Kirish. So'nggi yillarda mamlakatda ta'lim-tarbiya tizimining sifati va samaradorligini oshirish, bog'cha tarbiyalanuvchilari, o'quvchi va talaba yoshlarda zamonaviy bilim va ko'nikmalarni shakllantirish, ta'lim tizimlari hamda ilm-fan sohasi o'rtasida yaqin hamkorlik va integratsiyani, ta'limning uzviyligi va uzluksizligini ta'minlash borasida tizimli ishlar amalga oshirilmoqda[2].

2020-yil 23-sentabrda yangi tahrirdagi "Ta'lim to'g'risida"gi qonun e'lon qilindi. Ushbu Qonunning maqsadi O'zbekiston Respublikasida fuqarolarga ta'lim-tarbiya berish, kasb-hunar o'rgatishning huquqiy asoslarini va ta'lim sohasidagi davlat siyosatining asosiy prinsiplarini belgilash hamda har kimning bilim olishdan iborat konstitutsiyaviy huquqini ta'minlashdan iborat. Qonunda asosiy vazifalar sifatida: ta'lim tizimining ishlashi va rivojlanishi uchun huquqiy kafolatlar va mexanizmlarni yaratish, ta'lim olish jarayonida ta'lim oluvchilar uchun teng imkoniyatlar yaratish va shaffoflikni ta'minlash, O'zbekiston Respublikasi ta'lim tizimini xalqaro ta'lim standartlari darajasigacha takomillashtirish, ta'lim sohasida davlat hokimiyati va davlat boshqaruvi organlari hamda mahalliy davlat hokimiyati organlari vakolatlarini belgilash va ular o'rtasidagi munosabatlarni tartibga solish, ta'lim sohasida yuridik va jismoniy shaxslarning huquqlari, majburiyatlari va javobgarligini hamda ularning o'zaro munosabatlari huquqiy jihatdan tartibga solish[3].

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. O'qitishda turli xil metodlardan foydalanib mavzuni tushuntirish hozirgi zamon

o'qitish sistemasiga aylangan. Mavzuni tushuntirishda Venn diagrammasidan foydalanib tushuntirish juda katta samara beradi. Hozirgi kungacha o'quv jarayoniga Venn diagrammasidan ingliz tilini o'qitishda, pedagoglarni o'qitishda, matematika fanlarini o'qitishda foydalanilgan. Ammo fizika fanida ma'ruza mashg'ulotlarini o'qitishda ushbu usul yetarlicha tadqiq etilmagan. Ushbu maqolada qattiq jismlar fizikasi bo'limiga oid mavzularni oqitishda grafikli organayzer Venn diagrammasini qo'llanilishi keltirilgan. Venn diagrammasidan fizika mavzularni o'qitishda Misliddinov Baxtiyorni, "fizika o'qitishda venn diagrammasidan foydalanish va uning samaradorligini baholash" nomli maqolasi chop etilgan bu maqolada fizika fanini metal va yarim o'tkazgichlar mavzusiga Venni qo'llash ko'rsatilgan. Maqolada ikkita doira bilan Venn diagrammasi hosil qilingan. Fizika mavzularini tushuntirishda ikkitadan ko'p doiralar bilan boshqa bo'limlarga bog'lab tushuntirilsa yanada Venn diagrammasini imkoniyatlaridan kengroq foydalanilgan bo'ladi.

Tadqiqot metodologiyasi

Hozirgi kompyuter texnologiyalar asrida ta'limning reproduktiv metod va vositalari jamiyatga shiddat bilan kirib kelayotgan axborot oqimini to'liq o'zlashtira olmayapti[4]. Shu bois, ta'limni jadallashtirish, taraqqiy ettirish va samaradorligini oshirish uchun an'anaviy ta'limga har tomonlama yordam beradigan interfaol ta'lim metodlaridan foydalanish zarurligini davrning o'zi taqozo etmoqda. Demak, interfaol ta'lim metodlar hozirgi kun pedagogikasining

shartlari, barcha talablariga javob beradigan ta'limiy tadbir va dastur hisoblanadi. Mavzuni yoritishda o'qituvchidan pedagogik, didaktik bilimlarni chuqur o'rganish, yuzaga kelayotgan vaziyatlar mohiyatni tezkor sur'atda baholay olish, ularning yechimini topish layoqati, talabalarning yosh va psixologik xususiyatlarini inobatga olish, talabalarni o'quv faoliyatini nazorat qilish va haqqoniy baholay olish malakasiga ega bo'lishni taqozo etadi.

“Venn diagrammasi” metodi ikki yoki undan ortiq tushuncha va ob'ektlarni o'zaro taqqoslash va natijani chizmada tasvirlash uchun xizmat qiladi. U mantiq nazariyasi bilan shug'ullangan ingliz olimi Jon Venna (1834-1923) nomi bilan atalgan[5].

U odatda ikkita aylanadan iborat bo'lib, har bir aylana biror bir o'ektning xususiyatlari to'plamini belgilaydi. Ikki ob'ektning o'xshash, bir xil xususiyatlar bor bo'lsa, bu ob'ektlarni tasvirovchi aylanalar bir-biri bilan kesishadi[6]. Agar ularning bir xil, o'xshash xususiyatlari yo'q bo'lsa, bu aylanalar o'zaro kesishmaydi.

Ikki aylana uchun umumiy bo'lgan kesishish sohasida ularning bir xil o'xshash xususiyatlari, qolgan sohalar esa ob'ektlarning bir-biridan farqli xususiyatlari joy oladi.

Ikkitadan ortiq ob'ektlar o'zaro taqqoslanayotganda, mos ravishda ikkidandan ortiq aylanalardan foydalaniladi.

“Venn diagrammasi” metodidan foydalanishdan ko'zlangan maqsad: o'quvchilarda ikki va undan ortiq predmet va tushunchalarni taqqoslashda, ularning farqli va umumiy tomonlarini aniqlash ko'nikmalarni shakllantirish.


Tahlil va natijalar. Bu metod grafik tasvir orqali o'qitishni tashkil etish shakli bo'lib, u ikki va undan ortiq o'zaro kesishgan aylanalar tasviri orqali ifodalanadi[7]. Mazkur metod turli tushunchalar, asoslar, tasavurlarning analiz va sintezini ko'rib chiqish, ularning umumiy va farqlovchi jihatlarini aniqlash, taqqoslash imkonini beradi[8].

Metodni amalga oshirish tartibi: ishtirokchilar ikki kishidan iborat juftliklarga birlashtiriladilar va ularga ko'rib chiqilayotgan tushuncha yoki asosning o'ziga xos, farqli jihatlarini (yoki aksi) doiralar ichiga yozib chiqish taklif etiladi;

Navbatdagi bosqichda ishtirokchilar to'rt kishidan iborat kichik guruhlariga birlashtiriladi va har bir juftlik o'z tahlili bilan guruh a'zolarini tanishtiriladi;

Juftliklarning tahlili eshtirilgach, ular birgalashib, ko'rib chiqilayotgan muammo yohud tushunchalarning umumiy jihatlarini izlab topadilar, umumlashtiriladilar va doirachalarning kesishgan qismiga yozadilar[9].

Atom tuzilishi mavzusini Venn diagrammasi yordamida tushintirishda uchta doira birlashtirilgan, doiralarni markaziga atom tuzilishi deb yozib har bir doira ichiga esa atom tarkibiga kiruvchi zarralar yozilgan. Bizga malumki atom takibi proton, neytron va elektrondan iborat bo'lib bu zarralarni Venn diagrammasida uch xil rangdagi doirachalar ichiga yozilgan. Bu zarralar atom tarkibida bo'lganligi uchun doiralarni kesishgan joyiga “atom tuzilishi” deb yozilgan. Tahlil natijasi 1-rasmda ko'rsatilgan.



Diagrammadagi yashil doiraga proton ko'rsatilgan, proton massa va zaryadga egaligi strelka bilan ko'rsatib ketilgan. To'q sariq rangdagi doiraga elektron yozilgan va neytronning zaryadsiz va massaga ega ekanligi ko'rsatib o'tilgan. Ko'k rangli doiraga electron yozilgan uning zaryadga ekanligi va massasi juda kichikligi ko'rsatib o'tilgan.

Atom tuzilishi mavzusini Venn diagrammasidan foydalanib tushintirishda doiralar ichidagi bo'sh joylarga proton, neytronva elektronga oid boshqa xususiyatlarni yozib doira ichini to'lg'izishni tinglovchilarga topshiriq qilib berilsa mavzuga oid bilimlar yanada mustaxkamlanadi.

Xulosa va takliflar. Venn grafik usulidan fizika fanining turli mavzularini tushintirishda foydalanishning afzalliklari.

Fizika fani tarmoqlari boblari orasidagi mavzular ketma ketligidagi o'zaro umumiylikni oson tarzda ko'rsatib beradi.[10]

Fizikaviy masalalarni yechishdham foydalanish mumkin yirik mavzularni oddiy Vizual taqdimot orqali kichik hajmda yoritib berish imkonini beradi.

Aylanalarda berilgan atamalar yoki nazariyalar qisqa va aniq mazmunda bo'lgani sababli eslab qolish oson.

Matinni o'qitishdan qochish dars jarayonining o'zidayoq talabalar uni chizib yod olishlari mumkin.

ADABIYOTLAR

1. Mirziyoyev Sh.M. “Mamlakatimizda ta'lim-tarbiya tizimini takomillashtirish, ilm-fan sohasi rivojlanishini jadallashtirish” masalalari muhokamasi bo'yicha videoselektor yig'ilishi. 30-oktabr 2020-yil. <https://uza.uz>.
2. Mirziyoyev Sh.M. “O'zbekiston – yoshlar mamlakati” O'zbekiston Respublikasi Prezidentining BMT Bosh assambleyasining 72-sessiyasida so'zlagan nutqi. 20.09.2017. <https://president.uz/uz/lists/view/1063>.

3. Mamatov, Jasur, and A. Parmanov. "Planimetrik masalalarni zamonaviy axborot texnologiyalari vositasida o‘qitishning samaradorligi haqida." *Журнал математики и информатики* 1.2 (2021).
4. Zaynidinovich, Mislidinov Baxtiyor. "Pedagogik texnologiyalardan foydalanish asosida fizika o‘qitishning samaradorligini oshirish." *Ilm sarchashmalari*: 88-91.
5. Boydedayev, S. R., M. M. Umaraliyev, and A. R. Turgunov. "Application of the venn diagram method in the laboratory lesson" determination of young's modulus of different metals by bending method". *Web of Scientist: International Scientific Research Journal* 3.9 (2022): 377-381.
6. Xayrulloeva, Nigorabegim. "The concept of nature in modern american literature." *центр научных публикаций (buxdu. uz)* 8.8 (2021).
7. Safarova, Nafisa Sulaymonovna, Umurbek Ulug‘bekovich G‘afurov, and Xojiquil Tovboyevich Omonov. "Venn grafik uslubidan kimyo darslarida foydalanish." *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences* 2.1 (2022): 134-138.
8. Mardanova, Feruza. "Использование интерактивных методов при преподавание теме "показательные и логарифмические уравнения." *центр научных публикаций (buxdu. uz)* 8.8 (2021).
9. Polvanov, Rashid Raximjanovich. "Application of innovative technologies in teaching probability theory." *Scientific Bulletin of Namangan State University* 1.10 (2019): 19-25.
10. Замилова, PhD P. "Техник муцаррир: А. Бойдедаев Тацририят манзили: Наманган шацри, Уйши кфшаси, 316-уй." (2019).



Beruniy FAYZULLAYEV,
O'zMU Fizika fakulteti dotsenti
Komiljon TURSUNMETOV,
O'zMU Fizika fakulteti professori
Yunusali XOLBOYEV,
O'zMU Fizika fakulteti o'qituvchisi
E-mail: xolboyevyunusalihasanovich@gmail.com.

Ped.f.d J.O'sarov taqrizi ostida taqrizi ostida

METHOD OF STUDYING THE STANDARD MODEL OF ELEMENTARY PARTICLES AND INTERACTIONS (PART 2)

Abstract

In this work, the problem of unification of interaction forces, as well as the standard model of the composition of elementary particles, is developed on the basis of the data and aspects presented in the previous article. The role of quarks, bosons and criteria in interactions is emphasized. The description of the Higgs boson also explains processes that do not fit the standard model.

Key words: Gauge symmetry, relativity principle, standard model, electron, proton, muon, lepton, neutrino, photons, bosons, mesons, quarks, antiquarks, arsons, Higgs boson, "dark mass", "dark energy".

МЕТОДИКА ИЗУЧЕНИЯ СТАНДАРТНАЯ МОДЕЛЬ ЭЛЕМЕНТАРНЫХ ЧАСТИЦ И ВЗАИМОДЕЙСТВИЙ (2-ЧАСТЬ)

Аннотация

В данной статье, на основе сведений и аспектов, приведенных предыдущей части статьи, освещены проблема объединения силы взаимодействий и состав стандартной модели элементарных частиц. Показан роль кварков и мезонов при взаимодействиях. Также описано свойство бозон Хиггса и процессы, не соответствующие стандартной модели.

Ключевые слова: Симметрия калибровки, принцип относительности, стандартная модель, электрон, протон, мюон, нейтрино, фотон, бозоны, лептон, мезоны, кварки, антикварки, ардоны, бозон Хиггса, "тёмная масса", "тёмная энергия".

ELEMENTAR ZARRACHALARNING STANDART MODELI VA O'ZARO TA'SIRLASHUVLARNI O'RGANISH METODIKASI (2-qism)

Annotatsiya

Ushbu maqolada avvalgi maqolada keltirilgan ma'lumotlar va aspektlar asosida o'zaro ta'sir kuchlarini birlashtirish muammosi hamda elementar zarrachalarning tarkiblarining standart modeli yoritilgan. O'zaro ta'sirlarda kvarklar, bozonlar va mezonlarning roli ko'rsatilgan. Shuningdek, Higgs bozonining tavsifi, standart modelga mos kelmaydigan jarayonlar izohlangan.

Kalit so'zlar: Kalibrovka simmetriyasi, nisbiylik prinsipi, standart model, elektron, proton, myuon, lepton, neytrinolar, foton, bozonlar, mezonlar, kvarklar, antikvarklar, ardonlar, Higgs bozoni, "qorong'u massa", "qorong'u energiya".

Kirish. Atom va yadro fizikasi, nazariy fizika kurslarida elementar zarralar va ularning xossa hamda xususiyatlarini hamda o'zaro ta'sir turlarini integratsion o'rganish hamon muammo bo'lib qolmoqda.

Buning sababi ularning ko'p sonli va turli-tumanligi, xossa va xususiyatlarining murakkabligi, ularni tizimlashtirilmaganligidir. Shu sababli mazkur maqolada elementar zarralar, ularning xossa va xususiyatlari hamda ularning o'zaro ta'sirdagi rollari keltirilgan. Shuningdek, 2021-yil 19-martdagi PQ-5032-son "Fizika sohasidagi ta'lim sifatini oshirish va ilmiy tadqiqotlarni rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida" gi qaroriga binoan ushbu mavzuni fizika ta'limida umumlashgan, integratsion va ko'rgazmali o'rgatish muammosini hal qilish tadqiqotning maqsadi qilib belgilandi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Elementar zarralar, xususan va ularning turli o'zaro ta'sirlardagi roli o'quv adabiyotlarida [1-3] yetarlicha yoritilmagan. Sababi, bu adabiyotlar yozilish davrida kvarklar, bozonlarning turlari to'la kashf qilinmagan. Shuningdek, eng yangi darsliklardan biri D.V.Sivuxinning o'quv qo'llanmasi [4] da elementar zarralar klassifikatsiyasi bir muncha to'laroq berilgan hamda ularning o'zaro ta'sirdagi roli keltirilmagan [5-11].

Tadqiqot metodologiyasi. Mazkur maqolada elementar zarralar va ularning xususiyatlari tizimlashtirilgan,

takomillashgan diagrammalar asosida ko'rgazmali tavsiflab, ularning turli o'zaro ta'sirdagi rollarini oxirgi ilmiy yutuqlar asosida yoritildi.

Tahlil va natijalar. O'zaro ta'sir kuchlarini birlashtirish.

1967-yilda kuchsiz o'zaro ta'sirni tushuntirishda katta yutuqqa erishilgan edi - elektromagnit o'zaro ta'sir va kuchsiz o'zaro ta'sirni birlashtiruvchi model yaratilgan. Matematik nuqtai nazardan xromodinamika ham, elektromagnit va kuchsiz o'zaro ta'sirning birlashgan modeli ham juda murakkabdir, ammo ularning hammasi bitta nisbatan sodda bo'lgan kalibrovka simmetriyasi talabidan keltirib chiqariladi. Ha, XX-asrning 70-yillariga kelib ma'lum bo'ldiki, tabiatdagi hamma fundamental kuchlar bitta prinsip asosida keltirib chiqarilar ekan! Ya'ni, elektromagnit, kuchsiz, kuchli va gravitatsion o'zaro ta'sir kuchlari bor yo'g'i bitta prinsipdan - kalibrovka simmetriyasidan - keltirib chiqarilar ekan, faqat bu prinsip har gal har xil yo'l bilan amalga oshirilgan ekan! Tabiatning prinsipial nuqtai nazardan bunday "sodda"ligini aniqlash fizika fanining juda katta yutug'i bo'ldi! Ammo, bunday "sodda" prinsipni tajribaga mos keluvchi to'la qonli nazariyaga aylantirish juda uzoq vaqttni va katta mehnatni talab qildi.

Kalibrovka simmetriyasi (yoki, invariantligi) ni tushuntirish matematik apparatni talab qiladi, bu apparat kvant mexanikasi kursida o'rganiladi. Biz bu yerda uning aniq ta'rifini bera olmaymiz. Oddiy so'zlar bilan aytganda, XX-asrning ikkita buyuk yutug'leri bo'lgan kvant mexanikasi va nisbiylik prinsipini bir-biriga mos keltirish uchun yuqorida aytilgan kalibrovka simmetriyasini kiritishimiz kerak ekan! Ya'ni, elektromagnit maydon, $W^\pm$ va Z^0 maydonlar, gravitatsion maydon - bularning hammasi kvant mexanikasi va nisbiylik nazariyasini bir-biriga mos keltirish uchun tabiat tomonidan kiritilgan maydonlardir.

Yuritilayotgan mulohazalar to'liq bo'lishi uchun biz shu paytgacha gravitatsion kuch va uni tashuvchi gravitonlar haqida ham gapirib keldik, ammo elementar zarrachalarning standart modeliga ularning aloqasi yo'q, shuning uchun bundan keyin gravitatsiya haqida boshqa to'xtalmaymiz.

Standart model. Demak, fundamental deyiladigan elementar zarrachalarning tarkibi quyidagicha bo'lib chiqayapti:


Elektromagnit va kuchsiz o'zaro ta'sirda ishtirok etadigan zarrachalar - elektron e , muon μ , tau-lepton τ , ularning neytrinolari ν_e, ν_μ, ν_τ . Ularning umumiy nomi - leptonlar. Va, albatta, bu oltita zarrachaning antizarrachalari ham mavjuddir. Bu ta'sir kuchlarini tashuvchi foton γ , oraliq bozonlar W^+, W^- va Z^0 dir. Tajribada kuzatilyapgan jarayonlarni to'g'ri ifodalash uchun leptonlarga lepton soni deyiladigan kvant soni mos qo'yilishi kerak. Shunda antileptonlarning lepton soni teskari ishoraga ega bo'ladi va lepton sonining saqlanish qonuni paydo bo'ladi. Bunga misol quyida keltirilgan. Kuchli o'zaro ta'sir sakkizta gluon orqali amalga oshiriladi, bu gluonlar oltita kvarklar u, d, s, c, b, t orasida ularni bog'lovchi vosita bo'lib xizmat qiladi. Har bir kvarkning yuqorida ta'kidlab ketilgan yana bitta kvant soni bor - rangi, ranglar uchta, shuning uchun kvarklarning soni 18 ta! Agar ularning antizarrachalarini ham hisobga olsak ularning soni 36 ta bo'lib chiqadi!

Yuqorida aytilgandek, adronlar kvarklardan iborat. Masalan, proton ikkita u kvarkdan va bitta d kvarkdan iborat- $p \approx (u, u, d)$ va uning tuzilishi 1-rasmda ko'rsatilgan. Neytron


esa ikkita d kvarkdan va bitta u kvarkdan iborat: $n \approx (u, d, d)$. Ya'ni, ularning har bittasi uchta kvarkdan iborat. Shu joyda neytronning parchalanishiga qaytib kelaylik. $n \rightarrow p + e^- + \bar{\nu}_e$ jarayon kvarklar nuqtai nazaridan qanday o'tadi? Bu 2-rasmdan ko'rinib turibdiki, kvarklar kuchsiz o'zaro ta'sirda ham ishtirok etar ekan, neytronning parchalanishi birinchi bosqichda $d \rightarrow u + W^-$ jarayon orqali, ikkinchi bosqichda $W^- \rightarrow e^- + \bar{\nu}_e$ jarayon orqali amalga oshiriladi. Mana shu yerda yuqorida kiritilgan lepton sonini eslash kerak - ikkinchi jarayonning boshida W^- -bozon turibdi, u lepton emas, demak, tenglikning chap tomoniga nolga teng lepton sonini mos keltirishimiz kerak. O'ng tomonda esa ikkita lepton bor, to'liq lepton soni nolga teng bo'lishi uchun ikkinchi zarrachani antineytrino deb qabul qilishimiz kerak- har bir leptonning lepton soni +1 ga teng, antileptonning esa lepton soni -1 ga teng. Ya'ni, lepton soni ixtiyoriy jarayon davomida saqlanishi kerak. Lepton sonining saqlanish qonuni juda yuqori aniqlikda tekshirilgan qonundir.

Adronlarning eng yangilari - π, K va h.k. mezonlar (ularning spini nolga teng) ikkita kvarklardan iborat. Masalan, π -mezon u va d ning antikvarkidan iborat: $\pi^- \approx (\bar{u}, d)$. K^+ -mezon bitta u kvark va bitta anti- s kvarkdan iborat (7-rasmga qarang) va h.k.. To'rtta, beshta kvarklardan iborat sistemalar ham mavjud.

Adronlar odatda mezonlar (π, K, ρ va h.k.) va barionlar (proton, neytron va h.k.) ga bo'linadi. Mezonlar ikkita kvarklardan iborat bo'lsa, barionlar uchta kvarklardan tuzilgan. Huddi lepton soniga o'xshash barion soni ham bor. U ham saqlanuvchi kattalik, har bir barionning +1 ga teng barion soni bor, har bir antibarionning -1 ga teng barion soni bor. Masalan, proton p^+ ning barion soni +1 ga teng, antiproton (elektr zaryadi manfiy) p^- ning barion soni esa -1 ga teng. Barion sonining saqlanish qonuni nima uchun og'ir zarracha bo'lgan proton yengil zarrachalarga parchalanib ketmaydi degan savolga javob beradi deb hisoblanadi - protondan yengil bo'lgan boshqa barion yo'q, shuning uchun proton parchalansa barion soni saqlanib qolmas edi.



1-rasm 2-rasm.



3-rasm

Leptonlar va oraliq bozonlar fundamental zarrachalardir, adronlar esa kvarklardan tuzilgan zarrachalar: ular orasidagi o'zaro ta'sir kuchlari elektromagnit, kuchsiz va kuchli o'zaro ta'sir kuchlaridir - Standart model degani shudir.

Kvarklar va gluonlarga kelganda bitta katta muammo mavjud - ular hech qachon erkin zarracha sifatida ko'rilmagan, ular faqat adronlarning ichida "qamalgan" holatdagina mavjuddir. Bu hodisaning to'liq nazariyasi (ya'ni, nima uchun kvarklar "ozodlikka" chiqmaydi degan savolga javob) hozircha mavjud emas.

Adronlar fizikasining yana bitta juda katta muammosi bor - yuqorida keltirilgan diagrammadan ko'rinib turibdiki, ikkita u kvark+bitta d kvarkning umumiy massasi ~ 9 Mev ga teng. Vaholangki, mana shu uchta kvarkdan tuzilgan protonning massasi 938 Mev ga teng. Proton massasining qolgan 99% qismi qayerdan keldi? Huddi shunday, π -mezonning massasi ~ 135 Mev ga teng, vaholangki, mana shu mezonni tashkil qilgan bitta u kvark+bitta d kvark sistemasining massasi $\sim 6,8$ Mev ga teng. Bu muammo bilan yuqorida aytilgan erkin kvarklarning ko'rinmaslik muammosi

“1000 yillik muammolari” qatoriga kiritilgan, ularning hozircha yechimlari yo‘q!

Higgs bozoni. Jadvaldagi eng sirli zarracha - Higgs bozoni H^0 ga kelaylik. Bu - spini nolga teng bozon, uning asosiy vazifasi - yuqorida aytilgan simmetriyani buzib zarrachalarga massa berish. Higgs bozoni shunday bir maxsus zarrachaki, u simmetriyani “spontan” ravishda buzadi. “Spontan” buzilish shunday buzilishki, simmetriya haqiqatda buzilmaydi, faqat uning ko‘rinishi buziladi. Bunday mexanizmning o‘ylab topilishi 60-yillarning o‘rtalaridagi eng buyuk yutuqlardan biri bo‘ldi. Higgs bozoni o‘ziga xos o‘zaro ta’sir potensialiga ega bo‘lib u bilan ta’sirlashadigan oraliq bozonlar va fermionlar (boshida massaga ega bo‘lmasa ham) massali bo‘lib qoladi! Hamma gap shundagi, sof kalibrovka simmetriyasi oraliq bozonlarning massasi nolga teng bo‘lishini talab qiladi. Higgs bozoni esa bu simmetriyani spontan ravishda buzib ularning kerakli qismiga massa beradi.

Standart model – elementar zarrachalarning birlashgan modelidir, to‘g‘rirog‘i, tabiatdagi fundamental o‘zaro ta’sir kuchlarining birlashtirilgan yagona modelidir. Bu model bo‘yicha leptonlar (neytrinodan tashqari) va oraliq bozonlar ham elektromagnit, ham kuchsiz o‘zaro ta’sirlarda ishtirok etadi. Bu ta’sirlar orqali ular kvarklar bilan ham bog‘langandir. Kvarklar o‘zining elektr zaryadi orqali elektromagnit o‘zaro ta’sirda, rangi orqali kuchli o‘zaro ta’sirda va oraliq bozonlar orqali kuchsiz o‘zaro ta’sirda sitirok etadi. Neytrino bu modelda alohida rol o‘ynaydi - u faqat kuchsiz o‘zaro ta’sirda ishtirok etadi. Ya’ni, bu model elementar zarrachalar va fundamental kuchlar dunyosining bir butun, yagona prinsiplar asosida qurilgan tasvirini beradi.

Shu bilan quyidagini aytishimiz mumkin -

Standart model ikkita g‘oyaga asoslangan - kalibrovka simmetriyasi va uning spontan buzilishi.

Mana shu ikkita birinchi ko‘rinishda soddagina bo‘lgan g‘oyalar asosida shu paytgacha topilgan hamma elementar zarrachalar dunyosi tartibga keltirildi. Tartib shundan iboratki, birinchi jadvalda keltirilgan fundamental zarrachalar bor, tabiatda uchraydigan boshqa hamma zarrachalar ulardan tuzilgan va tajribada ko‘rinib turgan hamma jarayonlar mana shu fundamental zarrachalar orasidagi fundamental ta’sir kuchlari bilan tushuntiriladi.

Standart modeldan tashqarida.

Ammo fan doimo rivojlanishda, tajribalar va kuzatuvlar hech qachon to‘xtamaydi. Natijada yuqorida ko‘rib chiqilgan standart model nuqtai-nazaridan tushuntirib bo‘lmaydigan hodisalar paydo bo‘ldi. Ularning ichida

neytrinolarning ossillatsiyasi, qorong‘i massa va qorong‘i energiya. Tajribalardan ma’lum bo‘ldiki, yuqorida keltirilgan uchta “hidli” neytrinolar ν_e , ν_μ , ν_τ ning har biri o‘z navbatida ν_1 , ν_2 , ν_3 deb belgilanadigan va hech qanday “hid” ga ega bo‘lmagan boshqa uchta neytrinoning superpozitsiyasidan - aralashmasidan iborat ekan. Va bu yangi uchta neytrino avvalgi “hidli” neytrinolardan farqli o‘laroq aniq massaga ega ekan, hidli neytrinolar esa aniq massaga ega emas ekan. Ossillatsiya hodisasi esa quyidagidan iborat - hidli neytrino (masalan, ν_e) o‘z traektoriyasi bo‘yicha harakat qilayotganida navbatma-navbat bir ν_μ , bir ν_τ ga aylanib turadi. Ya’ni, hech qanday hidli neytrino vaqt o‘tishi bilan o‘zligicha qola olmaydi, ular doimo bir-biriga aylanib turar ekan. Mana shu o‘zaro aylanishlarga kerak bo‘lgan vaqt yuqoridagi hidsiz neytrinolarning massalariga bog‘liq bo‘lib har xil almashinishda har xil bo‘lar ekan. Shu sababdan leptomlarga tegishli jadvalda neytrinolarning yashash vaqti va massalari noaniq deyilgan. Bularni standart modelga kiritish usullari hali topilmagan.

Qorong‘i massa va qorong‘i energiya - bu narsalarni tushuntirish yo‘lida izlanishlar faol ravishda davom etmoqda, bu sohada hozircha “pichoqqa ilinadigan” biror natija yo‘q - faqat taxminlar. Aniq ma’lum bo‘lgani quyidagicha - Koinot energiyasining tahminan 70% - qorong‘i energiyaga, 25% - qorong‘i massaga va bor-yo‘g‘i 5% - standart modelga kirgan va hammamizga ma’lum bo‘lgan zarrachalarga mos keladi.

Yoshlarimiz ichida fizik bo‘lishni orzu qilganlari bo‘lsa ular kelajakda mana shu murakkab muammolarni yechishda ishtirok qiladi degan umiddamiz.

Izoh:

Nazariy va yadro fizikasida yadro reaksiyalari va o‘zaro ta’sirlarni massa emas, energiya birliklarida tavsiflash qulay. Shuning uchun elementar zarrachalar dunyosida massa elektronvoltlarda o‘lchanadi, chunki bunday yo‘l - qulaydir. 1 elektronvolt=1,6·10⁻¹⁹ J (Joule) ga teng. Bu - energetik birlik, uni yorug‘lik tezligining kvadrati c^2 ga bo‘lsak massa birligi kelib chiqadi. Masalan, tekstda elektronning massasi 0,511 MeV deb ko‘rsatilgan, 1 MeV=106 eV degani, 1Gev = 109 eV degani. Demak, elektronning massasi 511000·1,610⁻¹⁹/c² ≈9,1·10⁻³¹kg ekan. Jadvallardagi boshqa massalar ham shu usul bilan kilogrammlarga o‘tkazilishi mumkin.

Xulosa va takliflar. Ta’limning barcha bosqichlarida “Elementar zarrachalar” va “O‘zaro ta’sir turlari” mavzularini maqolada keltirilgan metod va metodikalar asosida o‘qitish va o‘rgatish tavsiya qilinadi.

ADABIYOTLAR

1. Muminov T.M., Xoliqov A.B., Xolmurodov Sh.X. Atom yadrosi va zarralar fizikasi. -T.: O‘zbekiston faylasuflar jamiyati, 2009.
2. Мухин К.Н. Экспериментальная ядерная физика: Учебник. В 3-х тт. Т.1. Физика атомного ядра. 7-е изд., стер.-СПб.: Изд-во «Лань», 2009.-384 с.
3. Krane K.S. Introductory nuclear physics. Oregon State University, John Wiley and Sons, New York, 1988, 872 pages.
4. Сивухин Д.В. Общий курс физики. Учеб. пособие: Для вузов. В 5 т. Т. V. Атомная и ядерная физика. -М.: ФИЗМАТЛИТ; Изд-во МФТИ, 2002.- 784 с.
5. Михайлов М.А. Ядерная физика и физика элементарных частиц. В 2-х ч. Ч.1. Учебное пособие /М.А. Михайлов.– Изд-во МГПУ, 2011.– 94 с.
6. Ландау, Л.Д. Теоретическая физика: учебное пособие для вузов. В 10 т. Т. 3. Квантовая механика (нерелятивистская теория) /Л.Д. Ландау, Е.М. Лифшиц. -М.: ФИЗМАТЛИТ, 2011.– 799 с. (ЭБС «Книга Фонд»).
7. Пинский, А.А. Основы физики: учебник. В 2т. Т. 2. Колебания и волны. Квантовая физика. Физика ядра и элементарных частиц /А.А. Пинский, Б.М. Яворский. -М.: ФИЗМАТЛИТ, 2011. –551 с. (ЭБС «Книга Фонд»).
8. Кондратьев А.С. Физика: учебное пособие. В 3-х кн. Книга 3. Строение и свойства вещества /А.С. Кондратьев, Уздин В.М., Бутиков Е.И. -М.: ФИЗМАТЛИТ, 2010.– 336 с. (ЭБС «Книга Фонд»).
9. Ермаков А.И. Квантовая механика и квантовая химия /А.И. Ермаков. -М.: Юрайт, 2010.– 555 с.
10. Давыдов А.С. Квантовая механика /А.С Давыдов. – Изд. БХВ- Петербург, 2011.– 704 с.



УДК:159.9(575.1)

Orziqul KHAKIMOV,
O'zbekiston Milliy Universitetining Jizzax filiali dotsenti.
E-mail: hakimov.orziqul333@gmail.com
Sevinch JALOLIDDINOVA,
O'zbekiston Milliy Universitetining Jizzax filiali talabasi

профессор, псих.ф.д. . Р. Абдурасулов тақризи асосида

IMPACT OF DEPRESSION ON HUMAN LIFE

Abstract

The causes and consequences of depression, which is currently becoming a global problem, are discussed. This article describes the role of depression in human diseases or diseases that cause depression in general. It talks about the prevention of depression and methods of its treatment with the help of psychotherapy, as well as information about identifying the symptoms of depression from a medical point of view.

Key words: Exogenic, endogenous, somatogenic, depression, apathy, dysthymia, manic depression psychosis, involutional psychosis;

ВЛИЯНИЕ ДЕПРЕССИИ НА ЖИЗНЬ ЧЕЛОВЕКА

Аннотация

Обсуждаются причины и последствия депрессии, которая в настоящее время становится глобальной проблемой. В данной статье описывается роль депрессии в заболеваниях человека или болезней, вызывающих депрессию в целом. В ней рассказывается о профилактике депрессии и методах ее лечения с помощью психотерапии, а также информация о выявлении симптомов депрессии с медицинской точки зрения.

Ключевые слова: Экзогенный, эндогенный, соматогенный, депрессия, апатия, дистимия, маниакально-депрессивный психоз, инволюционный психоз;

DEPRESSIYANING INSON HAYOTIGA TA'SIRI

Annotatsiya

Hozirgi davrda global muammoga aylanib borayotgan depressiyaning sabablari, oqibatlarini haqida so'z boradi. Ushbu maqolada insonlarda kelib chiqayotgan kasalliklarda depressiyaning o'rni yoki umuman depressiya keltirib chiqaradigan kasalliklar haqida yoritilgan. Depressiyaning oldini olish va psixoterapiya yordamida uni davolash usullari, tibbiy jihatdan depressiyaning alomatlarini aniqlash kabi ma'lumotlar haqida so'z boradi.

Kalit so'zlar: Ekzogen, endogen, somatogenic, depressiya, apatiya, distimiya, maniakal depressiya psixoz, involyutsion psixoz;

Kirish. Depressiya – zamonaviy ijtimoiy jamiyatdagi insonlar orasida keng tarqalgan, og'ir ruhiy holat hisoblanadi. Bunga olib keluvchi sabablar ko'p bo'lib, asosan ijtimoiy muloqotda yuz beradigan kichik stresslar sabab bo'ladi. Insonlar aro muloqotda ematiya va alternativ muhitning yetishmasligi stresslarga olib keladi. Bu holat esa inson salomatligiga jiddiy ta'sir ko'rsatuvchi omil sifatida qaralib, hozirda olimlarni bu borada ko'plab tadqiqotlar qilishga undayapti.

Depressiya – kayfiyatning keskin pasayishi, fikrlar karaxtligi va har qanday harakatga bo'lgan intilishning yo'qolishi bilan kechuvchi kasallik. Depressiyaning asosiy sabablari – bular o'tkir va surunkali ruhiy siqilishlar ketma-ket keluvchi muvaffaqiyatsizliklar va uzoq davom etuvchi og'ir kasalliklardir. Tashqi salbiy omillar ta'sirida rivojlangan depressiyaga ekzogen depressiya deyiladi. Hech qanday tashqi omillarsiz rivojlangan depressiyaga endogen depressiya deyiladi. Ekzogen depressiya negizida psixosotsial omillar yoki og'ir somatik kasalliklar yotsa, endogen depressiya negizida genetik omillar yotadi. Somatik simptomlar, ya'ni ichki a'zolar funksiyalari buzilishi bilan kechuvchi depressiyaga niqoblangan depressiya deb ataladi. Chunki bemor depressiya bilan kasallangan bo'lsada, uning shikoyatlari xuddi boshqa kasalliklarni eslatadi, ya'ni "Migren", "Yurak og'riqlari", "Bo'g'im og'riqlari", "Oshqozon-ichak kasalliklari" va h.k. Niqoblangan depressiya (somatizatsiyalashgan depressiya) – ruhiy buzilishga qaraganda somatofom buzilishning ustunligi bilan namoyon bo'ladigan depressiya [1].

Apatiya – bu hamma narsaga befarqlik nilan namoyon bo'luvchi ruhiy holat. Apatiya depressiyaga juda o'xshab ketadi. Apatiyada bemo hech narsaga qiziqmaydi, biror-bir ishda ishtirok etmaydi, atrofda bo'layotgan voqealarga mutlaqo befarq bo'ladi. Bunday bemorga ko'pincha "depressiya" tashxisi qo'yiladi. Apatiyada depressiyadagi kabi kuchli psixik buzilishlar kuzatilmaydi. Masalan, fikrlar karaxtligi bo'lmaydi, o'z joniga qasd qilishga urinishlar kuzatilmaydi va antidepressantlar ham tavsiya etilmaydi [2].

Kognitiv psixoterapevtlar tomonidan depressiyaning kognitiv modeli ilgari surilgan. Ularning fikricha, bolalik davrida o'tkazilgan ruhiy jarohat uning miyasoga o'rnatilib qoladi va katta yoshga yetganida salbiy ijtimoiy-psixologik omillar ta'siri ostida qo'zg'alib, depressiya rivojlanishiga olib keladi. Yuqorida aytib o'tilganidek, depressiya somatik kasalliklar sababli ham rivojlanadi. Ayniqsa, og'ir yoki ketma-ket o'tkazilgan jarrohlik operatsiyalari, bir necha oylab davom etayotgan ostemiyelit, sil, jigar, buyrak, teri-tanosil va OITS kabi kasalliklar ham somatogenic depressiya sababchisidir. Gipotireozda ham depressiya ko'p ichraydi. Shu bois depressiyada qalqonsimon bez gormonlarini tekshirib ko'rish tavsiya etiladi. Ba'zi fikrlarga ko'ra, quyosh nuri yoki yorug'lik yetishmasligi ham depressiya rivojlanishiga turki bo'ladi. Qish va kuz oylarida depressiyaning ko'p uchrashi bunga misol bo'la oladi. Biroq bu ilmiy farazni inkor qiladigan qarashlar ham bor. Masalan, shaxtyorlarda depressiyaning uchrash darajasi, yorug'likda ishlaydiganlardan farq qilmaydi. Depressiyada ko'p kuzatiladigan asosiy ruhiy-hissiy buzilishlar – bular kayfiyatning tushib ketishi, umidsizlik,

doimiy havotir, yomon voqealarni kutib yashash, aybdorlik hisi yoki o'zini hadeb ayblatverish, qaysarlik, o'jarlik, o'z bilganidan qolmaslik, o'z hayotidan qoniqmaslik va o'zini kamsitish, atrofda voqealar va yaqinlariga qiziqishning yo'qolishidir. Depressiyaga chalingan odamning kayfiyati kun bo'yi o'zgarib turishi mumkin. Masalan, ertalab kayfiyati yaxshi bo'lsa, kechga uning kayfiyati umuman tushib ketadi [2]. Distimiya – kayfiyatning turg'un buzilishi bo'lib, ikki yildan ortiq davom etadi va depressiyaga o'xshab og'ir kechmaydi. Distimiya ko'pincha o'smirlik davrida boshlanadi, biroq involutsion distimiya ham farq qilinadi. Distimiya uchun quyidagi belgilar xos: 1) ishtahaning pasayib ketishi yoki keragidan ortiq ovqat yeb yuborish; 2) o'ziga nisbatan ishonchning yo'qolishi; 3) Uyqusizlik yoki hadeb uxlayverish; 4) umumiy quvvat va ishchanlikni so'nishi; 5) fikrini bir joyga jamlay olmaslik; 6) o'ziga tanbeh eshita, ko'zi yoshlanishi; 7) yosh bo'lsa-da seksual hayotga qiziqmaslik; 8) kundalik yumushlarini oxiriga yetkaza olmay to'xtatib qo'yish; 9) pessimizm; 10) yoqimsiz voqealarni eslab xayolga botib yurish; 11) odamlarga qo'shilma yolg'izlikni ma'qul ko'rish; 12) kamgaplik; 13) psixologik stuporga tushib turish; Bipolyar affektiv buzilishlar – maniakal depressiv psixoz deb ham ataladi. Bipolyar affektiv buzilishlar – maniakal va depressiv holatlarning galma-gal kuzatilishi bilan namoyon bo'luvchi affektiv holatdir. Maniya – depressiyaga teskari bo'lgan ruhiy holatdir. Bu paytda bemorning kayfiyati ko'tariladi va sho'x-shodon bo'lib qoladi, hazil-mutoyibalar qiladi, hatto qo'shiq aytib raqsga tushadi, jismoniy faolligi ham kuchayib ketadi, libido kuchayib seksual faolligi oshadi, gapdon bo'lib qoladi. Uni ko'rganlar “depressiyadan chiqibdi” deb xursand bo'lishadi. Ammo bir-ikki haftadan keyin yana depressiyaga tushadi, ya'ni maniakal davri tugab depressiya davri boshlanadi. Aksariyat mutaxassislar depressiya uchrashi bosh miyaning funksional assimetriyasiga ham bog'liq, deb hisoblashadi. Ularning fikricha, o'naqaylarga qaraganda chapaqaylar depressiyaga depressiyaga moyil va hissiyotga beriluvchan bo'lishadi. Involutsion depressiya lotinchadan involutio – teskariga rivojlanish, orqaga qarab ketish degan ma'nolarni anglatadi. Psixiatrlar involutsion davrni ayollar uchun 45-55 yosh, erkaklar uchun 50-65 yoshdan so'ng boshlanadi, deb hisoblashadi. Biroq JSST tasnifiga ko'ra, bu davrlar o'rta yoshga kiritilgan. Involutsion depressiya endokrin va jinsiy bezlar atrofiyasi boshlanishi bilan bog'liq depressiv buzilishlar majmuasi bo'lib, doimiy tushkun kayfiyat, qo'rquv va havotir, ipoxondriya, hayotga bo'lgan ishtiyoqning pasayishi, turli somatovegetativ buzilishlar va o'z joniga qasd qilishga urinishlar bilan kechadi. Ba'zan kuchli psixopatologik o'zgarishlar psixoz darajasigacha yetadi. Bunday holatda involutsion psixoz haqida so'z boradi. Ushbu kasallik, ayniqsa, jufti halolidan ayrilganlarda yaqqol namoyon bo'ladi yoki kuchayadi.

Psixooanaliz (psixodinamik terapiya). Psixodinamik nazariyaga muvofiq psixoeomotsional buzilishlar negizida bolalik davrida olingan kuchli psixologik zarbalar yotadi. Ular ong ostida yillar mobaynida yashirilib yotadi, va kuchli ziddiyatlar o'chog'ini yaratadi. Buning oqibatida nevroitik shaxslar shakllanadi va bunday odamlar isteriya, depressiya va psixosomatik buzilishlarga moyil bo'ladi. Shaxs bir tomondan, birovga qaram bo'lishni xohlamaydi, ikkinchi tomondan, boshqalar uni e'tirof etishi va qo'llab-quvvatlashini istaydi. Psixooanalitiklar fikricha, mana shu istaklarning ro'yobga chiqmasligi nevroitik shaxs va keyinchalik depressiya shakllanishiga turki bo'ladi. Yillar mobaynida ong ostida qo'nim topib e'tirof etilmagan har bir xohish va istak bora-bora ichki ziddiyatlarni kuchaytirib, odamlarga nisbatan ishonchsizlikka, yomon ko'rishga olib keladi. Shu sababli ular o'zini ham kechirmaydi va suitsidga qo'l uradi. Psixodinamik

terapiyaning asosiy maqsadi – bemorda katarsis, ya'ni ruhiy poklanishga erishishni yuzaga keltirish [1].

Jismoniy tarbiya va sport nevroz va depressiyadan chiqaradimi? Harakatga bo'lgan motivatsiyaning so'nishi nevroz va depressiyaga xos bo'lgan belgilardan biridir. Avvalari bemorlarni depressiyadan chiqarishda jismoniy tarbiya imkoniyatlariga jiddiy e'tibor berilmagan. 2005-2010 yillarda bir qator davlatlarda maxsus ilmiy – tadqiqot ishlari shuni ko'rsatdiki, nevroz va depressiyani davolashda jismoniy tarbiya imkoniyatlaripsixoterapiya va farmakoterapiya bilan bir qatorda turadi. Hatto 2015- yili yevropalik mutaxassislar o'tkazgan tajribalar jismoniy tarbiyaning o'zi bilan bemorni nevroz va depressiyaning yengil turlaridan butkul chiqarish mumkinligini isbot qilishgan. Jismoniy tarbiya va sportni musiqaterapiya bilan birgalikda olib borish esa davolash samaradorligini yanada oshiradi. Shuningdek, depressiyada kuzatiladigan psixomatik buzilishlar, ayniqsa, doimiy bosh og'riqlari hamda arterial gipertenziya belgilari yugurish, suzish va yengil badantarbiya bilan shug'ullana boshlaganlarda 2-3 oy ichida barham topadi.

Jismoniy harakatlar miyada kayfiyat gormonlari hisoblanmish endorfinlar va serotonin miqdorini oshiradi.

Arterial qon bosimi oshishida aossiy omillardan biri bo'lgan qondagi adrenalin va kortizol miqdorini pasaytiradi.

Organizmining umumiy tonusi oshadi va ichki a'zolar, ayniqsa, qon aylanish tizimi faollashadi.

Organizm T va V limfotsitlari miqdori oshib, immunitet mustahkamlashadi va virusli infeksiyalarga chidamlilik oshadi.

Bemorning o'jarligi kamayib, psixoterapevt bilan muloqot qilish osonlashadi, bemor tezroq nevroz va depressiyadan chiqadi.

Ba'zi fikrlarga ko'ra, quyosh nuri yoki yorug'lik yetishmasligi ham depressiya rivojlanishiga turki bo'ladi. Qish va kuz oylarida depressiyaning ko'p uchrashi bunga misol bo'la oladi, ya'ni quyosh nuri kam bo'lgan mavsumlarda depressiyada rivojlanadi. Lekin ushbu ilmiy farazni inkor qiladigan qarashlar ham bor. Masalan, shaxtyorlarda depressiyaning uchrash darajasi, yorug'likda ishlaydiganlardan deyarli farq qilmaydi. Shuningdek, depressiya bilan kasallanganlar yorug'likni emas, balki qorong'ulikni xush ko'rishadi [2].

Bundan tashqari depressiya miyaning diffuz va lokal zararlanishlarida ham uchraydi. Turli etologiyali, ya'ni vakulyar, toksik va metabolik ensefalopatiya va neyrodegenerativ kasalliklarda ham depressiya rivojlanadi. Masalan, serebral insultda depressiyaning uchrash darajasi 12-34% ni tashkil etadi. Chap va o'ng yarim shar insultlarida depressiyaning klinik belgilari bir-biridan farq qiladi. Chap yarimshar insultida ortiqcha qo'rquv, xavotir va ortiqcha qo'zg'alish bilan namoyon bo'luvchi depressiya ko'p uchrasa, o'ng yarimshar insultida hissiy karaxtlik, passivlik va agnozognosiya bilan namoyon bo'luvchi depressiya ko'p uchraydi.

Xulosa. Xulosa qilib aytganda, psixooanaliz davolash usuli bemorga o'tmishni, ayniqsa, yoshlik davrini eslatishdan boshlansa, kognitiv psixoteravt bugungi kun va hozirgi payt bilan ishlaydi. Depressiyaga yo'liqqan inson jismoniy mashqlar va o'zini o'zi korreksiyalash yo'li bilan depressiyaning yengil turlarini bemalol yengib o'ta oladi. Muhimi o'tgan ish o'tib ketdi, endi vaqtni ortga qaytarib bo'lmaydi, hayot esa davom etadi. Amerikalik mashhur psixoterapevt Aoron Bek shunday degan: “Kasal odamga o'tmishdagi dardlarini eslatishga ne hojat, axir bugungi kun bilan ishlab yuqori natijaga erishsa bo'ladi-ku”. O'z natijalaridan zavqlangan A. Bek shunday qoidani yaratadi: “Shu yerda va hozir”. Bu iboralar keyinchalik kognitiv psixologiyaning shioriga aylandi.

ADABIYOTLAR

1. Zarifboy Ibadullayev "Tibbiyot psixologiyasi" darslik "Zamin Nashr" nashriyoti Toshkent-2019 yil
2. Zarifboy Ibadullayevning "Asab va ruhiyat" ilmiy-ommabop risola "Zamin Nashr" Toshkent 2019-yil
3. Алимов Н. Н., Турабов А. М., Ташбаев А. К. Поэтапное развитие творческой деятельности студентов—важный фактор при повышении качества подготовки будущих специалистов // Молодой ученый. — 2016. — №. 7-2. — С. 99-102.
4. Хакимов О. М., Курбанов З. Х., Мухаммедов Ф. Реализация возможностей получения легких наполнителей на основе меньше пластиковых почв в нашей республике // Science and Education. — 2021. — Т. 2. — №. 5. — С. 176-181.
5. E'tiborxon Mallayeva с. м. мафкура ва мафкуравий категориялар ўртасидаги ўзаро муносабатнинг назарий жи // атлари, архив научных публикаций jsri. — 2020.
6. nizametdinov, a. a. (2022). oliy ta'lim tizimining agrar sohasida innovatsion texnologiyalar qo'llash ustuvorligi. international conferences, 1(6), 58–60. retrieved from <https://researchedu.org/index.php/cf/article/view/96>
7. Хакимов О., Курбанов З. пластиклиги кам тупроқлар асосида енгил тўлдирувчилар олиш имкониятларини ўрганиш // Solution of social problems in management and economy. — 2022. — Т. 1. — №. 5. — С. 58-64.
8. E'tiborxon Mallayeva M. иллик ва миллий-маънавий? адриятларнинг тикланиши // Архив Научных Публикаций JSPI. — 2020.
9. Khakimov O. M. Issiq-quruq iqlim sharoiti uchun asfaltbeton tarkibini tanlash // Science and Education. — 2022. — Т. 3. — №. 2. — С. 241-247.
10. Маллаева Э. Збекистонда диний бағрикенглик ва миллатлараро муносабатлар масалалари // Zamonaviy innovatsion tadqiqotlarning dolzarb muammolari va rivojlanish tendensiyalari: yechimlar va istiqbollar. — 2022. — Т. 1. — №. 1. — С. 573-576.
11. Носиров Б., Носирова Ф. Ўзбекистонда умумий овқатланиш тизимининг шаклланиши ва унга аҳоли эҳтиёжининг ортиб бориши (совет ҳукумати йилларида)
12. Насиров Б. хх асрнинг 30-80 йилларида ўзбекистонда умумий овқатланиш тизими тарихидан // Взгляды/взгляд в прошлое. — 2020. — т. 3. — №. 3. д в прошлое. — 2022. — т. 5. — №. 1.
13. Nasirov B. Catering In Uzbekistan From The History Of The System // The American Journal of Interdisciplinary Innovations Research. — 2021. — Т. 3. — №. 02. — С. 11-15.
14. Nasirov B. U., Boltaeva M. J. Genesis And Transformation Of The Public Catering System In Uzbekistan During The Soviet Period // Turkish Online Journal of Qualitative Inquiry (TOJQI) Volume. — Т. 12. — С. 5834-5841.
15. Jamshidovna B. M., Bahodirovich F. S. Innovative methods and techniques in the education system // current research journal of pedagogics. — 2021. — Т. 2. — №. 11. — С. 147-151.



Sarvinov XOJIYEVA,
Jizzax davlat pedagogika universiteti o'qituvchisi
E-mail: sarvinov1987@inbox.ru

Navoiy davlat pedagogika instituti dotsenti, PhD M.Sh.Ahadov taqrizi asosida

BO'LAJAK KIMYO O'QITUVCHILARINING 4+2 AMALIYOTIDA METODIKA TAYYORGARLIGINI RIVOJLANTIRISH

Annotatsiya

Ushbu maqolada pedagogika oliy o'quv yurtlari kimyo yo'nalishida ta'lim olayotgan talabalarning 4+2 amaliyoti davrida umumiy o'rta ta'lim maktablari 10-11 sinf o'quvchilariga kimyoviy bilim berishda fanlararo integratsiya, kimyoviy hisoblashlar va kompetensiyaga asoslangan bilim berish orqali o'quvchilarda fanga bo'lgan qiziqishlarini oshirishda metodik yordam berish yuzasidan tavsiyalar berilgan.

Kalit so'zlar: Kompetensiya, integratsiya, differensiallashtirilgan ta'lim, individuallashtirilgan ta'lim, 4+2 amaliyoti, "Yonuvchi ko'pik", "Kimyoviy svetafor", asal, metan, ko'z yoshi.

РАЗВИТИЕ МЕТОДИЧЕСКОЙ ПОДГОТОВКИ БУДУЩИХ УЧИТЕЛЕЙ ХИМИИ НА ПРАКТИКЕ 4+2

Аннотация

В данной статье междисциплинарной интеграции, химических расчетов и компетентностного обучения химическим знаниям учащихся 10-11 классов общеобразовательных школ в период практики 4+2 студентов, изучающих химию в педагогических вузах, даны рекомендации по методическим содействиям повышению интереса учащихся к науке через образование.

Ключевые слова: Компетентность, интеграция, дифференцированное обучение, индивидуализированное обучение, практика 4+2, "Горящая пена", "Химический светофор", мёд, метан, слезы.

DEVELOPMENT OF METHODOLOGICAL PREPARATION OF FUTURE CHEMISTRY TEACHERS IN 4+2 PRACTICE

Annotation

In this article, interdisciplinary integration, chemical calculations and competency-based teaching of chemical knowledge to 10-11 graders of general secondary schools during the 4+2 practice period of students studying chemistry in higher educational institutions of pedagogy Recommendations are given regarding methodical assistance in increasing students' interest in science through education.

Key words: competence, integration, differentiated education, individualized education, practice 4+2, "Goryashchaya pena", "Khimicheskii svetoфор", med, methane, slezy.

Kirish. Jahondagi globallashuv va ta'limning integratsiyalashuvi jarayonlarida bo'lajak mutaxassislarining kasbiy-ijtimoiy tayyorgarligini rivojlantirish masalasi dolzarb vazifalardan biri sifatida belgilanmoqda. Respublikamizda kadrlar tayyorlashning sifat darajasini oshirish, xalqaro standartlar asosida oliy malakali mutaxassislar tayyorlash uchun zarur shart-sharoitlarni yaratish, har bir oliy ta'lim muassasasini jahonning etakchi ilmiy-ta'lim muassasalari bilan yaqin hamkorlik aloqalari o'rnatishi, o'quv jarayoniga xalqaro ta'lim standartlariga asoslangan ilg'or pedagogik texnologiyalar, o'quv dasturlari va o'quv-uslubiy materiallarini keng joriy qilish, ta'lim oluvchilar, ilmiy-pedagog kadrlarni zamonaviy kasbiy bilimlari va kreativlik qobiliyatlarini rivojlantirish, yoshlar auditoriyasi bilan ish olib borishda interfaol usullardan samarali foydalanish masalalari Harakatlar strategiyasining ustuvor yo'nalishlariga muvofiq oliy ta'lim darajasini sifat jihatidan oshirish va tubdan takomillashtirishning asosiy vazifalari sifatida belgilandi.

Ilg'or xorijiy tajribalar asosida zamonaviy kasbiy ta'lim mazmunini internatsionalizatsiyalash va modernizatsiyalash, kompetensiyalarga asoslangan innovatsion ta'lim muhitini shakllantirish, interfaol o'qitish metodlari va texnologiyalarini amaliyotga keng tatbiq etish asosida ta'lim oluvchilarda kreativlik qobiliyatlarini rivojlantirishning pedagogik mexanizmlarini yanada takomillashtirish muhim o'rin tutadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 11-maydagi "2022-2026-yillarda xalq ta'limini rivojlantirish

bo'yicha milliy dasturni tasdiqlash to'g'risida" gi PF-134-sonli Farmonining 7-bandida hamda 2022-yil 21- iyundagi "Pedagogik ta'lim sifatini oshirish va pedagog kadrlar tayyorlovchi oliy ta'lim muassasalari yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida" gi PQ – 289- Qarorining 2-bandida pedagog kadrlar tayyorlovchi oliy ta'lim muassasalari kunduzgi ta'lim shaklida tahsil olayotgan 2 - 4-bosqich talabalari uchun haftalik o'quv mashg'ulotlari «4+2» tartibida, shu jumladan, darslarning 4 kuni oliy ta'lim muassasasida, 2 kuni maktabgacha va umumiy o'rta ta'lim muassasalarida amaliyot o'tash tartibida olib borilishini ta'minlash vazifasi ko'rsatilgan edi.

Metodlar: 4+2 amaliyoti o'qituvchi kadrlar tayyorlash tizimida muhim o'rin egallaydi. U talabalarining oliy o'quv yurtlarida olgan 4 kunlik nazariy bilimlarini 2 kunlik amaliyotda amalga oshiradigan mustaqil faoliyati bilan bog'lovchi bo'g'imdir.

O'qituvchilik kasbini tanlagan har bir talaba maktabda o'tkaziladigan pedagogik amaliyotni zavq, ezuq umid va hayajon bilan kutadi. Talabalar maktabda pedagogik amaliyot o'tishga borganlarida hal qilinishi zarur, uncha oson bo'lmagan muammolarga duch keladilar. Chunonchi o'qituvchilikni endi boshlayotgan bu talabani o'qituvchilar qanday kutib olar ekan? Qanday qilib u maktab o'qituvchilari bilan aloqa o'rnatishi hamda ularning ishonchini qozonishi kerak? Oliy o'quv yurtlarida olgan kimyoviy bilimlari bilan bir qatorda, metodik va pedagogik bilimlari, hamda amaliy tayyorgarligi yetarli bo'larmikan?

Umuman pedagogik amaliyot o'tishni uddalay olarmikan? Kabi masalalar shular jumlasidandir. Oliy o'quv yurtlari talabalarining maktabda 4+2 amaliyotni muvaffaqiyatli o'tishlari qator shart-sharoitlarga bog'liq. Bunda ularning oliy o'quv yurtlarida o'qish davrida olgan tayyorgarligi g'oyat muhimdir. Biroq o'qituvchilik kasbining ko'pgina sifatleri talabalarda faqat maktabda bevosita 4+2 amaliyot o'tish davrida shakllanadi.

Talabalar 4+2 amaliyot davrida har doim tegishli o'quv metodik adabiyotga ehtiyoj sezadilar. Amaliyot bo'yicha ayniqsa o'zbek tilida, o'quv metodik qo'llanmalarining yetarli emasligi talabalarining pedagogik kasbini egallashda jiddiy to'siq bo'lmoqda, ularning maktabdagi ta'lim-tarbiya ishlari metodikasining amaliy jihatdan o'zlashtirib olishlarini qiyinlashtirmoqda.

Natijalar: Tadqiqotimida pedagogika oliy o'quv yurti kimyo ta'lim yo'nalishi talabalarining 4+2 amaliyoti mobaynida eng ko'p muammoga uchragan vaziyatlar 10-11 sinflarning kimyo darslari bo'ldi. Chunki bu davrda o'quvchilar o'zlarining aniq maqsadlarini, yo'nalishlarini belgilab olgan hisoblanadilar. Biroq kimyo fani har qadamda bizga kerak ekanligi haqida tasavvurga ega emaslar. Shuning uchun biz tadqiqot ishimizda aynan 10-11 sinf kimyo kursini o'qitishda no'anaviy yondashuvlarni tavsiya qilamiz.

Biz bunda o'quvchilarning mavzu bo'yicha o'zlashtirishi lozim bo'lgan bilimlar va ko'nikmalar asos bo'lib, qisman izlanishli va ijodiy topshiriqlar bilimlarni rivojlantirish, chuqurlashtirish va mustahkamlashga xizmat qiladi, ya'ni o'qitish jarayonini har bir qatnashchisi uchun qiziqarli va foydali bo'lishi, shaxsning rivojlanishiga imkon yaratishimiz zarur.

10-11 sinf kimyo kursini o'qitishda biz aynan 2 yo'lni tabaqalashtirilgan va individuallashtirilgan yondashuvni amalga oshirishimiz kerak:

1. O'quv fani bo'yicha o'quv materiallarini qism (blok)larga ajratishi, har bir qism bo'yicha o'quvchilar o'zlashtirishi lozim bo'lgan o'quv materialining minimum va maksimum hajmi, o'quvchilarning bilim va ko'nikmalarga qo'yiladigan minimum va maksimum talablarni yaxshi bilishi lozim;

2. Muayyan mavzular bo'yicha qiyinchiligi turli darajadagi o'quv topshiriqlarini tuzishi;

3. O'quvchilarning har xil darajadagi kichik guruhlarda ishlashini tashkil etish va boshqarish ko'nikmalarini egallagan bo'lishi lozim.

Differensiallashtirilgan ta'limda har bir o'quvchining shaxsiy xususiyatlari, qobiliyatlari, qiziqishlari, ehtiyojlari hisobga olinadi. Shu sababli o'qitishni differensiallashtirish individuallashtirilgan ta'limni taqozo etadi.

Individuallashtirilgan ta'lim – o'qitish shakli, o'qitish jarayonini tashkil etishning modeli bo'lib, u quyidagi xususiyatlari bilan xarakterlanadi:

1. O'qituvchi har bir o'quvchi bilan individual ishlaydi;

2. Har bir o'quvchi o'zining shaxsiy xususiyatlari, qobiliyatlari, qiziqishlari, ehtiyojlariga mos holda tuzilgan o'quv topshiriqlarini bajaradi, ya'ni o'qitish vositalari (darslik, ko'rgazmali va didaktik materiallar, kompyuter) bilan yakka tartibda ishlaydi.

Individual ta'limning asosiy afzalligi, o'quvchilarning o'quv faoliyatini tashkil etish, ta'lim mazmuni, vositalari va metodlarini tanlashda ularning shaxsiy xususiyatlari va sur'ati hisobga olinganligi sababli mazkur jarayonni jadallashtirish, ularning o'quv topshiriqlarini bajarishda mo'ljalni to'g'ri olishi va tezroq moslashishi, o'z imkoniyatlari darajasida bilim va ko'nikmalarni egallashlariga imkon yaratish hisoblanadi.

Individual yondashuv – metodikaning tamoyillaridan biri bo'lib, unda o'qituvchi o'quvchilarning shaxsiy xususiyatlari, qiziqishlari, ehtiyojlarini hisobga olgan holda, individual model asosida o'quv faoliyatini tashkil etadi va ular bilan muloqotda yuksak madaniyatni namoyon qiladi, hamkorlikka

kirishadi. Darsda vujudga kelgan qulay psixologik-pedagogik muhit hamma o'quvchilarning, shu jumladan, har bir o'quvchining o'z imkoniyati darajasida rivojlanishiga asos bo'ladi.

Munozara: Biz umumiy o'rta ta'lim maktabi 10-11 sinf kimyo kursini o'qitishda 4+2 amaliyotidan samarali foydalanish orqali kelajakda raqobatbardosh kadrlarni tayyorlashni maqsad qilib oldik va talabalarda quyidagi metodik tavsiyalarni ishlab chiqib, sinovdan o'tkazdik:

O'quvchilarning xoxish istaklaridan kelib chiqib darslarni tashkil etish:

Kimyo deganda birinchi novbatda o'quvchilar ko'z oldida kimyoviy reaksiyalar, portlash kabi jarayonlar gavdalanadi. Biroq maktablarda bunday tajribalarni bajarishda imkoniyat yetarli emas. Bunda bo'lajak o'qituvchi mahalliy xomashyolardan foydalanib o'quvchilar xoxishi bajara olsalar maqsadga erishgan bo'ladilar:

Kimyoviy eksperiment – bu kimyoviy hodisalarni tasvirlashning o'ziga xos vositasi, ta'lim muammolarini o'rganish vositasi, bilimlarni takomillashtirish, mustahkamlash, amalda qo'llash, kimyoviy bilimlarning haqiqatini isbotlash, shaxsning turli xususiyatlarini tarbiyalash va rivojlantirish.

“Kimyo laboratoriyasida O'zbekiston bayrog'i”

Kerakli jihoz va reaktivlar: stakanlar, akvarelning qizil, oq, yashil va ko'k ranglari, shakar distirlangan suv.

Ishning borishi: Ranglarning eritmasini tayyorlab olinadi. Kolbaning pastki qismida birinchi yashil rangli eritmamizga 5 choy qoshiq shakar qo'shamiz va kolbaga solamiz, birinchi qizil chiziqli rangga 4 qoshiq shakar qo'shib birinchi yashir eritma ustidan quyamiz, oq rangli eritmaga 3 choy qoshiq shakar qo'shamiz, qizil rangli 2 chi chiziqli 2 choy qoshiq shakar qo'shamiz va ko'k rangli eritmamizga 1 choy qoshiq shakar qo'shib kolbaga bayroq ranglarini hosil qilamiz. Ranglar aralashib ketmasligi uchun shakarni avval ko'p keyin kamaytirib kelamiz.

“Kimyoviy svetafor”

Kerakli jihoz va reaktivlar: 20 ml li 2 ta stakan, 1 ta 100 ml kolba, shisha tayoqcha, shpatel, NaOH, KMnO₄, shakar, distirlangan suv.

Ishning borishi: KMnO₄ ning eritmasini tayyorlab olinadi. NaOH eritmasi tayyorlanib olinadi, so'ng NaOH eritmasiga 2 gr shakar eritiladi, ikkita eritmani 100 ml li kolbaga bir vaqtda aralashtiramiz va chayqatamiz natijada qora, yashil, va qo'ng'ir rangga aylanadi.

“Yonuvchi ko'pik”

Kerakli jihoz va reaktivlar: kristalizator, suyuq gel, propan, gugurt

Ishning borishi: Kristalizator yarmigacha suv solib unga idish yuvadigan gel orqali ko'pk hosil qilinadi va zanjigalkani to'ldirish uchun ishlatiladigan propan gazi suvga bosib chiqariladi va ko'pik ehtiyotlik bilan yoqiladi.

10-11 sinf kimyo darslarini kimyogar olimlarning boshdan kechirganlari haqidagi qiziqarli ma'lumotlar bilan boyitib tashkil qilish:

O'zini tarvuzga aylantirgan kimyogar-akademik kim.

Javob: "Rus kimyogarlarning otaxoni" laqabiga ega bo'lgan akademik N.N.Zinin Armanistonda xizmat burchini o'tayotgan harbiylar oilasida tug'ilib, 9 kunligida otasidan, 11 kunligida onasidan ayriladi. qo'shni yashovchi xolasi uni 14 yoshgacha boqib, tarbiyalaydi. o'qishga ishtiyoqi zo'r bolakay Astraxandan Rossiyaning ichkarisiga tarvuz ortib ketuvchi kemalardan biriga yuk tashuvchi xizmatkor sifatida yollanadi. Yo'l kirasiga puli yo'q bola o'zi yuklagan tarvuzlar orasiga berkinib, Volga bo'ylab Qozongacha keladi va 15 yoshida universitetga talaba bo'ladi.

Dunyoga mashhur kimyogarlarning ikki marta yuz-yuzma bellashuvida har gal kimyogar-organiklar g'olib chiqqan. Gap kimlar haqida ketmoqda.

Javob: Davriy qonunni kashf etib dunyoga mashhur bo'lgan D.I.Mendeleev 1882 yilda Rossiya Fanlar akademiyasiga saylovda o'z nomzodini qo'yadi. Uning raqibi oddiy kimyogar-organik F.Beylshteyn edi. Yashirin ovoz berishda bitta ovoz kamligi tufayli D.I.Mendeleev akademik bo'la olmadi. 1906 yilda kimyo bo'yicha

Nobel mukofotiga D.I.Mendeleev va undan 20 yosh kichik, dastlab ftorni olgan fransuz organik-kimyogari A.Muassan da'vogarlik qiladilar 5 kishi Muassanga, 4 kishi Mendeleevga yashirin ovoz berishadi, 1 kishi betaraf qoladi. Davriy qonun kashfiyoti bilan olamga tanilgan D.I.Mendeleev na o'z vatanida akademik, na dunyo bo'yicha eng nufuzli laureatlikka sazovor bo'lmay yashab o'tgan.

10-11 sinf kimyo darslarini kundalik turmushda ishlatiladigan kimyoviy moddalar haqidagi qiziqarli ma'lumotlar bilan boyitib tashkil qilish:

Bu suyuqlikda "lizotsin" degan mikroblarga qarshi oqsil mavjud.Shuning uchun Vizantiya va Eron ayollari uni atirgul suvi bilan aralashtirib, malham tayyorlashadi.Bu qanday suyuqlik?

Javob: ko'z yoshi

Shunday bir gaz borki, u quvur ichida suv bilan aralashtirilsa, quvur ichida suv +20⁰ C da muzlab qoladi.Sababi, bu gaz suvning ichki bosimini pasaytirib yuboradi.Natijada suvning muzlash harorati pasayadi.Bu qaysi gaz bo'lishi mumkin? Javob: metan.

Hozirgi vaqtda sintetik polimer materiallardan ko'plab turli xil idishlar, plastik paketlar tayyorlanmoqda.Lekin ular ishlatib bo'lingandan keyin chiqindi tarkibida 100 yildan ham ortiq ham chirimaydi va ekologiyaga salbiy ta'sir etadi. Shuning uchun bir nechta mamlakatlarda sintetik polimer materiallarni sun'iy, ya'ni tarkibida selluloza bo'lgan materiallarga almashtirishga o'tilmoqda. Buning sababi nimada?

Javob: Tez chirishi va o'g'itga aylanishida.

Bundan 500 yil avval Shri-Lanka orolining shimolida bir maqbara bunyod etilgan. Haligacha uning bitta ham g'ishti ko'chmagan.Tekshiruvlar natijasida aniq bo'lishicha, bu g'ishtning binosi oddiy loy yoki sementdan emas, balki qimmatbaho mahsulotdan terilgan ekan.Bino g'ishtlari nimaga terilgan?

Javob: asalga

Tanadagi yirtilgan va teshilgan jarohatlarni tikishda ikki xil kimyoviy iplardan foydalaniladi.Tashqi jarohatni tikishda odam tanasidagi suyuqlikda erimaydigan iplardan foydalaniladi.Ichki jarohatni tikishda esa bu ipdan foydalanilmaydi. Buning sababi nima?

Javob: Iplarning odam tanasidagi suyuqlikda so'rilmaligida.

Xulosa va takliflar. Kimyo darslarida integratsiyadan foydalangan holda o'qish jarayonini tashkillashtirilsa, o'quvchilar (talabalar) fanga qiziqish bilan yondashadilar, hech kimga sir emas hozir yoshlarni tabiiy fanlarga qiziqitirish juda qiyin ayniqsa kimyo faniga o'quvchilarni qiziqitirish kimyo ta'limi oldidagi muammo hisoblanadi.Yuqorida tavsiya qilayotgan integratsiyalardan foydalangan holda o'quv jarayoni tashkillashtirilsa, o'quvchilar (talabalar) kimyo fanlarini chuqur o'rganishlariga sabab bo'ladi.

Yuqorida tavsiya qilayotgan metodikalardan aynan 4+2 amalaliyotida foydalangan holda o'quv jarayoni tashkillashtirilsa, o'quvchi(talaba)lar kimyo fanlarini chuqur egallashlari ta'lim sifati va samaradorligi oshishiga sabab bo'ladi.

Shuningdek, umumiy o'rta ta'lim va oliy ta'lim muassasalarida 4+2 amaliyotini samarali tashkil etish talabalarining kelajakda kasbiy va pedagogik faoliyatga tayyorgarligini oshirish, mahalliy xom ashyolardan foydalanib bajarish imkonini bo'lgan tajribalarni izlab topish orqali kimyo laboratoriyalarini tashkil qilish, bu muhitda o'quv jarayonini tashkillashtirish va ta'lim sifatini oshirish hozirgi kunning kimyogarlari uchun ayni muddaodir.

ADABIYOTLAR

1. Ochilov M. Yangi pedagogik texnologiyalar. - Qarshi: Nasaf, 2000.
2. Sayidaxmedov N. Yangi pedagogik texnologiyalar. — Toshkent: Moliya,2003.
3. Ixtiyarova G, Bekchanov D, Ahadov M./Kimyoni o'qitishda zamonaviy texnologiyalar. O'quv qo'llanma. Universitet nashriyoti-2019, 185 b.
4. Селевко Г.К. Современные образовательные технологии. Учебное пособие. М.: Народное образование, 1998.www.ziyouz.com kutubxonasi
5. Tolipova J.O., G'ofurov A.T.. Biologiya ta'limi texnologiyalari. — T.: O'qituvchi, 2002.
6. Sorokin, I.O. "Integratsiya" tushunchasining nazariy asoslari va uni amalga oshirish tamoyillari / I. O. Sorokina // Rossiya va chet ellarda menejment. - 2008. - № 2. 3-6 betlar.



Ziroat XOLMATOVA,
Qo'qon davlat pedagogika instituti, Pedagogika kafedrasida dotsent, PhD
xziroat@bk.ru

Pedagogika fanlari doktori, professor Z.Rahimov taqrizi asosida

METHODS OF DIAGNOSING THE LEVEL OF FORMATION OF COMPETENCES IN STUDENTS

Abstract

This article talks about the theoretical and practical foundations of diagnosing the level of competence formation in students and their main principles. In addition, the empirical basis of planning educational work in continuous education through diagnosis was also analyzed.

Keywords: Competence, method, education, diagnosis, education, standard, psychology, pedagogical competence.

МЕТОДЫ ДИАГНОСТИКИ УРОВНЯ СФОРМИРОВАННОСТИ КОМПЕТЕНЦИЙ У СТУДЕНТОВ

Аннотация

В данной статье рассказывается о теоретических и практических основах диагностики уровня сформированности компетентности студентов и их основных принципах. Кроме того, были проанализированы эмпирические основы планирования воспитательной работы в непрерывном образовании через диагностику.

Ключевые слова: Компетентность, метод, воспитание, диагностика, воспитание, норма, психология, педагогическая компетентность.

O'QUVCHILARDA KOMPETENSIYALARNING SHAKLLANGANLIK DARAJASINI DIAGNOSTIKA QILISH USULLARI

Annotatsiya

Ushbu maqolada o'quvchilarda kompetensiyalarning shakllanganlik darajasini diagnostika qilishning nazariy va amaliy asoslari va ularning asosiy tamoyillari haqida so'z yuritilgan. Bundan tashqari, tashxislash orqali uzluksiz ta'limda tarbiyaviy ishlarni rejalashtirishning empirik asoslari ham tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: Kompetensiya, metod, tarbiya, diagnostika, ta'lim, standart, psixologiya, pedagogik kompetentlik.

Kirish. Yurtimizda faol, intiluvchan, iqtidorli va yuksak ma'naviy-axloqiy fazilatlariga ega, zamonaviy bilim hamda kasblarni chuqur egallagan - bugungi va ertangi kunimizning hal qiluvchi kuchi bo'lgan yoshlarni voyaga yetkazish uchun barcha shart-sharoit va imkoniyatlar yaratilgan. Bugungi kunda fan va texnika rivoji ta'lim va uning natijalariga qo'yiladigan talablarni tubdan o'zgartirishni talab etmoqda. Ma'lumki, ijtimoiy buyurtma asosida ta'lim muassasalarining mutaxassislik faoliyatiga ustuvorlik beriladi. Ta'lim muassasasi bitiruvchilariga qo'yilgan malaka talablari ya'ni, o'quvchilarning fanlar bo'yicha bilim va tayyorgarlik darajalarini Davlat ta'lim standartlari belgilab beradi hamda ushbu me'yoriy hujjat o'quv reja va dasturlar, darsliklar, qo'llanmalarni ishlab chiqishda asos bo'lib xizmat qiladi. Umumiy o'rta ta'limning Davlat ta'lim standartini belgilab beruvchi mazkur qaror Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 6-apreldagi 187-son qaroriga asosan qabul qilindi.

Ta'limda yangi standartlarga o'tishning asosiy sababi maktab bitiruvchilari kompetensiyasi shakllanganlik darajasining past ekanligidir. Kompetensiya - bu to'plangan bilimlarni amalda kundalik hayotda qo'llash qobiliyati sanaladi. Ta'limning asosiy vazifasi aynan shu kompetensiyalarni rivojlantirishdan iborat. Ushbu maqsadni amalga oshirishning samarali yo'llaridan biri ta'lim jarayonida kompetentli-yo'naltirilgan topshiriqlardan foydalanish hisoblanadi. Kompetentli-yo'naltirilgan topshiriqlar (KYT)dan foydalanish darsning an'anaviy shaklda tashkil etishdan, o'quvchilarning universal o'quv faoliyatlarini tashkil etishga hissa qo'shadi; o'quvchilarga yangi, o'quvchilar uchun notanish, kutilmagan fanlararo vaziyatlarda o'zlashtirgan bilim, ko'nikma va malakalarni qo'llash uchun sharoit yaratadi; va natijada o'quvchilar tomonidan hayotiy topshiriqlarni hal qilish tajribasini egallashga hissa qo'shadi.

Tashxislash maqsadida qo'llaniladigan metodikalarini ishlab chiqish murakkab jarayondir. Turli psixologik hamda pedagogik muammolarni samarali tadqiq qilishga bo'lgan ehtiyoj pedagog hamda psixologlarni mualliflik metodikalarini shakllantirishga rag'batlantirdi. So'nggi o'n yillikda esa ham pedagogika ham psixologiya sohasida tashxislovchi xarakterga ega mualliflik metodikalarini ishlab chiqishda o'ziga xos tajriba to'plandi. Buning natijasida tashxislashda qo'llaniladigan metodikalarini guruhlariga ajratib o'rganish imkoniyati yuzaga keldi.

Globallashuv sharoitida mustaqil fikrlovchi, ijodkor shaxsni tarbiyalab voyaga yetkazishni ifodalovchi ijtimoiy-pedagogik talab yangi tamoyillar bilan boyitilgan holda takomillashuvga erishib bormoqda. Agarda mustaqil fikrlovchi, ijodkor shaxsni tarbiyalab voyaga yetkazish talabi pedagogik fikrlar va maktablar taraqqiyoti tarixining dastlabki bosqichlarida ijtimoiy sub'ektning estetik hissiyotlarga boy bo'lishiga erishish negizida qondirilgan. Kishilik munosabatlari tarixining keyingi davrlarida shaxs faoliyatining o'ziga xos original, juz'iy g'oyalarga ega bo'lishiga erishish bilan tavsiflangan.

Pedagogik diagnostika (tashxislash) - nazorat qilish va baholash usullarining jamlanmasi bo'lib, bu ta'lim jarayonini optimallashtirish, ta'lim oluvchilarga differensial yondashish hamda ta'limiy dasturlar va pedagogik ta'sir ko'rsatish metodlarini takomillashtirish orqali namoyon bo'ladi. Pedagogik diagnostikaning maqsadli o'quv jarayonida kechadigan barcha jihatlarini uning mahsuli bilan bog'liq holda, o'z vaqtida aniqlash, baholash va tahlil qilishdan iborat.

- **Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili.** Umumiy holda fiziologik va intellektual jihatdan turli yosh davrlari shaxsning muayyan darajada fikrlash qobiliyati, tafakkur darajasini ega bo'lishini namoyon qiladi. Biroq, bu degani ma'lum intellektual rivojlanish darajasi ayni bir davrdagi yosh

xususiyatlariga bog'liq, degani emas. Ba'zi 5-6 yoshli bolaning xotirasi, nutqi, fikrlash qobiliyati, mantiqiy mulohazalari 30-40, hatto 50 yoshli kishining bu turdagi rivojlanish holatidan yuqori bo'lishi mumkin. Bu holat psixologiyada noyob qobiliyat, deb yuritiladi. Masalan, buyuk mutafakkir, hazrati Alisher Navoiy 5 yoshida Fariduddin Attorning "mantiq ut-tayr" asarini to'la yod olgan bo'lsa, rus she'riyatining dahosi Aleksandr Pushkin esa o'z xotiralarida "13yoshda she'rlar yozishni va xuddi shu davrdan ularni chop ettirishni boshladim", deb yozgan edi.

P.I.Tretyakovning "Yaqin va faol rivojlantiruvchi hududni tashxislash" nomli metodikasi o'quvchilarga ta'lim berishning istiqbollarini aniqlash maqsadini ko'zlaydi. Metodikani qo'llash jarayonida o'qituvchi quyidagi harakatlarni bajaradi:

1. 7-8 daqiqa ichida bajarish imkoniyatini ta'minlovchi unchalik katta hajmga ega bo'lmagan o'quv materialini tanlaydi.

2. O'quvchilar tomonidan yangi axborot, ma'lumotlarni qabul qilishga yordam beruvchi namunani ko'rsatadi.

3. O'quvchilarning yangi bilimlarni o'zlashtirish uchun mustaqil ravishda takror-takror mashq qilishlariga imkoniyat yaratadi.

4. O'quvchilar tomonidan o'z-o'zini tekshirishga imkon beradigan mustaqil ishlarni o'tkazadi.

L.M.Mitina pedagogik kompetentlik - deganda predmet haqidagi bilimlar, o'qitish metodikasi va didaktikasi, pedagogik muloqot ko'nikma va malakasi, shuningdek o'z-o'zini rivojlantirish, o'z-o'zini takomillashtirish, o'zo'zini amalga oshirish usullari va vositalarining uyg'un birlashishini tushungan. U pedagogik kompetentlik tuzilmasida quyidagi uchta tashkil etuvchini ajratgan: faoliyatli, kommunikativ va shaxsiy. L.M.Mitina tomonidan taklif etilgan pedagogik kompetentlikni tuzilmashtirishdan kelib chiqqan holda, biz, bo'lajak mutaxassislar uchun egallanish darajasi pedagogik kompetentlikning rivojlanish darajasini aniqlaydigan quyidagi kompetensiyalar majmuasi yetarli va zarur deb hisoblaymiz:

- kommunikativ kompetensiya (pedagogik faoliyatni ijodiy amalga oshirishga oid bilim, ko'nikma va malaka);

- faoliyatli yoki maxsus kompetensiya (bilim, ko'nikma, malaka va pedagogik faoliyatni amalga oshirishning individual usullari);

- shaxsiy yoki kasbiy kompetensiya (kasbiy o'z-o'zini takomillashtirish va o'zo'zini amalga oshirishga oid bilim, ko'nikma va malakalar).

- **Tadqiqot metodologiyasi.** Kompetent yondashuv oliy ta'limni modernizatsiyalash nuqtayi nazaridan yangi pedagogik voqelik hisoblanadi. Mazkur yondashuv doirasida amaliy faoliyat tajribasi, kompetensiya va kompetentlikni didaktik birliklar sifatida ko'rib chiqish hamda ta'limning an'anaviy uch elementi (triada) - "bilim - ko'nikma - malaka"ni oltita birlik (sektet) - "bilim - ko'nikma - malaka - amaliy faoliyat tajribasi - kompetensiya - kompetentlik" tarzida tahlil qilish talab etiladi. Dastlab "kompetensiya" tushunchasining mohiyatini aniqlashtirib olish zarur. Kompetensiya (lotincha so'z bo'lib, erishaman, to'g'ri kelaman ma'nolarini bildiradi) - sub'yektning maqsadni qo'yish hamda unga erishish uchun tashqi va ichki xaziralarni samarali amalga oshirishga tayyorgarligi, boshqacha qilib aytganda, bu sub'yektning muayyan faoliyat obyekti bilan bog'liq muammolarni muvaffaqiyatli hal etishga doir shaxsiy qobiliyatidir.

G.A.Ruskiyning "Bilimlar tizimini o'zlashtirganlik darajasini tashxislash" metodikasi o'zida o'quvchilarning manbalar (o'quv materiallari matni, ilmiy maqola) bilan mustaqil ishlash, har bir o'quvchining bilish faoliyatini takomillashtirish (to'g'rilash) dasturini loyihalash ko'nikmalarini o'zlashtirganlik darajasini aniqlash maqsadini ifodalaydi. O'qituvchi o'quvchilar tomonidan yangi mavzuni

o'zlashtirish jarayonida ularga quyidagi mazmundagi mustaqil ishlarni topshiradi:

- 1) darslikning ... sahifasidagi matnni o'qish (o'quv materiallari hajmi 8-10 ta xatboshidan iborat bo'lib, ularni o'rganish uchun 3 daqiqa talab etiladi);

- 2) o'quv materiallari bo'yicha qisqacha konspekt olish;

- 3) o'quv materialining murakkabligidan kelib chiqib, 3 ta savol tuzish;

- 4) tuzilgan savollarga javob qisqacha javob qaytarish;

- 5) tuzilgan savollarni kartochkada ifodalash;

- 6) kartochkalarni sherigi bilan almashtirish;

- 7) sherigining savoliga yozma ravishda qisqacha javob yozish;

- 8) sherigining javobini baholash.

Pedagogik faoliyatning ikki muhim yo'nalishi mavjud ekani barchamizga ayon: 1) ta'lim (didaktika); 2) tarbiya. Pedagogik diagnostikada ham ana shu ikki yo'nalish inobatga olinadi. O'quvchilarning bilim, ko'nikma, malakalarni o'zlashtirish darajasi - ma'lumotga egalik holati xususida yuqorida so'z yuritildi. Endi esa bevosita o'quvchining axloqiy tarbiyalanganlik (yoki tarbiyalangan) darajasi va uni tashxislash to'g'risida to'xtalib o'tiladi. Aksariyat o'rinlarda sub'yektiv xarakterga ega "o'quvchining tarbiyalanganlik darajasi" (yoki o'quvchining tarbiyalanganlik darajasi) iborasi o'rniga umumiy tarzda "shaxsning tarbiyalanganlik darajasi" (yoki shaxsning tarbiyalanganligi) tushunchasi ishlatiladi. Qolaversa, shaxs (o'quvchi)ning tarbiyalanganligi tahlil qilinar ekan, ayni o'rinda "tarbiya", "tarbiyalash", "tarbiyalanganlik" tushunchalari ham qo'llaniladi. Shu bois ushbu tushunchalarga izoh berib o'tish maqsadga muvofiqdir.

- **Tahlil va natijalar.** Biz olib borayotgan tadqiqot ishimizning amaliy natijasi sifatida o'quv jarayonida tayanch kompetensiyalar xususan, o'quvchilarning amaliy kompetensiyalarini shakllantirish, rivojlantirish va belgilangan kompetensiyalarni shakllanganlik darajasini aniqlash maqsadida umumiy o'rta ta'lim muassasalarida olib borilgan pedagogik eksperiment natijalaridan kelib chiqqan xulosalar yuzasidan fikrlashamiz.

Kasbiy pedagogik kompetensiyalarni alohida turlarga ajratish maqsadga muvofiqdir:

- maxsus pedagogik kompetensiya;

- pedagogik faoliyatni zarur darajada amalga oshirish uchun yetarli ma'lumotga ega bo'lish. Bundan tashqari, pedagogning o'z kasbiy darajasini munosib baholay olishi va mutaxassis sifatida o'z rivojlanishini belgilash qobiliyati ushbu turga bog'liq;

- ijtimoiy pedagogik kompetensiya;

- ijtimoiy vakolat darajasi pedagogning hamkasblari bilan munosabatlarni samarali qurishi, birgalikdagi harakatlarni rejalashtirish qobiliyatini belgilaydi. Samarali aloqa ko'nikmalari, pedagogik madaniyat va ish natijalari uchun javobgarlik;

- ularning barchasi ijtimoiy pedagogik kompetensiya tushunchasiga kiritilgan;

- shaxsiy pedagogik kompetensiya;

- bu pedagogik ishni oqilona tashkil etish qobiliyati bo'lib, vaqtni boshqarish, shaxsiy o'sishga intilish uning asosiy tarkibiy qismlaridir.

- **Xulosa va takliflar.** O'quvchilarning tayanch kompetensiyalarini shakllantirish fanga oid kompetensiyalarni rivojlantirish orqali amalga oshiriladi. Shu nuqtai nazardan o'quvchilarning dars paytidagi olgan bilimlari asosida amaliy yoki ilmiy xabardorlik kompetensiyalarini shakllantirish, uning darajalarini belgilash, baholash maqsadida o'quv yili boshida o'quvchilarning tayanch va fanga oid kompetensiyalarining dastlabki holatini aniqlash muhim hisoblanadi. Buni tegishli anketalar va o'quv fanlariga oid test topshiriqlari orqali amalga oshirish mumkin. Ular mazkur o'quv fanining xususiyatiga bog'liq holda tanlanadi. Ona tilidan diktant, ijodiy bayon yaxshiroq samara bersa, jismoniy

tarbiyadan amaliy mashg'ulot orqali tashxislash samaraliroq muddatda ko'pchilikni tashxislash mumkin bo'ladi. bo'ladi. Lekin ko'pgina fanlardan test sinovlari o'tkazilsa, qisqa

ADABIYOTLAR

1. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Umumiy o'rta va o'rta maxsus kasb-hunar ta'limi davlat ta'lim standartlarini tasdiqlash to'g'risida"gi 2017 yil 6 apreldagi 187-son Qarori.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Ta'lim-tarbiya tizimini yanada takomillashtirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-4884-son (2020-yil 6-noyabr) Qarori // <https://lex.uz/docs/5085887>.
3. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "O'zbekiston Respublikasida uzluksiz boshlang'ich, o'rta va o'rta maxsus professional ta'lim tizimini tartibga soluvchi normativhuquqiy hujjatlarni tasdiqlash to'g'risida"gi 466-son (2020-yil 7-avgust) Qarori // <https://www.lex.uz/ru/docs/4945840>.
4. Usarov J.E., Turdiev N. Yangi davlat ta'limi standartlari asosida o'quvchilarda tayanch kompetensiyalarni shakllantirishning o'ziga xos jihatlari // Xalq ta'limi. – Toshkent, 2017. – №3. – B. 62-67.
5. Usarov J.E. O'quvchilarning mantiqiy tafakkurini o'stirish omillari // Xalq ta'limi. – Toshkent, 2016. – № 4. – B. 11-14.
6. Muslimov N.A., Urazova M.B., Eshpulatov Sh.N. (2013). Kasb ta'limi o'qituvchilarining kasbiy kompetentligini shakllantirish texnologiyasi. - T.: Fan va texnologiya nashriyoti.
7. https://elib.buxdupi.uz/books/Pedagogik_dagnostika_va_korreksiya.pdf
8. http://tkti.uz/uploads/602497d228_1585811390.pdf
9. <https://cyberleninka.ru/article/n/bo-lajak-o-qituvchilarning-kasbiy-kompetentligini-rivojlantirishning-pedagogik-shart-sharoitlari>
10. https://journal.buxdu.uz/index.php/journals_buxdu/article/download/4727/2999



Fazilat KHUDAYKULOVA,
*Faculty of "Pedagogy" of Chirchik State Pedagogical University
Teacher of the department "theory of primary education"*

ACTUAL PROBLEMS OF PREPARING PRIMARY CLASSES FOR INTERNATIONAL ASSESSMENT RESEARCH PROGRAMS (PIRLS, TIMSS, EXAMPLE)

Annotation

This article provides information about the current problems of preparing primary classes for International Assessment Research Programs today, their importance, as well as a number of programs that assess and monitor the quality of education by the world community – PIRLS, TIMSS, PISA, TALIS.

Key words: Primary Education, International assessment programs, IEA, PIRLS, TIMSS, PISA, TALIS.

Introduction. It is clear to all of us that the XXI century is a social globalization, an information age. The role of education in this globalization process is immeasurable. The more perfectly organized, managed, driven by innovation, the more perfect and effective both the result and the quality will be. Work is being carried out at lightning speed to introduce innovations at the international level in order to reform and improve the education system in our country. In particular, the state educational standard of general Secondary Education, approved by the decree of the Cabinet of Ministers of the Republic of Uzbekistan dated April 6, 2017 No. 187 "on approval of state educational standards of general secondary and secondary special, vocational education", as well as the educational program of general secondary schools of grade 1-4, approved by the order of the Minister-decree of the president of the Republic of Uzbekistan No. 997 "on measures of development of education and science in the new period of development of Uzbekistan", the adoption of the national curriculum created on November 6, 2020, based on the Decree No. PF-6108, accelerated the implementation of these innovations in rapid pictures. In the implementation of the task set out in the above regulatory documents, primary education occupies the main place. Not every innovation in education bypasses the process of primary education, it is in this educational process that innovative approaches carried out in education are experiment-tested.

Literature analysis and methodology. Primary education is an important stage in ensuring that students grow up to be a perfect person in the future. A number of achievements have been made in the development of primary education in our country. In particular, new state educational standards that meet the requirements of the time for the stage of primary education, a training program, including multimedia applications of textbooks, textbooks and teaching aids, were developed and introduced into practice. Advanced pedagogical technologies and interactive teaching methods are widely used.

The teacher should not forget that the course Process - education-is continuous, aimed at a specific goal, in which special attention is paid to the formation of a harmonious personality, and the main goal of the pedagogical process is to bring up a harmonious human personality. Today, at a time when our country is rapidly developing on the path of modern development, it is important to comprehensively support the creative ideas and creativity of young people who are followers of our future, to form their knowledge, skills and abilities, as well as to improve the assessment system based on advanced foreign experiences, international criteria and requirements, to study international. In order to improve the quality and efficiency of education, it is important to study foreign best practices and introduce requirements of

international standards. The practical steps taken in the Republic of Uzbekistan in this regard can be cited as an example of the adoption of a government decision on the organization of international research in the field of assessing the quality of education in the public education system, the establishment of cooperation relations with a prestigious organization as the International Association for the assessment of achievements in.

In recent years, extensive positive work has been carried out in the educational system of our country, in particular in primary education. Improving the quality of education is due to the simultaneous improvement of the three most basic branches, which consist in the development of the material technical base of general educational institutions, its provision with educational methodological literature, the introduction of modern pedagogical and information technologies in the educational process. In primary education, the use of modern pedagogical and information technologies includes the Didactic Educational material of the teacher, lesson development, etc. Consistent reforms are being carried out in the education system to create opportunities for quality education in accordance with advanced international experience and modern requirements of society, to strengthen the material and technical base of public educational institutions and to improve the efficiency of budget funding, to implement measures aimed at creating additional conditions for youth education. At the same time, the current state of general secondary educational institutions indicates the need to create mechanisms for the rapid elimination of systemic problems and shortcomings in their activities, reduce the gap in the quality of material and technical support and education of rural and urban schools, and create equal conditions for the education of students.

Today, a number of programs have been formed by the world community that assess and monitor the quality of Education. Some of these programs are:

1. PIRLS - (the Progress in International Reading Literacy Study) - an international program evaluating the level of text reading and understanding of students in Grades 4 (on April 5-14, 2021, Uzbekistan took part for the first time, in which about 6,000 4th graders of 180 schools took part);

2. TIMSS - (Trends International Mathematics and Science Study) - international program evaluating the literacy of 4th and 8th grade students in mathematics and Natural Sciences (Uzbekistan will participate in this program in 2023);

3. PISA - international program for assessing students' educational achievements;

4. There are a number of international programs such as TALIS – a study based on an international comparative analysis of pedagogical processes established in different

countries, which are widely used as a criterion for further improving the quality of education in developed countries.

Results and discussions. The PIRLS program, which is held every five years, evaluates the reading literacy of students in Grades 4 at the international level. Since 2016, an additional selection-based PIRLS system has been introduced, which is designed to assess students' online reading literacy. The Internet is the primary way of obtaining information for students, as well as a central resource for conducting research within the framework of school subjects. The number of countries participating in the PIRLS program is increasing every year. For example, the program involved 35 countries in 2001, 40 in 2006, 45 in 2011, 50 in 2016, and 60 in the next 2021 study. In 2016, 206 general secondary education schools and 4,577 primary school students from 42 regions of the Russian Federation were involved in the study, according to the results of the study, the Russian Federation took the first place in the world. Reading literacy serves as the basis for the growth of students' scientific and personal success, and is also a valuable tool for assessing the impact of the policy pursued in the field of education on success.

The international study PIRLS 2021 began to move from paper form to digital form, and about half of the participating countries used the digital form of the study, and the other half used the traditional paper form. To ensure compatibility between both forms of assessment, attention is paid to the uniformity of texts and questions to be asked regarding reading comprehension in digital and paper-shaped PIRLS programs, but PIRLS research has opportunities and assignments that cannot be applied to the evaluation process in paper, traditional form. In PIRLS studies, the following two types of study are studied, which are most commonly used by students in the lesson:

1. Reading for the purpose of mastering the qualification of literary reading.
2. Reading for the purpose of understanding and using content in practice.

Students are given two different assignments:

- Studying the experience of literary reading;
- Development and use of information.

The basis of reading literacy is the formation of reading skills necessary for full-fledged work with texts. It consists in finding and disseminating the necessary information by the reader, drawing conclusions on a certain part of the text, interpreting the actions of the main characters, confirming text samples and text structure with a preliminary analysis. Since PIRLS is learning monitoring and one of its main tasks is to study the dynamics of Reading Quality, a prerequisite for reading is the reuse of texts in each part and part of the tasks assigned to them.

The assessment of the educational and learning achievements of the study participants is carried out in accordance with the instructions of international experts in the field of assessing the quality of school education based on certain levels of students' reading skills. These levels describe the educational activities of students of different complexity when working with the proposed text in the work. Specific level criteria allow you to statistically divide the results of children into separate groups, the preparation of which can be described using specific tasks that characterize a certain level in terms of Reading Literacy.

The evaluation system for the work performed combines qualitative and quantitative assessment. The evaluation of PIRLS is carried out on a scale of 1000 points (mainly the results of states from 300 to 700 points). The average value is 500 points, the standard deviation is 100 points. For each task, a certain score is awarded, depending on the difficulty of the task. International experts assess reading literacy in accordance with the scale of assessing the quality of reading artistic and informational texts and individual groups

of reading abilities. PIRLS studies show four degrees, in total internationally:

1. The highest level is 625 points
2. High level 550 points
3. Average level - to 475 points
4. Low level-corresponds to 400 points

Through these levels, the reading literacy of students is evaluated. The fact that they have the ability to think, logical thinking, the ability to creativity, an independent idea, in addition, makes it important for them to be able to read the text correctly, comprehensively. We know that there are four reading comprehension processes. These are: fast reading, conscious reading, expressive reading. In reading literacy assessment processes, it is based on comprehension processes that define the extent to which the student has potential. In addition, evaluation notebooks are also issued within the program. The adapted assessment procedure coordinates the gap between the ability of students of each participating country and the degree of complexity of the questions by distributing more complex assessment books in countries with relatively high mastering performance and distributing more easy assessment notebooks in countries with relatively low mastering performance. Accordingly, more information is obtained in the evaluation results, with the new evaluation procedure making as few changes as possible to the time standards and existing procedures.

Although the assessment procedure, which is divided into groups, is designed in order to ensure compliance between the level of complexity of the questions and the ability of students in the country, if additional groups of students are identified that differ significantly in the indicator of student appropriation of the participating country, this procedure can also be introduced within the country.

Also, the role of the TIMSS International Assessment Program in improving the literacy of Primary School students in the Natural Sciences is incomparable. In addition to comparing the level and quality of knowledge acquired by students of grades 4 and 8 in mathematics and Natural Sciences and identifying differences in the national education system, the TIMSS International Assessment program additionally examines the content of education given in mathematics and Natural Sciences in schools, 404 educational processes, the possibilities of an educational institution, the potential of teachers. The TIMSS program began its first research in 1995, and was established every four years until 2019 in 1999, 2003, 2007, 2011, 2015 and 2019. The next periodicity of 8 is planned to be implemented in 2023. The TIMSS international study assesses the educational achievements of 4th and 8th grade students every 4 years and at the same time allows you to solicit not only their knowledge and skills, but also their attitude, interest in these disciplines, as well as their motivation for education. The main plan of the study: for 4 years, the results of his knowledge of mathematics and natural sciences are monitored until the student of the 4th grade reaches the 8th grade. In this way, monitoring of the cognitive achievements of students of primary and upper grades of the school is carried out. The formation of a positive attitude towards mathematics and science is one of the most important goals of these disciplines, curricula in many countries. Completing assignments at home will allow students to reinforce the material learned at school and extend the learning time on the subject for teachers. The result is expected to achieve higher results than students who have received large amounts of homework or have not received it at all. The traditions of doing homework are common by many countries. In some countries in the 4th grade, they are rarely asked at home, mainly for corrective purposes, to allow individual students to master the materials with their peers. In general, a large amount of homework has a negative impact on the quality of students' educational achievements. Literacy in

the Natural Sciences is understood as an individual's knowledge of ideas about the natural sciences, being able to solve problems related to the natural sciences as an active citizen. A person who is literate in the Natural Sciences will be able to participate in the discussion of problems related to the natural sciences and technologies based on scientific evidence. An important factor in the development of students' literacy in the Natural Sciences is the use of tasks similar to the one mentioned above in lesson and extracurricular reading hours, circle classes, repetition classes.

Conclusion. In conclusion, International Studies have a positive effect on the qualitative conduct of National Research in the field of Education. The fact that in recent years, as a result of the reforms carried out in our country, huge economic growth indicators have been achieved, further increasing the demand for qualified personnel and mature specialists in all areas. This in itself requires increasing the

nature of our students' interest in classes and increasing the attention of teachers to comprehensive education and upbringing. The fact that the above requirements are very important for the education system means that advanced experiences aimed at improving the quality of education should be involved in the industry through the assessment and monitoring of the development of education and science fields, as in most foreign countries.

One of the urgent problems facing primary education educators is the psychological approach to the program of international assessment of students. It is about cultivating their parental minds and giving insights into it. Today, as a continuation of the noted work, work is underway to create additional educational and methodological manuals, a set of assignments, newsletters, videodars and videos, as well as to prepare special control materials for experimental and test processes.

LITERATURE

1. Decree of the president of the Republic of Uzbekistan dated June 27, 2018 No. 5466 PF "on the state program" Youth – our future". National database of legislative information 15.08.2018., 07.18.3907 / 1706-San.
2. Resolution of the Cabinet of Ministers of the Republic of Uzbekistan dated December 8, 2018 No. 997 "on measures to organize international research in the field of assessing the quality of education in the public education system"
3. Assessment of reading literacy of Primary School students in International Studies. (Methodological guide for primary school teachers, methodologists and industry experts) chief editorial staff of the publishing and printing Joint-Stock Company "East". Tashkent-2019.
4. PIRLS 2021 evaluation coverage area. Ina V.S.Mullis and Michael O. Martin Tashkent-2021 UNESCO. (2012). International Standard Classification of Education ISCED 2011. 2.Retrieved from uis.unesco.org/sites/default/files/documents / international-standard-classification-ofeducation-isced-2011-en.pdf.
5. "Assessment of mathematical literacy of students in International Studies" "Sharq" NMAK Tashkent 2019. 6. Assessment of students' mathematical literacy in International Studies. (Methodological manual for teachers, methodologists and specialists in the field of mathematics) general editorial office of the publishing and printing Joint-Stock Company "East". Tashkent – 2019
6. Fazilat Bo'riyevna Xudayqulova (2021). Bo'lajak pedagoglarda kasbiy kompetentlikni shakllantirishning o'ziga xos xususiyatlari. Academic research in educational sciences, 2 (CSPI conference 1), 1668-1671.
7. Фазилят Буриевна Худайкулова. (2022). Лаборатория формирования личности в образовании. European Journal of Interdisciplinary Research and Development, 10, 48–53. Retrieved from <http://www.ejird.journalspark.org/index.php/ejird/article/view/214>
8. Axmedov B.A., Asqarova MR, Xudayqulova F.B., Tojiboeva G.R., Ortiqova N. Sh., O'rinova N.S., Eshmanova N.N., Fayziyeva F., Yunusova X.Sh., Madrahimova I.B., Ahmadaliyeva M.S., Ibadullayeva Sh.N., Xurramov AX, Ishmatova. OS, Yusupova NV, & Ergasheva KM, Xudoynazarova GM, Omonova SM,. (2022). Pedagogika fanlari o'qitishda ta'lim boshqarmasi. O'zbek olimlari jurnal,10,529–537. <https://uzbekscholar.com/index.php/uzs/article/view/425>



Feruza XUSANOVA,
Namangan davlat universiteti o'qituvchisi
E-mail-feruza.xusanova81@mail.com

Namdu dotsenti, PhD D.Muminova taqrizi asosida

СПОСОБЫ ОБУЧЕНИЯ ЭЛЕМЕНТАМ КОМБИНАТОРИИ В КРУГАХ НАЧАЛЬНЫХ КЛАССОВ

Аннотация

В данной статье представлены понятие комбинаторики и методы решения задач комбинаторики с целью формирования логического мышления учащихся в кружковой деятельности на уроках математики начальной школы.

Ключевые слова: Комбинаторика, математика, комбинация, задачи комбинаторики, конечное множество.

WAYS TO TEACH THE ELEMENTS OF COMBINATORY IN CIRCLES TO PRIMARY CLASS STUDENTS

Annotation

This article presents the concept of combinatorics and methods of solving combinatorics problems in order to form the logical thinking of students in the circle activities of primary grade mathematics classes.

Key words: Combinatorics, mathematics, combination, combinatorics problems, finite set.

BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARIGA TO'GARAKLARDA KOMBINOTORIKA ELEMENTLARINI O'RGATISH YO'LLARI

Annotatsiya

Ushbu maqolada boshlang'ich sinf matematika darslarining to'garak mashg'ulotlarida o'quvchilarni mantiqiy fikrlashini shakllantirish uchun kombinatorika tushunchasi va kombinatorik masalalarni yechish usullari keltirilgan.

Kalit so'zlar: Kombinatorika, matematika, kombinatiya, kombinatorika masalalari, cekli to'plam

Kirish. Matematika hamma aniq fanlarga asos. Bu fanni yaxshi bilgan bola aqlli, keng tafakkurli bo'lib o'sadi, istalgan sohada muvaffaqiyatli ishlab ketadi, — dedi O'zbekiston Respublikasi Prezidenti SH.M. Mirziyoyev [1].

Matematika – insoniyat o'zi atrofidagi olamni tushunishi va bo'ysundirishi uchun foydalanadigan quroldir. Inson hayotida muhim ahamiyatga ega bo'lgan vaziyatlarda natijalarga ega bo'lishi uchun, ko'plab buyuk matematiklardek matematikani sevishi va bu muhim fanga hurmat bilan munosabatda bo'lishi zarur. Matematikaning muhim bo'limlaridan biri “Kombinatorika” dir[2]. Amaliyotda ushbu bo'limning qo'llanilishi juda keng. Insonning amaliy faoliyati davomida turli sohalarida kombinatorika masalalarini uchratish mumkin.

Adabiyotlar tahlili. Yangilangan ta'lim tizimimizda matematikaning yangi mazmuni yaratilishi va uni o'rganish uchun zamonaviy usullarini qo'llanilishi talab qilinmoqda. Kombinatorika tarixiga nazar tashlasak, bir necha ming yil avval Xitoyda sehrli kvadratlar tuzish, qadimgi Yunonistonda figurali sonlar nazariyasini tuzish masalasini o'rganishgan. Keyinchalik shashka, karta, shoshqol, domino kabi o'yinlar kombinatorik masalalarni vujudga keltirgan. Kombinatorika masalalari Samarqanddagi Ulug'bek maktabining taniqli matematigi G'iyosiddin Jamshid Koshiy, X-asrda yashab ijod etgan Umar Xayyom, keyinchalik yevropa olimlari jumladan, B. Paskal, J. Kordano, G.Leybnits, Ya. Bernulli, P.Ferma, L. Eyler va boshqa olimlarning ishlarida uchraydi. XVII-asrda kombinatorika ehtimollar nazariyasining yaratilishi bilan bog'liq holda mustaqil fan sifatida yuzaga keldi.

Tadqiqot metodologiyasi. Matematika insoniyat tarixida turli hayotiy masalalarni yechishda azaldan qo'llanib kelingan. Insonning amaliy ehtiyojlari bilan bog'liq sodda hisoblashlar va o'lchashlar bajarilgan. Ob'ektlarni tanlash va ularni ma'lum tartibda joylashtirish kabi matematik masalalar har doim insonni qiziqtiradigan sohalaridan hisoblangan.

Kombinatorika – bu matematikani asosiy bo'limlaridan biri bo'lib, u o'zining muhimligi bilan ahamiyatga ega. Hozirgi kunda kombinatorikaga oid ma'lumotlar inson

faoliyatining turli sohalarida qo'llanilmoqda. Masalan, hisoblash texnikalari, ehtimollar nazariyasi, matematik mantiq, sonlar nazariyasi, kimyo, fizika, biologiya, lingvistika, axborot texnologiyalari, kibernetika va boshqa sohalarida turli xil hisoblashlarni amalga oshirish va ular bilan ish ko'ruvchi mutaxassislar kombinatorikaning xilma-xil masalalariga duch keladilar va ularni bajarish mobaynida keng maqsadda foydalanib kelinmoqda. Kombinatorik masalalarni o'rganuvchi matematikaning asosiy bo'limi kombinatorika deb nomlanadi.

Kombinatorikada nima o'rganiladi? Kombinatorik xarakterga ega bo'lgan masalalarni mumkin bo'lgan barcha variantlar sonini hisoblashda «nechta?» yoki «necha xil usulda?» kabi savolarga javob berish talab qilinadi.

Kombinatorika berilgan obyektlardan u yoki bu shart asosida nechta turli xil tuzilmalar topish mumkinligi bo'lgan savollarga javob beradi. Kombinatorika bu berilgan chekli to'plamdan aniq shartlar asosida nechta tuzilmalar hosil qilish mumkinligiga aniqlik kiritib beradi. Kombinatorik masalalarining asosiy xususiyati bu “nechta usul (imkoniyat)...” savoli-ni masalaning tarkibida mavjudligidir. Matematikaning ushbu bo'limida to'plam mavzusi bilan bog'liq hamda to'plam elementlaridan tuzilgan turli xil tuzilmalarga oid masalalar ishlanadi.

Kombinatiya – bu kombinatorikaning asosiy tushunchasidir. Bu tushuncha yordamida ixtiyoriy chekli to'plamning qandaydir sondagi elementlaridan tashkil topgan tuzilmalar ifodalanadi. Kombinatorikada bunday tuzilmalarning o'rin almashtirishlar, o'rinlashtirishlar va gruppalashtirishlar deb ataluvchi asosiy ko'rinishlari o'rganiladi.

Kombinatorika yordamida o'rganilayotgan hodisalar-ni matematik modeli tuziladi. Ma'lumki, hodisa ehtimolini topish matematik formulalar bilan ifodalanadi. Bu esa biror o'rganilayotgan jarayonning (hodisaning) matematik modelidir. Hodisa ehtimolini o'rganishda avvalo kombinatorika tushunchasini kiritish zaruriyati tug'iladi. Ehtimollar nazariyasi va matematik statistika fanini o'rganishda kombinatorika masalalari talabani bu fanlarga qiziqtiradigan asosiy

motivlardan hisoblanadi. Kombinatorika elementlari maktab matematika kursida avvallari (bunda kombinatorika elementlari faniga o'quvchini qiziqitirish uchun yo'naltirilgan) ham o'qitilgan. Biroq o'quv dasturlarida kombinatorika elementlarini kasb o'rganishda matematik tadbirlar, ehtimollar nazariyasi va matematik statistika fanlari uchun asos sifatida qaralmagan. Shu boisdan keyinchalik kombinatorika elementlari maktabda o'qitilmagan. Hozirgi kunda maktab darsliklarida kombinatorika tushunchasi 3-sinf darsligida qisman, 7-sinf darsligida [4] va 11-sinf darsligida berilgan. [3]

Kasb – hunarni egallash va ixtisosni to'g'ri tanlash maqsadida kombinatorika tushunchasi dunyoning rivojlangan barcha davlatlaridagi litsey va kasb-hunar muassasalarida o'rganiladi.

Insonning amaliy faoliyati davomida turli sohalarida kombinatorika masalalarini uchratish mumkin. [5]

Bu sohalarining ayrimlarini sanab o'tamiz:

O'quv muassasalarida (jadvallar tuzish).

Umumiy ovqatlanish muassasalarida (menyu tuzish).

Lingvistikada (harf birikmalarining kombinatsiyalarini tuzish).

Geografiyada (xaritalarni bo'yash).

Sport musobaqalarida (qatnashuvchilar o'rtasidagi o'yinlar sonini hissoqlash).

Ishlab chiqarish korxonalarida (ish turlarini ishchilar o'rtasida taqsimlanishi).

Qishloq xo'jaligi sohalarida (bir necha maydonlar bo'yicha ekinlarning taqsimlanishi).

Qimor o'yinlarida (yutuqlar chastotasini hissoqlash)

Biologiyada (DNK kodlarini dekodlash, yechish)

Maqolada keltirilgan masalalar boshlang'ich sinf o'quvchilariga matematika darslarida o'rganiladigan kombinatorika masalalarini taqdim etadi.

Sodda kombinatorika qoidalariga oid amaliy masalalar

1-masala: Yog'yapti, qor, bugun so'zlaridan nechta gap tuzish mumkin?

Siz nechta gap tuzdingiz?

Yechim:

1) Bugun qor yog'yapti

2) Bugun yog'yapti qor

3) Qor bugun yog'yapti

4) Qor yog'yapti bugun

5) Yog'yapti bugun qor

6) Yog'yapti qor bugun 6ta

Masala. Gulhayoni beshta dugonasi bor. Feruza, Barno, Sarvinoz, Nargiza, Omina. U ikki dugonasini hayvonot bog'iga borishni taklif qilishga qaror qildi. Gulhayoning dugonalarini taklif qilish uchun tanlashini barcha imkoniyatlarini ko'rsating. Bunday imkoniyatlar nechta?

Yechim: Mumkin bo'lgan imkoniyatlarni tanlaymiz.

Feruza, Omina	Feruza, Sarvinoz	Feruza, Barno	Feruza, Nargiza
Omina, Sarvinoz	Omina, Barno	Omina, Nargiza	
Sarvinoz, Barno	Sarvinoz, Nargiza		
Barno, Nargiza			

Masala: Shoxsupaga necha xil usul bilan quyunchani, arslonchani va yo'lbarschani joylashtirish mumkin?



Yechim:



Masala: O'ylab ko'ring, agar ayiqcha bilan tipratikoncha yonma-yon turishni istamasa, yana necha xil usul bilan bu o'yinchoqlarni tokchaga joylash mumkin?



Yechim:



Tahlillar va natijalar. Ushbu maqolada boshlang'ich sinflarning matematika darsliklaridagi kombinatorika masalalari kuchli ko'nikmalarni rivojlantirish uchun yetarli emasligini hisobga olib, bolalar bilan to'garak mashg'ulotlarga tayyorgarlik ko'rishda o'qituvchilarga yordam berish maqsadida tuzilgan. Yuqorida keltirilgan masalalar, o'qituvchining darslar va mashg'ulotlarni yanada samaraliroq o'tkazishini ta'minlash uchun kombinatorika masalalaridan fodalanishini nazarda tutadi. Natijada o'qituvchi va o'quvchilarning umumiy mantiqiy fikrlashini o'qish jarayonida kuchli shakllantirish, modellashtirish imkoniyatlarini beradi.

Xulosa va takliflar. Boshlang'ich ta'lim matematika-sida kombinatorika masalalarining roli doimiy o'sib boradi. Bu o'quvchilarni hayotiy muammolarni hal qilishga tayyorlashda, ularning fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirish uchun katta imkoniyatlar berishi bilan bog'liq. Bu inson kombinatorika asoslarini o'rganishda to'garak mashg'ulotlarida kasbga yo'naltirish degan xulosani beradi. Buning uchun ya'ni to'garak mashg'ulotlarida masallarni yechishga unga o'qituvchi yaqindan yordam beradi.

ADABIYOTLAR

1. Mirziyoev SH.M. "Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz" mavzusidagi O'zbekiston Respublikasi Prezidenti lavozimiga kirishish tantanali marosimiga bag'ishlangan Oliy Majlis palatalarining qo'shma majlisidagi nutqi. – T.: O'zbekiston, 2016.
2. Файмназаров Г. Комбинаторика и бином Ньютона, Л. 1990 г.
3. Mirzaahmedov M.A., Ismailov Sh.N., Amanov A.Q. "Matematika - 11" 2-qism T.: "O'qituvchi" - 2018. 27-bet
4. Akmalov, J. Saparboyev, D. Boytillayev, E. Karimov, Algebra-7 sinf. Darslik. T. 2022 yil. 146-156 bet.
5. Виноградова Е.П. Учимся решать комбинаторные задачи. М.: Изд-во Ассоциация 21 век, 2011г, 48 с.
6. Истомина Н.Б. Методика обучения математике в начальных классах. М.: Изд-во МПУ, 2000. С.35-40.
7. Кондрашов А.М. Пунтус Д.А. Математика. Элементы комбинаторики. г. Красноярск, 2015 г, 72 с.
8. Редько З.Б. Учимся решать комбинаторные задачи. М.: Изд-во Ассоциация 21 век, 2015 г.
9. www.ziynet.uz
10. www.edu.uz
11. www.uzpak.uz
12. www.google.ru
13. www.rsl.ru



Сурайё ХАЙДАРОВА,
Жиззах давлат педагогика университети катта ўқитувчиси, (PhD)
Доцент Неймат Хушвақтов таqrizi asosida

БЎЛАЖАК ГЕОГРАФИЯ ФАНИ ЎҚИТУВЧИСИНING КАСБИЙ КОМПЕТЕНТЛИГА ҚЎЙИЛАДИГАН ТАЛАБЛАР

Аннотация

Мақолада бўлажак география фани ўқитувчилари компонентлигини шакллантириш зарурлиги, олимлар мулоҳазалари, касбий компонентликка қўйиладиган талаблар ҳақида сўз юритилади.

Калит сўзлар: компетенция, компотентлик, шакллантириш, таълим, тарбия, илм-фан.

ПРОФЕССИЯ БУДУЩЕГО УЧИТЕЛЯ ГЕОГРАФИИ ТРЕБОВАНИЯ К КОМПЕТЕНЦИИ

Аннотация

В статье говорится о необходимости формирования компонента будущих учителей географии, мнения ученых, требования к профессиональной составляющей.

Ключевые слова: компетенция, компетенция, формирование, образование, обучение, наука.

PROFESSION OF THE FUTURE TEACHER OF GEOGRAPHY COMPETENCE REQUIREMENTS

Abstract

The article talks about the need to form the component of future teachers of geography, opinions of scientists, requirements for professional component.

Key words: competence, competence, formation, education, training, science.

Кириш. Республикамиз таълим соҳаси ҳам қатор соҳалар каби тезлик билан инновацион ривожланиб бораётган соҳалардан ҳисобланади ва бунда албатта келажагимиз давомчилари ҳисобланган ёшларнинг турли жабҳаларда амалий компетенцияга эга ҳолда тарбиялаш бугунги кун ўқитувчисининг олдида қатор вазифаларни қўяди.

Замонавий илм-фан таълим тизимини такомиллаштиришнинг методологик асоси сифатида қабул қилинган таълимга компетенциявий ёндашув борасида бир қатор илмий-назарий қарашлар мавжуд бўлиб, А.В.Хуторской компетентликнинг турларини тавсифлаб, улар орасида етакчи ўринни билиш компетенцияси эгаллайди деган бўлса, Н.У.Заиченко ўқувчи қобилиятни шакллантиришни энг муҳим воситаси бу замонавий таълим жараёнини ташкил этишнинг интеграл усули ҳисобланади деган қарашни илгари суради. Аммо географияни мактаб ўқувчиларига ўқитишда ушбу ёндашувни амалга ошириш имконияти назарий жиҳатдан етарли даражада асосланмаган. География дарсида мактаб ўқувчиларининг билиш компетентиясининг шакллари ва усуллари белгилайдиган кўрсатмалар мавжуд.

Бизнингча касбий компетенция вазифаларни самарали ҳал этиш ҳамда машғулотларни ўзлаштиришнинг функционал тайёргарликка асосланган шахсий ва касбий фазилатларнинг мураккаб динамик бирлашган тизими сифатидир. Ўқитувчининг касбий компетентияси турли хил вазиятларда юзага келадиган муаммо ва одатдаги вазифаларни касбий билим ва кўникмалар, таълим ва ҳаёт тажрибасидан мақсадли фойдаланган ҳолда кадрятлар тизимига мувофиқ равишда ҳал қилишда намойён бўлади.

Асосий қисм. Ўқувчиларда амалий компетенцияни шакллантириш учун аввало бўлажак география ўқитувчисининг касбий компетенциялар тизими – бу табиатнинг географик мазмуни ва билимлар жараёнини ўзига хослиги ҳамда касбий фаолият соҳасидаги характеристикалар мажмуини яратиш керак бўлади. Уларда шаклланган компетенцияларни баҳолаш эса, ижобий натижага эришишнинг асосий мезонларидан ҳисобланади.

ДТСнинг самарали базаси таркибида таълимнинг маҳаллий ва тарихий моҳияти, унинг геозкологик ва амалий йўналиши, минтақавий географик компоненти, картографик саводхонлиги, синф ва мактабдан ташқари тадбирларини ташкил этишга тайёрлиги (кузатувлар, экскурсиялар, туризм, жойларда амалий ишлар, "яшил" майдонларда ўқув машғулотларини ўтказиш) муҳим аҳамиятга эга. Ушбу ҳолатларни ҳисобга олган ҳолда, қуйидаги ўқув вазифасининг географик профилини конкретлаштириш мақсадга мувофиқ:

- табиат ва жамиятнинг турли жабҳа ва соҳаларида юз берадиган ҳодисаларни географик томонларини тушунтириш, таҳлил қилиш, баҳолаш, фаннинг концептуал ва категориялар аппаратурини қўллаш ҳамда географик тилдан фойдаланган ҳолда турли хил қарашларни таҳлил этиш, илмий мунозаралар ўтказиш, назарий гипотезаларни шакллантириш;

- таълимнинг барча шакллари (маъруза, семинар, амалий машғулот, лаборатория, мустақил иши, курс иши, битирув малакавий иши) инновацион таълим технологиялари асосида ташкил этиш, замонавий географик маълумот воситаларидан (космик тасвирлар, анаморфик хариталар, табиий ва ноҳуш ҳодисалар хариталари ва бошқалар) фойдаланиш, керакли маълумотларни харитада кўрсатиш, статистик материалларни таҳлил қилиш ва географик шарҳлаш ҳамда прогнозлаштириш;

- ўқув жараёнида ўз минтақасини географик жиҳат ва ҳолатларини мукамал билишнинг турли усуллари қўллаш, минтақанинг географик хусусиятларини илмий-назарий асослаш, шаҳар ва қишлоқ жойларида (умумий таълим ва синфдан ташқари) ўқувчиларнинг (кўчма) ўқув машғулотларини, экскурсияларини ташкил этиш ва ўтказиш учун объектларни танлаш;

Ушбу нуқтаи назарлардан келиб чиқиб, бўлажак география фани ўқитувчисининг касбий компетенциялар тизимида муҳим аҳамият касб этадиган қуйидаги ўқув даражадаги компетенцияни алоҳида ажратиб кўрсатиш мақсадга мувофиқ:

1) Махсус ихтисослаштирилган фанларини ўқитиш ва ўзлаштириш жараёнида шаклланидиган географик маданият соҳасига оид компетенция:

- бу компетенцияни эгаллаш география предмети, вазифалари, тарихи, табиий ва ижтимоий фанлар тизимидаги ўрни, географик илмий –назарий билимлар иерархияси, геология ва геокимё географик асослари, географик номенклатура тўғрисида билим беради;

- географиянинг назарий ва эмпирик методларини, географик фикрлашни, географик тушунчалар ва атамаларни, географик изоҳларни, географик фактлар ва картографик кўникмаларни шакллантиради;

- дунёнинг ҳудудлари, объектлари ва ҳодисаларининг географик расмларини харитада акс эттиришни таъминлайди;

- қитъалар, океанлар, денгизлар, ороллар, дунё сув ҳавзалар ҳамда дарёлари тўғрисидаги тушунча ва билимларни шакллантиради.

2) Географик жойлашув тарихи ва тараққиётни ўрганиш юзасидан туризм ва ўлкашунослик фаолияти соҳасидаги компетенция:

- ўқув амалий машғулоти жараёнида, яшаб турган ҳудудни ўрганиш, маҳаллий тарих ва она замин географиясига оид билимлар шаклланади;

- географик ўлкашунослик асосларини билиш, ҳудуднинг туристик ресурс салоҳияти ва объектлари тўғрисида билимлар ўзлаштирилади;

- ер релефи ва топографик харитаси, қитъа ва минтақа, давлатлар жойлашуви, табиий ва тарихий моддий бойликлари ҳақида билимларни шакллантиради;

- ўқув экскурсиялар, саёҳатларни ташкил этиш ва амалга ошириш, ҳамда туристик-тарихий фаолият учун профессионал шахсий мотивацияни қарор топтиради.

3) Методик тайёргарлик тизимида шаклланидиган услубий компетенциялар:

- ўқув жараёнини мақсадли ташкил этишнинг турли шакллари ва самарали усуллари, касбий фанларни танлаш, мустақил ишларни ташкил этиш, курс ишлари, педагогик амалиёт ҳамда битирув малакавий амалиётларга оид замонавий билим ва малакани юзага чиқаради;

- бу компетенцияни ўзлаштириш методик билим ва кўникмалар тизими (ўқув жараёнини лойиҳалаш, диагностика қилиш, коррекциясини амалга ошириш техника ва услубларини ўзлаштириш) ҳамда тадқиқот ва рефлексив кўникма ва малакаларни шакллантиради.

Таъкидлаш лозимки, ўқувчининг амалий компетенцияларини баҳолаш махсус предмет, умумкасбий ва умуммаданий ҳамда миллий ва умуминсоний кадриятларининг интегратори бўлиб, муайян амалий вазиятда таълим муаммоларини ҳал этишни таъминлайди.

Бугунги кунда география фан ўқитувчиси нафақат фанни билиш, аудиторияни бошқариши ва ўқувчиларга бўлган муҳаббат касбий фаолиятида яққол намоён бўлиши керак. Шунингдек, география фан ўқитувчиси касбий компетентлигига профессионал даражадаги таълимни ташкил этиш ва бошқариш, яъни мактабгача таълимдан олий таълимгача қолаверса олий таълимдан кейинги таълимни самарали ва юқори савияда ташкил этиш киради. Бунда унинг ёши ва жинси, ирқи ва миллати аҳамият касб этмаган ҳолад касбий билим ва кўникмаларни ўзлаштирилганлиги муҳим аҳамият касб этган ҳолда:

- география фанини ўқитишнинг турли шакллари ва услубларига эга бўлиш (шу жумладан, доимий дастур доирасидан ташқари);

- фанни ўқитишда замонавий технологияларни ўзлаштириши, ривожлантириши ва қўллаши;

- ўқувчиларнинг айрим тоифалари учун махсус индивидуал ёндашувларни амалга ошириш яъни мобил таълимининг мақсадли ташкил этаолиши (масалан, нутқда,

ақлида, ўзлаштирида ва психикасида нуқсонни бўлган ногирон ўқувчилар учун);

- география фанини ўқитишда инклюзив таълимни самарали ва мақсадли ташкил этиш ҳамда бошқариш;

- ахборот технологияларидан ҳар томонлама юқори савияда фойдаланиш ва географияни инновацион таълим дастурига мувофиқ ўқита олиши;

- билим ва ахборот қўлаи ҳамда сифат даражаси юқорилигини таъминлаш мақсадида чет тилларидан бирини мукамал ўзлаштирган бўлиши ҳамда фанга оида чет эл манбаларни ўқувчиларга етказиб, таҳлил қилаолиши;

- ДТС дастуридан ташқари ҳолатда фанни ўқитишнинг креатив ёндашуви малакасининг ўзлаштирилганлиги.

Замонавий география фан ўқитувчиси юқоридаги касбий фазилатларга эга бўлишидан ташқари, ҳуқукий ва ахлокий меъёрларга, шунингдек, касб ахлоқи талабларига риоя қилиши лозим. Таъкидлаш лозимки педагогик ахлоқ ўқитувчида мавжуд бўлган билим билан тенг қийматга эга. Бу тамойил ХХI аср ўқитувчилари учун касбий шиорга айланиши лозим, қолаверса шартдир.

Бу тамойилнинг моҳияти ХХI аср фан ўқитувчиси нафақат нимани ўргатиши, балки қандай ўқитиши, ўқувчилар билан қандай муносабатда бўлиши, интизомий чораларни амалга ошириши, мотивация бериш, синфда ва синфдан ташқари амалий машғулотлар пайтида юзага келадиган турли муаммоларни ҳал қилишда шунингдек, ўқувчиларнинг амалий тапшириқларни бажараишларини баҳолаш кўнкмаси ҳам муҳим аҳамиятга эга.

Таъкидлаш лозимки бугунги кунда ҳар бир инсон (ота-она) замонавий ўқитувчи хусусида ўз қарашига эга бўлиб, уларнинг аксарияти ўз-ўзини ривожлантириш ва хатоларни тан олиш қобилиятига эга бўлган ўқитувчини синфда кўришни ва фарзандларига таълим беришни истади.

Нотўғри фаолиятини тан олиш (аслида таълимда нотўғри ёндашув мумкин эмас, аммо бу аксарият ўқитувчи фаолиятида кузатилиши мумкин) қобилияти ОТМ ва мактаб ўқитувчиси учун замонавий дунёқараш махсули ҳисобланади. Ахир хатолар инсон табиатининг табиий қисмидир ва ҳеч ким ўқитувчидан ҳеч қачон қилган хатосини тан олганлиги ва уни тезда бартараф этганлигини сабабини сўрамайди, балки унга бўлган ишонч ва ҳурмат ортади. Агар ўқитувчи таълим ва тарбия бериш жараёнида аниқ хатога йўл қўйса, уни яширишга ёки тўғри ҳаракат сифатида ўтказишга ҳаракат қилса, ўқувчилар алданганлигини ҳис қилишади ва ишончли йўқотади.

ХХI асрда география фан ўқитувчисига тегишли бўлиши керак бўлган компетентликдан яна бири бу компьютер саводхонлигининг юқори даражасида бўлишидир. Замонавий инфорацион дастурларда мукамал ишлаш кўникма ва малакасини ўзида шакллантирган бўлиб анъанавий, онлайн, офлайн ва аралаш таълимни инновацион таълим технологиялари асосида ташкил этиши лозим. Шунингдек, дарс давомида жонли тақдиротлар ўтказиши, платформанинг интерактив имкониятларидан мақсадли фойдаланиб масофадан турган ҳолда ўқувчилар эътиборини жалб қилиш ва фанга кизқтирган ҳолда билим ҳамда тушунчаларни сингдириш ностандарт методларидан фойдалана олиши ҳамда ўқувчиларнинг амалий кўникмаларини баҳолай олишлари зарур.

Хулоса. Педагогик таълим ўқитувчидан профессионал касбий тайёргарлик, илмий салоҳиятдан ташқари олган билимларини ўқувчиларнинг амалий компетенцияларини шакллантириш ва уни баҳолашда ҳам самарали қўллаи олиши ҳам талаб этади. Бугунги кун география фан ўқитувчиси доимий илмий изланишда бўлиши, ўқувчиларга фанга тегишли бўлган маълумотларни

тушунтиришда назарий жиҳатларини илмий тадқиқот ишлари манбалари ва тадқиқотчиларнинг илмий гепотизаларига асосланиб етказиб бериши, ушбу назарияларнинг география фанининг давлат ва жамият ҳаётида тутган ролини амалий мисоллар ёрдамида етказиб бериш талаб этилади. Шунингдек, мавзуга оид назарияларни бири-бирига зиддиятли жиҳатларини, ўхшашлик томонларини синфхонада ўқувчилар билан муҳокама қилган ҳолда уларда фикрлаш кўникма ва малакасини шакллантириши зарур. Албатта бу жараён ўқувчиларда география фани юзасидан ўзаро фикр алмашиш ва фан тилида мулоқот қилиш қobiliятини янада ривожлантиришга замин бўлади. Замонавий ўқитувчи мулоқот услуби билан ажралиб туради. Синфда самарали ва

дўстона мулоқотни ўрнатиш қobiliятини ўзида шакллантириш замонавий фан ўқитувчисининг шахсий фазилатларидан бири бўлишини талаб этади. Дарс машғулотлари жараёнида ўқувчиларда соғлом мулоқот ва рақобат муҳитини юзага келтирган ҳолда фикр билдиришни чегарамаслик бугунги куннинг талабидир. Замонавий география фан ўқитувчиси таълимда сингир кетган консерват стандартларда чекинган ҳолда ностандарт методлардан мақсадли фойдаланиб, нафақат фанга балки таълимга қизиқмайдиган, билим олишда адаптация жараёни қийин кечаётган, кучли депрессив ҳолатга тушиб зеркиш устунлик қилаётган ўқувчи билан умумий тил топиши талаб этилади.

АДАБИЁТЛАР

1. Ҳайдарова С., & Юсуфов, Ж. (2021). Компетенциявий ёндошув асосида география дарсларини ташкиллаштириш. Журнал естественных наук, 1(2).
2. Usarov J. E., Eshnaye N. J., & Haydarova, S. A. (2020). Defects in scientific research of the problems of spiritual and moral crisis and its solution. IEJRD-International Multidisciplinary Journal, 5(8), 6.
3. Gapparov A., & Khaydarova, S. (2020). Population Systems In The Reclaimed Lands Of The Republic Of Uzbekistan. Архив Научных Публикаций JSPI.
4. Haydarova S. (2021). Geografiya darslarida elektron taqdimotlardan foydalanish. Журнал естественных наук, 1(1).
5. Haydarova S. (2021). Geografiyani o'qitishda kompetensiyaviy yondashuvning tatbiq etishning o'quvchi psixologiyasi bilan bog'liq jihatlari. Журнал естественных наук, 1(1).
6. Haydarova, S. (2021). Geografiya fani o'qituvchisi kompetentligi va uning zamonaviy talablari. Журнал естественных наук, 1(1).
7. Haydarova S. (2021). Фанни компетенциявий ёндошув асосида ўқитишнинг ўқувчи ёш психологик хусусиятларига боғлиқ жиҳатлари. Журнал естественных наук, 1(1).
8. Haydarova S., Mavlonov, X., & Muxamedov, O. (2021). Arid mintaqalarda yer resurslaridan foydalanishning o'ziga xos jihatlari (Jizzax viloyati misolida). Журнал естественных наук, 1(1).



UDK:384.297

Nigora SHADIYEVA,

Buxoro davlat universiteti "Ekologiya va geografiya" kafedrası o'qituvchisi

E-mail: nigrollashadiyeva-10@mail.ru

Akmal JO'RAYEV,

Buxoro davlat pedagogika instituti "Texnologik ta'lim" kafedrası professori, p.f.f.d (PhD).

E-mail: akmal_djora@inbox.ru

Anvar SHOIMOV,

Buxoro davlat universiteti "Elektronika va texnologiya" kafedrası mustaqil izlanuvchisi

E-mail: anvar_shoimov@mail.ru.

TATU professori, t.f.d. (dsc), b.b. Mo'minov taqrizi asosida

THE ROLE OF SOFTWARE EDUCATIONAL TOOLS IN PREPARING FUTURE TEACHERS FOR PROFESSIONAL ACTIVITIES

Abstract

Multimedia educational systems, audio and educational materials, video educational materials, seminars, simulators, electronic libraries, expert educational systems. Will be used as part of the IEP curriculum, which will allow teachers of future technology teachers to develop a methodology for using electronic textbooks. the use of teaching aids, electronic exhibitions and practical classes, the didactic potential of the educational process to improve the quality and effectiveness of education. Preparing young people, especially future teaching staff, for innovative activities is considered as one of the urgent tasks. In our republic, the development of the market of educational services requires the creation of a competitive environment.

Key words: Software tool, electronic textbook, multimedia, electronic didactic tool.

РОЛЬ ПРОГРАММНЫХ ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫХ СРЕДСТВ В ПОДГОТОВКЕ БУДУЩИХ УЧИТЕЛЕЙ К ПРОФЕССИОНАЛЬНОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ

Аннотация

Мультимедийные учебные системы, аудио и учебные материалы, видео-учебные материалы, семинары, тренажеры, электронные библиотеки, экспертные учебные системы. Будут использоваться в качестве части учебной программы ИОП, что позволит преподавателям будущих учителей технологии разработать методологию использования электронных учебников. использование учебных пособий, электронных выставок и практических занятий, дидактический потенциал образовательного процесса для повышения качества и эффективности обучения. Подготовка молодежи, особенно будущих педагогических кадров, к инновационной деятельности рассматривается как одна из актуальных задач. В нашей республике развитие рынка образовательных услуг требует создания конкурентной среды.

Ключевые слова: Программный инструмент, электронный учебник, мультимедиа, электронный дидактический инструмент.

BO'LAJAK O'QITUVCHILARNI KASBIY FAOLIYATGA TAYYORLASHDA DASTURIY TA'LIM VOSITALARINING O'RNI

Annotatsiya

Maqolada bo'lajak o'qituvchilarini kasbiy faoliyatga tayyorlashda dasturiy ta'lim vositalari (DTV) tarkibiga multimedial o'rgatuvchi tizimlar, audio o'quv-axborot materiallari, video o'quv-axborot materiallari, amaliy ishlar, trenajyorlar, elektron kutubxonalar, ekspert o'rgatuvchi tizimlar asosidagi o'qitish vositalari, elektron ko'rgazmalar ta'lim jarayoni sifati va samaradirligini rivojlantirishning didaktik imkoniyatlari tahlil qilinib, takomillashtirish mexanizmi ishlab chiqilgan. Yoshlarni xususan bo'lajak pedagogik kadrlarni innovatsion faoliyatga tayyorlash dolzarb vazifalardan biri sifatida qaralmoqda. Respublikamizda esa ta'lim xizmatlari bozorini rivojlantirishda avalambor raqobat muhitini shakllantirishni taqazo etadi.

Kalit so'zlar: Dasturiy vosita, elektron darslik, multimedia, elektron didaktik vosita.

Kirish. Jahon ta'lim tizimida o'qitishning zamonaviy didaktik vositalarini keng joriy etish orqali pedagog kadrlarning zamonaviy texnologik bilimlarini kengaytirishga alohida e'tibor qaratilmoqda. So'nggi yillarda ta'lim sohasiga juda katta e'tibor qaratilmoqda. Jumladan oliy ta'lim tizimini rivojlantirish, o'quv jarayonlarini tubdan takomillashtirish, talabalar mustaqilligini kuchaytirish bu borada fanlarning elektron didaktik ta'minotini ishlab chiqish va ularni ta'lim jarayonida qo'llash katta ahamiyat kasb etmoqda.

Mustaqillik yillari tom ma'noda O'zbekiston Respublikasi ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy taraqqiyoti istiqbolini belgilash, jahon hamjamiyati mamlakatlari safidan munosib o'rin egallashga intilish yo'lidagi keng ko'lamli islohotlarni amalga oshirish bilan kechdi. Jahonning rivojlangan mamlakatlari tajribalarini o'rganish, mahalliy shart-sharoit, iqtisodiy va intellektual resurslarni inobatga

olgan holda jamiyat hayotining barcha sohalarida tub islohotlarning amalga oshirilayotganligi yangidan-yangi yutuqlarga erishishni ta'minlamoqda [1]. Turli sohalarida yo'lga qo'yilayotgan xalqaro hamkorlik garchi o'z samarasini berayotgan bo'lsa-da, biroq, milliy mustaqillikni har jihatdan mustahkamlash, erishilgan yutuqlarni boyitish, mavjud kamchiliklarni tezkor bartaraf etish jamiyat a'zolaridan alohida fidokorlik, jonbozlik, shijoat va qat'iyat ko'rsatishni talab etmoqda.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili. Bugungi globallashuv davrda yoshlarni xususan bo'lajak pedagogik kadrlarni innovatsion faoliyatga tayyorlash dolzarb vazifalardan biri sifatida qaralmoqda. Respublikamizda esa ta'lim xizmatlari bozorini rivojlantirishda avalambor raqobat muhitini shakllantirishni taqazo etadi. Rivojlangan davlatlarning tarixiy hayotiga e'tibor qaratadigan bo'lsak,

ularning rivojlanish strategiyasi ta'lim jarayoniga borib taqaladi.

Hukumatimiz tomonidan rivojlangan davlatlarning o'qitish metodikasini respublikamiz ta'lim jarayoniga tadbiq qilish borasida keng ko'lamli islohotlar amalga oshirilmoqda. Xususan respublikamiz uzluksiz ta'lim tizimida "Science" – tabiiy fanlarni integratsiyalashtirish holda o'qitishni joriy qilish masalasi ilgari surilmoqda.

Yuqoridagi fikrlar asosida tahlil qiladigan bo'lsak tabiiy fanlarni o'qitish metodikasini takomillashtirish bo'yicha ilmiy-tadqiqot ishlarini kengaytirish lozimligini ko'rsatadi.

Tadqiqot metodologiyasi. Dasturiy ta'lim vositalari asosida bo'lajak o'qituvchilarga axborotlarning noan'anaviy manbaalariga murojaat qilishimkoniyatlarini ochib beradi, mustaqil ishlar samaradorligini oshiradi va ijodiy faoliyat bilan shug'ullanish uchun keng imkoniyatlar yaratadi [2]. Dasturiy ta'lim vositalari qo'yilgan metodik maqsadlarni amalga oshirishi uchun o'qituvchiga o'qitishning turli shakllaridan va ularning majmuasidan foydalanish, ya'ni zaruriy ta'lim muhitini barpo etish imkonini beradi. O'qitishning dasturiy ta'lim vositalaridan foydalanishda o'qituvchi kompyuterlashtirilgan o'qitish va nazorat qilish dasturlari sharoitidan kelib chiqib o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish imkoniyatiga ega bo'ladi. Avtomatlashtirilgan o'quv-axborot tizimida foydalanishga asoslangan o'qitishning dasturlashtirilgan ta'lim vositalarni qo'llash natijasida o'qituvchilar o'zlarining axborot bilan ta'minlanganlik darajalarini oshiribgina qolmay, balki deyarli butun dunyodagi axborot jamlamalaridan foydalanish imkoniyatiga ega bo'ladi.

Dasturiy ta'lim vositalari kompyuter texnologiyalari yordamida o'quv jarayonini qisman yoki to'liq avtomatlashtirish uchun mo'ljallangan didaktik vosita hisoblanadi. Ular ta'lim jarayonini samaradorligini oshirishning istiqbolli shakllaridan biri hisoblanib, zamonaviy texnologiyalarning o'qitish vositasi sifatida ishlatiladi. Pedagogik dasturlashtirilgan vositalari dinamik illustratsiyalar, ovoqli jarayonlar, animatsiyalar kabi effektlarni amalga oshiruvchi dasturlardan foydalanib yaratiladi [3].

Dasturiy ta'lim vositalarning asosiy didaktik imkoniyatlari, bir nechta toifada qo'llanilishini bildiradi:

1. Multimediali o'rgatuvchi kurs sifatida, bir nechta namoyish animatsiyalar, video darslar, illustratsiyalar, o'rgatuvchi va interfaol laboratoriyalardan tarkib topgan.

2. Multimediali o'rgatuvchi interfaol laboratoriya sifatida, talabalarining laboratoriya ishi topshiriqlarini bajarishda faol bo'lishga, bevosita o'zi ishtirok etishga undaydi, buning natijasida dasturiy ta'lim vositalarini yaratish va qo'llash bo'yicha bilim, ko'nikma va malakaga ega bo'ladi.

3. O'rgatuvchi – nazorat qiluvchi sifatida, har bir mavzu bo'yicha o'rgatuvchi mashq qildiruvchi va nazorat testlari kiritilgan bo'lib, ular yordamida talaba qo'yilgan savollarning to'g'ri javobini o'rganadi, o'z bilim darajasini aniqlaydi. Bunda esa, to'g'ri javobni o'rganish orqali bilim olish samaradorligi oshadi.

Dasturiy ta'lim vositalarning ta'lim jarayonlariga joriy etilishi:

- bo'lajak o'qituvchilarga kasbiy bilimlarni egallashiga;

- o'rganilayotgan hodisa va jarayonlarni modellash-tirish orqali fan sohasini chuqur o'zlashtirilishiga;

- o'quv faoliyatining xilma-xil tashkil etilishi hisobiga talabani mustaqil faoliyati sohasining kengayishiga;


- interaktiv muloqot imkoniyatlarining joriy etilishi asosida o'qitish jarayonini individuallashtirish va differensiyalashtirishga;

- sun'iy intellekt tizimi imkoniyatlaridan foydalanish orqali talabani o'quv materiallarini o'zlashtirish strategiyasini egallashiga;

- axborot jamiyati a'zosi sifatida unda axborot madaniyatining shakllanishiga;

- o'rganilayotgan jarayon va hodisalarni kompyuter texnologiyalari vositasida taqdim etish, bo'lajak o'qituvchilarda fan asoslariga qiziqishni va faollikni oshirishga olib kelishi bilan muhim ahamiyat kasb etadi.

Tahlil va natijalar. Shunday qilib, bo'lajak o'qituvchilarini tayyorlash jarayonini model ko'rinishida ifodalashning axborot-ta'lim muhitida o'qituvchilarini kasbiy tayyorlash mexanizmini takomillashtirish va uning tarkibiy qismlarini mantiqiy o'zaro bog'liqligi ishlab chiqildi (1-rasmga qarang). Unga ko'ra, oliy pedagogik ta'lim tizimi muayyan o'qituvchi ixtisosligidan qat'iy nazar, o'qituvchilarini kasbiy tayyorlash dasturiy ta'lim vositalari asosida tashkillashtirilishi kerakligini ta'kidlash mumkin.



1-rasm. Dasturiy ta'lim vositalari asosida bo'lajak o'qituvchilarni kasbiy faoliyatga tayyorlash modeli

Bo'lajak o'qituvchilarni kasbiy sifatlarini tarkib toptirish: global fikrlash, kasbiy tashkilotchilik, intizomlilik, tashabbuskorlik, boshqaruvchanlik, kasbiy omilkorlik, mehnatsevarlik, qiziquvchanlik, motivatsion xislat, intellektual salohiyat, irodaviylik, hissiylik, amaliy ko'nikmalar, o'z-o'zini boshqara olish [6].

Yuqoridagi modeldan ko'rinib turibdiki, Bo'lajak o'qituvchilarini kasbiy tayyorlashda axborot-ta'lim muhitining o'rni sezilarli darajada salmoqli bo'lib, bunda dasturiy ta'lim vositalaridan unumli foydalanish maqsadga muvofiq hisoblanadi.

Har bir mavzu bo'yicha metodik ishlanmalar tayyorlash, talabalar bilan mashg'ulotlarni guruh bo'lib o'tishni (muhokama, loyihalar ustida birgalikda ishlash va hokazo) tashkil etish, o'qituvchi tomonidan har bir talabaning o'quv faoliyatini individual qo'llab-quvvatlanishini tashkil etish, yaratilgan dasturiy ta'lim vositalardan foydalangan holda o'quv mashg'ulotlarni va mustaqil ta'limni tashkil etish, hamda dasturiy ta'lim vositalarni yaratish jarayonida foydalanish kabi muhim vazifalarni amalga oshirish zarurligini ko'rsatdi [7]. Bunda bakalavr bosqichi talabalarining o'z sohasi bilan bir qatorda kasbiy pedagogik faoliyatida axborot texnologiyalari, xususan dasturiy ta'lim vositalari yaratish va ulardan o'quv jarayonida foydalanish masalalariga alohida e'tibor qaratiladi. Bayon etilgan fikrlardan kelib chiqqan holda dasturiy ta'lim vositalaridan foydalanish, ta'lim tizimi samaradorligini oshirishda bir qator jarayonlarni bajarish kerak: jumladan, ta'lim sohasini tanlash va zarur muammolarni tahlil qilib, bartaraf etishda dasturiy ta'lim vositalarini yaratish texnologiyasini ishlab chiqish va amaliyotga joriy etishni taqazo etmoqda [8].

Majburiy va tanlov fanlari mashg'ulotlaridan yaratiladigan pedagogik dasturiy vositalar quyidagi metodik talablarga javob berishi kerak:

1. O'quv materialini taqdim etishning tushunchali, obrazli va harakatli komponentlarining o'zaro bog'liqligiga tayangan holda qurilishi.

2. O'quv materialini yuqori tartibli tuzilma ko'rinishida ta'minlashi. Fanlararo mantiqiy o'zaro bog'liqlikning hisobga olinishi.

3. Ta'lim oluvchiga o'quv materialini bosqichma-bosqich o'zlashtirganligini turli xildagi nazoratlarni amalga oshirish asosida aniqlash imkoniyatlarining yaratilishi [9].

Xulosa va takliflar. O'quv jarayonida dasturiy ta'lim vositalaridan foydalanishning keng pedagogik imkoniyatlari qayd etilib, uning xususiyatlari, ta'lim va tarbiyaviy faoliyat vositasi sifatida ko'rib chiqish va takomillashtirish zarur va yetakchi tamoyillaridan biri hisoblaniladi.

Ushbu maqsadga erishish uchun fan talabalarini nazariy bilimlar, amaliy ko'nikmalar: pedagogik dasturiy vositalar va ularning turlari, pedagogik-dasturiy vositalarning o'zaro hamkorligini tashkil etish metodlari, pedagogik-dasturiy vositalar yaratish tamoyillari, pedagogik-dasturiy vositalar ssenariysini yaratish texnologiyasi, pedagogik dasturiy vositalarda o'quv faoliyatni boshqarish, dasturlash tillarida pedagogik-dasturiy vositalar yaratish texnologiyasi, Elektron o'quv materiallarini yaratish texnologiyalari, prinsiplari, ovoz berish texnologiyasi, namoyish etuvchi, nazorat qiluvchi, o'rgatuvchi dasturlar, dasturiy vositalarning didaktik imkoniyatlari, ekspert-o'rgatuvchi tizimlar, avtomatlashtirilgan o'rgatuvchi tizimlar, o'quvchilarning psixofiziologik xususiyatlarini va kompyuterning texnik imkoniyatlarini hisobga olish, pedagogik dasturiy vositalarda o'quv faoliyatni boshqarish, pedagogik dasturiy vositalarni yaratishning texnik vositalari, elektron darslik, elektron o'quv qo'llanmasi, elektron ma'lumotnoma, elektron xrestomatiya, elektron katalog, elektron o'quv materiallarini yaratish dasturlarida ishlashni, pedagogik dasturiy vositalar bilan ishlash, pedagogik-dasturiy vositalar yaratish, avtomatlashgan o'rgatuvchi tizimlarda ishlash, Flash texnologiyasi va undan pedagogik dasturiy vositalarni yaratishda foydalanish, elektron o'quv materiallarini yaratish dasturlarida ishlash, zamonaviy dasturlash tillari asosida elektron o'quv materiallarini yaratish maqsadga muvofiq.

ADABIYOTLAR

1. Ходиев Б.Ю. Олий таълим иқтисодий таълим тизими учун замонавий ўқув адабиётларини яратиш: янги стандарт талаблари, тузилиши, мазмуни. Академхизмат. – Т.: 2005 й. – 167 б.
2. Назарова Т.С., Господарин Ю.П. Стратегия развития учебной книги. Педагогика. – Т.: 2005 й. № 3. С. 10-19.
3. Mirzamedov B.M. Zamonaviy darslikka qo'yiladigan didaktik talablar. "O'rta maxsus kasb-hunar ta'lim tizimida zamonaviy o'qitish texnologiyalarini ishlab chiqish va o'quv adabiyotlarining yangi avlodini yaratish muammolari" mavzusidagi Respublika ilmiy-amaliy anjumani materiallari. – B.: 2006 y. – 148 b.
4. Немов Р.С. Статистический анализ экспериментальных данных и способов наглядного представления результатов. – М.: "Просвещение", 1992 г. – 550 с.
5. Tursunov S.Q. Ta'limda elektron axborot resurslarini yaratish va ularni joriy qilishning metodik asoslari (pedagogika oliy ta'lim muassasalari "Web-dizayn" fani misolida). 13.00.02. pedagogika fanlari nomzodi ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya avtoreferati. – T.: 2011 y. – 24 b.
6. A.R.Jo'rayev, "Bo'lajak texnologiya fani o'qituvchilarini kasbiy tayyorlashda dasturlashtirilgan ta'lim vositalaridan foydalanishning didaktik imkoniyatlari". Zamonaviy fan, ta'lim va tarbiyaning dolzarb muammolari. Elektron jurnal. – Urganch. 2019-1.
7. Жураев А.Р. Выбор оптимизированного содержания трудового образования и методика его обучения (5A112101 – Методика трудового обучения). Ташкент – 2014 г. с 107.
8. Жураев А.Р., Аслонова М.С., Бахранова У.И. Методика использования электронных учебников в обучении направления "Технология и дизайн" предмета технологии // "Проблемы педагогики" научно-методический журнал № 3 (35) / Россия, Москва. 2018. – С. 23 – 25.
9. Shadiyeva.N.Sh. Bolajak geografiya fani o'qituvchilarini dasturiy ta'lim vositalaridan foydalanishga oid kreativligini rivojlantirishning ilmiy-metodik ahamiyati // Science and Education Elektron jurnal. № 5 bet.1137-1143- 2022.
10. Zhuraev A.R. Research and methodology background to the optimization of labour and professional training curriculum in general secondary education // International scientific journal. № 7 (35) / Russia Volgograd. International scientific journal. № 7 (35) / Russia Volgograd. Impact factor of the journal "Science and world" – 0.325 (Global Impact Factor 2013, Australia) 2016. – P. 70-71.



Адиба ШАЙМАНОВА,
Қарши ДУ доценти, фалсафа фанлари номзоди
E-mail: adibashaymanova76@jmail.com

ТДИУ профессори фалсафа фанлари доктори Б.Алиев тақризи асосида

THE ROLE OF THE LAYER OF INTELLECTUAL OWNERS IN THE REALIZATION OF HUMAN INTERESTS

Annotation

By the end of the 20th century, the development of the world economy began to enter a qualitatively new stage. Nowadays, the place and competitiveness of countries in the international arena and the world economy is determined not only by its natural resources, the size of its financial resources, or the power of its armed forces, but also by its intellectual potential, the ability to create new knowledge and use it effectively. Therefore, today the developed countries of the world are achieving high development and well-being, first of all, due to the great attention directed to science and education. This article discusses the role of intellectual property owners in the realization of human interests.

Key words: intellectual, property class, human interests, science, education, knowledge economy, innovative.

РОЛЬ СЛОЯ ИНТЕЛЛЕКТУАЛЬНЫХ СОБСТВЕННИКОВ В РЕАЛИЗАЦИИ ИНТЕРЕСОВ ЧЕЛОВЕКА

Аннотация

К концу 20 века развитие мировой экономики начало вступать в качественно новый этап. В настоящее время место и конкурентоспособность страны на международной арене и в мировой экономике определяются не только ее природными ресурсами, размером финансовых ресурсов или мощностью ее вооруженных сил, но и ее интеллектуальным потенциалом, способностью создавать новые знания и эффективно их использовать. Поэтому сегодня развитые страны мира достигают высокого развития и благополучия, в первую очередь, за счет большого внимания, направленного на науку и образование. В данной статье рассматривается роль правообладателей интеллектуальной собственности в реализации интересов человека.

Ключевые слова: интеллектуал, имущественный класс, интересы человека, наука, образование, экономика знаний, инновационная.

ИНТЕЛЛЕКТУАЛ МУЛҚДОРЛАР ҚАТЛАМИНИНГ ИНСОН МАНФААТЛАРИНИ РЎЎБГА ЧИҚАРИШДАГИ ЎРНИ

Аннотация

XX аср охирига келиб жаҳон иқтисодиётининг ривожланиши сифат жиҳатдан янги босқичга ўта бошланди. Ҳозирги кунда мамлакатларнинг халқаро майдондаги ва дунё иқтисодиётидаги ўрни ва рақобатбардошлиги унинг табиий бойликлари, молиявий маблағларининг ҳажми ёки қуролли кучларининг қудрати билангина эмас, балки, ундаги интеллектуал салоҳият, янги билимларни яратиш ва улардан самарали фойдаланиш имконияти ва қобилияти билан белгиланмоқда. Бинобарин, бутунги кунда дунёдаги ривожланган давлатлар юрак тараққиёт ва турмуш фаровонлигига энг аввало, илм-фан ва таълимга қаратилган улкан эътибор тўғрисида эришмоқда. Ушбу мақолада инсон манфаатларини рўёбга чиқаришда интеллектуал мулкдорлар қатламининг ўрни ҳақида фикр юритилади.

Калит сўзлар: интеллектуал, мулкдорлар қатлами, инсон манфаатлари, илм-фан, таълим, билимлар иқтисодиёти, инновацион.

Қириш. Дарҳақиқат, XXI асрга келиб, жамиятнинг ижтимоий-иқтисодий тузилиши ва инсоният маънавий дунёқарашида чуқур ўзгаришлар юз бермоқда. Айниқса, таълим соҳасида рўй бераётган инқилоб, инсониятнинг мақсадларини амалга оширишда унинг интеллектуал салоҳияти билан боғлиқлигини кўрсатмоқда.

Бинобарин, бутунги кунда, дунёда интеллектуал мулкдорлар қатламининг шаклланиши ва ривожланиши кўп жиҳатдан мамлакатларнинг ижтимоий-иқтисодий ривожланиш истикболларини, мудофаа қобилиятининг қай даражада эканлиги, шунингдек, фуқароларининг маънавий ва сиёсий маданияти, ҳамда уларнинг ҳаётий эҳтиёжлари ва орзу умидларининг рўёбга чиқариш учун яратилган шарт-шароитлар билан бевосита боғлиқдир.

-Мавзуга доир адабиётлар таҳлили. Ҳозирги пайтда, интеллектуал мулкдорлар қатлами халқ фаровонлиги ва мамлакат тараққиётида муҳим ўрин тутмоқда. Бу борада кўплаб тадқиқотлар амалга оширилмоқда. Жумладан, хорижлик олимлардан Э.Дюркгейм, Г.Спенсер, Т.Парсонс, П.Сорокин, Р.Мертон, Т.Джефферсон кабилар илм-фан ва таълимнинг аҳамиятини, таълим ва жамият ўртасидаги

муносабатларни, таълимнинг ижтимоий меҳнат тақсимоли билан узвий боғлиқлигини, ўқув фаолияти жараёнида билимларнинг ўрнини ва унинг инсон фаолиятига хизмат қилишини, айниқса “Олий ўқув юрларининг мақсади талабаларнинг онгида ҳаёт фалсафаси деб номланувчи яшаш тарзини шакллантириш ва мустаҳкамлашдан иборат” деган ғояларни илгари сурадилар[1].

Шунингдек, Президентимизнинг илм-маърифатни ривожлантиришга қаратилган кўплаб чиқишларида бутун жамият аъзоларининг билим савиясини ошириш учун аввало илм-маърифат, юрак маънавият кераклигини, илм йўқ жойда қолоқлик, жаҳолат ва албатта, тўғри йўлдан адашиш бўлишини таъкидлайди. Шу билан бирга, мукаддас китобимиз Қуръоннинг илк оятида ҳам “Ўқинг”, “Ўқинг” деб инсонларни илму маърифатга даъват этилганини ва “Илм” сўзининг кўп мартаба келганлигини таъкидлаш жоиздир. Имом Бухорий бобомизни “Илмдан бошқа нажот йўқ ва бўлмағай!” каби сўзлари юқоридаги фикрларнинг муҳимлигини англатади. Зеро, Президентимиз жорий йилда Олий Мажлисга йўллаган Мурожаатидаги нутқларида “Энг катта бойлик – бу ақл-заковат ва илм, энг катта мерос – бу яхши тарбия, энг катта

қашшоқлик – бу билимсизликдир!”[2] деб таъкидлайди. Бинобарин, илм-фан, маънавият-маърифатга тикилган сармоя буюк келажак учун киритилган инвестициядир.

Таҳлил ва натижалар: XX аср охирига келиб жаҳон иқтисодиётининг ривожланиши сифат жиҳатдан янги босқичга ўта бошланди. Ҳозирги кунда мамлакатларнинг халқаро майдондаги ва дунё иқтисодиётидаги ўрни ва рақобатбардошлиги унинг табиий бойликлари, молиявий маблағларининг ҳажми ёки қуrolли кучларининг қудрати билангина эмас, балки, ундаги интеллектуал салоҳият, янги билимларни яратиш ва улардан самарали фойдаланиш имконияти ва қобилияти билан белгиланмоқда. Бугунги кунда билимлар иқтисодий ўсишининг асосий омили, халқ фаровонлиги ва мамлакат тараққиётини таъминлайдиган муҳим дастакка айланди. Буни ялпи маҳсулоти ўсишининг 90 фоизини илмий-техник тараққиёт белгилаб бераётган ривожланган мамлакатлар тажрибаси тасдиқлайди[3].

Аграр ёки индустриал иқтисодиётда товарларнинг айирбошланиши натижасида ушбу товарларнинг мамлакатдан бутунлай чиқиб кетиши рўй берган бўлса, жамият тараққиётининг янги босқичининг асосий товари бўлган билим ва унинг натижаларининг сотилишига бундай хусусият хос эмас. Табиий бойликлар чекланган бўлса, билимларнинг асоси бўлган инсон қобилиятлари чексиздир. Шу ўринда Томас Джефферсоннинг қуйидаги сўзларини эслаш ўриндир: “Мени ноқорлаштирамай фикрларимни олиб фойдаланган инсон, худди мени қоронғуликка дучор этмай чироғимнинг ёруғлигидан фойдаланган инсон қабидир” [4]. Яъни, билим ва унинг натижаларининг айирбошланиши унинг қамайишига эмас, балки ундан ҳам зиёда бўлишига олиб келади.

XX аср охирида Иқтисодий ҳамкорлик ва ривожланиш ташкилотига (OECD) аъзо мамлакатлар ЯИМнинг 50 фоиздан ортиғи билимларга асосланган тармоқларда яратилган. Илмий тадқиқот ва ишланмаларга ўртача харажатлар ЯИМнинг 2,5 фоизига, таълим харажатлари давлат харажатларининг 12 фоизига, “ўқиш ва ишлаш” дуал тизими мавжуд бўлган Германия ва Австрия каби давлатларда “иш жойида таълим олиш” (on the job training) га харажатлар ЯИМнинг 2,5 фоизгача етган. 1980 – йилларнинг ўрталаридан бошлаб компьютер ва дастурий таъминотларнинг сотиб олиниши йилига 12 фоизга ошиб бориш суръатида рўй берди. OECD га аъзо мамлакатларда юқори малакали кадрларга талаб ошмоқда. Ўрта маълумотлилар орасида ишсизлик 10,5 фоизни ташкил этган бўлса, олий маълумотлилар орасида 3,8 фоизни ташкил этган. Юқори технологиялар, илм талаб этувчи тармоқларда бандлик ошиб бормоқда[5].

Зеро, бугунги кунда дунёдаги ривожланган давлатлар юксак тараққиёт ва турмуш фаровонлигига энг аввало, илм-фан ва таълимга қаратилган улкан эътибор туфайли эришмоқда. Шунингдек, охириги йилларда жаҳон иқтисодий адабиётларида кенг тарқалган “билимларга асосланган иқтисодиёт” ёки “интеллектуал иқтисодиёт” тушунчалари кенг қўлланилаётганини назарда тутган ҳолда, билимлар иқтисодиёти таълим тизими, фанлар, патент системасини, компьютер программаларини ишлаб чиқариш соҳаси, НИОКР – (“Илмий тадқиқотлар ва ишланмалар” (Научно исследовательские опытно – конструкторские разработки) ва билим ишлаб чиқариш билан боғлиқ бошқа тармоқларни қамраб олаётганини таъкидлаш жоиздир.

Дарҳақиқат, билимлар иқтисодиёти - бу шундай иқтисодиётки, унда интеллектуал салоҳият, ишчи ва хизматчиларнинг креатив имкониятлари, билимлари, товар яратишдан тортиб уни ишлаб чиқарувчидан истеъмолчига етиб боргунгача бўлган барча босқичларни ўз ичига қамраб олади.

“Билимлар иқтисодиёти” атамаси илк бор, миллий иқтисодиётнинг билимлар яратиладиган, қайта ишланадиган ва тарқатиладиган тармоғи сифатида 1962 йилда Ф. Махлуп томонидан “АҚШда билимларнинг ишлаб чиқарилиши ва тарқатилиши” китобида муомалага киритилган [6]. П. Друкер томонидан эса ушбу атама иқтисодий ривожланишнинг асосий омили сифатида билимлар юзага чиқадиган иқтисодиёт тури сифатида кенг оммага ёйилган. Иқтисодий ҳамкорлик ва ривожланиш ташкилотининг (OECD) таърифида кўра “билимлар иқтисодиёти” бу билим ва ахборотларнинг ишлаб чиқарилиши, тарқатилиши ва фойдаланилишига асосланган иқтисодиётдир[7]. Бошқа бир манабада келтирилган таърифга кўра эса “билимлар иқтисодиёти” постиндустриал ва инновацион иқтисодиёт ривожланишининг юқори босқичи бўлиб, билимлар жамияти ёки инновацион жамиятнинг асосидир[8].

Шунинг учун ҳам кейинги йилларда инсон капитали ва билим мамлакат иқтисодий тараққиётининг асосий омили сифатида эътироф этилмоқда. Зеро, қайсики мамлакатда иқтисодиётнинг ушбу тури ривожланса, ўша мамлакатда инсон капиталининг (кадрларнинг) сифатини ошишига, аҳолининг турмуш фаровонлигини сифат жиҳатдан яхшиланишига, юқори технологик билимлар, инновация ва юқори сифатли хизматларни юзага келишига олиб келади. Рус академиги Я.Б.Данилевичнинг фикрича, “билимлар иқтисодиёти”да “инновацион иқтисодиёт”дан фарқли равишда, инновациялар эмас, балки, билим асосий айирбошлаш объектига, яъни товарга айланади[9]. Яна бир таърифга кўра “билимлар иқтисодиёти” бу ўзининг ўсиши ва рақобатбардошлигини таъминлаш учун билимларни яратадиган, тарқатадиган ва улардан фойдаланадиган иқтисодиёт бўлиб, унда билимлар иқтисодиётнинг барча тармоқларини ва иқтисодий муносабатларнинг барча қатнашчиларини бойитади[10].

Бугунги кунда “билимлар иқтисодиёти” атамаси жуда оммалашиб бормоқда. Мутахассисларнинг таъкидлашича, бу соҳада кўпгина изланишлар олиб борилаётганлигига қарамадан “билимлар иқтисодиёти” тушунчасининг моҳияти, унинг ўзига хос хусусиятлари, асосий элементлари ва бошқа жиҳатлари аниқлик талаб этади. Тадқиқотчи Ш.Акрамова “билимлар иқтисодиёти”га “кучли ижтимоий хусусиятга эга бўлган ва асосий ривожланиши билимларнинг яратилиши, тарқатилиши ва фойдаланилиши таъсирида амалга ошадиган иқтисодиёт сифатида қараш мумкин” [11], деган фикрни билдиради.

Дарҳақиқат, бугунги кунда, билимлар иқтисодиёти инсон фаолиятининг барча соҳалари ва жамиятнинг ҳар бир жабҳасини қамраб олмоқда. XXI асрнинг биринчи ярмидаги ўзгаришлар ишлаб чиқаришнинг постиндустриал иқтисодий услубининг шаклланиши билан ифодаланади. Гарчи бу жараён узоқ муддатли ва зиддиятли бўлса-да, ҳозирданок унинг асосий жиҳатлари кўзга ташланмоқда. Биринчидан, бу интеграл ижтимоий - иқтисодий тизим бўлиб, бунда, тадбиркорларнинг шахсий ташаббуслари ва инновацион фаоллиги билан ҳозирги ва келажакдаги авлодлар учун муносиб турмуш тарзини таъминлаш ётади. Иккинчидан, давлатнинг стратегик - инновацион функцияларини амалга ошириш, бозор иқтисодиётининг давлат томонидан тартибга солиниши ҳамда инсон капитали ва табиий ресурслар муҳитини сақлаш, тақрор ишлаб чиқаришни таъминловчи ноҳозор секторининг ривожланиш даражаси юқорилаб боришига имконият яратилади.

Хулоса ва таклифлар. Мамлакатимизда аҳолининг интеллектуал салоҳиятини оширишга берилаётган алоҳида эътиборнинг замирида чуқур маъно бор. Интеллектуал мулкдорлар қатлами орқали, шу юрт

фуқароларининг эртанги кунга, тараққиётга бўлган ишончи юзага келади.

Бинобарин, бугун барпо этилаётган Янги Ўзбекистоннинг ижтимоий-синфий асосини интеллектуал мулкдорлар қатлами ташкил қилади. Интеллектуал мулкдорлар қатлами деганда нафақат мулкдорлар ва тадбиркорлар қатлами, шунингдек, даромади ва турмуш даражасига кўра, уларга яқин келадиган ижодкор зиёлилар: олимлар, адиблар, санъат аҳли, тиббиёт ходимлари ҳамда давлат хизматчилари ва юксак малакали инженер-техник ходимлар, иқтисодчилар, менежерлар, адвокатлар,

амалиётчи психологлар, малакали ишчилар назарда тутилилади.

Зеро, мамлакатда ушбу қатлам ривожланар экан, нафақат иқтисодиёт, балки ижтимоий-маданий соҳанинг ҳам тараққиёти кафолатланади. Бунинг учун эса, Ўзбекистонда барпо этилаётган инсонпарвар фуқаролик жамиятининг ижтимоий-сиёсий таянчи, барқарор тараққиёт, тотувлик ва мамлакат хавфсизлигининг ишончли кафолати бўлган интеллектуал мулкдорлар қатламининг шаклланиши ва ривожланиши учун барча шарт-шароитларни яратиш давримиз талабидир.

АДАБИЁТЛАР

1. Дюркгейм Э. Социология образования. Пер.с.фр.-М.: ИНТОР, 1996; Спенсер.Г. Образование умственное, моральное и физическое. – М.: Просвещение, 1984; Парсонс Т., Gerald P/ The American University. Harvard University Press: Second Printing edition (January I.1973); Сорокин П.А. Проблемы новой социальной педагогики // Общедоступные проблемы социологии.-М.: наука, 1994.
2. Мирзиёев Ш.М. Янги Ўзбекистон стратегияси. Тошкент, Ўзбекистон. 2021.
3. Глазьев С.Ю. Как построить новую экономику. // Эксперт. 21 февраля 2012. http://www.glazev.ru/econom_polit/294/
4. Макаров В.Л. Экономика знаний: уроки для России // Наука и жизнь, 2003. №5.
5. The Knowledge Based Economy. Organization For Economic Cooperation and Development, Paris. 1996. – P. 9-10.
6. Акрамова Ш. Билимларга асосланган иқтисодиётда олий таълимнинг ўрни. Население Узбекистана: состояние, проблемы и перспективы: Монография / Под .ред. академика Р, Убайдуллаевой. - Т.: 2012. С.207
7. The Knowledge Based Economy. Organization for Economic Cooperation and Development, Paris. 1996. – P.
8. <http://ru.wikipedia.org/>
9. Данилевич Я. Б., Коваленко С.А. Имидж ученого: современные PR-технологии в экономике знаний // Вестник Российской академии наук. – 2005, № 1. – С. 32
10. Стюарт Т. Кузьмин Е. И. ЮНЕСКО и общества знаний для всех / Е. И. Кузьмин, В.Р.Фирсов // Российский комитет программы ЮНЕСКО - <http://www.ifarcom.ru/>.
11. Акрамова Ш. Билимларга асосланган иқтисодиётда олий таълимнинг ўрни. Население Узбекистана: состояние, проблемы и перспективы: Монография/ Под.ред. академика Р, Убайдуллаевой. - Т.: 2012. С.209



Утқир ШОНАЗАРОВ,
Таянч докторант
E-mail: ushonazarov@gmail.com

ф.ф.д. Ў.Тилолов тақризи асосида

ЖИСМОНИЙ МАДАНИЯТНИ РИВОЖЛАНТИРИШ ИЛМИЙ ПАРАДИГМАЛАРИГА ДОИР БАЎЗИ МУЛОҲАЗАЛАР

Аннотация

Мақолада, илмий доираларда жисмоний маданиятни ривожлантиришга оид мавжуд илмий парадигмалар таҳлили кўриб чиқилган. Муаллиф илмий тадқиқотнинг натижаларини умумлаштириш давомида шакллланган ўз мулоҳазаларини замон талаблари ва илмий изланишлар стратегиясига асосланиб, тақдим этишга ҳаракат қилади.

Калит сўзлар: жисмоний маданият, жисмоний тарбия, спорт, парадигма, шахсни риволантириш, ижтимоий-фалсафий ёндашув.

НЕКОТОРЫЕ СООБРАЖЕНИЯ О НАУЧНЫХ ПАРАДИГМАХ ФИЗИЧЕСКОГО И КУЛЬТУРНОГО РАЗВИТИЯ

Аннотация

В статье проводится анализ существующих научных парадигм, связанных с развитием физической культуры в научных кругах. Автор пытается изложить свое мнение, сформировавшееся в ходе обобщения результатов своего научного исследования, исходя из требований времени и стратегии научного поиска.

Ключевые слова: физическая культура, физическое воспитание, спорт, парадигма, развитие личности, социально-философский подход.

SOME CONSIDERATIONS ABOUT SCIENTIFIC PARADIGMS PHYSICAL AND CULTURAL DEVELOPMENT

Abstract

The article analyzes the existing scientific paradigms related to the development of physical culture in the scientific community. The author tries to express his opinion, formed in the course of summarizing the results of his scientific research, based on the requirements of the time and the strategy of scientific research.

Key words: physical culture, physical education, sport, paradigm, personality development, socio-philosophical approach.

Кириш. Давлат ва жамиятнинг жисмоний тарбия соҳасидаги мақсадлари нафақат мамлакатнинг жаҳон ҳамжамиятидаги обрў-эътиборини қозониш стратегияси, балки спорт соҳасида энг юқори ютуқларга эришиш истаги билан ҳам белгиланиши керак. Бу жараёнда кенг қўламли лойиҳалар ва тадбирларни ташкил этиш, шунингдек, шахсни, муайян шахсни ривожлантиришнинг устувор йўналишларидан келиб чиқилади. Жисмоний маданият соҳасидаги ижтимоий муаммоларни ҳал қилишда жамоа назариясига асосланган инновацион ёндашувни таъминлаш керак, унинг моҳияти ўзини ўзи ташкил этувчи жамоа доирасида шахснинг ривожланишини таъминлайдиган синергик микросоциал ландшафтни ташкил этишдир. Бу жамиятдаги ижтимоий муносабатларнинг уйғунлигини таъминлайди.

Жисмоний маданиятга оид янги парадигманинг асоси унинг нафақат шахсни ривожлантиришга, балки биринчи навбатда жамиятни яхлит тизим сифатида такрор ишлаб чиқаришга қаратилганлиги, бу маданиятнинг сифат ва услубни шакллантиришда фаол иштирок этишидир. Ушбу концепциянинг мақсад ва тамойилларини ўзлаштириш нафақат жисмоний тарбия соҳасидаги ишларни ташкил этишда ўз-ўзини англаш ва ижтимоий масъулиятни тиклайди, балки унинг салоҳиятини самарали очиб бериш ва ривожлантириш учун шарт-шароит яратади, ҳаётни такрор ишлаб чиқариш учун ягона ижтимоий-маданий маконни шакллантириш, жамият шахснинг ҳар томонлама ўзини ўзи англаши, унинг уйғун ривожланиши учун асос бўлиб хизмат қилади.

Мавзунинг долзарблиги. Маънавият, онг, тафаккур, турмуш тарзи танадан ажралган, баъзан унга зид бўлган ва аксинча, жамият соғлом бўлолмайди. Шунинг

учун фалсафий тадқиқотлар учун ижтимоий тартиб ҳам янгиланмоқда, унинг муаллифлари ижтимоий-маданий дизайн тажрибасини яхлитлик даражасида амалга оширадilar ва кўплаб ижтимоий тизимларнинг инновацион моделлари ва прогрессив дизайнларини таклиф қилишга ҳаракат қилишади. Шу жумладан жисмоний маданиятнинг қадрият ва зарур константалардан бири сифатида фойдаланиш инсоннинг мавжудлиги ва ташкилоти, бундан ташқари, бутун замонавий жамият ҳаётининг қадрият-гуманистик асоси сифатида ҳам намоён бўлади.

Жисмоний маданиятнинг таълим майдони уларнинг илмий тушунчалари соҳаси сифатида, шунингдек, бевоқиф жисмоний маданият назарияси, ўқув ва илмий интизом сифатида ва уни жамиятнинг янги ижтимоий-иқтисодий ва сиёсий шароитларида модернизация қилишдан иборатдир. Шу билан бирга, жисмоний маданиятнинг замонавий яхлит ижтимоий-фалсафий концепцияси, ахборот цивилизациясида мавжудлик ва ҳаёт сифатининг асоси сифатида тана маданиятини шакллантирадиган ҳаётни тасдиқловчи ва гуманистик ижтимоий аксиология контекстида ўрганилади. Бирок, ушбу ёндашувлар тажрибаси старли даражада ўзлаштирилмаган.

Замонавий жамиятнинг жисмоний маданияти ўзининг қадрият-дунёқараш парадигмасини ўзгартириши керак, чунки унинг келиб чиқиши ўйин шакллари, умумий тижоратлаштиришга эътибор ушбу ҳодисанинг ижтимоий ва маданий функцияларидан четланишига олиб келади, бу эса мамлакат учун зарур бўлган ҳаёт сифатини ва шахснинг тегишли қиймат йўналишлари ва муносабатларини шакллантиришга тўсқинлик қилади.

Жисмоний маданиятнинг аксиологик, назарий, услубий, онтологик жиҳатларини замонавий жамият ҳаёт сифатининг қадрият-гуманистик асоси, шахснинг ҳаётни тасдиқловчи доминант сифатида ўрганиш ижтимоий-фалсафий таҳлилни долзарб вазифасидир. Қолаверса, Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёев томонидан “миллий ўзлигимизни англаш, Ватанимизнинг қадимий ва бой тарихини ўрганиш, бу борада илмий-тадқиқот ишларини кучайтириш, гуманитар соҳа олимлари фаолиятини ҳар томонлама қўллаб-қувватлаш” [1]ни рағбатлантиришга алоҳида эътибор қаратилмоқда.

Мавзунинг ўрганилганлик даражаси. Маҳаллий адабиётларда, диссертация тадқиқотларида кўриб чиқиладиган муаммонинг бир қатор муҳим жиҳатлари очиқ берилган, аммо жисмоний маданиятнинг ижтимоий-фалсафий маъноси ижтимоий такрор ишлаб чиқариш, миллий хавфсизлик, шахснинг ижтимоийлашуви ва ривожланишини таъминлайдиган омил сифатида, унинг жамият ва табиат билан боғлиқлиги, яъни жисмоний жисмонийликни тарбиялаш учун махсус йўналиш ёки макон сифатида, унинг жамият талабларига мувофиқлиги етарли даражада асосланмаган. Бироқ, замонавий жамият онгида жисмоний фаолиятнинг аҳамиятини етарлича баҳоламаслик, соғлом турмуш тарзи масалаларида жамиятнинг инфантилизи миллат генофондида ҳалокатли ўзгаришларнинг пайдо бўлишига, соғлигининг сезиларли даражада ёмонлашишига олиб келади. Умуман олганда, бу ҳаёт сифатини, унинг қийматини пасайишига олиб келади ва жамиятнинг ижтимоий барқарорлиги ва ривожланиш истикболларига бевосита таъсир қилади.

Тадқиқот натижалари. Жисмоний тарбия ва маданиятнинг пайдо бўлиши инсоният жамияти тарихидаги энг қадимги даврга тўғри келади. Жисмоний тарбия элементлари ибтидоий жамиятда вужудга келган. Одамлар ўзлари учун озиқ-овқат олдилар, ов қилдилар, уй-жой қурдилар ва бу зарур фаолият жараёнида уларнинг жисмоний қобилиятлари ўз-ўзидан яхшиланди. Аста-секин, тарихий жараён давомида одамлар кўпроқ ҳаракатчан турмуш тарзини олиб борган, муайян жисмоний ҳаракатларни қайта-қайта такрорлайдиган, кучлироқ ва чидамлироқ бўлган қабила вакилларига эътибор қаратдилар. Бу одамларнинг жисмоний машқлар (ҳаракатларнинг такрорланиши) ҳақида тушунчасига олиб келди. Жисмоний тарбиянинг асосига айланган жисмоний машқлар ҳодисаси эди.

Ҳозирги вақтда тана маданиятини фалсафий тушунишга бўлган эҳтиёж асосан анъанавий оммавий ахборот воситалари, янги медиа ва блогосфера сўнги йилларда танага сиғинишни фаол равишда шакллантираётгани билан боғлиқ. Турли замонларнинг жисмоний маданиятга таъсири, жисмоний маданиятнинг турли ижтимоий-маданий тизимлар хусусиятлари билан, уларнинг жамият ижтимоий-иқтисодий ва маданий ривожланишининг энг муҳим босқичларида эволюцияси билан боғлиқ.

Бугун дунёда жисмоний тарбия ва спортнинг ривожланишида жуда хилма-хил услублар, усуллар ва шакллар бўлиб, у махсус тадқиқотларни талаб қилади. Тадқиқот методологияси нуктаи назаридан Б.Мергаут тушунчаларнинг учта гуруҳини белгилайди: 1) иррационализм ва индивидуализм тамойиллари асосида қурилган экзистенциалист, унга кўра спорт “инсон шахсининг ўзини ўзи тасдиқлаш усули” сифатида тақдим этилади, спорт – бу бўшаשמаслик, тасаввур ва тартибга асосланган ўйин бўлиб, унинг тикланишига ҳисса қўшади [6]. Немис социологи С.Гулденпфеннинг жисмоний тарбия ва спортни яхлит ижтимоий ҳодиса сифатида эмас, балки фақат синфий муносабатларни уйғунлаштиришга кодир “сиёсатнинг ўзига хос соҳаси” сифатида қарайди [7]. Ғарбнинг таниқли социологи

Г.Лушеннинг таъкидлашича, спорт “ўз ички қонунлари бўйича мавжуд бўлган ёпиқ тизим”дир. Шу билан бирга, замонавий жамиятда у кўплаб ижтимоий институтларга кириб боради, унинг ривожланишига “таълим, иқтисодиёт, сиёсат ва оммавий ахборот воситаларининг тузилмалари таъсир қилади” [3].

Ҳозиргача Ғарб мамлакатлари ва кўпгина америкалик мутахассисларнинг фикрига кўра, таълим муассасаларида аниқ жисмоний тарбия бўйича умумий нуктаи назар мавжуд эмас, аммо “жисмоний тарбияни куйидаги мақсадлар билан янада кенгроқ боғлаш тенденцияси устувор. Турли назарияларнинг фалсафий асосларига тўхталиб ўтиш асосида АҚШда жисмоний тарбия тушунчалари, Америкалик мутахассисларнинг ўзлари дунёқараш ва услубий позицияларнинг ўта хилма-хиллиги ва аморфлигини тан олишади” [10].

Таъкидлаш лозимки, жисмоний тарбия ва спорт илмий муаммо сифатида ҳали фалсафа илмининг талқин доирасидан ўрин олмаган. Олимларнинг таъкидлашларича, тафаккур жамиятининг салмоқли қисми, айниқса, ёшларнинг спортга бўлган қизиқиши кўп (мақомли) ҳамкасблар учун яққол намоён бўлишига қарамай, бу фалсафий фан номининг ўзи энг яхши ҳолатда саросимага тушишга, энг ёмони тажовузга сабаб бўлади. Шу билан бирга, спорт турли фанлар: педагогика, биология, психология, физиология, тиббиёт ва бошқаларда муҳим тадқиқот соҳаси эканлиги аниқ.

Спорт жисмоний тарбия, дам олиш (жисмоний машқлар) билан бирга жамият жисмоний маданиятининг бир қисмидир. Спорт энг юқори ютуқларга йўналтирилганлик, ихтисослик, рақобатбардошлик, ўйин-кулги билан тавсифланади. Қадимги даврлардан бошлаб спорт мусобақаларининг рақобатбардошлиги маданиятда мустаҳкам ўрин олган. Фақат спорт омилига эътибор бермасдан, инсон жисмоний маданиятининг фалсафий жиҳатларига назар ташласак, соҳа мутахассисларининг жисмоний маданиятининг кўплаб таърифлари ушбу ҳодисани инсонпарварлик нуктаи назаридан тушунишни назарда тутмаслигига эътибор қаратади [4, 6].

Кўринишидан, сунъий интеллектнинг ақлий стратегияларини моделлаштиришда тана таърибасининг ролини етарлича баҳоламаслик билан боғлиқ. Сунъий интеллект ва робототехникани ўрганишда танага йўналтирилган ёндашувнинг аҳамияти кўп олимлар томонидан таъкидланган.

Ҳозирги вақтда гносеологияда биолог ва файласуф олимлар асарлари асосида ишлаб чиқилган қараш ривожлантирилмоқда. Унинг доирасида ҳаёт фанлари ва билимнинг фалсафий назариси ўртасида конструктив мулоқотни яратиш имконияти очилади, бу эса ўз навбатида шахснинг феноменологик тадқиқотларини ўз ичига олади [5].

Файласуф ва маданият тарихчиси Х.Гумбрехт ўзининг “Мавжудлик ишлаб чиқариши” асарида маданият ва санъатда корпоративлик муаммоларини ривожлантириш учун “мавжудлик” тушунчасидан фойдаланишни таклиф қилади [2].

П.Титов ўзининг диссертация тадқиқотида “жисмонийлик” тушунчаси, хусусан, инсоннинг дунёда бевосита мавжудлигининг воқеа-ҳодисалар билан боғлиқ жиҳатини ифодалайди деган хулосага келади. Муаллиф спортдаги жисмоний тарбия инсоннинг дунёга бевосита аралашувида асосланишини таъкидлаб, маданий интеграциянинг асосини жисмоний тарбияда кўради [9].

Сўзнинг кенг маъносида инсон саломатлиги ҳақида гапирганда, биз уни фақат касалликларнинг йўқлиги билан қамайтормаймиз. Инсон саломатлиги – бу жисмоний, ижтимоий, маънавий ва интеллектуал таркибий қисмларни ўз ичига олган фаровонлик даражаси. Бир элементни бошқа элемент билан қоплаш мумкин

эмас: худди интеллектуал ривожланишни спортдаги муваффақиятлар билан алмаштириб бўлмаслиги каби жисмоний маданиятни мартаба ўсиши билан алмаштириб бўлмайди. Фақат бир томонлама мулоҳазаларни йўқ қилиш орқали: баъзи фанлар учун - фақат жисмоний, бошқалари - фақат маънавий, инсоннинг яхлит ва уйғун маданияти ҳақида гапириш мумкин бўлади.

XX-аср Ғарб фалсафаси жамият ва жисмоний маданиятнинг жисмоний ва жисмоний томонларини фалсафий тадқиқотларни сезиларли даражада бойитди. Америка файласуфи, прагматизмнинг етакчи намоёндаларидан бири Д.Дюи педагогик назарияни тақлиф қилдики, унинг моҳияти шундан иборатки, инсон фаол ижтимоий ҳаётда ўзини ўзи "қилиш" билан ташкил қилади. Кўпгина олимларнинг фикрича, Ғарб фалсафасида "шахсий жисмоний ривожланиш" тушунчаси биринчи марта ўрганилган, илмий муомалага киритилган ва тушуниш учун ҳақли равишда муҳим аҳамиятга эга бўлган.

А.Скрипкониң фикрига кўра, фалсафий мулоҳаза жисмоний тарбия ва спорт ҳақидаги билимларнинг барча таркибий қисмларини, бу соҳадаги назарий ва амалий фанларнинг бутун улкан мажмуасини ривожлантиришда услубий асосдир [8]. Бу позиция сентизмга хос бўлган мантикий-услубий парадигма доирасида фалсафаниң ўзи кўпинча инсоннинг билим ва амалий фаолиятиниң маълум бир методологияси сифатида қаралишиниң бевосита натижасидир.

Хулоса ва тавсиялар. Юқоридаги мулоҳазаларга асосланиб, баъзи бир хулосавий фикрларни умумлаштириш мумкин:

Биринчидан, жисмоний ва маънавий уйғунликни ўзаро боғлиқлигиниң тўлиқлиги, уларнинг бир-бирига яқинлиги ажралмас бирлик характери олимоқда. Европа цивилизациясиниң кейинги ривожланиши руҳ ва тананиң уйғунлигиниң дастлабки ҳолатидан четга чиқишни кўрсатади, бу қиймат даражасида интеллектуалниң жисмоний жиҳатлари устидан ҳукмронлигида намоён бўлади ва институционал даражада у ўзини намоён қилади. Жисмоний маданиятнинг замонавий ривожланиши ўзгарувчан жамиятнинг маданий маконида

яхлит муносабатни актуаллаштириш муҳимлигини кўрсатади.

Иккинчидан, тарбия ва таълим масалалари ҳар доим давлат вазифалари орасида энг муҳим ўринлардан бирини эгаллаб келган. Ҳар бир давр таълим концепциясига ўзига хос концептуал янгиликларни киритади, яъни унинг мазмуни ва усуллари хронологик жиҳатдан ўзгаради, аммо мақсад ҳар доим бир хил - эришилган ютуқлар доирасида ҳар томонлама ривожланган шахсни, жумладан, жисмоний жиҳатдан тарбиялашдан иборат бўлади.

Учинчидан, жисмоний маданият – бу жисмоний ва интеллектуал ривожланишга, жисмоний тарбия, жисмоний тарбия орқали шахсни ижтимоий мослаштиришга қаратилган маданий кадрлар ва билимлар тўпламидир. Бугунги кунда бу таъриф жуда аниқ кўринади. Қадимги Юнонистонда спорт ва ижтимоий ҳаёт шу қадар чамбарчас боғлиқ эдики, юнон сиёсати Олимпия ўйинлари даврида урушларни тўхтатиб қўйиши мумкин эди, обрўсига путур етказган сиёсатчилар рақобатга киришмайди ва ўз ватанларида ўйинлар ғолиблари сифатида кутиб олинди. Спорт одамларни бирлаштирди, спорт заллари, спортчилар гилдиялари бор эди.

Тўртинчидан, жисмоний маданият – ижтимоий фаолиятнинг ўзига хос тури бўлиб, унинг жараёнида шахсниң жисмоний ва маънавий эҳтиёжлари мақсадли жисмоний машқлар, тегишли билим ва кўникмаларни эгаллаш ва қўллаш, шунингдек, спорт тадбирлари ва мусобақаларда қатнашиш орқали қондирилади.

Бешинчидан, жисмоний тарбия тизимини ривожлантириш ва такомиллаштириш – бу жисмоний хусусиятларни ривожлантириш ва инсон ҳаракатларини шакллантириш орқали уларнинг конфигурацияси ёшга боғлиқ хусусиятларини мақдорий жиҳатдан тавсифловчи аниқ маълумотлар асосида объективлаштиришдир.

Олтинчидан, фалсафий, психологик-педагогик адабиётларда жисмоний маданиятнинг ролини ошириш тенденциясини, унинг концептуал идрокини инсондаги маънавий ва жисмоний муносабатлар муаммосини ўрганиш анъаналарини очиб бериш муҳим аҳамиятга эга.

АДАБИЁТЛАР

1. Ўзбекистон Республикаси Президенти Ш.Мирзиёевнинг Олий Мажлисга Мурожаатномаси. 28-12-2018. <https://president.uz/uz/lists/view/228>.
2. Гумбрехт Х. У. Производство присутствия: Чего не может передать значение. — Москва: Новое Литературное Обозрение, 2006. — 179 С. с.
3. Массовая культура : современные западные исследования : [сб. ст. : пер. с англ.] / [ред.-сост.: Зверева В. В.]. - М. : Прагматика культуры, 2005 (ППП Тип. Наука). - 339 с.
4. Матвеев А.П., Непопалов В.Н. Физическая культура: физкультура или развитие человека //Теория и практика физической культуры, 1994. № 9 с.2-7.
5. Матурана, Умберто Р. Древо познания : Биол. корни человек. понимания / Умберто Р. Матурана, Франсиско Х. Варела. - М. : Прогресс-Традиция, 2001. - 223 с.
6. Мергаут Б. Учение индуизма // Боги, брахманы, люди. — М.: Наука, 1969. - С. 77.
7. Немецкая социология / [Р. Шпакова, Ю. Перов, Ф. Крузе и др.]; Под ред. Р. П. Шпаковой. - СПб. : Наука. С.-Петербург. изд. фирма, 2003. - 561 с.
8. Скрипко И. Йога: простые советы для здоровья. Домашние советы. М. Рипол Классик 2004. - 192 с.
9. Титов П.Б. Антропологические аспекты концепта "телесность" в философии спорта : диссертация ... кандидата философских наук. - Москва, 2015. - 172 с.
10. Феофанов К.А. Проблема ценностно-нормативной дезинтеграции в современной западной социологии : диссертация ... кандидата социологических наук. - Москва, 1994. - 173 с.



Тургуной ЭГАМБЕРДИЕВА,

*Фаргона давлат университети профессори, педагогика фанлари доктори,
Ўзбекистонда хизмат кўрсатган маданият ходими, Турон ФА академиги*

Мохиҷеҳра БОЛТАЕВА,

Ўзбекистон Миллий университетининг Жиззах филиали ўқитувчиси

E-mail: bmoxiexra@bk.ru

Педагогика фанлари доктори, профессор З.Раҳимов тақризи асосида

FUTURE HISTORY THEORETICAL AND METHODOLOGICAL ASPECTS OF THE DEVELOPMENT OF GENERAL COMPETENCE IN TEACHERS BASED ON THEIR KNOWLEDGE OF HISTORICAL IDEALS

Annotation

The article discusses theoretical and methodological aspects of the development of general competence in teachers based on their knowledge of historical ideals. The conclusions drawn from the article can be used from higher educational institutions in the process of preparing teachers of historical science.

Keywords: historical ideals, universal competence, history teachers, pedagogy, ideal persons.

БУДУЩАЯ ИСТОРИЯ ТЕОРЕТИЧЕСКИЕ И МЕТОДОЛОГИЧЕСКИЕ АСПЕКТЫ РАЗВИТИЯ ОБЩЕЙ КОМПЕТЕНТНОСТИ УЧИТЕЛЕЙ НА ОСНОВЕ ИХ ЗНАНИЯ ИСТОРИЧЕСКИХ ИДЕАЛОВ

Аннотация

В статье рассматриваются теоретические и методологические аспекты развития общей компетентности у учителей на основе их знания исторических идеалов. Выводы, сделанные из статьи, могут быть использованы высшими учебными заведениями в процессе подготовки преподавателей исторических наук.

Ключевые слова: исторические идеалы, универсальная компетентность, учителя истории, педагогика, идеальные личности.

БЎЛҒУСИ ТАРИХ ЎҚИТУВЧИЛАРДА ТАРИХИЙ ИДЕАЛЛАРГА ДОИР БИЛИМЛАРИ АСОСИДА УМУММАДАНИЙ КОМПЕТЕНТЛИКНИ РИВОЖЛАНТИРИШНИНГ НАЗАРИЙ-УСЛУБИЙ ЖИҲАТЛАРИ

Аннотация

Мақолада бўлғуси тарих ўқитувчиларда тарихий идеалларга доир билимлари асосида умуммаданий компетентликни ривожлантиришнинг назарий-услубий жиҳатлари ҳақида сўз юритилади. Мақоладан олинган хулосаларни тарих фани ўқитувчиларини таёрлаш жараёнида олий таълим муассасаларидан фойдаланиш мумкин.

Калит сўзлар: тарихий идеаллар, умуммаданий компетентлик, тарих ўқитувчилари, педагогика, идеал шахслар.

Кириш. Бугунги кунда бўлғуси тарих ўқитувчиларда умуммаданий компетентликни ривожлантиришнинг педагогик мазмуни ва унга таъсир кўрсатувчи омилларни таҳлил этиш – тарих фанини ўқитиш тизимини такомиллаштиришдаги долзарб вазифалардан биридир. Бўлғуси тарих фани ўқитувчиларида тарихий идеалларга доир билим ва объектив дунёқарабини ривожлантиришнинг энг самарали усули педагогик жараёни интеграл ёндашув асосида ташкил этишдир. Бунинг учун эса бўлғуси тарих фани ўқитувчиларини тайёрлаш тизимини мавжуд ҳолатини кўриб чиқиш, унга баҳо бериш, камчиликларни, таълим сифатига таъсир кўрсатаётган омилларни ўрганиш, фундаментал таълимий муаммоларни бартараф этгандан сўнг, тарихий идеалларни ривожлантириш методикасини такомиллаштириш имкониятларини таҳлил этиш мақсадга мувофиқ иш бўлади.

Мавзуга оид адабиётларнинг таҳлили. Таърих фанини ўқитишда қайси жараёнлар, тарихий шахслар, сиёсий етакчилар ва бошқа шахслар тарихий идеал бўла олишининг сабалари ва уни асославчи тарихий ҳодисаларни бўлғуси тарих фани ўқитувчиларига чуқур сингдириш муҳим таъсир воситаларидандир. Масалан, жаҳоннинг энг буюк саркардалари ҳаёти ва фаолияти баён этилган қомусий ёки маълумотнома тарзидаги адабиётларнинг деярли барчасида биринчи қаторда Аҳамонийлар давлати шоҳи, форс саркардаси Буюк Кир II туради. Кир II жаҳоннинг аксарият тарихчилари томонидан тарихнинг биринчи ҳарбий саркардаси сифатида эътироф этилган. У ўз даврида Ҳиндистондан Каспий денгизигача, Кичик

Осиёдан Ўртаер денгизигача бўлган ерларни босиб олган ва қудратли форслар давлатига асос солган донгдор лашкарбоши эди. Кир Пнинг милoddан аввалги 530 йилда аждодимиз малика Тўмарис қўшини билан бўлиб ўтган тўқнашувини тарих отаси Геродот “энг шиддатли уруш” деб таърифлаган эди[1]. Бугун ҳам хотин-қизларнинг ижтимоий-сиёсий фаолигини оширишда Томарис шахсиятидан фойдаланиш, унга ўхшашга йўналтириш, тўмарис авлодлари эканлигига урғу берилсада бу методиканинг самарадорлиги унча кўринмаяпти. Чунки Тўмариснинг қаҳрамонлигини кенгрок ёритиш, уни реал фактлар ёки реал бадий ўхшатишлар асосида сингдиришга йўналтирилган таълим методикаси мавжуд эмас.

Маълумки, сиёсий фаолиятнинг дастлабки йилларида соҳибқирон ёш саркарда бўлса-да, унга муттасил душманнинг сон жиҳатидан бир неча баробар кўп кучларига қарши кураш олиб боришга тўғри келди ва бу курашда унинг шахсияти яққол намоён бўлди. Хатто рус ҳарбий генерали М.Иванин ўзининг тадқиқотларида Амир Темурнинг юксак маҳорати ва инсонийлиги мўғул хони Чингизхонникидан устун бўлагани, сиёсати инсонпарвар ва бунёдкорликка асосланганлигини эътироф этади[2].

Амир Темур фаолияти билан боғлиқ яна бир муҳим жиҳат шундаки, унинг Мовароуннаҳр ташқарисидаги ҳарбий-сиёсий фаолиятига оид тадқиқотларда соҳибқироннинг турли ўлкаларга қилган ҳарбий юришлари истилочилик, деб баҳоланар эди. Эндиликда тарихчилар ишончли далиллар асосида Амир Темурнинг 1370 йилгача

бўлган ва бундан кейинги йиллардаги фаолиятида зиддият мавжуд эмаслигини, аксинча, соҳибқирон ўзининг халоскорлик курашини жаҳон миқёсига ёйгани ҳақида фикрлар кўплаб учрайди. Биргина мисол, Мўғулистон ва Олтин Ўрда каби ҳарбий потенциали нихоятда юқори ва тажовузор давлатларнинг қудрати синдирилмас экан, Турон мустақиллиги ҳамиша хатар остида бўлишини Амир Темур яхши англаган. Бепоён ҳудуд, кўп сонли жанговар қўшин ва моҳир лашкарбошиларга эга бу давлатларни уларнинг ўз ҳудудида мағлуб этибгина тиз чўктириш мумкин эди. Бундай улкан тadbирлар учун эса ёлғиз Мовароуннахрнинг ҳарбий-иқтисодий ресурслари етарли эмаслигини Амир Темур тўғри англаган. Бир неча йиллик тайёргарликдан сўнг соҳибқирон бундай тажовузларга батамом чек қўйиш учун 150 йил давомида бирон-бир саркарда журъат этмаган оғир тadbир, яъни бепоён ва қудратли Олтин Ўрда давлатининг ичкарисига юриш қилиб, душмани ўз ҳудудида мағлуб этишга киришади ва бу ишни ғалаба билан якунлайди. 1366 йилда 243 ботир йигитлари билан беш минг кишилик ёвдан Қаршини тортиб олди. 1391 йилда Амир Темур Тўхтамишхон тажовузларига қарши 200 минг қўшин билан жангга бораётганида Дашти Қипчоқ марказидаги Улуттоғ тошига тарихий сўзларни ёздирган. Бундан ташқари, Турон халқи 1370 йилги истиқлол кунларида Амир Темур тузган марказлашган давлат атрофида жипслашиб, соҳибқироннинг бошига олтин тож кийдиради. Белига тилла камар боғлайдида мустақил Турон давлатининг подшоҳи сифатида тахтга чиқаради. Шу билан ватанимизнинг олтин даври бошланади. Бобомиз ватанимизни бутун дунёга танитди. Амир Темурнинг дунё тамаддунига қўшган ҳиссаси ҳам бекиёс. У Туркияда эришган ғалабаси туфайли “Европанинг халоскори”га айланади, XIV-XV асрда бутун дунёни йирик қадамлар билан олға кетишига асос яратиб берди. Рус тарихчиси А.Ю.Якубовский Чингизхоннинг аскарлари ҳарбий юриш пайтида ярим оч аҳволда бўлар эди, “Қорни тўқ този овга ярамайди, қорни оч бўлса жон-жаҳди билан ўлжа талашади, деб Чингиз наварларини шу қўйга солган”, дейди[4,69]. Чингизхон ўз аскарларини талончилик ҳисобига яшашига, урушдан олинган ўлжалар билан бойишига ўргатган. Амир Темур эса наварларини худди ўзи сингари инсон фарзандлари деб билган, уларга мунтазам ойлик маошлари тайинлаган. Ҳарбий юришлар пайтида аскарларни “укулка” деб аталадиган қўшимча маош билан рағбатлантирган. Боязид билан бўлган жанг арафасида барча сипоҳийларга 7 йиллик маошлари олдиндан берилган. Амир Темурни баъзи тарихчилар македониялик Александр ва римлик Юлий Цезарга ўхшатишади. Бу унчалик ҳам тўғри эмас. Сабаби икки ўртада минг йилдан ортқ улкан давр ётибди. Александр 34 ёшида Ғарбда Ўрта Ер денгизидан тортиб Шарқда Амударё ва Гангагача чўзилган улкан империя яратади. Александр бир зиёфатдаги майхўрликдан кейин 20 кун қаттиқ иситмалаб, тўсатдан вафот этади. Ёши элликдан ошганда подшоҳлик мақомига эришган Юлий Цезарь суиқасд оқибатида ҳалок бўлади. Александр ҳам, Цезарь ҳам биринчидан, ўз ажали эмас, суиқасд қурбони бўлади, иккинчидан, иккови ҳам ўзидан кейин сулола қолдирилмади. Амир Темур эса улардан фарқли ўлароқ узок умр кўрди, кўзи тириклигида қудратли сулолага асос солди ва бу сулола 500 йил давр сурди. Соҳибқирон ҳаёти, фаолиятини талқин этишда жуда кўп ҳатоликлар бор. Бир қанча манбаларда Амир Темур саводсиз бўлган эди, қабилдаги асоссиз камситиш мавжуд. Бундай ҳолатни XV асрда Ибн Арабшоҳ бошлаб берган эди. Кейинчалик бошқалар давом эттиришган. Рус олимлари В.В.Бартольд, А.Ю.Якубовский, инглиз олимаси Хильда Хукхемнинг тадқиқотларида ҳам шундай тухматлар мавжуд. Бу ҳақиқатдан йироқ мулоҳазалардир. Агар Амир Темур

саводсиз бўлганда 24 ёшида баҳодир саркарда сифатида тарих саҳнасига чиқмаган бўлар эди. Бесавод одам “Темур тузуклари” каби бекиёс асар ярата олмасди. Амир Темур ўз муҳрига “Рости – русти”, яъни “Куч – адолат-дадир” деган сўзларни беҳудага ёздирган эмас. Нихоятда илмий, маърифатли бўлган аллома бобомиз учун муҳридаги сўзлар ҳаётий этикоди бўлган. Умр бўйи шу этикодга амал қилган, бошқалардан ҳам адолатни талаб қилган. Ҳатто ўзга мамлакатларга қилган юришларида ҳам бу этикодида собит турган. Россияни чингизийлар зулмидан озод қилганида, Александр Невскийдек машҳур князь ҳам қарши чиқолмаган босқинчиларнинг шафқатсиз солиқларини таг-туби билан бекор қилган. Боязидни енгиб, уни асир олганида ўз ўтови ёнидан унга ипак билан сирилган маҳсул чодир ўрнаттирган. Боязиднинг хотини ва кизларини барча хизматкорлари билан Боязид ихтиёрига қайтарган. Ваҳоланки, у замонларнинг биронта ғолиб подшоҳи бундай олижанобликни ҳаёлига келтирган эмас.

Тадқиқот методологияси. Муаррих Шарафиддин Али Яздий “Зафарнома” асарида шундай ёзади: “Амир Темур адолатни нихоятда яхши кўрарди, шу сабабли ҳам унинг салтанатида, бирорта инсон беҳуда ранжитилмаган, зулм кўрмаган”[6]. Ибн Арабшоҳ эса Амир Темур тарихда ном қолдирган давлат арбоби, саркарда бўлибгина қолмасдан жасурлик, садоқат, тўғри сўзлик каби хислатлар ҳамда ахлоқий сифатларни қадрловчи сиймо эканлигини қўйидагича изоҳлайди: «У ҳазил-мазах ва ёлғонни ёқтирмас, ўйин-кулгию кўнгил хушликка майлсиз, гарчи (сўзда) ўзига озор етадиган бирон нарса бўлса ҳамки садоқат унга ёқар эди. ... унинг мажлисида уятсиз сўзлар, қон тўкиш, асир олиш, наҳбу ғорат қилиш ва ҳарам (ҳақи)га ҳақорат гаплар бўлмасди»[5]. Саркарда садоқатни адоқатлиликни зарурий ахлоқий сифат ҳисоблаган, хиёнатни эса кечирмаган.

Турли даврларда Соҳибқирон Амир Темур шахси ва фаолиятига нисбатан кўплаб илмий асосланмаган нотўғри қарашлар баён этилган. Жумладан, атоқли адабимиз Пиримкул Қодировнинг «Амир Темур сиймоси» илмий бадиасида буюк бобокалонимизга нисбатан турли йилларда кўплаб уйдирма ва бўхтонлар бўлганлиги ҳақидаги фикрларга алоҳида тўхталиб ўтилган[6]. Уларни ўз номи билан тарихий шахсга нисбатан бўхтон, деб аташ мумкин.

Ёзувчи П.Қодиров мазкур асарида таассуф билан буюк бобокалонимизга нисбатан уйдирмалар, сохта гаплар ханузгача давом этаётганлигини таъкидлаб қўйидаги фикрни келтиради: «Сўнгги асрларда пайдо бўлган баъзи китобларда Тарағай баҳодирнинг номини «Тўрғай» деб ёзиш ҳоллари ҳам учрайди. Бу ҳеч бир мантқиқга тўғри келмайди. Тўрғай – кичкина сайроқи қуш. Баҳодирлар авлодидан бўлган амирга бундай нисбат бериш тўғри эмас. Туркий тилда Тарағай сўзи «нурдай таралсин, кўпайсин, катта ҳудудларни эгалласин» деган маъноларни билдиради». Адиб яна шу ўринда Амир Темур ўзининг суюкли невараси Улуғбекка дастлаб Тарағай деб исм қўйганини ҳам эслатиб ўтади.

Тадқиқотчи олим Т.Эшбеков таъкидлаб ўтганидек, тарихий шахсларнинг номларини турли бўхтонлардан ҳимоя қилишда зарур факт ва далиллар билан кўрсатиб бериш мақсадга мувофиқдир. Худди ана шу йўлни танлаб, адиб Пиримкул Қодиров Соҳибқироннинг тарихий ғалабаси билан бугунги тенгсиз истиқлолимизни шундай муқояса қилади: «Энг баланд тоғ чўққиси ана шундай баланд чўққидан кўзга аниқроқ кўринади. Биз ҳам Амир Темур етакчилигида халқимиз эришган мустақилликнинг нақадар юксак қадрият бўлганини Ўзбекистон истиқлоли йилларида яққол кўрдик»[3].

Инсон қалбининг қувончу қайғусини, эзгулик ва ҳаёт мазмунини Навоийдек теран ифода этган шоир жаҳон

адабиёти тарихида камдан-кам топилади. Она тилига муҳаббат, унинг бекиёс бойлиги ва буюклигини англаш туйғуси ҳам бизнинг онгу шууримиз, юрагимизга аввало Навоий асарлари билан кириб келади. Биз бу бебаҳо меросдан халқимизни, айниқса, ёшларимизни қанчалик кўп баҳраманд этсак, миллий маънавиятимизни юксалтиришда, жамиятимизда эзгу инсоний фазилатларни камол топтиришда шунчалик қудратли маърифий қуролга эга бўлади.

Тахлил ва натижалар. Бўлғуси тарих ўқитувчиларида тарихий идеаларга доир билимларни ривожлантиришда жадидчилик намоёндалари ва уларнинг фаолияти билан боғлиқ жараёнларни билишлари муҳим аҳамият касб этади. Бўлғуси тарихчилар ижтимоий ривожланиш ва миллатни маърифатли қилиш борасидага ҳаракатларда Туркистон жадидлари бўлган Сиддикий-Ажзий, Маҳмудхўжа Бехбудий, Хожи Муин, Сайид Ризо Ализода, Вадуд Маҳмуд, Исмаилов Раҳматуллаев Абдулҳамид Мажидий каби бир қанча зиёлилар фаолиятини сингчилаб ўрганиш асосида уларнинг тарихий идеални моделини яратишлари мумкин. Мисол учун, жадид намоёндаларидан Маҳмудхўжа Бехбудий, болаларга диний ва дунёвий илм бериш билан бирга, миллат фарзандларини замонавий илм олиш учун тараққий топган мамлакатлардаги ўқув юртиларига юбориш керак, деган ижтимоий ва сиёсий жиҳатдан ўта муҳим масалани ўртага ташлаган бўлса, ёшларда миқлат қадриятларини сақлашга доир ғоялари уларда умуммаданий компетентликни ривожлантиради. Шунингдек, умуммадани билим ва кўникмаларни ривожлантиришда Абдулла Авлоний ва Хожи Муинларнинг мулоҳазаларидан ҳам билиш жуда муҳим саналади.

Жадид педагогикаси асосида талабаларни тарбиялаш билан бирга уларнинг умуммаданий компетентликни ривожлантириш мумкин. Бунинг учун эса талабаларда миллий мустақиллик, тараққиёт ва юксалиш ғояларининг жадидлар томонидан қандай илгари сурилиши, бу йўлдаги уринишлар, уларнинг сиёсий иродасининг шаклланиши ва унга таъсир кўрсатган омилларни ўргатиш ҳам талаб этилади. Беғали Қосимовнинг фикрича, Номик Камол, Тавфиқ Фикрат, кейинчалик Бехбудий ва Мунаввар қори томонидан кўп қўлланилган “Ҳақ берилмас, олинур” сўзлари миллат қалбига сингиши лозим эди. Бошқа сўзлар билан айтадиган бўлсак, у ҳақиқий миллий бирдамлик ғоясига айланиши керак эди. Мана шундай улугвор ғоялар

асосида шаклланган тарихий ҳаракатлар асосида тарихий идеаллик қиёфаси ҳам шаклланади.

Шундай зиёлилар қаторида Исроҳон Ибраҳимнинг фаолиятини алоҳида таъкидлаб ўтиш зарур. Халқ фарзандларининг ўн-ўн беш йиллаб мактаб ва мадрасада таҳсил олиб, охири оқибат саводсиз ёки чаласавод бўлиб бўлиб чиқишлари Исроҳон Ибраҳим изтиробга солади. У бундай мактаблар ўрнида янги, замон талабларига жавоб бера оладиган, замонавий илмлар ўқитиладиган мактаблар барпо этиш шиори билан чиқди. Исроҳон Ибраҳим эски мактаб ўқитувчиларининг жоҳиллигини, ёш авлодни тарбиялашга, билим беришга қодир эмаслигини таъкидлайди.

Исроҳон Ибраҳим ўз замонасида фан-таълим ва техника интеграциясини тизимли йўлга қўйган мутафаккирлардан бири бўлган. Исроҳон Ибраҳим таълим тизимини ривожлантириш, унга янги ёндашувларни жорий этиш, замонавий педагогика элементларини қўллаш ва иложи борида тез фурсатда ёшларни саводини чиқариш, уни ривожлантиришда илм-фан ютуқларидан самарали фойдаланиш учун ташкил этган мактабда замонавий фанда эришилган ютуқлар мунтазам тушунтириб бориш, таълим, фан билан биргаликда матбаа ишларини ҳам йўлга қўйиб одамларни иш билан таъминлаш, инсонлар маънавий дунёсини бойитадиган газета, журнал ва китоблар нашр этиш жуда долзарб вазифалар эканлигини кўп бора таъкидлайди ва бу борада қўплаб амалий ишларни амалга оширади.

Хулоса қилганда, глобаллашув даврида жаҳон миқёсида вазият тез ўзгариб, дунёнинг айрим минтақаларида аҳвол тобора кескин тус олмакда, турли қарама-қаршиликлар, можаро ва қон тўқишлар қучайиб бораётган вазиятда тарихни чуқур билиш, маданий қадриятларини англаш, маънавий меросни тушуниш орқали амалга ошади. Чунки, ўз тарихини, маданиятини, маънавиятини билган, тушунган ва тўғри англаган, ундан руҳий қувват оладиган халқни ҳеч қандай қуч енга олмаслиги бугунги кунда янада ойдинлашмоқда. Ўзбек халқининг ҳаққоний тарихини барпо этиш ишини кўп минг йиллик бой ўтмишимизни тадқиқ этишнинг яхлит концепциясини аниқлаб олишдан бошланганлиги ва бу келажакда ҳам узлуксиз давом этадиган масъулиятли ишга айланганлиги бир томондан, тарихий идеалликни талқин этишнинг тарихий методологик асосини мустаҳкамланишини таъминлайди.

АДАБИЁТЛАР

1. Геродот. История в девяти книгах. Книга третья. Перевод и примечания Г. А. Стратановского. - М. - Л., Наука. 1972. - С. С. 168.
2. Иванин М. Икки буюк саркарда: Чингизхон ва Амир Темур. - Тошкент, Ўзбекистон Республикаси Фанлар Академиясининг “Фан” нашриёти, 1994.
3. Якубовский А.Ю. Золотая Орда (Очерк истории Улуса Джучи в период сложения и расцвета в XIII-XIV вв.). Л., 1937 (1-е издание); Ташкент-Самарканд, 1940 (2-е издание); Л., 1941 (3-е издание).
4. Шарафиддин Али Яздий. Зафарнома. - Тошкент: Шарқ, 2001.
5. Ибн Арабшоҳ. Темур тарихида тақдир ажойиботлари. 2-китоб. - Тошкент: Меҳнат, 1992. - 65 б.
6. Қодиров П. Амир Темур сиймоси. - Т.: Ўзбекистон, 2007. - 348 б.



Doniyor YULDASHEV,
O'zbekiston Milliy universiteti tayanch doktoranti
E-mail: dyuldashev@gmail.com

f.f.f.d, PhD M.Xujayev taqrizi asosida

JAMIYATNI MODERNIZATSIYALASHDA YOSHLAR SIYOSIY VA HUQUQIY ONGINI TAKOMILLASHTIRISH OMILLARI

Annotatsiya

Ushbu maqolada jamiyatni modernizatsiyalashda yoshlar siyosiy va huquqiy ongini takomillashtirish omillari haqida so'z yuritilgan. Mamlakatimizni modernizatsiya qilish va kuchli fuqarolik jamiyati barpo etish – ustuvor maqsadimizdir. Jamiyatimiz yoshlarining huquqiy ong va huquqiy madaniyatni yuksaltirishda, eng avvalo, ta'lim-tarbiyaning tizimli va uzviy ravishda olib borilishiga alohida e'tibor qaratish, aholining barcha qatlamlariga huquqiy ong va huquqiy madaniyatni chuqur singdirish, shaxsiy manfaatlar hamda jamiyat manfaatlari o'rtasidagi muvozanatni saqlash g'oyalari keng targ'ib qilish joiz.

Kalit so'zlar: Modernizatsiya, huquqiy ong, fuqarolik jamiyati, huquqiy madaniyat, ta'lim-tarbiya, jamiyat, siyosiy ong.

FACTORS FOR IMPROVING POLITICAL AND LEGAL CONSCIOUSNESS OF YOUTH IN THE MODERNIZATION OF SOCIETY

Abstract

This article talks about the factors of improving the political and legal consciousness of young people in the modernization of society. Our priority is to modernize our country and build a strong civil society. To raise the legal consciousness and legal culture of the youth of our society, first of all, to pay special attention to the systematic and organic conduct of education, to inculcate legal consciousness and legal culture in all layers of the population, to maintain a balance between personal interests and the interests of society, it is permissible to spread his ideas widely.

Key words: Modernization, legal consciousness, civil society, legal culture, education, society, political consciousness.

ФАКТОРЫ СОВЕРШЕНСТВОВАНИЯ ПОЛИТИЧЕСКОГО И ПРАВОВОГО СОЗНАНИЯ МОЛОДЕЖИ В УСЛОВИЯХ МОДЕРНИЗАЦИИ ОБЩЕСТВА

Абстракт

В данной статье говорится о факторах совершенствования политического и правового сознания молодежи в условиях модернизации общества. Нашим приоритетом является модернизация нашей страны и построение сильного гражданского общества. Поднять правосознание и правовую культуру молодежи нашего общества, прежде всего, обратить особое внимание на планомерное и органичное ведение воспитания, воспитывать правосознание и правовую культуру во всех слоях населения, соблюдать баланс между личными интересами и интересами общества, допустимо широкое распространение его идей.

Ключевые слова: Модернизация, правосознание, гражданское общество, правовая культура, образование, общество, политическое сознание.

Kirish. Mamlakatimizda yoshlarga oid davlat siyosati sohasida keng ko'lamli ishlar amalga oshirilmoqda. O'tgan vaqt ichida yoshlarni har tomonlama qo'llab-quvvatlash, ularning huquq va qonuniy manfaatlarini himoya qilish, mamlakatimiz istiqboli uchun mas'uliyatni o'z zimmasiga olishga qodir, tashabbuskor, shijoatli yoshlarni tarbiyalash borasida alohida tizim yaratildi.

Jamiyatda huquqiy ong va huquqiy madaniyatni yuksaltirib borish qonun ustuvorligini ta'minlash va qonuniylikni mustahkamlashning eng muhim shartlaridan biri hisoblanadi.

So'nggi yillarda milliy huquq tizimini tubdan isloh qilish, jamiyatda huquqiy madaniyatni shakllantirish hamda malakali yuridik kadrlarni tayyorlash borasida sezilarli ishlar amalga oshirildi.

Shu bilan birga, inson huquq va erkinliklariga hurmat munosabatini shakllantirishga, aholining huquqiy ongi va huquqiy madaniyatini yuksaltirishga, jamiyatda fuqarolarning huquqiy savodxonligi darajasini oshirishga to'sqinlik qiluvchi bir qator muammo va kamchiliklar saqlanib qolinmoqda.

Xususan, huquqiy madaniyatni yuksaltirishda, eng avvalo, huquqiy ta'lim va tarbiya borasidagi ishlar tizimli va uzviy olib borilmayapti. Uzoq yillar davomida bu masala huquqni muhofaza qiluvchi organlar va ayrim davlat organlarining ishi sifatida qarab kelinib, bunda oila, mahalla

va fuqarolik jamiyati boshqa institutlarining ishtiroki yetarlicha ta'minlanmagan.

Yoshlarning huquqiy tarbiyasiga salbiy ta'sir ko'rsatuvchi omillarga nisbatan huquqiy immunitetni shakllantirish, har bir shaxsda qonunlarga va odob-axloq qoidalariga hurmat, milliy qadriyatlarga sadoqat, huquqbuzarliklarga nisbatan murosasizlik hissini uyg'otish ishiga kompleks tarzda yondashilmadi.

Aholining huquqiy bilimlarini oshirishga doir vazifalarning umumiy tusda belgilanganligi hamda ularni amalga oshirishning aniq ta'sirchan mexanizmi mavjud emasligi jamiyatda huquqiy madaniyatni yuksaltirish borasidagi ishlarning samarasiz olib borilayotganligini ko'rsatadi.

Huquqiy ong va huquqiy madaniyatni yuksaltirishda shaxsiy manfaatlar hamda jamiyat manfaatlari o'rtasidagi muvozanatni saqlash g'oyalari aholi ongiga singdirish ishlarning yetarli olib borilmasligi ham qonun ustuvorligini ta'minlashga o'zining jiddiy salbiy ta'sirini ko'rsatmoqda.

Aholining huquqiy bilimlari yetarli emasligi, shuningdek, davlat organlarining qonunga xilof qarorlari ustidan sudga shikoyat qilish imkoniyatidan deyarli foydalanmasligi mansabdor shaxslar tomonidan fuqarolarning huquqlari va qonuniy manfaatlari kamsitilishi holatlarining vujudga kelishiga sabab bo'lmoqda.

Bundan tashqari, hozirgi globallashuv, ilmiy-texnik taraqqiyot davrida aholining huquqiy ongi va huquqiy madaniyatini yuksaltirishning innovatsion usullaridan, targ'ibotning ilg'or va ta'sirchan vositalaridan, xorijiy davlatlarning bu boradagi ijobiy tajribalaridan yetarli darajada foydalanilmayapti.

Aholining huquqiy ongi va huquqiy madaniyatini yuksaltirishga doir ishlar samaradorligini yanada takomillashtirish, fuqarolarning ijtimoiy-siyosiy o'zgarishlar bilan uyg'un ravishda huquqiy bilimlarini oshirib borishning zamonaviy usullarini joriy etish, shuningdek, aholini, ayniqsa, yoshlarni zararli axborotlardan himoya qilish bo'yicha mustahkam huquqiy immunitetni shakllantirish maqsadida turli ishlar qilinmoqda.

Har qanday o'zgarish va rivojlanishlarni tadqiq etish uchun turli xil nazariy-metodologik yondashuvlar mavjud. Hozirgi davrda modernizatsiya paradigmasi ular orasida (formatsion, tsivilizatsion va b.) alohida ahamiyatga ega. Modernizatsiya-o'ta murakkab jarayon. Modernizatsiya jarayonida o'zgarishlar inson va jamiyat faoliyatining barcha sohalarida ro'y beradi. O'zgarishlar natijasida yangi tushunchalar, tamoyillar, yondashuvlar shakllanadi. Ular esa milliy g'oya qamrovini yanada kengaytiradi va yoshlarning ongi va qalbiga singdirishda yangi imkoniyatlarni yuzaga keltiradi.

Milliy g'oya murakkab tizim sifatida yoshlarning ma'naviy dunyosini shakllanishi, yuksalishi, vatanimizning barcha millatlarini o'z atrofida birlashtirish kabi muammolarni qamrab oladi.

Milliy g'oyani ham rivojlanish modeli ham maqsadi xalqimizning kelajagiga qaratilgan: rivojlanishning yuqori pog'onalariga intilish, ma'naviyatimizni yuksaltirishdir.

Modernizatsiya qilishning maqsadi yangilanish, an'anaviylikdan zamonaviylikka o'tish, rivojlanishda yuqoriroq bosqichlarga erishishdir.

Milliy g'oya va rivojlanishimizning modelini integratsiyasi modernizatsiya jarayoni uchun nazariy-metodologik, amaliy va regulativ vazifani bajaradi. Pirovard natijada mamlakatimizning rivojlanishi yanada yuksak pog'onalarga ko'tarilishi uchun keng imkoniyatlar yaratiladi. SHuning uchun hozirgi kunda «mamlakatimizni modernizatsiya qilish» eng muhim ustuvor vazifadir.

Lug'aviy ma'noda modernizatsiya (fran. moderisatio, modere-eng yangi) zamonaviy talablarga muvofiq o'zgarish hamda takomillashtirishlarni bildiradi. Gap nafaqat sanoat-texnika progressida, balki insonning dunyoqarashi, uning metodologik yondoshuvi, tafakkur uslublari o'zgarishidadir. Bularning o'zgarishi esa inson tomonidan qo'llanilayotgan tushunchalar, konsepsiyalarning o'zgarishiga olib keladi. Modernizatsiya jarayoni XVIII asrda boshlangan. Inson faoliyatiga ilmiy hamda muhandislik bilimlarning kirib kelishi va ulardan keng miqyosda foydalanish mahsulidir.

Modernizatsiya - biror narsani yangilash, unga zamonaviy tus berish, uni zamonaviy talablarga muvofiq o'zgartirish. Modernizatsiyada mashina, apparat, turli texnologik qurilmalar, muhim kashfiyotlar texnika taraqqiyoti talablariga muvofiq qayta ishlanadi.

Jamiyatda huquqiy ong va huquqiy madaniyatni yuksaltirishning asosiy vazifalari:

aholiga mamlakatimizda amalga oshirilayotgan ijtimoiy-iqtisodiy islohotlar, qabul qilinayotgan qonun hujjatlari va davlat dasturlarining mazmuni va mohiyatini izchil yetkazish tizimini shakllantirish, fuqarolar ongida "Jamiyatda qonunlarga hurmat ruhini qaror toptirish - demokratik huquqiy davlat qurishning garovidir!" degan hayotiy g'oyani mustahkamlash;

jamiyatda huquqiy ong va huquqiy madaniyatni yuksaltirishda, eng avvalo, ta'lim-tarbiyaning tizimli va uzviy ravishda olib borilishiga alohida e'tibor qaratish, maktabgacha ta'lim tizimidan boshlab, aholining barcha qatlamlariga

huquqiy ong va huquqiy madaniyatni chuqur singdirish, shaxsiy manfaatlar hamda jamiyat manfaatlari o'rtasidagi muvozanatni saqlash g'oyalarini keng targ'ib qilish;

yosh avlod ongiga huquq va burch, halollik va poklik tushunchalarini hamda odob-axloq normalarini chuqur singdirib borish, Konstitutsiyaning muhim jihatlari ularga bolaligidan boshlab o'rgatish;

aholi o'rtasida huquqiy madaniyatni shakllantirish bo'yicha huquqiy-ma'rifiy tadbirlarni xalqimiz tarixi, dini, milliy qadriyatlarini o'rgatish bilan uyg'un holda tashkil qilish, shuningdek, har bir fuqaroda davlat ramzlari bilan faxrlanish tuyg'ularini shakllantirish orqali mamlakatga daxldorlik, vatanparvarlik hissinı kuchaytirish;

davlat xizmatchilarining huquqiy ongi va huquqiy madaniyatini yuksaltirib borish, ularda korruptsiya va boshqa huquqbuzarliklarga nisbatan murosasizlik munosabatini shakllantirish;

davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari, shu jumladan, huquqni muhofaza qiluvchi organlar hamda fuqarolik jamiyati institutlarining manzilli huquqiy targ'ibotni amalga oshirish borasidagi o'zaro hamkorligini mustahkamlash;

jamiyatda huquqiy ong va huquqiy madaniyatni oshirishga doir tadbirlarni tashkil etishda ijtimoiy sheriklik prinsiplaridan keng va unumli foydalanishni tizimli asosda yo'lga qo'yish;

ommaviy axborot vositalarining huquqiy axborot bilan ta'minlashdagi rolini oshirish, huquqiy targ'ibotning innovatsion usullaridan keng foydalanish, shu jumladan, veb-texnologiyalarni qo'llashni kengaytirish;

yuridik ta'limni takomillashtirish, shuningdek, yuridik kadrlarni tayyorlash, qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish tizimini rivojlantirish;

jamiyatda huquqiy ong va huquqiy madaniyatni yuksaltirishning ilmiy asoslarini chuqur tadqiq etish.

"Yuksak huquqiy madaniyat — mamlakat taraqqiyoti kafolati" degan konseptual g'oya asosida aholining barcha qatlamlari huquqiy savodxonlikka erishishlari, yuksak darajadagi huquqiy ongga ega bo'lishlari hamda huquqiy bilimlarini kundalik hayotda qo'llay olishlari uchun tizimli va keng qamrovli huquqiy targ'ibot tadbirlarini tashkil qilish davlat organlari va tashkilotlarning ustuvor vazifalaridan biri etib belgilangan. Belgilab qo'yilganki, jamiyatda huquqiy ong va huquqiy madaniyatni yuksaltirish "shaxs — oila — mahalla — ta'lim muassasasi — tashkilot — jamiyat" prinsipi bo'yicha tizimli va uzviy tashkil etilmoqda.

Jamiyatda huquqiy ong va huquqiy madaniyatni yuksaltirib borish qonun ustuvorligini ta'minlash va qonuniylikni mustahkamlashning eng muhim shartlaridan biri hisoblanadi.

So'nggi yillarda milliy huquq tizimini tubdan isloh qilish, jamiyatda huquqiy madaniyatni shakllantirish hamda malakali yuridik kadrlarni tayyorlash borasida sezilarli ishlar amalga oshirildi.

Shu bilan birga, inson huquq va erkinliklariga hurmat munosabatini shakllantirishga, aholining huquqiy ongi va huquqiy madaniyatini yuksaltirishga, jamiyatda fuqarolarning huquqiy savodxonligi darajasini oshirishga to'sqinlik qiluvchi bir qator muammo va kamchiliklar saqlanib qolinmoqda. Xususan:

birinchidan, jamiyatda huquqiy ong va huquqiy madaniyatni yuksaltirish ishlari tizimli va uzviy tashkil etilmayapti. Jamiyatda, oilada, mahallada, ta'lim muassasalarida va tashkilotlarda huquqiy axborotlarni yetkazishning ta'sirchan mexanizmi mavjud emas. Shaxsiy manfaatlar hamda jamiyat manfaatlari o'rtasidagi muvozanatni ta'minlash g'oyalari aholi, ayniqsa, davlat xizmatchilari ongiga yetarli darajada singdirilmayapti;

ikkinchidan, uzluksiz ta'lim tizimida ta'lim jarayonlari huquqiy tarbiya bilan uyg'un olib borilmayapti, aholi, ayniqsa, yoshlarning huquqiy madaniyatini shakllantirishda o'zbek xalqining tarixi, dini, urf-odatlar, milliy qadriyatlariga tayanilmayapti;

uchinchidan, huquqiy madaniyatni yuksaltirishga doir tadbirlarni tashkil etishda nodavlat notijorat tashkilotlari va fuqarolik jamiyatining boshqa institutlari bilan samarali hamkorlik tizimi yaratilmagan, ijtimoiy sheriklik prinsipi asosida ishlar tashkil etilmagan;

to'rtinchidan, yoshlarning huquqiy tarbiyasiga salbiy ta'sir ko'rsatuvchi omillarga nisbatan huquqiy immunitetni shakllantirishning aniq maqsadli chora-tadbirlari belgilanmagan;

beshinchidan, jamiyatda manzilli huquqiy targ'ibot tadbirlarini tashkil etishda va amalga oshirishda davlat organlari va boshqa sohaviy xizmatlarning faol ishtiroki ta'minlanmayapti, bu borada yuqori natijadorlik va samaradorlik ko'zga tashlanmayapti;

oltinchidan, huquqiy tadbirlar hamon an'anaviy usullarda, oddiy uchrashuvlarni o'tkazish yo'li bilan amalga oshirilmoqda, bu borada targ'ibotning innovatsion usullaridan, shu jumladan, veb-texnologiyalardan foydalanilmayapti, huquqiy yo'nalishdagi veb-saytlar yetarli emas;

yettinchidan, huquqiy savodxonlikni oshirishga qaratilgan loyihalarni rag'batlantirishning huquqiy mexanizmlari mavjud emas, bu borada tadbirlar nomigagina tashkil etilmoqda, huquqiy bilimlarni yuksaltirish bo'yicha huquqiy adabiyotlarni chop etish va tarqatish, ilmiy izlanishlarni olib borish ishlari samarasiz amalga oshirilmoqda.

Jamiyatda huquqiy madaniyatni yuksaltirishdagi mavjud muammo va kamchiliklar "Yuksak huquqiy madaniyat — mamlakat taraqqiyoti kafolati" degan g'oya ostida Jamiyatda huquqiy madaniyatni yuksaltirish konsepsiyasini qabul qilish va amalga oshirishni taqozo etmoqda.

ADABIYOTLAR

1. Saydullayev Sh. Davlat va huquq nazariyasi. Darslik. – Toshkent TDYU, 2018.
2. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. -T.: 2020.
3. Jamiyatda huquqiy ong va huquqiy madaniyat tizimidan tubdan takomillashtirish to'g'risidagi PF. T. 2019.
4. Amirov Z. "Huquqiy xabardorlikni oshirish huquqiy ong va madaniyatni yuksaltirish vositasi sifatida" // Jamiyat va boshqaruv –2015. №3
5. Jamiyatda huquqiy madaniyatni yuksaltirish bo'yicha tadbirlarni monitoring qilish va baholash to'g'risida Nizom. 2019-yil 20-aprel. (<https://lex.uz/ru/docs/4300837>)
6. Utamuradov A., Khojiev, T., Isanova, G., & Khaytmetov, R. (2020). The Prospects of a New template of the Modernization Uzbekistan. Jour of of Adv Research in Dynamical & ControlSystems, 2(12), 2670-2676.